2025-yil, oktabr 17(63)-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

ISSN 2021-9752

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802



1938-yil 4-oktabr kuni o‘zbek xalqining eng oldi ma’rifatparvarlari, ziyolilari, olimlari va davlat arboblariga hukm o‘qildi va ularning aksariyati otib tashlandi. Vatan va millat uchun jon fido qilgan o‘zbek xalqining buyuk farzandlari xotirasi oldida bosh egaylik.



DOLZARB MAVZU

Dildora KENJAYEVA,
Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, professor v/b
dildora.kenjayeva.2020@gmail.com.



GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY TARBIYA TIZIMINING STRATEGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada globallashuv jarayonida milliy tarbiya tizimining strategik ahamiyati tahlil qilingan. Unda milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, maqolada mutafakkirlarning pedagogik g'oyalarini ta'lim - tarbiya jarayonida foydalanish texnologiyasi, ularni bugungi davr talablariga moslab foydalanish imkoniyatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, mutafakkirlar, pedagogik, g'oya, jarayon, texnologiya.*

Аннотация: в статье анализируется стратегическое значение системы национального воспитания в условиях глобализации. Освещаются вопросы сохранения национальных ценностей, воспитания молодёжи как гармонично развитой личности и их сочетания с современными педагогическими подходами. Кроме того, в статье раскрываются технологии использования педагогических идей мыслителей в образовательном процессе и возможности их адаптации к требованиям современности.

Ключевые слова: *образование, воспитание, мыслители, педагогика, идея, процесс, технология*

Annotation: the article analyzes the strategic importance of the national education system in the context of globalization. It highlights the issues of preserving national values, educating young people as well-rounded individuals, and integrating these with modern pedagogical approaches. In addition, the article presents the technologies of applying the pedagogical ideas of thinkers in the educational process and explores the possibilities of adapting them to contemporary requirements.

Key words: *education, upbringing, thinkers, pedagogy, idea, process, technology*

Bugungi globallashuv davrida dunyo mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborot aloqalarining keskin jadallashuvi insoniyat hayotining barcha jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Jahon taraqqiyoti bilan hamnafas bo'lish jarayonida milliy qadriyatlar, madaniyat va tarbiya tizimining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Zero, globallashuvning ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi salbiy ta'sirlari ham mavjud bo'lib, ular milliy o'zlikni yo'qotish, yoshlar ongiga begona g'oyalar kirib kelishi kabi xavflarni yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolada globallashuv jarayonida milliy tarbiya tizimining strategik ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan yoritilib, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, mutafakkirlarning pedagogik merosini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish hamda ularni zamon talablariga moslashtirish imkoniyatlari ilmiy tahlil qilinadi.

Mutafakkirlarning ilmiy va ma'naviy merosi ta'lim va tarbiya sohalarida barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalar insoniyat ma'naviyati, axloqiy qadriyatlari va ilmiy yutuqlariga asos bo'lgan. Masalan:

Abu Nasr Forobiy – ta'lim jarayonini insonning ma'naviy va intellektual kamoloti uchun asosiy vosita deb hisoblagan. U mantiqiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Ibn Sino – tibbiyot va falsafa sohasidagi ishlari orqali tajriba va kuzatish metodlarining



ahamiyatini ta’kidlagan. U ta’lim jarayonida ilmiy tadqiqotlarga asoslanishni targ‘ib qilgan.

Badiiy adabiyotning buyuk namoyandalaridan biri Alisher Navoiy asarlarida komil inson mavzusiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Navoiyning butun ijodi komil inson targ‘ibiga qaratilgan. Uning deyarli barcha asarlarida darvesh, orif insonlar axloqi haqida fikrlari bor. Uning hatto mafkuraviy asarlari hisoblangan “Nasoyim ul-muhabbat” va “Lison ut-tayr” da ham darveshlar siyrati hamda xulq-atvor va javonmardlik xususiyatlari ta’rif-tavsif etiladi.

Shuni unutmaslik kerakki har qanday taraqqiyot, insonlardagi bilim, intellektual imkoniyatlar va yaratuvchanlik faoliyatlari mahsulidir. Shuning uchun ham hozirgi kunda insonlardagi intellektual imkoniyatlarni maksimal ishga solish sohasidagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim o‘z oldiga qator vazifalarni qo‘ymoqdaki, bular o‘z navbatida ta’lim jarayonini tubdan yangilashga nisbatan bir qancha vazifalarni yuklaydi. Jumladan:

– yoshlar o‘zlarining ijod qobiliyatini qonuniy me’yor orqali boshqara olishi va bu jarayondagi faoliyatini yuqori cho‘qqiga ko‘tarish;

– shaxs estetikasi va intellektining yuqori bosqichga yetishdagi obyektiv va subyektiv birliklardagi ziddiyatli ta’sir omillari;

– o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘z-o‘zini takomillashtirish va boshqarish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanish katta imkoniyatlarga ega.

Alloma mavjud fanlarning barchasini o‘rganish inson uchun g‘oyatda foydali ekanligini uqtiradi va bu borada amaliy harakatlarni tashkil etadi. Chunonchi, o‘zi tashkil etgan “Ixlosiya” madrasasi yonida maktab ochadi, uni o‘z vaqfidan mablag‘ bilan ta’minlaydi. Ta’lim oluvchilardan ilm o‘rganishda qattiq intizom talab etadi. Shuningdek, qobiliyatli shaxsni tarbiyalamaslik, uning qobiliyatini rivojlantirmaslik zulm bilan tenglashtiriladi: “Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir, qobiliyatsizga tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, bunga tarbiyangni nobud qilma” [4, 134].

Alloma tarbiyada namuna metodini ma’qullagan. Bu borada o‘qituvchi va ota-ona namunasi birinchi o‘ringa qo‘yilgan bo‘lsa-da, tarbiyada jismoniy jazoni qoralagan. Bolaga xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lish, lekin qattiqqo‘llikda ham, xushmuomalalikda ham me’yor bo‘lishini alohida ta’kidlagan.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy o‘qituvchilarni talabchan va o‘z kasbining bilimdoni bo‘lishga undagan, tarbiya masalasiga jiddiy e’tibor bergan. Mutafakkirning fikricha, bilim olishda uzluksizlikni ma’qullab, bilim beruvchi ustoz – murabbiylarning o‘zlari ham ma’lumotli, o‘qitish usullarini chuqur egallagan bo‘lishlarini talab etadi. Johil, mutaassib, nodon domlalarni qoralab, o‘qituvchi mehnatining og‘irligini alohida ta’kidlaydi. Madrasa mudarrislarining fozil, dono, kamtar, ma’naviy pok insonlar bo‘lishini istaydi va shunday bo‘lishi uchun kurashadi.

Ta’lim-tarbiya samaradorligiga erishish maqsadida maktab va madrasalarda ana shu talablarga rioya etilgan, talabalarda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan jihatlarni tarbiyalash uchun “Tarbiyai fikriya”, “Tarbiyai tafakkuriya”, “Tarbiyai ixlosiya” kabi metodlar qo‘llanilgan, ular talabalarni fikrlashga o‘rgatib, tafakkurlarini rivojlantirib, bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini oshirgan. Shuningdek, tafakkurni rivojlantirishda samarali bo‘lgan ilmiy munozara, sharhli

o‘rganish, muammolarni hal etish, kuzatish, savol-javob, bilimlarni sinash, ko‘rgazmali tajriba kabi uslublar qo‘llanilgan.

Har bir o‘qituvchi talabalarga umumiy bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularni san’at va muammoli masalalarni yechish sirlari bilan ham tanishtirib borganlar.

Demak, Alisher Navoiyning pedagogik qarashlarida shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan quyidagi sifatlar: aqliy kamolot (bilim, zakovat va uquvga ega bo‘lish); axloqiy kamolot; jismoniy yetuklik; go‘zallikni his etish va o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z ustida ishlash kabilar ko‘zda tutilgan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

Mutafakkirlarning asarlari va g‘oyalari zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi yo‘nalishlarda tatbiq etilishi mumkin.

1. **Ta’lim dasturlarini boyitish:**

– Forobiy ta’lim falsafasi asosida axloq va mantiq fanlarini o‘qitish dasturlarini ishlab chiqish;

– Ibn Sinoning ilmiy metodologiyasini tabiiy fanlar, xususan, biologiya va kimyo fanlarining laboratoriya mashg‘ulotlariga joriy etish;

2. **Tarbiya jarayonida badiiy asarlardan foydalanish:**


– Alisher Navoiyning ijodini tahlil qilish orqali talaba va o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish;

– mutafakkirlar asarlaridan foydalangan holda axloqiy dilemmalarni muhokama qilish va rolli o‘yinlar tashkil etish;

3. **Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash:**

– Mutafakkirlarning hayoti va asarlarini virtual ekskursiyalar orqali o‘rganish imkonini beruvchi raqamli platformalar yaratish;

– audio va video darslar yordamida ularning asarlarini o‘quvchilarga yaqindan taqdim etish.



4. **Seminar va treninglar tashkil qilish:**

– pedagoglar uchun mutafakkirlar g‘oyalari bo‘yicha maxsus seminar va treninglar o‘tkazish.

– ota-onalar uchun mutafakkirlarning tarbiya haqidagi qarashlarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha maslahatlar berish.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutafakkirlar merosi zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimini boyituvchi beqiyos manbadir. Ularning g‘oyalari yosh avlodning intellektual salohiyati va ma’naviy barkamolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, mutafakkirlarning ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish, uni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ulardan ta’lim jarayonida eng zamonaviy metod va usullar bilan uyg‘un holda maqsadga muvofiq foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki jamiyatning ma’naviy yuksalishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. 7-yanvar 2017-yil.

2. Деркач А.А. Акмеология: личностьи и профессиональные развитие человека: Методолого – прикладные основы акмеологического исследования. – М., 2000.

3. Kenjayeva D. Barkamol shaxs tarbiyasi asoslari. – T.: Fan, 2010. 67-b.

4. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003. 224-b.

Zuxro AKBAROVA,
FarDU professori, filologiya fanlari doktori;
Shoxsanam KARIMOVA,
FarDU erkin tadqiqotchisi

IKKI TILLI (BILINGVAL) BOLALAR NUTQIGA NEYROPSIXOLINGVISTIK YONDASHUV

Annotatsiya: mazkur maqolada ikki tilli (bilingval) bolalar nutqining neyropsixolingvistik jihatlari yoritilgan. Maqolada bilingvalizmning asosiy turlari — simultanne va sekvensial bilingvalizm tushuntirilgan hamda ular orasidagi neyropsixologik farqlar tahlil qilingan. Shuningdek, fMRI, EEG, ERP va ABR kabi zamonaviy neyropsixolingvistik tadqiqot usullari orqali bilingval bolalar nutqini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *bilingvalizm, ikki tillilik, neyropsixolingvistika, bolalar nutqi, kognitiv rivojlanish.*

Аннотация: в данной статье раскрываются нейропсихолингвистические аспекты речи билингвальных детей. В статье объясняются основные типы билингвизма — одновременный и последовательный, а также анализируются нейропсихологические различия между ними. Кроме того, приводятся результаты исследований речи билингвальных детей с использованием современных нейропсихолингвистических методов, таких как fMRI, EEG, ERP и ABR.

Ключевые слова: *билингвизм, двуязычие, нейропсихолингвистика, речь детей, когнитивное развитие.*

Annotation: this article explores the neuropsycholinguistic aspects of bilingual children’s speech. The paper explains the main types of bilingualism — simultaneous and sequential — and analyzes the neuropsychological differences between them. It also presents findings from studies of bilingual children’s speech using modern neuropsycholinguistic methods such as fMRI, EEG, ERP, and ABR.

Key words: *bilingualism, bilinguism, neuropsycholinguistics, children’s speech, cognitive development.*

Bugungi globallashuv jarayonda tillararo muloqot ehtiyoji kundan-kunga ortib bormoqda. Insoniyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida har bir jamiyat vakili kamida ikki tilni bilish zaruratiga duch kelmoqda. Shu sababli, ko‘plab bolalar kichik yoshdan boshlab ikki yoki undan ortiq tilni o‘rganishga majbur bo‘lmoqda. Bu jarayon ilmiy adabiyotlarda ***bilingvalizm*** deb ataladi.

Bilingvalizm shaxsning nafaqat til bilish ko‘nikmalariga, balki uning kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy integratsiyasi, hatto shaxsiy identifikatsiyasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bilingval bolalarning nutqiy faoliyatini o‘rganishda neyropsixolingvistika fani muhim o‘rin tutadi. Chunki neyropsixolingvistika til o‘rganish, nutq hosil qilish va uni tushunish jarayonlarini miya faoliyati bilan bog‘lab tahlil qiladi.

Ikki tillilik va uning neyropsixologik xususiyatlari bo‘yicha ko‘plab olimlar izlanish olib borgan. E. Lenneberg tilni egallashda “kritik davr gipotezasi”ni ilgari surib, yosh omilining hal qiluvchi ahamiyatini ko‘rsatgan [1: 177]. N.V. Imedadze bolalarda bilingvizmning bosqichlarini tahlil qilib, 1–3 yosh oralig‘ida “bir shaxs – bir til” tamoyilining samarali ekanini ilmiy asoslab berdi [2:46].

S. Romaine esa ikki tillilikning sotsiolingvistik turlarini tasniflab, ota-onaning tili, jamiyatning dominant tili va oilaviy muhitga qarab 6 xil bilingvizm shaklini ajratib ko‘rsatgan[3:112]. F. Grosjean bilingval shaxs nutqidagi kod almashtirish strategiyalarini[4:55], M. Paradis esa birinchi va ikkinchi tilning miyada qay tarzda saqlanishini neyropsixolingvistik yondashuv asosida tahlil qilgan [5:98-102].

N.Sh. Aleksandrova erta ko‘p tillilikning salbiy oqibatlarini qayd etib, bola miyasi uch yoshgacha ikki tilni bir vaqtda to‘liq egallashga tayyor emasligini ko‘rsatgan [6:75]. G.N. Chirshova esa erta bilingvizmning ijobiy kognitiv ta’sirlarini, jumladan fonematik eshitish va tafakkur moslashuvchanligini rivojlantirishini ta’kidlagan[7:25].

Neyropsixologik tadqiqotlarda ham tilni kech va erta o‘zlashtirishdagi farqlar aniqlangan. Masalan, Vaid & Hall hamda Kim, Relkin, Lee & Hirsch kech bilingvizmda birinchi va ikkinchi tilning miyada turlicha lokalizatsiya qilinishini ko‘rsatib bergan. [8:171]

Bilingvalizm — shaxsning ikki tilni turli darajalarda faol qo‘llay olishi demakdir. Tilshunoslikda quyidagi turlar ajratiladi:

Simultanne bilingvalizm – bola tug‘ilganidan boshlab ikki til muhitida ulg‘ayib, ikkisini ham bir vaqtda o‘zlashtiradi. Masalan, ota-onasi turli millatdan bo‘lgan oilalarda tarbiyalangan bolalar.

Sekvensial bilingvalizm – bola dastlab ona tilini egallaydi, keyinchalik esa boshqa ijtimoiy muhit ta’sirida ikkinchi tilni o‘rganadi. Masalan, o‘zbek oilasida tarbiyalangan bola maktabda rus tilini keyinchalik egallashi.

Neyropsixolingvistika nuqtayi nazaridan bu ikki turdagi bilingvalizm o‘rtasida muhim farqlar mavjud. Simultanne bilingvallarda ikkala til bir vaqtning o‘zida miya neyron tarmoqlarida kodlanadi, sekvensial bilingvallarda esa birinchi til asosiy baza sifatida shakllanib, ikkinchi til unga tayanadi.

Neyropsixolingvistik yondashuv va metodlar.

Bilingvalizmni neyropsixolingvistik jihatdan o‘rganishda bir nechta zamonaviy usullar qo‘llaniladi:

fMRI (Functional Magnetic Resonance Imaging) – tilni idrok etish va ishlab chiqishda qaysi miya qismlari faol bo‘lishini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, simultanne bilingval bolalarda miya yarim sharlarida til markazlari kengroq faollashadi.

EEG va ERP (Electroencephalography, Event-Related Potentials) – tovushlarni farqlash va fonologik sezgirlikni baholashda ishlatiladi. Masalan, 6–8 oylik bilingval chaqaloqlarda til tovushlarini ajratish jarayoni monolingval tengdoshlariga qaraganda samaraliroq bo‘lishi aniqlangan.

Auditory Brainstem Response (ABR) – nutq tovushlari (masalan, “ba” va “ga”) o‘rtasidagi neyron reaksiyalarni tahlil qilish imkonini beradi. Krizman (2014) tadqiqotida simultanne bilingvallar tovushlarni tezroq va aniqroq farqlay olishi kuzatilgan.

Bu usullar yordamida bolalardagi bilingvalizm nafaqat til darajasida, balki miya faoliyatida ham chuqur iz qoldirishini ilmiy asosda isbotlash mumkin.

Neyropsixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, birinchi til va ikkinchi til miyada qanday saqlanishi va qayta ishlanishi bolaning yoshiga bog‘liq holda turlicha bo‘ladi. Uch yoshgacha bo‘lgan davrda tilni egallash jarayoni asosan tabiiy muloqot asosida kechadi va har ikki tilning neyron tarmoqlari bir-biridan ajralmagan holda shakllanadi. Shu sababli bola ikkinchi tilni ona tilidek erkin o‘zlashtira oladi.

Biroq 7–10 yoshdan keyin o‘rgatiladigan tilning neyropsixologik mexanizmlari boshqa jarayonlarga asoslanadi. Bu davrda yangi til ko‘proq ongli ravishda o‘rganiladi va miyada birinchi til bilan solishtirganda boshqa neyron strukturalarda qayd etiladi. Shu sababli kattaroq yoshda o‘zlashtirilgan til nutqda aksent, grammatik xatolar yoki sekinroq so‘z tanlash ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin[6].

Erta bilingvizm bolaning tafakkuri va metalingvistik qobiliyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta bilingval bolalar fonematik eshitish, nutqiy moslashuvchanlik va tafakkurda moslashuvchanlik bo‘yicha monolingvallardan ustun bo‘lishadi [7].

Bundan tashqari, ikki tilda o‘qigan bolalar muammoli vaziyatlarda ijodiy yechim topishda ham faolroq bo‘ladilar. Ammo bu jarayon noto‘g‘ri tashkil etilsa, salbiy oqibatlar ham kuzatilishi mumkin. Ayrim olimlar ta’kidlaganidek, erta ikki tillilik ba’zan birinchi tilni to‘laqonli shakllantirish jarayonini sekinlashtirishi yoki til aralashmalariga sabab bo‘lishi mumkin [6]

Bunday muammolar asosan migratsion oilalarda yoki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yetarli bo‘lmagan muhitda yuzaga chiqadi.

Ikki tillilik faqat neyropsixologik jarayon emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa hamdir. Masalan, o‘zbek jamiyatida bolalarning ko‘p tilda muloqot qilishi, ayniqsa, o‘zbekcha va ruscha tillardan foydalanishi keng tarqalgan. Bunday sharoitda oiladagi til muhiti, maktabdagi ta’lim tili va ijtimoiy muhit bola nutqining rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘ladi [7].

Shuningdek, ingliz tilining global kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rni ortib borayotgani o‘zbek maktablarida bilingval ta’lim tizimini yanada muhim qilmoqda. Ikki tillilik nafaqat bola tafakkurini boyitadi, balki uning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bilingval bolalar nutqini neyropsixolingvistik yondashuv asosida o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega Bilingvizmning neyropsixologik xususiyatlari bolaning yoshiga, ijtimoiy muhitiga va ta’lim strategiyalariga bog‘liq holda turlicha namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

Simultanne bilingval bolalarda fonologik sezgirlik va kognitiv ustunlik yuqoriroq;

Sekvensial bilingvallarda interferensiya kuchliroq bo‘lsa-da, ular ham to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash orqali ikki tilni mukammal egallashlari mumkin;

Neyropsixolingvistik usullar (fMRI, EEG, ABR) til o‘rganish jarayonida miya faoliyatining qanday kechishini aniqlab berishda muhim vosita hisoblanadi.

Erta bilingvizm bolaning fonematik eshitish va metalingvistik qobiliyatlarini rivojlantiradi, biroq noto‘g‘ri sharoitda til kompetensiyasida zaiflik keltirib chiqarishi mumkin. Kech bilingvizm esa ongli ravishda, izchil ta’lim asosida muvaffaqiyatli shakllanishi mumkin. Shu sababli, bilingval bolalarni ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlash, ularning nutq rivojlanishidagi neyropsixolingvistik xususiyatlarni hisobga olish nafaqat ularning til ko‘nikmalarini, balki umumiy intellektual salohiyatini ham yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lenneberg, E. (1967). Biological Foundations of Language. New York: Wiley. — p. 176–180.
2. Имедадзе, Н.В. (1979). Психолингвистические аспекты двуязычия у детей. Москва. — с. 45–52.
3. Romaine, S. (1999). Bilingualism. 2nd Edition. Blackwell Publishing. — p. 112–120.
4. Grosjean, F. (2010). Bilingual: Life and Reality. Harvard University Press. — p. 55–60.
5. Paradis, M. (2004). A Neurolinguistic Theory of Bilingualism. John Benjamins. — p. 98–105.
6. Александрова, Н.Ш. (2003). Раннее многоязычие: психолингвистический анализ. Москва. — с. 73–80.
7. Чиршева, Г.Н. (2000). Ранний билингвизм и когнитивное развитие. — с. 25–30.
8. Kim, K.H.S., Relkin, N.R., Lee, K.-M., & Hirsch, J. (1997). Distinct cortical areas associated with native and second languages. Nature, 388(6638), 171–174.

Okila TURAKULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish kafedrasi dotsenti, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
shahrizodf@mail.ru

KITOBXONLIKNING MILLIY IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI

Annotatsiya: ushbu maqolada kitobxonlikning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati, uning milliy identiklikni shakllantirishdagi o‘rni va roli yoritiladi. Kitob mutolaasi orqali talabalarda tarixiy xotira, milliy g‘urur, madaniy qadriyatlarga hurmat hissi kuchayishi hamda milliy o‘zlikni anglashning ilmiy-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *kitobxonlik, milliy identiklik, milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, adabiyot va tarbiya, o‘zlikni anglash, milliy tafakkur, yoshlar tarbiyasi, globallashuv, madaniy meros, o‘zbek adabiyot.*

Аннотация: в данной статье освещается значение чтения в жизни личности и общества, его место и роль в формировании национальной идентичности. Посредством чтения книги у студентов укрепляется историческая память, национальная гордость, уважение к культурным ценностям, а также анализируются научно-психологические механизмы национального самосознания.

Ключевые слова: *чтение, национальная идентичность, национальные ценности, духовное наследие, литература и воспитание, самосознание, национальное мышление, воспитание молодежи, глобализация, культурное наследие, узбекская литература.*

Annotation: this article highlights the importance of reading in the life of the individual and society, its place and role in shaping national identity. Through reading the book, students’ historical memory, national pride, respect for cultural values are strengthened, and the scientific and psychological mechanisms of national self-awareness are analyzed.

Key words: *reading, national identity, national values, spiritual heritage, literature and education, self-awareness, national thinking, youth education, globalization, cultural heritage, uzbek literature.*

Bugungi globallashuv jarayonida milliy identiklikni saqlab qolish va mustahkamlash davlat taraqqiyoti hamda yosh avlod tarbiyasida dolzarb masalaga aylanmoqda. Milliy o‘zlikni anglashning eng muhim vositalaridan biri bu – kitobxonlik madaniyatidir**.** Kitob inson tafakkurini kengaytiradi, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy merosni anglashga yordam beradi. Shu bois Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatparvar jamiyat” g‘oyasining markazida ham kitobxonlikni targ‘ib qilish masalasi turadi.

Jahon miqyosida bugungi kunda yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, ularning faol kitobxon bo‘lishiga erishishda ijtimoiy institutlarning rolini oshirish, mutolaa sohasida dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet-texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mutaxassislar bolaning rivojlanishiga, unda kitobga qiziqishni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni tashqi va ichki deb ajratadi. Tashqi omillarga jamiyat va ijtimoiy institutlar (akademik litsey, kutubxona, dam olish maskanlari) kiradi. Ichki omillar bola shaxsining individual xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlashtiriladi. Bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari kitob o‘qishga qiziqishining shakllanish shart-sharoitlari sifatida ko‘rinadi. Bolaning kitobxon bo‘lib ulg‘ayishida oilaning, ota-onaning o‘rni beqiyos ekanligini buyuk allomalarimizdan boshlab to bugungi tadqiqotchilarimizgacha – barchasi isbotlab bergan.

Masalan, olima B.I.Ganiyeva bolada o‘qish madaniyatini tarbiyalashda oilaning asosiy vazifalari quyidagilar deb ko‘rsatadi:

1. O‘z farzandlarida barcha axborot manbalariga bo‘lgan qiziqishni, jumladan, kitob o‘qishga, kutubxonalarga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otish.
2. Mavzu jihatidan rang-barang, turli-tuman manbalarga boy bo‘lgan shaxsiy oilaviy kutubxona tashkil etish.
3. Oila a’zolarining yoshiga, qiziqishlariga, intellektual salohiyatiga mos adabiyotni tanlab o‘qishni o‘rgatish.
4. O‘z farzandlarini kitoblardan foydalanish qoidalari bilan tanish-tirib borish va bu orqali bolalar o‘qishini to‘g‘ri tashkil etish, ularning bo‘sh vaqtlarini taqsimlashda faolliklarini oshirish[2; 26.]

Talabalar o‘qishiga rahbarlik qilish faoliyatida o‘qish madaniyatini tarbiyalash kutubxona ish faoliyatining tarkibiy qismini tashkil etadi. Talabalar o‘qishiga rahbarlik qilish bu – doimo unda kitobga qiziqishni uyg‘otish, kitob tanlay bilishni o‘rgatish, o‘qigan narsasini tushunishga yordam berishdir[3;26].

B.I.Ganiyeva “kutubxona mustaqil ravishda kitob tanlashni, shu kitob-dan bilim olish yo‘llarini, o‘qilgan

narsalar haqida fikr yuritishni va unga tanqidiy qarashni, shu bilan barcha kitoblarni tartibli ravishda o‘qishni o‘rgatadi”[2;26.] - deydi.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillardan biri – badiiy kitob o‘qish, mutolaaga ko‘nikma, malaka hamda madaniyatini shakllantirish (rivojlantirish) davlat siyosati darajasida hal etiladigan, shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etuvchi masala darajasida olib boriladigan ishlardir. L.N.Tolstoyning pedagogik g‘oyalarida o‘qish ta’lim olish usuli sifatida qaraladi: “Men bolalar xalqchil kitoblarni, ya’ni hikoyalar, maqollar, qo‘shiqlar to‘plami, afsonalar, she’rlar, topishmoqlarni ko‘proq o‘qishni xohlashini tushundim”[5; 980] , – deydi.

Kitobxonlik va milliy identiklik tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, milliy identiklik – bu insonning o‘z millati, tili, madaniyati va qadriyatlariga daxldorlik hissini anglashidir. Kitobxonlik esa – shu jarayonni ongli va izchil tarzda rivojlantiruvchi, milliy ongni boyituvchi asosiy manba hisoblanadi. Badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar orqali shaxs o‘z milliy ildizlariga qaytadi, o‘zini millatning bir bo‘lagi sifatida his qiladi. Milliy identiklik insonning o‘z xalqiga mansubligini anglash, tarixiy ildizlari, tili, dini, madaniyati va qadriyatlarini teran idrok etishi orqali shakllanadi. Shu jarayonda kitobxonlikning o‘rni beqiyosdir. Zero, kitob inson tafakkurini kengaytirish, estetik didni shakllantirish va milliy o‘zlikni anglashning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Birinchidan, adabiy merosni o‘rganish orqali milliy o‘zlik mustahkamlanadi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi – dostonlar, ertaklar, maqol va matallar, shuningdek, yozma adabiyot namunalari yosh avlod qalbida milliy g‘ururni uyg‘otadi. Masalan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari yoki Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi adiblarning asarlarini o‘qish orqali o‘quvchi milliy qadriyatlarni chuqur anglaydi. Ikkinchidan, kitobxonlik milliy tafakkurni shakllantirish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Kitob orqali inson o‘z xalqining tarixi, urf-odati, mentaliteti va dunyoqarashini o‘rganadi. Bu esa milliy o‘zlikni mustahkamlab, yosh avlodning global jarayonda ham o‘zligini yo‘qotmasdan rivojlanishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, kitobxonlik ijtimoiy ongni yuksaltirish va milliy birlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Kitob orqali jamiyat a’zolari umumiy tarix va qadriyatlar atrofida birlashadi. Natijada milliy o‘zlikni anglash nafaqat individual, balki ijtimoiy darajada ham mustahkamlanadi. To‘rtinchidan, zamonaviy kitobxonlik jarayoni globallashuv sharoitida milliy identiklikni asrashning kafolati hisoblanadi. Dunyo axborot oqimi cheksiz bo‘lgan davrda milliy qadriyatlarga asoslangan adabiyotlarni keng targ‘ib etish yoshlarning begona g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligini, o‘z xalqiga xos ma’naviy fazilatlarni qadrlashini ta’minlaydi. Shuningdek, kitobxonlik jarayonida tanqidiy va tahliliy tafakkur shakllanadi. Badiiy asarlar tahlili talabani chuqur fikrlashga, o‘z xalqining tarixi va hozirgi zamonini solishtirishga, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini anglashga yo‘naltiradi. Bu esa milliy identiklikni ongli ravishda idrok etish imkonini beradi.

Talabalarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish uchun “mutolaa madaniyati” komponentlarini yaxshi bilish o‘ta muhimdir.Talabalarning mutolaa madaniyatiga ega bo‘lishi kitobga qiziqish, o‘qish, kitob o‘qish, kitob o‘qish metodlari va shakllari, mutolaa madaniyati kabi tushunchalarni o‘zlashtirishiga bog‘liq.

Talabalarning mutolaa madaniyatini rivojlantirishning muhim omillariga kitob o‘qishga qiziqishlari, kitobni tanlay olishi, kitob o‘qish madaniyati, oiladagi kitobxonlik, oilada shaxsiy kutubxonaning mavjudligi, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning kitobxonlik va mutolaa madaniyatini shakllantirish bo‘yicha olib boriladigan ishlar kabilarni kiritish mumkin.

Shunday qilib, muammo doirasida o‘rganilgan maxsus adabiyotlar tahlili kitobxonga kitobga qiziqishini shakllantirishda ko‘plab ijtimoiy-pedagogik omillar ta’sir etishi ko‘rsatdi. Ularning orasidagi eng muhim omillar qo‘yidagilar:

– kitob o‘qish madaniyati yuqori jamiyat;

– ommaviy axborot vositalari (televideniye, Internet);

– shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish ijtimoiy-madaniy muhiti sifatida oila;

– ta’lim muassasalari;

– ta’lim muassasalari kutubxonalari va bolalar kutubxonalari;

– tengdoshlari, do‘stlari, o‘rtoqlari;

– ommaviy o‘qishni tashkil etish bo‘yicha o‘tkazilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar.

Kitobxonlik – milliy identiklikni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. U nafaqat shaxsiy dunyoqarashni kengaytiradi, balki yoshlarning milliy ongini mustahkamlaydi, jamiyatda ma’naviy uyg‘unlikni kuchaytiradi. Shu sababdan, ta’lim tizimida kitobxonlikni rivojlantirish, milliy adabiyot va tarixiy asarlarni keng targ‘ib qilish O‘zbekiston kelajagi uchun dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 08.09.2025 yildagi PQ-277-son Qarori

2. Chiniyeva S.A. O‘zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o‘smirlar madaniyatini shakillantirish. – T., 2006.

3. Ganiyeva B.I. Kutubxonalarda bolalar o‘qish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari: Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss. – T., 2008.160-b.

4. Iqbol Mirzo. Kitobsiz kelajak yo‘q! // Turkiston. - 2017. 28-iyun.

5. Толстой Л.Н. Круг чтения. Афоризмы и наставления. – М.: Академия, 2013.980 с.

Shahrizoda QO‘ZIYEVA,
UrDU magistranti.
Alisher Navoiy va Islom Karimov nomli davlat stipendiyalari sohibasi
PhD sari qadam loyihasi 3-mavsum ishtirokchisi

O‘ZBEKISTONDAGI ENG YIRIK ILMIY LOYIHA
(“PhD sari qadam”)

Inson ong va tafakkur mahsuli. Tafakkur esa o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan jarayon emas. U olgan ilmlar, o‘qilgan kitoblar natijasida yuzaga kelib, amaliyotga tatbiq etilsagina boyib boradi. Ilm olish sabr bilan bir qatorda takrorlashni ham talab etadi. Keyingi yillarda yurtimizda ilm olish, kitob o‘qishga bo‘lgan talab ortib borayotgani quvonarli holat. Ilm va ilmiy yo‘lni birlashtirib, unga qiziqish bildirayotganlar endilikda ayol-qizlarni ham tashkil etayotgani asl qahramonlik. Bu olimalik sari eltuvchi, ilmiy izlanish olib boruvchi va eng hayratlanarlisi oila hamda ilmni uyg‘unlashtirib, har ikkala mas’uliyatni kichik jussasiga ortib, uddalayotgan, muvaffaqiyatga erishayotgan ayol-qizlarni – qahramonlarni yuzaga chiqarayotgan “PhD sari qadam” yo‘li.

“PhD sari qadam” loyihasi Yoshlar ishlari agentligi hamda Respublika yosh olimlar kengashi tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, loyiha bugungi kunda 12 ta davlat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Bu esa loyihaning naqadar manfaatli va nufuzli ekanligidan darak, nazarimizda. Ushbu loyiha doirasida ko‘plagan ayol-qizlar ilmiy tadqiqot ishlariga qiziqish bildirdilar. Loyiha esa ularning ilmiy salohiyatini oshirishga, ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ayni damda “Phd sari qadam” loyihasi 3-mavsumi start oldi. 1000ga yaqin talabgorlar loyihada ishtirok etish istagini bildirdilar. Ulardan 120 nafari loyihada ishtirok etish uchun saralab olindi. Tanlov uch bosqichda tashkil etildi:

– *ariza yuborish;*
– *saralash;*
– *suhbat.*

Suhbat jarayonlari oxirgi bosqich bo‘lib, unda 5 nafar hay’at a’zolari saralab olingan ishtirokchilarning notiqlik san’ati, erishgan yutuqlari va maqsadlariga qarab baholadilar. Loyihada ishtirok etish yosh chegarasi 25 yoshdan 40 yoshgacha qilib belgilandi. Barcha talablarga mos bo‘lgan talabgorlar loyihaga qabul qilindi va rasman loyiha g‘oliblari deb e’lon qilindi. Har bir g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarga miqdori 11 million so‘mni tashkil etadigan grantlar ajratildi. Bu esa professional ustozlar tomonidan ilm olishimizga zamin yaratdi. Shu asnoda, loyiha darslari 6 modul asosida shakllantirildi:



1. *Ilmiy tadqiqot metodologiyasi;*
2. *Ilmiy ish yangiligini loyihalash;*
3. *Ilmiy ishni to‘g‘ri rasmiylashtirish va adabiyotlar bilan ishlash;*
4. *Tadqiqotchining notiqlik san’atini shakllantirish;*
5. *Himoya jarayonlariga psixologik tayyorgarlik;*
6. *Amaliyot bosqichi.*

Har bir ishtirokchi kun tartibiga amal qilgan holda yuqoridagi modul asosida shakllantirilgan dars jarayonlarida ishtirok etdilar. Shuningdek, darslarni filologiya fanlari doktori (DSc), professor Nilufar Abduraxmonova, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Zokir Zamonov, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Aziz Zikriyoyev, pedagogoka fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Nazokat Yusufjonova, PhD Charos Mirxoliqova hamda filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Dilfuza Abbosovalar yuqori saviyada olib bordilar. Haqiqiy ilm yuqumli, qachonki ilmni sevuvchilar davrasida bo‘lsang. Loyiha davomida ishtirokchilar guruhlarga ajratildi va rahbarlar tayinlandi. Har bir lektor dars jarayonlaridan tashqari, o‘zlariga berkitilgan guruhlar bilan turli semenar-treninglarni ham olib bordilar. Bu esa ustoz va shogirdlik aloqalarini yanada mustahkamladi. “PhD sari qadam” loyihasi doirasida ustozlardan biz:

- ❖ *Ilmiy etika qoidalari: kiyinish, imidj*
- ❖ *Ilmiy etikaning asosiy tamoyillari:*

1. *Halollik;*
2. *Plagiatga qarshi kurash;*
3. *Manbalarni to‘g‘ri ko‘rsatish;*
4. *Mualliflik huquqiga hurmat;*
5. *Eksperimentlar va tahlil natijalarining haqqoniyligi;*
6. *Neytrallik va xolislik;*
7. *Mas’uliyat;*

- ❖ *Shaxsiyat ilmga aralashmasligi;*
- ❖ *Ilmiy maqola yozish ko‘nikmalari;*
- ❖ *Matematik statistik tahlil;*
- ❖ *Nutqni to‘g‘ri shakllantirish;*
- ❖ *Tadqiqot ishini me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish;*
- ❖ *Ilmiy loyihalar yaratish* ko‘nikmalarini to‘laqonli o‘rgandik.



“PhD sari qadam” tashkiliy jamoasi tomonidan loyiha ishtirokchilari ilmiy ko‘nikmalar bilangina cheklanib qolmasligini ta’minlash maqsadida turli konferensiyalar, davra suhbatlari, davlat tashkilotlari hamda muzeylarga sayohatlar ham uyushtirildi. Bu esa loyiha ishtirokchilari orasida do‘stona munosabat, fikr almashish, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Jumladan, O‘zbekiston Ekologik partiyasi markaziy kengashida Respublika yosh olimlar kengashi bilan hamkorlikda “Ekologik muammolar yosh olimlar nigohida” mavzusida davra suhbati olib borildi. Tadbirda Respublika yosh olimlar kengashi raisi Sayyora Saidova so‘zga chiqib, loyiha ishtirokchilari bilan birgalikda atrof-muhitga e’tibor va ekologik madaniyatni oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanini alohida ta’kidlab o‘tdi. Ishtirokchilar ham o‘zlarining fikr-mulohazalarini ochiq bayon etib, fikr almashdilar. Keyinchalik esa, loyiha qatnashchilari Oliy majlis qonunchilik palatasida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etdilar. Bu esa, yoshlarning ilmiy va ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularni amaliy siyosiy jarayonlarga keng jalb etishga xizmat qiladi. “Fikrlar bahslarda toblanadi”, – shioriga amal qilgan holda yosh olimalar “Zakovat” arenasida zakovat-intellektual o‘yinida jamoaviy kuch sinashdi. Zakovat o‘yini ishtirokchilarning bilim darajasi, fikrlashi, salohiyati va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini yanada oshirdi



desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va keng targ‘ib etish maqsadida olimalar mashhur eronlik tilshunos olim, til va ta’lim professori Reza Pishgadam hamda Kolumbiya universitetining ilk o‘zbek professori Aziza Shonazarova bilan uchrashib, ularning ilm yo‘lidagi muvaffaqiyatli yo‘li, ilmiy tadqiqot ishi uchun zarur ko‘nikma va maslahatlarni oldilar. Mustaqillik bayrami arafasida esa, ishtirokchilar senat binosida senatorlar bilan uchtrashdilar. Tadbirda prezidentimiz rahbarligida “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida olib borilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati, erishilgan va kutilayotgan natijalar yuzasidan fikr almashdilar. Loyiha qatnashchilari “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, – deya muzeylarga ham sayohat qilishdi. Bilamizki, muzeydagi har bir narsa tarixga guvoh. Tarixdan so‘zlovchi, uning butun ruhiyatini jonlantiruvchi vosita.

Ilm bu – ummon. Ilmiy yo‘l esa, ummon qirg‘og‘i. Shunday ekan, qirg‘oqqa yetish uchun, avvalo, ummonni kechib o‘tish talab etiladi. Bu yo‘l esa, mashaqqatli, tikonli va ayni damda muvaffaqiyatli hamdir. Nilufar Abduraxmonova aytganlaridek, hamma ham ilm yo‘lini tanlolmaydi. Ilm yo‘liga kirdingmi, tavozeni mahkam ushla. “Ilmda, avvalo, tavoze kerak”.

Xulosa qilib aytganda, Ilmiy yo‘lning mashaqqatiga qaramasdan, katta maqsadlar qo‘ya olish, oila va ilmni bir tekisda olib bora olishni isbotlagan va minglab ayol-qizlarnining “ayollar oila bilan olimalikni uddalay olmaydi” kabi fikrlarini parchalab yuborgan, o‘zining shijoati, ilmi, liderlik qobiliyati bilan O‘zbekistondagi eng yirik ilmiy – “PhD sari qadam” loyihasiga qo‘l urgan Nilufar Matkarimovani haqiqiy o‘zbek qahramon olima ayoli desak, ayni muddao bo‘ladi. “PhD sari qadam” loyihasi ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar har bir ayol-qizning ilm yo‘lidagi kichik xatti-harakatlarini ham yuksak baholaydi va unga amaliy ko‘mak beradi. Ilmiy yo‘l endi orzu emas. Ilmiy yo‘l endi xayol emas. Ilmiy yo‘l endi – Haqiqat!

“PhD sari qadam” yirik ilmiy loyihasi ana shu haqiqatlar jamlanmasidir!



TILSHUNOSLIK

Sharifa ISKANDAROVA,
Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasi professori,
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Odina AXMADALIYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi magistranti

POETIK MATNDA ARABCHA O‘ZLASHMALARNING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zlashma so‘zlar, asosan, arabcha o‘zlashmalar haqida mulohazalar yuritiladi. Ibrat ijodida uchraydiga ayrim arabcha leksemalar semantik va leksik tomondan tahlilga tortiladi.
Kalit so‘zlar: *leksik-semantik, o‘zlashma so‘zlar.*
Annotation: this article focuses on loanwords, primarily those of Arabic orign. Some Arabic lexemes found in the work Ibrat will be analyzed lexically and semantically.
Key words: *lexical-semantic, loanwords*.
Аннотация: в етой статье несколько слов в основном обсуждаются арабские сокрашения Некоторье арабские лексемь встречаюшиеся впроизведении. Ибрата анализируются с семантической и лексической точки зрения.
Ключевье слова: *лексико - семантические сокрашения.*

Kirish. Dunyodagi barcha tillar o‘zga tildan so‘zlarni qabul qilish jarayonida kengayadi. Shuning uchun ham dunyoda bironta ham sof til mavjud emas. Amaldagi til ikki xil usulda lug‘at tarkibini kengaytiradi. Bulardan birinchisi , o‘z qatlam, ya’ni o‘z ichki imkoniyatlaridan: masalan, shevalardan so‘z olish natijasida kengayishi mumkin. Ikkinchisi esa, tashqi manba hisoblanib, chetdan kirgan so‘zlar hisobiga lug‘at boyligini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xalqaro munosabatlar, iqtisodiy-siyosiy va madaniy aloqalar natijasida bir tildan ikkinchi tilga so‘zlar olinadi va lug‘at tarkibiga joylashib, ana shu tilning qonun-qoidalariga moslashadi. Bunday jarayonlarning ahamiyati haqida atroflicha bahs-munozaralar olib borilmoqda. Bunday hodisalar bir necha yuz yillardan beri tilshunoslarning diqqat markazida e’tirof etilmoqda. O‘zbek tili taraqqiyotida o‘zga millatlarning lisoniy ta’siri, xususan, lug‘at qatlamida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tiliga tashqi manbalardan, asosan, arabcha, forscha-tojikcha va Ruscha- international so’zlar kirib, o’zlashib qolgan. Professor Fattoh Abdullayevning “Til qanday rivojlanadi?” risolasida ko‘rsatilishicha, o‘tgan asrning yigirmanchi yillarida tuzilgan bir lug‘atdagi so‘zlarning 28,6% arabcha, 16,9% tojikcha, 4,7% ruscha-internatsional, 50,3% asli o‘zbek so‘zlaridan iborat bo‘lgan.

R.A.Budagov lug‘aviy o‘zlashmalarning o‘z tildagi shakli bilan so‘z qabul qilgan tildagi shakli 8 funksional qiymat bilan munosabatga kirishi haqida fikr bildiradi. Bu fikrni o‘zbek tilidagi arabcha so‘zlar tabiati ham to‘la tasdiqlaydi:

1. Arab tilida konkret ma’noda ishlatiladigan lug‘aviy birlik o‘zbek tilida mavhum ma’no bildiradi, sohib– ega, ayyom– kunlar, mavj– to‘lqin;

2.Arab tilida jins ma’nosida ishlatiluvchi so‘z o‘zbek tilida tur ma’nosida qo‘llanadi, murabbo– marmalad, ayol– bola-chaqa, oila;

3.Arab tilida bir ma’noda ishlatilgan so‘z o‘zbek tilida polisemantik xarakter kasb etadi, masalan, bisot;

4.Arab tilidagi otdan o‘zlashgan ba’zi so‘zlar o‘zbek tilida uslubiy muqobiliga ega bo‘lmaydi. Masalan, anhor, anqo, ariza, aruz;

5. Arab tilida noarxaik tavsifdagi lug‘aviy birlik o‘zbek tilida arxaiklashgan bo‘ladi. Masalan, qozi, firqa, hikmat;

6. Arab tilida lug‘aviy mustaqillikka ega bo‘lgan so‘z o‘zbek tilida lug‘aviy mustaqilligini inkor etadi. Masalan, almisoqdan beri;

7. Arab tilida lug‘aviy birlik ba’zan o‘zbek tilida so‘z tavsifida bo‘ladi. Masalan, lisoniy, lug‘aviy, sifat, fe’l, taqriz;

8.Arab tilida so‘z holida ishlatiluvchi birlik o‘zbek tilida so‘z birikmasi tarkibida qo‘llaniladi. Masalan, nazar solmoq, afv etmoq, xayol surmoq, bahridan o‘tmoq.

Arab tilidan so‘z o‘zlashtirish VIII asrdan boshlab, IX-X asrlargacha faollashgan. Arab tilidan so‘z o‘zlashtirilishiga olib kelgan sabablar ichida quyidagilari muhim ahamiyat kasb etadi:

a) Arablar istilosi;
b) islom dinining keng tarqalishi;
c) arab yozuvining qo‘llanila boshlanganligi;
d) Madrasalarda arab tilining o‘qitilishi;
e) Turkiy arab tilining tarkib topganligi;
f) Olimlarning arab tilida ijod qilganligi.

Arab tili deyarli 300 yil davomida o‘zbek, tojik va boshqa bir qator xalqlar uchun umumadabiy tillik vazifasini bajargan [1.165].

Natija va muhokama. Arab tili va adabiyotining sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi orasida keng yoyilishining o‘zi muhim omillardan biridir. Islom mazhabi, arab tili va adabiyoti o‘sha paytda arab so‘zlarining o‘zbek tiliga kirib kelishi xilma-xil bo‘lganligi kabi uning semantik tuzilishidagi o‘zgarishlar ham turlicha hisoblanadi.

T.I.Rahmonov o‘zining ilmiy ishida o‘zlashma so‘z semantik tuzilishi 3xil ekanligini aytib o‘tgan:

1. So‘z ma’nolarining kengayishi.
2. So ‘z ma’nolarining torayishi.
3. So ‘z ma’nolarining ko ‘chishi.

Etib ko‘b xalqni majruhu ma’dum,
Qo‘lida **tasbeh**u oqi hamoyil.
(Ibrat)

Ushbu baytda bir nechta arabcha so‘zlar ishtirok etgan. Masalan, majruh– bu arabcha majruh(un) shakliga ega; o‘zbek tiliga cho‘ziq u unlisi y unlisiga, xoyu xutti undoshini x undoshiga almashtirib qabul qilingan; Macruh-majruh, asli “jismoniy shikast yetkazdi” ma’nosini anglatuvchi caraha fe’lining I bob majhul nisbat sifatdoshi bo‘lib, “jarohatlangan”, “nogiron”, “mayib” ma’nolarini anglatadi. Hozirgi zamon o‘zbek tilida ham bu so‘z xuddi mana shu semalari bilan ifodalanib kelinmoqda. Tasbeh – bu arabcha so‘z tasbih(un) shakliga ega; o‘zbek tiliga cho‘ziq i unlisi e unlisiga, xoyi xutti undoshi x undoshiga almashtirib qabul qilingan: tasbih–tasbeh; ko‘p ma’noli sabaha fe’lining “maqtadi” ma’nosi bilan hosil qilingan II masdari bo‘lib, asli “maqtov” ma’nosini anglatadi. Subxon ollo! Maqtov so‘zlari maxsus miqdorda ipga tizilgan munchoqlarni birma-bir ayirib aytilgani uchun bu so‘z keyinchalik “maxsus miqdorda ipga tizilgan munchoqlar” ma’nosini anglatish uchun ishlatiladigan bo‘lgan[2.426]. O‘zbek tilida ham tasbeh so‘zi duolar va ibodat so‘zlarini hisoblab borish maqsadida ishlatiladigan munchoqlar shodasi hisoblanadi. Tasbeh so‘zining kelib chiqish tarixi uzoqqa borib taqaladi. “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam bir ayolning oldiga kirdilar, u paytda ayol danak yoki mayda toshlarni sifatida ishlatib ollohu duo, zikr keltirayotgan ekan, shunda U zot “Men senga undan oson yoki afzal narsaning xabarini beraman , deb zikrni ko‘p takrorlash va uni qo‘ldan boshqa narsa bilan ham sanash mumkinligini aytganlar”. Mana shu ma’noni anglatish maqsadida mashhur muhaddis imom Abu Dovud o‘z kitobida “mayda tosh bilan tasbeh aytish” bobini yaratgan. Mana shu voqealardan keyin bizda “tasbeh” nomini olgan, arabcha “ subha” deb nomlanadigan danak yoki dumaloq narsalarni ipga tizib yaratiladigan narsa paydo bo‘lgan. Boshqa bir hadis kitoblarida, tasbeh namozdan tashqari holatlarda Allohga ko‘p martalab zikr aytish jarayonida ishlatilishi kerakligi haqida ham ma’lumotlar uchraydi, shunday qilib musulmon xalqi mana shunday tasbehlarni yasab foydalanganlar.

Bizdan odob usul etmang umid,
Odami qishloqidurmiz uch kishi.
(Ibrat. Hikoyati uch kishi)

Ushbu parchadagi odam so‘ziga diqqat qarataylik. Odam so‘zi lug‘atimizga arabchadan kirib kelgan. O‘TILda ushbu so‘zga shunday ta’rif beriladi: ar– Odam Ato; inson. Fikrlash, so‘zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson. Odam leksemasini semalarga ajratamiz: 1. Kishilik jamiyatining bir vakili. 2. Tarbiya ko‘rgan, yaxshi xislatlarga ega insonga el orasida “odam bo‘lgan” iborasi qo‘llaniladi. 3. Oila a’zolarning har biriga nisbatan. Masalan: Odam boshiga uch so‘mdan.

Ishq ichra chu man kibi nasibi,
Yori soridin jafo bo‘lubdur.
(Ibrat. Bo‘lubdur)

Yuqoridagi ish so‘zi asli arabcha hisoblanib, Sh.Rahmatullayevning o‘zbek tilining etimologik lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: bu arabcha so‘z ьisq(un) shakliga ega; o‘zbek tiliga kasrali ayn tovushini i tovushiga almashtirib qabul qilingan: ьisq-ishq. Bu so‘z “sevdi” ma’nosini anglatuvchi asiqa fe’lidan hosil qilingan I bob masdari bo‘lib, “sevgi”, “kuchli moyillik” ma’nolarini anglatadi. Haqiqatdan ham ishq so‘zi inson ruhiyati bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Ishq ikki xil tasnif qilinadi; biri ishqi haqiqiy, ya’ni bandaning Allohga bo‘lgan haqiqiy ishqi. Masalan, Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhoddagi ishq haqiqiy ishqdir. Ikkinchisi majoziy ishqdir, bunda ikki qarama-qarshi jins vakillarining bir-biriga muhabbat qo‘yishi sanaladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, olib borilgan kichik tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashma so‘zlar o‘zbek tili lug‘at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Tilimizda ishlatilayotgan faol so‘zlarning kelib chiqishini o‘rganish va tadqiq etish jarayoni o‘tgan asrdan buyon tilshunos olimlarning diqqatini tortib kelmoqda. Bu mavzu yuzasidan ko‘plab ilmiy ishlar yaratilgan. Shunday ekan, millatimizning ulkan va bebaho boyligi hisoblangan ona tilimizning so‘z boyligini oshirishda qaysi tillar o‘z ta’sirini o‘tkazganligini aniqlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent,1981.
2.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent,2003.
3.Kaye, A.S.(Ed).Semantic Studies in Honor of Wolf Leslau. – Wiesbaden: OttoHarrassowitz,1987.
4.Qayumov A. Lug‘aviy so‘zlar tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi,1983.
5.Abdurahmonov G‘. O‘zbek tilida arabcha so‘zlar. – Toshkent: Fan,1995.

Vasila KARIMOVA,
Qo‘qon DU f.f.f.d., dotsent

AYOL VA ERKAK NUTQIDA QARG‘ISH: STRUKTUR, SEMANTIK VA PRAGMATIK TAHLIL

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tilidagi qarg‘ishlarning struktur, semantik va pragmatik jihatlari gender nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Ayollar va erkaklar nutqidagi qarg‘ishlarning qo‘llanish doiralari, shakllanish usullari va emotsional-ekspressiv xususiyatlari qiyosiy o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollar nutqidagi qarg‘ishlar ko‘proq hissiy boylik va maishiy vaziyatlarga xos bo‘lsa, erkaklar nutqida ularning ijtimoiy maqom, sha’n va g‘ururni himoya qilish bilan bog‘liq pragmatik funksiyasi ustunlik qiladi. Shuningdek, maqolada qarg‘ishlarning struktur modellari, semantik yadrosi va lingvopragmatik vazifalari izohlangan.

Kalit so‘zlar: *qarg‘ish, gender, ayol nutqi, erkak nutqi, semantika, pragmatika, emotsional-ekspressivlik.*

Аннотация: в статье проанализированы структурные, семантические и прагматические аспекты ругательств в узбекском языке с точки зрения гендера. Сравнительно исследованы сферы использования, способы формирования и эмоционально-экспрессивные особенности ругательств в женской и мужской речи. Результаты исследования показывают, что ругательства в женской речи чаще связаны с эмоциональным богатством и бытовыми ситуациями, тогда как в мужской речи их прагматическая функция преимущественно направлена на защиту социального положения, чести и гордости. Также в статье объясняются структурные модели ругательств, их семантическое ядро и лингвопрагматические функции.

Ключевые слова: *ругательство, гендер, женская речь, мужская речь, семантика, прагматика, эмоционально-экспрессивные особенности.*

Annotation: the article analyzes the structural, semantic, and pragmatic aspects of curses in the Uzbek language from a gender perspective. The study comparatively examines the usage domains, formation patterns, and emotional-expressive features of curses in women’s and men’s speech. The findings indicate that curses in women’s speech are more associated with emotional richness and everyday situations, whereas in men’s speech their pragmatic function predominantly serves to protect social status, honor, and pride. The article also explains the structural models of curses, their semantic core, and their linguistic-pragmatic functions.

Key words: *curse, gender, women’s speech, men’s speech, semantics, pragmatics, emotional-expressive features.*

Qarg‘ishlar xalq og‘zaki nutqining muhim janrlaridan biri bo‘lib, salbiy emotsiyalarni ifodalash vositasi sifatida qadimdan mavjud. Ularning qo‘llanilishi ijtimoiy-madaniy jarayonlar, milliy mentalitet va jamiyatning axloqiy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, ayol va erkak nutqida qarg‘ishlarning shakli, mazmuni va qo‘llanish konteksti turlicha bo‘lishi gender nutqiy xususiyatlarining yorqin ko‘rinishidir.

Epideyktik nutq omma oldida so‘zlanadigan tantanavor nutq, biror hodisa yoki kishiga nisbatan munosabat bildirish bo‘lib, ular odatda, yubileylarda, bayramlarda, boshqa tantanali tadbirlarda qo‘llanadi deb ta’rif beriladi. Ammo epideyktik nutqning maqsadini adresatda ma’lum emotsional holatni, quvonch-g‘azab, xursandchilik-xafagarchilik kabi emotsiyalarni hosil qilish uchun ishlatiladi deb aytiladi. Demak, epideyktik janrlarga faqat ijobiy tantanavor nutqlar emas, balki adresatda salbiy emotsiyalarni hosil qilish uchun ham ishlatilishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, qarg‘ishlar ham epideyktik janrlardan biridir.

Ayol va erkak nutqidagi qarg‘ishlar tuzilishida umumiylik bilan bir qatorda farqlar ham mavjud. Ayollar nutqida qarg‘ishlar ko‘pincha qisqa va emotsional kuchga ega bo‘lgan frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan: *“ko‘zing ko‘r bo‘lsin”*, *“uying barbod bo‘lsin”*. Erkaklar nutqida esa struktur jihatdan kengroq, murakkabroq shakllar uchraydi: *“nasling qurib bitsin”*, *“boshingga kulfat yog‘ilsin”*. Bu holat erkaklar nutqidagi qarg‘ishlarning ko‘proq ijtimoiy va dramatik ta’sirga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Qarg‘ishlar ma’lum chegaraga yetganda ogohlantirish, po‘pisa qilish, qo‘rqitishdan keyin yuzaga chiqadi. Kundalik hayotda ogohlantirish, po‘pisa qilish, qo‘rqitish doimiy holatdir, ayniqsa erkak kishilar nutqida. Ayollar o‘z nutqida qarg‘ishlardan ko‘p foydalanadi, erkaklar esa chegaradan o‘tganda qarg‘ashi mumkin. Masalan:

Mana bir haftadirki, Qo‘shtepa qishlog‘idagilarning og‘zida bir gap:

– Endi nima bo‘ladi?

– Boyoqish qiz... Bu yog‘iga qandoq yashaydi?

– Bularni bari tasodifan ro‘y bermagani aniq. Kimningdir qasdi bo‘lgan bularda, yo qizda, yo birorta oila a’zolarida.

– E qasd olmay juvonmarg bo‘lsin! Odam degan ham shunchalik xudobexabar, tuban bo‘ladimi? Guldek qizning hayotiga zomin bo‘ldi-ya bu itlar? Qiz boyaqishni elning, yurtning ko‘zida yurgiligi qolmadi?

– Ota sho‘rlik Madumar kuyib ketganidan qassob pichog‘ini changallab “O‘sha ifloslarni kimligini bilsam “Kindigidan to bo‘g‘zigacha tiliklab tuzlayman” deb o‘tirganmish. (Internet materiallaridan)

Ushbu misolda ayollar nutqiga xos qarg‘ish berilgan: *E qasd olmay juvonmarg bo‘lsin!* Erkaklar nutqida bunday qo‘llanmaydi. *“Kindigidan to bo‘g‘zigacha tiliklab tuzlayman”* degan jumla esa erkak kishiga xosdir. Bu holatda po‘pisa qilish yoki qo‘rqitish emas, balki qasd qilishni bildiradi.

Insonlardagi salbiy emotsiyalar, his-tuyg‘ular, yomon niyatlar nutqiy vaziyatga qo‘pol, haqoratli so‘zlar orqali yuzaga chiqadi. Yuqoridagi misolda *juvonmarg bo‘lsin, xudobexabar, tuban, itlar, ifloslar* kabi haqoratli so‘zlar ishlatilgan. Ko‘rinadiki, bunday matnlar bilan ishlashda hissiy-emotsional tuyg‘ular ifodalangan til vositalariga alohida e’tibor berish zarur bo‘ladi. A.N.Leontyev aytganiday, bu hissiy-emotsional tuyg‘ular inson faoliyati motivlari asosidagi ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Aytish mumkinki, qarg‘ishlarda haqoratli so‘zlarning ishlatilishi tabiiy hol hisoblanadi.

Tilshunoslikda qarg‘ishlarning struktur-grammatik va semantik, pragmatik hamda til xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor berilgan. Jumladan, qarg‘ishlarning ayollar nutqidagi til xususiyatlari o‘rganilgan (L.X.Dzasejeva). Ammo erkaklar qarg‘ish nutqlari alohida obyekt sifatida hali o‘rganilmagan. Erkaklar nutqidagi qarg‘ishlarning ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Qarg‘ishlarning semantik yadrosi asosan, salbiy oqibatlarga qaratilgan bo‘lib, ular hayotiy muhim qadriyatlarga bog‘liq tushunchalar orqali shakllanadi. Ayol nutqidagi qarg‘ishlar odatda, maishiy hayot bilan bog‘liq bo‘lib, farzand, oila va kundalik turmush atrofida aylanadi: *“bolangdan ayrilgin”*, *“uyingdan fayz qochsin”*. Erkak nutqida esa qarg‘ishlar sha’n, g‘urur va ijtimoiy mavqega zarar yetkazishga yo‘naltiriladi: *“nomusing bulg‘ansin”*, *“qadring yo‘qolsin”*.

Pragmatik nuqtayi nazardan, qarg‘ishlar nutqiy akt sifatida kommunikativ vazifani bajaradi. Ayollar nutqida ular ko‘proq hissiy portlash, ichki dard yoki norozilik ifodasi sifatida qo‘llanadi. Erkaklar nutqida esa qarg‘ishlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita, raqibni kamsitish yoki o‘z ustunligini ko‘rsatish maqsadida ishlatiladi. Bu farqlar qarg‘ishning ijtimoiy-psixologik vazifasini genderga xos tarzda ko‘rsatib beradi.

Onaning farzandlarining quloqsizligi tufayli salbiy emotsional reaksiyasi nutqiy muloqot doirasida bo‘ladi. Ko‘pincha otasi bilan qo‘rqitishadi: “Hali dadang kelsin, bir adabingni bersin” kabi. O‘zbek mentalitetida ota-onani haqorat qilishi odob doirasiga kirmaydi. Bu o‘rinda o‘zbeklarda qaynonaning roli muhim. Qaynona-kelin munosabati doimiy muammo hisoblanadi. Lekin ayrim hollarda qaynotalar ham salbiy emotsiyalarni bildirishi mumkin va bu holat odatiy holatdan ko‘ra kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

Nasiba opaning kalovlanganicha bor edi. Tohir aka bu to‘yga avval boshdan qarshi edi. Tohir akaga qolsa o‘g‘li baxtli bo‘lsa bo‘ldi edi-yu, ammo ammasi...

Tohir akaning ota-onasi olamdan bevaqt o‘tib ketishganida shu - Gulandon ammasi boqib olgandi. U Tohirni o‘z farzandlaridan ortiq ko‘rsa ko‘rdi-ki, aslo kam ko‘rmadi…

Cholidan keyin amma ham “aynidi”. Halimdek yumshoq va yuvosh ayol rostmanasiga “qaysar pari”ga aylandi U miyasiga kelib qolgan fikr o‘ziga ma’qul keldimi, bo‘ldi, atrofidagilarga shu fikrini, taklifini o‘tkazmasdan qo‘ymaydigan kajbaxs kampirga aylandi. Gulandon amma qarindoshchilik rishtalarini mustahkamlash uchun Botirga nabirasi Ra’noni uzatmoqchi edi. Ammaning orzusiga Botir tushmagurning bemavrid muhabbati pand berib qo‘ydi. Nasiba kelinning birinchi bor Shodiyalarnikiga sovchilikka borib “quruq qo‘l” bilan qaytganidan boxabar bo‘lgan, Amma Ra’noni tezda kelin qilasan deb oyoq tirab turib olganda, Botir Rossiyaga qochib qutilgandi …

Bari gapni miridan-sirigacha surishtirib olgan Amma “Botir o‘sha it iskagan qovundan voz kechmasa, mani buvi demasin” deb shart qo‘ydi. Amma holidan har kuni xabar oladigan Tohir akani ham tinch qo‘ymadi. Alal - oqibat Tohir aka Shodiyani yomon ko‘rib qoldi.

Qarindosh-urug‘lar o‘zaro kelishib, Botirning to‘yi bo‘lganini Ammadan yashirishga qaror qildilar.

Hammadan qiyin Tohir akaga bo‘lgan edi. Shu sababli Tohir aka erta sahardan kelin-salomgayam qo‘l siltab uydan chiqib ketgandi. Shu ketgancha u ...

Oradagi dilxiralik ertasi kuniyam tarqalmadi. Ertalabki nonushta vaqti Toxir aka yangi kelin Shodiyaning salom berib uzatgan choyini “Valeee” dedi-yu, do‘q etib stolga qo‘ydi. Uzatgan choyiga

nisbatan ko‘rsatilgan bu “marhamat”dan Shodiya esankirab qoldi. (Xazonrezgi.Zulmat asirasi)

Ushbu matnda “aynidi”, “qaysar pari”, “*it iskagan qovun*” kabilar ammaning salbiy emotsiyasini bildiradi. Qaynotaning “*qo‘l siltab uydan chiqib ketgandi*”, *“Valeeey”, “marhamat”* kabilar esa kelinga nisbatan haqorat tarzida norozilikni ifodalash uchun ishlatilgan.

Qarg‘ishlar, K.F. Sedov aytganday, adresat ichki nutqining tashqariga chiqish natijasida yuzaga keladi. Bunda so‘zlovchi o‘zining salbiy emotsiyalarini tashqariga chiqaradi va natijada asablarni tinchitadi. Qarg‘ish kuchli norozilik, ba’zan noqulaylik mavjud bo‘lgan vaziyatda ishlatiladi. Qarg‘ish ko‘p holatda yomonlik tilab emas, balki asabiy holatdan qutilish maqsadida ishlatiladi, ayniqsa, ayollarda. Masalan,

Amma shunday deya turib birdan yelkalari silkinib yig‘lab yubordi:

– Bolam, meni xudo urib qo‘yibti, menginani xudoyim urib qo‘ygan ekan. Bu kunimdan o‘lganim yaxshi .

Tohir akaning badtar taajjubi ortdi, Ammasining yig‘laganini ko‘rib yuraklari achishib ketdi:

– Amma, jon amma, yig‘lamang. Nima gap o‘zi, bafurja tushuntirib bering …

– So‘rama bolam , asti so‘rama . Boya soat o‘nlarda qo‘shnimiz Habibaxon uch-to‘rt ayolni chaqirib mavlud o‘qituvdi. O‘sha yerda Habibaxonning katta opasi: “Ammaposhsha, axiri qiyomatli dugonangiz bilan quda bo‘libsiz-da”, desa angrayib qolibman. “Qudalarim ko‘p, hozir qaysi birini aytyapsiz desam, “Tohirjoningiz o‘g‘liga Ruqiyangizni nabirasini olib bergan-ku, o‘shani aytyapman”, deb qoldi. Bu so‘zlarni eshitib ko‘z o‘ngim qop-qorong‘i bo‘lib ketdi. Xullas, bu yog‘ini so‘rasang Ruqiyaning qizi Botirjonga qaynona bo‘lgan ekan.

Ushbu misolda ayol bo‘lgan voqea yuzasidan tushkun kayfiyatga tushganligi, buning natijasida birovni emas o‘zini qarg‘agani ko‘rinadi. Bu holatda ayollar narsalarni, hayvonlarni ham qarg‘ashi mumkin. Ayol kishi yig‘i bilan ichki hissiyotlarini tashqariga chiqaradi, asabiy taranglikni bo‘shatadi. Yig‘i ayol kishining turli vaziyatlardan chiqish qurolidir. Erkak kishida esa bunday qurol bo‘lib haqorat so‘zlar ishlatiladi. Masalan:

G‘azabga mingan odam tutoqaveradi, so‘kaveradi, sen esa boshingni egib olib uning yetti pushtini ichingda o‘qiyverasan. “Onangni!” deydi u, “onangning onasini qo‘shib…” deysan sen. “Haromi!” deydi u, “o‘zing itdan tug‘ilgansan” deysan sen. Shu holda davom etaveradi. Senda yaxshi. Dilingdagini ovoz chiqarib aytding nima-yu ichingda aytding nima? (Tohir Malik. Shaytanat)

Ayol va erkak nutqidagi qarg‘ishlar struktur, semantik va pragmatik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ayollar nutqida qarg‘ishlar ko‘proq maishiy hayot va hissiy tajriba bilan bog‘liq bo‘lsa, erkaklar nutqida ular ijtimoiy mavqeni belgilash, sha’n va g‘ururni himoya qilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Qarg‘ishlarning bu jihatlarini chuqur o‘rganish gender lingvistikasi va xalq og‘zaki ijodi tadqiqotlarida dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. – Oxford: Clarendon Press.

2.Lakoff, R. (1975). *Language and Woman’s Place*. – New York: Harper & Row.

3.Labov, W. (1972). *Language in the Inner City: Studies in the Black English Vernacular*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press.

4.Leech, G. N. (1983). *Principles of Pragmatics*. – London: Longman.

5.Tannen, D. (1994). *Gender and Discourse*. – New York: Oxford University Press.

6.Karimov, A. (2018). *O‘zbek xalq og‘zaki ijodida til va madaniyat*. – Toshkent: Fan nashriyoti.

7. XazonRezgi (Official Channel)

8. Седов К.Ф. Речевая агрессия и агрессивность как черта речевого портрета // Социальная психолингвистика/ Сост. К.Ф.Седов. – М., 2007.

9.Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции. – М., 1971. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М., 1972.

10.Дзасежева Л.Х. Женские проклятия в кабардинском языке// Межкультурная конференция: теория и практика обучения. – Нальчик, 2005.

Nilufar ALIBOYEVA,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, PhD
nilufarmuhammadjanovna2405@gmail.com

RASMIY USLUBNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: rasmiy uslub (yoki rasmiy-huquqiy uslub) – bu tilning funksional uslublaridan biri bo‘lib, asosan huquqiy, ma’muriy va siyosiy sohalarda qo‘llaniladi. Bu uslub til birliklarining maxsus tanlovi, maqsadga yo‘naltirilganligi, aniqligi va normativligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada uning lingvistik xususiyatlari fonetik, leksik, morfologik va sintaktik darajalarda namoyon bo‘lishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *ilmiy uslub, publitsistik, badiiy uslub, polisemantik, tilxat, chaqiriq xati, huquqiy (qonunlar va farmonlar tili).*

Annotation: this article discusses the Official Style (or Official-Legal Style) as one of the functional styles of the language, used mainly in the legal, administrative and political spheres. This style is characterized by a special selection of language units, purposefulness, precision and normativity. Its linguistic features are manifested at the phonetic, lexical, morphological and syntactic levels.

Key words: *scientific style, journalistic, artistic style, polysemantic, receipt, invitation letter, legal (language of laws and decrees).*

Аннотация: в данной статье необходимо рассмотреть некоторые важные особенности и характеристики норм литературного языка. Мы считаем, что без знания таких специфических аспектов литературного языка сложно интерпретировать сущность литературной нормы. Многие качественные особенности, присущие нормам литературного языка, фактически возникли в связи с потребностями и требованиями конкретных задач, которые выполняет литературный язык. Он также является нормативным языком, подчиняющимся определенным нормам. Подчеркивается, что нормативность является центральным и важнейшим признаком литературного языка.

Ключевые слова: *научный стиль, публицистический, художественный стиль, полисемантичный, расписка, пригласительное письмо, юридический (язык законов и постановлений).*

Bu uslub til birliklarining maxsus tanlovi, maqsadga yo‘naltirilganligi, aniqligi va normativligi bilan ajralib turadi. Uning lingvistik xususiyatlari fonetik, leksik, morfologik va sintaktik darajalarda namoyon bo‘ladi. Rasmiy uslubda qo‘llaniladigan har bir so‘z, atama va birikma aniq matniy ma’nosiga ega bo‘lib, ularni matn tarkibida ma’nolarini to‘liq anglagan holda ishlatish tavsiya etiladi. Rasmiy uslubda shubhasiz, grammatik xususiyatlari ahamiyatga ega. Rasmiy matnlarning uslubiyati uning morfologiyasi va sintaksisida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hujjat matnlarida jumla kesimi birinchi va uchinchi shaxsda shakllanadi. Ikkinchi shaxsda tugallangan fe’l-kesim asosiy matnda uchramaydi. Shaxsiy hujjatlar, asosan, birinchi shaxs birlikda, farmoyish hujjatlari uchinchi shaxs birlik sondagi majhul nisbatda, xizmat yozishmalari esa birinchi yoki uchinchi shaxs ko‘plik sonda aniq va majhul nisbatlarda shakllantiriladi. Ba’zan xizmat xatlari fe’l-kesimi birinchi shaxs birlik sonda yozilishi mumkin. Biroq xatlarning uchinchi shaxs ko‘plik sonda bo‘lishi rasmiy etiket normasi hisoblanadi. Rasmiy uslubning muhim grammatik xususiyati qoliplashgan birikmalar muayyan lug‘aviy birliklarni talab qiladi[1]. Masalan, amaliy “yordam berishingizni” birikmasi “so‘raymiz” so‘zini, “ta’minlab berishingiz” birikmasi “so‘raladi” so‘zini talab qiladi. Birinchi birikmadan keyin “iltimos qilamiz” birikmasini qo‘llash ham mumkin, biroq “amaliy yordam berishingizni so‘raymiz” murakkablashgan birikmasi rasmiy muomalada to‘g‘ridan to‘g‘ri iltimos ma’nosini ifodalaydi. Ikkinchi birikmada esa hukm, farmoyish ma’nosi ifodalanganligi uchun jumla majhul nisbatdagi “so‘raladi” fe’l-kesimi bilan tugallangani maqsadga muvofiqdir. Ta’kidlash joizki, birinchi birikmani yuqori turuvchi organlarga yoki teng mavqedagi tashkilotlarga xat chiqarganda, ikkinchisini esa bevosita bo‘ysunuvchi tuzilmalarga xat chiqarganda qo‘llash tavsiya etiladi.

Rasmiy uslubda hozirgi zamon fe’li ko‘pincha -moqda shaklida ifodalanadi: olib borilmoqda, o‘qitilmoqda, ishlab chiqilmoqda va h., fe’l-kesimlarning o‘tgan zamon shakli -di va -gan shakllari faol qo‘llaniladi. Hujjat matnida qo‘llaniladigan fe’l

1 International Journal of World LanguagesVolume 4, No. 4, July 2024 Internet address:http://ejournals.id/index.php/IJWL/issue/archiveE-mail: info@ejournals.idPublished by ejournals PVT LTDIssued Bimonthly

shakllari hujjat turiga aniqlik kiritadi. Birinchi shaxs birlikdagi fe'l shakllari (so'rayman, ma'lum qilaman, roziligimni bildiraman) shaxsiy hujjatlarda, birinchi shaxs ko'plikdagi fe'l shakllari (so'raymiz, ma'lum qilamiz, taklif etamiz) xizmat xatlarida, majhul nisbat buyruq-istak maylidagi fe'llar (qabul qilinsin, bekor etilsin, tasdiqlansin) esa asosan, farmoyish hujjatlarida uchraydi. Rasmiy uslubda yordamchi so'zlar, xususan, bog'lovchilar doim aniq vazifasida qo'llaniladi. Shu bois ba'zi hollarda biriktiruv va zidlov bog'lovchilari (va/yoki) bir joyda kelishi ham mumkin.

Rasmiy uslubga xos matnlarning jumla qurilishi ham boshqa uslublardan farqlanadi. Murakkab jumlalar ko'plab uchraydi, jumlalar tarkibida uyushiq bo'laklar, izohlovchi birliklar, murakkab qurilmali birikmalar faol qo'llaniladi. Rasmiy uslubda tinish belgilarining qo'llanilishi ham muhim hisoblanadi. Hujjat tayyorlash va ish yuritishda tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishiga qat'iy amal qilish lozim. Hujjat matnida nuqta,vergul, undov belgisi, nuqtali vergul, ikki nuqta, qavs, tire kabi tinish belgilari nisbatan faol ishlatiladi. Nuqta hujjat matnida jumla oxiriga qo'yiladigan tinish belgisidir. Hujjat nomi, ustxat va matn sarlavhasidan keyin nuqta qo'yilmaydi. Vergul hujjat matnida qoliplashgan kirish birikmalaridan so'ng, uyushiq va ajratilgan bo'laklar orasida, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasida qo'llanadi. Masalan: "Yuqoridagilarni hisobga olib, ...", "Men, 2-kurs talabasi - Umida Ikrom qizi, ..." kabi. Undov belgisi hujjat matnlarida juda kam ishlatiladi. "Iltimos" xatlarining birinchi jumlasi "hurmatli" so'zi bilan boshlanib, tashkilot rahbarining ismi va otasining ismi keltirilsa, undan keyin undov belgisini qo'yish tavsiya etiladi (Hurmatli Ahmad Karimovich!)[2]. Amaliyotda ayrim hollarda bu o'rinda vergul qo'yish holati ommalashgan, biroq bu holatda jumla yoki xatboshi yakunlanganligi uchun undov belgisini qo'yish to'g'ridir. Ikki nuqta hujjatlar matnida quyidagi holatlarda uchraydi: matn tarkibida izohlanayotgan, sanalayotgan bo'laklardan oldingi umumlashtiruvchi "quyidagilar", "shu haqda" kabi so'zlardan so'ng lavozimi va qavs ichida familiyasi ko'rsatilib xodimga bir necha vazifa yuklanganda jo'nalish kelishigidagi so'zdan keyin: direktor o'rinbosari (A.Holiqov) ga farmoyish hujjatlarida "Buyuraman" so'zidan, bayonnomaning "Kun tartibi", "Eshitildi", "So'zga chiqdilar", "Qaror qilindi" kabi zaruriy qismlaridan so'ng, matnning "Asos", "Ilova" kabi qismlaridan keyin, xizmat xatlarida ijrochi so'zidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi. Nuqtali vergul izohlanayotgan voqea-hodisa, narsalarning tartib raqami qavs yoki chiziqcha bilan ajratilgan so'z, birikma va gaplardan so'ng ishlatiladi. Odatda, nuqtali vergul sintaktik jihatdan tugallanmagan jumlalar oxiriga qo'yiladi. Nuqtali verguldan keyingi jumla yangi qatordan boshlanishi mumkin, biroq birinchi so'z kichik harflarda beriladi. Agar ikki nuqta bilan tugagan izohlanuvchi bo'lak kesim bilan tugagan bo'lsa (quyidagi vazifalar kiradi:), oxirgi band ham tugallanmagan holda bo'lishi mumkin. Izohlanuvchi bo'lak kesim bilan tugallanmagan bo'lsa, oxirgi qatordagi jumla kesim bilan tugallanadi va mazkur kesim mazmunan barcha bandlarga tegishli bo'ladi. Qavs hujjat matnining biror bo'lagiga qo'shimcha izoh berish zarurati bo'lganda qo'llanadi. Bunda izohlovchi so'z, manzil nomi, mablag' yoki miqdoriy ko'rsatkichni ifodalovchi raqam qavs ichida so'zlar yordamida berilishi lozim. Masalan: 8500 (sakkiz ming besh yuz) so'mlik. Tire quyidagi holatlarda qo'yiladi:

izohlanmish bilan izohlovchi o'rtasida: Javobgar – marhumning tug'ishgan singlisi;

ajratilgan gap bo'laklari o'rtasida: Onasinikiga – Buxoro shahar, Yangiyer ko'chasidagi 50-uyda yashovchi Muyassar Qayumovanikiga ko'chib ketgan.

Tinish belgilarni to'g'ri va o'rinli qo'llash hujjatlar matnining aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, rasmiy uslub nafaqat leksik va grammatik jihatdan, balki punktuatsion, ya'ni tinish belgilarning qo'llanilishiga ko'ra ham boshqa uslublardan farqlanadi.

Shu o'rinda rasmiy uslubning fonetik xususiyatlarga to'xtalarkanmiz, fonetikaning o'rni uncha muhim rol o'ynamasligiga guvoh bo'lamiz, chunki u asosan, yozma shaklda qo'llaniladi. Biroq og'zaki shakllar (masalan, chiqishlar, bayonotlar)da talaffuzning aniqligi, ohangdorlikning rasmiy ohangda bo'lishi katta ahamiyatga ega. Lekin biz uni asosiy lingvistik belgilarini leksik darajada yaqqol ko'rinadi deb ayta olamiz:

Huquqiy va ijtimoiy-siyosiy terminlar: *qonun, qaror, reglament, tartib, mas'uliyat, vakolat, muassasa, kafolat*.

Betaraf, neytral so'zlar: emotsional bo'yoqsiz, aniq va tushunarli iboralardan foydalaniladi (*taqdim etiladi, tasdiqlanadi, mazkur, ilova qilinadi*).

Qolipli iboralar: maqsadli va funksional iboralar – *Mazkur hujjat asosida..., Shunga ko'ra..., Talab qilinadi*, va h.k.

Arabcha, forscha, ruscha o'zlashmalar: rasmiy-texnik atamalar tarkibida tez-tez uchraydi (*protokol, deklaratsiya, avtorizatsiya*).

Mazkur uslub morfologik jihatdan ham ko'p jihatlari bilan ajralib turadi va ular quyidagilar:

2 International Journal of World LanguagesVolume 4, No. 4, July 2024Internet address:http://ejournals.id/index.php/IJWL/issue/archiveE-mail: info@ejournals.idPublished by ejournals PVT LTDIssued Bimonthly

Fe’llarning passiv shakli keng qo‘llaniladi: *tasdiqlandi, yuborildi, topshirildi*.

Ko‘plik shaklining chegaralanganligi: rasmiy hujjatlarda yagona shakl ustun turadi (subyektivlikdan saqlanish uchun).

Ko‘makchilar va bog‘lovchilar: *bilan, asosida, orqali, sababli* kabi vositalar mantiqiy bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Sintaktik jihatdan esa rasmiy uslub murakkabligi bilan alohida o‘rin egallaydi, masalan:

Murakkab gaplarning ustunligi: ko‘p hollarda ergash gapli, sababli yoki shartli gaplar ishlatiladi. Masalan: *Agar ariza belgilangan muddatda topshirilsa, ko‘rib chiqiladi.*

Aniq so‘z tartibi: mavzu – rasmiylikni saqlab turuvchi qat’iy tuzilma mavjud.

Qo‘shimcha izohlar bilan to‘ldirilgan gaplar: huquqiy aniqlikni oshirish maqsadida.

Rasmiy uslub va formulalarning ko‘pligi:
Ushbu qaror quyidagilarga asosan chiqarildi…
Buyruqning amal qilish muddati…

Shuningdek, ushbu uslubning pragmatik va stilistik xususiyatlarini ham ko‘rishimiz mumkin:

Rasmiylik va obyektivlik: muallif shaxsiy fikrini bildirmaydi.

Ijtimoiy munosabatning belgilanishi: buyruq, murojaat, iltimos, taklif – bularning har biri muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi.

Matnlarning standartligi: har xil hujjat turlari uchun andozalar mavjud (ariza, ma’lumotnoma, buyruq va boshqalar)

Quyidagi jadvallar orqali rasmiy uslub va badiiy uslubning qiyosiy tahlilini va lingvistik xususiyatlarini taqdim etaman. Bu jadval ikkala uslubning asosiy farqlari va xususiyatlarini bir-biriga solishtirish orqali ko‘rsatadi.

Rasmiy uslubning lingvistik xususiyatlari – Tahliliy jadval

Til darajasi	Xususiyatlar	Misollar / Izohlar
Fonetik	Talaffuzdagi rasmiylik, ohangdorlik (og‘zaki shaklda)	Chiqishlar, intervyular – talaffuz aniq va nazokatli bo‘lishi zarur
Leksik	– Terminlarga boylik – Qolipli iboralar – Betaraf leksika	Vakolat, reglament, mazkur, asosida, ilova qilinadi
Morfologik	– Passiv fe’l shakli ustun – Ko‘plikdan cheklangan foydalanish	Tasdiqlandi, belgilandi, topshiriladi
Sintaktik	– Murakkab va ergash gaplar – Aniq so‘z tartibi - Andoza gap tuzilmalari	Agar topshirilsa, ko‘rib chiqiladi. Shunga ko‘ra, buyrug‘ingiz berildi.
Pragmatik	– Emotsiyadan holilik – Rasmiylik, obyektivlik	Muallif o‘z fikrini bildirmaydi, fikr qonuniy asosga tayanadi
Stilistik	– Standartlashtirilgan, formal uslub – Matnlar andoza asosida yoziladi	Ariza, ma’lumotnoma, buyruq matnlari maxsus shaklga ega
Kommunikativ	– Rasmiy murojaatlar va muloqot formasi	Hurmatli rahbar, E’tiboringiz uchun rahmat, Arizachi

Rasmiy uslub o‘zining aniq tuzilmalari, qat’iy me’yorlari, rasmiy leksikasi va betaraf sintaktik qurilmalari bilan boshqa funksional uslublardan ajralib turadi. Raqamli kommunikatsiyalarning rivojlanishi bilan ushbu uslub internet portallari, elektron hujjatlar, va rasmiy axborot kanallarida yanada faolroq qo‘llanilmoqda. Bu holat rasmiy uslubni o‘rganishni nafaqat lingvistik, balki kommunikativ-pragmatik nuqtayi nazardan ham muhim qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.www.ziyouz.com кутубхонаси/ Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi. Tarjimon: A.Mansur
2.Abdullah Yusuf Ali. (2005). *The Meaning of the Holy Qur’an*. Amana Publications.
3.International Journal of Basic Sciences and Applied Research Vol, 3 (SP), 219-225, 2014//Available online athttp://www.isicenter.org.-P.221
4.www.examples.yourdictionary.com
5.www.myenglishroutine.com
6.www.kathysteinemann.com

Saodat BOYSARIYEVA,
TerDU O‘zbek tilshunosligi o‘qituvchisi
f.f.f.d. (PhD)

TILSHUNOSLIKDA O‘QUV LUG‘ATCHILIGIGA DOIR TADQIQOTLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada tildan amaliy foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdagi roli, tafakkur va nutqini rivojlantirishga ko‘mak berish vazifalari ochib berilgan.O‘quv lug‘atlariga doir tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, o‘quv lug‘ati va undan foydalanuvchisi munosabati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *akadem lug‘at, o‘quv lug‘at, filologik va nofilalogik lug‘atlar, bosma va elektron lug‘atlar.*

Annotation: this article reveals their role in the formation of practical language skills, their functions in supporting the development of thinking and speech. Research on educational dictionaries is analyzed. The relationship between the educational dictionary and its user is also revealed.

Key words: *academic dictionary, educational dictionary, philological and non-philological dictionaries, printed and electronic dictionaries.*

Аннотация: в статье раскрывается их роль в формировании практических языковых навыков, их функции в обеспечении развития мышления и речи. Анализируются исследования, посвященные учебным словарям. Также раскрывается взаимосвязь учебного словаря и его пользователя.

Ключевые слова: *академический словарь, учебный словарь, филологические и нефилологические словари, печатные и электронные словари.*

Kirish (Introduction). XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ingliz, rus tillarining dunyoda ommaviylashuvi natijasida keng miqyosda o‘quv leksikografik tadqiqotlar uchun stimul vazifasini bajarganligi ayrim manbalarda qayd etiladi. Rus va ingliz tillarida o‘quv lug‘atlarini yaratish ancha oldinroq boshlangan bo‘lsa-da, uning tom ma’noda shakllanish taraqqiyoti XX asrning 2-yarmiga to‘g‘ri keladi. Tilni xorijiy til sifatida o‘qitish metodologiyasining alohida fan sifatida shakllanishi natijasida ta’limga yo‘naltirilgan lug‘atlarni yaratish xususiy maqsadlardan kelib chiqqan deb aytish mumkin. Shu davrda lug‘atlarni konseptual va metalingvistik jihatdan tizimlashtirish uchun tadqiqotchilar tomonidan turli tipologiyalar taqdim etila boshlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tabiiyki, o‘quv lug‘atlarining boshqa lingvistik lug‘atlardan alohida belgilari mavjud. Xususan, V.V.Morovkin o‘quv lug‘atdagi so‘zlarni saralashdagi eng asosiy tamoyillardan biri sifatida muayyan chet tilini o‘qitishning maqsad, vazifalari, bosqichi va real sharoiti, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va ularning millatini hisobga olish zarurligi, qolaversa, lug‘atning strukturasi va kontenti o‘quv-uslubiy maqsadga muvofiqligi, ona til va xorijiy tillar o‘rtasidagi tizimli munosabatni nazarda tutadi [1.15].

Rossiyada o‘quv lug‘atchiligi XVIII asrdan rivojlana boshlaganligi ayrim ilmiy ishlarda qayd etiladi. O.Petrushova o‘z tadqiqotida dastlabki ingliz-rus tarjima lug‘ati ingliz tili grammatikasi uchun ilova tarzida nashr ettirilganligi, keyinchalik o‘quv lug‘atlarining sohaviy ko‘lami xususiylashganini ta’kidlaydi [2.9].

O‘quv lug‘atchiligining vujudga kelishi haqida V.Gakning qarashlari jahon tilshunosligida yetakchilik qiladi. V.Gak lug‘atlarni davrlashtirib, har bir davrning xususiyatlari haqida ma’lumotlar berib o‘tgan. Ingliz tilidagi ona tilida so‘zlashuvchilar o‘quv lug‘atlarining nazariy asoslari X.Palmer, M.Vest, AS.Xornbiylar tomonidan 1920-1930-yillarda ishlab chiqilgan, rus lug‘atshunosligida o‘quv lug‘atchiligiga doir tadqiqotlar keng ko‘lamda amalga oshirilgan. N.Denisov, L.A.Novikov, V.V.Morkovkin, S.G.Barxudarov, V.V.Dubichinskiy va boshqalarning ishlarida leksikografik

tadqiqotlar asosidagi ishlar o‘z aksini topgan. Turkiy tillar doirasida A.Mukan, T.Madi, Y.Bexultanov, O.Cheremskaya, G.Gaydamaka, V.Meskutov, E.Lapuzina, E.Valiyev, Y.Romanov, G.Amanaliyeva tomonidan ikki tilli o‘quv lug‘atlarini yaratishga doir ayrim ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bugungi kunda olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy qarashlar o‘zining qiymatini yo‘qotgan emas. O‘zbek lug‘atshunosligiga doir nazariy-ilmiy qarashlar A.Madvaliyev, H.Dadaboyev, B.Bahriddinova va yana bir qator olimlar tomonidan erishilgan ilmiy natijalarni alohida ta’kidlash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘quv lug‘atchiligi ona tili va chet tilini o‘qitish metodologiyasi, o‘quv lug‘atlarini yaratish nazariyasi va amaliyoti usullari, lug‘at yaratuvchilarning maqsadi va til o‘qitishda qo‘l keluvchi texnologiyalari bilan mazkur sohaning optimallashuv jarayoniga doir ishlarni amalga oshiradi.

Ma’lumki, lingvistik lug‘atlar oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra ikki turga ajratiladi:

1. *Ak**a**dem lug‘**atla**r;*
2. *O‘quv lug‘**atla**ri.*

Akadem lug‘atlar tildagi so‘zlarni jamlashga yoki ma’lumot berishga mo‘ljallangan bo‘ladi, o‘zbek tilida yaratilgan lug‘atlarning aksariyati akadem xarakter kasb etadi. O‘quv lug‘atlari ta’limga yo‘nalgan va chegaralangan so‘zlik orqali katta natijalarni ko‘zlagan bo‘ladi. O‘quv lug‘atlari o‘quv materiali sifatida birlamchi hisoblanadi va bu turdagi lug‘atlarning aksariyatida bilimni mustahkamlashga doir mashqlar to‘plami ko‘zda tutilgan auditoriya darajasiga qarab nashr qilinadi [4. 336]. Shu jihatdan o‘quv lug‘atlarini pedagogika va tilshunoslik o‘rtasida hosil bo‘lgan lingvistik manba deb baholash mumkin. O‘quv lug‘atlarning tasniflanishi, uning makro va mikrosxemasini shakllantirish, lug‘atning umumiy maqsadiga ko‘ra farqlanishi, ya’ni o‘quv lug‘atining til o‘rganish uchun mo‘ljallanganligi kabi masalalar turli tilshunoslik vakillari uchun leksikografik planda asosiy masala sifatida kun tartibiga qo‘yilgan.

O‘quv lug‘ati leksikografiyada o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan, chet tili foydalanuvchilariga biror tilni o‘rganish uchun mo‘ljallangan yoki til egasida adabiy til me’yorlarni tartibga soluvchi, maqsadli auditoriyaga qaratilgan yoki mustaqil o‘rganish uchun resurs vazifasini bajaruvchi manba. Ayrim manbalarda *o‘quv lug‘ati* atamasi til o‘rganuvchilar, ayniqsa, chet tilini o‘rganuvchilar uchun yaratilgan leksikografik janr sifatida baholanadi [3.28].


O‘quv lug‘ati sifatida faqat filologik maqsadga yo‘naltirilgan lug‘atlarni tushunish to‘g‘ri emas. Nofilalogik sohalarning ta’limi uchun xizmat qiluvchi lug‘atlarni ham o‘quv lug‘atlari qatoriga qo‘shish mumkin. O‘quv lug‘atini xuddi shu tabiati nuqtayi nazaridan filologik va sohaviy lug‘atlarga tarmoqlash o‘rinli. Sohaviy o‘quv lug‘atlari terminologik xarakteri kasb etishi bilan filologik o‘quv lug‘atlaridan farqlanadi. Sohaviy o‘quv lug‘atlari fan-texnikaga oid bilimlarni puxta o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Bunday lug‘atlar so‘zligi muayyan soha bo‘yicha kalit so‘zlar vazifasini ham o‘taydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Filologik o‘quv lug‘atlarini boshqa til egasi uchun (bunday lug‘atlar kommunikativ ehtiyoj uchun mo‘ljallangan bo‘ladi) chet tilini o‘rganishga va ona tili ta’limiga qaratilgan lug‘atlar sifatida tasniflash mumkin. Filologik o‘quv lug‘atlarining har ikkala (boshqa til egasi va ona tili vakili uchun mo‘ljallangan) turi qat’iy cheklangan so‘zlar ro‘yxati, leksik birliklarning nutqda ishlatilishi, so‘zlarning chastotasiga e’tibor qaratilishi kabi prinsiplarga asoslangan bo‘ladi.

Ona tili ta’limiga yo‘naltirilgan o‘quv lug‘atlar o‘quvchilarning matn yaratish va uni tushunishda so‘z, ibora, sinonimlar, antonimlar qo‘llash bilan bog‘liq muammolarini bartaraf etish uchun imlo, talaffuz, so‘z yasalishi, sintaktik qoliplar haqidagi ma’lumotlar bilan boyitilgan bo‘ladi.

O‘quv lug‘atlari foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Og‘zaki nutq kompetensiyasiga ega bo‘lgan til o‘rganuvchisining yozma nutqini shakllantirish;
2. Yangi so‘z va unga doir ma’lumotlarni til egasining lisoniy ongida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan solishtirish;
3. Zamonaviy o‘quv lug‘atlari lingvistik korpuslar bilan birlashgani bois



so‘zning ma’nosini matndagi kontekst orqali tushunish imkonini berishi (tildagi ayrim birliklarning ma’nolarini faqat kontekst orqali tushunish mumkin);

4. O‘quv lug‘atlari ta’lim materiali sifatida mashqlar bilan berilishi va o‘rganuvchi interaktivligining ta’minlanishi.

Xulosa. Elektron lug‘atlardan kompyuter ilovalari uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri havolalar olish, qidiruv asosida izlash va lug‘at foydalanuvchilari bilan muloqot o‘rnatish imkoni mavjud. Leksikografiyaga texnologiyalarni jalb etish chet tili o‘rganuvchilarning ehtiyojlarini ancha qondirishini ta’kidlab o‘tgan edi. Uning ta’kidlashicha, elektron lug‘atlar foydalanuvchilarga alifbo tartibisiz qidiruv, ma’lumot taqdim qilayotganda grafiklardan foydalanish, katta hajmdagi korpuslar bilan bog‘lana olish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Морковкин В. В. Основы теории учебной лексикографии. автореферат дис. ... доктора филологических наук: 10.02.01 – Москва, 1990. – С. 15

2. Петрушова О. Л. Учебные словари в межкультурной коммуникatsii 10.02.19 - Теория языка Автореферат диссертatsii на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Ярославль. 2009. – С. 9

3. Тычинский А. Ономастика в учебных словарях: Прагмалингвистический аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Смоленск, 2003. – 28 с.

4. Дубинский В.В. Лексикография русского языка (учебное пособе) – Москва: “Наука”, 2008 – С. 336



Xilolaxon BAKIROVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi v.b. dotsenti, Tarjimonlik fakulteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

LINGVODIDAKTIKA VA TARJIMA O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada lingvodidaktika va tarjima o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. XXI asr globallashuvi, axborot texnologiyalari va transmilliy aloqalar sharoitida tarjima faoliyatining yangi bosqichga o‘tishi lingvodidaktik yondashuvlarni chuqur integratsiya qilishni taqozo qilmoqda. Tarjimon endilikda nafaqat til vositachisi, balki sohaga oid bilim, madaniyat va kontekstual ma’lumotlarni yetkazuvchi mutaxassis sifatida ko‘rilmoqda. Shu bois, tarjima ta’limida lingvodidaktika asoslari – til, madaniyat va kommunikativ kompetensiyalarni uyg‘un shaklda shakllantirishning muhim metodik tayanchiga aylanmoqda.

Kalit so‘zlar: *lingvodidaktika, tarjima, kompetensiya, sohaga oid tarjima, kommunikativ kompetensiya, innovatsion metodlar, axborot texnologiyalari.*

Аннотация: в статье рассматривается взаимосвязь между лингводидактикой и переводом. В условиях глобализации XXI века, развития информационных технологий и транснациональных связей переводческая деятельность выходит на новый этап, что требует глубокого внедрения лингводидактических подходов. Современный переводчик воспринимается не только как посредник между языками, но и как специалист, передающий знания, культурные коды и контекстуальную информацию. Поэтому лингводидактика выступает важной теоретико-методической основой в обучении переводу, направленной на формирование языковой, культурной и коммуникативной компетенции будущих специалистов.

Ключевые *слова:* *лингводидактика, перевод, компетенция, специализированный перевод, коммуникативная компетенция, инновационные методы, информационные технологии.*

Annotation: this paper explores the interrelation between linguodidactics and translation. In the context of 21st-century globalization, information technologies, and transnational communication, translation activity has entered a new stage that requires the integration of linguodidactic approaches. A translator today is regarded not only as a mediator between two languages, but also as a professional who conveys subject-specific knowledge, cultural values, and contextual information. Accordingly, linguodidactics serves as a fundamental methodological framework for translation training, aimed at developing linguistic, cultural, and communicative competences in a holistic way.

Key words: *linguodidactics, translation, competence, specialized translation, communicative competence, innovative methods, information technologies.*

XXI asrda globallashuv, axborot texnologiyalari va transmilliy aloqalarning keskin rivojlanishi tarjima faoliyatining yangi bosqichga o‘tishini taqozo qilmoqda. Endilikda tarjimon nafaqat ikki til o‘rtasidagi vositachi, balki turli sohaga oid axborotni, madaniyatni va kontekstual ma’lumotni uzatish bo‘yicha malakali mutaxassis sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, sohaviy tarjima (tibbiyot, huquq, texnika, iqtisod va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha) dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday murakkab faoliyatga tayyorlash esa an’anaviy til ta’limi doirasidan chiqib, lingvodidaktik asoslangan, kompetensiyaviy va texnologik yondashuvlarni talab qiladi.

Jack C. Richards Yangi Zelandiyalik tilshunos va metodist olimning ta’kidlashicha: “Tarjima faoliyati o‘quv jarayoniga joriy etilganda, u til o‘rganish vositasigina bo‘lib qolmay, balki muloqotga tayyorlangan, interaktiv, axborotga asoslangan ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi” Mazkur fikrni qo‘llab quvvatlagan holda biz ham aytishimiz mumkinki, bu jarayonda lingvodidaktika **–** tilni o‘rgatish nazariyasi va metodikasi – asosiy tayanch fan sifatida maydonga chiqadi.

Lingvodidaktika – bu tilni o‘rgatishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, u tilshunoslik va didaktika fanlarining integratsiyasidan yuzaga kelgan. Tarjima esa – ikki tilda amalga oshiriladigan kommunikativ faoliyat turi sifatida, bu jarayonda lingvistik bilimlar bilan bir qatorda didaktik, madaniy va texnologik omillar ham ishtirok etadi. Shu bois, tarjima ta’limi lingvodidaktik mezonlar asosida qurilishi zarur.

Bugungi globallashuv davrida tarjima faqat tilshunoslik hodisasi emas, balki o‘quvchi yoki talabani til va madaniyatlararo muhitda faoliyat yuritishga tayyorlash vositasi sifatida qaralmoqda. Bu jihatdan qaraganda, tarjima ta’limida lingvodidaktika bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi

Bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida sohaga ixtisoslashgan tarjimonlarni yetishtirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa tarjima ta’limini nafaqat lingvistik, balki metodik, madaniy, texnologik va lingvodidaktik jihatdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Shunday sharoitda tarjima kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish, sohaviy matnlar bilan ishlash metodikasini ishlab chiqish va axborot resurslariga asoslangan o‘qitish modeli yaratish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Respublikamizda mazkur masala bo‘yicha bir qator ishlar olib borilgan bo‘lib, bulardan ba’zilarini quyida ko‘rib chiqamiz.

Eshbekov To‘lqin Sattorovich lingvodidaktika, tarjima nazariyasi, matnni lingvistik tahlil qilish masalalari bilan shug‘ullanib, tarjima faoliyatining til o‘rganish jarayonidagi o‘rnini tahlil qilgan va lingvodidaktik nuqtayi nazardan tarjima vositasi orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni taklif qilgan.

Islomov Ziyovuddin Abdug‘afforovich lingvistik va madaniy kompetensiyalarning o‘zaro ta’siri borasida izlanishlar olib brogan. Tadqiqotchi “Chet tillarini o‘qitishda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish” PhD dissertatsiyasida tarjimonlar tayyorlashda lingvodidaktika asosida interaktiv metodlar qo‘llanishi samaradorligini ilmiy asoslab bergan.

Mamatqulova Dilfuza Abdurahmonovna tarjima ta’limi, didaktik modellashtirish masalalarini tadqiq etgan. Ozining “Sohaviy tarjima darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi” nomli maqolasida lingvodidaktik model orqali tarjima mashg‘ulotlarida talabalarning faol ishtirokini kuchaytirish mexanizmini ochib bergan.

Atiyazov Saparbay Jumamuratovich elektron lingvodidaktika va innovatsion o‘qitish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib brogan. Olim ozining “Elektron lingvodidaktika – innovatsion ta’limning muhim unsuri sifatida” maqolasida tarjima ta’limida axborot texnologiyalarining lingvodidaktik imkoniyatlarini tadqiq qilgan.

Demak, yuqoridagi olimlar lingvodidaktika va tarjima fanlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni quyidagicha yondashuvlar orqali yoritgan:

– tarjima vositasida til o‘rganish (didaktik nuqtayi nazar);

– madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima kompetensiyasi;

– innovatsion metodlar va IKT asosida tarjima o‘qitish;

– lingvistik, pragmatik va sotsiokultural komponentlar uyg‘unligi.

Bizning mazkur dissertatsiyamizning dolzarbligi aynan tarjima ta’limi jarayoniga lingvodidaktik komponentlarni chuqur integratsiya qilish orqali zamonaviy, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuv asosidagi sohaviy tarjimonlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi.

Yuqorida keltirgan qoraqalpoq va turkiy tillar lingvistikasi, tarjima nazariyasi, terminologiya va lingvokulturologiya yo‘nalishlarida tadqiqot olib borgan qoraqalpog‘istonlik olimlar Saparbay Atiyazov va Sevara Jumamuratovalarning tadqiqot ishlarida yoritilishicha: “Lingvodidaktika – tilni o‘qitishning ilmiy-metodik nazariyasi bo‘lib, lingvistik hamda didaktik yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtiradi. Bu atama ta’lim kontentini (o‘qitish maqsadi, mazmuni, metodlari) tilning tabiatiga va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rniga muvofiq tashkil etish demakdir. Lingvodidaktikaning asosiy vazifasi – tarjima ko‘nikmalarini shakllantirish uchun metodik kontentni til va kontekst bo‘yicha tizimlashtirishdir. Zamonaviy til ta’limi – bu faqat tilni emas, balki uning funksional, kommunikativ va madaniy jihatlarini ham yoritadi.

Tarjimon tayyorlash jarayonida lingvodidaktikaning asosiy roli – nafaqat til ko‘nikmalarini, balki tarjima kompetensiyasini shakllantirish uchun metodik asos va vositalarni taqdim etishdir. “Bu bilan tarjima faqat tilda so‘zlarni o‘zgartirish emas, balki **muloqot konteksti, ma’naviy-ma’rifiy mazmun** va **madaniy transpozitsiya**ni o‘z ichiga olgan murakkab faoliyat turi sifatida qaraladi” – deb ta’kidlaydi nemis olimi Christianne Nord. Shunday ekan, tarjima jarayoni va uni o‘rgatish tizimi lingvodidaktik prinsiplar asosida shakllantirilsa, bu nafaqat tarjimon tayyorlash sifatini oshiradi, balki ularning funksional savodxonligini, axborotni qayta ishlash va moslashtirish salohiyatini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nord C. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. – London: Routledge, 2018. – 232 p.
2. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today / J.C. Richards. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 47 p.
3. Atiyazov S.J., Jumamuratova S.S. Elektron lingvodidaktika – innovatsion ta’limning muhim unsuri sifatida // Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации. – 2022. – № 1 (1). – С. 319–321.

Камала КОДИРОВА,
Заведующая кафедрой теории и практики перевода арабского языка
кандидат педагогических наук, доцент,
Узбекистанский государственный университет мировых языков

ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ВУЗЕ В КОНТЕКСТЕ ТРЕБОВАНИЙ ВРЕМЕНИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: в статье рассматривается процесс формирования и развития лингвистической компетенции в вузах Узбекистана, начиная с первых этапов независимости и до современного периода. Анализируются социальные, культурные и образовательные факторы, определяющие необходимость подготовки специалистов с высоким уровнем владения иностранными языками. Особое внимание уделяется интеграции современных методик преподавания, многоязычной образовательной среды и международных стандартов.

Ключевые слова: лингвистическая компетенция, высшее образование, Узбекистан, многоязычие, модернизация, международные стандарты, педагогические технологии.

Annotation: the article examines the process of formation and development of linguistic competence in the universities of Uzbekistan, from the early stages of independence to the present period. It analyzes the social, cultural, and educational factors that determine the necessity of training specialists with a high level of foreign language proficiency. Special attention is paid to the integration of modern teaching methods, a multilingual educational environment, and international standards.

Key words: linguistic competence, higher education, Uzbekistan, multilingualism, modernization, international standards, pedagogical technologies.

Annotatsiya: maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida lingvistik kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanish jarayoni mustaqillikning dastlabki bosqichlaridan hozirgi davrgacha bo‘lgan davrda ko‘rib chiqiladi. Mutaxassislarni yuqori darajadagi chet tillarni bilish malakasi bilan tayyorlash zaruratini belgilovchi ijtimoiy, madaniy va ta’limiy omillar tahlil qilinadi. Zamonaviy o‘qitish metodikalarini, ko‘p tilli ta’lim muhitini hamda xalqaro standartlarni integratsiya qilishga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: lingvistik kompetensiya, oliy ta’lim, O‘zbekiston, ko‘p tillilik, modernizatsiya, xalqaro standartlar, pedagogik texnologiyalar.

Введение

В условиях глобализации лингвистическая компетенция становится одним из ключевых компонентов профессиональной подготовки студентов вузов. Узбекистан, активно развивая международные связи и реформируя систему образования, придает особое значение формированию многоязычной личности. История становления лингвистической компетенции в высшей школе тесно связана с политическими и социальными изменениями, а также с реформами в области языковой политики и методики преподавания.

Исторический контекст

1. **Период независимости (1991–2000 гг.).** После обретения независимости акцент был сделан на изучении узбекского языка как государственного, а также на расширении преподавания иностранных языков, прежде всего английского. В этот период началось внедрение новых учебных программ и учебников.

2. **Этап модернизации (2000–2010 гг.).** Вузы стали активнее внедрять коммуникативные методики, появилось больше возможностей для международного сотрудничества. Студенты начали участвовать в программах обмена, а преподаватели осваивали новые технологии преподавания.

3. **Современный этап (2010 г. – наст. время).** В рамках государственных программ («Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Yangi O‘zbekiston – yangi imkoniyatlar») акцент сделан на формирование многоязычной компетенции. Вузовские учебные планы включают обязательное изучение нескольких иностранных языков, создаются языковые центры, внедряются CLIL-методики (Content and Language Integrated Learning).

Развитие лингвистической компетенции

- **Теоретический аспект.** Лингвистическая компетенция трактуется не только как знание грамматики и лексики, но и как способность

использовать язык в профессиональном контексте.

- **Практический аспект.** Студенты вовлекаются в проектные работы, онлайн-платформы, научные конференции, что способствует развитию академического и профессионального дискурса.
- **Институциональный аспект.** Создание специализированных кафедр, магистерских и докторских программ по переводу и лингвистике формирует новое поколение специалистов.

Обсуждение

Формирование лингвистической компетенции в Узбекистане во многом соответствует современным требованиям времени, среди которых глобализация, внедрение международных образовательных стандартов и активное развитие цифровых технологий. Вузовская система страны стремится обеспечить подготовку специалистов, владеющих несколькими иностранными языками и способных вести профессиональную деятельность в многоязычной и мультикультурной среде. Это отражается в государственных программах, обновлённых учебных планах и внедрении инновационных методик, таких как CLIL (Content and Language Integrated Learning), проектное обучение и использование электронных платформ.

В то же время остаются вызовы, которые сдерживают полноценное развитие лингвистической компетенции. Во-первых, ощущается недостаток современных учебных материалов и учебников, соответствующих международным стандартам, а также адаптированных к национальному контексту. Во-вторых, существует необходимость постоянного повышения квалификации преподавателей, особенно в части применения новых методик, цифровых ресурсов и интерактивных технологий обучения. Без целенаправленной работы по развитию профессионального уровня педагогов трудно достичь устойчивого качества подготовки студентов.

Ещё одной проблемой является ограниченность академической мобильности студентов и преподавателей. Несмотря на рост числа международных проектов и соглашений о сотрудничестве, участие в программах обмена остаётся доступным не для всех. Это сужает возможности студентов по совершенствованию языковых навыков в естественной языковой среде и снижает уровень их конкурентоспособности на международном рынке труда.

Таким образом, формирование лингвистической компетенции в Узбекистане требует не только продолжения внедрения современных технологий и методик, но и комплексного решения вопросов материально-технического обеспечения, профессиональной подготовки преподавателей и расширения академической мобильности. Только при сочетании этих факторов можно достичь устойчивых результатов, отвечающих глобальным вызовам и потребностям времени.

Заключение

История становления и развития лингвистической компетенции в вузах Узбекистана демонстрирует последовательный переход от традиционных методов преподавания иностранных языков к современным инновационным подходам. Если на ранних этапах акцент делался в основном на грамматико-переводной методике и ограниченном наборе учебных материалов, то сегодня образовательный процесс строится на основе коммуникативных технологий, цифровых ресурсов и междисциплинарных практик.

Владение несколькими иностранными языками рассматривается не только как важный навык, но и как обязательный элемент профессиональной подготовки специалиста, способного работать в глобальном образовательном и профессиональном пространстве. Формирование лингвистической компетенции становится стратегической задачей, направленной на развитие конкурентоспособности выпускников, их академической мобильности и интеграции в международные проекты.

Будущее развитие предполагает более широкое использование международных образовательных стандартов, адаптацию лучших мировых практик к национальной системе, а также укрепление научных исследований в области лингводидактики. Особое значение приобретает создание национальных терминологических баз и цифровых ресурсов, позволяющих унифицировать и систематизировать профессиональную лексику.

Таким образом, развитие лингвистической компетенции в высшей школе Узбекистана является неразрывной частью модернизации всей системы образования и отвечает ключевым требованиям времени.

Использованная литература

1. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика*. – Ташкент: Фан, 2008. – 240 с.
2. Джалолов Ж.Ж. *Методика обучения иностранным языкам*. – Ташкент: Учитель, 2012. – 320 с.
3. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. *Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика*. – Москва: Академия, 2006. – 336 с.

Наргиза ХОДЖАЕВА,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Ферганского государственного университета

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЕ ПОЛЕ “ТУРИЗМ” В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ

Аннотация: в статье анализируется лексико-семантическое поле “Туризм” в русском и узбекском языках с точки зрения его структуры, компонентного состава и способов языковой репрезентации. На основе сравнительного лингвистического анализа выявляются общие черты и различия в организации поля, обусловленные как языковыми, так и культурно-историческими факторами.

Ключевые слова: *лексико-семантическое поле, туризм, русский язык, узбекский язык, языковая репрезентация, заимствование, когнитивная лингвистика*

Annotatsiya: maqolada rus va o‘zbek tillaridagi “turizm” leksik-semantik sohasi uning tuzilishi, tarkibiy tarkibi va tilni ifodalash usullari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Qiyosiy lingvistik tahlil asosida ham lingvistik, ham madaniy-tarixiy omillar tufayli LSMni tashkil etishdagi umumiy xususiyatlar va farqlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *leksik-semantik maydon, turizm, rus tili, o‘zbek tili, lingvistik vakillik, qarz olish, kognitiv tilshunoslik.*

Annotation: the article analyzes the lexical and semantic field “Tourism” in Russian and Uzbek languages in terms of its structure, component composition and methods of linguistic representation. Based on comparative linguistic analysis, common features and differences in the organization of the field are identified, due to both linguistic and cultural-historical factors.

Key words: *lexico-semantic field, tourism, Russian language, Uzbek language, linguistic representation, borrowing, cognitive linguistics.*

Лексико-семантическое поле (ЛСП) представляет собой систему лексических единиц, объединенных общей тематической направленностью и находящихся в семантических отношениях [1]. Поле “Туризм” включает широкий спектр понятий, связанных с передвижением, размещением, обслуживанием, культурным опытом и организацией туристической деятельности. Его исследование в сопоставительном аспекте позволяет выявить не только лингвистические закономерности, но и культурные модели, лежащие в основе восприятия туристической реальности в разных языковых сообществах.

Согласно когнитивному подходу, ЛСП организовано вокруг центрального концепта и имеет радиальную структуру, где ядро окружено периферийными элементами [2]. В обоих языках ядром поля выступает слово туризм – заимствование из французского (tourisme), закрепленное в русском и узбекском языках. От этого гиперонима расходятся гипонимы, образующие подполя: “Передвижение”, “Размещение”, “Услуги”, “Культурный опыт” и “Инфраструктура”. Однако внутренняя организация этих подполей существенно различается.

В русском языке лексико-семантическое поле “Туризм” отличается высокой степенью дифференциации. Оно включает специализированные термины для различных видов туризма: эко-, паломнический, деловой, медицинский, горный. Такая детализация свидетельствует о зрелости туристической инфраструктуры и развитии профессионального дискурса [3]. Термины стандартизированы и закреплены в нормативных документах, например, в Федеральном законе “Об основах туристской деятельности в Российской Федерации” [4].

Ядерные единицы, такие как турист, гостиница, экскурсия, виза, билет, имеют четкие дефиниции и функционируют в устойчивых словосочетаниях (бронирование номера, оформление визы, групповой тур). Система также включает аббревиатуры (турфирма, инфоцентр) и заимствования из английского (чиллить, айда, локейшн), которые активно используются в молодёжной и цифровой коммуникации, но не вытесняют нейтральные эквиваленты [5].

В узбекском языке ЛСП “Туризм” находится в стадии активного формирования. До 2016 года туризм в Узбекистане играл второстепенную роль, что отражалось на ограниченности соответствующей лексики. Однако после либерализации визового режима и запуска государственной стратегии развития туризма наблюдается стремительное расширение словарного состава [6].

Центральной единицей остается заимствованное turizm, от которого образуются производные: sayohat (путешествие), sayohatchi (турист), turistik marshrut (туристический маршрут). При этом значительная часть лексики заимствуется из английского и русского: oteli (отель), gid (гида), reys (рейс), strakhovka (страховка). Эти слова адаптируются по фонетическим и графическим нормам узбекского языка и часто используются в официальных и рекламных текстах.

Одновременно сохраняются и активно продвигаются национально маркированные реалии: mehmonxona (дом для гостя), Registon, Shahrisabz, palov, somon yig'ini. Слово mehmonxona, например, не просто обозначает место проживания, но несёт культурную коннотацию гостеприимства, что соответствует традиционным восточным ценностям [7]. Использование таких терминов в оригинале без перевода служит цели культурной самопрезентации и формирования национального туристического бренда.

Сравнительный анализ показывает, что русское ЛСП более систематизировано: оно имеет развитую иерархию, четкие границы между подполями и высокую степень терминологизации. Узбекское ЛСП, напротив, характеризуется вариативностью, смешением заимствований, калькированием и описательными конструкциями. Например, вместо устоявшегося термина медицинский туризм может использоваться описательная форма davolanish uchun sayohat.

Еще одной особенностью является разная степень институционализации. В русском языке туристическая терминология закреплена в ГОСТах, законодательстве и профессиональных изданиях. В узбекском языке единая терминологическая база пока не сформирована, что приводит к колебаниям в употреблении терминов, особенно в онлайн-пространстве и частном секторе услуг.

Для анализа были использованы данные из Национального корпуса русского языка (ruscorpora.ru), сайта Государственного комитета по развитию туризма Узбекистана (uztourism.gov.uz), туристических платформ (ostrovok.ru, booking.com) и официальных документов. Выявлено, что в узбекском языке увеличивается количество англоязычных заимствований (booking, check-in, wifi zone), особенно в городских и международных контекстах, тогда как в сельской местности продолжают использоваться традиционные формы и реалии.

Таким образом, лексико-семантическое поле "Туризм" в русском и узбекском языках демонстрирует как общие тенденции, связанные с глобализацией и унификацией туристического дискурса, так и существенные различия, обусловленные историческим развитием, уровнем институционализации и культурными установками. Русский язык характеризуется большей системностью и стандартизацией, тогда как узбекский язык находится в фазе активной лексической экспансии, сочетающей заимствования, калькирование и развитие внутренних словообразовательных механизмов.

Формирование ЛСП в узбекском языке отражает не только потребность в новой терминологии, но и стратегию культурной легитимации через язык. Через лексику туризма Узбекистан формирует свой имидж как страны с богатым наследием, гостеприимной традицией и открытостью миру. В свою очередь, русская туристическая лексика акцентирует функциональность, безопасность и регламентацию.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Trier, J. (1934). Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes: Die Geschichte eines sprachlichen Feldes. Heidelberg: Carl Winter.

2. Rosch, E. (1975). Cognitive representations of semantic categories. Journal of Experimental Psychology: General, 104(3), 192–233. https://doi.org/10.1037/0096-3445.104.3.192

3. Golub, I. B. (2009). Yazyk i kul'tura: Lingvokul'turologicheskie issledovaniya [Language and culture: Linguocultural studies]. Moscow: AST.

4. Federal Law No. 132-FZ "On the fundamentals of tourist activity in the Russian Federation". (2014). Official Internet Portal of Legal Information. http://publication.pravo.gov.ru/Document/View/0001201407230026

5. National Corpus of the Russian Language. (n.d.). Retrieved from https://ruscorpora.ru

6. State Committee for Tourism Development of the Republic of Uzbekistan. (2017). Uzbekistan Tourism Strategy 2017–2021.
https://www.uztourism.gov.uz/uploads/files/strategy_2017-2021_en.pdf

7. Karimova, D. (2020). The role of cultural values in shaping tourism discourse in Uzbekistan. International Journal of Linguistics, Literature and Translation, 3(6), 45–52. https://www.ijllt.org/vol3issue6/IJLLT_V3_I6_7.pdf

8. GOST R 50779–2007. Tourist services. Basic terms and definitions. Standartinform. https://docs.cntd.ru/document/1200058965

9. Wierzbicka, A. (1997). Understanding cultures through their key words. Oxford: Oxford University Press.

Шодия ИСМАИЛОВА,
PhD (пед. наук)

КАК ПРЕОДОЛЕТЬ МЕЖЪЯЗЫКОВУЮ ИНТЕРФЕРЕНЦИЮ В УСЛОВИЯХ МНОГОЯЗЫЧИЯ

Аннотация: в условиях интенсификации многоязычного образования проблема межъязыковой интерференции приобретает особую актуальность. Настоящая статья посвящена анализу данного феномена на различных языковых уровнях – фонетическом, лексическом, морфологическом и синтаксическом. Особый акцент сделан на взаимодействие второго изучаемого языка (L2) и третьего (L3) в контексте трилингвального освоения языков.

Рассматриваются психолингвистические аспекты языкового контроля и механизмов ингибиции, обеспечивающих эффективное функционирование нескольких языков в сознании носителя.

Автор выделяет ряд методических подходов, способствующих минимизации интерференции: применение контрастивного анализа, систематическая работа над ошибками, развитие метаязыкового сознания и использование упражнений на переключение между языками.

Выводы подчёркивают значимость комплексной стратегии преподавания в условиях многоязычной аудитории.

Ключевые слова: *межъязыковая интерференция, многоязычие, трилингвизм, второй язык (L2), третий язык (L3), языковой контроль, ингибиция, метаязыковая осознанность, контрастивный анализ, переключение кодов, преподавание иностранных языков, методические стратегии, лингвистическая интерференция, фонетический уровень, синтаксический уровень*

Annotation: in the context of the intensification of multilingual education, the issue of cross-linguistic interference is gaining particular relevance. This article is dedicated to analyzing this phenomenon across various linguistic levels — phonetic, lexical, morphological, and syntactic. Special attention is given to the interaction between the second (L2) and third (L3) languages within the framework of trilingual language acquisition.

The study examines psycholinguistic aspects of language control and inhibitory mechanisms that ensure the effective functioning of multiple languages within an individual's mind. The author identifies several methodological approaches aimed at minimizing interference, including the use of contrastive analysis, systematic error correction, the development of metalinguistic awareness, and the application of exercises involving language switching.

The conclusions emphasize the importance of an integrated teaching strategy in multilingual classroom settings.

Key words: *cross-linguistic interference, multilingualism, trilingualism, second language (L2), third language (L3), language control, inhibition, metalinguistic awareness, contrastive analysis, code-switching, foreign language teaching, methodological strategies, linguistic interference, phonetic level, syntactic level.*

Annotatsiya: ko‘p tilli ta’lim jarayonining jadallashuvi sharoitida tillararo interferensiya muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu maqola ushbu hodisaning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik darajalardagi ko‘rinishlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ayniqsa, uch tilda o‘qitish kontekstida ikkinchi til (L2) va uchinchi til (L3) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolada ko‘p tilli ongda bir nechta tillarning samarali ishlashini ta’minlaydigan til nazorati va inhibitsiya (to‘sish) mexanizmlarining psixolingvistik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Muallif interferensiyani minimallashtirishga xizmat qiluvchi bir qator metodik yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadi: kontrastiv tahlilni qo‘llash, xatolar ustida tizimli ishlash, metatil ongni rivojlantirish va tillar o‘rtasida almashinuvni (kodlarni almashtirish) talab qiluvchi mashqlardan foydalanish.

Xulosalarda ko‘p tilli auditoriya sharoitida til o‘qitish bo‘yicha kompleks strategiya muhimligi alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *tillararo interferensiya, ko‘ptillilik, trilingvizm, ikkinchi til (L2), uchinchi til (L3), til nazorati, inhibitsiya, metatil ong, kontrastiv tahlil, kodlarni almashtirish, chet tilini o‘qitish, metodik strategiyalar, lingvistik interferensiya, fonetik daraja, sintaktik daraja.*

Введение

Современная языковая среда всё чаще характеризуется многоязычием – явлением, при котором индивид использует в повседневной жизни два и более языка. Наряду с несомненными когнитивными и коммуникативными преимуществами, многоязычие сопряжено и с определенными лингвистическими трудностями. Одной из таких является **межъязыковая интерференция** – влияние одного языка на другой, проявляющееся в виде ошибок на различных уровнях: фонетическом, морфологическом, синтаксическом и лексическом.

Как отмечает Nozanin Daniqulova, студенты, для которых английский язык является иностранным, а родной – узбекский, часто совершают ошибки из-за переноса грамматических структур и лексики из L1 [1]. При этом интерференция возможна не только со стороны родного языка (L1), но и со стороны второго изучаемого языка (L2) на третий (L3). Например, в условиях, где английский изучается через русский язык, влияние русского как L2 на английский как L3 может быть более выраженным, чем родного узбекского языка[2].

Актуальность проблемы заключается в том, что большинство учебных программ в многоязычных странах (включая Узбекистан) не учитывают сложности, вызванные интерференцией между несколькими языками. Следовательно, возникает необходимость научно обосновать подходы к снижению негативного

эффекта межъязыкового влияния и выработать эффективные педагогические стратегии.

Методология

Настоящее исследование основано на **систематическом анализе** научной литературы (более 15 источников), затрагивающей тему языковой интерференции и методов её устранения. Использованы методы:

- контрастивного анализа языковых систем;
- психолингвистического анализа механизмов языкового контроля и ингибиции;
- контент-анализа типичных ошибок, допускаемых обучающимися;
- обобщения педагогических стратегий.

Примеры взяты из реальных случаев в обучении английскому и русскому языкам среди узбекоязычных студентов. Также рассмотрены исследования с билингвами и трилингвами, проведенные в разных странах.

Результаты

Проявления интерференции на разных уровнях языка

1. Фонетический уровень

Узбекские студенты, изучающие английский, часто произносят [θ] как [s] или [t], что связано с отсутствием этого звука в их родном языке. Также встречается оглушение звонких согласных в конце слов («dog» → [dok]) [3].

2. Лексический уровень

Распространена калька с русского языка: “make a photo” вместо “take a photo”, “he is married on her” вместо “to her”[4]. Причина – буквальный перевод фраз, не соответствующих нормам целевого языка.

3. Морфологический уровень

Ошибки в образовании множественного числа: “informations”, “advices” – результат переноса морфологических правил из L1 и L2, где такие формы допустимы или ожидаемы[5].

4. Синтаксический уровень

Нарушения порядка слов – частое следствие переноса структуры предложений. Пример: «I this book very like» (по аналогии с узбекским порядком слов: «Men bu kitobni juda yoqtiraman») [6].

5. Пунктуация и орфография

Учащиеся, привыкшие к пунктуации в русском или узбекском языках, переносят правила на английский, что приводит к неправильной постановке запятых и оформлению сложных предложений.

Психолингвистические аспекты интерференции

Исследования с использованием ЭЭГ и ERP-технологий показывают, что при активации нескольких языков мозг билингва задействует **механизм ингибиции**, позволяющий подавлять неактуальную языковую систему[7]. Однако этот механизм требует развития и тренировки.

В экспериментах с польско-английскими билингвами выявлено, что при встрече с омографами (одинаковыми словами с разными значениями в L1 и L2) активируются обе языковые системы, и только благодаря ингибиции происходит корректная интерпретация[8].

Таким образом, способность к языковому контролю – ключевой фактор преодоления интерференции, особенно в условиях изучения третьего языка (L3) через второй (L2).

Заключение

Анализ литературы и примеров показал:

- интерференция наиболее выражена на морфологическом и синтаксическом уровнях;
- чем ближе языки, тем выше вероятность негативного переноса (например, узбекский → турецкий);
- языковая интерференция – это не просто ошибка, а системное явление, требующее педагогического вмешательства.

Педагогические рекомендации

1. Контрастивный анализ на старте обучения

Выявление различий между L1, L2 и L3, особенно в грамматике и лексике, помогает прогнозировать потенциальные ошибки и предупредить их.

2. Фокус на контексте, а не на переводе

Изучение словосочетаний, идиом, устойчивых фраз в контексте снижает калькирование и формирует «чувство языка».

3. Развитие метаязыковой осознанности

Обучение учащихся рефлексии: анализ своих ошибок, понимание источника – L1, L2 или иного.

4. Работа с ошибками через сравнение

Не только исправлять, но и анализировать: почему так произошло, с каким языком связана ошибка.

5. Интеграция языкового контроля в упражнения

Включение заданий на переключение кодов, подавление «неправильных» форм (например, найти ошибку-перенос).

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Daniqulova N. A. (2025). *Cross-Linguistic Interference: Errors in Learning English among Uzbek Students*. GRN STEM.
2. Khudoyorov O. T. (2025). *Cross-Linguistic Influence in Second Language Phonology*. Web of Humanities.
3. Ficayuma L. A. (2023). *Phonological Interference of Indonesian Multilingual Learners*. JPTI.
4. Dosh R. A., & Al-Mahameed, Y. S. (2024). *Cross-Linguistic Interference in Arabic Learners*. IJLLT.
5. Eshimbetova G. D., & Nurumbetova, G. A. (2023). *On the Concept of ‘Interference’*. WOS.
6. Ellis R. (2008). *The Study of Second Language Acquisition*. OUP.
7. PubMed (2016). *Interference and Inhibition in Bilingual Language Comprehension*.
8. PubMed (2021). *Cross-linguistic interference in late language learners*.
9. Borecka J. (2021). *Cross-language Similarity in Trilinguals*. Linguistics Today.
10. Grosjean F. (2001). *The Bilingual’s Language Modes*. In Nicol, J. (Ed.).



ADABIYOTSHUNOSLIK

Dilbar XALILOVA,
Turon universiteti
Filologiya fanlari doktori (DSc)

DOSTOYEVSKIY IJODIDA AYOL OBRAZI BADIIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Dostoyevskiy asarlaridagi ayol obrazlarining badiiy talqini ilmiy tahlil qilinadi. Ayniqsa, ayolning diniy, ma'naviy va ijtimoiy jihatlari qanday tasvirlanganligi hamda bu obrazlarning yozuvchining asarlaridagi roli o'rganiladi. Maqolada, shuningdek, ayollarning ijtimoiy inqirozlar, axloqiy qarama-qarshiliklar va ruhiy izlanishlari qanday ifodalanganligi, ularning psixologik holatlari va hayotdagi o'rni tahlil etiladi. Yozuvchining ayol obrazlari orqali inson ruhining chuqur qatlamlari, murakkab hissiyotlari va ma'naviy qidirishlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *ayol obrazi, ijtimoiy inqirozlar, axloqiy qarama-qarshiliklar, ruhiy izlanishlari, psixologik holatlari, murakkab hissiyotlar, ma'naviy yuksalish.*

Аннотация: в данной статье проводится научный анализ художественного воплощения женских образов в произведениях Ф.М. Достоевского. Особое внимание уделяется тому, как изображены религиозные, духовные и социальные аспекты женских персонажей, а также их роль в произведениях писателя. В статье также анализируются, как выражены социальные кризисы, моральные противоречия и духовные поиски женщин, их психологическое состояние и место в жизни. Через образы женщин в произведениях раскрываются глубокие слои человеческой души, сложные чувства и духовные поиски.

Ключевые слова: *женский образ, социальные кризисы, моральные противоречия, духовные поиски, психологическое состояние, сложные чувства, духовное восхождение.*

Annotation: this article presents a scholarly analysis of the artistic interpretation of female characters in Fyodor Dostoyevsky's works. Special attention is given to how the religious, spiritual, and social aspects of female characters are depicted, as well as their role in the author's works. The article also analyzes how the social crises, moral contradictions, and spiritual quests of women are expressed, along with their psychological states and roles in life. Through the female characters, the deep layers of the human soul, complex emotions, and spiritual quests are revealed.

Key words: *female image, social crises, moral contradictions, spiritual quests, psychological states, complex emotions, spiritual ascent.*

Kirish. Kambag'al kishilar, ezilgan bandalar g'amxo'ri sifatida tanilgan F.Dostoyevskiy ayni vaqtda xotin-qizlarga ham xayrixoh bo'lib, bu toifa obrazlarini mehr bilan qalamga olgan. Fyodor Dostoyevskiy (1821-1881) rus adabiyotining eng buyuk yozuvchilaridan biri sifatida inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochishga intildi. Uning asarlarida ayol obrazlari ko'plab hollarda inson tabiatining ma'naviy ziddiyatlarini, ijtimoiy tizimdagi o'rni va ruhiy azoblarini aks ettiradi. Dostoyevskiy asarlaridagi ayol obrazlarning o'rni, ayniqsa, ular orqali insoniyatning ma'naviy, axloqiy va psixologik iztiroblarini ko'rsatish borasidagi talqini ahamiyatlidir. Ayol obrazlari nafaqat asarlarning asosiy tematik va ma'naviy markazi bo'lib xizmat qiladi, balki ular yozuvchining inson ruhi va jamiyatga bo'lgan yondashuvini aks ettiradi.

Adabiyotshunoslarning uqtirishlaricha, adibning "Aka-uka Karamazovlar" romanidagi Grushenka, "Telba" asaridagi Nastasya Filippovna, "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar" romanidagi Natasha, "Jinoyat va jazo" asaridagi Katerina Ivanovna obrazlari adibning birinchi xotini Mariya Dmitriyevna xarakteriga juda o'xshashdir. O'z navbatida, "Qimorboz" romanidagi Polina obrazi uchun F. Dostoyevskiy o'zining uchinchi xotini Apolinariya Suslovaning ayollik fazilatlarini tanlagan ekan.[1] Hayotdagi qaysi bir toifa, erkakmi-ayolmi, yoshmi-qarimi, arbobmi yoki oddiy mehnat ahllarimi, Dostoyevskiy, avvalo, bu insonlarning odamiylik fazilatlari sohibi ekanliklari hamda turmushda ro'shnolik ko'rmagan, ezilgan, nohaqlik

1 Вышеславцев Б. Достоевский о любви и бессмертии. О Достоевский. Сборник статей. –Москва: "Книга", 1990, стр.400-401.

va adolatsizlik qurboni bo‘lgan bandalar timsolini ko‘proq qalamga olganligi uning ijtimoiy-gumanitar fenomenini tushunish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Dostoyevskiy ijodida ayol obrazlari ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan tahlil qilingan va har bir tahlilchi ularni o‘ziga xos jihatlardan ko‘rib chiqadi. N.A.Makaricheva Dostoyevskiy asarlaridagi ayol obrazlarini ijtimoiy va ruhiy izlanishlar nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. U Sonyani ma’naviy yuksalish uchun kurashayotgan ayol sifatida, Nastasiyani esa o‘ziga xos axloqiy qarama-qarshiliklar bilan yuzlashayotgan personaj sifatida ko‘rsatadi. M.M.Baxtin, Dostoyevskiyning asarlarini dialogik tuzilma sifatida tahlil qiladi va unda insonlarning ichki kurashlari va ruhiy izlanishlarini aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dostoyevskiyning inson ruhiyatiga qaratilgan chuqur psixologik tasvirlari, ayol obrazlarini o‘sha davrning ijtimoiy tizimi bilan bog‘lab ko‘rsatilishida ayolning ma’naviy iztiroblari va yuksalishi kabi talqinlarni yoritish jarayonida psixologik yondashuv, sotsial-tarixiy kontekst, ma’naviy-axloqiy yondashuv qo‘llanildi.

Natijalar va muhokama. Bugun globallashayotgan dunyoda ayollarga nisbatan zo‘rlik-zo‘ravonlik, haqoratli munosabatlarning oldini olish masalasi siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy jihatdan ham eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib turibdi. Ezgu ma’naviy olamiga munosib ravishda Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning umr yo‘ldoshi Anna Grigoryevna g‘oyat go‘zal va muhimi, eriga juda mehribon va vafodor bo‘lgan. Shu boisdirki, adib asarlarida ayol zoti g‘oyat qadrlanadi, ayolga zulm qilgan munofiqlar qattiq qoralanadi va ayblanadi.

“Jinoyat va jazo” asarida Sonya Marmeladova obrazining o‘rni juda katta. Uning tasviri — yozuvchining ma’naviy va diniy masalalarini yoritishda markaziy o‘rin tutadi. Sonya o‘zining fohishalik faoliyati va qashshoqligi bilan jamiyatdan uzilgan, ammo uning ruhiy dunyosi juda boy va chuqur. Sonya — bu faqat qurbon bo‘lmagan, balki o‘z ichki dunyosida oxir-oqibat poklik va yuksaklikni topishga intilgan ayol. Asarda Sonyaning Raskolnikov bilan bo‘lgan munosabati juda muhimdir, chunki u Raskolnikovning ruhiy iztiroblarini anglab, unga yordam beradi. Uning yordamida Raskolnikov o‘zining jinoyatini va axloqiy iztiroblarini yengishga harakat qiladi. Misol uchun, Sonya bir necha bor o‘zini qurbon qiladi, lekin u hech qachon Raskolnikovni tark etmaydi va unga o‘zining ichki dunyosidagi yuksak sevgisi, sadoqati bilan yordam beradi. Asarda bu uning nafaqat Raskolnikov uchun, balki o‘zining ichki tinchligini izlashdagi izlanishlarining ifodasidir.

Dostoyevskiy Sonya orqali ayolning ma’naviy zaifliklari va ruhiy azoblarini kiritgan holda, insoniyatning yuksalish imkoniyatini ko‘rsatadi. U ayolni faqat ijtimoiy jihatdan “muvaffaqiyatsiz” yoki “qul” sifatida emas, balki uning ruhiy yuksalishi va jismoniy azoblarini yengishga bo‘lgan intilishiga katta ahamiyat beradi. Shu tariqa Dostoyevskiy nomatlub tuzum, adolatsiz jamiyat bag‘rida barcha jinoiy harakatlarga guvoh bo‘lib shakllandi. Asarlarida shunday adolatsiz jamiyat qotilga, o‘g‘riga, munofiqqa aylantirgan, qashshoqlik qa’riga tushgan bechora bandalar qiyofasini yaratishiga asos berdi. “Jinoyat va jazo” romanidagi o‘ta qashshoq ahvoldagi Rodion Raskolnikov va uning atrofidagi kishilar (Sonya, Sviridchaylov, Marmeladov, Marfa Petrovna, Katerina Ivanovna kabi) hayoti ham undan yaxshi emas. Yozuvchi atayin shunday kambag‘al, tushkunlik holiga tushgan bandalarni tasvir asosi qilib olgandek tuyuladi. Ammo, bu yozuvchi mansub ijtimoiy muhitning real manzarasini ifodalaydigan haqiqat edi.

Dostoyevskiy kambag‘al-qashshoq, ezilgan va xo‘rlangan bandalar hayoti va cheksiz iztiroblari tasviri orqali Chor Rossiyasi muhitining, ijtimoiy-siyosiy jamiyatining mohiyatan shunday tushkunlik girdobidagi ayanchli taqdirga sababchi ekanligini ko‘rsatganligini barcha dostoyevkiyshunos olimlar uqtirishgan.[2]

Dostoyevskiy Sonya qalbini, qismatini, ishonchi va orzularini aynigan, buzilgan dunyoning barcha yaramasliklariga qarshi qo‘ydi, mana shu yaramasliklarni teran anglagan yozuvchi bu botqoqdan chiqishning bir yo‘lini Sonyadagi xokisorlik va fidoyilikda, uning qalbidagi shafqatda deb bildi.

Bundan tashqari, “Telba” romanidagi Nastasiya Filippovna obraziga e’tibor qaratsak, Nastasiya, Dostoyevskiy, ayolning jismoniy go‘zalligi va ruhiy

2 Бахтин М.М.проблемы поэтики Достоевского. – Москва: “Художественная литература”,1972. – 88-94, –144-156.

azoblarini birlashtirib, uning ichki iztiroblarini va ijtimoiy tizimdagi o‘rnini chuqur tahlil qiladi. Nastasiya, go‘zalligi bilan erkaklarni o‘ziga jalb etadi, ammo uning ruhiy holati juda murakkab va to‘liq buzilgan. U oilasining zo‘ravonliklaridan azob chekadi, o‘zini baxtsiz his qiladi va o‘zining ma’naviy iztiroblariga qarshi kurashadi. Nastasiya obrazining asardagi o‘rni shundaki, uning ruhiy zaifliklari, uni ba’zi erkaklarning manipulyatsiyasi va dahshatli holatlaridan yiroq tutib, natijada o‘zini o‘limga olib keladigan holatga olib boradi. Shu bilan birga, Nastasiya — bu o‘zining ichki azoblarini va baxtsizliklarini boshdan kechirgan ayolning timsoli. U asarda ijtimoiy va ma’naviy zaiflikning, insonning o‘zgarishga qodirligi va shaxsiyatni izlashdagi cheksiz kurashning ramzi sifatida tasvirlanadi.

Dostoyevskiy uchun ayol obrazlari, uning axloqiy va diniy g‘oyalarini siyosiy va psixologik kontekstda yoritishda muhim vosita bo‘lgan. “Qimorboz”da Polina Aleksandrovna, nafaqat Aleksey Ivanovichning sevgilisi sifatida, balki asarning markaziy axloqiy masalalari — ruhiy azoblar, muhabbat, fidoyilik va insonga berilgan o‘limdan qutulish imkoniyati kabi g‘oyalarni ochish uchun kerakli vosita sifatida ishlatilgan. Polina asar ichidagi muhim ayol obrazlaridan biri bo‘lib, insonning ma’naviy yuksalish, o‘zini anglash va sevgiga intilish g‘oyalarini tasvirlashda markaziy o‘rin tutadi. U asar davomida nafaqat insoniyatning iztiroblarini aks ettiradi, balki ularning oxir-oqibat yuksalishining muhim timsoli sifatida ko‘rsatiladi.

Xulosa. Fyodor Dostoyevskiy ijodida ayol obrazlari inson tabiatining eng chuqur qatlamlarini ochish uchun qudratli vosita sifatida ishlatilgan. Ayol obrazlari murakkab, diniy, ijtimoiy va axloqiy jihatlar bilan boyitilgan va ular asarlarning ma’nosini chuqurlashtirgan. Dostoyevskiy ayolni faqat tashqi go‘zallik yoki axloqiy holatlarning ramzi sifatida emas, balki ma’naviy izlanishlar, ruhiy iztiroblar va ijtimoiy tizimdagi o‘rni orqali tasvirlaydi. Uning ayol obrazlari insoniyatning ma’naviy yuksalishiga qaratilgan azoblar va izlanishlarning ramzidir.

Darhaqiqat, buyuk insonparvar adib doimo shunday qarama-qarshiliklar, azob-uqubatli taqdirlar muhokamasi, iztirobli o‘y-xayollar ummoni ichra yashagan va shunday ruhiyatsizlik, umidsizlik ichra ijod qilgan. Ko‘plab olimlarning maqolalarida, kitoblarida Dostoyevskiy ijodi chuqur tahlil qilinar ekan, qalban-ruhan iztirobli tuyg‘ular egasi bo‘lib yashagan ijodkorning ruhiy olami bilan asarlari, katta-kichik obrazlari shu zaylda yaratilganligi ta’kidlanadi. M.B.Baxtin, V.Y.Kirpotin kabi yirik dostoyevskiyshunos olimlarning tadqiqotlarida ulkan adibning o‘z obrazlari chekkan iztiroblarda uning o‘zi o‘n barobar ko‘p chekkanligi uqtiriladi. Kirpotinning qayd qilishicha, Dostoyevskiyning ulkan san’atkorligi shunday jinoyatlar ko‘lamini, jabrdiydalar, bag‘ri xun bo‘lgan bechoralar qismatini badiiy san’atkorlik bilan sintezlashtira olganligida namoyon bo‘ladi.[3] Dostoyevckiy o‘z asarlarida ayol obrazlarini insoniyatning axloqiy, diniy va psixologik holatlarini ochishda muhim vosita sifatida kiritadi. Ayollar faqat o‘zlari uchun emas, balki butun jamiyat uchun ruhiy va axloqiy yuksalishning ramzi sifatida xizmat qiladilar.

3 Кирпотин В.Я. Избранные работы в трёх томах. Том 2. Достоевский. – М.: “Художественная литература”, 1978, стр.7.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вышеславцев Б. Достоевский о любви и бессмертии. О Достоевский. Сборник статей. – Москва: “Книга”, 1990, стр.400-401.

2. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: “Художественная литература”, 1972.88-94,144-156.

3. KD Jalilovna THE STABILITY OF THE IDEOLOGICAL CONCEPT IN THE WORK OF DOSTOEVSKY ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (53), 301-309

4. KD Jalilovna The concept of literary psychologism in the works of F. Dostoyevsky European journal of literature and linguistics, 39-42

5.DJ Khalilova Human and society interpretation in literary work Гуманитарный трактат, 20-23

Zulayho ABDURAHMON,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
katta ilmiy xodim

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SODIQLAR TAVSIFI

Annotatsiya: mumtoz adabiyotning o‘ziga xos obrazlar olami mavjud. Xususan, irfoniy-badiiy adabiyotning obraz, timsol va ramzlarini o‘rganish uchun diniy, tasavvufiy bilimlar talab qilinadi. Zero, ular islom olamida mashhur bo‘lgan shaxslar, adabiyot esa ularni o‘z qahramonlariga aylantirgan. Sodiq obrazi hamda sodiq irfoniy tushunchasining mukammal talqinlari Alisher Navoiy asarlarida uchraydi. Maqolada sodiq istilohining mazmuni, obraz o‘laroq ma’naviy maqomidan bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *sodiq, siddiq, sahoba, din, tasavvuf, oyat, hadis, ishq, irfon.*

Аннотация: в классической литературе существует своеобразный мир образов. В частности, для изучения образов, символов и аллегорий мистико-художественной литературы требуются религиозные и суфийские знания. Ведь это личности, известные в исламском мире, а литература превратила их в собственных героев. Образ «садик» и его мистическое толкование наиболее полно отражены в произведениях Алишера Навои. В статье рассматривается содержание термина «садик» и его духовный статус как литературного образа.

Ключевые слова: *садик, сиддик, сахаба, религия, суфизм, аят, хадис, любовь, ирфан.*

Annotation: classical literature possesses a distinctive world of images. In particular, the study of the images, symbols, and allegories of mystical and artistic literature requires religious and Sufi knowledge. These are personalities well known in the Islamic world, and literature has transformed them into its own heroes. The image of the “ṣādiq” and the mystical interpretations of this concept are most vividly reflected in the works of Alisher Navoi. The article discusses the meaning of the term “ṣādiq” and its spiritual status as a literary figure.

Key words: *ṣādiq, ṣiddīq, companion, religion, Sufism, verse, hadith, love, irfān.*

Alisher Navoiy asarlarida so‘zlarning ma’no qirralari, ularning irfoniy qatlamini o‘rganish shoir asarlarining mazmun-mohiyatini ochishga keng yo‘l ochadi. Sodiq mana shunday so‘zlardan biridir. Sodiq turk adabiyoti, turk xalqi ruhiyatiga singib ketgan kalimalardan biri hisoblanadi. Zero, oddiy so‘zlashuv uslubida ham keng iste’mol qilinadi. Hatto millat o‘z farzandlariga bu so‘zni ism o‘laroq tanlashadi. Sodiq – rost, to‘g‘ri ma’nosidagi arabiy so‘z bo‘lib, sadoqatli, vafodor shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Qur’oni karimning ko‘plab oyatlarida sodiq lafzi qo‘llanilib, ularning fazilati, Alloh taoloning ularga marhamati, sodiq zotlarning ma’naviy maqom martabasidan bahs yuritiladi. Masalan: Ahzob surasida o‘qiymiz: “Mo‘minlar orasida o‘zlari Allohga bergan (U zotning yo‘lida jihod qilib, shahid bo‘lish haqidagi) ahdu paymonlariga sodiq bo‘lgan kishilar bordir. Bas ulardan (ayrim) kishilar o‘z ahdiga vafo qildi, (ya’ni shahid bo‘ldi), ulardan (ayrim) kishilar esa (shahid bo‘lishga) intizordir. Ular (munofiqlarga o‘xshab Allohga bergan ahdu paymonlarini) o‘zgartirganlari yo‘q (Ahzob: 23)”. Bu kalima, asosan, Amiri ul-mo‘minin Abu Bakr Siddiq r.a.ga berilgan yuksak maqom, siddiq lafzi bilan aloqador bo‘lganligi bilan ham ahamiyatli. Mumtoz adabiyotda ham yori g‘orning fazilati o‘laroq kelgan bu istiloh obraz darajasiga ko‘tarilgan. Ma’lumki, “Lison ut-tayr” dostonida chahoryorlarning vasfi Abu Bakr Siddiq r.a.ga ta’rif-tavsif bilan boshlanadi:

Ulki sultoni rasulning yoridur,
Soniy isnayn azhuma filg‘oridur.
Sodiqu siddiq hamrozi oning,
Har yomon-yaxshida damsozi oning.
Ul edi olam eliga rahnamun,
Keldi chun vassobiqun assobiqun.
Muqtadoi zumrai tahqiq ul,
Sobiq islom ahlig‘a *siddiq* ul.

Demak, siddiqlik ishqda sodiqlik bilan belgilanadi. Ishq da’vosi sodiqlik imtihonida sinaladi. Mashoyixlar: “G‘ofillar Xudoyi taoloning hilmi panohida kun kechiradi, zokirlar – zikr qiluvchilar uning rahmati, oriflar Xudoning lutfi, sodiqlar – Xudoning qurbi, muhiblar Xudoning do‘stligi soyasida umrguzaronlik qilishadi”, – deyishgan. Qurbat – Alloh va bandasi o‘rtasidagi shunday bir unsiyatki, qurb ahli o‘laroq sodiq oshiqning iltijoi duolari ham ijobat bo‘lishi Shayx San’onning sodiq muridi obrazida ko‘rinadi:

Ish anga — qilmoq munojotu duo,
Aylabon — shayxig‘a maxlas muddao.

Chun bu maqsadig‘a *sodiq* erdi ul,
Sidq ahlig‘a muvofiq erdi ul.
Ko‘b duo qildi, chu aylab iztirob,
Tengri ham qildi duosin mustajob.

Abulqosim Muqriy q.s.ning “sodiq kishilar o‘zlari va pirlari haqidagi so‘zlarini tasdiqlash bilan tasavvufga baraka kira boshlaydi”, – hikmatini Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da keltiradi. Tasavvufda solik sodiqlik bilan talab, ishq, ma’rifat, haqiqat vodiylarini bosib o‘tadi va siddiq rutbasiga ko‘tariladi. Shu bois Alisher Navoiy asarlarida ham *guvohi sodiq, tolibi sodiq, mujrimi sodiq, oshiqi sodiq, sidq-u sodiq* birikmalari solikning hollarini yorqin ko‘rsatishga xizmat qiladi:

Oshiqi sodiq vafo birla jafoni tolg‘amas,
Xush kelur ko‘ngliga har ne kim kelur dildordin.

Alisher Navoiy har ishda sidqu sadoqatni istab, ba’zan shunday yozg‘iradi:

Tolibi sodiq topilmas yo‘qsa kim qo‘ydi qadam,
Yo‘lg‘a kim avval qadam ma’shuqi o‘tru kelmadi.

Shoirning sodiqlik borasida ham o‘ziga bahosi aytilgan baytlar bor:

Kim emas oshiq sanga solsang meni ko‘zdin, vale
Oshiqekim sodiq o‘lg‘ay men kibi kam topqasen.

“Guvohi sodiq”, “sofu sodiq”, “subhi sodiq” kabi birikmalar ham sodiq so‘zining turli ma’no qirralarini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Ammo Alisher Navoiy asarlarida ko‘p bora tilga olingan, Rasulullo (s.a.v.) ga ishorat etgan *“Muxbiri sodiq”, “sodiqi rasul”*, ya’ni ishonchli, sadoqatli xabarchi, elchi birikmalarining alohida o‘rni bor. Nasriy va lirik ijodida bu birikmadan birday istifoda etilgan. “H.a” dostonidagi “Beshinchi na’t”da Me’roj kechasi shunday tasvirlanadi: “Subhonallazi asro” anga musaddaqi durur va “bi-abdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso” aning subutig‘a ikki guvohi sodiq.

Bir kecha zulmatqa qolib koinot,
Mehr nihon o‘ylaki aynul-hayot.
Oshiq o‘zin kim desa, oshiq emas,
Borcha kishi ishqda *sodiq* emas.
Ulki habibim dedi xoliq ani,
Derlar ulus *muxbiri sodiq* ani.
Chunki aning borcha so‘zi haq durur,
O‘trusida el so‘zi *“saddaq”* durur”.

Mazkur matnda “bi-abdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso” sodiq guvohlar sifatida e’tirof etiladi. Me’roj kechasining haqligi hamda Rosulullohning sodiqligini urg‘ulash maqsadida qo‘llangan *“saddaq”, “musaddaq”* so‘zlari ham sodiq so‘zi bilan bir asosdan bo‘lib, Alisher Navoiyning badiiy mahoratini ko‘rsatgan. Insonning sharafi sodiqligi bilan o‘lchanishi “Nasoyim”da shunday keladi: “Murta’ish debdurki, Abu Abdulloh Hazramiydin tasavvufni savol qildim va yigirma yil erdikim, so‘z demaydur erdi. Manga Qur’on bila javob berdi va bu oyatni o‘qudiki, “mo‘minlar orasida Allohga bergan va’dalariga sodiq kishilar bordir (Ahzob: 23)”. Dedim: alarning sifati nechukdur? Dedi: “ko‘zlari o‘zlariga qaytmaydi, dillari bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoladi (Ibrohim: 43)”. Dedim: alarning mahali qaysi ahvoldindur? Dedi: “albatta, taqvodorlar jannatlarda, Qodir podshoh huzuridagi rozi bo‘lingan o‘rinda bo‘lurlar (Qamar: 55)”. Dedim: orttur. Dedi: “o‘zing aniq bilmagan narsaga ergashma. Chunki quloq, ko‘z, dil – bularning barchasiga inson mas’uldir (Isro: 36)”.

Insonning so‘zida sodiqligi uning va’dasiga vafosidir. Albatta, bani basharning “Bazmi Alast”da “Amanna va saddaqna” (“Imon keltirdik va Senga sodiqmiz”) deya bergan va’dasiga sodiqligi eng muhimdir. Sodiqlik til, dil va amal mushtarakligida mukammal bo‘ladi. Qalb iqror etgan ishq, albatta, amallar bilan isbotlanadi. Shunda komil sodiqlikka erishiladi. “Moida” surasida shunday marhamat qilinadi: “Alloh aytdi: “Bu kun (ya’ni qiyomat kuni) haqqi-rost iymon keltirganlarga rost so‘zlari foyda beradigan kundir”. Ular uchun ostidan daryolar oqib turadigan jannatlar bordir. Ular unda abadiy qolajaklar. Ulardan Alloh rozi bo‘ldi, ular ham Allohdan rozi bo‘ldilar. Bu esa ulug‘ baxtdir”. Adabiyotning vazifasi ham mana shu iqrorni unutmaslik, unga xiyonat etmaslikni o‘z maqsadiga aylantirgani bois sodiq – “rozi bo‘lingan nafs” sohiblari sifatida tariqatda yuksak maqom, irfoniy adabiyotda esa obrazga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. МАТ. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001.
2. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. МАТ. 6-том. – Тошкент: Фан, 1989.
3. Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. МАТ. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000.
4. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 12-том. – Тошкент: Фан, 1996.
5. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. МАТ. 4-том. – Тошкент: Фан, 1989.
6. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш (2-китоб). – Тошкент: “Фан”, 2011.
7. Zulayho Abdurahmon. Navoiyshunoslik manzillari. – Toshkent, 2024.

Elmira DJURAKULOVA,
TDYU huzuridagi akademik litsey
o‘qituvchisi (f.f.n)
djurakulovaelmira@gmail.com

NAVOIY “XAMSA”SI VA KOMPARATIVISTIKA MASALALARI

Annotatsiya:mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” asarlari tahlil qilinib, ularning Sharq adabiyoti an’analari bilan bog‘liqligi hamda turli davrlardagi “Xamsa”chilarga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Navoiy “Xamsa”sining Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy kabi shoirlar ijodi bilan qiyosiy jihatlari ochib beriladi. Komparativistika nuqtayi nazaridan Navoiy ijodining badiiy-uslubiy, g‘oyaviy, syujet va obraz tizimidagi o‘xshashlik va farqlari tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy adabiyotshunoslikning komparativ yondashuvi orqali Navoiy “Xamsa”sining jahon adabiy jarayonidagi o‘rni baholanadi.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Xamsa”, komparativistika, Nizomiy Ganjaviy, amir Xusrav Dehlaviy, sharq adabiyoti, qiyosiy tahlil, syujet va obrazlar, badiiy an’analar, adabiy ta’sir.*

Аннотация:в данной статье рассматриваются произведения «Хамса» Алишера Навои, их связь с традициями восточной литературы, а также влияние на поэтов, создававших «Хамса» в различные эпохи. Кроме того, выявляются сравнительные аспекты между «Хамсой» Навои и творчеством таких поэтов, как Низами Гянджеви и Амир Хусрав Дехлеви. С точки зрения компаративистики анализируются художественно-стилистические, идейные, сюжетные и образные сходства и различия в творчестве Навои. В статье также оценивается место «Хамсы» Навои в мировом литературном процессе с точки зрения современной литературной компаративистики.

Ключевые слова: *Алишер Навои, Хамса, компаративистика, Низами Гянджеви, Амир Хусрав Дехлеви, восточная литература, сравнительный анализ, сюжет и образы, литературные традиции, литературное влияние.*

Annotation:this article examines Alisher Navoi’s Khamsa works, emphasizing their connection to Eastern literary traditions and their influence on Khamsa writers from different eras. It also compares Navoi’s Khamsa with the works of poets such as Nizami Ganjavi and Amir Khusrau Dehlavi. From a comparative literature perspective, the article explores similarities and differences in artistic style, ideology, plot, and character systems within Navoi’s creative works. Additionally, it assesses Navoi’s Khamsa’s role in the global literary landscape through the framework of modern comparative literary studies.

Key words: *Alisher Navoi, Khamsa, comparative literature, Nizami Ganjavi, Amir Khusrau Dehlavi, Eastern literature, comparative analysis, plot and characters, literary traditions, literary influence.*

Kirish.O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiy nafaqat o‘z davrining, balki jahon adabiyoti tarixining eng yirik shoirlaridan biri sifatida tan olingan. Uning ijodiy merosi orasida “Xamsa” alohida o‘rin tutadi. “Xamsa” (besh doston) janri Sharq adabiyotida o‘ziga xos maktab bo‘lib, bu yo‘nalishning asoschilaridan biri Nizomiy Ganjaviy sanaladi. Navoiy o‘zining “Xamsa”si bilan bu janrni nafaqat davom ettirgan, balki uni yangi bosqichga ko‘targan. Shu bilan birga, ushbu dostonlarni komparativ adabiyotshunoslik (komparativistika) nuqtayi nazaridan tahlil qilish, Nizomiy, Hofiz, Jomiy, Firdavsiy kabi shoirlar bilan o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash ilmiy jihatdan muhim masalalardan biridir.

Sharq adabiyotida “Xamsa” janrini birinchi bo‘lib yaratgan shoir **Nizomiy Ganjaviy** bo‘lib, u quyidagi besh dostonni yozgan:

1. “Maxzan ul-asror”
2. “Xusrav va Shirin”
3. “Layli va Majnun”

4. “Haft Paykar”
5. “Iskandarnoma”

Ushbu an’anani keyinchalik Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy davom ettirgan. Alisher Navoiy esa bu yo‘nalishda o‘zbek adabiy tilining imkoniyatlarini namoyon etgan holda quyidagi dostonlarni yaratdi:

1. *“Hayrat ul-abror”*
2. *“Farhod va Shirin”*
3. *“Layli va Majnun”*
4. *“Sab’ai Sayyor”*
5. *“Saddi Iskandariy”*

Asosiy qism. Navoiy va Nizomiy “Xamsa”sining komparativ tahlilini jadval ko‘rinishida quyidagicha tahlilga tortdik:

Dasturiy jihatlar	Nizomiy	Navoiy
Tili	Fors tili	Chig‘atoy (eski o‘zbek) tili
Falsafiy yondashuv	Sufiylik, zohiriy falsafa	Tasavvuf, falsafiy chuqurlik, ijtimoiy adolat
Qahramon obrazlari	Idealizatsiyalangan	Hayotiy, real xarakterlarga ega
Ayol obrazi	Ko‘proq go‘zallik ramzi	Ijtimoiy va ruhiy jihatdan to‘laqonli shaxs

Komparativistik metodlarning qo‘llanilishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, komparativ adabiyotshunoslikda quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi:

- Tarixiy-tipologik yondashuv: Xamsalar orasidagi umumiy timsollar va motivlar (Farhod – ishq va mehnat qahramoni, Iskandar – davlat va adolat ramzi) orqali o‘rganiladi.
- Struktural yondashuv: kompozitsiya, obrazlar tizimi, syujet strukturalari taqqoslanadi.
- Madaniy-kontekstual yondashuv: har bir shoir asarini o‘z davri madaniy, siyosiy kontekstida tahlil qilish orqali yangi ma’no qatlamlari ochiladi.

Xalqaro komparativistika doirasida Navoiy “Xamsa”sining o‘rni muhim ahamiyatga ega. Navoiy “Xamsa”si xalqaro miqyosda ham qadrlanadi. UNESCO tomonidan Navoiy yillari nishonlangani, uning asarlarining ingliz, rus, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilinishi – bu uning jahon adabiyotidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Komparativ tahlilda Navoiy “Xamsa”sini Dante, Petrarka, Shekspir kabi adiblar bilan qiyoslash ham dolzarb masalalardandir.

Navoiy “Xamsa”sining g‘oyaviy va estetik yangiliklari asarda yaqqol aks etgan. Navoiy “Xamsa”sida shunchaki Nizomiy an’analarini takrorlamagan. U o‘z davrining ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy muammolarini yoritgan. Masalan,”*Farhod va Shirin”* dostonida mehnat va muhabbat timsoli sifatida Farhod obrazi orqali ijtimoiy tenglik, adolat masalalari ko‘tariladi.

Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni bo‘lgan “Hayrat ul-abror” —**axloqiy-didaktik** yo‘nalishga ega. Bu janrda yozilgan dostonlar Sharq adabiyotida an’anaviy bo‘lib, ayniqsa **Nizomiy Ganjaviy** va **Abdurahmon Jomiy** bu turdagi asarlari bilan mashhur. “Hayrat ul-abror”da Navoiy insoniy komillik, odillik, taqvo, ilm-fan, xalqparvarlik, zohidlik kabi mavzularni ilgari suradi. Bu jihatlarni avvalgi mualliflarning asarlari bilan qiyoslash, Navoiyning yangiliklarini ochib beradi.

“Xamsa”ning birinchi dostonlarini quyidagicha qiyoslasak:

1. Asarlarning umumiy qiyosiy ko‘rinishi

Jihatlar	Nizomiy: “Maxzan ul-asror”	Jomiy: “Tuhfat ul-ahror”	Navoiy: “Hayrat ul-abror”
Tili	Fors tili	Fors tili	Eski o‘zbek (chig‘atoy) tili
Janri	Didaktik-diniy doston	Tasavvufiy-didaktik	Axloqiy-falsafiy-didaktik
Uslubi	Ramziy, falsafiy	Sufiyona, ramziy	Aniq, ijtimoiy-falsafiy
Syujet	Erkin kompozitsiya	Erkin	Erkin, lekin ijtimoiy dinamizm bor

G‘oyaviy-falsafiy o‘xshashlik va farqlar:

- Umumiy g‘oya: har uch doston ham inson komilligi, ruhiy poklanish, donolik, adolat, taqvo kabi mavzularni yoritadi. Biroq uslub va tazohurda farqlar mavjud.
- Nizomiy o‘z asarida ilohiy hikmatlar orqali insoniy fazilatlarni targ‘ib qiladi, ko‘proq sufiyona ramzlarga murojaat qiladi. U hikmatlar, maqollar, diniy rivoyatlar orqali o‘rgatadi.
- Jomiy esa tasavvufni markazga qo‘yadi. Inson ruhining Allohga yetishish yo‘lidagi iztiroblarini nazmga soladi.
- Navoiy esa bu an’analarni davom ettirar ekan, ularni ijtimoiy adolat, hokim va xalq, olim va nodon, boy va faqir kabi mavzular bilan boyitadi. U ko‘proq ijtimoiy ongni uyg‘otish maqsadini ko‘zlagan.

Misol: Navoiy dostonida olimlar, adolatli shohlar va zolimlar haqida alohida boblar mavjud. Masalan, u olimni “jaholat zulmatida yo‘l ko‘rsatadigan chiroq” deb ataydi.

Kompozitsion qurilish va janr xususiyatlari:

- Har uch asarda ham syujetga bog‘liq aniq bir voqea emas, balki boblar orqali berilgan axloqiy-maslahatli g‘oyalar asosiy o‘rinda turadi.
- “Hayrat ul-abror” 20 ta bobdan iborat bo‘lib, har biri alohida g‘oyaviy masalaga bag‘ishlangan. Nizomiy va Jomiyda ham bu an’ana bor, ammo Navoiy har bir bobda zamonaviy (o‘z davriga nisbatan) ijtimoiy kontekstni kuchli aks ettirgan.

Estetik yangiliklar va til madaniyati

- Navoiy bu doston orqali o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini namoyish qiladi. U har bir hikmatni xalqona, sodda, ammo chuqur mazmunda beradi.
- Nizomiy va Jomiyda murakkab forsiy poetik uslub, arabcha iboralar ko‘p. Bu esa ularni murakkabroq qiladi.
- Navoiyda esa xalqchil, yengil o‘qiladigan, lekin ilmiy-falsafiy qatlamga ega baytlar mavjud:

Baxshida jahonga davlatkim, anga Bor adlu insof ila shavqat anga

Natijalar va muhokama

Komparativ metodlar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak:

- Tarixiy-tipologik yondashuv asosida Navoiy “Hayrat ul-abror”i Nizomiy va Jomiyning dostonlari bilan badiiy-ma’naviy jihatdan uzviy bog‘liq. Ammo u yangi tarixiy bosqichga ko‘tarilgan.
- Kontekstual yondashuvda ko‘rilsa, Navoiy o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolariga e’tibor qaratgan: adolatli hukmdor, olimning o‘rni, din va davlat munosabati.
- Innovatsion yondashuv nuqtayi nazaridan qaraganda, Navoiy bu janrga milliylik, ijtimoiylik va o‘zbek tilidagi yangi badiiy ifodani olib kirgan.

“Hayrat ul-abror” Navoiy “Xamsa”sining nafaqat birinchi, balki eng muhim g‘oyaviy poydevorini tashkil etuvchi dostonidir. U Nizomiy va Jomiy asarlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, yangicha milliy adabiy-estetik yondashuv bilan ajralib turadi. Komparativ tahlil orqali ushbu dostonning nafaqat Sharq adabiy an’analaridagi o‘rni, balki o‘zbek adabiyotining mustaqil taraqqiyotida tutgan o‘rni ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy “Xamsa”si o‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti darajasiga ko‘targan yuksak badiiy yodgorlikdir. Uni komparativ nuqtayi nazardan o‘rganish orqali Sharq adabiyotidagi xamsa an’analarining rivojini, o‘zaro bog‘liqligini va milliy adabiyotimizning o‘ziga xosligini ochib berish mumkin. Bunday tadqiqotlar nafaqat adabiy merosni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi, balki Navoiy ijodining dolzarbligini ham qayta namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aziz Qayumov. Alisher Navoiy. – T.: Kamalak, 1991.
2. Navoiy A. *Xamsa*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. Tohir Xo‘jayev Navoiy “Xamsa”si obraz, badiiyat va mohiyat. –Toshkent «Zilol buloq» nashriyoti, 2023.
4. G‘aniyeva N. *Alisher Navoiy hayoti va ijodi*. – Toshkent: Fan, 2000.

Shahnoza XUDAYBERDIYEVA,
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

ALISHER NAVOIY HIKOYATLARIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy hikoyatlarida keltirilgan ba’zi tarixiy shaxslarning badiiy talqini tahlil etilgan. Navoiy o‘z asarlarida tarixiy shaxslar va ular bilan sodir bo‘lgan real voqealarga qay tariqa yondoshgani, ularga qanday badiiy tus bergani “Saddi Iskandariy” dostonidagi buyuk shohlar, Mahmud G‘aznaviy, mo‘g‘ul hukmdori Chingizxon va Temuriy shahzoda Sulton Abu Said bilan bog‘liq hikoyatlar misolida yoritilgan. Hikoyatlardagi poetik talqinlar tarixiy haqiqat bilan qiyoslanib, poetik talqin, badiiy to‘qima va tarixiy haqiqat o‘rtasidagi munosabat masalalari yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *tarixiy shaxs, tarixiy obraz, hikoya, badiiy talqin, Saddi Iskandariy, Alisher Navoiy, Mahmud G‘aznaviy, Abu Said Mirzo, Yodgor Mirzo.*

Аннотация: в данной статье проанализирована художественная интерпретация некоторых исторических личностей, упомянутых в повествованиях Алишера Навои. Рассматривается, каким образом Навои в своих произведениях обращался к историческим персонажам и реально произошедшим событиям, какие художественные оттенки он им придавал. На примере повествований, связанных с великими правителями в поэме “Садди Искандари”, Махмудом Газневи, монгольским ханом Чингизханом и тимуридским шахзадой Султаном Абу Саидом, раскрываются особенности авторского подхода. Поэтические интерпретации сопоставляются с исторической действительностью, высказываются соображения относительно взаимоотношения между поэтическим толкованием, художественным вымыслом и исторической правдой.

Ключевые слова: *историческая личность, исторический образ, повествование, художественная интерпретация, “Садди Искандари”, Алишер Навои, Махмуд Газневи, Абу Саид Мирзо, Йодгор Мирзо.*

Annotation:this study explores the artistic representation of historical figures in Alisher Navoi’s narratives, focusing on the intersection between poetic interpretation and historical reality. By analyzing the depictions of prominent rulers in the epic Saddi Iskandariy including Mahmud of Ghazni, the Mongol conqueror Chinggis Khan, and the Timurid prince Sultan Abu Sa‘id the article demonstrates how Navoi employed literary imagination to reshape historical events and personalities. The findings emphasize the dialectical relationship between historical truth, poetic imagery, and artistic invention in Navoi’s works.

Key words: *historical representation, poetic imagination, literary interpretation, Saddi Iskandariy, Alisher Navoi, Mahmud of Ghazni, Chinggis Khan, Sultan Abu Sa‘id, Yodgor Mirzo.*

Kirish. Alisher Navoiy asarlariga nazar tashlansa, ularning aksarida turli hikoyatlar borligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bu holat shoirgacha va shoir yashagan davr ijodiy muhiti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘sha davr an’anasiga ko‘ra, yaratilgan asarlar turli mavzulardagi hikoyatlar bilan boyitib borilgan. E’tiborli tomoni shundaki, Navoiy asarlari tarkibida kelgan hikoyatlarning muayyan qismi tarixiy shaxslar hayoti bilan bog‘liq voqealar asosida yaratilgan. Mazkur mulohazani “Saddi Iskandariy” dostoni tarkibida kelgan hikoyatlar bilan asoslash mumkin.

“Saddi Iskandariy” dostonida bir qancha tarixiy shaxslar bilan bog‘liq hikoyatlar berilgan. Ularning ayrimlari badiiy to‘qimalar asosida talqin etilgan bo‘lsa, ba’zilari real voqealar asosida yaratilgan. Lekin Navoiy har ikki holatda ham badiiy adabiyot qonuniyatlariga to‘la rioya etadi, zero, “Tarixiy asarlarda, odatda, o‘tmishdagi ma’lum davrga xos shart-sharoit, xalq va mamlakat hayoti, unda iz qoldirgan biror-bir tarixiy shaxs obrazi poetik qonuniyatlar asosida yoritib beriladi” [1, 46]. Asarda dunyoni titratgan buyuk sarkardalardan tortib, o‘z davrida juda katta bo‘lmagan yerda hukmdorlik qilib, o‘zining adolatpeshaligi yoki zolimligi bilan nom chiqargan shohlar, ular bilan sodir bo‘lgan muhim voqealar ham qalamga olingan.

Asosiy qism. “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Mahmud” hikoyatining qahramoni 967 – 1030-yillarda yashab o‘tgan davlat arbobi va harbiy sarkarda Mahmud G‘aznaviy ibn Sabuktegin, g‘aznaviylar davlati hukmdoridir. Mahmud G‘aznaviy sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adolatli shoh timsoli hisoblanadi. Navoiy talqinidagi hikoyat sulton Mahmud va o‘g‘li Mas’ud o‘rtasidagi suhbat asosiga

qurilgan va ushbu suhbat tush motivi asosida talqin etilgan. Bu qanchalik haqiqat ekanligi aniq bir manbada keltirilmagan bo‘lsa-da, ammo Mahmudni tushda ko‘rish sahnasi va uning adolatli ekani bilan bog‘liq tasvirlar ko‘plab asarlarda uchraydi.

Jumladan, Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida ham Mahmud G‘aznaviy haqida hikoyat mavjud. Hikoyatlarning o‘xshash va farqli tomonlari bor. Bu ikki hikoyatning mohiyatini ochib beradigan asosiy obrazlar shoh va kampir obrazlaridir. Hikoyatlardagi o‘xshashlik kampirlarning jabrdiydaligi bo‘lsa, boshqa barcha holat asarlarni bir-biridan farqlab turadi. Navoiy o‘z asarida jabrdiyda kampirni juda ojiz bechora, nochor ahvolda tasvirlaydi va bu bilan o‘quvchi ko‘z oldida himoyaga muhtoj bechora kampir obrazini chizadi. U shu qadar ojiz, zaif, bechoraki, muallif tarafidan bir og‘iz gapirtirilmaydi. Barcha tashabbus shoh Mahmud obraziga yuklanadi, bu esa shohni yanada ulug‘vor ko‘rsatib, kampirning abgor holatini yanada ochiqroq tasvirlashga imkon bergan. Nizomulmulkda esa aksincha, kampir obrazi ancha tetik, u o‘z ahvolidan nafaqat shikoyat qiladi, balki o‘g‘irlangan narsalari uchun xun to‘lashini va o‘g‘rilarni jazolashini talab qiladi. Shoh esa o‘g‘rilar yashaydigan hudud uning viloyatiga kirmasligi va ularga farmoni o‘tmasligi haqida gapiradi. Shunda, haligi ayol: “Sen qanday jahon podshosisanki, o‘z martabangga yaramaysan, sen qanday cho‘ponsanki, qo‘yni bo‘ridan saqlamaysan?!” – deb shohni adolatli, xalqparvar bo‘lishga undaydi[2, 66]. Ko‘rinadiki, Navoiy o‘z asaridagi qahramonni birinchi planga qo‘yadi va barcha tashabbusni unga yuklatib, o‘quvchi ko‘z o‘ngida ideal shoh obrazini yaratadi.

Bu obraz Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarida ham uchraydi. Ushbu dostondagi Mahmud hikoyati “Siyosatnoma”dagi hikoyatdan farqli ravishda obrazlari bilan emas, balki motivlarning bir xilligi bilan Navoiy hikoyatiga o‘xshash. Shu kabi o‘xshashlik Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarining 8-maqolotida ham keladi [3, 33 qarang]. Bularning barchasida tush lavhasi va tushga kiruvchi shaxs aynan, farqli jihati esa tush ko‘ruvchilar va sodir bo‘ladigan voqealardir. Navoiy hikoyasida Mahmud o‘g‘lining tushiga kirsa, Sa’diy Sherozi asarida Xuroson podsholaridan birining, Attor ijodida, pok bir yigit tushiga kiradi. Mahmudni tushda ko‘rish epizodi bir qancha asarlarda kelishiga qaramay, uning real asosi, tarixiy voqelik biz ko‘rgan hech bir manbada uchramadi.

Navoiy hikoyatlarida badiiy obraz darajasida tasvirlangan yana bir tarixiy shaxs bu Chingizxon (Timuchin)dir. Chingizxon haqidagi hikoyat syujeti tarixda bo‘lib o‘tgan voqealar asosida tasvirlangan. Chingizxon va Xorazmshoh o‘rtasida uzoq, uzluksiz davom etgan ayovsiz janglar quyidagi baytlarda o‘z ifodasini topgan:

Buzuldi jahon ulcha maqdur erur,
Netay sharhin aytib, chu mashhur erur [4, 131].

Ikki hukmdor o‘rtasida yuzma-yuz to‘qnashuv bo‘lmasa-da, xorazmshoh shahzodasi bilan mo‘g‘ul jangchilari, mo‘g‘ul shahzodalari bilan xorazmshoh qo‘shini o‘rtasida ko‘plab qonli to‘qnashuvlar bo‘lgan. Bu jang-u jadallar ko‘plab tarixchilar, ijodkorlar asarlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, Abulg‘oziy Bahodirxon o‘z asarida quyidagicha ma’lumot beradi: “Chingizxon ulug‘ o‘g‘li Jo‘jini Turkiston atrofinda o‘lturg‘an Kuchlukdin ayrilib qolg‘on har urug‘din ellar bor edi, anlarning ustuniga yubordi. Ul vaqtda Sulton Muhammad Chingizxonning o‘zi /55b/ tarafina mutavajjuh bo‘lg‘anin eshitib lashkar yig‘ishturub Samarqand kelib andin Jand keldi. Ul mahalda xabar topti kim Jo‘jixon kelib Turkiston atrofidag‘i ellarni chopdi deb. Ilg‘ab el o‘lturg‘an yerg‘a bordi ersa, ko‘rdi kim Qabli / Qili / va Qamich tegan ikki suvning orasinda ko‘p o‘luklar yotur. Onlarning orasinda bir nim jon kishi topib xabar so‘rdilar. Ul aytdi Jo‘jixonning kelaturg‘anin eshitib qochib kela erduk” [5, 62]. Mirzo Ulug‘bek ham mo‘g‘ullar bosqiniga to‘xtalib shunday yozgan edi: “Mo‘g‘ul sipohlari oz edi, lekin yuz yomon jangchidan bir botir jangchi afzal. Ular sulton sari dev kabi shunday hujum qildilarki, (lashkari) qalbini suron bilan yorib o‘tdilar. Osmon martabali sulton o‘sha kuni yaralanib, asirga tushay dedi” [6, 134].

Navoiy hikoyatda ayovsiz janglardan tashqari, g‘alabaga erishgan Chingizxonning tinch aholiga qilgan zulmini ham tasvirlagan:

Ne kishvar arokim, maqom ayladi,
Chekib tig‘i kin, qatli om ayladi [4, 131].

Baytda keltirilgan ushbu ma’lumot real voqelikka asoslangan va ushbu tarixiy jarayon, fakt bir qancha tarixiy manbalarda qayd etilgan. “Chingizxon urush boshlagan davlatida o‘rnashib olish niyatida emasdi. U o‘z ajdodlari urf-odatlariga qarshi borib ko‘chmanchi hayotni tashlashni o‘ylamas, bosib olingan yerlarga shimolning ichkarisidan turib o‘zi o‘ylab topgan tartib bo‘yicha, ya’ni dushman qo‘shinlarini qirib tashlab, uning aholisining ma’lum qismini asirlikka olib boshqarishni ko‘zlardi. Buning uchun u qal’alarni vayron qilishi, boyliklarni tortib olishi, umuman, davlatni kuchsizlantirib, sillasini quritib, xalqni vahimaga solib, o‘zi qo‘ygan odamlar vositasida uni boshqarib turishi kerak edi” [7, 52]. Shu ma’noda, Navoiyning hikoyatdagi talqinlari tarixiy haqiqat bilan muvofiqdir.

Asardagi yana bir hikoyat temuriy shahzoda Sulton Abu Said Mirzoning vafoti bilan bog‘liq voqea asosida yozilgan bo‘lib, hikoyatda sultonning fazilatlari bilan birga ayrim kamchiliklari ham tilga olingan:

Hunar ko‘p berib olim ul-g‘ayb anga,
Vale bor edi bir ajab ayb anga –
Ki, maxzan yig‘org‘a solib maylini,
Tutar erdi tanqis ila xaylini [4, 170].

Navoiyning ushbu badiiy talqinlari zaminida tarixiy haqiqat yotadi. Tarixiy manbalardagi faktlar buni tasdiqlaydi: “Uning tabiatida odillik bilan zolimlik, dindorlik bilan mutaassiblik, bunyodkorlik bilan yag‘mogarlik qo‘shilib-qorishib ketgan. Maishatbozlik, sharobxo‘rlik davralarini umuman xush ko‘rmagan. Biroq qahr-u g‘azabi qo‘ziganda odam qonini maydek simirishdan o‘zini tiyolmagan” [8]. Abdurazzoq Samarqandiy esa “Jangtalab qorovullar va u ikki sipoh dilovorlari, mardlar mardlari-yu urush safi dalirlari bir-birlariga qarshi bahodirona hamla qildilar” deb yozadi o‘z asarida[9, 459]. Ko‘ragon xarakteriga xos bo‘lgan ushbu ma’lumotda, uning xasisligiga biror ishora bo‘lmasa-da, Abu Said Mirzoda ham ko‘plab qahrli shohlar singari salbiy fe’l-atvor bisyor ekanini ko‘ramiz.

Abu Said Ko‘ragan Navoiyning zamondoshi bo‘lgan tarixiy shaxs. Shu bois Navoiy uning hayoti bilan yaqindan tanish bo‘lgani aniq. Bobur aytganidek, Navoiyning Hirotdan ketishiga sabab bo‘lgan shaxs ham aynan Abu Said edi. Ko‘ragonning ziqnaligidan norozi lashkarning jang vaqtida sultonni yolg‘iz qoldirib dushman tarafga o‘tishi voqeasi tarixiy haqiqat, Navoiy esa o‘zi bilgan, tarixiy manbalarda qayd etilgan ushbu haqiqatni hikoyatda asliyatga muvofiq badiiy qilgan. Lekin Navoiy tarixiy voqelikning eng muhim nuqtasigagina e’tibor qaratadi, qolgan jihatlar haqida esa umumiy talqinlar berish bilan cheklanadi. Jumladan, Abu Said Mirzoning o‘limi tarixiy manbalarda quyidagicha keltirilgan: “Uzun Hasan mag‘lub podshoh Abu Said Mirzoni o‘zining huzurida bo‘lgan Yodgor Muhammad Mirzoga topshiradi. Yodgor Mirzo o‘zining katta buvisi bo‘lgan malika Gavharshodbegimning qasosi uchun uni qatl qiladi” [10, 153]. Navoiy ayni tarixiy voqelikni bilgani holda hikoyatda Abu Saidning o‘limini badiiy pardalab tasvirlaydi:

Falak chunki bemehrlik qildi fosh,
G‘urub etti ul nav’ ravshan quyosh [4, 171].

Ya’ni, Navoiy Abu Said Mirzoga falak zulm ko‘rsatdi der ekan uning o‘limi qilmishlariga muvofiq, tabiiy mantiq asosida sodir bo‘ldi deyish bilan cheklanadi. Muallif bu o‘rinda mirzo o‘limining boshqa tafsilotlarini keltirmaganda hikoya janri talablarini inobatga olgan bo‘lishi ham ehtimoldan yiroq emas.

Xulosa shuki, Alisher Navoiy o‘zi bilgan, o‘qigan va guvoh bo‘lgan tarixiy voqealar va shaxslarga badiiy tus berib, tarixiy haqiqatlarga asoslangan holda, o‘z maqsadiga xizmat qiluvchi betakror badiiy obrazlar, hikoyatlar yaratgan. Shoir o‘z hikoyatlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima muvozanatiga jiddiy e’tibor qaratgan va asl haqiqatga zid kelmaydigan badiiy talqinlar yaratishga intilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatov Y. Tarixiy dostonlarda tarixiy shaxs obrazining epik talqini. PhD dissertatsiya.2009.
2. Низомулмулк.Сиёсатнома. Янги аср авлоди.2008.
3. Farididdin Attor. Mantiqut-tayr (nasriy bayon). Фан.
4. Навоий, Алишер.Садди Искандарий. Фан. 1993.
5. Абулғозий, Баҳодирхон.Шажараи турк. Чўлпон.1992.
6. Мирзо Улуғбек.Тўрт улус тарихи. Чўлпон.1994.
7. Иванин М.(тарж. А. Махкамов) Икки буюк саркарда. Фан.1994.
8. https://tarix.sinaps.uz/hodisa/abu-said-mirzo/ (Murojaat sanasi: 05.02.2025)
9. **Самарқандий Абдураззоқ.Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн**. **Ўзбекистон**.2008.
10. Dehqonov A. (2023). Alisher Navoiy hayotidagi muhim bir voqea. 8th International Conference Proceedings –Tashken-Baku, February 6-7
11. Ismoilov I.Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar. *Oltin bitiglar–Golden Scripts. 2*(2).2021.

Normat YULDASHEV,
TerDU dotsenti, f.f.d.



CHO‘LPON SHE’RIYATIDA SHARQ VA G‘ARB MAVZUSINING POETIK TALQINI

Annotatsiya: maqolada Cho‘lponning Sharq mavzusi bilan bog‘liq turkum she’rlari ijodkor g‘oyaviy-estetik konsepsiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: *Sharq, G‘arb, obraz, ramz, erk, bag‘ishlov, xotira, milliylik, metaforiklik.*

Аннотация: в статье анализируются что цикл стихотворений Чулпана связанный с темой Востока имеет болшое значение в определении его творческой идейно-эстетической концепции.

Ключевые слова: *Восток, Запад, образ, символ, воля, преданность, памят, националность, метафоричность.*

Annotation: the article explains that the series of poems by Chulpon related to the theme of the East play an important role in determining the creative ideological and aesthetic concept.

Key words: *East, West, image, symbol, will, dedication, memory, nationality, metaphor.*

Cho‘lpon ijodida Sharq va G‘arb mavzusi alohida sahifani tashkil etadi. Uning 20-yillar matbuotida e’lon qilingan maqolalarida ham Sharq mavzusiga murojaat qilingan. Shoirning “Sharq uyg‘ong‘on” maqolasi 1923-yil “Turkiston” gazetasining 15-aprel sonida “Q” imzosi bilan e’lon qilingan. Maqolada yozilishicha: “Ovrupo boylari, G‘arb jahongirlari Sharq ellariga chang solg‘on vaqtlarida “Madaniyat kirgizamiz” degan shior bilan maydonga chiqarlar edi... Bizning Turkiston ham podshohlar, generallar, oqsuyaklar Rusiyasi tomonidan olinganda shu bahona o‘rtaga tashlangan edi”[1]. Maqoladan ko‘rinadiki, Cho‘lpon Sharq mamlakatlari taqdiriga munosabat bildirib, orada Turkistonni ham qistirib o‘tishi bejiz emas. Uning “Qizil Baynalmilal”, “Yana Sharq”, “Sharq qizi”, “Sharqqa ko‘proq” she’rlarida “madaniyat kirgizmoq” bahonasida Sharq ellariga ega bo‘lgan G‘arb mustamlakachilariga qarshi kurash ruhi ustuvorlik qiladi.

Cho‘lponning Sharq mavzusidagi ilk she’ri “Sharq nuri” bo‘lsa, keyingisi “Qizil Baynalmilal” “Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 6-mart sonida bosilgan. She’rning nomlanishini o‘qigan o‘quvchi, albatta, “qizil” so‘ziga e’tibor qaratadi va buni Vataniga qaytgan Cho‘lponni mavjud hukmron mafkura ta’siriga tushib qolganlikda ayblaydi. She’rning boshlanish pardalariga e’tibor berilsa, maqsad yanada oydinlashadi:

Ko‘k yuzida qator-qator chizilgan
Ko‘mir kabi bulutlari yot ellar...

“Ko‘mir kabi bulutlari – yot ellar” satrining o‘zidayoq ijodkorning badiiy konsepsiyasi ayon bo‘ladi. “Bir hovuch ham kelmaydigan xalq uchun” asir kabi ishlagan Sharqning ahvoli yanada og‘ir. “Bir hovuch”larning esa boyliklarini sig‘dirishga joyi yo‘q. Shoir “Sharq eliga qutilishga yo‘l yo‘qmi?” deb savol qo‘yib, unga o‘zi javob beradi./- Ilgarida bo‘lmasa ham endi bor G‘arb ustida bosh ko‘targan ulug‘ kuch/. “Mazlumlarga yo‘l ochgan ulug‘ kuch” – shoir nazarida Oktabr inqilobi. “Cho‘lpon Oktabr inqilobi o‘z yurtidagi “qahr, zulmat”ni quvishi, Sharqni asoratdan qutiltirishiga ishonadi... Oktabr inqilobi shoir nazarida ko‘proq Sharqni uyg‘otishi, uni kurashga chorlashi lozim”[2]. Shoir nazarda tutgan inqilob boshqa ellarni ham uyqudan uyg‘otishi kerak. Shu vajdan u “qizil oy”dan najot kutadi:

Bir yildirki, ko‘k yuzida tug‘ildi
Qizil qonlar orasidan “qizil oy”,
Bir tarafdan qahr, zulmat quvildi.
Sharqni yana ul “qizil oy” qutqorgay...

“Qizil oy” – ramziy timsol bo‘lib, mazlum xalqlarni zolimlar zulmidan ozod qiluvchi kuch sifatida talqin etiladi. Oyga “qizil” sifatining berilishi bejiz bo‘lmay, buni qizil inqilobga ishora ma’nosida tushunsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Cho‘lponning 1920-yil 12-iyunda Andijonda yozilib “Yangi Sharq” gazetasining 1920-yil 20-avgust sonida e’lon qilingan “Sharqqa ko‘proq” she’ri “Qizil Baynalmilal”ning mantiqiy davomiday taassurot qoldiradi. Bunda ham “Yo‘qsil Sharqni qonli G‘arbdan asrovchi” “qizil nur”, “qizil o‘t”, “qizil gul”, “qizil o‘choq” epitetlari orqali Oktabr inqilobiga munosabat bildiriladi. Cho‘lponning Sharq

turkumidagi she’rlarida to‘rt devor ichida ranglari za’faron, bag‘irlari qon Sharq ayollari taqdiri bilan bog‘liq she’rlar ham alohida bir turkumni tashkil etadi. Ayniqsa, shoir ijodida Sharq ayollari taqdiri mavzusi uning nasriy, she’riy, dramatik janrga mansub asarlarida alohida mavzu sifatida o‘rganiladi. Misol uchun, Cho‘lponning “Sharq qizi” she’ri singlisiga bag‘ishlangan. Ma’lumki, shoir singillarini birinchilardan bo‘lib yangi usuldagi maktabda o‘qitgani uning tarjimai holidan ma’lum. She’rda Cho‘lpon birgina o‘z singlisi nomidan emas, balki butun Sharq ayollari tilidan so‘zlaydi. Yetti bandli she’rning dastlabki uch bandida obyektivlashgan lirik kechinma ifodalangan. Bunda ham “duxobadan ko‘m-ko‘k ko‘ylak kiygan” bahorning kirib kelishi, “sovuq, g‘amli qora qish”da dillari zahmga to‘lgan har bir kishining qalbiga shodlik ulashishi tasvirlangan. She’rning to‘rtinchi bandidan boshlab lirik kechinma ijtimoiy mazmun kasb etib, lirik kechinma egasi – Sharq qizi tilidan izhor qilinadi:

Faqat men bir o‘zim, Sharqning bir qizi,
Bahor kelganini ko‘rmay qolaman.
Uzun qora qishning ketmasdan izi,
Uning do‘sti – kuzni kutib olaman.

She’rning oxirgi bandiga qadar Sharq qizining erk-ozodlik haqidagi o‘y-xayollari izhor qilinadi. Ayniqsa, she’rning oltinchi bandida shoir chiroyli o‘xshatish keltirib, Sharq qizining Sharqning o‘zidek erksiz, huquqsiz ekaniga ishora qiladi:

Men bir Sharq qizimen, Sharqning o‘zidek
Butun tanim, jonim – xayol uyasi,
Menim qora ko‘zim kiyik ko‘zidek
Belgisiz ovchining o‘qin ko‘rgusi.

Cho‘lpon mazkur she’rda Sharq xotin-qizlarining erk va ozodlikka tashna orzu-armonlarini liro-romantik pafosda badiiy ifodalab bera olgan.

Shoirning “Sharq nuri” she’ri Mullanur Vohidov ruhiga bag‘ishlangan. “Mullanur Vohidov (1885–1918) – tatar ma’rifatparvari va inqilobiy yillardagi yo‘lboshchisi. 1918-yil 13-yanvarda Ichki Rusiya musulmon ishlari Sharq komissari etib tayinlanishi bilan Sharq musulmon xalqlarining milliy manfaatlarini himoya qilish bilan faol shug‘ullana boshlagan. U shu yillarda Rusiya tasarrufidagi musulmon xalqlarining taraqqiyparvar rahbarlari singari marksizm ta’limotini Sharqqa olib kirishdan avval Sharq xalqlari mentalitetini hisobga olish kerak, degan g‘oya bilan chiqqan”[3].

Mullanur Vohidov o‘z faoliyatida Sharq xalqlariga kommunizm g‘oyalarini singdirishda milliylikni e’tiborga olish kerak degan. Cho‘lpon she’riyatida Sharq mavzusi ilk bor ushbu she’rda qalamga olingan. She’rning ilk bandidan “bir bet bo‘lsin oq satrni ko‘rmagan” “yo‘qsil Sharq”ning tarixi qalamga olinadi:

So‘ng davrda yo‘qsil Sharqning tarixi
Bir bet bo‘lsin oq satrni ko‘rmadi.
Dunyo tarixini yozgan muarrix
Yaxshilikka qalamini burmadi.

Chunki Sharq G‘arb mustamlakachilarining asorati ostida ingrab yotardi. Bir vaqtlar dunyo tamadduniga “madaniyat tug‘dirgan” Sharq “so‘ng zamonlar chetlar panjasida ko‘z yoshli” bo‘ldi. Bag‘ishlovning beshinchi bandida shoir Mullanur Vohidovga Sharqqa “qutilishning yo‘lini ko‘rsatguvchi sen eding” deya murojaat qiladi:

Insonlikka saodatning birdan-bir
To‘g‘ri yo‘lin ko‘rsatguvchi Markisdi,
Biroq Sharqqa qutilishning yo‘lini
Ko‘rsatguchi ulug‘ dohiy sen eding,
Sendek kishi Sharq eliga tanqisdi.

Darhaqiqat, “Cho‘lpon bu she’rni qandaydir majburiyat orqasida yozgan emas, nimaiki deyayotgan bo‘lsa, chin dildan aytadi. Dastlabki satrlardanoq muallifning marksizmga munosabati yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Cho‘lpon bashariyatni “saodatga yetaklovchi birdan-bir to‘g‘ri yo‘l” deya uqtirilayotgan marksizmga tayyor retsept, qotib qolgan dogma deb qaramaydi, unga ijodiy yondashish zarurligini chuqur his qiladi”[4].

Ushbu parchadan ma’lum bo‘ladiki, o‘sha davrda marksizm-leninizm yo‘qsul-proletarlarni ozodlikka, to‘laqonli hayotga olib chiquvchi yagona nazariya, ta’limot, ko‘rsatma sifatida taqdim qilingan bo‘lsa-da, Cho‘lpon har bir region mamlakat va xalqlarining taqdiri va ozodlikka chiqish yo‘li o‘ziga xos ekani, bunda umumiy retseptlar yo‘q ekaniga nozik ishoralar bermoqda. Sharqning o‘z yo‘li bor, o‘z yo‘lboshchilari bor, demoqda. To‘g‘ri, Cho‘lpon alg‘ov-dalg‘ov siyosiy voqealar muhitida bolshevizm xavfini to‘la anglamagan, qutulish mayog‘ini sho‘ro rusiyasi timsolida ko‘rgan bo‘lishi mumkin. Ammo yuqoridagi satrlar shoirning bu pozitsiyasi uzil-kesil bo‘lmagani, u ijtimoiy ideal borasida ikkilanishlar ichida bo‘lganini yorqin ko‘rsata oladi.

Cho‘lpon Sharq va G‘arb antitezasini ifodalashda tasviriy vositalar, epitet metaforalarni mahorat bilan qo‘lladi. Cho‘lponning birgina “Sharqqa ko‘proq” she’rida qizil rang bilan bog‘liq bir qator individual metaforalar yaratilgan.

Yonib turgan **qizil o‘t**ning uchqunin,
Sharqqa ko‘proq, Sharqqa ko‘proq tushiring.
Ustidagi eski, kechmish ustunin
Tuproq qilib yo‘qliklarga uchiring!...

To‘rt yog‘imda pishqiradir **qizil qon**!
Har narsani **qizil** ko‘rgim keladir;
Qizilxo‘rga qovushmoqchi asir jon
To‘g‘ri yo‘lni ul, albatta, biladir…

Qizil gulni guvillating, lovlating,
Sharqda ko‘proq “**qizil o‘choq**” porlating!..[5]

Yigirma to‘rt satrdan iborat bo‘lgan mazkur she’rda qizil rang bilan bog‘liq jami 9 ta metaforalar qo‘llanilgan: “qizil o‘tning uchquni”, “qizil nur”, “qonlik ma’dan”, “qonxo‘r G‘arb”, “qizil o‘t”, “qizil qon”, “qizil gul”, “qizil o‘choq” metaforik-epitetlar va “qizil”, “qizilxo‘r” ramziy-metaforalar. E’tibor qilinsa, Cho‘lpon har bir metaforani darajama-daraja qo‘llab boradi. Bu she’rda o‘ziga xos usulda qo‘llanilgan metaforalar mohiyatida tarix haqiqatlari bosqichma-bosqich keltirilgan deyish mumkin. Dastlabki misrada shoir lirik qahramoni “qizil o‘tning uchqunin” “Sharqqa ko‘proq tushuring” deb aytishida – bu o‘lkaning mustamlaka zulmidan ozod bo‘lmay, yana zulm va tutqunlikka qaytganini kinoya qiladi. She’rda lirik qahramon nihoyatda “achchiq tilli”. Sharqdagi xalq “ustidagi qizil nurni” – bolsheviklar hokimiyatini ko‘rmasdan “yorug‘likda yo‘l adashib ketgan”i kinoyaviy ohangda tasvirlangan. Umuman, she’rda asr boshida O‘rta Osiyoda yuz bergan siyosiy-ijtimoiy voqealarning tahlilini, shoirning mavjud tuzumga munosabatini ko‘rish mumkin. Bunda “qizil o‘t” – Oq poshsho hukumatidan keyin hokimiyat tepasiga kelgan sho‘rolar tuzumi. Yerlik aholining mustaqillik umidlarini yo‘qqa chiqargan mazkur tuzumning zulmlari lirik qahramonning “Har narsani qizil ko‘rgim keladi; Qizilxo‘rga qovushmoqchi asir jon” degan iqroridagi qizil ramzi orqali aniq ifoda etilgan. Cho‘lponning erkinlik istagini yo‘q qilgan tuzumga bo‘lgan butun nafrati qizil rang bilan bog‘liq metaforalarda namoyon bo‘ladi.

Cho‘lpon ko‘pgina she’rlarida Sharq va G‘arbni tazod sifatida qo‘llaydi. Sharq va G‘arbning tazodiy bog‘lanishi tarixiy kontekstda qaralishi lozim. Chunki ularni bir-biriga qarshi qo‘yish, Sharqning mazlumlik, G‘arbni zo‘ravonlik, istibdod ramzi o‘laroq qarash ko‘proq keyingi asrlardagi tarixiy voqelikdan kelib chiqadi. Bu, aniqrog‘i, G‘arbda burjua inqilobining g‘alaba qilishi, fan va texnikaning rivojlanishi hamda G‘arbning rivojlanmagan Sharq va Afrika davlatlarini mustamlakaga aylantirishi bilan bog‘liq. Cho‘lpon yashagan davrda esa Sharq va G‘arb ziddiyati Turkiston misolida oppa-ochiq bo‘lib qoldi. Shuning uchun Sharq-G‘arb tazodini nafaqat Cho‘lpon, balki boshqa jadid shoir yozuvchilarida ham ko‘ra olamiz.

Shuningdek, Cho‘lponning qarshilantirish usulini faol qo‘llab, davr manzaralarini yoritadigan she’riy namunalari ko‘p uchraydi:

Kun ham Sharqdan, oy ham Sharqdan chiqadir,
Biroq bir sen **G‘arbda chiqding va botding;**
Shuning uchun menim sharqlik ruhimda,
Ajib mudhish, qo‘rqinch tuyg‘u uyg‘otding.

Ushbu she’riy parchada Cho‘lpon bir nechta so‘zlarni ketma-ket qarshilantirish orqali dastlabki ikki misrada ushbu usuldan unumli foydalanib, o‘ziga xos she’riy kontrast tasvir yaratgan: vaqt – kun, oy; makon – Sharq va G‘arb; harakat va holat – botadi, chiqadi. Cho‘lpon she’rlarida Sharq va G‘arb qarama-qarshiligi ko‘p uchraydi. Bu haqida jadidshunos olim, professor Begali Qosimov shunday yozgandi: “1921–23-yillarda yozilgan she’rlarda tabiatga ijtimoiy sifatlar berilardi. Manzaraga mos zamon voqealari – haqsizliklarga ishora qilinardi. Bir so‘z bilan aytganda, tabiat ijtimoiylashardi va bular ko‘pincha “Sharq” va “G‘arb” muqoyasasida berilardi”[6].

Ko‘m-ko‘k ekan, sarg‘aydilar yaproqlar,
Og‘riq, mag‘lub, tutqun Sharqning yuzidek.
Bo‘ronlarning ko‘zlarikim o‘ynoqlar,
G‘olib G‘arbning qonga to‘lgan ko‘zidek.

Antitezaga xos yetakchi xususiyatlardan biri uning qarama-qarshi ma’nolar asosida qurilishi hamda voqelikning obrazli va yorqin bo‘lishini ta’minlashidir. Shu maqsadda yuqorida Cho‘lponning “Kuz” she’ridan olingan ushbu parchada “ko‘m-ko‘k – sarg‘aygan”, “Sharq-G‘arb”, “mag‘lub-g‘olib” qarshilantirishlari orqali ijtimoiy muhitning fojiali manzaralari tasvirlangan.

Umuman olganda, Cho‘lponning Sharq mavzusi bilan bog‘liq turkum she’rlari ijodkor g‘oyaviy-estetik konsepsiyasini belgilashda, davr ijtimoiy-siyosiy manzaralarini anglash va mushohada qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Akademnashr. 1916. 192- bet.
2.Қуронов Д. Истиқлол дарди. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2000. 29-bet.
3.Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr. 1916. 332–333-betlar.
4.Қуронов Д. Мутолаа ва идрок машқлари. – Тошкент: Akademnashr. 2013. 275-bet.
5.Чўлпон. Асарлар. – Тошкент: Akademnashr. I жилд. 2013. 64-bet.
6.Қосимов Б ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият. 2004. 451-bet.

Malika RAJAPOVA,
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi, PhD.

ALLEGORIK VOSITALARNING BADIIY MATNDAGI TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada allegoriyaning badiiy matndagi talqini va uning lingvostilistik xususiyatlari yoritiladi. Allegoriya qadimdan Sharq va G‘arb adabiyotida mavjud bo‘lib, bir konsept orqali boshqa konseptni ifodalashga xizmat qiladi va murakkab estetik hamda mantiqiy qatlamlarni hosil qiladi. Tadqiqotda turli janrlardagi allegorik matnlar — masal, ertak, maqol va zamonaviy badiiy asarlardan namunalar tahlil qilinadi. Xususan, J. Sviftning “Gulliver’s Travels”, F. Attorning “Mantiq ut-tayr”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarlari misolida allegoriyaning ijtimoiy-tanqidiy vazifalari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, allegoriya metafora va boshqa stilistik vositalar bilan qiyoslanadi, uning lingvokulturologik hamda estetik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *allegoriya, badiiy matn, stilistik vosita, lingvokulturologiya, tanqid, ramz, masal.*

Annotation: this article explores the interpretation of allegory in literary texts and its distinctive linguo-stylistic features. Allegory, a long-standing device in both Eastern and Western literature, conveys one concept through another, generating complex logical and aesthetic layers of meaning. The study analyzes examples of allegorical expression across various genres, including fables, fairy tales, proverbs, and modern literary works. Particular attention is given to J. Swift’s *Gulliver’s Travels*, F. Attar’s *Conference of the Birds*, and Gulkhani’s *Zarbulmasal*, which highlight allegory’s social and critical functions. Furthermore, allegory is compared with metaphor and other stylistic devices, emphasizing its linguoculturological and aesthetic significance within the literary discourse.

Key words: *allegory, literary text, stylistic device, linguoculturology, critique, symbol, fable.*

Аннотация: в данной статье рассматривается интерпретация аллегории в художественном тексте и её лингвостилистические особенности. Аллегория, как стилистический приём, с древних времён присутствует как в восточной, так и в западной литературе, выражая одну концепцию через другую и создавая сложные эстетические и логические пласты смысла. В исследовании анализируются примеры аллегории в разных жанрах — баснях, сказках, пословицах и современных произведениях. Особое внимание уделено произведениям Дж. Свифта (*Путешествия Гулливера*), Ф. Аттара (*Язык птиц*) и Гулханийя (*Зарбуламасал*), в которых ярко проявляются социально-критические функции аллегории. Кроме того, проводится сопоставление аллегории с метафорой и другими стилистическими средствами, подчёркивается её лингвокультурологическое и эстетическое значение.

Ключевые слова: *аллегория, художественный текст, стилистическое средство, лингвокультурология, критика, символ, басня.*

Allegoriya g‘arb va sharq adabiyotida qadimgi davrlardan to hozirgi davrgacha bo‘lgan, har doim mavjud bo‘lgan “protean” (ko‘p qirrali) vosita bo‘lib, uslubiy kategoriya lingvistik va stilistik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega hamda boshqa stilistik troplardan, masalan, metafora yoki metonimiyadan nazariy jihatdan farq qiladi. Allegoriya o‘zining umumiylik xususiyati bilan ajralib turadi va matnda bir konseptni hikoya qilib, aslida boshqa konseptni nazarda tutish orqali murakkab mantiqiy va estetik tasvir yaratadi.

Tarixiy badiiy asarlar matni asosan, xalq og‘zaki ijodiga ertaklar, xalq maqollari, masallar kabilarga tegishli bo‘lsa, zamonaviy badiiy matn allegoriyasi mualliflar tomonidan yozilgan tanqidiy asarlarni qamrab oladi. Bunday asarlarga g‘arb adabiyotida Lusyianning “True History”, Jonatan Sviftning “Gulliver’s travels”, J. Vernning “A journey to the center of the Earth” kabi asarlari; sharq adabiyotida esa F.Attorning “Mantiq ut-tayr”, “Panchatantra” sanskrit yozma adabiyoti yodgorligi (arab tiliga keyinchalik “Kalila va Dimna” nomi bilan tarjima qilingan), Jaloliddin Rumiyning “Masnaviylar”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi shox asarlari kabilar allegoriyaning turli ko‘rinishlarini o‘zida jamlagan asarlardir.

Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” asarida ham allegoriyaga oid ko‘plab misollar bor. Jonatan Svift o‘z asarida o‘sha davrning bir-biridan battar olchoq, ochko‘z, molparast, mansabparast, tekinxo‘r va takabbur qirollari hukmronlik qilgan jamiyatda inson hech qachon yaxshi hayot kechira olmasligini Gulliver sayohat qilgan o‘lkalar timsolida ko‘rsatadi. Asarning bosh qahramoni Lemyuel Gulliver mittivoylar o‘lkasida tog‘odamga aylanadi. Oyog‘i ostida minglab liliputlar harakatlanadi. Gulliverning ro‘molchasida chavandozlar ot o‘ynashadi, qahramon olti yuz qavat to‘shakda uxlaydi. Darozlar o‘lkasida esa bosh qahramonning o‘zi mitti bo‘lib qoladi. U kichkinagina quticha ichida yashaydi. So‘ng sandiqchani burgut changalida osmonga olib chiqib ketadi. Asarning keyingi voqealarida Gulliver otlar mamlakatiga borib qoladi, bu yerda otlar odamlarni minib yuradi. Mittivoylar Gulliverni (“Tog‘ odam”) to‘qson bitta arqon va o‘ttiz oltita qulf yordamida bog‘lab qo‘yishadi. Adabiyotshunos olimlarning tahlilicha, bu raqamlar Jonatan Sviftning hayotidagi ayrim voqealar bilan bog‘liq. J.Svift hayoti davomida ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning eng avj olgan paytida o‘ttiz olti xil toifadagi guruhlar manfaatini ko‘zlab, to‘qson bitta hajviy-pamflet yozgan. U o‘z hajviy asarlarida ham allegorik va boshqa tasviriy ifodalardan foydalanib, jamiyatning turli qatlamlarini tanqid qilgan. Ularga o‘z munosabatini quvnoq tarzda bildirgan. Bundan tashqari, Gulliverning mittivoylar o‘lkasiga sayohati davrida lilliput odamchalarning ikki tabaqalari o‘rtasida musobaqa bo‘lib o‘tadi. Bu tabaqalar tuxumni uch tomonidan sindiruvchilar va poynagidan sindiruvchi mitti odamlar edi. Bu ikki guruh o‘sha davrning katoliklar va protestant mazhabidagi dindor shaxslarning doimiy bahs-munozaralari, ziddiyatlarini ko‘rsatib bergan allegorik tasvir vositalari. Asar muallifi bu tasvirlar bilan bu ikki diniy ixtilofchilarning nizolari arzimas poydevorga qurilganligi, biroq bu arzimas sabablar tufayli katta qirg‘inbarotlar yuz berayotganligini alamli tarzda tasvirlaydi. Romanda hukumat rahbarlarining shaxsiga sig‘inish, ularni turli olqishlar va dabdabali unvonlar bilan ko‘klarga ko‘tarish quyidagicha talqin qilinadi: *“…Liliputiyaning qudratli imperatori, jahonning quvonchi va dahshati, podsholarning podshosi, insoniyatning eng ulug‘ farzandi, boshi quyoshga yetgan, bahorday so‘lim, yozday himmatli, kuz singari to‘kin, qish singari qahrli Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Molli Oliy Gu Oliy hazratlari…”[1.41]* misolida allegoriyaga qaraganda ko‘proq o‘xshatishni sezish mumkin, biroq kontekstning umumiy ma’nosiga ko‘ra, bunda *Liliputiyaning qudratli imperatori* deb davlatning ochko‘z amaldoriga murojaat qilishni qattiq tanqid qilinmoqda. Asardagi holat va qahramonlar allegorik ramz bilan ifodalangan.

R.P.Hansonning fikriga ko‘ra, allegoriya – bu narsa yoki shaxs yoinki raqamning talqinini obyektlar yoki shaxslarning voqelikdagi ba’zi obyektlar bilan anglatishi va shu obyektlar o‘rtasidagi “o‘xshash vaziyat” munosabatlarini kuzatishi hisoblanadi. Cheyz allegoriyani quyidagicha talqin qilgan: “u bir tushunchani gapirish uchun boshqa bir tushunchadan foydalangan matndir”. Allegoriyani badiiy tasvir vositasi sifatida Angus Fletcher keng talqin va tahlil qilgan, o‘zining “Allegory: The theory of symbolic mode” asarida muallif allegoriyaning roli va funksiyasini o‘rganib chiqadi va dunyoni talqin qilish usuli sifatida ushbu badiiy tasvir vositasini qanday xizmat qilishi haqida tushuncha beradi. A. Fletcher allegorik figuraning asosiy xususiyatini – uning o‘zi nazarda tutgan g‘oyaga muvofiq ekanligini va shu obyektga muvofiq harakat qilishining eksklyuzivligini, “iblis” konsepti ham farishta, ham shaytonning funksiyasi ekanligini aniqlaydi. A.Fletcher demonologiyaning ba’zi asosiy atamalarini tahlil qilar ekan, uning ta’sirida o‘zi ham allegoriyadan foydalandi. Asarda Fletcher allegorik vositalarni badiiy matnga o‘ziga xos tarzda olib kirgani ko‘rinadi, unga ko‘ra allegoriya asosiy tasvir vositasining kuch manbasi sifatida tasvirlanadi, shuningdek, robotlar – ideal allegorik agentlar va gotika, detektiv, G‘arbiy va ilmiy fantastik romanlar allegorik asarlar sifatida ta’kidlanadi. U R.Timms tomonidan aytilgan fikrni, ya’ni allegoriya va psixologiya o‘rtasidagi farqni inkor etadi. A.Fletcher allegoriyani adabiy shakl sifatida xulqning “majburiy sindromi” sifatida tasvirlaydi.

Allegoriya ma’lum hodisani to‘liq tavsiflash imkoniyatini bermasa-da, mazmunni boyitadi va yashirin ma’nolar bilan ifodalaydi. Bu tushuncha predmetning aniq xususiyatlarini ochib bermay, faqat asosiy semantik ma’noni ifodalaydi. Shu jihatdan allegoriya metaforaga yaqin turadi, ammo unda metaforadagi kabi taqqoslash unsuri mavjud emas. Allegoriyada bir-biridan uzoq, ammo o‘xshash jihatlar birgalikda tasvirlanadi.

Allegorik birliklar badiiy matnning ko‘plab ko‘rinishlarida, ertak, qissa, hikoya, maqol, masal,

she’r kabilarda haligacha saqlanib qolgan. Murakkab allegorik ma’noga ega bo‘lgan badiiy matnlarga didaktik g‘oyalar jamlangan va ularning asosini xalq maqollari ham tashkil etadi. Masalan, *Buzoqning yugurgani somonxonagacha* maqolida “buzoq” konsepti inson harakatini ifodalab, inson qancha harakat qilsa ham, o‘z qobiliyat va imkoniyatlaridan ortiq harakat qila olmasligi nazarda tutilmoqda. Ingliz madaniyatida esa bunga o‘xshash, *“The camel goes only as far as its leash”* maqoli bor. Bu maqolda **tuya** insonni, a**rqon (yoki zanjir)** esa cheklovchi omillar bo‘lib, bu cheklovlar shaxsiy, ijtimoiy yoki siyosiy bo‘lishi mumkin. Allegoriya inson hayotidagi cheklovlar bilan qanday kurashish kerakligini eslatib turadi. Tuyaning arqoni inson ichki holati yoki dunyoqarashiga o‘xshaydi. Har ikki maqolni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda, ikkovida keltirilgan “buzoq” va “camel” (tuya) konseptlari orqali inson shaxsi nazarda tutilmoqda. Qancha harakat qilsa ham, faqat o‘zida bor imkoniyat va qobiliyatlardan ortiq hech qanday xatti-harakatlarni amalga oshira olmasligi ko‘zda tutilgan *“Buzoqning yugurgani somonxonagacha”* maqolida negativ ma’no pozitivlikdan ko‘ra ustunlikka ega. Shu kabi maqollardan yana biri, *“Ot aylanib o‘z qozig‘ini topadi”* maqoli ham o‘zbek til leksikasida uchraydi va unga ko‘ra, inson qancha adashsa ham, baribir o‘z joyiga qaytishi izohlangan. Maqolda “ot” konsepti inson va uning harakati inson harakatiga tenglashtirib olingan. Ingliz tilida *“What goes around, comes around”* maqolini qisman ekvivalent qilib olish mumkin.

O‘zbek tili stilistikasida allegoriya qochiriq, kesatiq hisoblanib, unda so‘zlarning ko‘chma ma’nosiga asoslaniladi. Ya’ni, matnda berilgan so‘zlarning ma’nosi asl ma’nosini yo‘qotib tag ma’no hosil qiladi. Allegorik vositalarning samarali ishlatilinishiga Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari namuna bo‘la oladi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari katta hajmdagi masallardan tarkib topgan bo‘lib, hajmning kattaligi, povest yoki hikoya kabi voqealarning bir-biriga bog‘lanib borishi, 400 ga yaqin maqol va masallarni jamlay olgani, murakkab sujet chizig‘i va kompozitsiyaga ega bo‘lib, allegoriyaning eng yaxshi namunalarini ko‘rsata olgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu asar Hind eposi “Kalila va Dimna” ga o‘xshaydi va unda muallif turli hayvon obrazlari misolida ijtimoiy- ma’naviy muhitni aks ettirishga urinadi. Hayotiy obrazlar, realistik sahnalar, xarakterli portretlar (masalan, Yapaloqqush, Boyqush, Sho‘ranul, Ko‘rqush, Kordon va boshqa obrazlar), hajviy tasvirlar hamda falsafiy muhokamalar masal janrining eng muhim estetik xususiyatlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi badiiy usullardan biri shundaki, unda har bir salbiy obraz bir-birining xulq-atvorini tanqidiy ruhda fosh qiladi va o‘tkir tanqidga duchor etadi. Bu yondashuv orqali muallif insonlarni voqealardan tegishli xulosa chiqarishga undash va yaxshilikka chorlash maqsadini ko‘zlaydi. “Zarbulmasal”ning asosiy qahramonlari sifatida xalq orasidan to‘plangan qushlar tasvirlangan bo‘lib, ularda yirtqich qushlardan tortib oddiy qushlargacha inson xarakterlari ifoda etilgan. Ba’zan asarda yo‘l-yo‘lakay vaxshiy hayvonlar (masalan, maymun, tulki), uy hayvonlari (tuya, bo‘taloq, eshak) va hasharotlar (chayon) obrazlari ham uchraydi. Ushbu obrazlarning barchasi insonlarning xulq-atvori, qiliqlari, xarakteri va turmush tarzini ramziy shaklda ifodalaydi.

Bundan tashqari, asarda realistik obrazlar ham keng yoritilgan. Gulxaniy mehnatkash xalq turmushini chuqur bilgan holda kambag‘al dehqonlar, kosiblar, chorakorlar, qarollar, go‘laxlar, cho‘ponlar, katta yer egalari, amaldorlar, to‘quvchilar, olimlar va ruhoniylar hayoti hamda xarakterlarini diqqat bilan kuzatgan. U o‘z asarlarida ushbu kuzatishlar asosida realistik, satirik va tanqidiy obrazlarni yaratib, ularning ichki olamini ochib bergan. Masalan, misgar Xolboqi, po‘stindo‘z Yodgor Bulotqi, Qo‘chqor so‘fi, Ashur Yirtiq Qassob, Umarkafishdo‘z, Muxammadxo‘ja Mufti va Niyozcha Og‘aliq kabi obrazlar Gulxaniy tomonidan tasvirlangan Yapaloqqush va Boyqush o‘rtasidagi voqealar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ular asarning kompozitsiyasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy tasvir vositasi sifatida allegoriya va unga yondosh bo‘lgan stilistik vositalar ertaklarda ham ko‘plab uchraydi. “Ur to‘qmoq” ertagida ishtirok etadigan hayvonlar, buyumlar jonlanadi, insonlar bilan muloqot qiladi. Ertakning bosh qahramonlari chol va kampirga taom keltiradigan ochil dasturxon, qaynar xumcha va ur to‘qmoq kabi buyumlarni hadya etib yordam beradigan oqko‘ngil laylaklar podshohi, chol uxlab qolganda uning sehrli buyumlarini almashtirib oladigan boy kabi obrazlarda allegoriyaning o‘ziga xos jihatlari ko‘rinadi. Allegoriya kinoyali, tanqidiy o‘xshatish bo‘lib, uning ortida istehzo yoki tanqid

bo‘ladi. Jonlantirish esa allegoriyaga nisbatan keng ko‘lamli bo‘lib, unda kinoya bo‘lmaydi. Asosan, tabiatning o‘ziga xos xususiyatlari va insonlarning xususiyatlari bu stilistik vosita orqali o‘zaro bir-birini to‘ldirib, ma’no hosil qiladi. Jonlantirishning ikki xil ko‘rinishi bo‘lib: 1) insonga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan tabiat tasvirlanadi; 2) tabiatga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan insonlar tasvirlanadi. *“Qushlarning sho‘x kuylashi”, “Bulbulning nola qilishi” “O‘rmonning qishki uyquga ketishi”* kabilar insonlardagi xususiyatlarini tabiat bilan hamohang ishlatayotgan bo‘lsa, *“itdek ochman”, “quyoshdek mehribon”* tabiatga xos bo‘lgan jihatlarni o‘zida mujassam etadi. Garchi ushbu “quyoshdek mehribon” jumlasi -dek qo‘shimchasini qabul qilib, o‘xshatish bo‘layotgan bo‘lsa-da, unda allegoriyaning belgilarini ham ko‘rish mumkin. Demak, ko‘rinadiki, allegoriya va o‘xshatish o‘rtasida juda kam farqlar mavjud. Ba’zida esa bu farqlar yo‘q deyish ham mumkin.

Shunday qilib, allegorik qahramonlar badiiy matnda tanqidning diamonik (ichki ta’sir yoki ichki kuch) oqibatida yuzaga keladi. Allegorik troplarning badiiy matnda ishlatilishining asosiy sabablaridan biri ham jamiyatning ayrim qatlamlarini tanqid qilish va kamchiliklarni fosh qilish hamda ularga qarshi kurashishdir. Allegorik matndagi konseptlarning ayrimlari allaqachon hammaga ma’lum va ayrimlari tasavvuriy bo‘ladi. Badiiy matnda qahramon xuddi o‘zining vaziyatidek harakat qiladi. Bu harakatlar asar qahramoni va allegorik tushunchalar o‘rtasida teng bo‘ladi va ikkisiga ham tegishli bo‘ladi. Ritorik vosita sifatida qaralganda allegoriya, vizual va geometrik diagrammalarning hikoyaviy va dramatik ekvivalentlarini taqdim etish qobiliyatiga ega. Allegorik matnda agent hamda tushuncha ierarxik maqomga ega bo‘ladi va hatto nomning o‘zi bilan ham birlasha oladi. Bu jarayonda agent tasvir bilan chalkashib birlashib ketadi va harakat diagrammaga aylanadi. Gipostatizatsiyalangan vosita ramz bo‘lib, unda tarozi bilan adolat tasvirga aylanadi; kamon va o‘q ko‘targan hamda o‘qni nishonga tutgan ayol g‘arbda sevgi ramzi va bunda allegorik agent bog‘langan. Allegorik tasvirlar bir-biriga qarama-qarshi obyektlar bilan tasvirlansa-da, harakat turini belgilashimiz, topishimiz mumkin. Allegoriya inson aqliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy jarayonlarda subyektivlik va obyektivlik bir-biridan ajratib bo‘lmas yaxlitlik sifatida namoyon bo‘ladi. Allegoriya shaxs va obyekt o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qiladi, ammo zamonaviy kontekstda publitsistik uslubdagi matnlarda badiiy matndagi allegorik vositalardan farq qiladi. Allegoriya nafaqat leksik vositalar yordamida, balki ramziy belgilar bilan ham ifoda etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Angus Fletcher, Allegory: The Theory of a Symbolic Mode. Columbia University. Cornell paperbacks. Cornell University Press. Ithaca and London 1970. 472-p.

2.Бойко Л.Г. Культурно маркированное содержание устойчивых сравнений русского языка: Дисс. ...филол. наук. – Волгоград, 2009. 45 с.

3.Berdialiyev A. O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi. – Xo‘jand, 2015.150-b.

4.Rajapova, M., & Mamadaliyeva, M. (2023). INTERPRETATION OF ALLEGORICAL MEANS IN DISCOURSE. In *International Conference On Higher Education Teaching* (Vol. 1, No. 1, pp. 15-19).

5.Rajapova, M. (2023). Study of discourse and specific characteristics of allegory. *Наука и технология в современном мире*, *2*(17), 53-55.

6.Rajapova, M. (2020). BADIIY MATNDA QO‘LLANILUVCHI ALLEGORIK VOSITALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. *Scienceweb academic papers collection*.

7.Ҳайдарова, Г. (2021). СОБИР АБДУЛЛА, ЧАРХИЙ ВА ҲАБИБИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТАСВИР ВА ТАЛҚИН МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Горизонты Филологии*, *6*(6).

Oybek XOLMATOV,
Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
oybekumarovich95@gmail.com

O‘ZBEK NASRIDA AFG‘ON URUSHI MAVZUSIGA DOIR

Annotatsiya: maqolada zamonaviy o‘zbek nasrida afg‘on urushining turli yozuvchilar asarlari misolida talqin qilinishi masalasi tadqiq etilgan. Maqolada mavzuga aloqador masalalar tadqiq etilgan ilmiy manbalardan foydalanilgan. Tahlillar jarayonida asarlarning badiiy matnidan misollar keltirilib, fikrlar dalillangan. Maqola yakunida tahlillar orqali olingan natijalar xulosalangan.

Kalit so‘zlar: *harbiy proza, mavzu, “yo‘qotilgan avlod”, talqin, motiv, qahramon, qiyosiy metod, tahlil.*

Annotation: this article scientifically studied the interpretation of the Afghan war in modern Uzbek prose on the example of the works of various writers. This article uses scientific sources that have researched issues related to the topic. In the course of the analysis, examples were given from the literary text of the works and the ideas were substantiated. At the end of the article, the results obtained through the analysis are summarized.

Key words: *military prose, the theme, ‘’lost generation”, interpretation, motive, hero, comparative method, analysis.*

Аннотация: в статье исследуется трактовка афганской войный в современной узбекской прозе на примере произведений различных писателей. В статье использованы научные источники, исследовавшие вопросы, связанные с данной темой. В процессе анализа приводятся примеры из художественного текста производений и особновываются идеи. В конце статьи подведены итоги анализов.

Ключевые слова: *военная проза, тема, “потерянное поколение”, интерпретация, мотив, герой, сравнительный метод, анализ.*

Kirish. XX asr o‘zbek prozasida urush mavzusi salmoqli o‘ringa ega. Bu borada ikkinchi jahon urushi va afg‘on urushi ifodalangan harbiy proza namunalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi jahon urushi mavzusida Oybekning “Quyosh qoraymas”, Abdulla Qahhorning “Oltin yulduz”, Shuhratning “Shinelli yillar”, Ibrohim Rahimning “Chin muhabbat”, Said Ahmadning “Ufq”, Odil Yoqubovning “Izlayman”, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” kabi qissa va romanlari yaratilib, ularda urush davri qiyinchiliklari, urushning jamiyat va xalq boshiga solgan kulfatlari bilan bir qatorda front va front ortida ko‘rsatilgan qahramonliklar tasvirlangan. Bu mavzudagi harbiy proza namunalarini S.Mamajonov, N.Bekmirzayev, U.O‘ljaboyev kabi olimlar tadqiq etganlar.

Asosiy qism. Afg‘on urushi mavzusida yozilgan asarlar orasida O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani alohida ahamiyatga ega. Ushbu asarda afg‘on urushi va qatag‘on siyosati bilan bog‘liq voqealar aks ettirilgan. Said Ahmad o‘zining “Ijod va jasorat” deb nomlangan O‘tkir Hoshimov ijodi haqidagi maqolasida “Tushda kechgan umrlar” romaniga quyidagicha baho beradi: “*Romanni loqayd – hayajonsiz o‘qib bo‘lmaydi. U kitobxonni larzaga soladi. Xalq boshiga kulfatdan boshqa narsa solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg‘ish yog‘diradi*” [1,228]. “Tushda kechgan umrlar” romani mavzu va g‘oya jihatidan XX asrning birinchi yarmida G‘arb adabiyotida keng tarqalgan “yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishidagi asarlarga yaqin turadi. Bu o‘xshashlik yozuvchilarning insonparvarlik, patsifizm g‘oyalarini ilgari surgani, urush fojialarini tipik obrazlar vositasida realistik tarzda tasvirlagani bilan belgilanadi. G‘arb yozuvchilarining birinchi jahon urushi mavzusidagi asarlarini o‘rganish orqali o‘zbek harbiy prozasini ilmiy tadqiq etish borasida ham yangi bosqichga qadam qo‘yish, qiyosiy adabiyotshunoslik masalalarini yanada boyitish mumkin. “Yo‘qotilgan avlod” mavzusidagi romanlar birinchi jahon urushi bilan bog‘liq obrazlar taqdirini

aks ettiradi. Mavzu va g‘oya jihatidan, muallif talqini va munosabati jihatidan bu asarlar o‘zbek yozuvchilarining “afg‘on” mavzusidagi asarlariga o‘xshab ketadi. Shu sababli o‘zbek harbiy prozasida afg‘on urushi talqini masalasini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

“Yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishidagi asarlarning qahramonlari haqida rus tadqiqotchisi Y.V.Staroverova shunday fikr yuritgan: “Barcha “yo‘qotilgan avlod” qahramonlariga xos umumiy xususiyat shundan iboratki, ular doimiy ravishda o‘zlarining nima uchun urushda qatnashganliklarini anglashga intiladilar. Bu obrazlar asar davomida shaxs sifatida o‘sib boradilar, oxir-oqibat o‘zlarining iqtisod va siyosat manfaati uchun qurbon bo‘lganlarini anglab yetadilar” [2,37]. Staroverova tomonidan “yo‘qotilgan avlod” qahramonlariga berilgan tavsif o‘zbek nasrida afg‘on urushi mavzusida yaratilgan asarlardagi personajlarga ham mos keladi. Bu esa o‘zbek harbiy prozasida ham “yo‘qotilgan avlod” adabiyotiga xos elementlar mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbek harbiy prozasida afg‘on urushi mavzusi ham katta o‘rin tutadi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda bu mavzudagi asarlar keng miqyosda yaratildi. Jumladan, O‘tkir Hoshimovning “Nega, nega-a-a?!” hikoyasi va “Tushda kechgan umrlar” romanida afg‘on urushida behuda qurbon bo‘lgan insonlarning fojiali taqdirini bayon etdi. Undan tashqari, Abdurashid Normurodovning “Qonli yo‘rgaklar”, “Qon hidi” asarlari, G‘afur Po‘latovning “Xerirud faryodi” harbiy-dala romanida ham afg‘on urushi fojialari tasvirlanadi. Ushbu asarlarga xos umumiy xususiyat fojiaviy ruhning ustunligidir.

Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asarlarning ko‘pchiligida vatanparvarlik, qahramonlik g‘oyalari ustun tursa, afg‘on urushi mavzusida yozilgan barcha asarlarda tragik pafos yetakchi o‘rinda turadi. Chunki bu urush mohiyat jihatdan ikkinchi jahon urushidan farq qilardi. Ikkinchi jahon urushi ham katta fojia va kulfatlarga sabab bo‘lgan, lekin unda qatnashgan o‘zbek jangchilari vatan himoyasi yo‘lida jang qilgandilar. Shu tufayli ham ikkinchi jahon urushi haqidagi asarlarda qahramonlik ruhi yetakchilik qiladi. Afg‘on urushi esa yurt ozodligi uchun emas, Sovet hukumatining siyosiy rejalari uchun xizmat qildi. Shu tufayli ham afg‘on urushi mavzusidagi asarlarda qahramonlik emas, fojiaviylik ruhi yetakchi xususiyat kasb etadi.

O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani bosh qahramoni Rustam urushdan tirik qaytgan bo‘lsa-da, urush qoldirgan asorat ta’sirida yashadi. Urush uning dunyoqarashiga ham, ruhiyatiga ham, salomatligiga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazdi. O‘zi sevgan kursdosh qizi Shahnozaga uylangan bo‘lsa ham, ikkisining o‘rtasida muhabbat bo‘lsa ham, ular baxtli bo‘la olishmaydi. Bu baxtsizlikning asosiy sababi esa urushning salbiy ta’siridir. Rustamning o‘ta jizzaki, asabiy bo‘lib qolishi, adolatsizlikka duch kelganda o‘zini bosolmay qolishi, jahli chiqqanda vahshiylashib ketishi kabi psixologik holat tasvirlari buni dalillaydi. Sobiq jangchining urushdan uyga qaytgandan keyin ham ketma-ket adolatsizliklar, nohaqliklarga guvoh bo‘lishi, ayolining baxtsizligiga o‘zini aybdor his etishi singari omillar oxir-oqibat Rustamning fojiali o‘limiga sabab bo‘ladi.

Romandagi urush va inson talqini ifodasida Xayriddin obrazi alohida o‘ringa ega bo‘lib, u bevaqt qurbon bo‘lgan yosh askarlarning turli toifalariga xos xususiyatlarni o‘zida birlashtiradi. O‘tkir Hoshimov afg‘on urushining halokatli ta’sirini Rustam bilan birgalikda Xayriddin obrazi orqali ham bayon etadi. Xususan, asarda Xayriddin tilidan urushga quyidagicha ta’rif beriladi: *“…Urush teskari haqiqat degani ekan. Odam bo‘lging kelsa, shafqatsiz bo‘l. O‘lging kelmasa, o‘ldir”*[3,100]. Urushning adolat va haqiqat tamoyillariga mutlaqo to‘g‘ri kelmasligi ushbu jumlalarda qahramonning xulosasi fonida ifodalangan. Bu orqali muallifning ham urush haqidagi o‘z qarashlari badiiy ifodasini topgan. Shuningdek, Xayriddinning o‘limi tasviri ham o‘ziga xos holatda tasvirlangan. Muallif ushbu qahramonni jang paytida odatiy tarzda o‘q tegishi yoki snaryad portlashidan halok bo‘lishini tasvirlamaydi. Aksincha, Xayriddinning o‘limi jarayoniga ramziy ma’no yashiradi. Ya’ni Xayriddin o‘z tug‘ilgan kunida dushman tomonda jang qilayotgan o‘zbek jangarisi tomonidan o‘ldiriladi. Tug‘ilgan kunidagi o‘lim qahramon taqdirining fojiaviylik ko‘lamini yanada kuchaytiradi. Undan tashqari, hayotdan hech narsa topishga ulgurmay yosh qurbon bo‘lganligini ta’kidlaydi. Xayriddinning o‘z millatdoshi tomonidan o‘ldirilishi esa nafaqat

urushning g‘ayriinsoniy mohiyatini, bir millat vakillarini ikki dushman qutbga bo‘lib yuborgan mustabid tuzumning halokatli ta’sirini anglatadi.

Romanda Rustam va Xayriddin obrazlari orqali afg‘on urushi ishtirokchilarining taqdiri aks ettirilgan bo‘lsa, komissar Soat G‘aniyev obrazi va uning o‘tmishi tafsilotlari orqali muallif Sobiq Ittifoq hukumatining bir necha bosqichda olib borgan qatag‘on siyosatini tasvirlaydi. Adabiyotshunos olim Abdug‘ofur Rasulov romanda Soat G‘aniyev obrazining qo‘llanilishi haqida quyidagicha fikr bildiradi: *“O‘tkir Hoshimov bir vaqtlar ko‘klarga ko‘tarilgan komissar-hukumat va partiyaning suyangan tog‘ini salbiy tip sifatida talqin etdi. Komissar xarakterida Sho‘ro tuzumi tarbiyalagan barcha xususiyatlar aks etgan”*[4,67]. Komissarning ruhiy holatini ifodalovchi ichki nutq tasvirlarida bu obrazning xarakter xususiyatlari aniq ko‘rinadi. Soat G‘aniyevning barcha narsadan gumonsirash, hammaga dushman sifatida qarash kabi munosabatlari fonida “chekistcha tarbiya”ning salbiy oqibatlari bayon etiladi. Shu xususiyatlariga ko‘ra komissar G‘aniyev umumlashma obraz hisoblanadi.

Afg‘on urushi fojialarini aks ettirishda Abdurashid Normurodov alohida faollik ko‘rsatgan. Yozuvchining “Qonli yo‘rgaklar” va “Qon hidi” asarlari buning dalilidir. Xususan, “Qonli yo‘rgaklar” asarida muallif afg‘on urushi ishtirokchilari bilan yuzma-yuz suhbat quradi. Ularning urushda ko‘rgan-kechirganlarini bo‘yab-bejamay, qanday bo‘lsa shundayligicha keltiradi. Bu uslubda yaratilgan asarlarni sof badiiy asar deb hisoblash bahsli masala. Chunki bu asar aniq syujet liniyalari va muayyan obrazlar tizimiga ega emas. Unda muallif va ko‘plab urush ishtirokchilarining o‘zaro suhbatlari alohida-alohida berilib, bir kitobga jamlangan. Asarda badiiylikdan ko‘ra hujjatlilik xususiyati ko‘proq. Biroq hujjatli prozada ham muallif shundayligicha protokol usulidan foydalanmaydi. Har bir suhbatdoshining hikoyasi orqali urush dahshatlari, uning inson ruhiyatiga ta’siri masalalarini aks ettiradi. Bu borada o‘zbek harbiy prozasi o‘z maktabi va an’analariga ega. Xususan, N.Safarov, A.Rahmat, M.Ismoiliy, Nazarmat, S.Qodirov, L.Ergashev kabi yozuvchilar ham urush ishtirokchilari haqidagi asarlar yaratib, faktlar bilan birgalikda davr obrazini, urush va tinchlik masalalarini aks ettiradilar. Adabiyotshunos N.Bekmirzayev bu masalada quyidagicha fikr bildiradi: “…hujjatli proza aniq faktlar yig‘indisigina bo‘lib qolmay, balki real voqealar, real kishilar taqdirini realistik tarzda ifodalovchi; tipiklashtirib va individuallashtirib beruvchi to‘la huquqli badiiy asar sirasiga kiradi” [5,5]. Olim hujjatli proza namunalarini ham badiiy asarlar sirasiga kiritar ekan, obrazlilik xususiyatiga asoslanadi. N.Bekmirzayevning fikriga asoslangan holda real obrazlar vositasida voqelikni tipiklashtirib aks ettirish xususiyatini inobatga olsak, “Qonli yo‘rgaklar” asarini ham badiiy asar deb hisoblash o‘rinlidir. A.Normurodovning “afg‘on” mavzusida yozilgan boshqa bir asari – “Qon hidi” romanida ham real tasvirlar va obrazlar vositasida urushning g‘ayriinsoniy mohiyati ochib beriladi. Hakimjon Karimov bu romanda ifodalangan afg‘on urushini “absurd” mohiyatga ega deb ta’kidlaydi: “Romanda absurdlik asosida yuzaga kelgan afg‘on urushining butun dahshatlari, murakkabligi, turfa ko‘rinishlari o‘z ifodasini topgan”[6,108]. Darhaqiqat, romanda afg‘on urushining barcha kirdikorlari ochiq aks ettiriladi. Behuda qurbon bo‘lgan yoshlar, tobutlarda jasad o‘rniga narkotik moddalar jo‘natilishi, urush sababli inson ruhiyatidagi salbiy evrilishlarni tasvirlash orqali muallif urushni rad etadi. Afg‘on urushining unda qatnashgan askarlar uchun “absurd”lik kasb etgani bosh qahramon Vohidjon obrazi orqali aniq ko‘rinadi.

Afg‘on urushi mavzusida ijod qilgan yana bir yozuvchi G‘afur Po‘latov bo‘lib, uning avtobiografik usulda yozilgan “Herirud faryodi” romani o‘zbek harbiy prozasida yangilik bo‘ldi. Dastlab “Jahon adabiyoti” jurnalida, keyinchalik bir necha nashriyotlarda harbiy-dala qissasi sifatida chop etilgan ushbu asar 2018-yilda “Navro‘z” nashriyoti tomonidan harbiy-dala romani sifatida qayta nashr etildi. Asarning patsifistik ruhi, urushga nafrat g‘oyasi bilan sug‘orilganligi muallif so‘zboshisidanoq yaqqol ko‘zga tashlanadi: *“Kattami, kichikmi, adolatlimi yoki adolatsizmi har bir urush insoniyat peshonasiga tushgan sho‘rdir. Mana shunday sho‘rpeshona urushlardan biri XX asr so‘nggi choragida yuz bergan sho‘ro – afg‘on urushi bo‘ldi”* [7,3]. Afg‘on urushiga nisbatan baho berar ekan, muallif har qanday urushni qoralaydi. Ayni paytda, muallif so‘zboshi qismida tanqidchi sifatida ham namoyon bo‘ladi va yangi o‘zbek adabiyotida afg‘on urushi talqini masalasiga ham baho beradi:

“Zamonaviy o‘zbek adabiyoti MDH davlatlari ichida afg‘on mavzusiga eng ko‘p qo‘l urgan nasrchilik mamlakati bo‘lib qolishi quvonchlidir. Rus adiblari ham afg‘on mavzusiga oid adabiyotlarni taxlab tashlaganlar. Lekin rus asarlarida o‘tgan urush va sho‘roviy askarning bosqinchilik tashrifini oqlash kayfiyati kuchli”[7,4]. Yuqoridagi jumlalarda adib afg‘on urushiga yondashuv masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbek adabiyotida “afg‘on” mavzusidagi asarlar patsifistik ruhda ekanligi, bu orqali afg‘on urushining asl mohiyati obrazlar vositasida ochib berilayotganligini ta’kidlash bilan bir qatorda rus adabiyotida bu urushga yondashuv boshqacha ekanligiga ham munosabat bildiradi. Ayni paytda, adib o‘z asarida avtobiografik tarzda urush voqeligini aks ettirar ekan, bu urushning siyosiy mohiyatiga ko‘proq urg‘u beradi. Xususan, sobiq SSSR hukumati askarlar ongiga singdirgan soxta “baynalmilallik” g‘oyasini yosh ofitserning o‘limiga bosh qahramon munosabati vositasida fosh etadi: *“Shu yoshda o‘lish… Hayot bilan vidolashish… Qanday dahshat. Yana begona joylarda xazonmarg ketish. Nahot baynalmilallik mantig‘i shu bo‘lsa?”*[7,18]. Bu jumlada g‘oya va real hayot o‘rtasidagi ziddiyat fojia tasviri orqali alohida ta’kidlangan. Hukumatning mafkuraviy targ‘iboti va bevaqt o‘lim tasvirining qarama-qarshi qo‘yilishi orqali urushning asl mohiyati ochib beriladi.

Xulosa. O‘zbek harbiy prozasida afg‘on urushi mavzusida yaratilgan asarlarni urushni qoralash, mustabid tuzumning kirdikorlarini fosh etish xususiyatlari birlashtirib turadi. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida afg‘on urushi bilan bir qatorda qatag‘on siyosati, “o‘zbek ishi” mojarolari o‘zaro bog‘langan holda aks ettirilib, bu asardagi afg‘on urushi talqini mustamlakachilik tuzumining bir bo‘lagi sifatida aks ettiriladi. Abdurashid Normurodovning “Qonli yo‘rgaklar” va “Qon hidi” asarlarida urush ishtirokchilarining kechinmalari real voqealar asosida, haqqoniy aks ettiriladi. Bu asarlarda muallif munosabatidan ko‘ra obyektiv voqelik tasviri, real faktlarga asoslanganlik xususiyati yuqoriroq o‘rinda turadi. G‘afur Po‘latovning “Herirud faryodi” asarida esa afg‘on urushining siyosiy mohiyati ko‘proq ochilgan. “Baynalmilallik”, “internatsionalizm” kabi yolg‘on g‘oyalar fosh etilib, urushning vayronkor va g‘ayriinsoniy mohiyatini ochishga ko‘proq urg‘u beriladi. Yuqoridagi asarlarning barchasida urushni rad etuvchi patsifizm g‘oyasi yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu g‘oyani ifodalashda tragik pafos, absurd elementlaridan foydalanilgan. Shu xususiyatlariga ko‘ra bu asarlar XX asr g‘arb adabiyotida keng tarqalgan, urushni rad etuvchi “yo‘qotilgan avlod” adabiyotiga yaqin turadi. “Yo‘qotilgan avlod” mavzusidagi asarlarga xos bo‘lgan patsifizm, urushning vayronkor mohiyati va fojiali oqibatlariga asosiy urg‘uni berish xususiyatlari afg‘on urushi talqin etilgan o‘zbek asarlariga ham xosligini inobatga olsak, “yo‘qotilgan avlod” tushunchasini o‘zbek harbiy prozasiga ham tatbiq etish mumkinligi anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳмад С. Ижод ва жасорат. // Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Шарқ, 2000.
2. Староверова Е.В. Потерянное поколение в литературе. // Американская литература. – СПб.: Лицей, 2005.
3. Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
4. Rasulov A. Ardoqli adib. – Toshkent: Sharq, 2001.
5. Бекмирзаев Н. Ўзбек совет ҳарбий прозаси. – Тошкент: Фан, 1981.
6. Каримов Ҳ. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. – Тошкент, 2008.
7. Po‘latov G‘. Herirud faryodi. – Toshkent: Navro‘z, 2018.

Sherxon QORAYEV,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalqaro innovatsion universitet dotsenti
sherxonqoraev@gmail.com

BUXORO AMIRI SHOHMURODBIYNING ILMIY MAJLISLARI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqola Buxoro amirligida hukmronlik qilgan so‘fiy podshoh amir Shohmurodbiy huzurida o‘tkazilgan ilmiy majlislarga bag‘ishlanadi.

Amir saroylarida, masjid va madrasalarda o‘tkazilgan ilmiy majlislarda islom dini va tasavvuf ta’limotiga oid masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Shayx, hirqa, darveshlik, xonaqoh, ilm ahli.*

Аннотация:данная научная статья посвящена научным встречам, проходившим в присутствии Амира Шахмурадби, суфийского правителя Бухарского эмирата.

Вопросы исламской религии и суфизма обсуждались на научных встречах, проходивших во дворцах эмиров, мечетях и медресе.

Ключевые слова: *Шейх, хирка, дервишство, ханака, люди знания.*

Annotation:this scientific article is dedicated to the scientific gartherings held in the presence of Amir Shahmuradbi, the Sufi king who ruled the Bukhara Emirate.

Issues related to Islamic religion and Sufism were discussed at the scientific meetings organized in the palaces of the emirs, mosques and madrasas.

Key words: *Shaykh, hirqa, dervish sect, khanaqah, people of knowledge.*

Kirish. Tarixiy manbalarda Buxoro xonligi hukmdori amir Shohmurod so‘fiy podshoh va “Amiri ma’sum [Somiy, 1962.40]” deb zikr etilgan. Shohmurodbiyning ba’zi falsafiy – diniy qarashlari o‘zi yozgan “Ayn ul-hikmat” (“Bilimdonlik manbai”) kitobida o‘z ifodasini topgan [Muqimov, 2008.61]. Ma’lumotlarga ko‘ra, Amir Shohmurod fiqh va qonunchilikka oid maxsus qo‘llanmalar yaratgan[https://telegra.ph/Begunoh-amirning-ibrati-12-16].

Asosiy qism. Abu Tohirxojaning “Samariya” asarida keltirilishicha, *“Shohmurod yoshligida bir necha yil Mir Arab madrasasida tahsil olgan. U boshqa fanlar qatorida tasavvuf ilmini ham o‘rgangan va so‘fiyona turmush tarzi uning hayoti mazmuniga aylangan* [Tohirxoja, 1991.13-15]*”.* Binobarin, *“bolaligidan xudojo‘y, porso bo‘lib o‘sgan, madrasa ko‘rgan, darvishlik suluki soliklaridan biriga aylangan amir Shohmurod shaxsiyatida hukmdor va so‘fiylik sifatlari mujassam edi* [Zamonov, 2022.48-49]”. Jahondorlik alomatlari Shohmurodbiy peshonasida yarqirab turar, ammo o‘sha kezlari (yoshligida) faqru fano tariqati yo‘liga kirib, Buxoro ko‘chalarida piri topshirig‘iga ko‘ra, hammollik qilib yurardi [Muhammadhakimxon, 2010.31]. Herman Vamberining yozishicha, *“U yoshlik davridayoq diniy (ilmiy) yig‘inlarga mayl ko‘rsatdi. Hatto, tashqi qiyofasini ham o‘zgartirib, darveshlar hirqasini kiydi, ba’zan butun kunini xonaqohlar va masjidlarda o‘tkazib, zikr va samo’ bilan mashg‘ul bo‘lib, bunday vaqtlarda hech kim uning rohatini buzishga jur’at qila olmasdi.*

Bo‘sh paytlarda Masjidi kalon hovlisiga biqinib, yana bir yil ibodat bilan mashg‘ul bo‘lib, o‘zining eng yaxshi asari: “Aynul hikmat” – “Donishmandlik bulog‘i” asarini shu yerda yozdi [Vamberi, 2019.158-159]*”.* Albatta, Amir Shohmurod davlat tarafidan ajratilgan maoshini qurilishlarga, ilm ahli va talabalarga sarflardi, darveshlardan farq qilmaydigan hayot kechirgan. Tarixchilaridan biri Amir Shohmurod to‘g‘risida shunday yozgan: *“Qubbat ul-islom” va dor ul-xilofa Buxoroyi sharifning oxirgi*

avliyoulloh sultonlaridan edi, muborak ismi Muhammad Shohmurod Valiydir [Vamberi, 2019.150]. Manbalarda u Amiri Kabir, Amiri Ma'sum, Amiri G'oziy, Amiri Jannatmakon, Amiri Valiy va Ikkinchi Umar kabi faxrli nomlar bilan atalgan [Zamonov, 2022.48]. Tarixchi Qahramon Rajabovning yozishicha, *"Amir Shohmurod fozil hukmdor sifatida islomiy ilmlarni puxta egallagan. Afsuski, hozirgacha O'zbekiston tarixi fanida Amir Shohmurod faoliyatining bu jihati, umuman olganda, uning shaxsiyati o'zining xolisona bahosini olgan emas. Tarixchilarimiz oldida bu kemtikni to'ldirishdek murakkab, ayni paytda, sharafli bir vazifa turibdi. Xususan, Amir Shohmurod Qur'oni karim, kalom ilmi (Imom Moturidiy qarashlari asosida), hanafiya mazhabi va tasavvuf haqida yaratilgan asarlarning bilimdoni sifatida Arkdagi saroyda va Buxoro tashqarisida o'tgan ulamolarning turli majlislarida qatnashib, munozarali masalalarni hal qilgan. U juma namozlarida xaloyiq oldida turli va'z aytganligi keltiriladi. Amir Shohmurod tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan (Yuqorida ham nomi keltirilgan) "Ayn al-hikmat" ("Donishmandlik asoslari") asarini yozgan. Bundan tashqari, u hanafiya mazhabiga oid "Fatovoyi ahli Buxoro" ("Buxoro ahliga fatvolar") to'plamini tuzgan* [Rajabov, 2006.36]*".* Shu jihatdan olganda, amir Shohmurodning ushbu asarlarini bugungi kunda milliy davlatchilik tarixini o'rganish va uni ilmiy tahlil etishda nodir va qimmatli huquq manbasi sifatida qarash lozim.

Amir Shohmurod nafaqat Buxoro shahrida, balki amirlikning turli viloyatlariga borib, ulardagi masjid va madrasalarda shariat huquqi normalari va ularni tatbiq etishga oid masalalar yuzasidan mashg'ulotlar o'tkazib kelgan. Masjidlarda imomlik qilib, namoz tugaganidan so'ng "oliy yig'in" (Majlisi oliy)ni chaqirgan hamda unga ilm ahlini, qozilarni, hadisshunos olimlarni to'plagan. Ushbu majlislarda islom huquqi normalariga, huquqiy odatlarga asoslangan holda aholiga ularning fiqhiy muammolarga oid savollariga javob qaytargan [Shodiyev, 2010.19]. Uning huzurida doimiy ilmiy (diniy) majlislar o'tkazilgan.

Chunonchi, amir o'z davrining yetuk va salohiyatli olimlaridan biri bo'lgan. Ahmad Donishning yozishicha, *"Islom davrida amir Ma'sum Shohmurod kabi mujaddid chiqmagan. Zero, uni "Ikkinchi Umar" deb atasalar arziydi. Binobarin, Umar ibn Abdulazizda bo'lmagan fazilat va xislatlar amir Ma'sum Shohmurodda mavjudligini ko'radilar. U Foruq (Umar ibn Xattob) adolati va Sulaymon alayhissalom faqri (hokisorlik)ning kamoliga ega bo'lib, faqr libosida amirlikda tartib o'rnatib, zulm va dushmanlar ildizini jahonning bog'ida yanchib tashladi...*

Amir Ma'sum madrasaga borib, ilm olish bilan mashg'ul bo'ldi. Oddiy fuqarolar orasiga kirib, shayxlardan biriga shogird tushdi. Tabiiyki qobiliyati tufayli qisqa vaqt ichida dinga oid bilimlarni puxta egalladi va so'fiylar (mujaddidiya – naqshbandiya) sulukidan bahramand bo'ldi [Donish, 2014.17-20]*".* Uning ilk murshidi oxund Muhammad Safar Xorazmiy bo'lgan [Rajabov, 2006.36-38]. Shohmurodbiy so'fiylik ta'limotini, islom huquqi normalarini va majburiyatlari haqidagi ilmlarni Shayx Safardan, Qur'oni Karim ilmini esa uch murabbiydan, ya'ni Hofiz Ashur, Nodir Boqi va Niyozquli qorilardan tahsil olib o'rgangan [Shodiyev, B.18].

Xulosa. Ma'lumotlarga qaraganda, tahsilni tugatgach, "Amir Buxoro madrasasida "Hidoya", Bayzoviyning "Kitob usul ad-din" risolasidan hamda Shotibiyning asarlari va unga yozilgan sharhlardan dars bergan va ilmiy majlislar o'tkazgan. Shohmurodbiyning o'g'li Miriyning yozishicha, amir "Shotibiya" va uning sharhlarini yoddan bilgan. Shuningdek, u qiroat, hadis va fiqh ilmlari bilimdoni bo'lgan va umrini talabalarga dars berishga sarflab, ko'plab shogirdlar yetishtirgan. Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (stipendiya) to'lashni joriy etgan. Amir Shohmurod (Yuqorida ham aytib o'tganimizdek) islom shariatiga oid "Fatovoyi ahli Buxoro" ("Fatovoyi Amiriy") [Shohmurod, 5804] nomli kitob tartib etgan. Ammo ushbu fatvolar to'plamini to'liq kitob holiga keltirishga ulgurmagan. Otasining vafotidan so'ng o'g'li Amir Haydar mazkur kitobni oxiriga yetkazgan [Zamonov, 2014.14]". Muxtasar aytganda, amir Shohmurod huzurida o'tkazilgan ilmiy (diniy) majlislar din va tasavvuf ta'limoti va mumtoz adabiyotimiz rivojiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirza Abdal Azim Sami. Ta'rix-i salatin-i mangitiya (Istoriya mangытskix gosudarey). Izdanie teksta, predislovie, perevod i premichaniya L.M.Yepifanovoy. –M.: Vostochnoy literaturы, 1962. –S.40.

2.Muqimov Z. Qilich va qalam sohiblari. Samarqand. SamDU, 2008.61-b.

3.https://telegra.ph/Begunoh-amirning-ibrati.12-16-b

4.Abu Tohirxoja. Samariya. Forschadan A. Sattoriy tarjimasi. – T.: Kamalak, 1991.13-15-b.

5.Zamonov A., Egamberdiev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari). – T.: Tamaddun, 2022.48-49-b.

6.Vamberi Arminiy. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Ikkinchi jild. – T.: "Info Capital Group", 2019.158-159-b.

7.Zamonov A. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari. – T.: Bayoz, 2020.149-150-b.

8.Rajabov Q. Amir Shohmurod yoxud "Amiri Ma'sum". – Buxoro, Buxoro mavjlari, 2006 yil, yanvar.-№1.36-38-b.

9. Shodiev J. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. – T.:TDYuI nashriyoti, 2010.18-19-b.

10.Ahmad Donish. Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. –T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" DIN, 2014.720-b.

11.Shohmurod. "Fatvoyi ahli Buxoro": Qo'lyozma. O'z FA ShI, inv.№ 5804.

12.Zamonov A., Abdukarimov J. Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba'zi mulohazalar. – Toshkent, O'tmishga nazar. 2014.№2-maxsus son.14-b.

13.Muhammadhakimxon To'ra. Muntaxab at-tavorix. (Xo'qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar). Fors-tojik tilidan tarjima, muqaddima va izohlar muallifi Sh.Vohidov. –T.: Yangi asr avlodi, 2010.48-b.

14.Qorayev Sh. Scientific conferences of Shahmuradbi, sufi emir of Bukhara/ O'zbekistonning janubiy hududlarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlashning muammo va istiqbollari mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy anjumani maqolalari to'plami. – Qarshi: QarIA, 2024.421-424-b.

15.Qorayev Sh. Buxoro amiri Shohmurod Ma'sum ilmiy majlislari/ Global iqlim o'zgarishi sharoitida ekologik barqarorlikni saqlash yo'llari: suv tanqisligini yumshatish, gidrologiya, cho'llanish, tuproqlarning ekologik meliorativ holatini yaxshilashning zamonaviy usullari mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Qarshi: QarIA, 2024.484-487-b.

16.Qorayev Sh. O'zbek xonliklarida adabiy kechalar (Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar davri misolida). – T.: "LESSON –PRESS", 2022.114-b.

17.Qorayev Sh. O'rta asr manbalarida o'zbek xonliklari adabiy kechalari tarixi (Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar davri misolida). – Qarshi: "Intellekt", 2023.148-b.

18.Qorayev Sh. Shayboniy sultonlar tazkirasi. Monografiya. – Qarshi: Intellekt, 2023.206-b.

19.Qorayev Sh. O'zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya. – Qarshi: Ilm-fan va ma'naviyat, 2024.310-b.

Lobar MARDONOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
f.f.f.d, dotsent
lobarmardonova40@gmail.com

“ULUG‘ MOMOLAR HAQIDA QO‘SHIQ YOXUD ADIB TO‘LQIN HAYIT IJODIDA TARIXIY SHAXSLAR SIYMOSI”

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalqining tarixi, uning ma’naviy tayanchlari bo‘lgan ulug‘ momolar obrazi qalamga olingan. Bu siymolar orqali yozuvchi faqat bir shaxs emas, balki butun bir avlodning sabri, matonati, vatanparvarligi va ma’naviy kuchini tasvirlagan.

Kalit so‘zlar: *sabr, matonat, xalqining tarixi, ma’naviy tayanchlari, aql, iroda, milliy ruh, tarixiy xotira, ajdodlar merosiga ehtirom*

Аннотация: в статье рассматривается история узбекского народа, его духовные основы, образ прабабушек. Через эти образы писатель передал терпение, стойкость, патриотизм и духовную силу не только одного человека, но и целого поколения.

Ключевые слова: *терпение, стойкость, история народа, духовные основы, разум, воля, natsionalьный дух, историческая память, уважение к наследию предков.*

Annotation: this article depicts the history of the Uzbek people, their spiritual pillars, the image of great grandmothers. Through these figures, the writer depicted the patience, fortitude, patriotism and spiritual strength of not only one person, but also an entire generation.

Key words: *patience, fortitude, history of the people, spiritual pillars, mind, will, national spirit, historical memory, respect for the heritage of ancestors*

Kirish(introduction). Millat ma’naviyatini shakllantiradigan asosiy omillardan biri – uning buyuk insonlari, ajdodlari, ular qoldirgan madaniy va ma’naviy merosidir. Bu meros ichida alohida o‘rin egallaydiganlar – ulug‘ momolarimiz, ya’ni tarixda katta iz qoldirgan, zakovat va jasorat sohibasi bo‘lgan ayollardir. Ular nafaqat oila asosini mustahkamlagan, balki millat ravnaqi uchun ham bor quvvati, aqli va irodasini fido qilgan.

“Ulug‘ momolar” — tarixda iz qoldirgan, jasoratli, zakovatli, ziyoli va shu bilan bir qatorda, millatparvar ayollar nazarda tutiladi. O‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslar siymosini qalamga olish — bu nafaqat o‘tmishni eslash, balki kelajak avlodlarga ibrat va ma’rifat yo‘lini ko‘rsatish demakdir. Ana shunday muhim va sharafli vazifani adib To‘lqin Hayit o‘z ijodi orqali samarali amalga oshirib kelmoqda. Uning asarlarida tarixiy onalar, buyuk momolar siymosi o‘ziga xos teranlik, ehtirom va fidokorlik ruhi bilan sug‘orilgandir.Uning asarlarida milliy ruh, tarixiy xotira, ajdodlar merosiga ehtirom kuchli.

Ulug‘ momolar faqat bir avlodning emas, balki butun millatning ma’naviy tayanchiga aylandi. Ulardagi jasorat, vatanparvarlik, adolatparvarlik, sabr-toqat va aql-zakovat — har bir ayol va erkak uchun namuna bo‘la oladi.

Bugungi yoshlarimiz uchun ulug‘ momolar siymosini bilish juda muhim. Ular orqali faqat tarix emas, balki hayotning ezgu ma’nolari, buyuklik, fidoyilik, burch va yuksak ma’naviy mezonlar o‘rgatiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod (литература и метод / materials and methods).

Ayol – millat tarbiyachisi. Ulug‘ momolar misolidagi ayollar – millatni jismonan emas, ruhan ham tarbiya qilgan buyuk insonlardir. Ularning timsolida o‘zini ko‘ra olgan ayol – o‘z oilasiga, farzandiga va jamiyatiga foyda keltiradi.

To‘lqin Hayit o‘z asarlarida o‘zbek xalqining tarixi, uning ma’naviy tayanchlari bo‘lgan ulug‘ momolar obrazini qalamga oladi. Bu siymolar orqali u faqat bir shaxs emas, balki butun bir avlodning sabri, matonati, vatanparvarligi va ma’naviy kuchini tasvirlaydi.

Uning dastlab, ya’ni 1989—1994-yillarda Amir Temurning suyukli umr yo‘ldoshi, jasur va mard ayol, hukmdor amir Qazag‘anning erkatoy, oqila nevarasi O‘ljay Turkon oqa hayoti haqida salmoqli asar yaratganini ko‘pchilik yaxshi biladi. Asarning birinchi qismi – mamlakatimizda “Amir Temur yili” deb e’lon qilingan 1996-yilda “O‘zbekiston” nashriyoti tomonidan besh ming nusxada nashr etilgan edi. Men ijodkordan nega Bibixonim haqida emas, aynan O‘ljay Turkon oqa to‘g‘risida bunday ishga qo‘l urganligini so‘raganimda, shunday javob qildi:

–To‘g‘ri, Bibixonim haqida ozmi-ko‘pmi, asl voqealar bilan birga afsonalar ham ko‘p, ya’ni xalqimiz bu ulug‘ momo haqida yaxshigina xabardor, ammo men tariximizning hali keng ommaga ma’lum bo‘lmagan muhim jihatlarini yoritishni va bu bo‘shliqni to‘ldirishni vazifam, deb bildim. Kezi kelganda, aytish kerakki, O‘ljay Turkon oqa Sohibqiron bobomizga eng qiyin va iztirobli, og‘ir yillarda yelkadosh bo‘lgan jasoratli momomizdir. Tarixdan bilamizki, Bobur Mirzo bobomizning bir ayollari sarson-sargardonlikni o‘ziga ep bilmay, u kishini yolg‘iz qoldirgan, undan juda ranjib ajrashgan. Ammo O‘ljay Turkon oqa hatto g‘animlari ularni 62 kun burga va qurt-qumursqalar to‘la xonada zindonband etganda ham, bu muhtarama ayolga ofarinlar bo‘lsin, Amir Temur bobomizni tashlab ketish u yoqda tursin, hatto nola ham qilmadi. Kerak bo‘lganda, eng qimmatbaho taqinchoqlarini ham Sohibqiron bobo omonligi va or-nomusi, obro‘-e’tibori hamda u zotni qiyin vaziyatdan qutqarish uchun hadya qilib yubordi. Yoki Samarqandda alg‘ov-dalg‘ov bo‘lganda, Xorazmning issiq cho‘llarida g‘anim bilan qirg‘inbarot jangda ham birga bo‘ldi, birga jang qildi va o‘zining dunyodagi eng oqila va mardona ayol ekanligini namoyish etdi. Mana, bir ayolning o‘z eriga sadoqati va mehri! Shunday ulug‘ momomiz haqida yozish kerakmasmi?! Unga haykal qo‘ysak arziydi. Xullas, ana shunday ulug‘ momo haqida xalqimizga biror asar tortiq qilishni burchim, deb hisobladim va yaxshimi, yomonmi, kitob uchinchi marta nashr bo‘lmoqda.

Bu kabi satrlar To‘lqin Hayit qalamida ko‘p uchraydi. U tarixiy shaxslar siymosini ideallashtirmasdan, balki ularning insoniy fe’l-atvorini, irodasi va jasoratini xalqqa namuna sifatida yetkazadi.

Muhokama (обсуждение / discussion). Yozuvchining “Ulug‘ momolar haqida qo‘shiq” momolarni shunchaki ona sifatida emas, balki xalqning ma’naviy boshlang‘ich nuqtasi sifatida ko‘radi. Bu obrazlar orqali u millatni, uning urf-odatlari, axloqiy tamoyillari va xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatini yoritadi. To‘lqin Hayit ijodida tarixiy shaxslarning siymosini tiklash — bu adabiy jarayon emas, balki milliy o‘zlikni anglash, unga bog‘lanish va kelajakka yuzlanish yo‘lidagi ma’naviy harakatdir.

Yozuvchi qirqqizlar hayoti haqida “Qora shahzoda” asarini yozdi va unda Malikabonu siymosi orqali o‘tmishda or-nomusini Vatan sha’ni deb tushungan jasur va mard momolardan yana birining hayotini ibrat tariqasida o‘quvchisiga havola etdi. *“Vatanparvarlik mavzusi meni har doim qiziqtirib kelgan, – deydi adib. – Shu ma’noda qirqqizlar taqdiriga befarq emasdim. Chunki bir tomondan,*Termiz shahridagi Qirqqizlar akademiyasining qizlari qishlog‘imizda dafn etilgan. Termizdan Sariosiyo tumanining Dashnobod qishlog‘igacha 180 kilometrlik uzoq yo‘l, uzoq masofa bor. Qirqqizlar qanday qilib, u yerlarga borib qolishgan va ularni kim qatl etgan? 39 nafar qizning qabri bir joyda.Boshliqlarining sag‘anasi hozirgi 35-maktabning sport zali o‘rnida edi. O‘qituvchilarning aytishlaricha, sport zalidan hozir ham ayolning chinqirig‘i eshitilib turadi.

Asardagi bir voqea borki, u haqda to‘xtalmasdan o‘tib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, asar qahramoni, vatanparvarlar rahbari Malikabonuning nikoh to‘yi olis tog‘lar qo‘ynida, cho‘pon o‘tovida o‘tkaziladi. Bundan ori kelgan umr yo‘ldoshi: *“– Vatanimiz tinch bo‘lganida, to‘yimizni o‘z uyimda, o‘z hovlimda munosib tarzda o‘tkazgan bo‘lardim”,* – deya afsuslanadi.

Natijalar (результаты / results). Muallif aytishicha, ana shu o‘rinda u yozishni bir necha hafta to‘xtatib qo‘ygan. Xo‘sh, qiz o‘z juft-u

halolining bunday o‘rtanishini eshitib, unga yarasha qanday so‘z aytishi, qay yo‘sinda ko‘ngliga mos javob berishi lozim edi? Bizga o‘qish oson, ha shunday javob topibdi-da, deb o‘ylaymiz, ammo hammaga mos keladigan so‘z topishdan mushkuli bo‘lmasa kerak.*”–Biz o‘z Vatanimizdamiz, sira ham kuyinmang”,* – deydi Malikabonu o‘z yoriga qarab.

Ana shu badiiy ifoda orqali muallif yurtning har qarichi muqaddasligini, uning har giyohini ko‘zga surtish lozimligini uqtirmoqchi bo‘ladi va bu gapni yalang‘och tarzda emas, balki ehtirosli badiiy lavhalar orqali chizib ko‘rsatganligining o‘zi ham diqqatga sazovordir.

To‘lqin Hayitning mustaqillik yillaridagi ijodiga nazar solar ekanmiz, uni tor ma’noda emas, keng ko‘lam kasb etganiga ham guvoh bo‘lamiz.Hatto mavzumiz doirasida qolgani bizni hayron qoldirdi. Ma’lumki, rus adibi Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo”, “Telba” va boshqa mashhur asarlarining dunyo yuzini ko‘rishida uning vafodor ayoli Anna Grigorevnaning o‘rni katta bo‘lgan. Adibning ana shu ayol haqidagi “Annaning oq sochig‘i” asari juda qiziqarli o‘qilishi bilan birga Annaning iztiroblari va jasorati yorqin aks ettirilgani bilan diqqatga sazovordir. Shu asar bo‘yicha so‘rov o‘tkazilgan 10 nafar kitobxonning barchasi asarni bir o‘tirishda zo‘r huzur va qiziqish bilan o‘qib chiqishganini bildirishdiki, bu ham ijodkorning mahoratidan, o‘z ustida ishlay bilishidan darak beradi.

Xulosa (заключение / conclusion). To‘lqin Hayit ijodidagi ulug‘ momolar obrazi — bu faqat bir she’riy obraz emas, balki millatni buyuklik sari boshlagan nurli timsollardir. Uning qalami orqali o‘tmish qayta tiriladi, yuraklarimizda iftixor tuyadi, bugungi va ertangi avlod uchun buyuk dars bo‘ladi.

Ulug‘ momolar timsoli – bu faqat tarix emas, balki bugun va ertaning ham ruhiy qiyofasidir. Ularning hayoti, jasorati, tafakkuri orqali biz o‘zligimizni taniymiz, ma’naviy boyligimizni anglaymiz. To‘lqin Hayit kabi ijodkorlar ana shu ulug‘ shaxsiyatlarning badiiy obrazini qayta yaratib, milliy ong va xotirani boyitishga xizmat qilmoqda.

Shuning uchun ham ulug‘ momolarni yod etish, ularning hayotidan ibrat olish – millat ma’naviyatini tiklash va yanada yuksaltirishning yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Юсуфхон Исҳоқов.** *Ўзбек аёллари тарих зарварақларида.* — Т.: “Шарқ”, 2005.
2. **Зулфия.** *Севги ва садоқат.* — Т.: “Ганга”, 1986.
3. **Ҳасанов У.** *Ўзбек аёли — маънавият тимсоли.* // “Маърифат” газетаси, 2020 йил, №12.
4. **Маҳмудов А.** *Ўзбек тарихидаги буюк аёллар.* — Т.: “Маънавият”, 2010.
5. **Мирвалиев Ҳ.** *Адабиёт ва тарихий шахслар образи.* — Т.: “Фан”, 2004.
6. **Тўлқин Ҳайит.** *Бир умр ёд этиш учун...* (мақола) // “Зарафшон” газетаси, 2018 йил, №21.
7. **Қурбонова Н.** *Аёл образи ўзбек насрида.* — Т.: “Ўзбекистон”, 2016.
8. **Олимова М.Х.** *Ўзбек халқ оғзаки ижодиётида аёл образи.* — Т.: “Фан ва технологиялар”, 2012.
9. www.ziyouz.uz
10. www.kitob.uz

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Rustam XURRAMOV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti,
Surxondaryo kampusi katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
e-mail: rustamxurramov@mail.ru



ZAMONAVIY *ONA TILI DARSLARIDA* ETNOPEDAGOGIKADAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy ona tili darslarida etnopedagogik yondashuvdan foydalanishning mavjud holati tahlil qilinadi. Ona tili ta'limida milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish, shuningdek, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va madaniy merosga hurmat ruhini shakllantirish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda ona tili darslarida etnopedagogik materiallardan foydalanishning amaliy ahamiyati, mavjud tajribalar hamda muammoli jihatlar o'rganiladi. Shuningdek, dars jarayonida innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalar orqali etnopedagogik elementlarni singdirishning samarali usullari muhokama etiladi. Natijada, zamonaviy ta'lim tizimida etnopedagogika vositalarining o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashi va til o'rganish motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qilishi isbotlab beriladi.

Kalit so'zlar: *ona tili, etnopedagogika, zamonaviy ta'lim, milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar.*

Annotation: this article analyzes the current state of using ethnopedagogical approaches in modern native language lessons. It highlights the effective use of national values and examples of folklore in native language education, as well as the issues of fostering students' national identity, patriotism, and respect for cultural heritage. The study examines the practical importance, existing experiences, and problematic aspects of using ethnopedagogical materials in language classes. In addition, the article discusses effective ways of integrating ethnopedagogical elements into the learning process through innovative methods and digital technologies. As a result, it is proven that the use of ethnopedagogical tools in modern education contributes to strengthening students' spiritual worldview and motivation to learn the language.

Key words: *native language, ethnopedagogy, modern education, national values, folklore, innovative methods, digital technologies.*

Аннотация: в данной статье анализируется современное состояние использования этнопедагогического подхода на уроках родного языка. Освещаются вопросы эффективного применения национальных ценностей, образцов устного народного творчества, а также формирования у учащихся национальной идентичности, патриотизма и уважения к культурному наследию. В исследовании рассматриваются практическая значимость, существующий опыт и проблемные аспекты использования этнопедагогических материалов на занятиях по родному языку. Кроме того, обсуждаются эффективные способы внедрения этнопедагогических элементов в учебный процесс с использованием инновационных методов и цифровых технологий. В результате доказывается, что этнопедагогические средства в современной системе образования способствуют укреплению духовного мировоззрения учащихся и повышению их мотивации к изучению языка.

Ключевые слова: *родной язык, этнопедагогика, современное образование, национальные ценности, устное народное творчество, инновационные методы, цифровые технологии.*

Kirish. Ona tili darslarining samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Angliya (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university), AQSh (Princeton university), AQSh (Association for Educational Communications and Technology – AECT), Germaniya (Rheinische Friedrich-Wilhelms-Universität Bonn), Janubiy Koreya (Seoul National University, Puchong University, Yonsei University, Sungkyunkwan University, Pohang University of Science and Technology, Pusan National University, Chonbuk National University), Rossiya (Ta’lim akademiyasi), Fransiya (University of Strasbourg), Yaponiya (Miyagi pedagogika universiteti)da olib borilmoqda. Ma’lumki, haqiqiy ta’lim jarayoni hozirgi paytda mavjud bo‘lganidek, mazmunan ham, topshiriqni bajarish nuqtayi nazaridan ham shaxsiy rivojlanish qonuniyatlaridan nazariy jihatdan chetga chiqadi.

Tahlil va natija. Ta’limning to‘rtta asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: 1) uning natijalari (bilim) shaklida mustahkamlangan bilish faoliyati; 2) faoliyatning o‘ziga xos usullarini qo‘llash (reproduktiv qobiliyatlar shaklida); 3) ijodiy faoliyat (“ijodiy” ko‘nikmalar shaklida); 4) tashqi dunyoga hissiy-qadriyat munosabatlari tizimini o‘zlashtirish (shaxsiy yo‘nalishlar va ustuvorliklar shaklida). Bu elementlar ijtimoiy tajribani modernizatsiya qilish bo‘yicha zamonaviy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Madaniyatshunoslik konsepsiyasini yaratuvchilar da’vo qiladilar, ana shu to‘rtta yo‘nalishning mazmunini o‘zlashtirish yangi ta’lim standartining asosini tashkil etuvchi “kompetentlik” yondashuvini qo‘llash imkonini beradi [5].

Zamonaviy dunyoda ma’lumotlarning tabiiy o‘quv sikli tugashidan ancha tezroq eskirib ketishi an’anaviy ta’lim paradigmasi oldida turgan inqirozni keltirib chiqaradigan omillardan biridir. Bu zaruriy bilimlarni uzatish bilan bog‘liq an’anaviy fikrlashning yo‘qolishiga olib keladi. Qolaversa, “mehnat bozorida bilimlarni qanday egallashni tushunish muhimroq bo‘ladi, chunki mutaxassisdan bilimlarni amalda qo‘llash, o‘ziga xos va ijtimoiy funksiyalarni bajarish qobiliyati o‘z-o‘zidan bilim emas, balki talab qilinadi” [5]. Biz standart parametrlari doirasida ta’lim mazmunining faol va kognitiv jihatlarining alohida kombinatsiyasini muhokama qilishimiz mumkin.

O‘quchilarning o‘quv jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi: (Belfild pedagogika universiteti) ijodiy faoliyatni rivojlantirish asosida bolalarni o‘quv jarayonini loyihalash vazifasini bajarishga tayyorlash jarayoni ishlab chiqildi; (Manchester universiteti bazasida Pedagogik malaka oshirish markazi) bilim olishni unumli bo‘lishga urg‘u berilgan pedagogik-psixologik tayyorgarlik tizimi.

“O‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri muammosini o‘rganish kun tartibiga qo‘yilgan bo‘lib, o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish muammosi didaktika va metodika fanlarida yo‘nalish sifatida qaraladi” [5].

Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari – ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashda qo‘llaniladigan usullar; ilmiy jamoatchilik tomonidan ma’lum darajada aniqlangan va takomillashtirilgan tamoyillar ham shular jumlasidandir. Obyekt to‘liq o‘rganilmaganligi sababli ularni aniqlashning asosiy tamoyillari tekshirilmagan.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv nazariyasida ikkita asosiy tushuncha ajralib turadi: kompetensiya va kompetentlik. Birinchisi, ma’lum bir doiradagi obyektlar va jarayonlarga xos bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar to‘plamini o‘z ichiga olsa, ikkinchisi shaxsning tegishli kompetensiyaga egaligi, shu jumladan, uning faoliyat predmetiga shaxsiy munosabati.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ona tili ta’limining bosh maqsadi o‘quvchilarning 4K kompetensiyasini rivojlantishni asosiy vazifa sifatida belgilanadi. Jumladan, 4K kompetensiyasi muammosi – bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishni taqozo qiladi.

Bizningcha, 4K kompetensiyasi o‘quvchilarni faollashtiruvchi yangi bilimlar va uni amalda qo‘llashga qaratilgan bevosita o‘qituvchi rahbarligida ishlab chiqiladigan va bajariladigan o‘quv faoliyatidir. Shu asosda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyati aniqlanib, ularning faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish me’yorlari belgilanadi.

Ona tili darslarida “o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish to‘g‘risida fikr yuritilganda uning ikki xil ma’nosini farqlash kerak” [4]:

1. Ona tili darslarida bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni. Bunda o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlari maqsadini ajrata olishlari, o‘quv topshiriqlari ta’lim jarayonining didaktik maqsadlariga mosligi nazarda tutiladi.

2. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish jarayoni. Bunda “evristik qobiliyatini rivojlantirish pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlovchi muhim shartlaridan biri ekanligi tavsiflanadi” [106]. Bu bosqichda o‘qituvchining o‘quvchi bilan hamkorlikda

o‘quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, “pedagogik jarayonni loyihalash – loyiha – mazmun – faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir” [4].

“Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tizimli tadqiq qilish uchun quyidagi muammolarni belgilaymiz”:

– ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishni metodik muammo sifatida o‘rganish;

– o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishni jarayon sifatida tahlil qilish;

– ona tili ta’limida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda ta’lim subyektlari faoliyatini modellashtirish;


– ona tili o‘quv predmetiga doir topshiriqlarni bajarishda unga vosita sifatida qarash metodikasini ishlab chiqish;

– o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishning samaradorligini o‘rganish;

– o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishga oid muammolar qayd etilgach, “ularning har birini alohida tahlil qilish, tarkibiy qismlarini aniqlashga ehtiyoj tug‘iladi” [3].

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Angliya, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Janubiy Koreya, Rossiyada shu yo‘nalishdagi psixologik, pedagogik, didaktik, metodik izlanishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Bir necha yillardan buyon ona tili ta’limida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish muammosi ilmiy adabiyotlarda ona tili darsida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish muammosi haqida gapirilayotgan bo‘lsa-da, bu muammo yechimi ochiqligicha qolmoqda.

Xorijiy davlat olimlarining monografik asarlarini tahlil qilish asosida “ona tili ta’limida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish xususidagi fikrlarni qisqacha sharhlab o‘tamiz. O‘qituvchi va dasturiy vositalar haqida gapiradigan bo‘lsak, F.Amari o‘qituvchilar dasturiy vositalardan foydalanuvchi emas, balki ularning yaratuvchisi hisoblanadi” [2].



1.2-rasm. Ijodiy faoliyat bosqichlari

Evristik qobiliyat ona tili darslarida o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida, shuningdek, ularning umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. “Evristik qobiliyat o‘quvchilarning iqtidorlilik mezonlariga mos keladi. Ushbu mezonlar bilishga qiziqish, kuzatuvchanlik, nutq, onglilik, nostandart fikrlash; qiziqish, intellekt, emotsiyalarning erta ixtisoslashuvi: musiqa, tasviriy faoliyat, injenering, chet tillarni o‘rganish; bilish faolligi, tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyati, qat’iylik, qo‘yilgan maqsadga erishishga intilish; amaliy faoliyatga tayyorlik va qobiliyatlilik” [1].

Ona tili o‘quv predmeti bo‘yicha o‘quvchilar grammatik jihatdan to‘g‘ri yozishni, ravon fikrlab, yozma matnni tuzishni; son, ot, fe’l so‘z turkumlari va boshqalarni aniqlashni bilishlari lozim bo‘lsa, o‘qish

darslarida to‘g‘ri talaffuz etib o‘qish va h.k.dan esa sanoq texnikasini egallash, natural sonlarni o‘zaro taqqoslash, mantiqiy atamalar ma’nosini tushunish va sonli ifodalarni o‘qishda ularni qo‘llay olish, miqdorlar orasidagi bog‘lanishlarni qo‘llab, amaliy mazmundagi muammolarni yechish, geometrik figuralarga oid tevarak-atrofdagi shakllarni tanish va topa olish kabilar talab etiladi.

Amaldagi dasturlarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir muncha topshiriqlar keltirilgan, ammo ularning barchasi ham boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchini ijodiy faoliyatga yo‘naltiradi deya olish qiyin. Quyida ayrim fanlar bo‘yicha berilgan topshiriqlarni tahlil qilamiz. Masalan, 3-4-sinflar uchun tuzilgan o‘quv fani dasturida o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan. Unda topqirlikka doir muammolar, mantiqiy mashqlar, geometrik shakllar yasash va ularni bir-biridan farqlash, rasmlar, modellardan, atrofdagi narsalardan eng sodda shakllarni topa olish, vaqtni idrok etish va ko‘z bilan chamalashga, aqliy topqirlikka doir o‘yinlar; 4-sinfda amaliy ishlar, rivojlantiruvchi mashqlar: mantiqiy o‘yinxona, mantiqiy fokuslar, arifmetik musobaqalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

1-4-sinflarda o‘rganiladigan atrofimizdagi olam, ayniqsa o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligining guvohi bo‘lamiz. Unda o‘quvchilar bilishi zarur bo‘lgan tabiatdagi o‘zaro bog‘liqlik, ob-havoni kuzatishlariga asosan uning natijalarini aniqlash, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini qo‘llash kabilar nazarda tutilgan.

Fikrimizcha, evristik qobiliyatni rivojlantirishda, ayniqsa, tasviriy san’at darslarida keltiriladigan topshiriqlarning ahamiyati katta. Mavzularga doir kompozitsiyalar (1-2-sinflarning 2-3-choraklari), dekorativ haykallar ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar (3-sinfning 3-4-choragi), xalq ertaklariga, o‘yinchoqlar yasashga doir topshiriqlar (4-chorak); mevalar va gullar, hasharotlar, qushlarga qarab alohida rasmlar ishlash (2-3-choraklar), natyurmortlar chizish; “rang-tasvir kompozityasi (4-sinfning 4-choragi), “mavzularga jamoa bo‘lib va individual ravishda rasmlar ishlash, ijodiy qobiliyat va badiiy didni yanada o‘stirishga doir mashqlar bajarish, bayram tabriknomalari eskizini tayyorlash kabi topshiriqlar ustida ishlash shular jumlasidandir” [1].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar dasturlarda o‘zlarining asosiy kompetensiyalarini oshirish usullarini belgilab bersalar-da, o‘qituvchilar har doim ham ularni amalga oshirmaydilar. Ayniqsa, umumiy va badiiy mehnat, naqqoshlik asoslari, dizayn asoslari, umumiy texnologiya asoslari va boshqalardan amaliy topshiriqlarda buyumlar yasash, zargarlik, gilam to‘qish, kulolchilik va boshqa kasblarga doir har xil materiallardan qo‘l hunarmandchiligi buyumlari va qo‘g‘irchoqlar tayyorlash, qo‘g‘irchoqlarga kiyimlar tikish hamda kashta gullari bilan bezash kabi o‘quvchilarda ijodkorlik faoliyati rivojlana boradi.

Xulosa. Amaldagi ona tili ta’limida darslarda o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish mexanizmi mavjud emas, ta’lim mazmuni o‘quvchida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish imkonini chegaralaydi. Bugungi o‘qitish metodikasida ikki yondashuv yonma-yon turibdi. Biri jahon tajribasiga to‘la mos holatda tilning grammatik strukturasiga tayanmasdan faqat ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish ko‘nikmalarini, xususan, xorijiy tillarga xos to‘rtta ko‘nikmani rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchisi – an’anaviy grammatika asosida ona tili o‘qitish. Bu borada oltin o‘rtalikni topish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xurramov R.S. O‘quvchilar evristik fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari (1-4-sinflar misolida)// Xalq ta’limi. – Toshkent, 2023. – №2-son.ISSN2181-7829 114–117-b.
2. Bruno Blanco-Varela, Jos´e Manuel Amoedo, María Carmen Sanchez-Carreira. Analysing ability grouping in secondary school: A way to improve academic performance and mitigate educational inequalities in Spain?// “International Journal of Educational Development 107 (2024) 103028” – Spain, 2024 – P.1-12.
3. Якубжанова Д.Б. Бўлажак дефектологларда касбий ижодкорликни ривожлантириш технологияси. Пед. ф. ф. д.(PhD) ...дисс – Тошкент, 2017.
4. Холматова З. А. Бошланғич синф ўқувчиларида диалогга асосланган муносабатлар маданиятини шакллантиришнинг дидактик шарт-шароитлари. Пед. фан. ф. д.(PhD) ...дисс. – Наманган, 2019.
5. Xurramov R.S. Evristik topshiriqlar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida// Замонавий таълим. – Тошкент, 2023. – №1(122)-сон. Б.38–44.

Simela ABDULLAYEVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
O'zbek va rus tillari kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsenti

AKADEMIK YOZUV FANI MASHG'ULOTLARIDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada oliy ta'lim tizimidagi akademik yozuv mashg'ulotli samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanishning o'rni yoritilgan. Interfaol usullar orqali talabalarni dars jarayoniga jalb etish, ularda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: akademik yozuv, interfaol metod, ta'lim jarayoni, innovatsion yondashuv, nutq uslublari, og'zaki nutq, to'g'ri yozish, qobiliyat, tafakkur, fikrlash, dolzarb, ko'nikma, maqsad.

Аннотация: в данной статье раскрыта роль использования интерактивных методов в повышении эффективности занятий по академическому письму в системе высшего образования. Проанализированы способы вовлечения студентов в учебный процесс через интерактивные методы, формирования у них самостоятельного мышления, творческого подхода и коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: академическое письмо, интерактивный метод, образовательный процесс, инновационный подход, речевые стили, устная речь, грамотное письмо, способность, мышление, размышление, актуальность, навык, цель.

Annotation: this article highlights the role of using interactive methods in enhancing the effectiveness of academic writing classes in the higher education system. It analyzes ways of engaging students in the learning process through interactive methods, as well as developing their independent thinking, creative approach, and communicative competences.

Key words: academic writing, interactive method, educational process, innovative approach, speech styles, oral speech, accurate writing, ability, thinking, reasoning, relevance, skill, goal.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, bilim olish samaradorligini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, akademik yozuv fani kabi murakkab va nazariy qismga boy bo'lgan fanlarni o'rgatishda an'anaviy ta'lim usullari talabalar uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu bois, interfaol ta'lim texnologiyalari joriy etilishi ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini va ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradi.

Interfaol ta'lim — bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida faol muloqotga asoslangan, talabalarni o'qishga faol jalb qiluvchi ta'lim usullari majmuasidir. Akademik yozuv fani mashg'ulotlarida interfaol texnologiyalardan foydalanish, talabalarni nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ham yo'naltiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi akademik yozuv fani mashg'ulotlarida interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash usullarini o'rganish va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Mamlakatimizda davlat tili rivojiga alohida e'tibor qilinayotganligi bejiz emas. Respublikamizning "Davlat tili haqida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari, — Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur va boshqa juda ko'plab hujjatlarda bu yo'nalishdagi ishlarning asosiy jihatlari ko'rsatib berilgan. Bu qonunlarning qabul qilinishi ta'lim sohasida katta islohotlarning amalga oshishiga olib kelmoqda.

Akademik yozuv fani talaba o'zlashtirishi kerak bo'lgan har bir fan tarmog'i bilan uzviy bog'liq bo'lib, ilmiy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradi va shunga muvofiq o'z maqsad hamda vazifalariga ega.

Har bir fan bo'yicha talabalar, professor va tadqiqotchilar fikrlarni yetkazish, bahs-munozara qilish va ilmiy muloqot qilish uchun akademik yozuvlardan foydalanadilar. Akademik yozuvlar faktlarga asoslanadigan misollar, aniq so'z tanlash, mantiqiy tartib va shaxssiz tusga ega.

Akademik yozuv ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yishda yordam beribgina qolmay, mavjud matnni imloviy savodxonlik bilan shakllantirishga, axborotlarni animatsion shaklda yetkazishga, o'rganilayotgan ilmiy matnlar doirasida yozma shaklda munosabat bildira olishga, mavjudlarini tahrirlay olishga o'rgatadi. Akademik yozuv mantiqiy dalilni obyektiv nuqtayi nazardan yetkazishda asosiy qurol vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili. Akademik yozuv yaxshi ma’lumotga asoslangan argumentlarni talab qiladi. Ma’ruzalar ilmiy manbalardan (tadqiqot maqolasi kabi) yoki asosiy matndan olingan takliflar bilan tasdiqlanishi kerak. Faktlardan foydalanish dalillarga ishonchni beradi. Akademik yozuv doirasida shakllantiriladigan matnlarning o‘z qolipi mavjud. Xususan, ilmiy maqola, dissertatsiya, avtorefarat, hujjat turlarining har biri o‘z belgilangan qolipiga ega bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim o‘z oldiga shunchaki bilim berish emas, balki talabalarda chuqur tushuncha, tahliliy fikrlash, jamoaviy ishlash va amaliy ko‘nikmalarni shakillantirish vazifasini qo‘ymoqda. Shu sababli interfaol o‘qitish (interaktiv) o‘qitish metodlariga ehtiyoj ortib bormoqda.

Interfaol metodlar tushunchasi


Interfaol metodlar – bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasida faol hamkorlikka asoslangan, muloqot, fikr almashish, muammolarni hal qilish orqali bilim va ko‘nikmalarni shakllantiruvchi usullardir.[3]. Bu usullar talabani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi.

Interfaol metodlarning akademik mashg‘ulotlarda qo‘llanishi


Akademik mashg‘ulotlar – bu ma’lum bir fanning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan dars shaklidir. Ba jarayonda quyidagi interfaol metodlar samarali hisoblanadi:

1. Aqliy hujum” metodi – “Aqliy hujum” interfaol metodlar orasida eng ommabop va samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu metod o‘quvchilar yoki talabalar guruhiga muayyan muammoni yechish bo‘yicha erkin va to‘sqinliksiz fikr bildirish imkonini beradi. Uning asosiy tamoyili — fikrlarning to‘liq erkinligi, tanqiddan holilik va g‘oyalarni tezkor ishlab chiqishga turtki berishdir.

Talabalar berilgan mavzu bo‘yicha erkin fikr bildiradi, turli yondashuvlarni ishlab chiqadi. Bu usul kreativlikni rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi[5] Quyida **“Aqliy hujum”** metodining tuzilmasi keltirilgan.



2.“Bahs-munozara” metodi – ta’lim oluvchilar bilan muayyan mavzu doirasida fikr almashish, tahlil qilish va asosli bahslashishga asoslangan o‘qitish shaklidir. Ushbu metodning asosiy vazifasi – mavjud bilimlar, kuzatishlar va hayotiy tajriba asosida mavzuni turli nuqtayi nazardan yoritish va muhokama qilishga imkon yaratishdir.




3. Venn diagrammasi metodi – bu ikki yoki undan ortiq tushuncha, hodisa yoki shaxsiy faoliyatlar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni ko'rgazmali ravishda aniqlashga xizmat qiluvchi grafik metoddir. Diagramma odatda o'zaro qisman kesishuvchi doiralar shaklida tuziladi, bu orqali har bir doira muayyan tushunchani ifodalaydi, doiralar kesishgan qism esa ular orasidagi umumiy belgilarni ko'rsatadi.

Mazkur metod o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish, tushunchalarni mantiqiy asosda solishtirish, umumlashtirish va farqlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, "Venn diagrammasi" metodiga qo'shimcha ishlov:

Esse va insho orasidagi farqlarni solishtirish va umumiy xususiyatlari kabi birlik va farqlar grafik tahlil qilinadi.



4."Kichik guruhlar bilan ishlash" metodi:

Jamoa bilan ishlash orqali har bir talaba darsga jalb etiladi. Guruhda ishlash orqali ko'proq fikr almashiniladi va talabalarda hamkorlik ko'nikmalari shakllanadi.

5. Axborot texnologiyari asosidagi metodlar:

Bu AT yordamida ma'lumotlarni boshqarish, tahlil qilish va ulardan foydalanish uchun qo'llaniladigan texnik va metodologik yondashuvlar hisoblanadi. Quizizz, Mentimeter, Google Forms kabi vositalar yordamida test va so'rovlar tashkil qilinadi. Bunday raqamli vositalar darslarni interaktiv qilishda juda samarali hisoblanadi.

6. "Rol o'ynash" metodi (Role-play method)

Reallikka yaqin vaziyatlar orqali mavzuni chuqur anglashga yordam beradi. Bu metod kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun juda qulay hisoblanadi.

Natijalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan muntazam foydalanilgan darslarda quyidagi natijalarga erishiladi:

– talabalar faolligi oshadi;

– o'zlashtirilga bilimlar darajasi 30-40% ga oshadi;

– dars davomida talabalarning zerikish holatlari kamayadi;

– talabalarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Muhokama. Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. O'rganilgan tajriba va tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, akademik You've finished mashg'ulotlarida interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning bilimni mustahkamlash, mustaqil fikrlash va o'zini erkin ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interfaol texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar an'anaviy usullarga nisbatan talabaning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, yakuniy baholashga yaqinlashayotgan bosqichda, talabalar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazish, baholash va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu jarayonda interfaol metodlar, jumladan, testlar, mini-diskussiyalar, juftlikda ishlash, tahliliy savollar va raqamli platformalardan (Kahoot, Mentimeter, Quizizz va boshqalar) foydalanish o'z samarasini ko'rsatadi.

Interfaol yondashuvlar talabalarning faolligini oshiribgina qolmay, balki ularning o'zaro muloqotini, jamoada ishlash ko'nikmalarini, shuningdek, tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omillardan biridir.

Shu bilan birga, interfaol metodlarni samarali joriy etishda muayyan cheklovlar ham mavjud. Jumladan,

o‘qituvchining texnologiyalar bilan ishlashdagi malakasi, mavjud texnik vositalarning yetarli emasligi yoki talabalar sonining ko‘pligi interfaollik darajasini cheklashi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsa-da, mavjud muammolarni tizimli yondashuv, muntazam o‘qituvchi malakasini oshirish va zamonaviy texnologik infratuzilmani rivojlantirish orqali bartaraf etish mumkin.

Umuman olganda, o‘rganilgan tajriba shuni ko‘rsatadiki, akademik yozuv mashg‘ulotlarida interfaol ta’lim texnologiyalarini kompleks qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni bilimlarni chuqur tahlil qilishga, izlanishga va innovatsion yondashuvlarga yo‘naltiradi. Shuning uchun, ushbu metodlarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Akademik yozuv mashg‘ulotlarida interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Interfaol metodlar nafaqat o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, balki ularni tahlil qilishga, muloqot qilishga va mustaqil fikrlashga undaydi. O‘rganilgan natijalar shuni ko‘rsatdiki, interfaol yondashuvlar orqali mashg‘ulotlar qiziqarli, samarali va amaliy yo‘nalishga ega bo‘ladi.

Bu usullar o‘quv jarayonini jonlantiradi, talabalarning motivatsiyasini oshiradi va chuqur bilim berish imkonini yaratadi. O‘qituvchilar doimiy ravishda yangi interfaol metodlarni o‘zlashtirib, dars amaliyotiga tatbiq etishlari lozim.

Biroq interfaol metodlardan foydalanishda ayrim texnik va tashkiliy muammolar mavjud bo‘lishi mumkin. Bularni bartaraf etish orqali ushbu yondashuvning samaradorligi yanada ortadi. Shunday ekan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Takliflar.

Quyidagi takliflar interfaol ta’lim texnologiyalarini Akademik yozuv mashg‘ulotlariga samarali joriy etishga xizmat qilishi mumkin:

1. O‘qituvchilarning malakasini oshirish: interfaol texnologiyalarni samarali qo‘llay oladigan pedagoglarni tayyorlash uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etilishi lozim.

2. Texnik infratuzilmani yaxshilash: har bir auditoriyada kerakli texnik vositalar (kompyuter, proyektor, internet, planshet va h.k.) mavjud bo‘lishi ta’minlanishi kerak.

3. Raqamli platformalardan foydalanishni kengaytirish: Kahoot, Quizizz, Google Forms kabi interfaol vositalar orqali yakuniy mashg‘ulotlarni baholash samaradorligini oshirish mumkin.

4. Talabalarni faol ishtirok etishga undash: guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar, loyihaviy ishlar kabi metodlar orqali talabaning faolligi rag‘batlantirilishi lozim.

5. Nazorat va monitoring tizimini joriy qilish: interfaol metodlarning ta’sirini baholash uchun tizimli monitoring va tahlil qilish tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030» Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. Абдуллаева С.Х., Доспанова Д.У. Академическое письмо. Учебное пособие – Т., 2024.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2021.
4. Gayubova K.A., Yulanova N.D. Akademik yozuv fanidan o’quv qo’llanma. TATU, 2024. 264-b.
5. Mirzayeva Z., Jalilov K. “Adabiyot o‘qitish metodikasi”. – T., 2020.170-b.
6. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘zbekiston, 2001. 252-b.
7. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi fanidan ma’ruzalar matni. – T.: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2010. 120-b.
8. Qodirov A.M. Innovatsion ta’lim metodlari. – Samarqand, 2020.
9. Wang A.I. The wear out effekt of a game-based student response sustem. Gomputers & Education, 2015, 82, 227.
10. www.ziyonet.uz. com.kutubxonasi
11. www.alishernavoiy.uz

Oqiljon MAVLONOV,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani
faxriy ustozi



8-SINF: “QARO KO‘ZUM” G‘AZALINI O‘RGANISH
(Adabiyot muallimlari e’tiboriga taqdim)

Annotatsiya: ushbu maqola dars ishlanma shaklida yozilgan bo‘lib, unda A. Navoiyning “Qaro ko‘zum” g‘azalining sharhi hamda bu darsni o‘tish metodlariga misollar keltirilgan.
Kalit so‘lar: *qorako‘z, rind, rindona, mardum, jon.*
Annotation: this article is written in the form of a textbook, which contains the commentary of A. Navoi’s gazelle “Qaro ko‘zum” and examples of methods of conducting this lesson.
Key words: *dark-eyed, libertine, voluptuous, people, soul.*
Аннотация: данная статья написана в виде учебника, в котором содержится комментарий газели А. Навои “Qaro ko‘zum” и примеры методики проведения данного урока.
Ключевые слова: *чёрноглазый, грустный, печальный, человек, душа.*

“Qaro ko‘zum”ning rindona (ishqi haqiqiy) sharhi uning tasavvufona mazmuni, unda qo‘llangan majoziy obraz, ibora va istioralardan kelib chiqadi. Rindona g‘azallarning o‘zi ham ikki xil:

1. ***Rindning oshiqlik maqomatlaridagi qiyinchilik va riyozat azoblarini ifodalovchi g‘azallar***.

2***. Rindning Yori azalga muhabbati tasavvufiy timsollar (may, nur, suv va boshqalar) yordamida majoziy ifodalangan g‘azallar.***

Rindona g‘azallarda may, nur, suv kabi majoziy timsollar yordamida oshiqning maqom, maqomatlarni egallash yo‘lidagi riyozatlari, pir va murid o‘rtasidagi munosabatlar, olloh muhabbatiga munosib bo‘lish, solik axloqidagi holiy o‘zgarishlar, Tangri tajalliysining solik qalbiga solgan faraxiy va shuuriy fayzi nashidalari, oshiq qalbining junbushga kelishi, bevafolikdan hasrat, jon va ruhning yetishuv shodliklari va lazzati, foniylik nashidasi va baqolik sevinchlari, vahdat taxayyuli ayshi kabilar taassuroti mujassamlashgan bo‘ladi.

“Qaro ko‘zum”ning rind (so‘fiy)ona tahliliga quyidagi misralar orqali kirib boramiz:

Bo‘lmasa ul but (qorako‘z) qoshi mehrobim ichra jilvasoz,
Qiblaga kofirmen, ar bosh indirib qilsam nomoz.

Qosh mehrobi – ko‘z qovog‘i, u yerda ko‘z kosasi, qorasi va gavhari joylashgan bo‘ladi. Navoiy shu qorachig‘ gavharda but (Olloh) nuri jilvalanishi, tajallisini istaydi. Agar u zuhurlanmasa qibla – Ka’badan ham yuz o‘girishga shay. Hatto, dindan voz kechilib kofir bo‘lishga rozi qilgan “ul but” kim? Shoir yana bir g‘azalida:

Titrangiz, ey ahli din, **islomingiz boshig‘akim**,
G‘orati din etgali **ul nomusilmonim chiqar**, – degan edi.

Navoiy ana shu **nomusulmon butni** doim ko‘z mardumida tajalli berib turishini istaydi. Hamda ko‘p sog‘intira bermay mardumlig‘ shevasi bilan rahmat ajrlarini yog‘dirishga chorlaydi:

Qaro ko‘zum, kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

(Ey qaro ko‘z kabi Qaroko‘z, kelib insongarchilikni namoyon qil!
Ko‘zim qorachig‘iga kirib gavhar kabi o‘rnashib olsang qaniydi-ya?)

Odamgachilik – bu insonlar orasidagi o‘zaro mehr-muhabbat, sadoqat, vafodorlik, oqibat va boshqalar... Odam – yaratilmish, xalq Ilohiy xilqat – Xoliqdan rahmat nazari bilan boqmog‘ini doim umid qiladi.

Insoniylik – mardumlig‘, oshiq qalbida husni mutlaq timsoli barq urib zaminiy yorda tajasum topib mazhar tusini olishi .

Shoir qorako‘zidan ham shunday muruvvat istaydi. Misradagi mardumlig‘ – odamgarchilik so‘zidan ma’lum bo‘ladiki, bu murojaat odam naslidan bo‘lmagan xilqatga qarata aytilmoqda.

Ko‘z qorasiga kirib mardumga aylanishni qanday tushunmoq kerak? Shoir: ”Ey sun` Me’mori, (odamiylikka begonavash xilqat) **qani sen bashariy odob —mardumlig‘ni fan** (odat) **qilsangu, so‘ng mazhar tusini olib “ko‘zum qarosida mardum kibi**, (mardumvash qiz yanglig‘) **vatan tutsang edi-ya”,** deyishmoqda.

Ma’lumki, ko‘z inson tanasidagi eng nozik va eng zarur a’zodir. Ko‘zsiz yashash barcha go‘zalliklardan mahrum bo‘lish va hokazo. Shu ma’noda inson doim ko‘zni asraydi va har qanday baxtsiz hollarda ko‘zni omon saqlashga intiladi. Shunday ekan oshiq uchun “Qorako‘z”ni ana shu gavhar saqlanuvchi xuqqa (mardum – quti) da saqlash xotirjamlik baxsh etadi. Ikkinchidan, u doim ko‘z oldida, nigohida bo‘ladi. Uchinchidan, ko‘z qismlari orasida mardumi – ko‘z qorachig‘i va gavhari ko‘rishni ta’minlovchi bo‘lak hisoblanadi. Oshiqqa o‘n sakkiz ming olamni ana shu “qorako‘z” tajallisi joy olgan mardumak orqali ko‘rish xotirjamlik bag‘ishlaydi:

Yuzung guliga ko‘ngil ravzasin yasa gulshan,
Qadding niholiga jon gulshanin chaman qilg‘il.

(Yuzing guliga ko‘nglim bog‘idan gulshan yasab ol,
Nihol qaddingga jonim gulshanin chaman qilgin.)

Endi oshiq qorako‘zini ko‘ngil uyiga taklif etmoqda. Nima uchun? Xalqda “Faqrning ko‘ngli – Ollohning uyi” degan ibora bor. Faqrning ko‘ngli esa ma’naviyati kabi doim pok va osuda bo‘ladi. Bunday pokiza yerga quddusiy pok har qanday qorako‘zni taklif qilish mumkin. Nega yuz guli, visoliga emas? Chunki g‘unchadagi gulbarg – ruh timsoli. Ko‘ngil esa ruhning makoni. Ikkinchi misrada esa shoir harfiy san’at ham qo‘llagan. Eski yozuvga ko‘ra jon so‘zi yozilganda “alif” “jim” va “nun” o‘rtasida qoladi. Bu bilan oshiq qorako‘zga jonini ham bag‘ishlashga tayyor ekanligini ifodalamoqda.

Takovaringg‘a bag‘ir qonidin xino bog‘la,
Itingg‘a g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il.

(Oting shilligi(oyoqlari)ga bag‘rim qonini xino qilib surtib ol,
Itingga esa bo‘yinbog‘ uchun jonimning g‘amzada ipini bog‘lab olgin.)

Yuqoridagi sharhdan ma’lum bo‘lganidek, jonini baxshida qilishga rozi solik, endi bag‘ir qonini xino uchun berishga ham tayyor. Savol tug‘iladi: “Ot tuyog‘iga nima uchun xino bog‘lash kerak? O‘tmishda ovchilar ovga chiqish oldidan irim bilan otlarining oyog‘i(shillik) yoli va dumiga xino bog‘lar ekan... **Ana endi tasavvur qiling:** “Qaro ko‘z”li, ladun so‘zli bir Yor **ovga ketmoqda**, uning tagida oyoqlariga oshiqning bag‘ir qonidan xino surtilgan o‘ynoqi takovari (ot). Shoir g‘azallarida shiddat bilan oshiq ulus oviga chiqqan chobuksuvor yor timsoli ko‘p uchraydi:

Magar **tavsan minib**,sanchib etak tortib qilich har dam,

Ulus “qatli”ga javlon qilmish ul **chobuksuvor** anda.

Oshiq “o‘ldurmak”ka chiqmish mast vah ishqim so‘zin,

Ey raqib, etsang ne ul beboki nodonimg‘a arz.

Chiqti ov azmig‘a javlon aylab ul **chobuksuvor,**

Jon nisor ul sayid uchunkim,jon ang‘a qilg‘ay nisor.

U bilan yana bir sodiq hamroh bor: bu – it. (Ovga qush bilan yoki ovchi it bilan birga chiqish qadimgi odat bo‘lgan). G‘azalning timsoli tahlili uchun alohida mashg‘ulot niyatlaganmiz. Hozircha, har bir bayt mazmun-mundarijasidan chiqib kelib umumiy muxtasar izoh shuki, ushbu g‘azal qahramoni murakkab mavhumiy obraz bo‘lib, o‘quvchi o‘yini goh zaminiy yor, goh ilohiy xilqat, goh hur, goh pari, goh malak, goh murid, goh murshid, goh ota-yu goh o‘g‘il, goh ovchi qiz, goh sayyod yigit, goh farishta-yu goh pir, goh oshiqni kuydirishga azmi qaror qilib ko‘ngil oviga otlangan takovarli yor timsoliga tortib ketadi.

Ikki og‘iz it haqida: mumtoz adabiyotda it sadoqat, vafodorlik, ba’zan rafiq, ba’zan raqib ramzi tarzida ko‘p qo‘llanuvchi obraz. Sharq g‘azalchiligida oshiq, ko‘pincha yoriga yetisha olmasa, uning iti bilan suhbat qurish, itiga ulfat bo‘lish, iti bilan birga ovqatlanishni orzu qilish kabilar uning asosiy maqsadi bo‘lgan. Xullas, qonini topshirishga tayyor oshiq endi joni (jon ipi)ni ham berishga shay. U jon rishtasini qorako‘zning har kimiga ham emas, eng sadoqatli va ishonarli deb bilgan yor itiga: ya’ni **o‘ziga-o‘zi** topshirmoqchi. Bu it(o‘zi)ga munosib, yarashiqli bir bo‘yinbog‘ (mushkin tasma) bo‘lishni istaydi. Shunda u qorako‘zini har

kuni ko‘rishi, birga bo‘lishi, “uning ilohiy suhbatidan” bahramand bo‘lishi, hatto uning nur kabi ipakday mayin “qo‘llari” bu bo‘yinbog‘ni kunda bir bor ushlashi ham aniq. Alqissa, bugun qorako‘z o‘zining ko‘plab oshiqlarini ovlab “qurbon” qiladi, chunki u irim bilan oti oyog‘(shillik)i, dumi va yoliga “bag‘ir qonidan xino bog‘la”b **qizil tus bergan**. Bugun bu qora ko‘zni ko‘rish, unga yetishish maqsadida riyozat chekib yurgan sodiq soliklardan ko‘p jon taslim etadi:

Firoq tog‘ida topilsa tufrog‘im, ey charx.
Xamir etib yana ul tog‘da ko‘hkan qilg‘il.

(Ey falak, ayriliq tog‘ida tufrog‘im (xok) topilsa,
Xam(i)r qorib (loy) yana undan ko‘hkan yasagin.)

“Ayriliq tog‘i” qayer? Solik maqomatlarni egallashdagi eng og‘ir sinov. Bu sodiq oshiqlar qorako‘z mazharini ko‘rib jon taslim qilgan joy. Bu ruh tan qafasidan, kajraftor falakdan ayrilgan joy. Bu ayriliq – oshiq uchun baxt. Tasavvufga ko‘ra oshiqni Yordan ayirib turuvchi dushmanlar: nafs, tan va dunyo. Bu “firoq” Charx uchun, oshiq uchun esa baxt, imtihon, buyuk sinovdir. Ana endi bu Charx sodiq oshiq elini ko‘rishni istasa, undan xamir qilib (Odam atoning yasalishi kabi) ko‘hkan yasasin. O‘shanda ham firoq tog‘ida topilsa... Nega hatto ularning xokini ham topish qiyin, farqlash qiyin? Chunki bu qurbon bo‘lgan oshiqlarning maslagi bir, maqsadi bir-da. Barchasi ham qorako‘zning vafodor oshiqlari. Shuning uchun ularni riyozat yo‘lida farqlash qiyin. Bu oshiqlarning barchasi fano tog‘ining ko‘hkanlaridir.

Yana xam(i)r so‘zi eski lugatda: **xamr (a) esk. ayn. – may II tarzida** berilgan. (Moskva. “Russkiy yazik” nashriyoti, 1981-yil Z.M.Ma’rufov tahriri ostida.)

Xamr – so‘zi yana “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at” da ham:

Xamr – may (301-bet) tarzida “i” siz yozilgan. (FAN nashriyoti, 1993-yil. Tuzuvchi: Botirbek Hasanov) Demak, bizningcha, haqiqatan ham xamr (may) so‘zi eski (o‘zbek tili) yozuvida “i” siz yoziladi va u tasavvufda may quyqasi ma’nosida keladi. **Biz xamr so‘zi qisqa “i” siz yoziladi deganimizda mana shu so‘zning arab yozuvida yozilishini nazarda tutamiz…** “Xamr” qisqa “I” siz yozilishini hisobga olsak oshiqlar tufrog‘idan oddiy loy emas, may quyqumi – **xamr** yuzaga keladi. **Xamr** tasavvufda **irfon,** Olloh haqidagi ma’rifatning eng cho‘qqisi, oriflar ma’rifatini ifodalaydi. Shoir shu ma’noni ham nazarda tutgan bo‘lishi, ehtimol. Yana nega aynan ko‘hkan yasalishi kerak? Bu so‘zning istifodasiga e’tibor qilsak, she’riyatda u “Farhod” va “tog‘ qazuvchi” ma’nolarini bildiradi. Uni, ”tog‘ **yo‘nuvchi**” desak barcha ma’no tuslarini o‘z ichiga qamrab oladi. She’rlarda qo‘llanishini kuzataylik:

Menga barobar emas Ko‘hkan bilan Majnun,
Alarda yuz g‘am edi, lek menda ming hasrat.

Nodiraning bu baytida “Ko‘hkan” Farhod ma’nosida kelmoqda.

Agar Shirin uchun Farhod ishqi ko‘hkan bo‘lsa,
Ne tong Sakkokiy ham, jono yo‘lingda jonkan bo‘ldi.

Bu yerda “ko‘hkan” so‘zi ishq yo‘lida riyozat tortuvchi junun oshiq ma’nosida kelyapti. Xullas, tog‘ o‘yish naqadar mashaqqatli bo‘lsa, ishq yo‘lida sodiq qolib firoq tog‘ida sinovdan o‘tish undan-da, o‘n daraja ortiq riyozatdur. Shunday qilib shoir bu baytdagi “ko‘hkan”so‘ziga juda ko‘p ma’no nozikliklarini yuklagan.

Mabodo falakka nasib etib “ayriliq tog‘i”dagi oshiqlar tufrog‘idan “mardum” (inson) yasasa, u albatta, yana Farhod kabi ishq yo‘lida har qanday balolarni yenguvchi, tog‘ yo‘novchi kabi sabr-toqatli, riyozatga chidamli bir oshiq qul yuzaga kelardi. Kamiga u ilohiy bilim, laduniy his egasi bo‘lib, ichi-yu tashi (xamr – may quyqasi, ma’rifat) irfonga to‘la bir komil inson yuzaga kelishi shubhasiz. She’rdagi hissiy bo‘yoqdan chiqib kelib aytish mumkinki, agar Charx bu xoklardan boshqa kishi (aytaylik, Namrud) yasamoqchi (chunki u kajraftor charx-da...) bo‘lganida ham aniq ishonch bilan aytish mumkinki, yana Ko‘hkan yuzaga kelaveradi.Sababi: ko‘hkan – ishq farzandi.

Yuzung visoliga yetsun desang ko‘ngullarni,
Sochingni boshtin-oyog‘ chin ila shikan qilg‘il.

(Yuzing visoliga ko‘ngil (jon)ni yetsin desang,
Soch grihlarini boshdin-oyog‘ zinopoya shakliga keltir.)

Visolga yetishga sochning qanday aloqasi bor? – dersiz. Eshiting: 96-g‘azalda shunday bayt bor:

Zulfi egniga yetar gar shochi yerga sudralur,

Tengdur qaydim uchun gar bir qarich, gar yuz quloch.

“Bo‘yi birla sochi teng” “zulfi egniga yet”uvchi va yerga sudralib yuruvchi “qorako‘z”ni tasavvur qila olasizmi? Shoirning o‘zi esa yana bir g‘azalida:

Vasl aro ko‘rdim, teng emish bo‘yiyu sochi, – deydi.

Xullas, ana shu bo‘yi-yu sochi teng qorako‘z

sochini halqa-halqa qilsa, bu qalmoqsimon grih – “zinapoya”lardan solik (ruhi) ko‘tarilib ma’shuqa visoliga yetar ekan. Naqadar chiroyli tashbeh, shunday emasmi?! Bu baytdagi yuzni Ilohiyot jamoli, Ruhi a’zam deb anglask yanada ma’nfaatli. Endi o‘zingiz bo‘yi-yu sochi teng qorako‘z kim ekanligini anglayotgandirsiz. Nega endi ko‘ngil “yuz visoli” (ilk mabda’)ga yetishni istaydi? Chunki inson Ollohning yerdagi xalifasi. Navoiyning irfoniy o‘giti shunday:

Ofarinishdin qilib inson g‘araz.
Oni qilib xalq ichinda beivaz,

Ko‘nglin oning mahzani irfon qilib,
Ul tilsim ichra o‘zin pinhon qilib...

Bu satrlarga “Faqr qalbi – Olloh uyi” iborasini qo‘yib endi fikrlang-chi, bu “ko‘ngil”larga nima yashirin ekan? “Tilsim ichra o‘zni pinhon qilib” turgan bu nur(juz’) albatta, ilk mabda’ga qaytadi-da, tomchi dengiz ichidagina o‘zini abadiy va mutlaq “baxtiyor” his etadi, u suv ichidagina “men dengizman” (“Analhaq”) deb baralla his eta oladi... Firoq tog‘ida sinovdan o‘tgan oshiqlar, bo‘yinboqqa aylangan soliklar g‘amzada ruhi endi vahdat istaydi. Bu baqo maqomiga harakat:

Xazon sipohiga , ey bog‘bon emas mone’,
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

(Ey bog‘bon, bu bog‘ atrofiga ignadan tikan qilib chiqsang ham, baribir, ular kuz (fasl) lashkarlariga to‘siq bo‘la olmaydi).

Mutaxassislar fikricha bu baytlar lirik chekinish ekan. **Biz ham endi o‘quvchilar bilan bog‘bon oldiga boramiz...** Qani endi nima gap ekan? Ma’lum bo‘lishicha, bog‘bon kuz fasli yaqinlashayotganini bilib, bog‘ini Qo‘qon devori bilan o‘rab, ustiga ignadan tikan qadab chiqqan ekan. Kim ham yashnab turgan bog‘ini sap-sariq rangda ko‘rgisi keladi. Vo darig‘, baribir, kuz boqqa kiribdi. Bu nimasi? Bu abadiy va azaliy hukm. Yaratganning qudrati. Bu sun’ naqqoshi Charxni mana shunday tilsimli yaratgan. Nazar tashlasak, bu falsafiy chekinish bekorga emas ekan, **axir, inson umrining ham fasllari bor-ku**. Shu bois shoir ham lirik parda ortida **o‘zi va yor qaddi borligini**, ular umr fasliga ham kuz yaqinlashayotganini, bunga bog‘bon kabi qarshilik ko‘rsatish befoyda ekanini, qadar va qazo azaliy bitik ekanini eslatmoqda ekan. Demak, solik va mashuqaning birdan bir imkoniyati navbatdagi fasl qishga tayyorgarlik bilan borish, umrni bekorchi hoy-u havaslarga sarf etmaslik. Qorako‘zga munosib bo‘lish.

Nega kuz, qish emas? Umrning qishida kechikish mumkin: yoshlikdagi toshga, qarilikdagi boshga bitiladi. Ma’lumki, kuzda olam sariq rangga burkanadi. Sariq rang – ayriliq. Ayriliq esa so‘nggi sinov yaqinlashayotganidan darak. Endi bu sinovdan hech kim to‘xtata olmaydi. U solik va yor a’molidagi hukm. U lavhi mahfuzdagi bitik.


Yuzida terni ko‘rub o‘lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuvu, gul bargidin kafan qilg‘il.

(Ey do‘stim, yor yuzida terni ko‘rib o‘lsam, meni Gulob ila yuvib,mayyitimga gulbargdin kafan qilg‘il.)

Yuqoridan ma’lumki, soliklarning ba’zisi firoq tog‘ida sinovdan muvaffaqiyat bilan o‘tgan edi. Bu sadoqat va vafodorlik Qorako‘zning tosh bag‘rini bir oz yumshatadi-da, sodiq qahramon oshiqlarni ko‘rish uchun “tashrif” buyuradi... So‘fiyona izohlasak: **tajalli berib mazhar tusini oladi**.

Endi biroz “nasriy chekinish” qilaylik. Faraz qiling, Navoiy davri: sharqona tarbiya topgan ayol. U o‘z oshiqlari oldiga kelmoqda. Oshig‘ining sodiqligini, vafodorligini sinovdan o‘tkazib bo‘lgan, ko‘ngli to‘q... Mana yetib ham keldi. Endi u o‘z sevikli yoriga “Men ham sizni sev...”Aniq ishonch bilan aytish mumkinki, hech qachon sharqona ibo topgan ayol o‘z muhabbatini oshkora bayon qilmaydi. U o‘z rozini qarashlari bilan, rangining o‘zgarishi (mas, qizarish), yuzini ter bosish, ro‘mol tortish va hokozo bilan bildiradi.

Solikka esa yana shu ter bosishning o‘zi kifoya. Sharqda “Sukut – rizolik alomati” deyishadi. Oshiqqa ham shu sukutda ter bosish yetarli. Endi u oyog‘ini bafurja uzatib o‘zidagi ilohiy nur (jon)ni ilk mabda’ga topshiradi. Bu o‘lish boqiylikdir. ”Yod etmak o‘limni yorug‘lik ohangi emish”, ”Kim ruhni o‘lmak so‘zi ravshan aylar”, deganlaridek, nihoyat shoir ruhni ravshan aylovchi “o‘lsam” so‘zini tilga oldi. Bu o‘lim yangi ruh tug‘diruvchi o‘limdir. Tasavvuf va Navoiy nazarda tutgan o‘lim jismoniy emas, nafsoniy o‘limdir. U fanovashlik – yashab turib “bo‘lmaslik”, hech kimga ozor bermaslik. Yangi pok ruh tug‘diruvchi “o‘lim”. Ma’naviy tirilish, irfoniy tug‘ilish. Tasavvufda O‘zlik (ma’naviyat)ni topish, o‘zlik (nafs)ni yo‘qotish bilan qo‘lga kiritiladigan riyozat jarayoni. Mana shu ma’rifat va haqiqat maqomining barcha idrokiy tadriji tasavvufdagi **O‘lim** tushunchasining ma’no qatlamlaridir.



Ana endi bu foniy-u komildan baqo martabasiga ko‘tarilish arafasida turgan o‘lik oshiqni bir ”gulob ila yuvib, gul bargdin kafan”lab qo‘yaylik. Mumtoz adabiyotda tez-tez uchrab turuvchi bu **yuvish va kafanlash** marosimini ko‘p uchratamiz. Umar Xayyomda:

Jahondan ko‘z yumsam, sharobga yuvib,
Tok zangidan menga bir tobut qiling...
Men o‘lsam may bilan yuvishni ko‘zlang,
Yo‘qlovda Jom birla sharobdan so‘zlang.

Endi gulob bilan barg ma’nolarini ochish uchun yana bir baytga murojaat qilaylik:

Uch narsa sen(Olloh)**ning uchingdan olmish timsol:**

Ruhdan – gul (gulob), **labdan – mul** (may), **yuzdan – jamol** (mazhar).

Demak, azaliy ruhdan – gulbarg timsol olgan, guldan esa gulob yuzaga keladi. Gulob – boqiy ruh singdirilgan suv obi hayot, tiriklik suvi, abadiy hayot ramzi. Oshiqni gulob ila yuvish unga mangu barhayot ruh berish, boqiylikka tiriltirish demakdir.

Oshiq gulobga yuvintirilishi orqali ana shu abadiy ruhga masharraf bo‘lish baxtidan umidvor.

Yashil gul bargi-chi? Gulbarg – ruh timsoli bo‘lgach, yashil bargi esa – uning yerga to‘kiladigan qismi kabi osmondan insoniyatga nozil bo‘lgan vahiylari, islomiy ta’limot. Jismigacha boqiy ruh bilan yuvib tozalangan, poklangan oshiq endi o‘zini biror belgi (firqa, mazhab) bilan ajralib turishini istaydi. Axir, Qorako‘zga yetkazuvchi ta’limotlar (Injil, Tavrot, Zabur, Qur’on) ko‘p-ku. Oshiqning shulardan qaysi biriga mansubligini bildiruvchi “kiyimi” bo‘lishi kerak va bu juda zarur. Bizga ma’lumki, **novdadagi gul bargi yashil rangda**. **Yashillik** – islomiy ramz, islomiy tug‘. Islom esa, kamolotga yetkazilgan dindir. Oshiq oxirgi daqiqalarda ham ana shu ta’limot ostida qolish niyatida. Shu sabab do‘stidan: “Men o‘lgach, qorako‘z visoliga yetishimga ishon (gulob – boqiy ruh ila yuv) hamda islomiy odat (yashil barg rangidagi kafan) larga ko‘ra dafn qildirgin”, deya vasiyat qiladi. Vasiyat – amri vojib. Endi oshiqning ikki dunyosi islomiy, oxirati ulug‘...

Navoiy, anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning boshog‘lig‘ o‘qin sham’i anjuman qilg‘il.

(Ey Navoiy, jonda shavq bazmini qursang, uning boshog‘lig‘ o‘qin (qad-qomatin) majlising sham’i qil.)

Tasavvufdan bexabar o‘quvchilar uchun jonda shavq bazmini qurish, albatta, notabiiy. Ruh tan uyidan ilk manba sari yo‘l olgach, arsh kursisida faraxga to‘la shavqli “suhbat” bo‘lib o‘tadi. Abu Hasan Harqoniy “Nur al-ulumda” **ishqiy g‘oyiblikn**i uchga bo‘ladi: 1. O‘zingni anglasang va Xudo ham seni bilsa va kishilarni siyrak uchratsang. 2. Sen bo‘lsangu, ma’shuq (Qorako‘z) bo‘lsa. 3. Hamma (firoq tog‘idagi sodiq qurbonlar ham) bo‘lsa-yu, sen bo‘lmasang, (ya’ni ruhga singib, hulul – vahdat hosil qilish).

G‘azal maqta’sidagi shavqli anjuman bu g‘oyiblikning ikkinchi holatiga to‘g‘ri keladi. Bu suhbat yakunidan uchinchi g‘oyiblik holatiga o‘tiladi.

Ikkinchi misrada esa ana shu yig‘inga “qorako‘z”ning “boshog‘lig‘ o‘q”ini “sham’i anjuman qilg‘il”, – deyilgan. Mumtoz adabiyotda **yor qad-qomati** va **kiprik**ning sham’i anjuman timsolida qo‘llanishi an’anaviydir.

Xullas, yana xalqda kiprik to‘kilsa, birovni sog‘inibsan, deydilar. Shoir misrasida bu ma’noga ham ishora bor. ”Qorako‘z”ning o‘zi ham oshiq xalifalarini sog‘ingan-u, lekin sinov (dunyo)siz o‘z muhabbatini oshkora qilishni istamaydi. Oshkoralik ham yuzni ter bosish(ilohiy nuzul)dan nariga o‘tmaydi. Sharqda esa, “Qur’on”da ham ibo va hayo masalasiga keng e’tibor berilgan, bu ham shoir diqqat markazidan chetda qolmagan. Chunki “Qur’on” ham qorako‘zning vahiysi-da…

Umuman, “Qaro ko‘zum”... dagi shavqli anjuman shoirning taxayyul imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi bir mo‘jiza va asrordir.Vallohu a’lam.

Muxlisa ISMOILOVA,
Namangan viloyati Davlatobod tumani
52-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

MEDIA MATNLARIDA PERSUASIV (ISHONTIRISHGA QARATILGAN) TIL VOSITALARI

Annotatsiya:ushbu maqolada media matnlarida persuasiv (ishontirishga qaratilgan) til vositalarining lingvistik, stilistik va pragmatik xususiyatlari keng tahlil qilinadi. Media diskursining asosiy vazifasi nafaqat axborot berish, balki auditoriyani ishontirish va ijtimoiy ongga ta’sir ko‘rsatishdir. Reklama, siyosiy nutqlar va ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llaniladigan persuasiv strategiyalar, ularning til vositalari va kommunikativ samaradorligi turli misollar asosida o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari media tilida persuasivlikning asosiy mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *media matn, persuasiv til, lingvopragmatika, reklama, siyosiy nutq, ta’sirchanlik, diskurs*

Annotation:this article provides an in-depth analysis of the linguistic, stylistic, and pragmatic features of persuasive language tools in media texts. The main function of media discourse is not only to inform but also to persuade the audience and influence social consciousness. Persuasive strategies used in advertising, political speeches, and social networks, as well as their linguistic means and communicative effectiveness, are studied on the basis of various examples. The results of the study help to identify the key mechanisms of persuasion in media language.

Key words: *media text, persuasive language, linguopragmatics, advertising, political speech, effectiveness, discourse*

Аннотация: в данной статье подробно анализируются лингвистические, стилистические и прагматические особенности персуазивных (направленных на убеждение) языковых средств в медиатекстах. Основная функция медиадискурса заключается не только в информировании, но и в убеждении аудитории и воздействии на общественное сознание. Персуазивные стратегии, используемые в рекламе, политических речах и социальных сетях, их языковые средства и коммуникативная эффективность рассматриваются на основе различных примеров. Результаты исследования позволяют выявить основные механизмы персуазивности в языке медиа.

Ключевые слова: *медиатекст, персуазивный язык, лингвопрагматика, реклама, политическая речь, воздействие, дискурс*

Kirish. Globallashuv davrida media matnlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi.Har kuni millionlab odamlar televideniye, radio, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xabarlarni qabul qiladilar. Ushbu matnlar nafaqat voqelik haqida ma’lumot beradi, balki insonlarning fikrlash tarziga, qaror qabul qilishiga va hatto xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatadi [1].

Shunuqtayinazardan,persuasivkommunikatsiya masalasi tilshunoslik, sotsiologiya va psixologiyada dolzarb mavzuga aylangan. Har bir media matn auditoriyani ishontirish, unga muayyan fikrni singdirish yoki ularni harakatga undash maqsadida yaratiladi. Bunday jarayonlarda til vositalarining roli juda katta bo‘lib, ular o‘z auditoriyasiga ta’sirchanlik darajasiga ko‘ra farqlanadi.

Persuasiv kommunikatsiya nazariyasi Aristotelning ritorika haqidagi qarashlaridan boshlab o‘rganilib keladi. Uning fikricha, notiq auditoriyani ishontirish uchun ethos (ishonchlilik), pathos (hissiyot) va logos (mantiqiy asos) vositalaridan foydalanadi. Zamonaviy media diskursida ham bu tamoyillar keng qo‘llanilmoqda.

Metodlar. Tadqiqotda lingvopragmatik tahlil, diskurs tahlili va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Material sifatida 2020–2024 yillar davomida chop etilgan reklama matnlari, siyosiy chiqishlar va ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo‘lgan postlar yig‘ildi.Jami 50 dan ortiq reklama matnlari, 20 ta siyosiy nutq va 100 ga yaqin ijtimoiy tarmoq yozuvlari tahlil qilindi. Ularning leksik-semantik tarkibi, stilistik xususiyatlari va auditoriyaga ta’sir mexanizmlari aniqlandi [2].

Metodologik asos sifatida nutq aktlari nazariyasi, ritorika tamoyillari va mediadiskurs nazariyasiga tayangan holda, persuasivlikning universal hamda milliy xususiyatlari tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, media matnlarida persuasivlik vositalari turli diskurslarda o‘ziga xos shaklda qo‘llaniladi. Ularni bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Emotsional leksika va metaforalar. Media matnlarida auditoriya e’tiborini jalb qilishning eng kuchli vositalaridan biri bu emotsional birliklardir. Siyosiy nutqlarda ular ko‘pincha milliy birlik, kelajak va taraqqiyot g‘oyalari bilan bog‘lanadi: *“buyuk kelajak”, “xalqimizning baxtli hayoti”*. Reklama diskursida esa iste’molchining shaxsiy orzu-umidlari va hayotiy ehtiyojlariga urg‘u beriladi: *“orzuingizdagi imkoniyat”, “hayotingizni o‘zgartiring”*. Ijtimoiy tarmoqlarda esa emotsional effekt asosan **emoji**, **gif**, va **memlar** orqali kuchaytiriladi, bu esa zamonaviy kommunikatsiyaning yangi ko‘rinishidir.

2. Ritorik savollar. Ritorik savollar ishontirish strategiyasining muhim qismidir. Siyosiy nutqlarda ular auditoriyani o‘ziga jalb qilish va milliy mas’uliyat hissini oshirish uchun qo‘llaniladi: *“Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qura olmaymizmi?”*. Reklamalarda esa mahsulot yoki xizmatning afzalligini ko‘rsatish uchun ishlatiladi: *“Siz bunday sifatni kutgandingizmi?”*. Ijtimoiy tarmoqlarda ritorik savollar ko‘pincha qisqa va bevosita bo‘lib, tezkor muloqotga sabab bo‘ladi: *“Kim rozi?”, “To‘g‘rimi?”*.

3. Takrorlash va parallelizmlar. Asosiy g‘oyani mustahkamlash maqsadida matn ichida so‘z yoki iboralarning qayta-qayta ishlatilishi kuzatiladi. Reklama diskursida brend nomi yoki shiori deyarli har bir sahnada takrorlanadi. Masalan, *Coca-Cola* reklamalarida ichimlikning nomi va vizual belgisi uzluksiz ko‘rsatiladi. Siyosiy nutqlarda esa *“taraqqiyot”, “islohot”, “barqarorlik”* kabi so‘zlarning takrorlanishi ularning g‘oyaviy ahamiyatini oshiradi.

4. Qisqa shiorlar va sloganlar. Shiorlar va sloganlar persuasivlikning eng ta’sirchan vositalaridan biridir. Ular qisqa, esda qolarli va kuchli emotsional ta’sir kuchiga ega. Global miqyosda mashhur misol – *Nike* kompaniyasining *“Just do it”* shiori. O‘zbek kontekstida esa *“Sog‘lom hayot kaliti”*, *“Yangi O‘zbekiston”* kabi shiorlar keng tarqalgan. Ijtimoiy tarmoqlarda bu vazifani ko‘proq **hashtag**lar bajaradi: *#trend, #viral, #motivatsiya*.

5. Statistik ma’lumotlar. Raqamlar va aniq ko‘rsatkichlar persuasivlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Siyosiy chiqishlarda iqtisodiy natijalar, ishlab chiqarish hajmi, foiz ko‘rsatkichlari tez-tez tilga olinadi: *“so‘nggi besh yilda ishlab chiqarish hajmi 20 foizga oshdi”*. Reklama diskursida esa “90% mijozlar mamnun”, “uch haftada natija kafolatlanadi” kabi iboralar keng qo‘llanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa qisqa statistika vizual infografika bilan birgalikda beriladi.

Vosita	Reklama	Siyosiy nutq	Ijtimoiy tarmoq
Emotsional leksika	“Orzuingizdagi imkoniyat”	“Buyuk kelajak”	Emoji, memlar
Ritorik savollar	“Siz tayyormisiz?”	“ Biz buni qila olamizmi?”	Qisqa so‘rovlar
Takrorlash	Brend nomi, shior	“taraqqiyot” so‘zi	Trendli iboralar
Slogan/Hashtag	“Just do it”	“Yangi O‘zbekiston”	#trend, #viral, #motivatsiya
Statistik ma’lumotlar	“ 90% mijozlar mamnun”	“O‘sish 20 foiz”	Infografika, qisqa faktlar

Persuasiv til vositalari media diskursida nafaqat auditoriyani ishontirish, balki ularning ijtimoiy ongini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Reklama matnlarida ko‘proq **emotsional so‘zlar**, **takroriy iboralar** va **qisqa shiorlar** orqali iste’molchining hissiyotlariga ta’sir qilinadi. Masalan, kosmetika yoki oziq-ovqat mahsulotlari reklamalarida iste’molchining orzulariga va salomatligiga qaratilgan iboralar keng qo‘llaniladi. Bu orqali auditoriyada ijobiy kayfiyat va mahsulotga ishonch uyg‘otiladi.

Siyosiy nutqlarda esa asosiy persuasiv strategiyalar milliy birlik, taraqqiyot va ijtimoiy adolat g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Notiq o‘z nutqida **tarixiy meros**, **buyuk ajdodlar** va **milliy qadriyatlar**ni eslatish orqali xalqni umumiy maqsad yo‘lida birlashtirishga intiladi. Masalan, Prezident nutqlarida “yangi O‘zbekiston”, “buyuk kelajak sari” kabi iboralarning tez-tez takrorlanishi ularning lingvopragmatik vazifasini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda persuasiv kommunikatsiya ko‘pincha **vizual elementlar** (rasmlar, videolar, gif, emoji) bilan uyg‘unlashadi. Hashtaglar va trend so‘zlar auditoriyani tezkor ravishda jalb qilish, xabarni keng auditoriyaga yoyish va virusli kontent yaratish vositasiga aylanadi. Masalan, #motivatsiya, #trend, #yangi kabi hashtaglar ma’lum bir ijtimoiy hodisaga keng jamoatchilikni jalb qilishda samarali bo‘lmoqda.

O‘zbek tilidagi media matnlarida persuasiv vositalar xalqning **madaniy qadriyatlari** va **milliy mentalitet**iga mos shakllanadi. Reklamalarda odatda **oilaviy qadriyatlar**, **sog‘lom turmush tarzi**, **ma’naviyat** va **kelajak avlod** tushunchalari markazga qo‘yiladi. Siyosiy nutqlarda esa millatning tarixiy ildizlariga, o‘zlikni anglash va mustaqillik g‘oyalariga urg‘u beriladi [4].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, persuasiv strategiyalar universal xususiyatga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish usullari auditoriyaning **yoshi, ijtimoiy mavqei, madaniy saviyasi** va **psixologik ehtiyojlari**ga qarab farqlanadi. Masalan, siyosiy chiqishlar ko‘proq katta yoshdagi va ijtimoiy mas’uliyatli auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lsa, ijtimoiy tarmoq matnlari asosan **yoshlar auditoriyasiga** qaratilgan bo‘lib, u yerda qisqa jumlalar, hazil-mutoyiba, mem va emoji ko‘rinishidagi vositalar ustunlik qiladi.

Shuningdek, persuasiv vositalarning samaradorligi nafaqat ularning til shakllariga, balki **kontekst** va **kommunikativ vaziyatga** ham bog‘liqdir. Reklamada ishlatilgan bir shior muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin, biroq siyosiy nutqda u samarasiz bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli media diskursidagi persuasiv vositalar har doim auditoriya xususiyatlariga moslashtirilgan holda tanlanadi.

Xulosa qilib aytganda, media matnlarida persuasivlik strategiyalari zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismidir. Reklama, siyosiy nutq va ijtimoiy tarmoqlarda turli persuasiv vositalar qo‘llanilib, ularning samaradorligi auditoriyaning ehtiyojlari va ijtimoiy-demografik xususiyatlariga bog‘liq. Shuningdek, O‘zbekistonda media diskursining rivojlanishi persuasiv kommunikatsiya vositalarining yanada takomillashuviga olib kelmoqda. Kelgusida ushbu masalani lingvopragmatika, psixolingvistika va mediatilshunoslik doirasida chuqurroq o‘rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Perloff, R. M. (2017). The Dynamics of Persuasion: Communication and Attitudes in the 21st Century. Routledge.
2. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.
3.Cook, G. (2001). The Discourse of Advertising. Routledge.
4. Chilton, P. (2004). Analysing Political Discourse: Theory and Practice. Routledge.
5. Fairclough, N. (1995). Media Discourse. Edward Arnold.
6. van Dijk, T. A. (1997). Discourse as Social Interaction. SAGE Publications.
7. O‘rinboyeva, M.O‘zbek mediamatnlarida lingvopragmatik xususiyatlar. –Toshkent, 2020.
8. Karimov, A.Reklama tilining lingvistik xususiyatlari. – Qarshi, 2022.

Kamola ABDULLAYEVA,
Senior teacher (PhD) Alfraganus university
k.abdullayeva@afu.uz

COLLABORATIVE ENGLISH LEARNING VIA DIGITAL WHITEBOARDS AND ONLINE PROJECTS IN NON-LINGUISTIC UNIVERSITIES

Annotation: this study investigates the effectiveness of collaborative learning supported by digital tools in English language classes at a non-state university in Uzbekistan. The research focused on students of non-linguistic faculties at A2 and B1 proficiency levels. To address limited communicative competence, digital whiteboards and online project-based activities were integrated into an eight-week program with 80-minute lessons. The study demonstrates both linguistic gains and broader competencies-digital literacy, teamwork and project management-relevant to academic and professional contexts.

Key words: *collaborative learning, digital whiteboards, online projects, English teaching non-linguistic universities Uzbekistan.*

Аннотация: в данном исследовании изучается эффективность совместного обучения с использованием цифровых инструментов на занятиях по английскому языку в негосударственном университете Узбекистана. Исследование проводилось среди студентов неязыковых факультетов с уровнями владения языком A2 и B1. Для решения проблем с ограниченной коммуникативной компетенцией в восьминедельную программу с 80-минутными уроками были включены цифровые доски и онлайн-проектные задания. Исследование демонстрирует как улучшение языковых навыков, так и развитие более широких компетенций — цифровой грамотности, командной работы и управления проектами, — актуальных для академического и профессионального контекста.

Ключевые слова: коллективное обучение, цифровые доски, онлайн-проекты, преподавание английского языка, неязыковой университет, Узбекистан.

Annotatsiya: ushbu tadqiqot O'zbekistondagi nodavlat universitetda ingliz tili darslarida raqamli vositalar yordamida qo'llab-quvvatlanadigan hamkorlikda o'rganish samaradorligini o'rganadi. Tadqiqot A2 va B1 darajalaridagi nolingvistik fakultet talabalariga qaratilgan. Cheklangan kommunikativ kompetentsiyani hal qilish uchun raqamli doskalar va onlayn loyihaga asoslangan tadbirlar 80 daqiqalik darslar bilan sakkiz haftalik dasturga birlashtirildi. Tadqiqot akademik va professional kontekstlarga taalluqli lingvistik yutuqlar va kengroq vakolatlarni - raqamli savodxonlik, jamoaviy ish va loyihalarni boshqarishni namoyish etadi.

Kalit so'zlar: *jamoaviy ta'lim, raqamli doskalar, onlayn loyihalar, ingliz tili o'qitish, nodavlat universitet, O'zbekiston.*

Introduction

English is compulsory in Uzbekistan's non-linguistic universities, yet many students perceive it as peripheral to their major. Teacher-centered approaches often fall short for A2–B1 learners, who need structured interaction and visible progress markers. Collaborative learning offers a robust alternative by organizing peer interaction toward shared goals. Digital platforms further augment collaboration through real-time co-construction of texts and visuals. Recent studies report gains from interactive whiteboards and online co-editing. However, systematic integration tailored to Uzbekistan's non-state universities—characterized by mixed proficiency and limited exposure—remains underexplored. This article addresses that gap by evaluating an eight-week program leveraging digital whiteboards and online projects for A2 and B1 groups.

Literature Review

Cooperative learning frameworks emphasize positive interdependence, individual accountability, promotive interaction, and group processing as drivers of achievement and motivation (Johnson & Johnson, 2018; Slavin, 2014). Technology-mediated collaboration extends classroom discourse and supports authentic communication (Warschauer & Kern, 2000). Empirical studies document benefits of collaborative writing in Google Docs—improved cohesion, feedback quality and learner autonomy (Ngoc Hoang & Hoang, 2022)—and gains in planning and metacognitive regulation with interactive whiteboards

(Teng, 2021). Padlet-mediated collaboration has been linked to increased engagement and knowledge sharing in higher education contexts (Beltrán-Martín, 2019; Chukwuemeka et al., 2019). Building on this literature, the present study adapts these tools for mixed-level EFL cohorts in a non-state university.

Methodology

Participants and Context

The study took place at a non-state university in Tashkent. Participants were 72 undergraduates from economics and pedagogy programs, allocated to proficiency bands via institutional placement tests: A2 (n=38) and B1 (n=34). English classes followed the institutional syllabus: 80-minute sessions, two per week. Instruction occurred in mixed-ability classrooms with differentiated task roles and language supports.

Tools and Activities

Digital whiteboards: Miro and Padlet were used for brainstorming, clustering and debate mapping; legacy Jamboard usage was limited to archived examples. Online project platforms: Google Docs (co-authoring with comments/suggestions); Google Slides and Canva (joint presentations/infographics). Representative activities: (1) Vocabulary mind-maps (A2/B1) with color-coded clusters; (2) Co-authored reports with peer feedback; (3) Debate preparation boards ("Online vs. Offline Learning") with claim-evidence structures; (4) Field-related infographics (e.g., "Green Economy in Uzbekistan").

Data Collection and Analysis

Quantitative: pre/post tests (Vocabulary: 30 items; Short Writing: 6 criteria scored 0–3; PFI counts; CCS Likert means). Reliability checks included KR-20 for vocabulary (0.82) and inter-rater agreement for writing (Cohen's κ=0.78). Paired comparisons used descriptive gains with 95% confidence intervals; effect sizes reported as Δ% and r-equivalents. Qualitative: Thematic coding of reflections (motivation, anxiety, collaboration) and observation memos (scaffolding, initiative). All instruments for A2 were bilingual (English–Uzbek).

Procedure

Table 1. Eight-week procedure plan

Week	Focus	Tool(s)	Activity	Skill Targeted
1–2	Vocabulary building	Padlet, Miro	Mind-maps on "Professions"	Vocabulary; Speaking
3–4	Joint writing	Google Docs	Co-author "Student Life" report	Writing; Grammar
5–6	Visual presentations	Canva, Slides	Infographic "Healthy Lifestyle"	Speaking; Reading
7–8	Debate preparation	Miro, Padlet	Online vs. Offline Learning	Listening; Argumentation

Results

Table 2. Pre-/Post-test outcomes by level (means ± SD)

Measure	Level	Pre	Post	Gain (%)	Notes
Vocabulary (30)	A2	14.4 ± 4.2	21.6 ± 3.8	+50	KR-20=0.82
Vocabulary (30)	B1	18.0 ± 4.0	24.0 ± 3.2	+33	KR-20=0.82
Short Writing (0–18)	A2	7.2 ± 2.1	11.0 ± 2.3	+53	κ=0.78
Short Writing (0–18)	B1	10.1 ± 2.4	14.5 ± 2.0	+44	κ=0.78
PFI (turns/lesson)	A2	2.6 ± 1.1	4.1 ± 1.4	+58	More volunteers
PFI (turns/lesson)	B1	3.4 ± 1.3	5.8 ± 1.6	+71	More debates
CCS (1–5 Likert)	A2	2.3 ± 0.6	3.4 ± 0.7	+48	Less anxiety
CCS (1–5 Likert)	B1	2.8 ± 0.7	3.9 ± 0.6	+39	Greater confidence

Descriptive gains favored both cohorts, with larger relative improvements for A2 in foundational measures (vocabulary, sentence accuracy) and for B1 in discourse-level measures (PFI, extended writing). Confidence increases (CCS) corroborated observation logs showing more voluntary turns and longer speaking stretches. Qualitative themes highlighted reduced fear of errors, appreciation of visual planning boards and perceived fairness of peer review.

Discussion

Findings align with cooperative learning theory on motivation and achievement and with reports of gains from interactive whiteboards and online co-authoring. The notable rise in PFI indicates that visual scaffolds and shared authorship redistributed talk time, especially benefiting hesitant A2 learners. For B1, debate maps and co-edited drafts supported cohesion and argumentation. These outcomes endorse technology-mediated collaboration as a practical pathway to inclusive EFL instruction in non-linguistic programs.

Conclusion

This study demonstrates a scalable model for collaborative English learning in Uzbekistan's non-state universities using widely available digital platforms. The novelty lies in contextual adaptation: mixed-level cohorts (A2/B1) were supported through differentiated roles and bilingual scaffolds, while assessments avoided advanced proficiency descriptors. Significance is twofold. Pedagogically, the approach yields measurable gains in vocabulary, writing, participation and communicative confidence, while cultivating transferable skills—digital literacy, teamwork and project management. Strategically, it aligns with national modernization priorities by leveraging cost-effective tools to create equitable, student-centered learning ecosystems. Future work should examine long-term retention, cross-department replication and the integration of analytics dashboards for formative feedback.

References

1. Beltrán-Martín, I. (2019). Using Padlet for collaborative learning. Journal of Learning and Teaching, 12(2), 45–56.
2. Chukwuemeka, E., Anwar, S., & Rahman, N. (2019). Padlet-mediated collaboration in higher education. International Journal of Educational Technology, 8(3), 110–124.
3. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2018). Cooperative learning: The foundation for active learning. Active Learning in Higher Education, 19(1), 29–43. https://doi.org/10.1177/1469787417721201
4. Ngoc Hoang, D. T., & Hoang, T. (2022). Enhancing EFL students' academic writing skills via Google Docs-based collaboration. Computer Assisted Language Learning, 37(7), 1504–1526. https://doi.org/10.1080/09588221.2021.2005270
5. Shadiev, R., & Yang, M. (2020). Review of studies on technology-enhanced language learning and teaching. Sustainability, 12(2), 524–537.
6. Slavin, R. E. (2014). Cooperative learning and academic achievement: Why does groupwork work? Anales de Psicología, 30(3), 785–791.
7. Teng, M. F. (2021). Interactive whiteboard-supported collaborative writing: Achievement and metacognition. System, 97, 102426. https://doi.org/10.1016/j.system.2020.102426
8. Warschauer, M., & Kern, R. (2000). Network-based language teaching: Concepts and practice. Cambridge University Press.

DILFUZA KADIROVA,
(Ph.D.), Kokand State University

STRATEGIES FOR TEACHING WITH BLOOM'S TAXONOMY

Annotation: *the article discusses practical strategies for applying Bloom's Taxonomy in classroom teaching to enhance higher-order thinking skills. It emphasizes how teachers can design learning objectives and activities that move students from lower levels of cognition—such as remembering and understanding—to higher levels, including analyzing, evaluating and creating. The findings highlight that systematic use of Bloom's framework helps educators foster critical thinking, improve student engagement.*

Key words*: taxonomy, cognitive, psychomotor domain, technique, classification, categorization, exclusive, assessment, educator, knowledge-based.*

Аннотация*: в* статье рассматриваются практические стратегии применения таксономии Блума в преподавании с целью развития навыков мышления высокого уровня. Подчеркивается, как преподаватели могут разрабатывать учебные цели и задания, которые переводят студентов от низших уровней когнитивной деятельности — таких как запоминание и понимание — к более высоким уровням, включая анализ, оценку и создание. Результаты исследования показывают, что систематическое использование таксономии Блума помогает педагогам формировать критическое мышление и повышать вовлеченность студентов в учебный процесс.

Ключевые слова: *таксономия, когнитивный, психомоторная область, техника, классификация, категоризация, эксклюзивный, оценивание, педагог, основанный на знаниях.*

Annotatsiya: ushbu maqolada Bloom taksonomiyasini sinfda qo'llashning amaliy strategiyalari va u orqali yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda o'qituvchilar o'quv maqsadlari va faoliyatlarini qanday qilib past darajadagi kognitiv bosqichlardan — eslab qolish va tushunishdan — yuqori bosqichlarga, ya'ni tahlil qilish, baholash va yaratishga ko'tarilishi mumkinligi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bloom taksonomiyasidan tizimli foydalanish o'qituvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, talabalarning darsdagi faolligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *taksonomiya, kognitiv, psixomotor soha, texnika, tasnif, kategoriyalash, eksklyuziv, baholash, pedagog, bilimga asoslangan.*

Bloom's Taxonomy can be a powerful tool to transform teaching and learning. By design, it focuses attention away from content and instruction, and instead emphasizes the "cognitive events" in the mind of a child.

For decades, education reform has been focused on curriculum, assessment, instruction, and more recently standards, and data, with these efforts only bleeding over into how students think briefly, and by chance. This means that the focus of finite teacher and school resources are not on promoting thinking and understanding, but rather what kinds of things students are going to be thinking about and how they'll prove they understand them.

This stands in contrast to the characteristics of the early 21st century, which include persistent connectivity, dynamic media forms, information-rich (digital and non-digital) environments, and an emphasis on visibility for pretty much everything. What does this mean for how you use Bloom's Taxonomy in your classroom? What kinds of adjustments should you make–if any–in light of these shifts in the 21st century?

Bloom's taxonomy was created by a group of psychologists in 1956, with Benjamin Bloom at the helm. A mechanism for the classification and categorization of different levels of learning, teachers can apply the six-staged diagram's principles to intellectual learning in the typical classroom environment.

Bloom's taxonomy was developed to provide a common language for teachers to discuss and exchange learning and assessment methods.

Specific learning objectives can be derived from the taxonomy, though it is most commonly used to assess learning on a variety of cognitive levels. The goal of an educator using Bloom's taxonomy is to encourage higher-order thought in their students by building up from lower-level cognitive skills. Behavioral and cognitive learning objectives are given to highlight how Bloom's taxonomy can be incorporated into larger-scale educational goals or guidelines.

The six levels of bloom's taxonomy, in order (lowest to highest), are knowledge, comprehension, application, analysis, synthesis and evaluation. All of these stages slot into the cognitive domain, which relates to how the brain processes information and thoughts.

Knowledge, the bottom level, is the ability to show memory of topics that have been studied in the past, by recalling facts; using related terminology; knowing patterns and trends; and having an awareness of different attitudes and theories on the subject.

One of the most widely used ways of organizing levels of expertise is according to Bloom's Taxonomy of Educational Objectives.

Learning objectives are what the teacher wants his or her students to learn, either as a result of a specific lesson or on the grander, more general, scale of the entire course. Learning objectives target knowledge, skills or attitudes for change. Bloom's taxonomy specifically targets these by seeking to increase knowledge (cognitive domain), develop skills (psychomotor domain) or develop emotional aptitude or balance (affective domain). Learning objectives might be identified by someone outside the teacher, such as state-wide or departmental standards. The taxonomy provides a basis for developing sub-goals and assessment methodology to meet these goals. It is important to note that learning objectives are goals, and are not the activities performed to achieve those goals. Objectives can be categorized into broad, global objectives that may take many years to achieve and provide direction for education, educational goals that guide curriculum development over the weeks or months it takes to complete a specific course and instructional goals that narrowly focus on the daily activities, experiences and exercises used in a specific lesson plan.

Taxonomies are developed to provide a framework for organizing a continuum along an underlying structure. For example, languages may be classified as Romantic, Germanic, etc. based on their underlying grammatical structure and origin. Bloom's taxonomy primarily provides instructors with a focus for developing their course learning objectives. There are a number of reasons why a teacher would want to use Bloom's taxonomy. Initially, it can be used to increase one's understanding of the educational process. Teachers can see and understand complex cognitive development and how lower-level skills build into higher-order thinking (e.g., recalling facts and comprehending previous problems allows a student to apply their experience to similar problems). Using this understanding facilitates the prioritizing of material and can steer the organization of lessons to maximize class time. For example, lower-level skills (e.g., memorizing factual knowledge) can be developed before higher-level skills are introduced (e.g., analysis of relationships). Current educators frequently face a confusing array of standards and curriculum requirements. Bloom's taxonomy offers a guiding framework for breaking these criteria down into accessible chunks which can be used to direct day-to-day lesson plans and can be easily compared to their own goals for the class. Just as different levels require different instructional delivery methods, they also require different assessment methods. Bloom's taxonomy can be used as a checklist to ensure that all levels of a domain have been assessed and align assessment methods with the appropriate lessons and methodologies. In this way, the taxonomy also makes it easier for instructors to maintain consistency between assessment methods, content and instructional materials and identify weak areas.

There are three taxonomies. Which of the three to use for a given measurable student outcome depends upon the original goal to which the measurable student outcome is connected.

There are knowledge-based goals, skills-based goals and affective goals (affective: values, attitudes and interests); accordingly, there is a taxonomy for each. Within each taxonomy, levels of expertise are listed in order of increasing complexity. Measurable student outcomes that require the higher levels of expertise will require more sophisticated classroom assessment techniques.

It is knowledge-based because it requires that the student learn certain facts and concepts. An example of a skills-based goal for this course might be "student flosses teeth properly". This is a skills-based goal because it requires that the student learn how to do something. Finally, an affective goal for this course might be "student cares about proper oral hygiene". This is an affective goal because it requires that the student's values, attitudes or interests be affected by the course.

To determine the level of expertise required for each measurable student outcome, first decide which of these three broad categories (knowledge-based, skills-based and affective) the corresponding course goal belongs to. Then, using the appropriate Bloom's Taxonomy, look over the descriptions of the various levels of expertise. Determine which description most closely matches that measurable student outcome.

Bloom's Taxonomy is a convenient way to describe the degree to which we want our students to understand and use concepts, to demonstrate particular skills, and to have their values, attitudes and interests affected. It is critical that we determine the levels of student expertise that we are expecting our students to achieve because this will determine which classroom assessment techniques are most appropriate for the course. Though the most common form of classroom assessment used in introductory college courses--multiple choice tests--might be quite adequate for assessing knowledge and comprehension, this type of assessment often falls short when we want to assess our students' knowledge at the higher levels of synthesis and evaluation.

Multiple-choice tests also rarely provide information about achievement of skills-based goals. Similarly, traditional course evaluations, a technique commonly used for affective assessment, do not generally provide useful information about changes in student values, attitudes and interests.

Thus, commonly used assessment techniques, while perhaps providing a means for assigning grades, often do not provide students with useful feedback for determining whether students are attaining our course goals. Usually, this is due to a combination of not having formalized goals to begin with, not having translated those goals into outcomes that are measurable, and not using assessment techniques capable of measuring expected student outcomes given the levels of expertise required to achieve them.

Bloom's Taxonomy need not be applied exclusively after course goals have been defined. Indeed, Bloom's Taxonomy and the words associated with its different categories can help in the goals-defining process itself. Thus, Bloom's Taxonomy can be used in an iterative fashion to first state and then refine course goals. Bloom's Taxonomy can finally be used to identify which classroom assessment techniques are most appropriate for measuring these goals.


References

1. Bloom, B. S. (1969). *Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals: Handbook I, Cognitive domain*. New York: McKay.

2. Anderson, L. W., Krathwohl, D. R., & Bloom, B. S. (2001). *A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives*. New York: Longman.

3. Bloom, B. S., Englehart, M. D., Furst, E. J., Hill, W. H., & Krathwohl, D. R. (1956). *The Taxonomy of educational objectives, handbook I: The Cognitive domain*. New York: David McKay Co., Inc.

4. Forehand, M. (2010). Bloom's taxonomy. In M. Orey (Ed.), Emerging perspectives on learning, teaching, and technology (pp. 41–47). University of Georgia.



TADQIQOTLAR



Xasan GAFFOROV,
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
“Xorijiy tillar” kafedrasi vazifa bajaruvchi dotsenti, PhD
gafforovxasan@katdpi.uz

GENDER XUSUSIYATLI MATNLARNING ZIDDIYATNI NAMOYON QILUVCHI TIL BIRLIKLARI

Annotatsiya: hozirgi davr tilshunosligi taraqqiyotida gender lingvistika muhim yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanib, inson nutqidagi jinsiy farqlarni, ularning kommunikativ jarayonlardagi ta’sirini va ijtimoiy-madaniy stereotiplar bilan o‘zaro munosabatini o‘rganishga qaratilmoqda. Nutqda yuzaga keladigan ziddiyatlar, ularning ifodalanishida qo‘llaniladigan til birliklari, shuningdek, erkak va ayol nutqiga xos kommunikativ xatti-harakatlar ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, ziddiyatli vaziyatlarda qo‘llanadigan til birliklari gender rollarini chuqurroq yoritib berishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur maqola gender xususiyatli matnlarda ziddiyatni namoyon qiluvchi lingvistik vositalarni tahlil qilish, erkak va ayol nutqi o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish hamda bunday nutqiy birliklarning ijtimoiy va psixologik ildizlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *gender lingvistika, ziddiyatli vaziyat, nutqiy birlik, erkak nutqi, ayol nutqi, kommunikativ strategiya, ijtimoiy stereotip, emotsional-ekspressiv vositalar, imperativ shakl, bilvosita va bevosita strategiyalar.*

Аннотация: в современном языкознании гендерная лингвистика сформировалась как одно из важных направлений, изучающее гендерные различия в речи, их влияние на коммуникативные процессы и взаимодействие с социально-культурными стереотипами. Конфликты, возникающие в речи, языковые единицы, используемые для их выражения, а также коммуникативное поведение мужчин и женщин становятся объектом научного исследования. Особенно значимыми являются языковые единицы, употребляемые в конфликтных ситуациях, так как они позволяют глубже раскрыть гендерные роли. Настоящая статья посвящена анализу лингвистических средств выражения конфликта в гендерно маркированных текстах, выявлению различий между мужской и женской речью, а также раскрытию социальных и психологических основ таких речевых явлений.

Ключевые слова: *гендерная лингвистика, конфликтная ситуация, речевая единица, мужская речь, женская речь, коммуникативная стратегия, социальный стереотип, эмоционально-экспрессивные средства, императивная форма, косвенные и прямые стратегии.*

Annotation: in modern linguistics, gender linguistics has emerged as one of the key fields, focusing on differences in male and female speech, their impact on communicative processes, and their relation to socio-cultural stereotypes. Conflicts that arise in speech, the linguistic units employed to express them, as well as the communicative behavior of men and women, are becoming an object of scholarly investigation. Particularly significant are the linguistic means used in conflict situations, since they provide a deeper understanding of gender roles. This article aims to analyze the linguistic devices that convey conflict in gender-marked texts, to demonstrate the differences between male and female speech, and to uncover the social and psychological foundations of such speech patterns.

Key words: *gender linguistics, conflict situation, speech unit, male speech, female speech, communicative strategy, social stereotype, emotional-expressive means, imperative form, indirect and direct strategies.*

Gender lingvistika hozirgi davr tilshunosligida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, u inson nutqidagi jinsga oid farqlarni, kommunikativ jarayonlarda gender rollarining ifodalanishini va ijtimoiy-madaniy stereotiplar bilan bog‘liqligini tadqiq etadi. Jamiyatda erkak va ayolning mavqeyi, ularning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy roli hamda nutqiy xatti-harakatlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Bu farqlar oddiy kundalik suhbatlardan tortib oilaviy munosabatlar, ishbilarmonlik muloqotlari, hatto badiiy asarlardagi dialoglargacha turli shakllarda aks etadi. Ayniqsa, ziddiyatli vaziyatlarda gender xususiyatlari keskin namoyon bo‘lib, erkak va ayol nutqidagi farqlarni yorqin ko‘rish mumkin. Ziddiyatli nutqiy vaziyat, odatda, ikki yoki undan ortiq subyektning manfaatlari, qarashlari yoki hissiyotlari to‘qnash kelganda yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarda til birliklari bir nechta muhim vazifani bajaradi: ular qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni ifodalaydi, keskinlikni kuchaytiradi, kommunikativ ustunlikni namoyon etadi yoki ma’lum darajada yumshatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Erkaklar va ayollar bunday vaziyatlarda turlicha strategiyalardan foydalanadilar. Erkaklar ko‘pincha bevosita, qisqa va qat’iy gapirishga intiladilar, ayollar esa bilvosita, emotsional va ekspressiv vositalarni keng qo‘llaydilar. Shu bois gender xususiyatli matnlarni tahlil qilish ziddiyatning lingvistik tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Leksik darajada ayollar ko‘proq umumlashtiruvchi va emotsional kuchaytiruvchi birliklarga tayanadilar. Masalan, “hech qachon”, “doim sen”, “hammasi men uchun qiyin” kabi iboralar ularning nutqida ko‘p uchraydi. Erkaklar esa odatda qisqa, qat’iy va buyruq ohangidagi birliklarni afzal ko‘radilar: “bo‘ldi”, “yetar”, “gapni cho‘zma”, “men aytgan bo‘lsa shu”. Morfologik darajada ayollar ko‘proq subyektiv munosabat bildiruvchi qo‘shimchalardan foydalanadilar: -gina, -chi, -ku, -day. Masalan, “Men-ku hammasini o‘ylab yuribman”, “Sen-chi, o‘ylaysanmi?”. Erkaklar esa imperativ shakllarni ko‘proq ishlatadilar: “Kel!”, “Qil!”, “Tushun!”. Sintaktik darajada ham farqlar seziladi: ayollar ko‘proq savol va ritorik gaplar orqali o‘z fikrini bildiradilar: “Qachongacha shunday bo‘ladi?”, “Nega doim men aybdor?”, erkaklar esa yopiq hukmli gaplar bilan chegaralanadilar: “Masala shu bilan tugadi”, “Boshqa gap bo‘lmasin”. Pragmatik darajada ayollar ko‘pincha bilvosita uslubdan foydalanadilar: kinoya, o‘xshatish, imo-ishora orqali gapni kuchaytiradilar, erkaklar esa ochiq tanqid, buyruq, rad etish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanishga intiladilar.

Gender stereotiplari ham ziddiyatli matnlarda o‘z ifodasini topadi. Ayollar haqida jamiyatda “ko‘p gapiradi”, “hissiyotlarga beriladi”, “mayda-chuyda narsalarga e’tibor beradi” degan tasavvurlar mavjud bo‘lib, bular ularning nutqida uzun gaplar, takroriy savollar va emotsional birliklarning ko‘pligi bilan ko‘rinadi. Erkaklarga esa “kamgap, lekin qat’iy”, “dominant”, “fikrini keskin bildiradi” degan stereotiplar xosdir. Shu bois ularning nutqida qisqa, buyruq ohangidagi gaplar ustunlik qiladi. O‘zbek oilaviy nutqida erkaklarning hukmronligi sezilarli: “Men aytsam, shunday bo‘ladi”, “Sen bunga aralashma”. Yevropa jamiyatlarida esa gender tenglikka intilish ko‘proq bo‘lgani uchun ziddiyatli vaziyatlarda ham ayollar o‘z fikrini ochiq aytishga moyil bo‘ladilar: “Bu qaroringga qo‘shilmayman”, “Men ham teng huquqliman”.

Shu bilan birga, ziddiyatni nafaqat kuchaytiruvchi, balki yumshatuvchi til birliklari ham qo‘llanadi. Ayollar odatda “iltimos”, “marhamat”, “kechirasiz” kabi so‘zlar bilan ohangni yumshatadilar, shuningdek -gina, -chi kabi qo‘shimchalar orqali gapni noziklik bilan ifodalaydilar. Erkaklar esa “keling, o‘ylab ko‘ramiz”, “mening fikrimcha”, “hammasini muhokama qilamiz” kabi neytral yoki diplomatik iboralar orqali vaziyatni birmuncha yumshatishga urinadilar. Amaliy misollar ham bu farqlarni yaqqol ko‘rsatadi.

Masalan, ayol nutqida: “Sen meni umuman tushunmaysan! Har safar gap boshlaganimda gapimni bo‘lasan. Nega doim men jim turishim kerak?” kabi jumlalarda emotsional kuchaytiruvchi birliklar faol qo‘llanadi. Erkak nutqida esa: “Bu masalada boshqa gap bo‘lmaydi. Men aytdim – tamom!” kabi qat’iy hukmli gaplar hukmronlik qiladi.

Gender lingvistikasining dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bu matnlarda ziddiyatni ifodalash vositalarini o‘rganishdir. Jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi muloqot jarayonlari nafaqat nutqiy strategiya va kommunikativ niyatlar darajasida, balki ziddiyatli vaziyatlarda ishlatiladigan til birliklari orqali ham farqlanadi. Bunday vaziyatlarda nutq subyektlarining o‘z pozitsiyasini himoya qilish, o‘z nuqtayi nazarini ustun qo‘yish yoki qarama-qarshi tomonning fikrini inkor etish jarayonida turli xil lingvistik mexanizmlar ishga tushadi. Aynan shunday lingvistik birliklar genderga xos tafovutlarni yanada yorqin namoyon etadi.

Til birliklari orqali namoyon bo‘ladigan ziddiyat, bir tomondan, kommunikatsiya jarayonida tabiiy hodisa sifatida yuzaga chiqsa, ikkinchi tomondan, gender stereotiplari va ijtimoiy rollar ta’sirida yanada keskin tus oladi. Masalan, ayollar nutqida ko‘proq yumshatuvchi, muloqotni tinchlantiruvchi birliklar (hedging, modal so‘zlar, yumshoq inkor vositalari) uchrasa, erkaklar nutqida ko‘pincha qat’iy, buyruq ohangida va keskin qarama-qarshilik bildiruvchi birliklar ishlatiladi. Bu jihat til tizimida ziddiyatni ifodalashning genderga xos modellari mavjudligini ko‘rsatadi.

Ziddiyatli vaziyatlarda ishlatiladigan lingvistik vositalar turlicha bo‘lishi mumkin: leksik darajada – salbiy baholovchi so‘zlar, kuchaytiruvchi sifatlar, kinoya va ironiyalar; grammatik darajada – inkor shakllari,

buyruq mayli, ritorik savollar; pragmatik darajada esa – qarshi qo‘yish, subyektiv baho, qo‘pol metaforalar va frazeologik birikmalar. Ushbu birliklarning ishlatilishi nafaqat muloqotning emotsional fonini shakllantiradi, balki gender rollarining ijtimoiy tasdiqlanishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Gender lingvistikasida ayollar nutqida mojaroni yumshatishga qaratilgan strategiyalar keng kuzatiladi. Masalan, “maybe”, “I think”, “don’t you think?” kabi hedging vositalari, shuningdek, e’tiborni boshqaga qaratish yoki mavzuni yumshatib o‘zgartirish orqali ziddiyatdan qochishga moyillik namoyon bo‘ladi. Erkaklar nutqida esa qarama-qarshilik ochiq va bevosita ifodalanadi: “That’s not true”, “You are wrong”, “It must be done this way” kabi qat’iy konstruksiyalar, salbiy modal birliklar yoki buyruq shakllari tez-tez uchraydi. Bunday tafovutlar jamiyatda shakllangan gender stereotiplari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, erkaklarning dominantlikka, ayollarning esa murosaga moyilligi bilan izohlanadi.

Ziddiyatni ifodalovchi til birliklari muloqotning kontekstidan ham bevosita ta’sirlanadi. Masalan, oilaviy muloqotda erkak va ayol o‘rtasidagi bahsda erkakning nutqida ko‘proq hokimiyatni bildiruvchi birliklar uchrasa, ayol nutqida ko‘proq hissiy ta’sirchanlik va o‘zini oqlashga intilish namoyon bo‘ladi. Ish joyida esa, ayollar ko‘pincha professional etikaga mos ravishda yumshoq ifodalarni tanlasa, erkaklar qat’iy va rasmiy birliklar orqali o‘z fikrini ustun qo‘yadi.

Ziddiyatni namoyon etuvchi birliklarning yana bir muhim xususiyati ularning stilistik rangdorligidir. Erkaklar ko‘pincha kuchli metaforalar, sport va jangovar terminologiyaga oid metaforik birliklardan foydalanadi (“we must fight this”, “don’t play games with me”), ayollar esa ko‘proq kundalik hayotiy tajribaga, hissiyot va munosabatlarga oid metaforalarni tanlaydi (“it hurts me”, “this doesn’t feel right”). Bu esa gender xususiyatli nutqda ziddiyatning nafaqat semantik, balki stilistik jihatdan ham farqlanishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, lingvopragmatik nuqtayi nazardan ziddiyatli birliklar interaktiv jarayonni boshqarish, nutqiy ustunlikni qo‘lga olish yoki muloqotni izdan chiqarish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayollarning nutqiy xatti-harakatlari ko‘pincha “positive politeness” strategiyalariga asoslangan bo‘lsa, erkaklarda “negative politeness” yoki hatto “bald on record” strategiyalari ko‘p uchraydi. Bu esa til birliklari darajasida gender farqlarini yanada keskinlashtiradi.

Shu bois gender xususiyatli matnlarning ziddiyatni ifodalovchi birliklarini o‘rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan ham muhimdir. Chunki bu birliklar jamiyatdagi gender rollarining qay darajada mustahkamlanganini, stereotiplarning qanchalik faol ishlashini va muloqot madaniyatida qanday o‘zgarishlar yuz berayotganini ochib beradi. Bunday tadqiqotlar lingvistika, psixologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya fanlari kesishgan nuqtada olib borilishi zarur bo‘lib, ular zamonaviy jamiyatda gender tengligi va nutqiy madaniyatni rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, gender xususiyatli matnlarda ziddiyatni namoyon qiluvchi til birliklari erkak va ayol nutqidagi psixologik, ijtimoiy va madaniy farqlarni yaqqol ochib beradi. Ayollar ko‘proq hissiy-ekspressiv va bilvosita birliklardan, erkaklar esa qat’iy, buyruq ohangidagi va bevosita birliklardan foydalanadilar. Shu bilan birga, til birliklari ziddiyatni kuchaytirish bilan bir qatorda uni yumshatishga ham xizmat qiladi. Shunday qilib, gender lingvistikasi doirasida ziddiyatli nutqiy birliklarni tahlil qilish insonning ijtimoiy rollari, psixologik xususiyatlari va nutqiy xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff R. Language and Woman’s Place. New York: Harper & Row, 1975.
2. Tannen D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. New York: Ballantine Books. 1990
3. Cameron D. Feminism and Linguistic Theory. London: Macmillan. 1992. – P.48
4. Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. London: Routledge. 2008
5. Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. London: Routledge. 2013. – P.69
6. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. Language and Gender. Cambridge: Cambridge University Press. 2003. – P.78
7. Sunderland J. Language and Gender: An Advanced Resource Book. London: Routledge. 2006. – P.93
8. Litosseliti L. Gender and Language: Theory and Practice. London: Routledge. 2014 – P.132
9. Holmes, J., & Meyerhoff, M. (eds.).. The Handbook of Language and Gender. Oxford: Blackwell. 2003. – P78

Furqat BAYJONOV,
Oriental universiteti dotsenti

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING GENDER MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA OID MODELLARINI O'RGANISH

Annotatsiya: mazkur maqolada Oliy ta'lim muassasalarida, pedagogik muhitni yaxshilash, talabalarda gender madaniyatini shakllantirish muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimiga gender madaniyatni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Talabalarning gender madaniyatini shakllantirish muammolarini ko'rib chiqish va uni bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimiga shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarbdir. Zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar jadal rivojlanayotgan madaniyatni belgilab beradi va talabalarda ilg'or fikrlash, axloq va xulq-atvor modellarini rivojlantiradigan barcha narsalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini takomillashtirish zarurligini belgilaydi. Talabalarning gender madaniyati gender tushunchasi, jamiyat hayotidagi gender xususiyatlarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, ma'lum gender xususiyatlarining tashuvchisi sifatida o'ziga va umuman jamiyatga ijobiy shaxsiy munosabat bilan tavsiflanadi

Kalit so'zlar: *gender madaniyatini shakllantirish, gender tenglik, gender ta'limi, shaxs, stereotiplar,"Gender tizimi" tushunchasi.*

Аннотация: в данной статье рассматривается важность улучшения педагогической среды в высших учебных заведениях, формирования гендерной культуры у студентов. Для этого потребуется разработать эффективные механизмы внедрения гендерной культуры в систему высшего образования и управления ею. Актуальным является рассмотрение проблем формирования гендерной культуры студентов и реализация мероприятий по ее формированию в системе подготовки будущих специалистов. Изменения, происходящие в современном обществе, определяют динамично развивающуюся культуру и определяют необходимость совершенствования образовательного процесса с использованием всего, что развивает у студентов прогрессивные модели мышления, морали и поведения. Гендерная культура студентов характеризуется гендерным пониманием, пониманием сущности и значения гендерных особенностей в жизни общества, позитивным личностным.

Ключевые слова: *формирование гендерной культуры, гендерное равенство, гендерное образование, концепция личности, стереотипы, "Gender system".*

Annotation: in this article, it is important to improve the pedagogical environment in higher education institutions, and to create a gender culture among students. For this, it is necessary to implement gender culture in the higher education system and develop effective mechanisms for its management. It is urgent to consider the problems of forming the gender culture of students and implement measures to shape it into a system of training future specialists. The changes taking place in modern society determine the rapidly developing culture and determine the need to improve the educational process using everything that develops advanced thinking, moral and behavioral models in students. Gender culture of students is characterized by the understanding of the concept of gender, the essence and importance of gender characteristics in the life of society, a positive personal attitude towards oneself and the society in general as a carrier of certain gender characteristics.

Key words: *formation of gender culture, gender equality, gender education, personality, stereotypes, concept of "gender system".*

Talabalar o'rtasida gender tushunchasini rivojlantirish gender me'yorlari, rollari va o'ziga xosliklariga nisbatan ularning tushunchalari, munosabatlari va harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan hal qiluvchi va murakkab ishdir. Ushbu rivojlanish talabalarning o'qishi va o'sishini boshqaradigan ta'lim asoslari va o'qitish metodologiyasi bilan chambarchas bog'liq. Talabalar o'rtasida gender tushunchasini rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalarni amalga oshirish ta'lim mazmuni davomida genderga bog'liq mavzularni to'qish, barcha gender o'ziga xosliklarini hurmat qiladigan o'qitish usullarini qo'llash va xilma-xillik va adolatni himoya qiluvchi maktab muhitini rivojlantirishni talab qiladi[1].

Asosiy yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

- O'quv dasturlarini takomillashtirish: gender tadqiqotlari va turli fanlarga inklyuziv nuqtayi nazarlarni to'plash talabalarga gender masalalarini chuqurroq va nozikroq tushunishga yordam beradi.
- Inklyuziv til va manbalar: gender-neytral terminologiyadan foydalanish va gender

identifikatsiyalari va hikoyalarining keng doirasini ifodalovchi ta’lim resurslarini tanlash.

- Tanqidiy faollik: munozaralar, bahs-munozaralar va reflektiv mashqlar orqali talabalarni gender normalari va stereotiplarini tanqidiy tekshirish va shubha ostiga olishga undash.
- Imkoniyatlarni kengaytirish va targ‘ibot: talabalar uchun gender tengligini targ‘ib qilish va genderga asoslangan noto‘g‘ri qarashlar va zo‘ravonlikka qarshi faoliyat yuritish uchun imkoniyatlar yaratish.

Ko‘pgina gender stereotiplari tarixiy va madaniy rivoyatlarda chuqur ildiz otganligini tan olgan holda, ta’lim tizimi gender tengligiga ustuvor ahamiyat berish uchun rivojlanmoqda. Shunga qaramay, zamonaviy san’at va submadaniyatlar bizning dunyoqarashimizga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan va an’anaviy qadriyatlarga qarshi turadigan yangi istiqbollarni joriy qilmoqda[2].

Ushbu siljish innovatsion, genderga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya texnologiyalari zarurligini ta’kidlaydi. Bu borada ta’limga ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizdagi ayol olimlarning sa’y-harakatlari tobora ko‘proq ta’lim mazmuni va yetkazib berishni yaxshilash uchun IT-dan foydalanishga qaratilgan. Davlat, o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida internet texnologiyalari va kompyuter vositalaridan foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki tobora murakkablashib borayotgan an’anaviy o‘qitish usullari orqali o‘quvchilarni to‘liq jalb etish muammosini ham hal etishi keng e’tirof etilgan .

Oliy ta’lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari, ya’ni tarbiyaviy, ta’limiy (ta’lim mazmuni) va metodik (o‘qitish metodlari, o‘quv jarayonini tashkil etish, pedagogik hamkorlik) jihatlarini, shuningdek, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini, ta’lim tizimini boshqarishni gender masalalariga ta’sirchanligini oshirishni ko‘zda tutadi. Ta’lim ijtimoiy munosabatlarning muhim omili hisoblanadi. Ta’lim o‘g‘il va qizlarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ayol va erkaklarga davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratadi hamda demokratik davlatning rivojlanishi uchun poydevor bo‘ladi. Ta’lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga bag‘rikenglik g‘oyalari shakllanadi. Ko‘pincha ta’limdagi gender tengligi to‘g‘risidagi bahslar gender paritetini muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi: masalan, agar yigit va qizlarga oliy ma’lumot olishi uchun o‘qishga kirish imkoni berilgan bo‘lsa, demak ta’limdagi gender tenglik ta’minlandi deb hisoblanadi. Biroq, ta’limda gender tengligini ta’minlash – bu gender prioritetni ta’minlashdan ham kengroq bo‘lgan konsepsiyadir.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarda gender madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari turli xil imkoniyatlar va muammolarni taklif etadi. Bu asoslar o‘quvchilarda gender me’yorlari, rollari va o‘ziga xosliklariga nisbatan tushuncha va munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyida ushbu ta’lim faoliyatiga xos bo‘lgan imkoniyatlar va muammolar haqida ma’lumot berilgan.

Shuningdek, talabalarda gender madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik izlanish ham ajoyib imkoniyatlarni, ham muhim vazifalarni taqdim etadi. Imkoniyatlar gender tengligini targ‘ib qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o‘quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish va talabalarni turli jamiyatga tayyorlashdan iborat. Aksincha, qiyinchiliklarga o‘zgarishlarga qarshilik, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va resurslarga bo‘lgan ehtiyoj, nozik munozaralarni boshqarish, inklyuzivlikni ta’minlash va o‘quv dasturlari talablarini muvozanatlash kiradi. Ijtimoiy mavqe va maqomni aniqlash uchun talabalarning jinsi emas, balki ularning serharakatligi, ijodkorligi, tezkorligi, iqtidori, kengfikrliligi, mulohazakorligi, tavakkalchiligi, alohida va umumga xos xislatlari tamal vazifasini bajarishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasidagi islohotlar va pedagogik strategiyalar gender tengligi va yaxlit ta’limga ilg‘or yondashuvni namoyish etadi, muammolarni hal qilish doimiy fidoyilik, innovatsiyalar va pedagoglar, siyosatchilar va jamoatchilik hamkorligini talab qiladi. Bu to‘siqlarni muvaffaqiyatli yengib o‘tish bilimli, hamdard va inklyuziv kelajak avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.M.Egamberdiyeva.Ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash masalalari (2023) https:// doi.org/10.5281/zenodo.1011172.

2. S.A.Raximovna.Gender madaniyatini rivojlantirish. Raqamli iqtisodiyot va barqarorlik akademik jurnali. 2022.16, 88-92.

3. B.Namazov, N.Egamberdiyeva, M.Mirsoliyeva.O‘qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (80th ed.). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2018.

4. Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. https://doi.org/10.33619/2414-2948/89/70.

5. Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146. https://doi.org/10.15863/tas.2021.06.98.21.

Gulshoda AVLOYOROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Xorijiy til nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:avloyorovagulshoda@gmail.com
Parda QURBONOV,
Turon universiteti dotsenti (PhD)
taqrizi asosida

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “SARIQ DEVNI MINIB” ROMANIDA SODDA VA BEG‘UBOR O‘ZBEK BOLASI OBRAZI

Annotatsiya:mazkur maqolada o‘zbek bolalar adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanida tasvirlangan o‘zbek bolasi obrazi badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda bolalikka xos sho‘xlik, soddalik va beg‘uborlik orqali o‘zbek xalqining milliy xarakteriga xos fazilatlar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Xudoyberdi To‘xtaboyev, sariq dev, o‘zbek bolasi obrazi, sodda va beg‘uborlik, folklor unsurlari, ramziy obrazlar, milliy mentalitet, bolalar adabiyoti.*

Аннотация:в данной статье анализируется образ узбекского ребёнка в романе “Верхом на жёлтом гиганте” Худойберди Тохтабоева, одного из ярчайших представителей узбекской детской литературы. В произведении раскрываются качества, присущие национальному характеру узбекского народа, через детскую игривость, простоту и невинность.

Ключевые слова: *Худойберди Тохтабоев, жёлтый гигант, образ ребёнка, простота и искренность, фольклорные элементы, символические образы, национальный менталитет, детская литература.*

Annotation:this article analyzes the image of an Uzbek child in the novel “*Riding the Yellow Giant”* by Khudoyberdi Tokhtaboyev, one of the brightest representatives of Uzbek children’s literature. The work reveals the qualities inherent in the national character of the Uzbek people through childhood playfulness, simplicity, and innocence.

Key words: *Khudoyberdi Tokhtaboyev, Yellow giant, child’s character, simplicity and innocence, folklore elements, symbolic images, national mentality, children’s literature.*

Kirish (Introduction). O‘zbek bolalar adabiyoti milliy adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida xalqimizning ma’naviy olami, qadriyatlari va tarbiyaviy an’analarini aks ettirib kelmoqda. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida bolalar uchun yozilgan asarlar mazmuni, badiiy qimmati hamda tarbiyaviy ahamiyati bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda ijod qilgan yozuvchilar orasida Xudoyberdi To‘xtaboyevning o‘rni beqiyosdir. U o‘zbek bolalar adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri sifatida o‘zining hayotiy voqealarga yaqinligi, xalqona yumori hamda sodda, samimiy ifodasi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review). Mazkur tadqiqotda uchta asosiy manba tahlil qilindi. Ularning har biri ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotidagi mistik, ramziy hamda psixologik obrazlarni yoritishda muhim nazariy va badiiy asos yaratadi.

1. Yo‘ldoshev, Q. O‘zbek adabiyotida badiiy obraz masalalari (1999)

Yo‘ldoshevning ushbu asari badiiy obrazning mohiyatini, ularning ramziy ma’nosini va o‘zbek adabiyotidagi shakllanish jarayonini nazariy jihatdan chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotda To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanidagi dev obrazi, shuningdek, bolalar ongini tarbiyalashga xizmat qiluvchi ramziy timsollarni tahlil etishda aynan Yo‘ldoshevning badiiy obraz nazariyasidan foydalanildi. Ayniqsa, yozuvchining badiiy obrazni xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘lash haqidagi qarashlari To‘xtaboyev qahramonlari ruhiy olamini yoritishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

2. To‘xtaboyev, X. Sariq devni minib (2021)

Asosiy badiiy manba sifatida tanlangan ushbu roman bolalar adabiyotida mistik va psixologik elementlarni o‘zida mujassam etadi. Adabiy tahlilda asardagi sarguzasht motivlari, dev obrazi, o‘g‘il bola qahramonning ichki kechinmalari, ota-onaga va jamiyatga munosabati, orzu va qo‘rquvning badiiy ifodasi alohida o‘rganildi. Shuningdek, Sariq dev obrazi orqali xalq ertaklaridagi ramzlarning zamonaviy bolalar ongidagi aks-sadosi tahlil qilindi. Bu jihatlar keyinchalik Susan Hillning “I’m the King of the Castle” asaridagi psixologik konflikt bilan taqqoslash uchun nazariy zamin yaratdi.

3. G‘ulomov A. Adabiy tahlil nazariyasi (2011)

G‘ulomovning ushbu monografiyasi adabiy matnlarni ilmiy tahlil qilishning metodologik asoslarini bayon etadi. Tadqiqotda asosan G‘ulomov keltirgan komparativ-tahliliy yondashuv prinsiplari qo‘llandi. “Sariq devni minib”dagi ramziy va psixologik obrazlar hamda ularning o‘quvchi ongiga ta’siri aynan ushbu nazariy mezonlar yordamida bosqichma-bosqich o‘rganildi. Shuningdek, matnning ichki strukturasini, konfliktni va obrazlar o‘rtasidagi psixologik bog‘lanishlarni ochib berishda G‘ulomovning adabiy tahlil konsepsiyasi asosiy metodik tayanch bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolada matnshunoslik (textual) metod, metod, janriy metod, simvolik va ramziy metod, mantiqiy-tahliliy metod, psixologik metod, sotsiologik metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Adibning hammamizga ma’lum va mashhur bo‘lgan “Sariq devni minib” asari bolalar adabiyotida yuksak badiiy meros sifatida alohida o‘rin tutadi. [1] Asarning bosh qahramoni Hoshimjon obrazi markazda turadi. Hoshimjon o‘n ikki yoshlar atrofidagi oddiy va samimiy bola bo‘lib, o‘zbek oilasida voyaga yetayotgan, sho‘x va orzuga beriluvchan o‘zbek o‘g‘loni sifatida gavdalantiriladi. Hoshimjonning bolalik kunlari qishloq bolalari bilan o‘yinlar va sarguzashtlarga oshuftalikda o‘tadi. Uning tabiatiga xos beg‘uborlik, ishonuvchanlik va samimiylik romanning boshidan oxirigacha asosiy yo‘nalish qilib belgilab olinadi. Qahramonning har bir orzusi va tasavvuri o‘zbek bolalarining o‘ziga xos dunyoqarashi, ularning sodda, ammo chuqur ma’noga ega qarashlarda o‘z aksini topadi. Shu bois asar o‘quvchini nafaqat sarguzashtli syujet, balki ma’naviy qadriyatlar olamiga ham yetaklaydi.

Muallif aynan Hoshimjonning nigohi, tasavvuri va orzulari orqali voqealarni kitobxonga yetkazadi. Hoshimjonning ishonuvchanligi va do‘stlari bilan raqobatga intilishi qahramon xarakterini tabiiy ravishda ko‘rsatib turadi. Shu orqali yozuvchi bolalikka xos beg‘uborlik va soddadil raqobatni tasvirlab, butun bir avlod bolaligining umumlashgan qiyofasini yaratadi.

Romanda Hoshimjondan tashqari uning do‘stlari va sinfdoshlari - Zokir, Akrom, Orif hamda Mirobiddinxo‘ja obrazlari ham alohida o‘rin tutadi. Zokirning sho‘xligi va quvnoqligi, Akromning do‘stlariga mehribonligi, Orifning topqirligi va o‘qishda chaqqonligi, Mirobiddinxo‘janing esa sho‘x hazillar sababli “shayton” deb atalishi bolalarning turfa xarakterini ko‘rsatadi. [2] Masalan, Orifning vazifalarni tez yechib, Hoshimjonni ortda qoldirishi raqobat ruhini ifodalasa, Zokirning sho‘x gaplari do‘stlarini kuldiradi. Akrom esa ko‘proq mehribon, samimiy bola sifatida ko‘rinadi. Mirobiddinxo‘ja esa o‘z tengdoshlari kabi tez ta’sirchan va soddadilona hazilga beriluvchan qilib tasvirlangan. Shu tarzda yozuvchi nafaqat Hoshimjon, balki uning atrofidagi boshqa qahramonlar orqali ham o‘zbek bolalarining sodda va beg‘ubor qiyofasini umumlashtiradi.

Asarning bosh qahramoni esa qo‘shni bolalariga havas bilan qaraydi va ular bilan turli sarguzashtlarni boshdan kechirishga oshiqadi. Bu holat bolaning o‘ziga xos raqobat hissi va do‘stlariga ergashishga moyilligini namoyon qiladi. Har bir bola kabi u ham o‘zining imkoniyatlarini ularnikidan kam ko‘rmaslikka intiladi va shu yo‘l bilan turli xil orzular va sarguzashtlarga sho‘ng‘ib ketadi. Yozuvchi bu tasvir orqali bolalikning eng tabiiy psixologik xususiyatini – ya’ni o‘zini boshqalarga qiyoslash, ularga havas qilish va ularning orzularini o‘z tasavvurida takrorlash holatini mahorat bilan ifodalaydi.

Boshqa bir epizodda esa asar bosh qahramoni Hoshimjon “sariq dev” haqida eshitadi va bolalarcha soddadillik bilan uni chinakamiga mavjud deb o‘ylaydi. [3,68] Hatto uning ustiga minib osmonga uchib ketish mumkinligiga ham ishonadi. Bu epizod qahramon obrazining beg‘ubor tasavvurlarini, fantaziyasining cheksizligini ko‘rsatadi. Bolaning oddiygina afsonaviy hikoyaga ishonib, uni o‘z tasavvurida reallikka aylantirishi yozuvchi mahorati natijasida juda tabiiy va hayotiy tarzda gavdalanadi. Bu tasvir orqali asar muallifi Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalik dunyosining soddaligini, ammo shu bilan birga orzularining yuksakligini ochib berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, adibning shoh asari bo‘lgan ushbu asarda Hoshimjonning ota-onaga munosabati ham muhim asar marzazidan o‘rin olgan. Bola tabiatan kattalarga ishonuvchan, ularning har bir gapini haqiqat deb qabul qiladigan bo‘ladi. Shu bois, bizning qahramonimiz Hoshimjon ham ota-onasining aytgan nasihatlari uning hayotiy yo‘lini belgilovchi qoida sifatida qabul qiladi. Romanda yoritilganidek, ota-onasining oddiygina so‘zlari ham asar qahramoni qalbida chuqur taassurot uyg‘otadi. Misol tariqasida shuni keltirish joizki, bir epizodda ota-onasi bergan nasihatni qahramon o‘zicha qayta talqin qiladi va uni fantaziyasi bilan uyg‘unlashtiradi. Masalan, *“Halol mehnat qilgan odamning qo‘li baland bo‘ladi” [4,25]* degan oddiy gap bola tasavvurida sehrli kuchga ega afsonaviy haqiqat sifatida qabul qilinadi. U bu nasihatni amalda sinash uchun goh o‘yinchoq narsalarni “mehnat mahsuli” deb tasavvur qiladi, goh esa tasodifiy muvaffaqiyatlarini ota-onasining gaplariga bog‘laydi. Shu orqali yozuvchi bolaning kattalar dunyosini to‘liq anglab yetolmasligi, ammo uni o‘ziga xos, beg‘ubor tarzda tushunishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatadi.

Qahramonning qo‘shnilari va tengdoshlari bilan bo‘lgan muloqotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, samimiyat va bolalikka xos soddalik yaqqol sezilib turishini ko‘rishimiz mukin. U do‘stlari bilan o‘yinlarda

sho‘xlik qiladi, ba’zan ularni aldab kuldiradi, ba’zan esa o‘zi ham tezda ularning gaplariga ishonib qoladi. Bu jihatlar bola obrazining tabiiyligini ko‘rsatibgina qolmay, balki bolalarning o‘zaro munosabatlaridagi beg‘ubor muhitni ham ochib beradi. Masalan, sinfdoshlari unga “sehrli qalpoq” haqida gapirib, uni kiygan odam xohlagan narsasiga erishishi mumkinligini aytadilar. Bola bu gaplarga chin dildan ishonadi va qalpoq yordamida barcha muammolarini hal qilishiga umid bog‘laydi. Shu epizodda yozuvchi bola tasavvurining kengligini va ishonuvchanligini mahorat bilan ko‘rsatadi. Oddiy bir o‘yinchoq narsani bola sehrli kuch sifatida qabul qilib, uni hayotidagi barcha qiyinchiliklarga yechim deb biladi. Bu esa bolalikka xos orzu-havasning qanchalik kuchli va samimiy ekanligini ifodalaydi. Bundan tashqari, asarda bolalarning o‘zaro ta’sirchanligiga ham alohida urg‘u beriladi. Bir bolaning aytgan gaplari boshqalar tasavvurini ham tezda egallab oladi. Bola obrazi orqali To‘xtaboyev shuni ko‘rsatadiki, do‘stlar davrasida aytilgan oddiy gap ham bolalar tasavvurida mo‘jizaga aylanadi. Shuningdek, qahramonning sehrli qalpoq orqali barcha orzulariga erishish ishonchi uning beg‘uborligini, hayotga ijobiy va orzuga boy qarashlarini yaqqol namoyon qiladi. Shu tariqa bola obrazining do‘stlari va tengdoshlari bilan munosabatidagi epizodlar uning ishonuvchanligi, tez ta’sirchanligi va orzuga beriluvchanligini chuqur ochib beradi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev yaratgan bola obrazi oddiygina sarguzashtli qahramon darajasida qolib ketmaydi, balki milliy mentalitet, xalqona dunyoqarash va ma’naviy qadriyatlarning timsoliga aylanadi. Yozuvchi bolaning hayotiy kechinmalarini tasvirlar ekan, o‘zbek xalqiga xos sodda so‘zlashuv ohangidan, xalq og‘zaki ijodida keng uchraydigan ibora va qiyoslardan, ertakona ramz va obrazlardan samarali foydalanadi. [5,72] Shu orqali bola timsoli faqatgina badiiy qahramon emas, balki xalqning tarixi, madaniyati va ma’naviy olamini ifodalovchi vosita sifatida gavdalanadi.

Bola obrazida ko‘zga tashlangan samimiyat, beg‘uborlik, ishonuvchanlik singari xislatlar o‘zbek xalqining sof qadriyatlarini badiiy jihatdan mujassamlashtiradi. Qahramonning oddiy hayotiy voqealarga bolalarcha munosabati, kattalar dunyosini soddadilona tushunishga urinishlari xalqimizning mehr-oqibatga, halollikka va mehnatsevarlikka asoslangan mentalitetini yodga soladi. Shu bois qahramonning soddaligida ham, samimiyatida ham nafaqat bolalikning tabiiy qiyofasi, balki butun bir xalqning ruhiy olami, ma’naviy dunyosi va milliy xarakterining yorqin aks-sadosi mujassamdir.

Xulosa. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romani o‘zbek bolalar adabiyotining eng yorqin namunalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda tasvirlangan sodda va beg‘ubor bola obrazi orqali yozuvchi bolalik dunyosining tabiiy qirralarini, milliy xarakterga xos fazilatlarni va xalqona tasavvurlarni yorqin badiiy talqinda ifodalaydi. Bola timsolida sho‘xlik, samimiyat, orzuga beriluvchanlik, ishonuvchanlik kabi bolalikka xos jihatlar gavdalanadi, ular esa xalqimizning mehr-oqibatga, halollikka, mehnatsevarlikka asoslangan qadriyatlari bilan uyg‘unlashadi. Roman syujetida uchraydigan ramziy obrazlar – dev, jin, sehrli qalpoq kabi folklor unsurlari bolalarning tasavvur olamini kengaytiradi, ularning orzu-umidlarini yuksaklikka eltuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ular bolaning ichki qo‘rquv va sinovlarini ifodalaydi hamda real hayotiy tajriba bilan uyg‘unlashadi.

Shunday qilib, “Sariq devni minib” romani oddiygina sarguzashtli hikoya emas, balki milliy mentalitetni, xalqona dunyoqarashni va o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi badiiy asardir. To‘xtaboyev yaratgan bola obrazi bolalikning sof va beg‘ubor qiyofasini ochib berishi bilan birga, yosh avlod tarbiyasi uchun ham muhim ma’naviy manba sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev, M. *Folklor va bolalar adabiyoti aloqalari*. – Toshkent: Universitet, 2016. 155-b.
2. Madrahimov, B. *O‘zbek adabiyotida badiiy obraz*. – Toshkent: Fan, 2007. 168-b.
3. Rasulov, B. *Badiiy asarda timsol va ramz masalasi*. – Toshkent: Universitet, 2004.
4. To‘xtaboyev, X. *Sariq devni minib*. – Toshkent: Global Books, 2021.270-b.
5. To‘xtaboyev, X. *Sariq devni minib*. – Toshkent: Global Books, 2021.420-b.
6. Turdieva, N. *Bolalar adabiyotida ramziy obrazlar*. – Samarqand: SamDU nashri, 2018.
7. Usmonov, R. *Badiiy nasrda bolalik psixologiyasi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 250-b.
8. Yo‘ldoshev, Q. *O‘zbek adabiyotida badiiy obraz masalalari*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1999. 180-b.

Internet manbalari

1. Asaxiy books. Xudoyberdi To‘xtaboyev – “*Sariq devni minib*”. https://asaxiy.uz/product/hudoyberdi-tuhtaboev-sariq-devni-minib
2.Wikipedia. “Xudoyberdi To‘xtaboyev”. https://en.wikipedia.org/wiki/Xudoyberdi_To%CA%BBxtaboyev
3. Kitobxon.uz. “Bolalar adabiyoti durdonalari: Xudoyberdi To‘xtaboyev”. https://kitobxon.uz
4. Ziyonet. “O‘zbek bolalar adabiyoti va Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodi”. https://ziyonet.uz

Dilnoza NUSRATILLOYEVA,
Navoiy davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

XURSHID DAVRON IJODIDA TARIXIY OBRAZ VA POETIK TAFAKKUR

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Xurshid Davron ijodida ijtimoiy lirikaning o‘ziga xos talqini tahlil qilinadi. Shoir ijodida tarix, xalq taqdiri va ijtimoiylik, milliylik masalalari badiiy tahlil etilgan. Shuningdek, shoir ijodining bugungi davr o‘zbek adabiyotida ijtimoiy lirikaning tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Xurshid Davron, ijtimoiy lirika, tarixiy shaxslar, lirik qahramon, badiiy talqin, poetik tafakkur, badiiy ifoda vositalari, ramziy obrazlar, majoziy obrazlar.*

Annotation: this article analyzes the unique interpretation of social lyrics in the work of Khurshid Davron, one of the great figures of uzbek literature. In the work of the poet, the issues of history, people’s fate, sociality and nationality are artistically analyzed. Also, the role and importance of social lyrics in modern uzbek literature of the poet’s work is analyzed.

Key words: *Khurshid Davron, social lyrics, historical figures, lyrical hero, artistic interpretation, poetic thought, means of artistic expression, symbolic images, figurative images.*

Аннотация: в данной статье анализируется своеобразная трактовка социальной лирики в творчестве Хуршида Даврона, одного из крупнейших деятелей узбекской литературы. В творчестве поэта художественно анализируются вопросы истории, судеб людей, социальности. Также анализируется роль и значение социальной лирики в современной узбекской литературе творчества поэта.

Ключевые слова: *Хуршид Даврон, социальная лирика, исторические личности, лирический герой, художественная интерпретация, художественное мышление, поэтическая мысль, символические образы, образные образы.*

Ma’lumki, har bir zamonning o‘z qahramonlari, yetakchilari bo‘ladi. Jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlar, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi o‘zgarishlar bevosita vatan ravnaqi uchun harakat qilayotgan insonlarning sobitqadamligi bilan amalga oshiriladi. Millatning mental qiyofasini shakllantirishda, o‘sib kelayotgan yosh avlodlarni ma’naviy-axloqiy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashimizda barcha zamonlarda mana shunday insonlarga ehtiyoj bo‘lganligi tarixdan ma’lum. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Bugun zamon shiddat bilan o‘zgarmoqda. Hayot barchamizdan dadil harakatlarni, faol tashabbuslarni, hamma sohada haqqoniy va odil munosabatni talab etmoqda”[1]. Barcha sohada bo‘lgani kabi bugungi o‘zbek adabiyotining ham o‘z o‘rniga, o‘z so‘ziga ega bo‘lgan vakillari bisyordir. Adabiyotning darg‘alari ko‘p, adabiyotning bag‘ri keng. Unda yalt etib yongan lahzalik va mangu yonadigan yulduzlar bor. Ijodkor yozgan asari kitobxonlar qalbidan joy olsa, yillar o‘tsa-da, o‘z ahamiyatini yo‘qotmasa, u ijodkor o‘z ismini abadiyatga muhrlagan bo‘ladi. Shunday ijodkorlardan biri, asarlari minglab o‘quvchilar e’tirofiga sazovor bo‘lgan shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon Xurshid Davrondir. U va uning zamondoshlari bo‘lgan bir qator iste’dod sohiblari o‘zbek adabiyoti rivojida o‘zlarining yangicha dunyoqarashi va o‘ziga xos uslubi bilan bu soha taraqqiyotiga o‘zgacha shukuh bag‘ishladilar. Ibrohim G‘afurov shunday ta’kidlagan edi: “Murod Muhammad Do‘st, Erkin A’zam, Usmon Azim, Xurshid Davron, Xayriddin Sulton va yana necha-necha ularning tengdoshlari adabiyot va u orqali ijtimoiy hayotga milliy erk orzularining yangi to‘lqinlari, yangi sadolarini olib kirdilar. Ularning asarlari bilan Adabiyot yangilanish jarayoniga kirdi”[2]. Darhaqiqat, Xurshid Davron ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak,

1 Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017 - y., 1-jild. 500 -b.

2 Azim Suyun “O‘zlik”. Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. – Toshkent 1999-y. 4-b.

uning she’rlarida avvalo, vatanga muhabbat, buyuk ajdodlar ruhiga ehtirom va samimiyatni ko‘rish mumkin. Uning she’rlarini o‘qir ekanmiz, qaynoq qalb sohibi tomonidan yozilgan haroratli misralar bevosita o‘quvchi ruhiyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishiga guvoh bo‘lamiz. Shoir she’rlaridagi yuksak badiiyatning kuchi, ahamiyati shundaki, ijodkor she’rlarini mutolaa etayotgan o‘quvchi uning ijodi bilan yaqindan tanishish jarayonida uning botiniy va zohiriy tuyg‘ularini, ichki g‘alayonlarini, dardini, muhabbatini, quvonchini o‘quvchi his qiladi. Bunday ta’sir kuchiga ega she’r yozish uchun esa, buyuk dardga, buyuk muhabbatga va cheksiz hayratga ega bo‘lmoq lozim. Boshqalar qalbida otash yoqmoq uchun, avvalo, o‘zi yonmog‘i kerak. Shoir o‘z tasavvuridagi dunyoni misralariga tushiradi. Ijtimoiy hayotni o‘ziga xos noziklik bilan qalamga oladi va she’rlariga yuragini beradi.

Ona yurtni kuylamoq uchun
Xuddi she’rga bergandek yurak
Uni yurtga bermoq uchun ham
Doim tayyor turmog‘ing kerak
Sen qo‘rquvni qanchalik yashir
She’r qiladi baribir oshkor
Qo‘rqoq bo‘lsang, qo‘rqoq bo‘lar she’r
Mardman, deb jar solmog‘ing bekor…

Shoir she’riyatida yuksak umuminsoniy qadriyatlar vatanparvarlik, yurtga sadoqat, ijtimoiy lirika va millatparvarlik kabi mavzular yetakchilik qiladi. Bunday fazilatlar esa bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv jarayonidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Xurshid Davron she’riyatidagi bunday g‘oyalar o‘sib kelayotgan yosh avlodni yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda kun tartibidagi eng muhim masalalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoir ta’kidlaganidek, vatanni asramoq uchun Vatan xizmatiga doim kamarbasta bo‘lmoq darkor. Har bir insonning ko‘ksida ona zaminga mehr-muhabbat, avvalo, ona allasi, ona suti bilan qon tomiriga o‘tadi. Uning vujudida vatan ishqi jo‘sh uradi. Ona zaminni o‘z onasidek, o‘z yoridek asrab avaylaydi. Zotan, boshqacha bo‘lishi mumkin emas! Shoir shunday mard o‘g‘lonlarni ko‘rib faxrlanadi, ilhomi kelganda esa buni yuksak badiiy mahorati bilan uyg‘unlashtirgan holda qaynoq satrlarga tushiradi. Zero, Ozod Sharafiddinov aytganidek: “Ijod degani odamning fikr va hissiyot bobidagi ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish deganidir”. Darhaqiqat, shoir o‘zining ichki dunyosini, dardini she’rida aks ettiradi. O‘quvchi bu qaynoq misralarni o‘qiganda, uning haroratini sezadi. Shoirning dardini yurakdan his qiladi.

To‘marisdek ayol qo‘llarin
Chanoq tig‘i tilarkan kech kuz
Qog‘ozdagi she’rim yo‘llari
Yuragimda qon qoldirgan iz …

Xurshid Davron tasvirlayotgan vatanparlikning yorqin timsoli hisoblanmish To‘marisning yovga qarshi kurashi va uning ustidan qozongan g‘alabasi shonli tariximizning eng yorqin sahifalaridan biri hisoblanadi. Biz mana shunday jasoratli shaxslarning avlodlarimiz, vujudimizda ularning qoni jo‘sh urmoqda. Bu satrlarda shoir To‘maris qo‘lidagi yovga qarshi tutilgan qilichni kech kuzdagi chanoqqa qiyoslamoqda. Zero, kech kuzdagi chanoq inson qo‘liga qanday og‘riqli ta’sir o‘tkazsa, qilich tutgan qo‘l ham baribir yaralanadi, jarohatlanishi tabiiydir, deya ta’kidlaydi. Shuningdek, ijodkor bu o‘rinda tig‘ yarasi bitsa-da, qalb yarasi bitmaydi, farzand dog‘ida faryod urgan qalbning hijroni unut bo‘lmaydi, degan g‘oyani ham ilgari suradi va bu xususida xulosa chiqarish imkonini bevosita o‘quvchining hukmiga havola etadi. Ya’ni, har kim o‘z dunyoqarashi va ruhiy holatidan kelib chiqib, xulosa chiqaradi. Bunday ratsionalistik metafora esa shoirning yuksak poetik mahoratidan dalolat beradi. Bahodir Karim ta’kidlaganidek, “Ijod ahli uchun tasavvur, poetik tafakkur – xayol kengliklari, xayol impulslari, xayol ko‘rki nihoyatda muhim. Xayolchanlik, xayolga berilish, xayol dengiziga sho‘ng‘ish va cho‘kish – ijod ahliga xos fazilat, albatta”[3]. Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy lirika o‘ziga xos usulda talqin qilingan. Shoir 70-80-yillarda adabiyot olamiga kirib kelgan bo‘lsa, o‘sha davrdagi muhit, insonlarning yashash tarzi bugungi kundagidan tubdan farq qilgan va bu holat ijodkor ruhiyatiga ham o‘zining sezilarli ta’siri borligini she’rlarida ko‘rishimiz mumkin. U o‘sha davr odamlarining ertangi kunga bo‘lgan umidsiz nigohlari, o‘z tilidan

3 Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи. 2018 й. 85 б.

va erkidan mahrum etilgan zamondoshlarining taqdiriga befarq bo‘lmagan. Shuning uchun balki shoir moziyga ko‘proq e’tiborini qaratgan bo‘lsa, ajab emas. Buyuk ma’rifatparvar hukmdor Amir Temur, vatanparvarlikning yorqin timsoli bo‘lgan To‘marisdek mag‘rur ayollar, Namoz botirdek mard o‘g‘lonlar shu sababdan doimo shoirning e’tibor markazida bo‘lgan va ijodiy kamolotida bosh qahramonlarga aylangan. Bunday ijodiy yondashuv esa insoniyat tamadduniga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning hayot yo‘li, ko‘rsatgan jasoratlari, hozirgi o‘sib kelayotgan avlodga ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ibrohim Haqqul ta’kidlaganidek “She’riyat – ajdodlarning yurak tarixi, fikr va g‘oyalar manbaiginamas, ruhiy og‘riq va iztiroblari qomusi hamdir. Har bir shoir, istang-istamang, she’r ko‘zgusida ko‘proq o‘z avlodining qalb manzaralari, ruhiy holatlarni ochadi, she’r orqali o‘zi mansub naslning ijtimoiy, axloqiy va falsafiy qarashlarining obrazli talqinlarini beradi”[4] Shu sababdan “She’rlarimda tinglamoq mumkin To‘marisning, Namozbekning hayqirig‘ini, Ko‘rib qolmoq mumkin qora tunning qa’rida Muqannani yelib o‘tgan oq to‘rig‘ini!”, deya shoir olis o‘tmishning buyuk ajdodlari ona zamin uchun jonini fido qilganlar mangu tirik, ularning jasorati har bir inson yuragida faxr tuyg‘usi bilan jo‘sh uradi, deb ta’kidlaydi. Ularning muqaddas xotirasini she’rlarim bilan abadiyatga muhrlayman deydi.

Har so‘zimni qo‘ng‘iroqning tillari kabi
Yuragimga urib-urib jaranglataman
Qalamimni xanjar kabi tutib qo‘limda
So‘zlarimni kurash deya jangga otaman…

Shoir o‘zining bunday otashin so‘zlari bilan yovga qarshi chiqadi, xanjar o‘rniga qo‘liga qalamni tutib, vatanning mard o‘g‘lonlarini yodga oladi. Shoir o‘zining bu satrlari orqali ikkiyuzlamachi insonlardan og‘rinib, ajdodlar ruhi mangu barhayotligini aytadi.

Haqiqat deb, yolg‘on so‘zlab yurganlar ozmi,
O‘z xalqini aldamakni aylab shum niyat?!
Biroq, ular aldayolmas hech qachon bizni,
Toki tirik sening so‘zing, tirik she’riyat.

Darhaqiqat, ijod olamidagi inson o‘z asarlari bilan nomini abadiyatga muhrlab ketadi. Xurshid Davron ham o‘z asarlari bilan tarix zarvarag‘idan munosib joy oldi. Xurshid Davronning ijodida tarixiy shaxslar obrazi alohida o‘rin egallaganligini kuzatishimiz mumkin. U o‘zining tarixiy va zamonaviy ruhda yozilgan asarlari orqali yoshlarimizni buyuk ajdodlarimizning munosib avlodlari bo‘lishga da’vat etadi. Mudrab yotgan qalblarda, g‘urur va iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi. Tarixini bilmagan millat inqirozga yuz tutishi, ya’ni o‘z yaralish fitratini, mohiyatini anglamagan inson ekanligini shoir qayta-qayta ta’kidlaydi. Ijodkor o‘zbek xalqining shonli tarixini qalamga olish orqali o‘z ko‘ksida g‘urur hissini tuyadi. Uning ruhiyatidagi mana shunday evristik yondashuvlar natijasi o‘laroq shoirning “Samarqand xayoli”, “Bibixonim qissasi”, “Sohibqiron nabirasi” kabi tarixiy asarlari dunyo yuzini ko‘rdi va o‘quvchilar mehrini qozondi. “Xurshid Davronning boshqa ijodkorlardan farq qiladigan tomoni shundan iboratki, u o‘z xalqining uzoq moziydagi o‘rnini, shonli o‘tmishini ko‘rsatish, uning orzu, armonlarini poetiklashtirishni asosiy maqsad darajasiga ko‘tara bordi”[5] . Shoir tarixni bevosita tabiat manzaralari bilan hamohanglikda tasvirlaydi.

Qirlarni kezaman…., Daraga tushib,
O‘tloqqa yastanib o‘yga tolaman
Va birdan… Yomg‘ir yog‘ib o‘tgan tuproqli yo‘lda
Muqanna izini ko‘rib qolaman.

Bu she’rda ko‘rishimiz mumkinki, ijodkor olis o‘tmishning shonli ovozasini tabiat orqali ifodalagan. Vatan mustaqilligi yo‘lida jonini fido qilganlar siymosi doim barhayotdir. Bu tuproqda muqannalar izi bor, bu tuproqda ulug‘lar izi bor. Ey avlod, ko‘zingni och! O‘tmishingga nazar tashlab, bu muqaddas tuproqni olgin-u, ko‘zingga surt, tarixga nazar tashlagin-u, bugungi farovon kunlarning qadriga yet. Bu istiqlol osonlikcha qo‘lga kiritilgani yo‘q, bu tuproqlar minglab vatan ozodligi yo‘lida to‘kilgan qonlarni va vujudlarni o‘z bag‘riga jo aylagan, bunda ulug‘lar qoni bor, bunda ulug‘larning joni bor. Bu aziz zamin ne razolatlarni ko‘rgan, ne qabohatlarga guvoh bo‘lgan. Shoir “Ulug‘bekning qasosi” she’rida shunday yozadi:

4 Иброҳим Ҳаққул. Иброҳим Ҳаққул ҳақиқати. – Тошкент: Тирилиш нашриёти. 2023 й. 53 б.

5 Jumagul Suvonova, Usmon Azim she’riyatida badiiy tafakkur. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012-y. 47-b.

Yo‘l chetida tisarilar, Daraxt-u chorbog‘lar.
Otlar bilan uchib borar Qonga tashna pichoqlar.
Olislarda o‘lim sasin Sezib qolgan och bo‘ri
Uvillaydi qon mazasin Tuyay deb shomdan beri.

Bu parchada Mirzo Ulug‘bekning o‘ldirilishiga oid tarixiy hodisa qalamga olinmoqda. Shoir Ulug‘bekni o‘ldirishga ketayotgan sarbozlarning qabih va zalvorli qadamlari sasidan nainki insoniyat, balki tabiat ham larzaga kelayotgani, och bo‘rilar qonning mazasini tuyish uchun shomdan beri kutayotganligi, o‘lim ovozi uzoqdan kelayotganligi bilan ifodalaydi. Qotillar yurtning ulug‘ olimining, shohining joniga qasd etdilar va bu gunohlarini tunning zulmati bilan yashirmoqchi bo‘ldilar, lekin majaqlangan giyohlar ularning yo‘liga chiqdi, ona tabiat faryod chekdi, zolimlar qora uyining burchagiga tiqilib halovat izlaganlarida, ko‘kdan yulduzlar tushib, hujraning derazasini sindirdilar, balki shunday qasos oldilar. Temuriylar sulolasining buyuk vakillaridan hisoblanmish Mirzo Ulug‘bek nafaqat shoh, ham olim, ham astronom edi. U o‘z davrida ilm-fan homiysi sifatida ham shuhrat qozonganligi tarixiy manbalarda qayd etilganligini kuzatishimiz mumkin. U 1019 yulduzning joylashishini aniq chizmalarda tasvirlagan. Holbuki, hozirgi eng rivojlangan texnikalar yordamida ham buni aniqlash mushkuldir. Shuning uchun Ulug‘bekni dunyo nafaqat shoh, balki astronom hamda ulug‘ dohiy sifatida tan oldi. Lekin jaholat va razolatning qurboni bo‘lgan ulug‘ astronomning bevaqt o‘limi tarixning eng qora sahifalariga muhrlandi. Oradan necha asrlar o‘tsa hamki, bu razolat unut bo‘lmaydi. Ona tuproq aziz farzandini o‘ldirganlarni hech qachon tinch qo‘ymaydi. Zamonlar o‘tsa hamki, ona zamin dilbandining o‘limiga sababchi bo‘lganlarni kechirmaydi. Shoir ta’kidlaganidek, “Bobolar tarixi, ular qoldirgan meros quyoshga o‘xshaydi. Ularga peshvoz yursang, peshonang yorug‘, yo‘ling porloq, umring ibratli, ko‘zlaring nurli bo‘ladi. Agar ularga orqa o‘girsang, faqat qora soyangni ko‘rasan, xolos ”. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, tarixini bilgan xalq qudratlidir. O‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ta’biri bilan aytganda, moziyga qarab ish tutmoq xayrlidir. Xurshid Davron o‘zining otashin she’rlari va tarixiy-ma’rifiy asarlari orqali biz qanday buyuk ajdodlarning avlodi ekanligimizni yodimizga soladi. Shoir ijodidagi aynan mana shunday tariximizdagi umumiylik va xususiylik tamoyillarini ta’minlaydigan jihatlar uning asarlarining o‘quvchilar qalbidan chuqur joy olishiga, adabiyot shinavandalari ko‘ngliga yo‘l topishida asosiy mayoq vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017-y., 1-jild. 500-b.
2. Azim Suyun “O‘zlik” Ibrohim G‘afurov kirish so‘zi, Sharq nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati. – Toshkent, 1999-y.
3. Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot san’at nashriyoti 1986-yil. 208-b.
4. Jumagul Suvonova. Usmon Azim she’riyatida badiiy tafakkur. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012-y. 96-b.
5. Xurshid Davron Samarqand xayoli. Kamalak nashriyoti. – Toshkent, 1991-yil. 320-b.
6. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2018-y. 364-b.
7. Иброҳим Ҳаққул. Иброҳим Ҳаққул ҳақиқати. – Тошкент: Тирилиш нашриёти. 2023 й. 296 б.

Islom JURAYEV,
FarDU, katta o‘qituvchi

“BOBURNOMA”DA IJTIMOIY MUHIT VA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZINING AKS ETISHI

Annotatsiya: maqolada Boburning ijodiy jarayonga hamda voqelikka munosabati, memuar asarida ham, lirikasida ham hayot haqiqatini xolis tasvirlashga intilgani haqida so‘z boradi. Xususan, ijtimoiy hayot va maishiy turmush jarayonida xotin-qizlarning o‘rni va roli, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishtiroki real tarixiy shaxslar misolida ko‘rsatib beriladi. Folklor durdonalari yozma adabiyotga, xususan, ulug‘ shoh va sarkarda, shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning ijodida xotin-qizlarning tarixiy shaxs sifatida jamiyatdagi o‘rnini tarixiy talqin etishiga, obrazlarning keng miqyosda, har taraflama tasvirlanishiga zamin hozirlagan. Bobur o‘z qahramonlari shaxsi, xarakteri haqida so‘z yuritayotganida ana shu omillarga asoslangan.

Kalit so‘zlar: *ijodkor shaxsi, muallif obrazi, hayot haqiqati, badiiy ijod, adabiy ta’sir, ijtimoiy voqelik, tarixiy shaxs, xolislik, estetik ta’sir.*


Annotation: the article discusses Babur’s approach to the creative process and reality, highlighting his effort to objectively depict life’s truth in both his memoirs and lyrical works. Specifically, it illustrates the place and role of women in social life and everyday existence, as well as their participation in spiritual and educational spheres, through examples of real historical figures. The treasures of folklore laid the foundation for written literature, particularly in the works of the great king, commander, poet, and thinker Zahiriddin Muhammad Babur. This influenced his historical interpretation of women’s roles in society as significant figures and enabled a broad, comprehensive portrayal of characters. When describing the personalities and characteristics of his protagonists, Babur relied on these factors.

Key words: *the personality of the creator, the image of the author, the reality of life, artistic creation, literary influence, social reality, historical personality, impartiality, aesthetic influence.*

Аннотация: в статье рассматривается отношение Бабура к творческому процессу и действительности, его стремление к объективному изображению жизненной правды как в мемуарах, так и в лирике. В частности, на примере реальных исторических личностей показаны место и роль женщин в общественной жизни и повседневном быту, их участие в духовно-просветительской сфере. Жемчужины фольклора подготовили почву для письменной литературы, в частности, для исторической интерпретации роли женщин в обществе как исторических личностей в творчестве великого правителя и полководца, поэта и мыслителя Захириддина Мухаммада Бабура, для широкого и всестороннего изображения образов. Бабур опирался на эти факторы, рассуждая о личности и характере своих героев.

Ключевые слова: *личность творца, образ автора, правда жизни, художественное творчество, литературное влияние, социальная действительность, историческая личность, объективность, эстетическое воздействие.*

“Boburnoma” asarining yaratilishi ijodkor shaxsi va muallif obrazi sinkretik uyg‘unlashgan adabiy jarayon sifatida nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyoti tarixi miqyosida ham noyob hodisadir. Shoh va shoirning memuar asarida tasvirlangan hodisalarni uning lirik merosi bilan qiyosiy tadqiq etish jarayonida bunga yana bir bor amin bo‘lamiz. Chunki har qanday vaziyatda haq so‘zni ayta olish, til va dil birligi tarixiy haqiqat hamda badiiy ijod uyg‘unligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Boburnoma” muallifi bu boradagi o‘z ijodiy prinsipi va tamoyillari haqida shunday deydi: “Bu bitilganlardin g‘araz shikoyat emas, rost hikoyatdurkim, bitibturmen. Bu mastur bo‘lg‘onlardin maqsud o‘zining ta’rifi emas, bayoni voqei bu edikim, tahrir etibturmen.



Chun bu tarixta andoq iltizom qililibturkim, har so‘zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay. Lojaram ota-og‘adin har yaxshiliq va yamonliqkim shoye edi, taqrir qildim va qarindosh va begonadin har ayb va hunarkim bayoni voqe edi, tahrir qildim.” [1.180]

Bizga ma’lumki, ibtidoiy jamoa tuzumi davrlarida ayollar jamoaning eng faol a’zosi bo‘lganlar. Islomgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyoda xotin-qizlar huquqi birmuncha yuqori bo‘lgan. Qizlar o‘z xohishlari bilan turmush qurganlar. Ular oila qurishga muvofiq deb topilgan yigitlar oldiga el-yurtni har xil balo-ofatlardan asraydigan jasur va pahlavon bo‘lish shartini ham qo‘yganlar. O‘zlarida xalqning yuksak orzu-ideallarini mujassam etgan bunday qizlar yigitlarning tashqi ko‘rinishi yoki mol-dunyosiga uchmaganlar, aksincha mardligini sinab ko‘rganlar, sevgi yo‘lida chinakam qahramonlik ko‘rsatishni talab qilganlar. O‘z taqdirini o‘zi hal qilishga intilgan bunday xotin-qizlar obrazlari, albatta, real hayotdan uzoq bo‘lmagan. Boburning o‘zi ham bolaligida Sulton Ahmad mirzoning qizi bilan beshikkertti qilingani fikrimizning dalilidir.

“Boburnoma”da muallifning shaxsiy hayotiga oid va mavzuga aloqador bir o‘rin bor. Zahiriddin Muhammad Bobur Xurosonga – Sulton Husayn mirzo huzuriga borganida amakisi Sulton Ahmad mirzoning qizi Ma’suma Sultonbegim bilan uchrashadi. Ikki o‘rtada muhabbat paydo bo‘lganligi, bu muhabbat keyinroq nikohga sabab bo‘lganligi quyidagicha tasvirlanadi:

“Sulton Ahmad mirzoning kichik qizi Ma’suma Sultonbegimni onasi Habiba Sultonbegim bu fatarat(to‘polon)lardan burunroq Xuroson olib kelgon ekandur, bir kun men okamni ko‘ra kelganda onasi bilan kelib, meni ko‘rdi. Ko‘rgach-o‘q manga xeyli mayl (muhabbat) paydo bo‘ldi.

Takalluf har necha surat tutulsa
andin ortuqsen,
Seni jon derlar ammo betakalluf
jondin ortuqsen.

...Iqomat chunki qilding, Boburo,
ul hur ko‘yida,
Maqoming ravzadin avlo,
o‘zung rizvondin ortuqsen.

Maxfiy kishilar borib okam bila, yanga bila, Poyanda Sultonbegimni yanga der edim, so‘zlashib andoq muqarrar qildikim, mening keyinimcha yanga qizini olib Kobulg‘a kelgay.”[1.173] Boburning shu paytdagi kechinmalarini uning quyidagi baytlari zamiridagi haroratli tuyg‘ulari ifodasidan ham bilish mumkin:

Oshiq o‘lg‘och behudu
devona bo‘ldim, bilmadim
Kim pari ruxsoralar ishqig‘a
bu ermish havas.

Boburning shu paytdagi holati, ko‘ngil qo‘ygan yorini intiqlik bilan kutishi uning mana bu misralarida yorqin aksini topgan:

Ne borurg‘a quvvatim bor,
ne turarg‘a toqatim,
Bizni bu holatqa sen qilding giriftor,
ey ko‘ngil.

Keyinroq mirzo Bobur bilan Ma’suma Sultonbegimning to‘ylari bo‘lib o‘tadi: “Sulton Ahmad mirzoning qizi Ma’suma Sultonbegimningkim, Xurosondin tilab, kelturib edim, ushbu kelganimda (Kobulda) aqd qildim (nikohimga oldim).” Afsuski, bu turmush uzoq davom etmaydi. Ma’sumabegim ko‘zi yorigandan so‘ng “zolicha” deb ataluvchi kasallikka chalinib, olamdan o‘tadi. Chaqaloq – qizchaga onasining ismini qo‘yadilar.[1.21]

Demak, o‘rta asrlar sharoitida ham xotin-qizlarning erk va huquqlari imkon darajasida hurmat qilingan. Keltirilgan parchadan ma’lum bo‘lishicha, Ma’suma Sultonbegim ham Boburga ko‘ngil qo‘ygan, o‘z roziligini bildirgan. Keyinroq ularning nikoh to‘ylari Kobulda bo‘lib o‘tadi, bu esa qizning roziligi bilan bo‘lganligi tabiiy.

“Yodgor” dostonida kuylanishicha, Oydinoy o‘z taqdirini o‘zi hal qilish uchun bel bog‘laydi. Insoniy g‘ururini baland tutuvchi bu qiz onasidan zo‘ravon sovchilarning gapini eshitgach, shunday javob beradi:

Solarman jafolar tandagi jonga,
Aymoqning polvoni kelsa maydonga.
Men qo‘rqmayman keladigan dushmandan,
Ushlasam otarman uni osmonga.

Bu o‘rinda Oydinoy tinglovchi – kitobxon ko‘z o‘ngida mustaqil fikrli, o‘z huquqini himoya qila oladigan jasur qiz sifatida gavdalanadi.

Ba’zi xalq dostonlarida asar qahramonlaridan birining o‘z ixtiyori bilan yor tanlashi voqeasini ham uchratish mumkin. Masalan, yigitning biror jangu jadalda yoki olishuvda mardligini kuzatgan qiz uni sevib qoladi va vafodor yor bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlaridagi xotin-qizlar bilan bog‘liq voqealar, hodisalar tasviri o‘tmish ajdodlarimizning maishiy hayoti, orzu-armonlari va dunyoqarashlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, ayollar qadim zamonlarda ham hayotda katta mavqega ega bo‘lganlar. Andijon viloyatining hukmdori Umarshayx mirzo tasodifiy falokat tufayli olamdan o‘tganda Boburning buvisi Esondavlatbegim hokimiyat tizginini qo‘lda ushlab qolish uchun shoshilinch choralar ko‘rganligi, elni parokandalik, amaldorlarni boshboshdoqlikdan saqlab turish uchun tig‘iz rejalarni ishlab chiqqanligi bizga ma’lum. Shuning uchun xalq xotin-qizlarni ajoyib pahlavonlar, vatanparvar jangchilar, adolatli hukmronlar sifatida tasvir etishida hayotiy zaminga suyanadi. Bunday qahramonlarni fantastik bo‘yoqlar bilan mubolag‘ali ravishda ifodalash bilan ilg‘or g‘oyalar keng targ‘ib qilingan. Eng muhimi, folklor durdonalari yozma adabiyotga, xususan, ulug‘ shoh va sarkarda, shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning ijodida xotin-qizlarning tarixiy shaxs sifatida jamiyatdagi o‘rnini tarixiy talqin etishiga, obrazlarning keng miqyosda, har taraflama tasvirlanishiga zamin hozirlagan. Bobur shoh Hindistonni fath etish uchun otlanganda o‘z mamlakatining poytaxti Kobulga hokim etib rafiqasi Mohim begimni qoldirishi ham shoirning xotin-qizlarga ehtirom va hurmat, ishonch va xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lganligidan dalolatdir. Quyidagi ruboiy mazmunidan ham xalqonalik, xalqchillik samimiylik baralla ko‘rinib turadi:

Yuz shukr qilayki, yona oshiq bo‘ldum,
Olamga bo‘lub fasona oshiq bo‘ldum.
Yaxshi so‘zungu vasfi jamoling eshitib,
Ko‘rmay seni g‘oyibona oshiq bo‘ldum. [2.86]

Bobur ijodda o‘ziga ham, boshqalarga ham g‘oyat talabchan bo‘lgan. Uning temuriyzoda Sulton Mahmud mirzo she’riyati haqidagi so‘zlari xarakterlidir: “Tab’i nazmi bor edi. Devon tartib qilib edi. Vale she’ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she’r aytqondin aytmag‘on yaxshiroqdur.”[1.26] Darhaqiqat, badiiy ijod hayot haqiqatidan yiroq bo‘lsa, dil dardi bilan sug‘orilmasa, muallif el e’tirofiga sazovor bo‘la olmaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur ana shu haqiqatni memuar asari ustida ishlayotganida ham, lirik she’rlarini yaratayotganda ham hech qachon faromush qilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т., 1990.
2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Девон. – Т., 1994.
3. Ҳаққул И. Рубоий. – Т.: Фан, 1976.
4. Ҳумоюннома. – Т., 1959.
5. Mirsaydullayev M. Boburning buyuk merosi. – Toshkent, 2017.

Rahima DONIYOROVA,
UBS Til va adabiyot ta'limi kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

"BOBURNOMA" TOPONIMIKASIDA ORONIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida uchraydigan toponimik birliklar, xususan, oronimlar tahlil qilingan. Asarda tog', dovon, dara, qir-adir va tepalik kabi oronimlarning leksik-semantik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, ularning tarixiy-etimologik kelib chiqishi, fonetik o'zgarishlari va til tizimidagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. "Boburnoma"dagi oronimlar XVI asr geografik qarashlari, tabiiy manzara va madaniy hayotini tasvirlashda muhim til birliklari sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: *"Boburnoma", toponim, oronim, onomastika, tilshunoslik, tarixiy manba, geografik nomlar, oykonim, urbanonim, gidronim, etimologiya, fonetik o'zgarish, leksik-semantik tahlil, tarixiy tilshunoslik, nomshunoslik, lingvistik tahlil.*

Ikki buyuk sulolaning kesishgan nuqtasida dunyoga kelgan buyuk va adolatparvar shoh, yetuk davlat arbobi hamda tengsiz shoir hisoblangan Zahiriddin Muhammad Bobur o'z hayoti davomida ko'rgan-kechirgan voqealarini, o'zi tanigan va bilgan odamlar haqidagi fikrlarini, safarlari davomida borgan joylari va ularda yashaydigan aholining ijtimoiy-madaniy hayoti haqidagi qarashlarini jamlab o'zining "Boburnoma" asarini yaratgan. Asar eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan bo'lib, dunyoning turli tillariga tarjima qilingan, bugungi kunga qadar bir qator turli soha olimlari tomonidan tahlil qilingan.

"Boburnoma" asari leksikasining boyligi hamda ko'ptarmoqliligi, o'zida XV-XVI asrlar tarixiga oid ma'lumotlarni jonli tarda aks ettirganligi bilan shu davrga doir boshqa yozma adabiy manbalardan ajralib turadi. Asarda hayvonot olamiga, o'simliklar dunyosiga, tibbiyotga, harbiy sohaga, urf-odat, marosimlarga, ilm-fan sohasiga oid bir qator leksik birliklar, xususan, moddiy unsur nomlari ham qo'llangan. Ushbu leksik birliklar ichida inshoot, turar joy, hudud, makon ifodalovchi bir qator turdosh otlar ham mavjudki, quyida ulardan ba'zilarini sanab o'tamiz:

1) sarocha – kichkina hovli, kichkina saroy;
2) qora uy – oddiy aholi, xalq yashaydigan uy;
3) oq uy – to'y, bayramlarda tikiladigan uy;
4) dardara uy – oraliq uylarga nisbatan;
5) chordara – to'rtta eshikka ega bo'lgan uy;
6) yakpora – bir butun, yaxlit bo'lgan uy;
7) tiyul – chodir ma'nosida;
8) xirgoh – tiyulga nisbatan yupqaroq bo'lgan chodir;
9) shomiyona – kechalari uxlash uchun, dam olish uchun foydalanilgan chodir;
10) qishloq – qishlanadigan joy ma'nosida;
11) quroyot – qishloqlar ma'nosida;
12) ma'mura – obod shahar, mamlakat;
13) tumanot – tuman so'zining ko'pligi, tumanlar ma'nosida;
14) o'r – balandlik, qiya balandlik, tepalik;
15) kent – shahardan biroz katta bo'lgan hududiy birlik ma'nosida;
16) qasaba, qasabacha – shahar ma'nosida;
17) xolisa – podshoh ixtiyorida bo'lgan shahr ma'nosida.

"Boburnoma" asari o'zida yuqoridagi kabi bir qator turdosh otlar bilan bir qatorda juda ko'plab atoqli otlarni ham mujassamlashtirgan, shu tufayli asar tilshunoslikning onomastika tarmog'ida muhim tadqiqot predmeti sifatida ham o'rganiladi. Onomastika bu yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "onomastikos" — "ismga bog'liq", "opot" — "ism" so'zlaridan olingan bo'lib, tilshunoslikning atoqli otlar bilan shug'ullanuvchi tarmog'i hisoblanadi. "Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o'rganilish darajasiga qarab onomastika adabiy va dialektal onomastika, odatdagi (amaliy) va poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika kabi turlarga bo'linadi" [1].

"Boburnoma" ham o'zida bir qator atoqli otlarni jamlagan noyob asar bo'lib, unda qo'llangan atoqli otlarni quyidagi ikki katta guruhga bo'lib tahlil etish ham mumkin:

1. Shaxs nomlari (antroponimlar);
2. O'rin-joy ifodalovchi nomlar.

Asarda quruqlik ifodalovchi joy nomlari bilan bir qatorda suv havzalarini ifodalovchi atoqli otlar nomi ham keltirib o'tilgan. Tilshunoslikda suv havza va inshootlari nomlarini ifodalovchi birliklar gidronimlar deb ataladi. Gidronimlarning etimologik va tarixiy-lug'aviy tahlili, ularning shakl va mazmun o'zgarishlarini aniqlash, toponimik sistemada ularning o'rnini belgilash ilmiy jihatdan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu sababli "Boburnoma"dagi gidronimlarning o'rganilishi ham bu boradagi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Asarda uchraydigan quruqlikni bildiruvchi toponimlar nafaqat geosiyosiy voqeliklarni aks ettiradi, balki ularning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi hamda tadqiq etilishi bugungi kun lingvistikasi uchun ahamiyatlidir. Zero, joy nomlari tarixiy davrlarning siyosiy, madaniy

1 Йўлдошев Б. "Ўзбек ономастикаси масалалари" танланма фанидан ўқув-услубий қўлланма. — Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. Б.10.

va ijtimoiy jarayonlarini ham o‘zida aks ettiruvchi noyob til birliklari hisoblanadi. Xususan, joy nomlari, ya’ni toponimlarni ular ifodalagan obyektlarning turiga qarab bir qancha guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Oykonimlar: mamlakat, shahar, qishloq, kent, qal’a, qo‘rg‘on, rabot va shu kabilarga atab qo‘yilgan nomlar;
2. Oronimlar: tog‘, dara, dovon, tepalik, qir-adir va shu kabilarga atab qo‘yilgan nomlar;
3. Urbanonimlar: shaharlar ichidagi joylar, xususan, ko‘cha, maydon, masjid, minora, madrasa va shu kabi boshqa obyektlarga atab qo‘yilgan nomlar.

Oykonim va urbanonimlardan farqli ravishda kishilar deyarli yashamaydigan, ya’ni yer yuzasining relyef shakllari hisoblanadigan tog‘, qoya, qir, cho‘qqi, tepalik, qiyalik kabilarga atab qo‘yilgan nomlar tilshunoslikda oronimlar termini bilan ataladi. Taniqli olim S. Qorayev esa unga shunday ta’rif bergan: “Oronim (oros – tog‘, onoma – nom, ism) – tog‘lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari”[2] . “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati”da esa oronim termini quyidagicha izohlangan: “Oronim (yun. orog – tog‘ + onoma – atoqli ot) – yer yuzasi relyefidan bo‘rtib, ko‘tarilib chiqqan har qanday baland joylar (tog‘, qir, tepa, cho‘qqi, dovon va boshqalar) atoqli oti”[3] . Asarda tog‘, tepalik va qir-adir ma’nolarini ifodalashda bir qator turli leksik birliklardan ham foydalanilgan. Masalan, tog‘ etagi, atrofi ma’nosini ifodalovchi “domana” so‘zi, chuqurlik, pastlik ma’nosini anglatuvchi “inish” so‘zi, dovon, tog‘dan oshib o‘tiladigan yo‘l, bel ma’nolarini anglatuvchi “daban”, “ko‘tal” so‘zlari, tog‘da mavjud kovak va g‘orlarni ifodalovchi “havol” so‘zi, tepalik, balandlik ma’nosida keluvchi “pushta” so‘zi, tikka kesib tushiladigan joy ma’nosini ifodalovchi “yakandoz” so‘zlari shular jumlasidandir.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu termin va ifodalar “Boburnoma” davridagi toponimik tizimning leksik boyligini, shuningdek, tabiiy landshaftga berilgan mahalliy atamalar tizimini ham ochib beradi. Xususan, asarda Baroko‘h tog‘i, Kirmosh tog‘i, Ko‘hi Safid, Ko‘hi Jud, Ko‘hi Mehtar Sulaymon, Ko‘hi Sof, Olatog‘, Olg‘u tog‘i, Sira (Sarv) tog‘i, Xoja Ismoil tog‘i, Shovdor (Shohdor) tog‘i, Shunqorxona tog‘i, Murg‘on tog‘i kabi tog‘– ko‘h nomlari, Ko‘tali Zarrin, Oqko‘tal, Sangdoki ko‘tali, Qaro ko‘ba ko‘tali, Xaybar ko‘tali, Anbahor ko‘tali kabi ko‘tal nomlari, Darai Bom, Darai Gaz, Darai Boy, Darai Zindon, Darai Zang, Darai Nur, Darai Xush, Darai So‘f, Kamrud darasi, Obdara, Pashgrom darasi, Puromin darasi, Tutumdara singari dara nomlari, Itmak dovoni, Kandirlik dovoni, Muhammad Pix dovoni kabi dovon nomlari keltirib o‘tilgan. Bu toponimlarning barchasi XVI asr geografik atamalar tizimining leksik-semantik xususiyatlarini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. E’tibor qaratish joizki, asarda dovon so‘zi “dobon” tarzida keltirilgan. Bu esa zamon o‘tishi jarayonida fonetik o‘zgarishlarga uchragan birliklarning qanday shaklda saqlanganini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, asarda ayrim mashhur oronimlar ham boshqa nomlar bilan atalgan. Xususan, memuarda Himolay nomi birorta o‘rinda tilga olinmagan. Hind eli orasida ishlatiladigan “Savolak Parbat” degan oronimdan foydalanib ifodalaydi hamda uning ma’nosini ham quyidagicha izoh orqali keltirib o‘tadi:

“Bu tog‘ni Hind eli Savolak Parbat derlar, hind tili bila “sava” – rub’, “lak” – yuz ming, “parbat” – tog‘, ya’ni rub’ va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay. Bu tog‘larda qor o‘qsumas. Hindustonning ba’zi viloyatidin, misli, Lohur va Sihrind va Sanbaldin bu tog‘da qor oqarib ko‘runur…”[4] . Keltirilgan parchada Savolak Parbat, ya’ni Himolay tog‘idan qor ketmasligini, doimiy tarzda qor bo‘lishini ifodalab, hatto Lohur, Sihrind, Sanbal kabi ayrim shaharlardan qaralganda qor muntazam oqarib ko‘rinib turishi aytib o‘tilgan. Bu kabi joy nomlarining izohiga oid misollarni “Boburnoma”da ko‘plab uchratishimiz mumkin.

“Boburnoma” asarida keltirib o‘tilgan toponimik birliklar XV–XVI asrlar Sharqiy va Janubiy Osiyo hududlaridagi bir qator viloyat, shahar va qishloqlarning siyosiy-hududiy va ijtimoiy-madaniy tuzilishini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish, tadqiq etish zamonaviy tilshunoslik, xususan, onomastika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Asarda keltirilgan oykonim, oronim va urbanonimlar muayyan geografik obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning joylashuvi, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini yoritish barobarida, mazkur davr til tizimining boyligini va tafakkur tarzi bilan bog‘liq nomlash usullarini ham namoyon qiladi. Ushbu nomlar orqali Bobur davrida joylardagi hayotiy voqeliklar, tabiiy manzara va madaniy muhit haqida keng tasavvur hosil qilish mumkin.

2 Қораев С. География номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. Б.193

3 Бегматов Э., Улуқов Х. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. — Наманган, 2006. Б.63.

4 Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960. – Б.342–343.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома (академик нашр). – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.
2. Қораев С. География номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978.
3. Бегматов Э., Улуқов Х. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
4. Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан ўқув-услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011.
5. Internet saytlari.

Komila GAYUBOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
O‘zbek va rus tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi
kgayubova@gmail.com

XORIJDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada shox va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, ijod yo‘li, uning dunyoqarashi haqida xorijiy olimlarning fikrlari, Bobur ijodining o‘rganilishi, asarlarining ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, manba, mashhur, ruboiy, tarixiy, asar, turkiy.*

Аннотация: в данной статье изложены жизненный путь автора и поэта Захириддина Мухаммада Бабура, его творческий путь, его мировоззрение, статьи научного творчества, изучение Бабура, значение его произведений.

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, «Бабурнома», источник, известный, рубаи, исторический, произведение, тюркский.*

Annotation: this article describes the life path of the author and poet Zahiriddin Muhammad Babur, his creative path, his worldview, articles of scientific creativity, the study of Babur, as well as the significance of his works.

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, “Baburnoma”, source, well-known, rubaiyat, historical, work, Turkic.*

Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she’riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyin” (“Bayon etilgan”), “Xatgi Boburiy”, “Harb ishi”, Aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she’riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Tarixda ulug‘ shoh, shoir, olim, tom ma’nodagi buyuk ijodkor bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur jahon madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan allomalardan biridir. Bobur go‘zal xulq-atvor egasi, taqvo, shijoat, halollik, vafodorlik, sabr-toqat, himmat, adolat, rahm-shafqat kabi xislatlarni mujassamlagan. Bu xislatlar uning ijodida ham o‘z ifodasini topgan.

1983- yil YUNESKO qarori bilan Bobur tavalludining 500 yilligi keng nishonlandi. Bu yil, 2025-yilda esa Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligini nishonladik.

Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyot, san’at, tarix va ilm-fanning turli jabhalarida bebaho asarlar yaratdi. Uning eng yirik asari “Boburnoma”dir. Yevropalik sharqshunos olimlar P. de Kurteyl, H.Vamberi, Elfinston bu asarni qadimgi rim imperatori Yuliy Sezarning “Xotiralar” (asar “Galliya urushi tarixi” va “Fuqarolar urushi tarixi” nomli ikki qismdan iborat – M.X.) kitobi bilan bir qatorga qo‘yib baholagan edilar.

Fransuz sharqshunosligida Bobur ijodini o‘rganish, u haqida tadqiqotlar yozish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. 1773-yilda sharqshunos A. de Longperye o‘zining “Asarlar” to‘plamida “Xatti Boburiy” haqida” maqolasini e’lon qildi. Muallif “Xatti Boburiy” xususida fikr yuritarkan, Bobur alifbosi murakkab arab alifbosidan o‘zining soddaligi va yozuvga qulayligi bilan farq qilishini ta’kidlab o‘tadi. 1854-yilda Parijda “Hozirda va qadimda yashagan tarixiy shaxslar hayoti” nomli kattagina kitob chop qilinadi. Mazkur kitobdan sharqshunos M.Langle (1763–1824)ning “Zahiriddin Bobur hayoti va ijodi” nomli maqolasi ham o‘rin olgan edi. Maqolada Bobur haqidagi avvalgi manbalarga nisbatan ancha boy material berilgan.

XIX asrning oltmishinchi yillari mashhur fransuz leksikografi Per Larussning ko‘p jildli “XIX asr katta fransuz qomusiy lug‘ati” nashr etiladi. Lug‘atning ikkinchi jildidan o‘rin olgan “Zahiriddin Muhammad Bobur” maqolasi diqqatga sazovordir.

Maqola muallifi “Boburnoma”ning yozilishi va boshqa tillarga tarjima qilinishi tarixiga to‘xtalib, “bu asar, darhaqiqat, juda qiziqarli bo‘lib, hali Fransiyada

qariyb ma’lum emas.Turkiy-chig‘atoy tilida yozilgan bu kitob dastlab forsiyga tarjima qilindi va Hindiston musulmonlari orasida shuhrat topdi”, – deb yozadi.

Per Laruss “Boburnoma”ning yozilishi haqida o‘z fikrini quyidagicha bayon qilgan: “Boburda “Boburnoma”ni yozish fikri hayotining qaysi yillarida tug‘ilganligi noma’lum, bu haqida kitobning biron joyida ham yozilmagan. Bizningcha, Bobur o‘z asarini Hindistonda hukmronlik qilgan yillarida yozgan bo‘lishi kerak”. Darhaqiqat, “Boburnoma”ning qachon yozilganligi haqidagi aniq ma’lumot mavjud emas. Bobur va boburiylar davri adabiyotini chuqur o‘rgangan o‘zbekistonlik professor N.Mallayev bu haqida quyidagilarni yozadi: “Bobur siyosiy faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab o‘z sarguzashtlari va turli xil tarixiy voqealarni xotira daftarida aks ettirib borgan va keyinchalik mana shu xotira daftari “Boburnoma”ni yaratishga asos bo‘lib xizmat qilgan. U “Boburnoma”ni qachon yozishga kirishgani ma’lum emas. Biroq asarning ayrim o‘rinlari uning ko‘proq qismi Hindistonda yozilgani yoki qayta tahrir qilinganini ko‘rsatadi”. Yuqorida keltirganimizdek, bu jihatdan fransuz va o‘zbek olimining fikrlari bir-biriga yaqindir.

Per Laruss qomusidagi maqola muallifi “Boburnoma” matnining badiiyligi xususida mulohaza yuritarkan, aniq xulosalar chiqarishga harakat qiladi. “Uslubi jihatidan, – yozadi muallif, – asarning birinchi va ikkinchi qismining boshlanishi juda qiziqarli yozilgan, voqealar turli detallarga boy, xronologik izchil, ifoda soddaligi va ravonligiga katta e’tibor qaratilgan”.Shuningdek, maqolada “Boburnoma”ga chizilgan miniatyuralarga ham alohida to‘xtalingan.

Bobur merosini o‘rganish, “Boburnoma”ni tarjima va lisoniy tahlil qilishda fransuz turkologi Anri Pave de Kurteyl (1821–1889)ning xizmatlarini alohida ta’kidlab o‘tmoq joizdir. Fransiya kolleji turkiy tillar kafedrasi mudiri, Fransiya akademiyasi a’zosi, Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi bo‘lgan Pave de Kurteyl vatani turkologiya ilmining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shdi. Uning olimlik faoliyatida u tuzgan “Sharqiy turkiy tillar lug‘ati” yoxud “Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarini o‘qish uchun izohli lug‘at” alohida ahamiyatga molikdir.

Olim o‘z lug‘atini tuzishda Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni, “Xamsa”si, Zahiriddin Boburning “Boburnoma”si, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlari matnidan manba tarzida foydalanadi. Lug‘atda keltirilgan olti mingdan ziyod eski o‘zbek tiliga oid so‘zlarni fransuz tiliga o‘girishda olim ijodiy yondashib, har bir so‘zning ma’nosini aniq, atroflicha izohlashga harakat qiladi. Akademik A.N.Kononov ta’kidlaganidek, mazkur lug‘at eski o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishda hanuzgacha ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Professor Pave de Kurteyldagi bu katta tayyorgarlik, eski o‘zbek tili va adabiyotidan egallagan puxta bilimi uni “Boburnoma”ni tarjima qilishga undagan edi. 1871-yilda “Boburnoma”ning Pave de Kurteyl tarjimasi ikki jildda nashrdan chiqadi. Birinchi jildda tarjimonning o‘n olti sahifali so‘zboshisi ham berilgan. Unda “Boburnoma”ning yozilish tarixi, unda tasvirlangan davrlar, Bobur shohning Afg‘oniston va Hindistonda barpo etgan qudratli imperiyasi xususida ma’lumotlar berilgan. “Men tarjima qilgan bu asar faqat sharqshunoslar uchungina emas, – deb yozadi professor Pave de Kurteyl, – balki tarix va geografiya ilmi bilan shug‘ullanuvchi kishilar uchun ham foydalidir. Unda XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan arboblar va hukmdorlar hayoti, sharqiy turk adabiyotining oltin davri ta’rifi, shahzodalar, beklar hamda fuqaroning turmushi tavsiflangan”. Shuningdek, so‘zboshida Boburning taxtga o‘tirish davridan boshlab Hindistonni zabt etguniga qadar bosib o‘tgan hayot yo‘li hikoya qilingan, ayniqsa, “Boburnoma” ta’rifiga keng o‘rin berilgan.

Ma’lumki, “Boburnoma”ning tili xalq tiliga yaqindir. Bu xususda professor Pave de Kurteyl shunday yozadi: “Bobur tili usmonli turk tili emas, balki sof turkiy til (o‘zbek tili – M.X.) bo‘lib, har qanday arab va forsiy iboralardan xolidir. Bu til shoir Lutfiy va Navoiy, Sulton Husayn va Mir Haydar tili bo‘lib, juda sodda, boy hamda ifodalidir”.

Yuqorida qayd etganimizdek, g‘arblik bir qator olimlar “Boburnoma”ning yaratilishini Bobur Hindistonda hukmron bo‘lgan davr bilan bog‘laydilar. Fransuz tarjimoni bu borada quyidagi fikrni aytadi: “Agar mendan “Boburnoma” qaysi davrda yozilgan, deb so‘rasalar, men kitob Bobur Hindistonni zabt etgandan so‘ng, ya’ni 1526-yildan boshlab yozilgan va Bobur shoh hayotining oxirigacha davom etgan, deb javob qilardim”. (Bizdagi rasmiy manbalarda asarning yozilish yillari sifatida taxminan 1518/19–1530 yillar ko‘rsatiladi. – M.X.). Professor Pave de Kurteyl bunday xulosaga kelishda, asarning dastlabki boblarida ham Hindiston davri voqealarining uchrab turishiga asoslangan edi. Shuningdek, so‘zboshida Pave de Kurteyl o‘ziga qadar amalga oshirilgan “Boburnoma”ning ikki mashhur tarjimasi xususida

ham mulohaza yuritadi. Bular, Akbarshoh zamonida uning topshirig‘i bilan qilingan Mirza Abdurahimxon ibn Bayramxonning forsiy tarjimasi hamda sharqshunos olimlar Jon Leyden va Vilyam Erskinning inglizcha tarjimasidir. “Parijdagi Milliy kutubxonada, – deydi sharqshunos, – Mirzaxon, ya’ni Abdurahimxon tarjimasidan iborat qo‘lyozmaning ikki nusxasi saqlanadi. Abdurahimxon Humoyun podsholigi davrida uning saroyidagi eng nufuzli kishilardan bo‘lgan, uning obro‘yi Akbar va Jahongir mirzo davrida ham saqlanib qolgan (u 1626 yilda vafot etgan)”. Olim ta’kidlaganidek, Abdurahimxonning forsiy tarjimasi “Boburnoma”ning Sharqda keng tarqalishiga yo‘l ochib berdi va Yevropa sharqshunoslarining ham nazariga tushirdi. Mazkur tarjimaning miniatyuralar bilan bezatilgan nusxalari hozir London, Parij, Kalkutta kutubxonalarida saqlanadi. Professor Pave de Kurteyl J.Leyden va V.Erskin bajargan inglizcha, A.Kayzer o‘girgan nemischa tarjimalarga yuqori baho berish bilan birga, ulardagi nuqsonlarga ham to‘xtalib o‘tadi.

“Mening oldingi tarjimonlarga birdan-bir e’tirozim, ular asl nusxa matni ustida fors tiliga qilingan tarjima (Mirza Abdurahimxon tarjimasi ko‘zda tutilmoqda – M.X.) asosida qunt bilan ishlashmagan… Inglizcha va nemischa tarjimalar aslidan bir qadar uzoqlashgandir, ko‘pchilik hollarda geografik nomlar forsiyda qanday berilgan bo‘lsa, shu holda takrorlangan. Ayniqsa, Shimoliy Hindistondan keladigan daromad xususida gap ketganda, bu nuqsonlar yaqqol ko‘zga tashlanadi”. Pave de Kurteylning bu tanqidi o‘rinli edi. Darhaqiqat, Boburning qo‘l ostida bo‘lgan joylardan keladigan daromad hisobi to‘g‘risida gap borganda inglizcha tarjimada anchagina chalkashliklar mavjudligi shu tarjimani tahlil qilgan munaqqidlar tomonidan ham ta’kidlangan.

1888-yil “Osiyo” jurnalining ikkinchi jildida sharqshunos Jyul Darmstetening “Qobul yozuvlari. Bobur shoh va boshqa mo‘g‘ul shahzodalarining qabrtoshlaridagi bitiklar” maqolasi e’lon qilinadi. Maqolada muallif Bobur va boburiylar maqbarasidagi bitiklar haqida atroflicha ma’lumot berish bilan birga, ularning fransuz tiliga tarjimasi va talqinini ham keltirib o‘tadi.

Ma’lumki, Boburning “Aruz risolasi” asari o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar she’riyati qonuniyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga molik qo‘llanmalardan hisoblanadi. Ammo bu asar qo‘lyozmasining saqlanib kelinganligi ilmiy jamoatchilikka ma’lum emas.

Qo‘lyozmaning bir nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanib kelinayotgani haqida 1923-yil turk olimi M.F.Ko‘prulizoda ilk bor ma’lumot bergan edi. Fransuz sharqshunosi Edgar Bloshe o‘zining Parijdagi “Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalar katalogi” kitobida “Aruz risolasi” asarining ushbu qo‘lyozmasiga ham to‘xtalib, keng tavsif berib o‘tadi. Taniqli olim, professor Hamid Sulaymonov 1968-yil Parijda bo‘lganida E.Bloshe katalogida zikr etilgan “Aruz risolasi” qo‘lyozmasining mikrofilmini olishga muvaffaq bo‘lgan edi. Shuningdek, E.Bloshe katalogida Bobur “Devon”i qo‘lyozmasi ham kutubxona fondining 1230 inventar raqami ostida saqlanayotgani tavsif qilinadi. Bloshe ta’rificha, 1515-yilda Qobulda ko‘chirilgan ushbu “Devon”ga Bobur g‘azallari va ruboyilari kiritilgan bo‘lib, nihoyatda chiroyli miniatyuralar bilan bezatilgan ekan.

Ko‘rinadiki, “Boburnoma”ning A.J.Klaprot, A.Longpere, M.Langle, A.Pave de Kurteyl, F.Grenard, Bake-Grammon kabi fransiyalik tadqiqotchi va tarjimonlari Bobur merosini tarixiy-etnografik, bibliografik hamda lingvistik jihatdan tavsif qilish bilan Yevropada boburshunoslikning rivojiga munosib hissa qo‘shdilar. Qolaversa, Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-fan, adabiyot va san’atga baxshida boy merosini to‘plash, nashr etish hamda jahon andozasida real baholamoq uchun yuqoridagi manbalardan foydalanmoq maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova I.O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr 1-yarmi). –T: Fan, 2009.
2. Nuritdinov M., Boburiylar sulolasi. – Toshkent, 1994.
3. Azimjonova S., Zahiriddin Muhammad Bobur. Maqolalar to‘plami. –Toshkent, 1995.
4. Vohidov R., Biz bilgan va bilmagan Bobur. – Toshkent, 2000.
5. Lutfullo Mahmud, Boburni tushunish baxti. – Toshkent, 2009.
6. Yo‘ldosheva N., Murodova S. Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning afzalligi. —T.:IPT vaNashr ishlari bo‘limi, 2007.

Aziza OMANBOYEVA,
Ma'mun universiteti "Til va adabiyot"
kafedrasi o'qituvchisi
omanboyevaaziza1@gmail.com

"QISASI RABG'UZIY"DA ZUHD MAQOMI VA ZOHIDLIK TALQINI

Annotatsiya: insoniyat yaratilibdiki, Alloh elchilari orqali tarbiyalagan. Bunda tarkidunyo qilish muhim sanalgan. Chinakam zuhd hayotini payg'ambarlar yashagan va zohidlikda ummatlariga ibrat bo'lishgan. Shu bois payg'ambarlar tarixi, siyrat kitoblari alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari orqali zuhd – jamiki payg'ambarlarning maslagi ekanligi ochiqlanadi va tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: *zuhd, zohid, obid, "Qissasi Rabg'uziy", payg'ambarlar, zohidona hayot.*

Annotation: humanity was created and educated by Allah through His messengers. In this, it was considered important to renounce the world. The prophets lived a truly ascetic life and set an example for their people in asceticism. Therefore, the history of the prophets and the books of biography are of particular importance. In this article, through the work of Nasiruddin Rabguzi, it is revealed and analyzed that asceticism is the advice of all prophets.

Key words: *asceticism, Zahid, obid, «Qissasi Rabguzi», prophets, ascetic life.*

Аннотация: человечество было создано и воспитано Аллахом через Его посланников. При этом считалось важным отречение от мира. Пророки вели поистине аскетическую жизнь и подавали пример своему народу в аскетизме. Поэтому история пророков и жизнеописания имеют особое значение. В данной статье на примере труда Насируддина Рабгузи раскрывается и анализируется, что аскетизм – это наставление всех пророков.

Ключевые слова: *аскетизм, Захид, обид, «Киссаси Рабгузи», пророки, аскетическая жизнь.*

Bandalarining o'n sakkiz ming olamni Yaratgan Bir-u borga bo'lgan ishqi ilohiy kitoblarda ham ko'p ta'riflari keltirilgan, bir-biri bilan zidlangan foniy hamda boqiy dunyo yoxud dunyo va oxiratga munosabatlari bilan belgilanadi. Shunday ekan fano va baqo tushunchalarini bir-biridan farqlashda, dunyoviy va uhroviy hayot huzurini anglatishda zuhd ahliga teng kelish qiyin. Chunki zuhd ahli bo'lgan, amalda va so'zda dunyoparastlikdan yiroq bo'lib, mahsharga tayyorgarlikni, abadiyat hayotiga muhabbatni ta'lim bergan, boqiy hayot borligidan xabardor qilganlarning boshida barcha payg'ambarlar turadi. Siyrat kitoblarining yaratilishi, ulardagi maslak va bayon usulida an'anaviylik bo'lgan. Zuhd mohiyati va zohid shaxsiyati bor haqiqati bilan dastlab payg'ambarlar haqidagi qissalarda yoritilganini urg'ulash o'rinli. Nosiriddin Rabg'uziyning 1309-yilda yaratilgan "Qisasi Rabg'uziy" asari o'zining g'oya, badiiyat, qahramonlar olamiga ko'ra ham turk nasrida alohida hodisa sanaladi. Unda zohid va zuhd haqidagi qarashlar ham nabiylar haqida bo'lganligi bois tarixiy haqiqat va badiiyat talqinlarini belgilashda muhim manba va asos bo'ladi. Asar hayot mezonlarini belgilashda rasullarga yuborilgan kitoblarning o'rnidan bahs etarkan, unda zuhdiy yo'lga e'tibor tabiiydir. Haq yo'lchiligida anbiyolarning vazifasi insoniyatga kamolotni nafsidagi noqisliklarning tarki bilan tushuntiradi. Shuningdek, ayrim nabiylar ta'rif-tavsifida zuhd maqomi, zohidona hayoti ta'kidlanadi. Aslida zuhd barcha payg'ambarlarning hayot tarzi ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Kitobda Idris a.s. shunday ta'riflanadi:

Ilm-u fazl-u zuhd-u judiyu dars-u amal,
Toatinga barcha olam bil muni-yu kez tonglayur.
O'zi bilgan ilmini hech kim ersa bilmadi,
Ko'p ibodat qilganin teb xaloyiq tinglayur[1].

Idris a.s.ning ilm, ibodat, toat qatorida zuhd maqomiga sohibligi ham ulug'lanmoqda. Hatto farishtalar ham zohidlik sifatining ustunligi bilan farqlanganligi qissalardan ma'lum bo'ladi. Farishtalar Odam bolalarini malomat qilishganda Alloh taolo ularni malomatlari uchun imtihon qiladi. Bir guruh farishtalarni odamzoddagi iroda, imkoniyat bilan

1 Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: "Ёзувчи". 1990, Б. 36.

yerga tushirganda, ular zino, qon to‘kish, xamr ichish singari ishlarni amalga oshirishadi. Holbuki, tanlashayotganda Alloh farmon qilgan edi: “Odam o‘g‘lonlarin ayb qilmang. Siz yer yuzinda bo‘lsangiz erdi ularda yaratilgan sizlarda bo‘lsa siz-da andog‘ qilgay erdingiz”. Aydilar: “Maozalloh, biz andog‘ qilmagaymiz”, – tedilar. Farmon keldi: “Ey farishtalar, sizlarda qayungiz ***olimroq, zohidroq*** ersa ani kelturung”. Qissalarda keltirilgan bu kabi ma’lumotlar zohidlik ulug‘ martaba ekanligini dalillaydi. Qissalarning go‘zali bo‘lgan Yusuf a.s. haqidagi qissada ham zohidlik mo‘tabar bir hol ekanligi ayon bo‘ladi: “O‘z qulinga oshiq bo‘ldi, teb manga malomat qildingiz ul qulumdin tonmasman. Yusufni undattim qapug‘larni berkitdim, etagin men yirtdim. Netakkim Tengri azza va jalla andin xabar berur. ***Qad ravadtuxu an nafsihi***. *Yusuf o‘zin saqladi, manga bo‘yunsunmadi. Bu Yusuf ham ko‘rkluk turur, ham arig‘ turur,* ***ham zohid turur****, ham olim turur. Man ani ko‘nglincha ko‘zmag‘ayman, rasvo bo‘ldum, el eshitti. Yuzum suvi to‘kuldi”*[2] Yusuf a.s.ning ta’rifida fazilatlar ko‘p, ammo uning har qanday imtihondan pok holda o‘tishidagi asosiy sabablardan biri zohidligidir. “Qisasi Rabg‘uziy”da zohid ummatlar, zuhd hayotini yashagan nabiylar haqida atroflicha ma’lumotlar beriladi. Ammo asarda ***Idris, Yusuf, Yunus, Yahyo va Iso*** **a.s.**larning zohidligi alohida e’tirof etiladi. “Yunus ulg‘aydi, toatg‘a mashg‘ul bo‘ldi. ***Qamug‘ zohidlardan fozilroq edi***”, – deya ta’riflardan so‘ng yashash makoni ham zohidlarnikidek kimsasiz Hiro tog‘i ekanligi ayon bo‘ladi: “Ey Maxaharqiyo, Izzi azza va jalla sanga salom izdi, salom birla durud yorliqadi. Taqi Hiro tog‘ing‘a borg‘il. Anda bizning bir qulimiz bor. Ul qamishni aning bo‘ynig‘a o‘lchag‘il”. Maxaharqiyo kelib qamishni Yunus bo‘ynig‘a o‘lchadi ersa, teng keldi. “Ey Yunus, bashorat senga yalavochlig‘ berdi”[3]. Asarda olimlar va zohidlar yonma-yon qo‘yiladi. Ba’zan obidlar ham keladi. Falokatlarni bartaraf etishda, muammolarni yechishda, albatta, olim va zohid qullar tanlanadi. Masalan, Sulaymon a.s. yo‘qolib qolganda ham dev bilan kurashgan mana shu ulug‘ zotlar edi: “Ey Osaf, o‘ttiz kun bo‘ldikim, Sulaymonning xabarin bilmasmiz”. Osaf yig‘layu boshladi. Chiqti: “Ne qilsangiz siz biling”, – tedi. Odamiylar va parilar, qush, qurtlar barisi kettilar. ***Olimlar, zohidlar*** Sulaymonning taxti uza o‘lturg‘an Haqiq devg‘a hamla qildilar. Dev qochdi, tengizga keldi”[4]. Siyrat kitoblarining ba’zilari badiiy asar sifatida tahlilga tortiladi. Ammo talqinda ehtiyotkorlik kerakki, unda badiiy adabiyotdagi, hatto irfoniy adabiyotdagi obrazlar ham uchramaydi. Jumladan, “Qisasi Rabg‘uziy”da ham, olim, obid, zohid, ba’zan er istilohlari qo‘llanadi. Ammo ular alohida badiiy obraz emas, balki fazilatlarni, payg‘ambar yoki sahobalarning ma’naviy maqomini ko‘rsatadigan sifatlashlardir.

Zuhd haqida so‘z ketganda, albatta, Iso a.s. xotirlanadi. Nosiriddin Rabg‘uziy ham bu ma’naviy maqom va hollar masalasiga jiddiy qaragan hamda ajdodlarga ibrat sifatida ularni mana shunday jonli ifodalarda bergan. Fikrlarni hanafiya mazhabining asoschisi Abu Hanifa tilidan bayon qilinishi esa manbaning ishonchliligi va muallifning mahoratidan xabar beradi: “Imom Abu Hanifadan savol qildilar: “Abu Hanifa, Alig‘a ne teyursan?”. Aydi: “Xaloyiqning ko‘pragi qo‘rqunchdan islom kelturdilar. Rasul alayhissalom aydi: “Ilm uchun Odamni ko‘rayin, fahm uchun Nuhni ko‘rayin, hilm uchun Ibrohimni ko‘rayin, quvvat uchun Musoni, zuhd uchun Isoni, mahobat uchun Muhammadni, amonat uchun Jabroilni, rahm uchun Mikoilni. Yoruq kunni ko‘rayin, oyni, yulduzlarni ko‘rayin tesa bu yigitga boqsun, ya’ni Ali karrama Ollohu vajhahu”[5]. Sahobalarning bari Allohga va Rasuli Muhammad Mustafoga muhabbat bilan bog‘langan edilar. Ammo ularning har birining bo‘rtib turadigan fazilatlari bo‘lgan. Zohidlikda Abu Zarr G‘iforiy roziyallohu anhu eslanadi. Dunyo bilan munosabatlarida zohid zotlardan bo‘lib, na kiyimda, na yemakda isrof hamda ertaning g‘ami bo‘lmagan. “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ham shu bois Iyso a.s.ga o‘xshatgan: “Abu Zarrdan ko‘ra tili rostgo‘y va vafodorga osmon soya solmagan va yer uni ko‘tarmagan. U Iso alayhissalomga o‘xshaydir”, – dedilar. Bas, Umar unga hasad qilgandek bo‘lib: “Uning bundoqligini hurmatini qilaylikmi, Ey Allohning Rasuli”, – dedi. “Ha, unga shundoq qilinglar!” – dedilar u zot”.

“Qisasi Rabg‘uziy”da yana o‘qiymiz: “Ul Idris payg‘ambar alayhissalomni buldilar. Anga bordilar, aydilar: “Bizni shafoat qilg‘il, bizni Izi azza va jalla yorliqasun”, tedilar. Idris duo qildi. Farmon keldi: “Ey Idris, ularga ayg‘il dunyoning azobinmu ixtiyori qilursiz

2 Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: “Ёзувчи”. 1990, Б. 58.
3 Ўша манба. – Б. 56-57.
4 Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: “Ёзувчи”. 1990, Б. 60.
5 Ўша манба. Б. 135.

yo uqbo azobinmu?” Idris bu so‘zni aydi ersa aydilar: “Ey Idris, qamug‘ azobin ixtiyor qilaling, aytu bergil”. Idris aydi: “Uqbo jovidona turur, dunyo azobin ixtiyor qilaling”[6]. Albatta, azob, dard, balo tushunchalarining tasavvufdagi ma’rifiy ma’nosi o‘z ma’nosidan ko‘ra kengroq. Ammo Idris a.s. o‘z qavmiga Uqbodagi farog‘at, dunyodagi balo bilan bo‘lishini ta’kidlaydi. 950 yil umr ko‘rgan Nuh a.s.ning: “Xabarda kelur, bir kun Jabroil keldi. Nuh umri oxir bo‘lmishda aydi: “Ey Nuh, payg‘ambarlardin sening umrung uzunroq bo‘ldi. Dunyoni netak buldung!” Nuh aydi: “Dunyoni bir, ikki qabug‘lug‘ saroytak buldum. Bir qabug‘din kirdim, bir qabug‘din chiqa tururman”[7], – degan dunyo haqidagi fikrlari ham aslida zuhdiy hayotga da’vatdir. Ummatning ilklari bo‘lgan sahobayi kiromlarning hayot tarzi, dunyoqarashi barchaga ma’lumdir. Xatolardan ma’sum bo‘lgan Payg‘ambar alayhissalomning do‘stlari ham qalblariga dunyo sevgisini yaqinlashtirmaslik ishtiyoqi bilan yonganlar. Oliy istak samarasi o‘laroq “…Alloh ulardan rozi bo‘ldi va ular ham Undan rozi bo‘ldilar. Yana (Alloh) ular uchun ostidan daryolar oqib turadigan, ular abadiy qoladigan jannatlarni tayyorlab qo‘ydi. Mana shu buyuk baxt (Tavba: 9/100)”ga musharraf bo‘ldilar. Zuhdiy hayotni yashab o‘tish tanlovida yuqoridagi kabi oyatlarning ta’siri katta bo‘lgan. Shu bois aytish mumkinki, zuhdiy hayotning oliy namunasi payg‘ambarlar, sahoba, tobeinlarda kechdi. Ularning islom ravnaqi uchun qilgan har bir xatti-harakatida, xayr-u ehsonida, eng muhimi Muhammad Mustafo hamda Alloh azza va jalla ishqidan boshqa hamma narsani supurib tashlagan qalbida bir zohid yashadi. Zuhdiy qarashlarning paydo bo‘lishiga, albatta, Qur’oni karim va hadislar asos bo‘lgan. Muqaddas kitobimiz Qur’oni karimda ham yo‘q bo‘lib ketishga mahkum bo‘lgan dunyo hayotiga mo‘min bandalarning aldanmasliklari haqida ogohlantirishlar bor va ular o‘tkinchi dunyo hayotiga qarama-qarshi abadiy bo‘lgan oxirat hayotiga tayyorlanishlari so‘raladi. Qur’oni karimda dunyoni qoralovchi, oxirat hayotiga tayyorgarlik ko‘rishga da’vat etuvchi, dunyo hayotining ziynati bilan kibrga berilmaslikka chaqiruvchi o‘nlab oyatlar bor: “Albatta, Bizga ro‘baro‘ bo‘lishni umid qilmaydigan hayoti dunyoning o‘zigagina rozi bo‘lib, o‘sha bilan xotirlari jam bo‘lgan kimsalar hamda Bizning oyatlarimizdan g‘ofil qolgan kimsalar – ana o‘shalarning joylari, kasb qilib o‘tgan gunohlari sababli do‘zaxdir”. (Yunus, 7). Yana bir hadisda esa “Sahl ibn Sa’d roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “…Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamdan: “Dunyodan zuhd qil, shunda Alloh seni yaxshi ko‘radi. Odamlarning qo‘lidagi narsadan zuhd qil, shunda ular ham seni yaxshi ko‘radi”, – dedilar. Ibn Moja va boshqalar rivoyat qilishgan”[8], “… darhaqiqat, jannat ne’matlaridan umidvorlik, do‘zax azobidan qo‘rquv insonga yanada mas’uliyat va talab yuklagan. Biz tasavvufning zuhd davri va zohid shaxsiyatidan so‘z ochganda, albatta, mana shu oyat va hadislarni eslashimiz lozim”[9].

Zuhd maqomi haqiqatlari, zohid shaxsiyatining mohiyatini belgilashda “Qisasi Rabg‘uziy” kabi nabiylar haqidagi asarlar andoza bo‘lishi kerak. O‘tar dunyoda tanlangan mazkur yashash tarzi va ahli tarkning asl ko‘rinishlari mana shu asarlarda aniq va ravshan ko‘rsatilgan.

6 Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: “Ёзувчи”. 1990, Б. 37.

7 Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: “Ёзувчи”. 1990, Б. 46.

8 Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф Зуҳд ва ҳаё. – Т.: “Hilol-Nashr”, 2020. 5- б.

9 З. Раҳмонова. Ишқ, ирфон ва иршод. – Тошкент: Tafakkur, 2021. 240-б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Алоуддин Мансур таржимаси. – Бишкек, 2001. 768-б.
2. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима / Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. –Т.: Тошкент ислом университети, 2001.617-б.
3. Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: “Ёзувчи”. 1990.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф Зуҳд ва ҳаё. – Т.: “Hilol-Nashr”, 2020. 5- б.
5. Ҳаққул И. Мерос ва моҳият. – Тошкент: Маънавият, 2008. 206-б.
6. Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021. 256-б.
7. Omanboyeva Aziza. Tasavvuf tarixi va irfoniy-badiiy adabiyotda zuhd davrining o‘rni// O‘zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, 2024-yil, (1/10/1). 314– 318-b.

Nargiza JO‘RAYEVA,
Termiz shahridagi 1-maktab
O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
TerDPI tadqiqotchisi
nnargiza747@gmail.com

ISAJON SULTON HIKOYALARIDAGI USLUBIY YANGILIKLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining yorqin vakili Isajon Sulton ijodida kuzatiladigan uslubiy yangilanishlar tahlil qilinadi. Adib hikoyalarida psixologik tahlil, ramziy obrazlar, minimalizm va falsafiy qatlamning ustuvorligi kabi jihatlar alohida o‘rganiladi. Hikoya shaklining yangilanishi va o‘ziga xos yozuv uslubi Isajon Sulton ijodining asosiy xususiyati sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy adabiyot, hikoya, uslub, psixologizm, ramz, minimalizm, falsafa.*

Аннотация: в статье анализируются стилистические новации, наблюдаемые в творчестве Исажона Султана, яркого представителя современного узбекского сказительства. Отдельно рассматриваются такие аспекты, как психологизм, символические образы, минимализм и главенство философского пласта в рассказах писателя. Обновление повествовательной формы и уникальный стиль письма рассматриваются как основные черты творчества Исажона Султана.

Ключевые слова: *современная литература, рассказ, стиль, психологизм, символ, минимализм, философия.*

Annotation: this article analyzes the stylistic innovations observed in the work of Isajon Sultan, a prominent representative of modern Uzbek storytelling. Such aspects as psychological analysis, symbolic images, minimalism, and the primacy of the philosophical layer in the writer’s stories are separately studied. The renewal of the narrative form and the unique writing style are considered the main features of Isajon Sultan’s work.

Key words: *modern literature, story, style, psychologism, symbol, minimalism, philosophy.*

Kirish (введение/introduction). O‘zbek adabiyoti mustaqillik yillarida yangi rivoj bosqichiga ko‘tarildi.Ayniqsa, hikoyachilik janrida badiiy izlanishlar, uslubiy tajribalar, individual yondashuvlar kuchaydi.Yozuvchilar inson ichki olami, jamiyatdagi ziddiyatlar, ruhiy iztiroblarni tasvirlashda yangicha badiiy usullarga murojaat qila boshladilar.Bu jarayonda Isajon Sulton va Xayriddin Sulton kabi adiblarning ijodlari alohida o‘rin egallaydi.Ularning hikoyalarida badiiy tafakkurning o‘ziga xos yo‘nalishi, til va uslubda yangilanish, syujet qurilishida novatorlik yaqqol seziladi.

Isajon Sulton zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos falsafiy-badiiy tafakkurga ega adib sifatida tanilgan. Uning hikoyalarida real voqealar fonida inson ma’naviyati, ruhiy kechinmalari chuqur tasvirlanadi. Uslubiy jihatdan quyidagi jihatlarni ajratish mumkin:

- **Ichki monolog va psixologik tasvirlar ustuvorligi.** Muallif tashqi voqealarni emas, balki inson qalbida kechayotgan kurashni ko‘rsatishga intiladi.
- **Simvolik obrazlar va falsafiy qatlam.** Ba’zi hikoyalarida real obrazlar orqali ma’naviy ramzlar yaratiladi. Har bir qadam, har bir tafsilot — chuqur ma’no kasb etadi.
- **Minimalizm va liriklik.** Isajon Sulton tili sodda, lekin mazmunan boy. Har bir so‘z, har bir jumla muhim yuk ko‘taradi. Badiiy muhit qisqa tasvirlar orqali ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / materials and methods). Isajon Sulton hikoyalarining badiiy qurilmasi, bayon uslubida xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o‘xshash jabrlangan, sodda, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o‘y-xayollari o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb etadi. Masalan, “Avazboylik tantilar”, “Bibi Salima”, “Shamolli kecha”, “Bog‘i Eram”, “Manzil”, “Qish ertaklari”, “Ona yurt sog‘inchi”, “Toshkelinchak”, “Yusuf va Zulayho”, “Xun”, “Yog‘och kovush” kabi qator hikoyalarida bu badiiy xususiyatlar yarqirab ko‘rinish bergan deyish mumkin.

Isajon Sulton hikoyalarining asosiy badiiy kuchi – inson ichki olamini yoritishdadir. U tashqi harakatdan ko‘ra, qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, fikriy qarama-qarshiliklarini ochishga katta e’tibor qaratadi. Isajon Sulton hikoyalarida oddiy voqealar ortida chuqur falsafiy mazmun yashiringan bo‘ladi. Voqelik ramziy va majoziy yondashuvlar orqali beriladi. Hikoya syujeti ko‘pincha tashqi hodisalardan

emas, balki ichki o‘zgarishlardan, fikr oqimlaridan tashkil topadi.

Muhokama (обсуждение / discussion). Isajon Sulton hikoyalarida syujet murakkab bo‘lmaydi, voqeliklar ko‘p bo‘lmaydi, lekin har bir tafsilot chuqur ma’no beradi. Bu — **minimalistik** yondashuv deb ataladi. Hikoya hajman qisqa bo‘lsa-da, undagi har bir jumla, harakat yoki obraz badiiy va semantik jihatdan muhim yuk ko‘taradi. Adib sodda, silliq, hatto lirik uslubda yozsa-da, bu soddalik ortida falsafiy teranlik, ma’naviy qatlam yotadi.

Isajon Sulton hikoyalarida ko‘p hollarda syujet yoki voqealar biror **ramz** orqali ifodalanadi. Obyektlar, voqealar, qahramon harakatlari oddiy tasvir sifatida emas, balki ichki mazmun, timsol sifatida ishlatiladi.

Isajon Sulton hikoyalarida syujet bir chiziqda harakat qilmaydi. Ba’zida hikoya voqealar zanjiri sifatida emas, balki **lirik-parchanaviy** tarzda beriladi. Ya’ni voqealar ketma-ketligi emas, balki fikrlar oqimi, ruhiy holatlar ketma-ketligi asosida rivojlanadi. Bu esa hikoyani falsafiy essega yaqinlashtiradi. Bunday yondashuv o‘quvchini hikoya ichiga chuqurroq kirishga, uni mulohazalarga chorlaydi.

Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida professor Ziyoning o‘g‘li aytadiki: “...tevaragimiz ramz va timsollarga to‘ladir... (ular) aql qulog‘iga baland ovoz bilan xitob qilib turibdi”. Albatta, har bir mavjudot, xatto bittagina gulni olsak ahm u tinmay Allohga tasbih aytadi “Subhonalloh” deya takror-takror aytadi biz tushunmaydigan tilda. Payg‘ambarimiz (s.a.v) ikkita qabrda azob chekayotgan insonlarning qabriga bir novdani ikkiga bo‘lib sanchadi va shu novda to qurib, tasbihi to‘xtamaguncha ularga yengillik bo‘lishini aytganini bilamiz. Demak aslida tabiatdagi har bir maxluqot Xoliqi buyurgan vazifani bajaradi, faqat insongina bundan mustasno. Biz ramz qilib olayotgan RAMZ ham aslida HIKMATdir.

Natijalar (результаты / results). Isajon Sulton o‘zbek hikoyachiligida o‘ziga xos uslub yaratgan adibdir. Uning hikoyalarida:

- psixologik tahlil va ichki monolog,
- ramziy obrazlar,
- minimalistik yondashuv,
- lirik-falsafiy syujetlar

kabi uslubiy innovatsiyalar asosiy o‘rin tutadi. Bu jihatlar Isajon Sulton hikoyalarini nafaqat shaklan, balki mazmunan ham yangilab, o‘zbek nasrini zamonaviy bosqichga olib chiqdi.

Xulosa (заключение / conclusion). Isajon Sulton o‘z hikoyalarida an’anaviy hikoyachilik chegaralarini kengaytirib, uni **psixologik-falsafiy, ramziy, minimalistik va lirik** yo‘nalishlarda boyitdi. Uning ijodi o‘zbek hikoyachiligiga nafaqat mavzu, balki **uslubiy yondashuv** jihatidan ham yangilik olib kirdi. Bu yangilanishlar zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatini teran tahlil etishga yo‘l ochib berdi.

Xulosa qilib aytganda , yozuvchining asosiy yutug‘i shundaki, qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashda ortiqcha tafsilotlarga berilmaydi va voqealarni hayotiy tasvirlaydi. Hikoyada har bir detal, har bir so‘z asar g‘oyasini, mazmun-mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Adib asar tafsilotlarini shundayligicha emas, badiiyat talablari doirasida tasvirlashga harakat qiladi. Badiiy asarning qiymatini belgilashda undagi har bir katta-kichik tasvirda yozuvchining dalillash mahorati ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Isajon Sulton hikoyadagi har bir detalga ijodiy yondashadi va sayqal beradi. Adibning izlanishlari va uslubiy yondashuvlari zamonaviy adabiyotimiz uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi avlod yozuvchilari uchun ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исажон Султон. Тошкелинчак. / Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги матбаа нашриёт уйи, 2017. 381- б.

2. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. 4-сон.37-45-б.

3. Quronboyev I. O‘zbek hikoyachiligi taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2022.

4. Umarova M. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida psixologik tahlil.“Adabiy jarayon” jurnali, 2021.

5. Sulton I. Qoraqush yulduzining siri. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.

6. Isajon Sulton nasri badiiyati (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar). –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

Munisxon TILAVOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi,
BuxDU o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
e-mail: tilavovamunisxon94@gmail.com

TOHIR MALIKNING “ODAMIYLIK MULKI” ASARINING “TOQATLIGA TOG‘LAR EGAR BOSHINI” BOBIDAGI SO‘ZLARNING LINGVOMA’NAVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada so‘zlarning lingvoma’naviy xususiyatlari, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asaridagi so‘zlarning xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *lingvoma’naviy xususiyatlari, ularning leksik ma’nosi, konnotativ (ya’ni qo‘shimcha) ma’nolari, stilistik ifodaviyligi va milliy-madaniy talqini, konnotativ ma’no, stilistik.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются лингвистические и духовные свойства слов, особенности слов в произведении «Одамилик мульки» Тахира Малика.

Ключевые слова: лингвистические и духовные свойства, их лексическое значение, коннотативные (т.е. дополнительные) значения, стилистическая выразительность и национально-культурная интерпретация, коннотативное значение, стилистическое

Annotation: this article discusses the linguistic and spiritual properties of words, the characteristics of words in the work «Odamiylik mulki» by Tahir Malik.

Key words: *linguistic and spiritual properties, their lexical meaning, connotative (i.e. additional) meanings, stylistic expressiveness and national-cultural interpretation, Connotative meaning, Stylistic*

Kirish. O‘zbek adabiyotining atoqli vakillaridan biri Tohir Malik o‘zining “Odamiylik mulki” asarida milliy qadriyatlar, insoniy fazilatlar, axloqiy me’yorlar va ma’naviy tarbiyani chuqur yoritgan. Asarning har bir bobi muayyan g‘oyaviy yuklama va ma’naviy talqinga ega bo‘lib, ular orqali muallif o‘quvchini chuqur fikrlash, anglash va o‘z ustida ishlashga chorlaydi. Xususan, “Donolik – amal erur” bobida til jihatdan chuqur ma’no qatlamlariga ega bo‘lgan so‘zlar, iboralar va uslubiy vositalar mavjud. Ushbu maqolada ushbu bobdagi so‘zlarning lingvoma’naviy xususiyatlari, ya’ni ularning leksik ma’nosi, konnotativ (ya’ni qo‘shimcha) ma’nolari, stilistik ifodaviyligi va milliy-madaniy talqini tahlil qilinadi.

Asosiy qism.O‘zbek tili dunyodagi eng go‘zal tillar qatorida yetakchilik qiluvchi tillardandir. Undagi har so‘z o‘zigagina xos bo‘lgan benazir ma’no tovlanishlariga ega. Ona tilimizda yaratilgan har bir asar so‘zimiz isboti bo‘la oladi.Bu jihatda eng ilgari turuvchi asar sifatida hech shubhasiz Tohir Malikning “Odamiylik mulki “ asarini aytishimiz mumkin. Yozuvchi ushbu asarning har bo‘limida tilimizdagi so‘zlarning ma’nolarini o‘zgacha hayotiy misollar hamda hadislar orqali isbotlab beradi. Biz kundalik hayotda deyarli farqlamaydigan so‘zlar aslida biz o‘ylagandek ma’noda emas, balki boshqa ma’no va boshqa vaziyatlarda ishlatilishini ta’kidlaydi. Asarning “Donolik – amal erur” bobi ham yuqoridagi fikrlarimiz isboti bo‘la oladi. Ushbu bo‘limda adib “aqlli” va “oqil” so‘zlarini odatda, sinonim sifatida ishlatilishini, lekin bunday emasligini aytadi. Hayotimiz davomida ko‘plab aqlli va ilmli insonlarga duch kelamiz, biroq ularning hammasini ham dono deb hisoblay olmaymiz. Bu o‘rinda asar muallifi dono insonga xos bir qancha sifatlarni sanaydi va barcha ilm egalari ham bunday sifatlarga ega bo‘lavermasligini ta’kidlaydi. Dono inson umri oxirigacha ilm izlaydi,o‘z hayotiy tajribalaridan o‘ziga kerakli xulosalarni chiqaradi va hech qachon kibrga berilmaydi. Donolik faqat ilmga emas, hayot tajribasiga ham bog‘liqligi aytiladi. Yozuvchi fikricha, aql egasi aqlini,ilm egasi ilmini zarur ishlarga yo‘naltira olsagina, uni “dono” deb atash mumkin. Shuningdek, donolikka quyidagicha ta’rif beriladi: “Donolik–aql bilan qo‘lga kiritilgan, kuzatish va tajriba bilan hayotga tatbiq etilgan haqiqatlar yig‘indisi, fikrlarning turmushga uyg‘unlashuvidir”. Soddaroq qilib aytganda, ilm va aqlning amaldagi ko‘rinishi. Shuningdek, dunyoda ilmlar juda ko‘p, dono inson o‘ziga qaysi bilimlar juda zarurligini va qaysilari ikkinchi darajali ekanligini juda yaxshi biladi. Yozuvchi hamma narsani bilishga intilishni hamma sohada chalasavod bo‘lib qolishga o‘xshatadi va shu o‘rinda Aflotun va bir insonning suhbatini keltirib o‘tadi: “Aflotun hakimdan so‘radilar:

– Faylasuf olimsiz. Ayting-chi, shuncha o‘qib, qanday natijaga keldingiz?

– Faqat bir narsani angladim, – deb javob qildilar alloma, – hech narsani bilmas ekanman”. Xuddi shunday, inson qancha ko‘p ilmga intilgani, uni o‘rgangani

sari ilmning naqadar tubsiz ekanligini va tuganmas xazinaligini tushunib boraveradi. O‘zimga zarur bilimlarni egalladim, o‘zim istagan natijaga erishdim, deb to‘xtab qolish dono insonning ishi emas. Zero, ilmli inson aslo kam bo‘lmaydi, unga qancha chuqur kirib borgani sari hayotdagi o‘rni shunchalik yuqorilab boradiki, aslo pasaymaydi.

1. “Donolik – amal erur” iborasining semantik tahlili

Bob sarlavhasi bo‘lgan ushbu ibora o‘zbek tilidagi qadimiy hikmatli iboralardan biridir. “Donolik” so‘zi aql, tafakkur, tajriba bilan yo‘g‘rilgan chuqur fahm-ma’rifatni anglatsa, “amal erur” bo‘lagi donolik faqat so‘z bilan emas, amalda namoyon bo‘lishi kerakligini bildiradi. Bu ibora xalq og‘zaki ijodiga xos tarzda qisqa, lo‘nda va chuqur ma’no anglatadi.

Lingvoma’naviy jihatdan bu ibora:

Konnotativ ma’no: faqat bilish emas, qilmoq lozimligini ta’kidlaydi.

Stilistik jihati: nasihatomuz, ibratli ohangda.

2. Ma’naviy boy so‘zlar va iboralarning qo‘llanishi

Tohir Malikning uslubi o‘zbek tilining boy leksik imkoniyatlaridan samarali foydalanishda namoyon bo‘ladi. U xalq tiliga yaqin, ammo chuqur falsafiy ma’no yuklangan iboralarni ko‘p ishlatadi. Jumladan, bobda quyidagi so‘zlar alohida ajralib turadi:

Toki odam amalda donolik ko‘rsatmasa, donolik so‘zda qoladi – bu yerda “amal”, “ko‘rsatmoq” so‘zlari **harakat**, **ijtimoiy mas’uliyat** ma’nolarini ifodalaydi.

Hikmat egasi bo‘lish – mas’uliyatdir – “hikmat”, “mas’uliyat” kabi so‘zlar **ma’naviy yuklama**ga ega bo‘lib, shunchaki leksik ma’nodan tashqari **axloqiy-ijtimoiy konnotatsiya**ni anglatadi.

Lingvoma’naviy xususiyat: bunday so‘zlar o‘zbek xalqining qadimiy axloqiy dunyoqarashini ifodalaydi, ular ko‘pincha **konnotativ**, ya’ni qo‘shimcha ma’noga ega.

3. Leksik birliklarning stilistik vazifasi

Tohir Malik uslubida **stilistik sinonimlar**, **barqaror iboralar** va **frazeologizmlar** keng qo‘llanadi. Masalan:

Ko‘zga ko‘ringan donishmandlar – bu ibora oddiy “aqlli odamlar” degan iboradan ko‘ra ko‘proq hurmat, obro‘ ifodalaydi.

Yaxshi so‘z – yengil, lekin kuchli – bu yerda **stilistik kontrast** mavjud: “yengil” va “kuchli” so‘zlar qarama-qarshi bo‘lsa-da, ma’nodosh tarzda ishlatilgan, ya’ni **paradoksal** ifoda mavjud.

Bu iboralar **ta’sirchanlik**, **mazmuniy teranlik** va **estetik go‘zallik**ni oshiradi.

4. Milliy-ma’naviy kontekstda ishlatilgan so‘zlar

Asarda ko‘plab so‘zlar xalqona, milliy ma’naviyatga xos tarzda qo‘llangan:

Odob, **hayo**, **vijdon**, **savob**, **gunoh** – bu so‘zlar islomiy-axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning qo‘llanishi ma’naviy talqinga xizmat qiladi.

Ko‘ngil – o‘zbek tilida ko‘ngil so‘zi keng semantik maydonga ega: qalb, niyat, ichki holat, his-tuyg‘u ma’nolarini beradi.

Lingvoma’naviy jihat: bu so‘zlar orqali muallif xalqning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlarini til vositasida ifodalab, asarning g‘oyaviy asosini mustahkamlaydi.

Xulosa.Tohir Malikning “Donolik – amal erur” bobida qo‘llanilgan so‘z va iboralar o‘zbek tilining leksik boyligini, ma’naviy teranligini va stilistik imkoniyatlarini yuksak darajada namoyon etadi. Muallif til vositalarini shunchaki fikr bayon etish vositasi sifatida emas, balki **inson qalbiga ta’sir qiluvchi, ma’naviyatni uyg‘otuvchi kuch** sifatida qo‘llagan. Shu bois, asardagi lingvoma’naviy xususiyatlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki ma’naviyatshunoslik, estetik tafakkur nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, 1978.

3.Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ.Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006.

4. Alijonovna, T. M. (2024). PHRASEOLOGISMS RELATED TO THE WORD USED BY TAHIR MALIK IN “HUMAN PROPERTY”. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, *3*(3), 83-87.

5. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING “ODAMIYLIK MULKI” MATNI TARKIBIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING AYNAN HAMDA OKKAZIONAL O‘ZGARISHLAR ASOSIDA IFODALANISHI. *Development and innovations in science*, *2*(4), 22-26.

6. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING “ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA QO‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI. *Science and innovation in the education system*, *2*(5), 197-203.

7. Yuldasheva D.N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (1-kitob).– Buxoro: Bukhara Hamd Print, 2023.140-b.

8. Yuldasheva D.N., Yusupova A.Sh., Cho‘lliyeva G.T. О невербальных средствах речи// BuxDU Ilmiy axboroti, 2023.–4-son.–108-115-b.

9. Tilavova, M. (2025). EDUCATIONAL VIEWS EXPRESSED IN TAHIR MALIK’S WORK “HUMAN PROPERTY”. *Modern Science and Research*, *4*(3), 256-262.

10. EDUCATIONAL VIEWS EXPRESSED IN TAHIR MALIK’S WORK “HUMAN PROPERTY”https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=f3XCaSkAAAAJ&citation_for_view=f3XCaSkAAAAJ:Y0pCki6q_DkC

Shahnoza GIYAZOVA,
Buxoro shahridagi Prezident maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. BuxDu magistri
giyazovashahnoza@gmail.com

TILAK JO‘RA IJODIDA PEYZAJ SAN’ATI

Annotatsiya: maqolada shoir Tilak Jo‘ra she’rlarida peyzaj san’atining o‘rni, polifunksionallik xususiyati, ramziy tasvirlar, metamorfoza hodisasi kabi tushunchalar tahlil qilinadi. Tilak Jo‘ra o‘z maqsadini, qalb kechinmalarini ifodalashda tabiatga ko‘p murojaat qilgan, shuning uchun lirik qahramonning his-tuyg‘u va kechinmalari tabiat tasviri orqali berilgan parchalar muhokamaga tortiladi.

Kalit so‘zlar: *Tilak Jo‘ra, lirik qahramon, tabiat tasviri, peyzaj, metamorfoza, ramziy ifodalar, tabiat hodisalari va unsurlari, yomg‘ir, oy, tong, polifunksionallik.*

Annotation: the article analyzes such concepts as the role of landscape art in the poems of the poet Tilak Jura, the feature of polyfunctionality, symbolic imagery, and the phenomenon of metamorphosis. Tilak Jura often turned to nature to express his purpose and inner feelings, therefore the fragments in which the emotions and experiences of the lyrical hero are conveyed through the depiction of nature are discussed.

Key words: *Tilak Jura, lyrical hero, depiction of nature, landscape, metamorphosis, symbolic expressions, natural phenomena and elements, rain, moon, dawn, polyfunctionality.*

Аннотация: в статье анализируются такие понятия, как роль пейзажного искусства в стихах поэта Тилак Жура, полифункциональность, символические образы и явление метаморфозы. Тилак Жура часто обращался к природе для выражения своих целей и душевных переживаний, поэтому рассматриваются фрагменты, в которых чувства и эмоции лирического героя передаются через описание природы.

Ключевые слова: *Тилак Жура, лирический герой, описание природы, пейзаж, метаморфоза, символические выражения, природные явления и элементы, дождь, луна, рассвет, полифункциональность*

Tilak Jo‘ra she’riyati o‘ziga xos badiiy tafakkur, rang-barang obrazlar va ramziy ifodalarga boy bo‘lib, shoirning tabiatga bo‘lgan munosabatida peyzaj tasvirlari alohida o‘rin tutadi. Shoir she’rlarida manzara, tabiat tasviri oddiy tasvir emas, balki lirik qahramon ruhiyatining ko‘zgusi, poetik tafakkurning ifoda vositasiga aylanadi. Tilak Jo‘ra ijodini o‘rganishda uning peyzajdan lirikaning mazmunini boyitish, ruhiy holatni aniqlashtirish va ramziy ifodalar yaratish maqsadida foydalanganiga guvoh bo‘lamiz.

Adabiyotshunoslikda peyzaj – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti sifatida qaraladi. “Peyzaj – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon(yopiq makon-interyer) tasviri. An’anaga ko‘ra, peyzaj deyilganda, tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so‘z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Shu ma’noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko‘chasining tasviri ham peyzaj, holbuki ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir”. (Quronov.D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akadem nashr, 2010-yil.400-b. 220-221-b). Peyzaj polifunksionallik xususiyatiga ega. Shoir Tilak Jo‘ra ijodida aynan shu jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Tabiat tasviri 2 xil munosabatda aks etgan:

a) **lirik qahramon ruhiyati bilan uyg‘unlikda**

b) **lirik qahramon ruhiyatiga qarama-qarshi holatda**

Shoir she’rlarida o‘z ruhiy holatiga, maqsadiga qarab tabiatga munosabatini ifodalaydi. Shuning uchun uning ijodida ko‘p murojaat qilingan yomg‘ir, kuz, bulut, shamol, quyosh nurlari, tun kabi tabiat hodisalarini tasvirlashda ham ijobiy, ham salbiy munosabatni kuzatishimiz mumkin. Bu holatni oyga bo‘lgan murojaati orqali tahlil qilamiz

Daryo mavjlari ham tinibdi bu dam,
Keksa tok zangidek ajindor qirg‘oq.
Sarg‘aygan yaproqda titraydi Shabnam,
Mening badanimga kiradi titroq.
To‘lqinli mezondek yirtib tun choking,
Oy bilan jimgina birga oqaman.
Tuyg‘udan nish urib qalbimda yolqin,
Umid bilan derazangni qoqaman.

Ushbu she’rdagi tabiat manzarasi – ruhiy holat aksidir. She’rda peyzaj, ya’ni tabiat manzarasi – shunchaki tasvir emas, balki lirik qahramon ichki dunyosining aksidir. Bu Tilak Jo‘ra ijodiga xos poetik uslubdir. Bu yerda “daryo mavjlari tindi” jumlasi sokinlikni, ehtimol hayotda bir lahzalik to‘xtash, mulohaza, iztirobli sukunatni ifodalaydi. Keksa tok va ajindor qirg‘oq manzarasi orqali vaqt o‘tishi, hayotning tarixga aylangan holati ifodalanadi. Tabiat hodisasi – insoniy tuyg‘ular timsoli sifatida tasvirlanyapti.

Misralardagi yaproq, shabnam, titroq — bular o‘zaro bog‘langan obrazlar. Sarg‘aygan yaproq — vaqt o‘tishi, ayriliq yoki so‘nayotgan tuyg‘ularni anglatadi. Shabnam esa noziklik, mehr, ko‘z yoshi timsoli sifatida tushuniladi. Shabnamning yaproqda titrashi bilan lirik qahramon tanasidagi titroq o‘rtasida bevosita parallellik bor – bu inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rsatadi. Bu satrlarda tun – bu qorong‘ulik, sir, ichki iztirob, yolg‘izlikni bildiradi. Oy bilan oqish – ruhiy oqim, umid va intilish timsolidir. Oy – doimiy kuzatuvchi, darddosh obraz. Bu obrazlar orqali peyzaj nafaqat tasvir, balki falsafiy, ruhiy yuklama vazifani ham bajargan. Ushbu she’rda “oy” bilan ruhan uyg‘unlikni kuzatishimiz mumkin. Yakuniy satrda tabiat obrazlari asta-sekin insoniy tuyg‘ular, harakat va umidga o‘tadi. Deraza – ichki va tashqi dunyo o‘rtasidagi chegara, o‘tkazuvchi nuqtadir. Uni “qoqish” – bu yaqinlikka, tuyg‘ularga, samimiyatga chorlovdir.

Tilak Jo‘ra bu she’rida peyzaj elementlarini (daryo, qirg‘oq, yaproq, shabnam, tun, oy) faqat tasvir uchun emas, balki inson qalbidagi iztirob, umid, sevgi, yolg‘izlik kabi murakkab kechinmalarni ifodalashda poetik vosita sifatida ishlatgan. Tabiat manzarasi va insonning ichki dunyosi bir-birini to‘ldiradi – bu esa peyzaj lirikasining yuksak namunasidir. Adabiyotshunoslikda peyzaj lirikasi tushunchasi ham mavjud bo‘lib, “tavsifiy lirikaning bir turi, lirik qahramonning his-tuyg‘u va kechinmalari tabiat tasviri orqali ifodalangan asarlar. Peyzaj lirikasida tasvirlangan tabiat manzarasida lirik qahramon qalbi suratlanadi, lirik subyekt qalbidan o‘tkazib berilgan manzara oniy kayfiyatning obraziga aylanadi. Shu ma’noda, peyzaj lirikasida tabiatni tasvirlash maqsad emas, balki bir vositadir”(Quronov.D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akadem nashr, 2010-yil.400—221-b. Tilak Jo‘ra o‘z maqsadini, qalb kechinmalarini ifodalashda tabiatga ko‘p murojaat qilgan, shuning uchun bu she’riy parchalarni peyzajli lirikaning yorqin namunalari deya olamiz.

Endi esa boshqa bir she’ri orqali tabiat unsuri – oyga nisbatan salbiy munosabatini tahlil qilamiz.

Tuyg‘ulardan ko‘zim qamashib,
Uzoq yillar kuyladim oyni.
Ilon kabi ul ham chirmashib,
Tuyg‘ularday avradi meni

Oy ham bugun begona menga,
Begonadir osmon ham, axir.
Umidimday suyandim tongga,
Bu tonglarki, yilt etgan shamshir.

She’rda ko‘zga tashlanadigan birinchi jihat — peyzaj obrazlarining lirik qahramon ruhiy holati bilan bog‘liqligidir. Shoir oy, osmon, tong kabi tabiat unsurlarini insoniy holatlarning ramziga aylantiradi. Bu manzara tabiiy holatda emas, balki subyektiv (ichki) holatda tasvirlanadi. Dastlabki misralarda “oy” — shirin orzular, ilhom, ruhiy oshuftalik ramzi sifatida kirib keladi. Keyingi satrlarda bu oy, unga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgaradi. Shoir “oy”ni endi ilonga qiyoslaydi. Bu — metamorfoza: ilgari ilhom manbayi bo‘lgan oy, endi lirik qahramonni chulg‘ab olgan, “avrab qo‘ygan” yovuz timsollardan biriga aylanadi. Peyzaj manzarasi endi go‘zallik emas, balki

tashvish, begonalik, ichki xotirjamlikning yo‘qligi manzarasiga o‘tadi. Bu misralarda oy va osmon kabi odatda taskin beruvchi, sokin va do‘stona obrazlar begonalashadi. Bu begonalik — ichki dunyo iztiroblarining tashqi manzaraga ko‘chishi bo‘lib, tashqi tabiat obrazlari orqali ichki iztirob ifodalanadi.

Lirik qahramonning ko‘ngli oydin emas, u ruhiy yakka. Peyzaj endi sokinlik emas, balki tushkunlik, adashuv, zohiriy narsalarga aldanish kayfiyatini aks ettiradi.

Tilak Jo‘raning ko‘plab she’rlarida “tong” so‘zi, odatda, yangi kun, umid, yashash istagi, maqsadlari sari eltuvchi vosita timsoli sifatida tilga olingan. Ammo bu yerda ushbu hodisa “yilt etgan shamshir”ga qiyoslanyapti — bu esa lirik qahramon hayotidagi og‘riqli, tashvishli kunlarni ifodalaydi. Bu o‘zgarish orqali peyzaj san’atidagi ramziy tushunchalar buziladi: tong — endi najot emas, jarohatlovchi kuchga aylanadi. Bu holat lirik qahramonning ishonchsizlik va ruhiy tushkunlik holatida ekanidan dalolat beradi.

Tilak Jo‘ra ushbu she’rida peyzaj san’atini an’anaviy go‘zallik yoki manzara sifatida emas, balki ruhiy holatlarning in’ikosi tarzida qo‘llaydi. “Oy”, “osmon”, “tong” obrazlari real tabiat manzarasi bo‘lishdan chiqib, ramziy va hissiy vositalarga aylanadi. Bu vositalar yordamida shoir:

– ichki kechinmalarning tashqi aksini yaratadi;

– peyzaj san’atiga psixologik va dramatik ma’no yuklaydi;

– o‘quvchini ruhiy iztirob va hijron kechinmalariga olib kiradi.

Tilak Jo‘ra she’riyatida peyzaj ko‘pincha statik emas, balki dinamik tusga ega. Tabiat manzarasi voqealar rivoji bilan birga ifodalanadi va lirik kayfiyatning o‘zgarishlarini aks ettiradi. “Bahor” she’rida bu, ayniqsa, yaqqol seziladi: bahorning yangilanishi, gullar ochilishi, issiqlik bilan to‘lgan tabiat manzarasi orqali lirik qahramonning ichki uyg‘onishi, umid va hayotga bo‘lgan ishonchi ifodalanadi. Biroq bu she’rni to‘laqonli peyzaj lirikasiga kiritish mushkul, chunki unda tabiat tasviri shunchaki manzara emas, balki falsafiy va hissiy burilishlarga turtki beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Tilak Jo‘raning poeziyasi – peyzaj detallari orqali falsafiy fikr beruvchi lirika namunasi sifatida ajralib turadi. Shoir tabiat hodisalarini nafaqat tashqi go‘zallik sifatida, balki inson hayoti, ruhiy holati, mavjudlik, yolg‘izlik, muhabbat, o‘tkinchi dunyo kabi abadiy mavzularni ifodalashda badiiy vosita sifatida ishlatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Жўраев Т. Сайланма. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2011.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Fan, 2007.228-b.
3. Quronov.D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug’ati. –Toshkent: Akadem nashr, 2010-yil.400-b.
4. Қуронов Д. Талқин имкониятлари. –Т.: Турон замин зиё, 2015.213-б.
5. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. –Т.: Bookmany-print, 2022. 257-б.
6. Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Т.: Янги аср авлоди, 2002.156-б.

Nigora XAYTALIYEVA,
Nizomiy nomidagi MPU "O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi" kafedrasi o‘qituvchisi
nsxaytaliyeva@gmail.com

90-YILLAR SHE'RIYATIDA POETIK TASVIR VA RAMZIYLIK
(Farida Afro‘z va Qutlibeka Rahimboyevaning she'riyati misolida)

Annotatsiya: maqolada 90-yillar o‘zbek ayol shoirlari ijodida poetik tasvir va ramziylik masalalari yoritilgan. Farida Afro‘z va Qutlibeka Rahimboyeva she'riyati misolida lirik "men"ning shakllanishi, milliy ruh va falsafiy mushohadalarning ifodalanishi, folklor an'analari hamda yangicha poetik izlanishlar tahlil qilingan. She'rlarda erkinlik, muhabbat, Vatan va insoniy tuyg‘ular poetik ramzlar orqali ifodalanib, o‘ziga xos badiiy uslub namoyon bo‘lgani ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *90-yillar she'riyati, poetik tasvir, ramziylik, lirik "men", milliy ruh, poetik idrok, badiiy uslub.*

Annotation: the article discusses the issues of poetic imagery and symbolism in the work of Uzbek female poets of the 1990s. Using the example of the poetry of Farida Afroz and Kutlibeka Rakhimbaeva, the formation of the lyrical "I", the expression of the national spirit and philosophical observations, folklore traditions and new poetic research are analyzed. It is shown that freedom, love, homeland and human feelings are expressed through poetic symbols in the poems, and a unique artistic style is manifested.

Key words: *poetry of the 1990s, poetic imagery, symbolism, lyrical "I", national spirit, poetic perception, artistic style.*

XX asrning 90-yillari o‘zbek shoiralari she'riyatning yuksak ijtimoiy missiyasi borligini his qilib ijod etishgan. Bu davrdagi badiiy tafakkur milliy koloritga boyligi bilan ajralib turadi. Unda milliy ong, his-tuyg‘ular, tafakkur va qarashlar o‘z aksini topgan. Bu davr ayol shoiralarda poetik tilga e'tibor kuchaydi. Mafkura zug‘umidan qutilgan ijodkor rangin o‘y-xayollarini butun murakkabligi bilan ifodalashi uchun milliy tilning hissiylik, bo‘yoqdorlik, obrazlilik, aniqlik, ramziylik, tagma'nolilik singari bir dunyo imkoniyatlaridan foydalana bilishi zarur edi. Shunga erishilsagina ijodkorning bitganlari o‘quvchilar qalbini rom etardi.

Shuningdek, bu davrdagi ayol shoiralar kuchli ruhiy kechinma, cheksiz xayolot parvozi, adoqsiz fantaziya va aniq tasavvur qudrati kabi sifatlarga ham ega edilar. Bunday xislatlarning mavjudligi poetik tasvirning ta'sirchan va yuqumli bo‘lishiga olib kelardi.

Shu ma'noda shoira Farida Afro‘z she'riyatini o‘ziga xos mushohadalar, boy poetik ma'nolar va falsafiy xulosalarga ega ijod namunasi deb qarash mumkin. Shoiraning "Qirq kokilligim" (1986), "Iztirob ko‘ylagi" (1990), "Tunlar isyoni" (1994), "Ko‘zim manim" (1999), "O‘zimdan o‘zimgacha" (2001) kabi she'riy to‘plamlari chop etilgan. Uning poetik so‘zga, she'rga ulkan mas'uliyat hissi bilan qarashi:

She'r –
Hayratlar vulqoni,
Sachragan joyni kuydirguvchi...
Yetmish ikki tomiringdan
Sizgan,
Seni devonayu,
abgor qilgan
dardlaringdir bu – she'r

tarzidagi poetik iqrorida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shoiraning "O‘zimdan o‘zimgacha" she'rlar to‘plamidan joy olgan she'rlarda ijodkorning ichki "men"i bo‘rtib turadi, borliq va qalb munosabatlari in'ikosi o‘ziga xos tarzda aks etadi. O‘z nomiga munosib bu kitobda o‘zligini axtarayotgan ijodkorning qalb tug‘yonlari haqqoniy aks etadi:

Nima bo‘lsa-bo‘ladi, endi,
Sensizlikka ko‘nmaydi yurak.
Ishqing – hayot, tomirga indi,
Endi sira o‘lmasam kerak.

Shoiradagi o‘ychan qat'iyat she'rdan she'rga dinamik ravishda o‘sib boradi. Endi u o‘ziga "boshqacha yashashni boshlash kerak", degan talabni qo‘yadi. "Vijdonni o‘ziga shior qilib olgan dil" o‘rni kelsa, hatto "oshnolaridan" ham voz kecha olishi kerak:

Oshnolarim baridan kechdim,
Tashlab ketdi ular ham bir-bir.
Misli karvon, itlar akillar,
It tilida gaplashmoq og‘ir.

O‘zi bo‘lishga, o‘zi va o‘zligi bilan yuzma-yuz qolishga intilgan shoiraning nazdida "qalb o‘z-o‘zini anglab yetmog‘i" kerak. Shu bois, eng avvalo, qalblarni muzayyan etmoq istagan Farida Afro‘z so‘zning ilohiy qudratiga ishonadi va bitganlariga ana shunday ma'nolar bo‘lishini istaydi:

Xudoning dargohi So‘zdan munavvar,
Faqat So‘z mangudir, faqat So‘z uyg‘oq!

Farida Afro‘z milliy she'riyatni "fiqra", "tasbeh" kabi yangi poetik janrlar bilan boyitdi. O‘ziga xos qalb to‘qinishlarini aks ettiruvchi "fiqra"larda insonning she'rga sig‘magan lirik kechinmalari mo‘jaz shaklda

ifodalangan. Odatdagi she'riy unsurlardan xoli bu bitiklar qalbda ro'y bergan kechinmalar nozik va fasohatli tarzda ifodalaydi. "Ko'ngli cho'kkan odamning yelkasida tog' uxlaydi", – deydi bir fiqrasida. She'riy unsurlar yaqqol ko'rinib turmagan bo'lsa-da, bu bitikda ijodkorning borliqqa samimiy munosabati poetik aks etadi. Har qanday insonni mushohadaga chorlaydigan ushbu so'zlar o'quvchini loqaydlikdan chiqargani, borliqqa ramz bilan qarashga undagani bilan she'rdir.

F. Afro'zning tasbehlari yapon xokkularini eslatadigan uchlik. Lekin ularda xokkular singari qat'iy poetik o'lchamlarga amal qilinmagan. Ularga xos asosiy jihat hayot hodisalari va inson ruhiy dunyosidagi betakror holatlarni muhrlashdan iborat.

Chivin menga hech kim bo'lmaydi,
Qonim ichdi o'zi. Na iloj?
Qondoshingni o'ldirib bo'lmas .

Insonlar o'rtasidagi munosabatlarning bu qadar chigal va tushunarsizligini bundan ham esda qolarliroq ifodalashning qiyinligi bitikka poetik martaba baxsh etadi.

Shoira botinidagi besarhad kengliklarda mehrga tashnalik ruhi yashaydi. Dunyolarga to'ymagan ayol qalbi ozgina e'tibor, ozgina mehrga limmo-lim to'ladi. Shu bois ham Farida Afro'z insonni "mo'jizalar kaliti" deb biladi, uning yorug' kelajagiga katta umid bilan qaraydi. F. Afro'z she'riyati chin ma'noda Sharq she'riyati buloqlaridan bahra oladi, shu bois uning bitganlarida Jaloliddin Rumiy isyoni ham, Takuboku va Saygyoning fasohati ham, Shams Tabriziy o'ktamligi ham barq uradi. Bu ajib garmoniya nafosatli dinamik bog'lanishga ega. Shoira ijodidagi nekbinlik, poetik idrokni his qilish va talqin etishdagi betakrorlik uning ijtimoiy yo'nalishdagi bitiklarida ham ko'zga tashlanadi.

Turon zamin momomning mahri,
Tuprog'ingda hamon tong zahri,
Bardoshlarning toshdiku nahri,
Mudroq elim, uyg'on, ko'zing och,
Vatan sening mehringga muhtoj,
Istiqloling boshingga gultoj.

Jamiyatning ijtimoiy-madaniy harakati davomida ijodkorlarda poetik idrok u yoki bu darajada shakllanib borar ekan, o'zgarish har narsadan oldin ijodkor "men"ida paydo bo'ladi. Lirik "men" kuchli ruhiy, analitik mushohadalar tevaragida sayqallanadi. F. Afro'z ijodi ana shu "men"ning tinimsiz izlanishlari va donishmandona hikmatlari hosilasidir.

Poetik idrokdagi bu kabi tadrijiy taraqqiyot mahsulini shoira Qutlibeka Rahimboyevaning ijodida ham kuzatish mumkin.

Ko'ylaklarim og'ir – qiygim kelmaydi,
Qushlarning ko'ylagin kiygim keladi.
Muhabbat ko'ngilga kelgan shul kecha.

Ishq, qachonki, nafsoniy xohishlardan ustun, pokiza bo'lsagina, lirik "men"ning maqomi ham baland bo'ladi. Bu "men" qushlardek yuksaklarga parvoz qilishga shay, uchqur, oy-yulduzlar bilan sirlashadi. Shoir tabiatga xos jihatlarni insonga ko'chirganiday, "Yulduzlar uchiga tegib, tilinib, hijjalab o'rgansam qadim tilimni" deya badiiy obraz yaratadi. Bu esa juda katta estetik salmoqqa ega. Qutlibeka ijodida poetik idrok namoyon bo'lishining yana bir qirrasi uning tili xalq tiliga nihoyatda yaqinligi, she'rlarida xorazmcha shirinkomalardan unumli foydalanishidir:

Gullar yo'la qarasin,
"Yor vormi"dan so'rasin,
Manim birgina jonim
Qaysi darda yarasin?

Bu satrlardagi yengil yumor hissi, nozik qochirimlar, ohangdorlik she'r ruhiyatiga o'zgacha havo olib kirgan.

Poetik idrokda folklor ruhi aks etishi ham ta'sirchanlikni oshiradi. Yana bir narsani unutmaslik kerakki, bir mavzuga har bir shoir o'zicha yondashadi, zero, "shoirlar bir davrda, bir xil sharoitda ijod qilishlari mumkin, lekin hech qachon bir xil ijod qilishmaydi, chunki har bir odam alohida shaxs"dir. Birgina, erk, millat, Vatan kabi serqatlam tushunchalar Halima Xudoyberdiyevada eng muqaddas qadriyatlar hisoblansa, Qutlibeka Rahimboyevaning nazdida "ozodlik, erk" – "yaralmishlar shohidir".

Ojizlarning ohisan,
Ko'nglinda titrog'isan.
Botirlarning yaqini,
Ayrilmas o'rtog'isan!
Yoki:
G'alati o'larkan ozod insonlar,
Go'zal bo'lar ekan o'limlari ham...

Qutlibeka Rahimboyevaning lirik "men"i nihoyatda baland sarhadlarda hayot kechiradi. Uning ko'ngil kengliklarida, erk so'zi "baxt" so'zidan ham buyuk jaranglaydi. Shu bois shoira erkni "yaralmishlar shohi" deb ataydi. Uning individual uslubida bekanor ko'ngil olamining yangi ufqlarini, tuyg'u-kechinmalarning yangi-yangi sahifalarini, qalbning yangi sarhad va qatlamlarini tadqiq etishga safarbarlik mavjudligi bois o'quvchi ma'naviy dunyosini boyitadi, hissiy idrok ranglarini, tafakkur ma'nolarini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afro'z F. Yomg'ir – mening sog'inch yoshlarim. // Qalb ko'zi, 1998. 24 (125) son. 1-bet.
2. Afro'z F. O'zimdan o'zimgacha. – T.: Yozuvchi, 2001. 11-12-14-55-28-b.
3. Qutlibeka. Ozodlik. – T.: Yozuvchi, 1997.
4. Kojinov V.V. Kak pishut stixi. – M.: Prosvesheni, 1970. – St.46.

Nigora BAFOYEVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: bafoyevanigora@buxdpi.uz
Mohina AKBAROVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi, 2-kurs talabasi
E-mail: akbarovam295@gmail.com

ABDULLA QODIRIY OCHERKLARI VA HIKOYALARIDAGI TOPONIMLARNING USLUBIY-SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning ocherk va hikoyalarida uchraydigan toponimlar va ularning ma’nosi, tarixi haqidagi ma’lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *toponim, toponimika, gidronomiya, oronomiya, oykonimiya, polinimiya, mikrotoponimiya, etnotoponim, antroponim.*

Annotation: this article analyzes the toponyms found in the essays and stories of Abdulla Qodiriy, as well as information about their meaning and history.

Key words: *toponym, toponymy, hydronomy, oronomy, oikonomy, polynymy, microtoponymy, ethnotoponymy, anthroponymy.*

Аннотация: в статье анализируются топонимы, встречающиеся в очерках и рассказах Абдуллы Кадыри, а также приводятся сведения об их значении и истории.

Ключевые слова: *топоним, топонимия, гидрономия, орономия, ойкономия, полинимия, микротопонимия, этнотопонимия, антропонимия.*

Inson narsalarga nom qo‘ymasdan yashay olmaydi. Dunyodagi hamma narsaning nomi bor. Nomlar bir narsani ikkinchi narsadan farq qilishga yordam beradi. Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg‘ani boshqa bir jilg‘adan, bir ko‘chani yonidagi ko‘chadan, tog‘-adirlani, shahar va qishloqlarni bir-birlaridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o‘ylab chiqargan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani o‘rganadi. Toponimika yunoncha topos – joy va onoma (yoki onima) – nom so‘zlaridan tarkib topgan [1;36].

Joy nomlari, ya’ni toponimiya bir necha turga bo‘linadi. Bular: gidronomiya (yunoncha gidro – suv), ya’ni daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalar nomlari, masalan Amudaryo, Chotqol, Zarafshon, Sirdaryo; oronimiya (yunoncha oros – tog, ya’ni yer yuzasining relyef shakllari – tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari, Hisor-Oloy tog‘lari, Hisor, Zarafshon, Turkiston tizmalari; oykonimiya (yunoncha oykos – uy), polinimiya (yunoncha polis – shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos – shahar), ya’ni qishloq hamda shaharlaming nomlari, Buxoro, Toshkent, Choch, Xiva, Zomin; mikrotoponimiya (yunoncha mikros – kichik), ya’ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, ariqlar, dalalar, o‘tloqlar daraxtzorlar, jarlar, yo‘llar, ko‘priklar va hatto atoqli otga ega bo‘lgari ayrim daraxtlar nomlari, masalan Toshqo‘rg‘on arig‘i, Oqtepa dahasi, Chinorbog‘. Bundan tashqari, turli xalq, urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha etnos – xalq) deyiladi. Masalan, Barlos, Kaltatoylar, Musobozorlar, Qo‘ng‘irotlar, Mo‘g‘ullar. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar (yunoncha antropos – odam) deb atash mumkin[2;27]. Masalan, Barens dengizi, Beruniy shahri, Yekaterinburg shahri, Islom Karimov ko‘chasi, Laptevlar dengizi, Kuk bo‘g‘ozi, Navoiy viloyati va shahri, Sharof Rashidov tumani, Chelyuskin burni, Mikluxa-Maklay qirg‘og‘i, Xabarovsk shahri kabilar.

Abdulla Qodiriyning kichik epik asarlari, aniqrog‘i, hikoya va ocherklarida ham toponimlar qatlami o‘ziga xos uslubiy xususiyatga ega.

Toponimiyaning mavzu guruhlaridan oykonimlar boshqa guruhlarga qaraganda adibning kichik epik asarlarida ko‘proq uchraydi.

Otam 1242 hijriy - 1823 milodiy yillari Toshkentda tug’ilib, alhol, 99-100 yoshlaridadir. Salimsoqbek (bu zot Buxoro amiri tomonidan Toshkent bekligiga qo’yilgan edi. Otam piskentlik Qashqar amiri mashhur Yoqubbekni Qashqarga kuzatgan. (“Otam va bolshevik”, 27- bet).

Toshkent toponimi – oykonimga mansub bo‘lib, ko‘p adabiyotlarda “Tosh Shahar” deb izohlanadi. Shu so‘zda ma’lum ma’noda shahar tarixi ham o‘z aksini topgan. Shahar hududida tosh asriga oid buyumlar uchragan. Toshkentdagi qabristonlardan birida topilgan *hafitjo‘sh* (bronza) ko‘zgular, turli mamlakatlarning tangalari shaharning kamida 2000 yillik tarixidan darak beradi.

Buxoro nomi – (xitoycha Buxo) ilk bor xitoylik mashhur Syuan Szanu (630-yillar atrofida) tomonidan tilga olinadi. Akademik V.V. Bartold kabi ko‘pchilik olimlar ham, nemis olimi V.Tomashek Buxoro nomini sanskritcha vixara so‘ziga olib borib taqashadi va u “buddizm cherkovi” ma’nosini ifodalashini qayd etishadi.

Qashqar – Qoshg‘ar (Xitoy manbalarida Kashi, Kashig‘er) — XXRning g‘arbiy qismidagi shahar. Sin’szyan-Uyg‘urda (Sharqiy Turkiston)da, Tarim vohasining shimoli-g‘arbida Qizilsuv daryosi sohilida joylashgan. Mazkur toponim “qosh toshi (nefrit) koni” degan ma’noni anglatadi. Aholisi 400 ming kishidan ziyod (2005). Qadimdan Buyuk ipak yo‘lidagi chorraha va yirik savdo markazi bo‘lib kelgan. Movarounnahr, Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlarga qatnovchi karvonlar Qashqar orqali o‘tgan. Qashqar ko‘hna va yangi shahar qismlariga bo‘linadi. Me’moriy obidalari va turar joy binolari Toshkentning eski va yangi qismlariga o‘xshash.

Kalvak Mahzumning xotira daftarida ham oykonimga mansub geografik joy nomlari uchraydi. Mahalla nomlari ham aholi yashaydigan joy bo‘lganligi uchun oykonimdir.

Xalifai Rumning sarbozlari inglizlarni bilodi Rumdan surub Istombul shahriga kirib, barqaror bo’lubdirlar. Ispolkovnining oldidan Xadraga qarab yurmakchi bo’lg’on edim, “lop” etib, bir ish esimga tushdi-da, Mahsido’z mahallasiga burildim.

(“Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, 33-34- betlar).

Rum – qadimda ayrim Sharq mamlakatlarida Rimning, keyinchalik Rim imperiyasining keng tarqalgan nomi. Kichik Osiyo saljuqiylar tomonidan bosib olingan davrda Rum nomi bilan atalgan (shundan Saljuqiylar yoki Kuniya sultonligining boshqa nomi – Rum sultonligi olingan). Usmonli turklar Vizantiyani bosib olgach, Bolqon yarim orolidagi viloyat shu nom bilan atala boshlagan[3;56].

Istombul – Istanbul (yun. Konstantinopol) – Turkiyadagi eng katta shahar, Istanbul elining ma’muriy markazi. Istanbul Marmardengizi va Bosfor bo‘g‘ozining past-baland sohillarida joylashgan. Bo‘g‘oz shaharni ikkiga — Osiyo (kichikroq qismi) va Yevropa qismiga bo‘lib turadi. Yevropa qismi Oltin Shoh qo‘ltig‘i sohillarida joylashgan. 1970-1972 yillarda Bosfor bo‘g‘oziga Istanbulning har ikkala qismini birlashtiradigan ko‘prik qurilgan. Istanbga mil. avv. 660-yilda Vizantion shahri sifatida asos solingan. 330-yildan Rim imperatori Konstantin nomi bilan atalgan. 395-yilgacha Rim imperiyasi tarkibida, 395–1453-yillar Vizantiya poytaxti. 1453 yilda Istanbul turklar tasarrufiga o‘tgan va Usmonli turklar saltanatining poytaxtiga aylantirilgan; o‘sha vaqtdan shahar Istanbul deb atala boshlangan.

Xadra – Shayxontohur dahasidagi mahallalardan biri, endilikda eski shaharning markaziy maydoni. Tarixchi Y.G‘.G‘ulomov va folklurshunos H.T.Zaripovning fikricha, haddi roh “yo’ling chekkasi, chegarasi” , ya’ni shaharning chekkasi degan ma’noni anglatadi. Tilshunos F.A.Abdullayev esa xadra “notekis, past-baland adirlik (yer) demakdir” deydi.

Mahsido‘z mahallasi – kishilarning xo’jalik faoliyati bilan bog’liq ijtimoiy-iqtisodiy oykonim bo’lib, Sebzor dahasi mahallalaridan biri hisoblanadi.

Abdulla Qodiriyning ocherklar to‘plamining bosh sahifasi “Tarjimayi holim” da “Shosh” geografik joy nomi uchraydi.

Padari marhumimiz Shosh shahrining zabardast ulamolaridan Mullo Mirzasarimsoq Oxund domlayi Hojil haramain al-sharifindandirlar. (“Tarjimai holim”, 40- bet).

Shosh – Choch tarixiy viloyatining arabcha atalishi. Choch hozirda Toshkent nomi bilan yuritiladi.

Al-javob inastki, avvalo otash arobaga o’lturirsiz, so’ngra Adasga borursiz, ba’dazon Manbay, ba’dazon Shomi sharif, ba’dazon Popur, so’ngra bedav xalqining yurti, ba’daz bevosita Arabiston! (“Avvali ilm kadomast, oxiri ilm kadomast”, 48-bet).

Adas – Toyloq tumanidagi qishloqlardan biri. Toponimist olimlarning qayd qilishlaricha, kenagas urug’ining bir tarmog’i andas deb ataladi. Andas keyinchalik adas bo‘lib ketgan.

Bombay, Manbay, Mumbay – (Mumba ma’budasi nomidan) - Hindistondagi shahar. Maharashtra shtatining ma’muriy markazi (1960-yildan). Hindistonning g‘arbiy qirg‘og’i yaqinidagi Bombay va Solsett orollarida joylashgan, ko‘prik va ko‘tarmalar bilan materikka tutashgan.

Kofir shariatni bilmasa, yo’l - yo’riqqa tushunmasa, zako’n kitobiga qarab rioya- yu andishasiz shartta Sibirga hukm qilsa, nima qilur erding ? (“Kalvak Mahzumdan idoramizga ochiq xat”, 59- bet).

Sibir – Rossiya Federatsiyasi Osiyo hududining katta qisimidagi tabiiy o‘lka. G‘arbda Ural tog‘lari, sharqda Tinch okean suvaiyrg‘ichi tog‘ tizmalarigacha va shimolda Shimoliy Muz okeani qirg‘oqlaridan, janubda Qozog‘istonning sertepa dashtlari hamda Mongoliya va Xitoy chegarasigacha davom etadi.

Abdulla Qodiriy kichik epik asarlarida toponimlardan mohirona foydalana olgan hamda joy nomlari orqali ularning tarixiga ham keng izoh berilgan. Toponimlarining semantik-uslubiy xususiyatlari hikoya va ocherklarning badiiy salmog‘ini oshirishga xizmat qilgan. Bu tipdagi toponimlar asar g‘oyasini ochib berish va davr ruhini tasvirlashda o‘ziga xos vosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qorayev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti , 2006-yil, 5-105-betlar.
2. Qilichev E. O‘zbek tili onomastikasi. O‘quv qo‘llanma. –T., 2004.27- bet.
3. Xudoyberganov. R. Y., Uluqov. N. va boshq. O’zbekiston joy nomlarining izohli lug’ati, – T., 2022- yil. 13-476-betlar
4. Bafoyeva, N. (2025). THE RELATIONSHIP OF PERSONAL NAMES TO THE VOCABULARY LAYER IN THE NOVEL “DAYS GONE BY”. *TAMADDUN NURI JURNALI*, *1*(64), 305-308.
5. Statistical analysis of the onomastics of the work “Days gone by” by Abdulla Kadiri NB Azimova American Journal of Philological Sciences 4 (02), 79-86
6. Kilichev B.E. Buxoro viloyati toponimlarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. dok. (DSc). disser. – Buxoro, 2024. – 244 b.

Sayat AVEZKLYCHEVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Turkman tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

“DAVLATYORBEK” DOSTONIDA MAQOLLARNING BERILISH XUSUSIYATI

Annotatsiya: G‘urbanali Mag‘rupiyning “Davlatyorbek” dostonida xalq og‘zaki ijodining yuksak namunalaridan biri bo‘lgan maqollardan keng foydalanilgan. Asarda maqollar voqealarning mazmunini ochishda, qahramonlarning xarakterini yoritishda hamda milliy ruhni kuchaytirishda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek: maqol, xalq og‘zaki ijodi, doston, badiiy vosita, milliy ruh.

Аннотация: в поэме Гурбанали Магрупия «Давлатёрбек» широко использованы пословицы как важное средство художественного выражения. Пословицы помогают раскрыть содержание событий, подчеркнуть характеры героев и усилить национальный дух произведения, отражая богатство устного народного творчества.

Ключевые слова: пословицы, устное народное творчество, поэма, художественное средство, национальный дух.

Annotation: in Gurbanali Magrupiy’s poem Davlatyorbek, proverbs are widely employed as a key artistic device. They enrich the narrative, reveal characters’ traits, and emphasize national spirit. The use of proverbs highlights the deep connection between oral folk traditions and literary creativity, enhancing both thematic depth and cultural value of the work.

Key words: proverbs, oral folklore, poem, artistic device, national spirit.

Turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodi azaldan milliy ma’naviyatimizning asosi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, dostonchilik an’analari xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi, orzu-intilishlari va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etib, avloddan-avlodga yetib kelmoqda. Ana shunday bebaho adabiy meros namunalari orasida G‘urbanali Mag‘rupiy ijodining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning mashhur “Davlatyorbek” dostoni nafaqat badiiy jihatdan, balki ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlari bilan ham xalqimiz orasida keng tarqalgan. Ushbu doston xalqning hayotiy tajribasi, ezgu orzu-armonlari va axloqiy qarashlarini aks ettirishda xalq maqollaridan keng foydalanganligi bilan e’tiborga molikdir.

Maqollar xalq donishmandligi, hayotiy tajriba va ijtimoiy xulosalarning ixcham shaklda ifodasi sifatida qadrlanadi. Har bir maqolda xalqning ko‘p asrlik hayotiy kuzatuvlari, ijtimoiy munosabatlarga bergan bahosi, axloqiy me’yorlari mujassam bo‘ladi. Shu bois maqollar badiiy adabiyotda ham asar mazmunini chuqurlashtirish, qahramonlarning xarakterini ochib berish va voqealar rivojini yanada ta’sirchan qilishda muhim vazifani bajaradi. G‘urbanali Mag‘rupiy “Davlatyorbek” dostonida maqollardan foydalanib, asar qahramonlari hayoti va taqdirini xalqona tasvirlashga erishgan. Bu esa dostonni xalq ruhiyatiga yanada yaqinlashtirgan, uni oddiy kitobxon uchun ham tushunarli va ta’sirchan qilgan.

Dostonning asosiy mazmuni Davlatyorbek ismli qahramon hayoti, uning kurashlari va insoniy fazilatlari atrofida shakllanadi. Qahramon obrazini yaratishda muallif xalq maqollariga murojaat etib, uning donishmandligi, jasorati va sabr-toqati kabi sifatlarini yorqin ochib beradi. Masalan, adolat, sadoqat, mardlik va mehnatsevarlik haqidagi maqollar dostonda voqealar ketma-ketligi va qahramonlarning xatti-harakatlariga uyg‘un tarzda singdirilgan. Natijada, asar o‘zining badiiy-estetik qimmati bilan birga, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.[5: 56,80]

Qur’oni Karimda ham xalqni donolik va ezgu maslahatga chorlash alohida ta’kidlanganidek, maqollar dostonlarda xuddi shunday vazifani bajaradi: ular hayotiy saboq beradi, jamiyat uchun muhim bo‘lgan ma’naviy mezonlarni mustahkamlaydi. Shu bois Mag‘rupiy asaridagi maqollarni faqatgina badiiy bezak sifatida emas, balki xalqning tarbiyaviy qarashlarini yorituvchi, milliy g‘oyani mustahkamlovchi vosita sifatida baholash lozim.

Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodini, xususan maqollarning badiiy adabiyotdagi qo‘llanishini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, maqollar milliy tafakkurni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. “Davlatyorbek” dostonini tahlil qilish jarayonida maqollarning nafaqat san’atkorlik mahorati, balki ularning xalq ruhiyati va dunyoqarashidagi o‘rni ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, mazkur dostonni o‘rganish, undagi maqollarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyatini yoritish ilmiy jihatdan katta qimmatga ega.

G‘urbanali Mag‘rupiyning “Davlatyorbek” dostonida uchraydigan maqollar xalq og‘zaki ijodining muhim qatlamini tashkil etadi. Ular asarda voqealar rivojini ta’sirchan qilish, qahramonlarning xarakterini ochish

va milliy tafakkurni ifodalashda asosiy badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Quyida berilgan maqollar lotin yozuvida keltirilib, ularning asosiy xususiyatlari yoritib beriladi:

“Qiyomatga qolmas.” – bu maqol xalqning adolatga ishonchini ifodalaydi. Har qanday ish oxir-oqibat haqiqat yuzasidan hal bo‘lishini anglatadi. [2:28]

“Or kuydi, imon ketdi.” – Axloqiy qadriyatlarga urg‘u beruvchi maqol bo‘lib, or-nomus va imon xalq uchun eng muhim mezon ekanini ko‘rsatadi. [2:28]

“Tavakkal nar bular, andisha maya.” – Tavakkal qilish va ehtiyotkorlik o‘rtasidagi muvozanatni ifodalovchi hikmat. [2:32]

“Botirning o‘zidan oldin xabari boradi.” – Qahramonning shijoati, dovyurakligi butun elga tez tarqalishini ta’kidlaydi. [2:32]

“Xabarni so‘rasalar ayt.” – Ochiqlik, to‘g‘rilik va rostgo‘ylikni targ‘ib etuvchi maqol. [2:33]

“Urushning kengashi bo‘lmas.” – Mojaro va jang oldida kelishuvning qiyinligini bildiruvchi hikmat. [2:34]

“Xudo bersa qo‘liga, olib kelib qo‘yar yo‘liga.” – Qismat va taqdirga ishonchni ifodalaydi. [2:35]

“Bergandan ol, urg‘andan qoch.” – Odamlarga munosabatda ehtiyotkorlikni targ‘ib etadi. [2:41]

“O‘g‘il elga tortar.” – O‘g‘il bolalarning millat, el-yurt sha’nini saqlovchi timsol ekanini bildiradi. [2:50]

“Eski dushman do‘st bo‘lmas.” – Adovatning kuchli ekanini va uni yengish qiyinligini ifodalovchi xalqona hikmat. [2:64]

“Yag‘idan yoy bo‘yi.” – dushmandan uzoq turishni anglatadi. [2:65]

“Ming qayg‘u bir ish bitkazmas.” – g‘am-tashvish insonni ojiz qilib, natijaga olib kelmasligini ko‘rsatadi. [2:28,74]

“Yaxshidan shafoat, yomondan kasofat.” – Yaxshi odamdan yaxshilik, yomon odamdan yomonlik kelishini bildiruvchi hikmat. [2:28,74]

“Ot oyoqdan ma’lum bo‘lur, er kilikdan.” – Insonning asl tabiatini uning xatti-harakatidan bilish mumkinligini ta’kidlaydi.[7: 75, 132,150]

“Misrda shox bólgandan, Kangonda gado ból”- o‘zga yurtda yaxshi yashagandan o‘z yurtingda gado bo‘l degan tushunchani anglatadi. [2:275]

Bunaqa maqollardan dastonda minglab keltirilgan. Ushbu maqollar xalq donishmandligi va hayotiy tajriba mahsuli sifatida dostonda qahramonlarning taqdirini yoritishda qo‘llangan.

Ular tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarni or-nomus, imon, sabr-toqat va vatanparvarlikka chorlaydi.

Badiiy vosita sifatida maqollar dostonga xalqona ruh, milliy qadriyat va ta’sirchanlik baxsh etgan.

Maqollar orqali muallif voqealarga hayotiy haqiqatni singdirgan, kitobxon uchun asarni yanada tushunarli va qiziqarli qilgan.

Xulosa qilib aytganda, G‘urbanali Mag‘rupiy ijodiga mansub “Davlatyorbek” dostonida xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lgan maqollar keng qo‘llanilib, asarning badiiy-estetik qiymatini yanada boyitadi. Har bir maqol o‘zida xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasini, ma’naviy qarashlarini va axloqiy mezonlarini mujassam etadi. Ushbu maqollar dostonning syujeti, qahramonlarning xarakteri va voqealar rivojini chuqurroq ochishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Doston tarkibida berilgan maqollar nafaqat badiiy bezak, balki xalqning tarbiyaviy hikmatlari va axloqiy qadriyatlarini targ‘ib etuvchi manba sifatida ham ahamiyatlidir. Masalan, or-nomusni ulug‘lash, sabr-toqat, mardlik, do‘stlik va dushmanlikka munosabat kabi g‘oyalar maqollar orqali xalqona ifodalangan.Shu jihatdan asar o‘zining ma’naviy va ma’rifiy qimmati bilan yosh avlod tarbiyasida ham muhim o‘rin tutadi.[9: 59,85]

Umuman olganda, “Davlatyorbek” dostonidagi maqollar turkman xalqining donishmandligini, madaniy merosini va milliy tafakkurini yoritishda beqiyos o‘rin egallaydi. Ular nafaqat doston mazmunini boyitgan, balki xalq ruhiyatini ifoda etgan holda milliy o‘zlikni mustahkamlashga ham xizmat qilgan. Shu bois Mag‘rupiy ijodidagi maqollarni o‘rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki xalq og‘zaki ijodi, tarbiya va milliy g‘oya tadqiqotlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mag‘rupiy G‘. “Davlatyorbek” dostonidan parchalar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1984. 64–75-betlar.
2. Гурбаналы –Магрупы. Довлетяр (дессан) «Туркменистан» нешириаты. Ашгабат 1978.28-80-betlar
3. Jo‘raev T. O‘zbek xalq dostonlari poetikasi. – Toshkent: Universitet, 2001. – 120–145-betlar.
4. Shomusarov Sh. Maqollar va ularning badiiy adabiyotdagi o‘rni. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 56–80-betlar.
5. Rahmonov N. Xalq og‘zaki ijodining janrlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2005. – 98–110-betlar.
6. Yo‘ldoshev Q. Dostonchilik va xalq ijodi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2012. 43–67-betlar.
7. Karimov M. O‘zbek maqollari va ularning semantik tahlili. – Toshkent: Fan, 2010. 75–102-betlar.
8. Qo‘shjonov M.Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.132–150-betlar.
9. To‘rayev A. O‘zbek xalq ijodiyotida axloqiy qarashlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.59–85-betlar.

Jamila BADALOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti

BIOGRAFIK DRAMALARDA QAHRAMON TIMSOLI
(ABDULLA QAHHOR OBRAZI MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada biografik dramalarda qahramon timsoli masalasi Abdulla Qahhor obrazi misolida o‘rganilgan. Adibning hayoti va ijodiy faoliyati, uning shaxsiy qiyofasi hamda dramaturgiya janrida aks ettirilishi tahlil qilinadi. Biografik dramalardagi obraz yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro aloqasi, shuningdek, adib timsoli orqali milliy ruhiyat va davr ruhi ifodasining san’atkorona talqini ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *biografik drama, qahramon timsoli, Abdulla Qahhor, dramaturgiya, badiiy talqin, milliy ruh, obraz, adabiyot, millat, jamiyat.*

Annotation: this article examines the portrayal of the protagonist in biographical dramas, using the example of Abdulla Qahhor. The writer’s life and creative work, his personal character, and its representation in the genre of dramaturgy are analyzed. The article explores the distinctive features of character creation in biographical dramas, the interrelation between historical truth and artistic fiction, as well as the artistic interpretation of national mentality and the spirit of the era as expressed through the writer’s image.

Key words: *biographical drama, protagonist’s image, Abdulla Qahhor, dramaturgy, artistic interpretation, national spirit, character, literature, nation, society.*

Аннотация: в данной статье рассматривается проблема создания образа героя в биографических драмах на примере образа Абдуллы Каххара. Анализируются жизнь и творческая деятельность писателя, его личностные характеристики и их отражение в жанре драматургии. Исследуются особенности создания образа в биографических драмах, взаимосвязь исторической достоверности и художественного вымысла, а также мастерство художественной интерпретации национального менталитета и духа эпохи через образ писателя.

Ключевые слова: *биографическая драма, образ героя, Абдулла Каххар, драматургия, художественная интерпретация, национальный дух, образ, литература, нация, общество.*

Kirish. Adabiyotning yirik janrlaridan biri bo‘lgan biografik drama insoniyat tarixida o‘ziga xos badiiy-estetik hodisa sifatida shakllangan bo‘lib, unda tarixiy shaxslar, buyuk allomalar va ijodkorlarning hayoti hamda faoliyati sahna orqali tomoshabinga yetkaziladi. Biografik dramalarda qahramon timsolini yaratish jarayoni oddiy badiiy obraz yaratishdan farq qiladi, chunki u nafaqat individual qiyofani, balki millatning, davrning, ijtimoiy-madaniy manzarasini ham aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Qahhor obrazi o‘zbek dramaturgiyasi uchun beqiyos ahamiyatga ega.

XX asr o‘zbek adabiyotida realizmning yirik vakillaridan biri bo‘lgan Abdulla Qahhor hayoti va ijodi xalq ruhiyatini, milliy qadriyatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni badiiy talqin qilishda muhim o‘rin tutadi. U o‘z asarlarida o‘zbek xalqining ma’naviy dunyosini, orzu-armonlarini, ijtimoiy illatlarini realistik ruhda tasvirlab, adabiyotda yangicha badiiy tafakkurni shakllantirdi. Shuning uchun ham uning shaxsi va ijodiy merosi biografik dramalarda talqin etilishi tabiiydir.

Biografik dramalarda Qahhor timsolini sahnaga olib chiqish orqali yozuvchining insoniy fazilatlari, ijodiy qarashlari, adolat va haqiqat uchun kurashchanligi namoyon etiladi. Bu esa tomoshabinga nafaqat san’atkor shaxsini, balki o‘z davrining ruhini ham his qilish imkonini beradi. Shu bois Abdulla Qahhor obrazining biografik dramalarda talqin etilishi o‘zbek teatr san’ati rivojida alohida ilmiy va badiiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Biografik dramalarda qahramon timsolini yaratish jarayoni adabiyotshunoslik va teatrshunoslikda eng murakkab vazifalardan biri sanaladi. Chunki muallif dramatik asar vositasida tarixiy shaxs yoki ijodkorning hayotini sahnaga olib chiqarkan, u nafaqat tarixiy haqiqatga sodiq qolishi, balki badiiylik mezonlarini ham hisobga olishi lozim bo‘ladi. Shu jihatdan Abdulla Qahhor obrazining biografik dramalarda gavdalanishi dramaturgiya janrida milliy o‘zlik, davr ruhi va shaxsiy qismat uyg‘unligini ifodalashning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Abdulla Qahhor hayoti va ijodi o‘zbek xalqining XX asrdagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotini aks ettiruvchi manba sifatida qimmatlidir. U adabiyotga o‘ziga xos realizm ruhini olib kirdi, xalqning orzu-intilishlari, ijtimoiy illatlari va ma’naviy iztiroblarini samimiy va haqqoniy tarzda tasvirladi. Ayniqsa, “Sarob”, “Sinchalak”, “O‘tmishdan ertaklar” kabi asarlarida adib o‘zbek jamiyatidagi ziddiyatlarni ko‘rsatib berdi. Biografik dramalarda Qahhorning shaxsiy qiyofasi hamda ijodiy faoliyatini sahna tasviriga ko‘chirish, avvalo, uning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar bilan chambarchas bog‘lanadi.

Dramalarda yozuvchining bolalik yillari, o‘qishga bo‘lgan qiziqishi, adabiyotga kirib kelish jarayoni, ijodiy qiyinchiliklari, adolat va haqiqat yo‘lida chekkan azob-uqubatlari badiiy vositalar orqali ifodalanadi. Qahhor timsolida xalq dardini o‘z qalbidan o‘tkazgan, millatning ma’naviy uyg‘onishiga xizmat qilgan ziyoli shaxs gavdalanadi. Bunda dramaturg muallif qiyofasini idealizatsiya qilmasdan, balki insoniy kamchiliklari, hayotiy qarama-qarshiliklari bilan birgalikda tasvirlaydi. Bu esa qahramonning yanada jonli, real va ishonarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Shuningdek, biografik dramalarda Qahhor obrazini yaratishda davrning siyosiy sharoiti ham alohida o‘rin tutadi. Sovet davri mafkurasi, senzura va adabiyot ustidan nazorat sharoitida ijod qilgan yozuvchi ko‘p hollarda o‘z qarashlarini badiiy ramzlar orqali ifodalashga majbur bo‘lgan. Bu holat dramalarda yozuvchining ichki iztiroblari, ruhiy kurashlari orqali ochib beriladi. Qahhorning insoniy fazilatlari, adolatparvarligi, haqiqatgo‘yligi, xalqiga mehr-muhabbati uning dramatik obrazini yanada teranlashtiradi.

Biografik dramalarda muallif shaxsiy taqdir va tarixiy jarayonlarni uyg‘unlashtirib, tomoshabinga ikki qirrali manzarani taqdim etadi: bir tomondan, Qahhorning insoniy qiyofasi, ikkinchi tomondan esa o‘z davrining murakkab ijtimoiy-siyosiy manzarasi. Natijada sahna asari orqali tomoshabin yozuvchi hayotini nafaqat individual biografiya sifatida, balki millat tarixining bir bo‘lagi sifatida idrok etadi.

Biografik dramalarda Abdulla Qahhor timsolini sahnaga olib chiqish o‘zbek adabiyoti va teatr san’atida bir necha muhim natijalarga olib keladi. Avvalo, yozuvchi obrazi orqali millat ma’naviy xotirasi qayta jonlanadi, uning hayoti va ijodi zamonaviy avlod uchun badiiy-estetik darslik vazifasini o‘taydi. Qahhor shaxsiy qismati va adabiy merosi dramatik talqinda tasvirlanar ekan, tomoshabin nafaqat yozuvchini, balki o‘z tarixini, davrining ijtimoiy-siyosiy manzarasini ham ko‘ra oladi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, biografik dramalarda Qahhor timsolini yaratishda uch asosiy yo‘nalish kuzatiladi: birinchidan, uning bolalik va yoshlik davri, o‘zbek adabiyotiga kirib kelish jarayoni, ikkinchidan, ijodiy faoliyati va adabiyot orqali xalq dardini ifodalashga bo‘lgan intilishi, uchinchidan, sovet mafkurasi sharoitida ijodiy va insoniy sinovlardan o‘tgan shaxsiyati. Ushbu yo‘nalishlarning uyg‘unligi dramatik obrazni yanada mukammal qiladi.

Qahhor obrazining biografik dramalarda gavdalanishi, bir tomondan, tarixiy haqiqatni tiklash, ikkinchi tomondan esa badiiy to‘qima orqali uning insoniy qiyofasini chuqurroq yoritish imkonini beradi. Bu jarayonda yozuvchining ijodiy merosidan iqtiboslar, uning asarlaridagi g‘oyalar, adabiy qarashlar va hayotiy sharoitlar o‘zaro uyg‘unlashadi. Shuningdek, dramaturg shaxsiy iztirob va kurashlarni sahna vositalari bilan ochib berar ekan, Qahhor timsoli orqali o‘zbek xalqining adolat, haqiqat va ma’naviy poklikka intilishlarini ham ifodalaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, biografik drama janri Qahhor obrazini talqin etishda ikki asosiy vazifani bajaradi: birinchidan, yozuvchini milliy qahramon sifatida ko‘rsatadi, ikkinchidan, uning hayoti va ijodi orqali tomoshabinlarda milliy ruh, tarixiy xotira va ma’naviy saboq uyg‘otadi. Demak, Abdulla Qahhor timsoli biografik dramalarda nafaqat adabiy-estetik qahramon, balki xalq ruhiyatining ramziga aylangan san’atkorona obrazdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, biografik dramalarda qahramon timsolini yaratish masalasi badiiy-estetik, tarixiy va ma’naviy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda tarixiy shaxsning hayoti bilan bir qatorda millat xotirasi va davr ruhi ham ifodalanadi. Abdulla Qahhor obrazi misolida bu jarayon o‘zbek dramaturgiyasi uchun beqiyos tajriba vazifasini bajaradi. Chunki Qahhor obrazi tomoshabinga oddiy yozuvchi yoki adib sifatida emas, balki xalq dardini o‘z qalbidan o‘tkazgan, millatning ma’naviy uyg‘onishiga xizmat qilgan ziyoli qiyofasida taqdim etiladi.

Biografik dramalarda yozuvchining shaxsiy taqdiri, ijodiy faoliyati va ijtimoiy kurashlari badiiy vositalar orqali ifodalanib, uning obrazida insoniylik, adolatparvarlik, haqiqatgo‘ylik va millatparvarlik fazilatlari ochib beriladi. Natijada Qahhor timsoli sahna vositasida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va avlodlar ongida ma’naviy saboq uyg‘otish imkonini beradi.

Shu bois Abdulla Qahhor timsolining biografik dramalarda badiiy talqini nafaqat o‘zbek teatr san’ati uchun, balki milliy adabiyot va madaniyatimiz tarixida ham alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon Qahhor shaxsiyatini ramziy darajaga ko‘tarib, uni xalq ruhiyatining ajralmas bir qismi sifatida tomoshabin qalbiga yaqinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yaxshiboyev, M. (2021). *Abdulla Qahhor – kichik hikoyalar ustasi*.).journal.jdpu.uz
2. Musurmonova, G., & Hayitmurodova, O. (2025). *Abdulla Qahhor hikoyalarida o‘zbek xalqining ma’naviy-ruhiy qiyofasi*. **ZDIFT**, 4(18), 27-29. Zenodo.
3. Sharibjonova, X. A. qizi. (2022). *Abdulla Qahhor asarlarida insoniy tuyg‘ular ulug‘lanishi*. **Eurasian Journal of Academic Research**, 2(5), 107-110. Zenodo.
4. Matjanov, S., & Baltabayeva, D. (2024). *Abdulla Qahhor asarlarida maqol va matallarning qo‘llanishi*. **Multidisciplinary Journal of Science and Technology**, 3(6), 226-229. MJST Journal.

Maftuna SATTOROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MILLIY G‘URUR TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy g‘urur tushunchasining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Milliy g‘urur – millatning o‘ziga xosligini, tarixiy va madaniy merosini qadrlash hamda o‘zligini anglash bilan bog‘liq murakkab psixologik va ijtimoiy jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda milliy g‘ururning shakllanishi, uning ijtimoiy funksiyalari, shuningdek, milliy g‘ururning yoshlar ongidagi o‘rni va uning milliy birdamlikni mustahkamlashdagi roli muhokama qilinadi. Nazariy asoslarda milliy g‘urur konsepsiyasi, millatchilik va vatanparvarlik tushunchalarining farqlari hamda ularning jamiyat rivojiga ta’siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *milliy g‘urur, millat, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, madaniy meros, milliy birdamlik.*

Annotation: in this article, the theoretical foundations of the concept of national pride are analyzed. National pride is considered as a complex psychological and social process associated with appreciating the uniqueness of the nation, valuing its historical and cultural heritage, and recognizing its identity. The study discusses the formation of national pride, its social functions, as well as its role in the consciousness of youth and in strengthening national unity. Within the theoretical framework, the concept of national pride, the differences between nationalism and patriotism, and their impact on the development of society are examined.

Key words: *national pride, nation, national identity, patriotism, cultural heritage, national unity.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы понятия национальной гордости. Национальная гордость рассматривается как сложный психологический и социальный процесс, связанный с осознанием самобытности нации, ценностью её исторического и культурного наследия, а также с осознанием собственной идентичности. В исследовании обсуждаются формирование национальной гордости, её социальные функции, а также её роль в сознании молодёжи и в укреплении национального единства. В теоретических основах рассматриваются концепция национальной гордости, различия между национализмом и патриотизмом, а также их влияние на развитие общества.

Ключевые слова: национальная гордость, нация, национальная идентичность, патриотизм, культурное наследие, национальное единство.

Kirish. Milliy g‘urur – bu shaxs yoki jamiyatning o‘z millatiga, uning tarixiy o‘tmishiga, madaniyatiga, tiliga, an’analariga va umumiy ijtimoiy-huquqiy tizimiga bo‘lgan iftixor va hurmat hissi. Milliy g‘urur – shaxsning o‘zligini anglashning, millatga tegishlilikning va shu millatdagi o‘z o‘rnini qadriga yetishning ijtimoiy-psixologik ifodasidir.

Milliy g‘urur tushunchasini turli xilda talqin qilishimiz mumkin va ularning har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega. Milliy g‘urur millatni yagona ijtimoiy birlikka aylantirishda asosiy omil hisoblanadi. Insonlar o‘rtasida o‘zaro mehr-oqibat tuyg‘usi kuchayadi. Millatni mustahkamlash va uning suverenitetini himoya qilishda kuchli motivatsiya vazifasini bajaradi. Tarixiy va madaniy merosni saqlash hamda rivojlantirishda asosiy vositadir. Shaxslarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda yordam beradi.

Tahlil va natija. Milliy g‘urur tushunchasi bir nechta asosiy nazariy tomondan tahlil qilinadi:

1. *Millatchilik nazariyasi.* Millatchilik – millat manfaatlarini yuqori qo‘yish, millatning o‘zligini himoya qilish va rivojlantirish harakati. Milliy g‘urur millatchilikning ijtimoiy-psixologik bazasi hisoblanadi. Bu nazariyadan asosiy e’tibor millatchilikda milliy g‘urur millatning tarixiy

yutuqlari, madaniyati va tiliga bo‘lgan iftixorni kuchaytiradi. Ushbu nazariyaning ijobiy jihati millatni birlashtiruvchi kuch bo‘lib, mustaqillik harakatlarida va milliy o‘zlikni qayta tiklash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Va shu bilan bir qatorda mazkur nazariyaning salbiy jihati haddan tashqari millatchilik ksenofobiya, irqchilik va boshqa millatlar bilan ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

2. *Benedikt Andersonning “Tasavvur etilgan jamiyatlar” nazariyasi.* Millat – bu real jismoniy uchrashuvsiz, bir-birini bilmagan odamlarning o‘zlarini yagona jamoa sifatida tasavvur qilishlari natijasida vujudga kelgan ijtimoiy konstruksiya. Milliy g‘urur shunday tasavvurga asoslangan va millatni “tasavvur etilgan jamiyat” sifatida birlashtiradi. Millat o‘z tarixiga, madaniyatiga va tiliga bo‘lgan ijobiy hissiyot orqali mavjudlikni saqlaydi. Milliy g‘urur millat a’zolari orasidagi o‘zaro bog‘liqlik va birlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

3. *Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi (Henri Tajfel va Jon Turner).* Shaxs o‘zini ijtimoiy guruh a’zosi deb hisoblab, o‘sha guruhga bog‘lanish orqali o‘zligini anglaydi. Milliy g‘urur shaxsning o‘z millati bilan ijtimoiy identifikatsiyasining natijasi sanaladi. Guruhlararo taqqoslash (shu jumladan millatlararo) milliy g‘ururni kuchaytiradi, shaxs o‘z millatini boshqa millatlardan yuqori baholashi mumkin. Bu jarayon shaxsning o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshiradi va jamiyat ichida o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

4. *Madaniy qadriyatlar va tarixiy xotira.* Milliy g‘ururning shakllanishi millatning madaniy va tarixiy merosiga chuqur bog‘liq. Madaniyat – til, san’at, urf-odatlar, an’analar va diniy e’tiqodlar – milliy g‘ururning manbai hisoblanadi. Tarixiy xotira va milliy tarixiy yutuqlar (masalan, mustaqillik uchun kurash, buyuk shaxslar, urf-odatlar) esa millat a’zolarining o‘ziga bo‘lgan iftixorini mustahkamlaydi. Shu bilan bir qatorda milliy bayramlar, madaniy marosimlar ham o‘z o‘rnida milliy g‘ururni targ‘ib qiladi.

5. *Psixologik yondashuvlar.* Milliy g‘urur shaxsning o‘zligini anglash va ijobiy o‘z-o‘zini baholashning bir qismi sifatida qaraladi. Milliy g‘urur shaxsga ma’naviy barqarorlik va ichki kuch beradi. Shaxs milliy guruhga tegishli ekanligini his qilishi va o‘zligini ijobiy tarzda baholashi uning psixologik salomatligiga ta’sir qiladi. Shu jumladan milliy g‘urur – shaxsning o‘zligini himoya qilish mexanizmi sifatida ham ishlaydi.

6. *Sotsiologik yondashuvlar.* Milliy g‘urur jamiyat ichidagi birlikni va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilinadi. Jamiyat milliy g‘urur orqali o‘z a’zolarini birlashtira olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Milliy g‘urur siyosiy birlik bilan birgalikda mustaqillikni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Milliy g‘urur bo‘lmagan jamiyatlarda ijtimoiy ziddiyatlar va parchalanish xavfi oshadi.

Milliy g‘ururning shakllanishida bir nechta omillarning ahamiyatli o‘rni mavjud. Quyida ushbu omillarning ta’siri haqida keltirilgan:

Tarixiy omillar: millatning tarixdagi qahramonliklari, mustaqillik uchun kurashlari, buyuk shaxslar faoliyati.

- Millatning tarixiy urf-odatlari va marosimlari.

Madaniy omillar: milliy tilning saqlanishi va rivojlanishi.

- Milliy san’at, musiqa, adabiyot, kino va boshqa madaniy ko‘rsatkichlar.
- Milliy bayramlar, urf-odatlar, an’analar.

Siyosiy omillar: mustaqillik, suverenitet va milliy suverenitetga bog‘liq siyosiy jarayonlar.

- Millat qurilishi jarayonlari va davlat siyosati.
- Siyosiy liderlar tomonidan milliy g‘ururni rag‘batlantirish.

Ijtimoiy omillar: oila va ta’lim tizimida milliy qadriyatlarning o‘rgatilishi.

- Ijtimoiy guruhlar va millat ichidagi umumiy identifikatsiya.
- Milliy matbuot va ommaviy axborot vositalarining roli.

Psixologik omillar: shaxsning millatga bo‘lgan shaxsiy hissiyoti.

- O‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy identifikatsiya jarayoni.

Milliy g‘ururning zamonaviy kontekstdagi o‘rni ham bir qancha. Masalan, globallashuv va milliy g‘ururni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Bunda global dunyoda milliy g‘urur millatning o‘ziga xosligini saqlash vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi va shu bilan bir qatorda globallashuv oqibatida yuzaga kelayotgan

madaniy birlashuvlarga qarshi milliy o‘zlikni himoya qilish mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Yoki milliy g‘urur va siyosiy jarayonlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, mustaqil davlatlar uchun milliy g‘urur siyosiy barqarorlikning poydevori sanaladi va eng asosiysi milliy g‘urur siyosiy harakatlar va milliy o‘zlikni mustahkamlashda qo‘llaniladi. Keyingi o‘rinda ijtimoiy integratsiya va milliy g‘urur tuyg‘usining bog‘liqlik jihatlarini ko‘rib shunday xulosaga kelish mumkin: milliy g‘urur ijtimoiy integratsiyaning vositasi sifatida xizmat qiladi va shu bilan bir o‘rinda millat ichida turli etnik va madaniy guruhlarni birlashtiradi.

Milliy g‘urur asosan, ijobiy va ijtimoiy birlashtiruvchi kuch sifatida e’tirof etiladi, biroq uning haddan tashqari yoki noto‘g‘ri shakllari ayrim hollarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu holatlarda milliy g‘urur jamiyatda mojarolar, ziddiyat va ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytiruvchi omilga aylanishi mumkin. Haddan tashqari milliy g‘urur (millatchilik) ksenofobiya, irqchilik va millatlararo ziddiyatlarga olib kelishi mumkin va bu holat ijtimoiy barqarorlikni buzishi, siyosiy va ijtimoiy mojarolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, milliy g‘urur – bu murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-psixologik fenomen bo‘lib, u shaxsning o‘z millatiga bo‘lgan ijobiy his-tuyg‘ulari, iftixori va hurmatidan tashkil topadi, millatchilik, ijtimoiy identifikatsiya, madaniy qadriyatlar va tarixiy xotira kabi ko‘plab nazariy yondashuvlar orqali izohlanadi. Milliy g‘urur jamiyatning birligini ta’minlash, millatni mustahkamlash va madaniy merosni saqlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy dunyoda u millatni globallashuv bosqichida o‘ziga xosligini saqlash vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Biroq milliy g‘ururning noto‘g‘ri shakllanishi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojiyeva, D., & Shabbazova, D. (2023). MILLIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH VA INTEGRATSIYALASH. 2023 10-iyun.
2. Sattorova, M. A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishning ahamiyati. International Journal of Artificial Intelligence, 4(09), 566–568. 2024.
3. Sattorova, M. A. Tarbiya fani orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy g‘ururni shakllantirishning ahamiyati. Ta’lim, fan va innovatsiya. 6-son, 2024
4. Сатторова, М., & Ергашова, М. (2025). THEORETICAL FOUNDATIONS OF EDUCATING YOUTH AS WELL-ROUNDED INDIVIDUALS IN THE CONTEXT OF INDEPENDENCE. Международный мультидициплинарный журнал исследований и разработок, 1(3), 201-203.
5. Sattorova, M. A., & Ziyaqulova, M. S. (2025). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MUTAFAKKIRLAR MEROSI ORQALI MULOQOT MADANIYATI VA MILLIY G ‘URUR TUYG ‘USINI SHAKLLANTIRISH. Inter education & global study, (4), 517-524.
6. Abdisamatova, D. (2024). MODELLASHTIRISH ASOSIDA ONA TILI DARSLARIDA DALOGLI MULOQOT MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. Наука и инновация, 2(38), 158-160
7. Sattorova, M. A. Ta’lim jarayonida aralash ta’lim texnologiyalarini qo‘llash usullari. Ta’lim, fan va innovatsiya, 99–101. 2022.

Dilnoza RAKHIMOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
ingliz tili o‘qituvchisi

RUS VA CHET EL ADABIYOTSHUNOSLIGIDA JANR POETIKASIGA OID ILMIY ASARLAR

Annotatsiya: epistolyar asarlar butun dunyo adabiyotshunoslarida katta qiziqish uyg‘otadi. Shuni ta’kidlash kerakki, maktublar dastlab adabiyot va adabiy asarlar bilan bog‘lanmagan, u odamlar o‘rtasidagi muloqot usuli bo‘lgan. Shu munosabat bilan adabiyotda epistolyar janr tushunchasi aynan ilm-fan rivojlangan davrda, XVIII asrlarda kirib kelgan. Ko‘pgina tadqiqotchilar ularni muallifning tarjimai holi sifatida ko‘rib chiqish kerak deb hisoblashgan. Masalan, fikricha ba’zi maktublar yozuvchilarning boshqa bir iqtidorini ochishga, ular bilan kitobxonlar o‘rtasidagi muloqotning ochiqligini ta’minlashga xizmat qilgan.[1]

Kalit so‘zlar: *epistolyar asar, politematik tur, ingliz protestantizmi, rim katolisizmi, ateizm.*

Аннотация: эпистолярные произведения вызывают большой интерес у литературоведов всего мира. Следует отметить, что письма изначально не были связаны с литературой и литературными произведениями, а являлись способом общения между людьми. В связи с этим понятие эпистолярного жанра вошло в литературу именно в период развития науки, в XVIII веке. Многие исследователи считали, что их следует рассматривать как биографии автора. Например, по мнению некоторых, отдельные письма служили для раскрытия иного таланта писателей, обеспечивая открытость общения между ними и читателями.

Ключевые слова: *эпистолярное произведение, политематический тип, английский протестантизм, римский католицизм, атеизм.*

Annotation: epistolary works arouse great interest among literary scholars worldwide. It should be noted that letters were not initially connected with literature and literary works; they were a method of communication between people. In this regard, the concept of the epistolary genre in literature emerged precisely during the period of scientific development, in the 18th century. Many researchers believed that these letters should be considered as autobiographies of the author. For instance, some letters served to reveal another talent of writers and to ensure open communication between them and readers.

Key words: *epistolary work, polythematic type, English Protestantism, Roman Catholicism, atheism.*

1 Аверинцев, С. С. Риторика и истоки европейской литературной традиции. – М., 1996. С. 199.

Ingliz yozuvchilarining epistolyar durdonalari **rus olimlaridan** A.A.Elistratova, N. Yakonova, I.O.Shaytanov, K.Karri, K.Kleyn, B.Golberg, L.Pratt kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bu asarlar xilma-xil tematik xususiyatga ega bo‘lib, siyosat, falsafa, din, madaniyat va ijodkorlik haqidagi ma’lumotlarni, dunyoning ma’lum bir manzarasini aks ettiradi. Epistolyar manbalar orqali ingliz jamiyatining turli davrlardagi rivojlanish bosqichlari va maishiy hayotini, shuningdek, yozuvchilarning tarjimai holi va shaxsiyatini baholash mumkin.

T.V.Tsivyan ta’kidlaganidek, ingliz epistolyar nasri inson va uning muhiti o‘zaro ta’sirini tasvirlash yoki bu o‘zaro ta’sirni tahlil qilish bilan tavsiflanadi. [2] N.V.Dominenko ingliz epistolyar asarlarini mono va politematik turlarga bo‘lib

2 Цивьян Т. В. Лингвистические основы балканской модели мира / Т. В. Цивьян. – М., 1990. – С. 5.

o‘rganishni taklif qiladi[3] L. Morozova fikricha, ingliz mualliflari asarlarining aksariyati politematik xususiyatni aks ettiradi, chunki yozuvchilar o‘z asarlarida ingliz jamiyati hayotining barcha nozik tomonlarini, his-tuyg‘ularini va hissiyotlarini aks ettirishga harakat qilganlar[4]. D.S.Nalivayko epistolyar asarlar murakkab tuzilishga ega ekanligini ta’kidlasa, N.I. Belunova politematiklik epistolyar janr yozuvchilarining o‘ziga xos xususiyati deb hisoblaydi.[5]

Demak, olimlarning yuqoridagi fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, politematik tabiat yozuvchining o‘z asarida imkon qadar ko‘proq narsani aytib berish, o‘quvchi e‘tiborini jalb qilish, asarni yanada yorqinroq va hissiyotli qilish imkonini bera olishini kuzatish mumkin. Asosiy mavzular mualliflarning shaxsiy kechinmalari, ularning ijodiy yo‘li bosqichlari, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy masalalarni qamrab oladi.

Angliyada epistolyar asarlar yozilgan davrning o‘ziga xos xususiyatlari ularning mazmunida iz qoldirgan va shuning uchun asarlarda mamlakat siyosiy hayotining tavsifi muhim o‘rin tutadi. Bu xususiyat P.B.Shelli asarlarida yaqqol ko‘rinadi [6]. Yozuvchi siyosiy hayot doirasida erkinlik, vatan, demokratiya, urush, inqilob va hokazolar haqida o‘z fikrlarini erkin bildiradi. Siyosiy voqealar hayotning diniy-falsafiy jihatlariga ta’sir qilgan, bu epistolyar adabiyotda ham o‘z aksini topgan.

P.B.Shelli, U.Vortsvort, R.Sauti, S.T.Koldrij, D.G.Bayron, D.Kits kabi yozuvchilar o‘z maktublarida ko‘plab falsafiy va diniy masalalarni muhokama qilganlar. Bu jihatlar I. G. Neupokoeva, N. A. Dyakonova, K. A. Shaxova, D. S. Nalivaiko ilmiy tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotchilar mualliflar e’tiqod mavzusini, unga bo‘lgan munosabatni yoritganini, shuningdek, cherkov tizimini tanqid qilganini ta’kidlaydilar. N.V.Dominenko ta’kidlaganidek, V. Vorsvort ingliz protestantizmi haqida yozgan, D. G. Bayron rim katolisizmini, R. Sauti va S. T. Kotrij unitarizm haqida, P. B. Shelli esa ateizm masalasini yoritgan[7].

Demak, fikrimizcha, adabiy ijod va yozuvchilarning bu boradagi shaxsiy tajribasiga oid mavzularni muhokama qilish epistolyar manbalarning muhim jihati bo‘lgan. Asarlarda shuningdek, boshqa mualliflar asarlarining tavsifini, ularga bo‘lgan munosabatni ko‘rish mumkin. Har bir muallif ushbu mavzuni turli yo‘llar bilan aks ettirgan, bu esa har xil individual yozish uslublarini keltirib chiqargan.

Xorijiy adabiyotshunoslikda ham epistolyar asarlar tahlilini qator tadqiqotchilar o‘rgangan. Ular adabiy maktublarning rivojlanishi, tuzilishi, mazmuni, ahamiyati va shu kabi masalalarni tadqiq qilishgan. J. Russet epistolyar san’at asarlari janrlar tipologiyasiga xos bo‘lgan maxsus badiiy tuzilishga ega ekanligini ta’kidladi, F. Jost ham xuddi shu nuqtai nazarga ega edi. [8] J.Altman va B.Dyuyfxuyzen kabi adabiyotshunoslar adabiy epistolyar asarlar kommunikativ xususiyatga ega deb hisoblashgan hamda epistolyar asarlardagi rivoyatning, narrativlikning o‘rni muhimligini ta’kidlashgan[9].

Epistolyar asarlarning umumiy nazariy jihatlari J. Genette, P. Ricoeur, B. Romberg,

3 Доминенко Н. В. Картина мира в эпистолярной прозе английских поэтов-романтиков. 2020. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1716110235&tld=ru&lang=ru&name=38372574.pdf&text=доминенко%20н.%20в.%20картина%20мира&url=https%3A%2F%2Fcore.ac.uk%2Fdownload%2F38372574.pdf&lr=39&mime=pdf

4 Морозова Л. Писательскийэпистолярий в системе литературных жанров : Автореф. дис. … канл. филол. наук / Л. Морозова. – К., 2007. – С. 107.

5 Наливайко. Д. С. Зарубіжна література XIX сторіччя. Доба романтизму : підруч. / Д. С.– Богдан, 2001 – С.416; Белунова Н. И. Дружеское письмо творческой интеллигенции конца XIX – начала XX веков: Жанр и текст писем / Н. И. Белунова. – СПб. : Изд-во С. Петерб. ун-та, 2000. – С. 14.

6 Letters from Italy. Volume II of the 1840 edition of Essays, letters from abroad, translations and fragments. P. B. Shelley, edited by Mary Shelley. [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://terpconnect.umd.edu/~djb/shelley/lettersfromitaly.htm/

7Доминенко, Н. В. Картина мира в эпистолярной прозе английских поэтов-романтиков. 2020. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1716110235&tld=ru&lang=ru&name=38372574.pdf&text=доминенко%20н.%20в.%20картина%20мира&url=https%3A%2F%2Fcore.ac.uk%2Fdownload%2F38372574.pdf&lr=39&mime=pdf

8 Rousset J. Une forme littéraire: le roman par letters // Rousset J. Forme et Signification. Essais sur les structures littéraires de Corneille à Claudel. – Paris, 1962. – P. 65-108; Jost, F. Essais de literature comparee. – Fribourg, 1964. 241 p.

9 Altman J. G. Addressed and Undressed Language in Laclos’ Liaisons Dangereuses // Laclos: Critical Approaches to Les Liaisons Dangereuses. – Madrid, 1978. – P. 223–257; Duyfhuizen, B. Epistolary Narration of Transmission and Transpassion // Comparative lit.1985. – Vol. 37, No. 1. – P. 1–26.

K. Gamburger, F. Stanzella, V.G.Irving kabi olimlarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Ayniqsa, V.G. Irvingning izlanishlari epistolyar janrda ijod qilgan ingliz yozuvchilarining ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda asarlarning xususiyatlari, poetikasi, mualliflarning uslubi va boshqa muammolar tahlil va talqin qilingan.[10]

Umuman, epistolyar asarlar adabiyotning uzviy bir qismi bo‘lib, ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda o‘rganilgan. Bu tadqiqotlarda ularning davr, yozuvchilarning tarjimai holi, adabiy jarayon, aloqa doirasi, nuqtayi nazarlari va boshqa jihatlarni o‘rganishdagi muhimligi alohida qayd etilgan.

10 Irving W. H. The providence of wit in the English letter writers. 1955. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://archive.org/details/providenceofwiti01irvi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аверинцев, С. С. Риторика и истоки европейской литературной традиции. – М., 1996. – С. 199.
2. Цивьян Т. В. Лингвистические основы балканской модели мира / Т. В. Цивьян. – М., 1990. – С. 5.
3. Доминенко Н. В. Картина мира в эпистолярной прозе английских поэтов-романтиков. 2020. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1716110235&tld=ru&lang=ru&name=38372574.pdf&text=доминенко%20н.%20в.%20картина%20мира&url=https%3A%2F%2Fcore.ac.uk%2Fdownload%2F38372574.pdf&lr=39&mime=pdf
4. Морозова Л. Писательский эпистолярий в системе литературных жанров: Автореф. дис. … канл. филол. наук / Л. Морозова. – К., 2007. – С. 107.
5. Наливайко. Д. С. Зарубіжна література XIX сторіччя. Доба романтизму: підруч. / Д. С.– Богдан, 2001 – С.416; Белунова Н. И. Дружеское письмо творческой интеллигенции конца XIX – начала XX веков: Жанр и текст писем / Н. И. Белунова. – СПб. : Изд-во С.Петерб. ун-та, 2000. – С. 14.
6. Letters from Italy. Volume II of the 1840 edition of Essays, letters from abroad, translations and fragments. P. B. Shelley, edited by Mary Shelley. [Электронный ресурс] – Режим доступа : http://terpconnect.umd.edu/~djb/shelley/lettersfromitaly.htm/
7. Доминенко, Н. В. Картина мира в эпистолярной прозе английских поэтов-романтиков. 2020. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1716110235&tld=ru&lang=ru&name=38372574.pdf&text=доминенко%20н.%20в.%20картина%20мира&url=https%3A%2F%2Fcore.ac.uk%2Fdownload%2F38372574.pdf&lr=39&mime=pdf
8. Rousset J. Une forme littéraire: le roman par letters // Rousset J. Forme et Signification. Essais sur les structures littéraires de Corneille à Claudel. – Paris, 1962. – P. 65–108; Jost, F. Essais de literature comparee. – Fribourg, 1964. 241 p.
9. Altman J. G. Addressed and Undressed Language in Laclos’ Liaisons Dangereuses // Laclos: Critical Approaches to Les Liaisons Dangereuses. – Madrid, 1978. – P. 223–257; Duyfhuizen, B. Epistolary Narration of Transmission and Transpassion // Comparative lit. 1985. – Vol. 37, No. 1. – P. 1–26.

Zamiraxon TUXTABAYEVA,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
Ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi
zamira.tukhtabaeva@gmail.com

XX ASR FEMINISTIK HARAKATLARINING LINGVISTIK JARAYONLARGA TA’SIRI

Annotatsiya: ushbu maqola XX asrda yuzaga kelgan feministik harakatlarning jamiyatdagi lingvistik jarayonlarga ta’sirini qisqacha bayon qiladi; ilmiy adabiyotlardagi feministik tanqidning faollashuvi hamda badiiy asarlarda ayol qahramonlar talqinidagi o‘zgarishlar haqida so‘z yuritadi.

Kalit so‘zlar: *gender lingvistikasi, feministik tanqid, androsentrizm.*

Annotation: this article provides a brief overview of the impact of feminist movements that emerged in the 20th century on linguistic processes in society. It discusses the activation of feminist criticism in scholarly literature and the changes in the portrayal of female characters in literary works.

Key words: *gender linguistics, feminist criticism, androcentrism.*

Аннотация: в данной статье представлен краткий обзор влияния феминистских движений, возникших в XX веке, на языковые процессы в обществе; обсуждается активизация феминистской критики в научной литературе и изменения в изображении женских персонажей в художественных произведениях.

Ключевые слова: *гендерная лингвистика, феминистская критика, андроцентризм.*

Tilshunoslikda genderologiya yo‘nalishining yuzaga kelishi XX asrning ikkinchi yarmida AQSH va Germaniya davlatlarida sodir bo‘lgan feministik harakatlar bilan bog‘liq. Dastlab o‘zlarining qonuniy huquqlari uchun kurashgan ayollar harakati “erkaklarning nafaqat jamiyat, madaniy hayotda, balki tilda ham hukmronligiga qarshi turuvchi feministik tanqidni”, ya’ni feministik lingvistikani paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi [1]. Feministik lingvistika namoyondalari erkaklar ustunligiga asoslangan ijtimoiy qadriyatlar, gender xususiyatlari hamda stereotiplarini qo‘llab-quvvatlovchi tildagi “patriarxal ong” va ayollarni kamsituvchi lingvistik amaliyotlar qattiq qoraladi.

1970-yillarning oxiri va 1980-yillarda feminist olimlarning gender masalasi bilan bog‘liq boshqa ijtimoiy muammolarga e’tibor qaratishi gender lingvistikasi sohasiga bo‘lgan qiziqishni bir muncha susaytirdi. Lekin bu davrda ham Deyl Spender, Debora Tannen kabi tilshunoslar jamiyatda amalda bo‘lgan tilning (masalan, ingliz tilining) turli aspektlari: lug‘ati, grammatikasi, diskurs jarayonlari jamiyatda ayol va erkaklarning o‘rnini hamda ularga xos xususiyatlarni qanday aks ettirishi ustida ishlar olib borishda davom etdi. 1990-yillar lingvistikada gender masalasi yana qaytadan jonlandi va tilshunos mutaxassislar genderologiyani turli perspektivadan o‘rgana boshladi.

Til dinamik (doimiy harakatdagi va rivojlanishdagi) tizim sifatida, o‘zida tarixiy va ijtimoiy voqeliklarni, “ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni, diskriminatsion va iyerarxik munosabatlarni hamda jamiyatdagi turli assimetriya (nomutonosiblik)ni aks ettiradi. Ayollarning dunyo til kartinasidagi obraziga ta’sir etuvchi genderga oid assimetriya ham shular jumlasidandir” [2]. 1990-yillar oxiri va 2000-yillarning boshida lingvistikaning alohida yo‘nalishi sifatida yangi bosqichga ko‘tarilgan gender lingvistikasi ilm, tadqiqot olamida o‘zining rasmiy o‘rniga ega bo‘la boshladi. XX va XXI asrda yuz bergan ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy voqeliklar gender tushunchasiga nisbatan qarashlarni o‘zgartirdi. Tabiiyki, bu

transformatsiya insonlar tilida ham aks eta boshladi.

XX asrda feministik harakatlarning asosiy g‘oyasi bo‘lgan gender tenglik nafaqat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy sohalarni, balki amalda bo‘lgan til jarayonlarini ham qamrab oldi. Feminist tilshunoslar og‘zaki va yozma diskursni chuqur tahlil qilib, ushbu til hodisalari androsentrizm (erkaklarni diqqat markaziga qo‘yish amaliyoti)ga asoslanganini isbotlashga harakat qildi. Jumladan, amerikalik lingvist Robin Lakoffning “Language and Woman’s Place”, ya’ni “Til va ayolning o‘rni” (1975) asari gender lingvistikasining alohida soha sifatida o‘rganilishiga katta turtki bo‘ldi. Dastlab bu asar 1973 yil Language in Society (Til va jamiyat) jurnalida maqola sifatida e’lon qilinadi.

Lakoff rasmiy uslubda ishlatiladigan ingliz tilidagi ***janob*** va ***xonim*** so‘zlariga, ***Mr*** *(erkaklar uchun),* ***Miss*** *(turmushga chiqmagan qizlar uchun) va* ***Mrs*** *(turmush qurgan ayollar uchun)* ga o‘quvchi e’tiborini qaratib, bu iboralarda parallelizm (tenglik) yo‘qligini ta’kidlaydi. Bu titullar (titles) orqali orqali erkakning oilaviy statusi ochiqlanmayapti, lekin ayolning turmushga chiqqan yoki chiqmaganligiga alohida e’tibor berilyapti. Bu holatni muvozanatga keltirish uchun amerikalik ayollar harakatining yetakchilaridan biri bo‘lgan huquqshunos Bella Abzug Amerika Qo‘shma Shtatlari kongressiga ***Miss*** va ***Mrs*** titullarini o‘rniga ***Ms*** (“miz” deb talaffuz qilinadi), ya’ni ayolning oilaviy statusini ifodalamaydigan titulni qo‘llash taklifi bilan chiqadi [3].

XX asrning oxirlaridan ***Ms*** tituli hurmat ma’nosiga ega bo‘lgan hamda ayol kishining oilaviy statusi haqida ma’lumot bermaydigan atama sifatida tan olinib, rasmiy va norasmiy kontekstlarda keng qo‘llanila boshlandi. Shu bilan bir paytda g‘arb davlatlarida “ayol va erkaklar uchun gender neytral bo‘lgan ***Mx*** tituli ham ommalasha boshladi. “Miks” deb talaffuz qilinadigan bu termin an’anaviy titullarga (***Mr, Miss, Mrs*** va ***Miss***) alternativa sifatida paydo bo‘ldi” [4].

XX va XXI asrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar ayollarning badiiy adabiyotdagi talqiniga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. XX asrda o‘zining fikrlariga ega bo‘lgan Katerin Mansfild (“Bliss”, 1920; “The Garden Party”, 1922), Virjinia Vulf (“Mrs Dalloway”, 1925; “To the Lighthouse”1927) kabi kuchli feminist yozuvchilar yetishib chiqdi. Ular ayollarning murakkab hayot tajribalarini va kechinmalarini yoritib berishga harakat qildi. XX asr boshlaridagi ayollar adabiyoti mavzusi asosan ayollarning o‘zligini ifodalashdagi qiyinchilik va to‘siqlar, ularning jamiyatdagi roli va jamiyat ayollardan kutadigan burch hamda vazifalar haqidagi haqiqatlarni ko‘tarib chiqdi [5].

Ayollarning huquqlari va gender rollari juda dolzarb masalaga aylangan XX asr o‘rtalarida jahon adabiyoti ham ushbu o‘zida aks ettira boshladi. Bu davrda ijod qilgan Doris Lessing (“The Golden Notebook, 1962), Silvia Plaz (“The Bell Jar”, 1963) kabi yozuvchilar o‘z asarlaridan erkaklar har taraflama ustun bo‘lgan jamiyatdagi ayollaning muammolarini yanada chuqurroq ochib berishga harakat qildi. XX asr oxirlarida turli irq va madaniyat vakili bo‘lgan jahon adabiyoti namoyondalar o‘z asarlaridan gender mavzusi bilan birgalikda turli rang, irq va sinf vakili bo‘lgan ayollarning hayotidagi qiyinchilik, kurashlar hamda kamsitilish holatlariga e’tibor qaratdi.

XX asr o‘zbek adabiyotiga o‘sha davrdagi jadidchilik harakatlari va rus madaniyatining kirib kelishi tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Badiiy asarlarda ayollar nafaqat sevgi-muhabbat, go‘zallik, nazokat va sadoqat ramzi sifatida, balki erkinlik va ilm-ma’rifatga intilgan, mustaqil fikrga ega, o‘z bilimi va qobiliyatiga ishongan jasoratli jamiyat vakillari sifatida aks ettirila boshladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani (1920) bosh qahramoni Kumushbibining jasur va zakiy ayolligini otasi va eri Otabekni o‘limdan qutqarib qolgan sahnasi bilan ochib beradi. Romanda qushbegi uning jasoratiga qoyil qolib shunday deydi:

“ *– Talabingiz o‘rinlik, – dedi qushbegi… Kumushbibiga yuzini o‘girdi. – Qizim, sizning bunchalik zakovat va jasoratingizga otangiz bilan eringiz har qancha tashakkur aytsalar va o‘zlarining mundan so‘ngg‘i umrlarini sizning baxshishingiz, deb bilsalar arzir. Men ham sizning bu xizmatingiz evaziga eringiz bilan otangizni hozirdan boshlab ozod qildim…*” [6]

Abdulla Qahhor qalamiga mansub “Sinchalak” qissasi (1958) qahramoni Saida orqali mehnatkash, mas’uliyatli, g‘ayratli, ilg‘or fikrli, qat’iyatli zamonaviy o‘zbek ayollar ifoda qilinadi. Qissada davomida yozuvchi jamiyatda ayollarga bo‘lgan ikki xil: zamonaviy va eskicha qarashga ham urg‘u berib ketadi:

“*Saida eshitilar-eshitilmas:*

– *Ayol boshim bilan…– dedi-yu, u yog‘ini aytmadi.*

– *Mana bu gapni men sizdan kutamagan edim! – dedi zo‘r taassuf bilan.*

– Hech kutmagan edim-a, jon qizim! Shunaqa gaplardan qachon qutulamiz?

“Ayol boshim” deganingiz mungliman, mushtiparman deganingizmi? Nahot shundoq bo‘lsa!.. Moy aynisa tuz soladi, tuz aynisa ne soladi, degan gap bor. Ayollarga “ayol” deb, odam bolasini ojis notavon deb qarash, qalin, kundoshlik, “nazr” singari bid’atlar ayollar sha’niga demak, insoniyat sha’niga haqorat deb turganimizda, siz o‘zingizga “ayol” deb qarasangiz… dodimizni kimga aytamiz!..

Zamonamiz dadil qadamlar zqamonasi-ku qizim! Hozirgi zamonda dadil qadam tashlay olmagan kishi turtilib, chetga chiqib qoladi…” [7]

Asardan keltirilgan rayon partiya komitetining sekretari Tohirjon Nosirovning Saidaning *“Ayol boshim bilan”* degan so‘zlariga bildirgan ushbu fikrlari ham o‘tgan asrda ayollarga bo‘lgan munosabat, jamiyatda ayollarning roli va mavqeyi tubdan o‘zgarganini ochib beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, XX asrda ayollarning ilm-ma’rifatga intilishi va bu sohada yutuqlarga erishishi, oila va jamiyatdagi kamsitilish hamda zo‘ravonlik holatlariga qarshi kurashi, rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilishi oddiy holga aylandi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, jamiyatdagi bunday o‘zgarishlar negizida Yevropa va Amerikada yuzaga kelib, butun dunyoga yoyilgan feministik harakatlarning o‘rni ahamiyatlidir. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotga, balki insonlar o‘rtasidagi lingvistik jarayonlarga ham bevosita hamda bilvosita ta’sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chutpulatov M.Ch. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi gender leksikasining semantik va lingvostatistik xususiyatlarining qiyosiy tahlili. Dissertatsiya. – Toshkent, 2021. 163-b., 18-b.
2. Боженко Ю.С., Эм Л.С., Калиновская Е.А. Языковые признаки гендерной нейтральности в английском и русском языках (на примере интернет-публикаций). Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2022. Том 15. Выпуск 5. С. 1543-1547.
3. Lakoff R. Language and Woman’s Place. Language in Society, Vol. 2, No. 1, 1973, pp. 45-80, pp 68-69.
4. Ludbrook G. From Gender-Neutral to Gender-Inclusive English. The Search for Gender-Fair Language. DEP n. 48 / 2022, pp. 20-30.
5. Diwan G. Women’s Voices in 20th-Century Literature. International Journal of Early Childhood Special Education, Vol 13 Issue 01, 2021, pp. 1207-1210.
6. Qodiriy A. O‘tkan kunlar; Mehrobdan chayon: Ro‘monlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994. 656-b, 102-b.
7. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-sinchalak-qissa

Firuza MURODOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
firuzamj1984@gmail.com



“HARBIY QASAMYOD” MATNINING LINGVISTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada harbiy qasamyod matnining tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlili berilgan. Nutqiy-kompozitsion tuzilishi, leksik va uslubiy xususiyatlari o‘rganilib, uning ijtimoiy-ma’naviy va kommunikativ ahamiyati ta’kidlangan. Tadqiqot harbiy qasamyodning rasmiy va madaniy funksiyalarini yoritadi hamda uning vatanparvarlik nutqidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *harbiy qasamyod, nutqiy-kompozitsion tuzilish, leksik-semantik xususiyatlar, kommunikativ funksiyalar, vatanparvarlik nutqi, barqaror iboralar.*

Аннотация: в статье проведён лингвистический анализ текста военной присяги. Рассмотрены её речевая композиция, лексические и стилистические особенности, а также подчёркнута её социально-нравственная и коммуникативная значимость. Исследование освещает официальные и культурные функции военной присяги и её роль в патриотической речи.

Ключевые слова: *военная присяга, речевая композиция, лексико-семантические особенности, коммуникативные функции, патриотическая речь, устойчивые выражения.*

Annotation: this article provides a linguistic analysis of the military oath text. It examines its speech composition, lexical and stylistic features, and emphasizes its socio-moral and communicative significance. The study highlights the official and cultural functions of the military oath and its role in patriotic discourse.

Key words: *military oath, speech composition, lexical-semantic features, communicative functions, patriotic discourse, fixed expressions.*

Harbiy vatanparvarlik nutqi ijtimoiy-siyosiy notiqlikning muhim va badiiy-ma’naviy jihatdan boy ko‘rinishi hisoblanib, yosh avlodni Vatanga sadoqat, jasorat va burchni sharaf bilan ado etish ruhida tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, harbiy xizmat jarayonida Vatanga muhabbat va uni himoya qilish tuyg‘usini shakllantirish, jangovar an’analarni davom ettirish, komandirga itoatkorlik va jangovar birodarlikka sodiqlik kabi qadriyatlarni mustahkamlashda harbiy qasamyod alohida ahamiyatga ega. Harbiy qasamyod askarning ona yurt oldidagi burchini tantanali ravishda bayon qilishi va ushbu burchga sodiqlikni va’da qilishi bilan harbiy vatanparvarlik nutqining eng muhim va ta’sirchan shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Soha leksik tizimlarini lingvistik jihatdan tadqiq etishda, ayniqsa huquqshunoslik, tibbiyot, harbiy va diniy sohalarga oid matnlar tarkibida alohida o‘rin tutuvchi qasamyod matnlari o‘ziga xos kompozitsion tuzilishi, qat’iy shakli, ma’lum leksik qoliplari va barqaror iboralari bilan ajralib turadi. Bu turdagi matnlar maxsus nutq turlariga kirib, ularda rasmiy-uslubiy norma, tantanavor ohang va an’anaviy frazeologik birliklar ko‘p uchraydi. Qasamyod matni nafaqat rasmiy hujjat sifatida, balki shaxsiy mas’uliyat va axloqiy majburiyatni mustahkamlovchi til birliklari tizimi sifatida ham e’tirof etiladi.

Shu o‘rinda qasamyod haqida to‘xtalib o‘tsak. Qasamyod – arabcha “qasam so‘zlarini aytmoq” birikmasining qisqargan shakli bo‘lib, 1) qat’iy va’da, ont 2) sodiqlik haqidagi rasmiy va’da, qasam ma’nolarini ifodalaydi. Mazkur so‘zning ishlatilish doirasi keng bo‘lib, u nafaqat diniy yoki huquqiy sohalarda, balki kundalik nutqda ham uchraydi. Ammo funksional-uslubiy jihatdan tahlil qilinganda, qasamyod atamasi ko‘proq rasmiy-uslubiy kontekstlarda, xususan, harbiy va tibbiyot sohalarida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy hayotimizda, so‘zlashuv uslubida *qasam ichmoq* birikmasi biroz keskinlik kasb etadi. Biroq harbiy va tibbiyot sohalari haqida gap ketganda, qasamyod qilish shu sohaning o‘ta mas’uliyatliligini, faqat ulargagina xos bo‘lgan burchga sadoqatning ulug‘ligini ko‘rsatadi.



Tibbiyot sohasida Gippokrat qasamyodi shifokor kasbining tarixiy va axloqiy negizini tashkil etadi. Ushbu qasamyod, birinchi navbatda, inson salomatligi va hayoti oldidagi yuksak javobgarlikni ifodalaydi. U shifokorning kasbiy faoliyatida insonparvarlik, halollik, fidoyilik, bemorga xolis yondashuv, tibbiy sir saqlash kabi tamoyillarni belgilaydi. Gippokrat qasamyodi shifokor va jamiyat o‘rtasidagi axloqiy shartnoma vazifasini bajarib, tibbiy faoliyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlovchi normativ-nutqiy hujjat sifatida qaraladi.

Harbiy sohadagi qasamyod esa, ya’ni Vatanga sadoqat qasamyodi, harbiy xizmatchining yurt, millat va davlat oldidagi burchini ado etishga bo‘lgan qat’iy majburiyatini bayon etadi. Ushbu qasamyod harbiy intizom, fidoyilik, buyruqlarga so‘zsiz bo‘ysunish, Vatan mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish kabi asosiy prinsiplarni qamrab oladi. Bu yerda asosiy e’tibor shaxsiy emas, balki jamoaviy mas’uliyat, fuqarolik burchi va davlatga sodiqlik tamoyillariga qaratilgan.

1992-yil **O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 648-sonli qarori** bilan “Harbiy qasamyod to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan edi. 2002-**yil 12-dekabrda**gi PQ-436-sonli qarorga asosan, “Harbiy qasamyod”- “Vatanga qasamyod” nomi bilan o‘zgartirildi. Bu esa Vatan himoyachilari oldidagi mas’uliyat, burch o‘ta muhimligini anglatadi va Vatan himoyasi uchun doim shay bo‘lishni taqozo etadi. Mazkur ikki istilohning qo‘llanilishi va mazmun jihatidan o‘zaro farqlanishi tabiiy ravishda qiziqish va izoh talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, “harbiy qasamyod” va “Vatanga qasamyod” atamalari bir qarashda sinonimik ifodalar bo‘lib tuyulsa-da, ularning qo‘llanish konteksti, semantik yuklamasi va maqsadga muvofiqligi jihatidan farqlar mavjud. Shu boisdan, qaysi atama maqsadga muvofiq va dolzarb ekani masalasini ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish zarur.

“Harbiy qasamyod” – tarkibida soha nomi (harbiy) mavjud bo‘lib, bu atama qasamyodning kim tomonidan (harbiy xizmatchilar) va qanday kontekstda bajarilishini ochiq belgilaydi. Bu atama hujjatlar, qonunlar, nizomlarda qo‘llanishi qulay bo‘lgan, rasmiylik darajasi yuqori, neytral atama sifatida aniq bir soha, ya’ni harbiy xizmatga kirayotgan shaxsning o‘z zimmasiga oladigan xizmat burchi, intizomi, jangovar vazifalar va harbiy nizom talablariga sodiqligini bildiradi. Bu qasamyodning mazmuni va majburiyati harbiy xizmat doirasida belgilangan.

“Vatanga qasamyod” esa badiiy, publitsistik yoki tantanavor nutqlarda emotsional-ta’sirchanlikni ifodalash uchun ishlatilib, unda kengroq ma’no – shaxsning Vatanga muhabbati, sadoqati va uni himoya qilishga shayligi tantanali ifodalanadi. Bunda harbiy xizmat talablaridan tashqari, milliy qadriyat, fuqarolik burchi va ma’naviy mas’uliyat ham mujassam. Shu o‘rinda “Vatanga qasamyod” matnini keltirishni joiz topdik.

Vatanga qasamyod

“Men (familiyasi, ismi, otasining ismi), O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, xalqimga, Prezidentimga sodiq bo‘lishga tantanali ravishda qasamyod qilaman.

Men O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va qonunlarini muqaddas bilib, ularga rioya etishga, harbiy nizomlarni, komandirlar va boshliqlarning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga, harbiy intizomga qat’iy rioya qilishga, halol, jasur va sergak jangchi bo‘lishga qasamyod qilaman.

So‘nggi nafasim qolguncha ona-Vatanimning sadoqatli farzandi bo‘lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustahkam saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman.

Jonajon O‘zbekistonimning nurli istiqboli uchun davlat manfaatlari va mustaqilligining himoyachisi bo‘lishga qasamyod qilaman.

Agar men ushbu tantanali qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqimning nafratiga mubtalo bo‘lay..

Vatanga qasamyod o‘zining nutqiy-kompozitsion tuzilishi jihatidan kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘lib, har bir jumla va ibora askarning davlat, xalq va ajdodlar ruhi oldidagi sadoqatini aks ettiradi. Bu yerda har bir so‘z va ifoda nutq uslubiyati talablariga mos ravishda qat’iy tanlangan bo‘lib, ularni o‘zgartirish, almashtirish yoki kontekstdan chiqarib qo‘yish imkonsizdir. Chunki bu matnning har bir jumlasi axloqiy-ma’naviy va ijtimoiy-huquqiy majburiyat yuklaydi.

Jumladan, *“xalqimga, Prezidentimga sodiq bo‘lish”, “so‘zsiz bajarishga”, “qat’iy rioya qilish”, “halol, jasur va sergak jangchi bo‘lish”* kabi iboralar qasamyod matniga xos bo‘lgan ruhiy-axloqiy barqaror birliklar sifatida xizmat qiladi. Ular oddiy semantik mazmun bilan emas, balki harbiy xizmatga bo‘lgan daxldorlikni va sadoqatni yuksak emotsional-ohangda ifodalaydi. Shuningdek, *“so‘nggi nafasim qolguncha”, “ajdodlarim ruhi oldida”, “jonajon O‘zbekistonimning nurli istiqboli uchun”* kabi iboralar perifraz vositalari orqali bevosita sadoqat, fidoyilik va vatanparvarlikni kuchaytiruvchi badiiy-ramziy ifodalarni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, *“jonajon O‘zbekiston”, “ajdodlar ruhi oldida qasamyod”* kabi birikmalar muqaddaslik, tarixiylik va ruhiy-ma’naviy merosga bog‘lanib, oddiy vazifani emas, balki yuksak ma’naviy missiyani anglatadi.

Yoki:*“So‘nggi nafasim qolguncha ona-Vatanimning sadoqatli farzandi bo‘lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabr-toqat bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustahkam saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman.”,* – jumlasida ona Vatan, sadoqat, farzandlik burchi, ajdodlar ruhi kabi konseptual birliklar orqali askarning yuksak burch va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi obrazli va ta’sirchan bayon etiladi. Qasamyod matnining xulosa qismida esa *“mubtalo bo‘lmoq”* iborasidan foydalaniladi. Bu so‘z ibtidoiy ma’noda qarg‘ish mazmunini anglatsa-da, Vatanga qasamyod matnida u askarning qasamyodga xiyonat qilgani taqdirida xalq nafrati va qonun jazosi kabi jiddiy oqibatlarga duch kelishini bildiruvchi ramziy ogohlantiruv vazifasini bajaradi: *“Agar men ushbu tantanali qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqimning nafratiga mubtalo bo‘lay.”*

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, harbiy qasamyod matni nutqiy-kompozitsion tuzilishi, leksik-semantik tarkibi va uslubiy xususiyatlari bilan harbiy vatanparvarlikni ifodalovchi eng yuqori darajadagi normativ va tantanali nutq shakli sifatida ajralib turadi. Ushbu matnda qo‘llangan qat’iy, aniq va barqaror leksik birliklar kommunikativ maqsadni samarali ifodalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qasamyodning qat’iy shakli va o‘ziga xos kompozitsion tuzilishi nutq uslubiyatining normativlik va rasmiylik tamoyillarini ta’minlaydi, bu esa uning funktsional mustahkamligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 3-soni.2017.10 yanv.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy nizomlari. –Toshkent, 2007.
3. Aripova A. Notiqlik va uning lisoniy-uslubiy vositalari. –Toshkent, 2007. 143b.
4. Gafurov B. Saf tayyorgarligi uslubiyoti. – Toshkent: Sharq, 2005.240-b.
5. Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – Toshkent: Sahhof, 2021.210-b.
6. Odilov Y. O‘zbek tilida leksik va frazeologik enantiosemiya. –Toshkent: Tafakkur, 2015.
7. Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q. Notiqlik san’ati va nutq madaniyati. – Toshkent, 2006. 200-b.
8. Rasulov R.,Narzieva M. Leksikologiyani o‘rganamiz. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 23 b.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. –Тошкент, 2020. –Б. 256.

Nafruza AZIZOVA,
O‘zdjtu, Ingliz tili tarjima
nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi
azizovanafruza@gmail.com

FRAZEOLOGIZMLARNING TARIXIY VA SEMANTIK SHAKLLANISHI

Annotatsiya:frazeologik birliklar ko‘pincha inson shaxsiga oid tasavvurlar asosida shakllanadi. Ular shaxsning psixologik holati, xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatini obrazli ifodalaydi. Shuningdek, hayvonlar obrazlari orqali inson xususiyatlarini metaforik tarzda gavdalantiruvchi frazeologizmlar ham keng tarqalgan. Bundan tashqari, kasb-hunar faoliyatiga oid frazeologizmlar orqali xalqning tarixiy-mehnat tajribasi, turmush tarzi va madaniy qarashlari namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *frazeologizmlar, tarixiy shakllanish, semantik shakllanish, til taraqqiyoti, xalq tafakkuri, lingvokulturologiya, milliy o‘ziga xoslik, obrazlilik, semantik qayta shakllanish, transpozitsiya, metafora, metonimiya, ko‘chma ma’no, emotsional-ekspressivlik, turg‘un iboralar, tarixiy til qatlamlari, madaniy kodlar, frazeologik tizim, ma’no evolyutsiyasi*

Аннотация: фразеологические единицы часто формируются на основе представлений о личности человека. Они образно выражают его психологическое состояние, поведение и социальную активность. Наряду с этим широко распространены фразеологизмы, которые метафорически воплощают человеческие качества через образы животных. Кроме того, посредством фразеологизмов, связанных с профессиональной деятельностью, проявляются историко-трудовой опыт народа, его образ жизни и культурные взгляды.

Ключевые слова: *фразеологизмы, историческое формирование, семантическое формирование, развитие языка, народное мышление, лингвокультурология, национальная самобытность, образность, семантическое преобразование, транспозиция, метафора, метонимия, переносное значение, эмоционально-экспрессивность, устойчивые выражения, исторические языковые пласты, культурные коды, фразеологическая система, эволюция значения.*

Annotation: phraseological units are often formed on the basis of concepts related to the human personality. They figuratively express a person’s psychological state, behavior, and social activity. Along with this, phraseological expressions that metaphorically embody human qualities through animal images are also widespread. In addition, phraseological units connected with professional activities reflect the historical and labor experience of the people, their way of life, and cultural worldview.

Key words: *phraseological units, historical formation, semantic formation, language development, folk thinking, linguoculturology, national identity, figurativeness, semantic transformation, transposition, metaphor, metonymy, figurative meaning, emotional expressiveness, fixed expressions, historical language layers, cultural codes, phraseological system, semantic evolution.*

Kirish. Frazeologik birliklarning shakllanish jarayoni oddiy leksemalarning paydo bo‘lishidan tubdan farq qiladi. Chunki leksemalar, odatda, voqelikdagi narsalarning, hodisalarning yoki jarayonlarning nomini ifodalaydi, frazeologik birliklar esa xalq tafakkurining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Ular insoniyatning asrlar davomida kechgan ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlari, dunyoqarashi va qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan murakkab til hodisasidir [1:45]. Shu bois frazeologizmlar tilda sun’iy tarzda yaratilmaydi, balki xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasi, tarixiy xotirasi, ijtimoiy ongining umumlashuvi va madaniy merosining tabiiy mahsuli sifatida shakllanadi.

Frazeologizmlar xalqning ma’naviy-ruhiy olami, milliy tafakkuri va madaniy identitetini ifodalovchi eng muhim lisoniy qatlamlardan biri hisoblanadi. Ularning vositasida xalqning ijtimoiy xotirasi, milliy mentaliteti va madaniy qadriyatlari barqaror saqlanib keladi. Shu bois frazeologik birliklarni o‘rganish faqat tilshunoslik doirasidagina emas, balki **etnolingvistika**, **lingvokulturologiya**, **psixolingvistika**, **semiotika** kabi yo‘nalishlarda ham dolzarb masala sifatida qaraladi [2:194].

Frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ular inson faoliyatining barcha jabhalariga tegishli bo‘lib, ko‘pincha shaxs tushunchasi bilan bevosita bog‘lanadi. Bunday iboralar insonning ichki kechinmalari, ruhiy va psixologik holatlari, jismoniy xatti-harakatlari, kundalik turmush jarayonlari va ijtimoiy faoliyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, ular hayvon obrazlari, kasb-hunar faoliyatlari va diniy tasavvurlar asosida ham keng shakllanadi.

Shakllanish manbai nuqtayi nazardan frazeologizmlar odatda to‘rt asosiy guruhga ajratiladi:

Shaxs faoliyati va psixikasiga oid frazeologizmlar.

Bu turdagi frazeologizmlar insonning psixologik holati, ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va emotsional jarayonlarini obrazli tarzda aks ettiradi. Masalan, *qalbi yorishdi, ruhi tushdi, ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi* kabi iboralar insonning ichki ruhiy holatini ifodalaydi.

Kasb-korga taalluqli frazeologizmlar.

Xalqning tarixiy mehnat faoliyati, hunarmandchiligi va turmush tarzidan kelib chiqqan bunday frazeologizmlar asosan uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat jarayonidagi amaliy harakatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, *qozonni qaynatmoq* (tirikchilik qilmoq), *nonini tuzini yeymoq* (biror kishidan yaxshilik ko‘rmoq), *laganbardor bo‘lmoq* (xushomadgo‘y bo‘lmoq).

Hayvon obrazlari asosida yaratilgan frazeologizmlar.

Xalq hayvonlar obrazidan foydalanib, inson xususiyatlarini metaforik tarzda ifodalaydi. Masalan, *bo‘riday och* (juda och), *tulki kabi ayyor* (hiylakor), *otdek fidoyi* (sodiq), *eshakday mehnatkash* (og‘ir mehnat qiluvchi).

Din va dindorlik bilan bog‘liq frazeologizmlar.

Xalqning diniy dunyoqarashi, qadriyatlari va e’tiqodlari asosida shakllangan frazeologizmlar bo‘lib, ular insonning iymon-e’tiqodi, axloqiy qarashlari va diniy urf-odatlarini ifodalaydi. Masalan, *taqdirga tan bermoq* (taqdirdan qochmaslik), *tavba qilmoq* (gunohdan voz kechmoq), *imonini sotmoq* (vijdonsizlik qilmoq).

Shu tarzda, frazeologizmlar nafaqat tilning boy ifoda vositalaridan biri, balki xalq tafakkuri va madaniyatini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim madaniy kod sifatida ham qadrlanadi [3:102].

Mazkur maqolada frazeologizmlarning shakllanish manbalari, ularning semantik xususiyatlari, xalq tafakkuri va milliy madaniyatdagi o‘rni har tomonlama tahlil qilinadi.

Asosiy qism.Frazeologiya masalalarining nazariy asoslari

Frazeologiya masalalari dunyo tilshunosligida keng o‘rganilgan bo‘lib, turli olimlar tomonidan turlicha ta’rif va tasniflar taklif qilingan. Masalan, V.V. Vinogradov frazeologizmlarni uch asosiy turga bo‘ladi:

Frazeologik chatishma (idioma) – tarkibidagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi butunlay yo‘qolib, frazeologizm umumiy, yaxlit ma’noni bildiradi (*juftakni rostlamoq, bosh qotirmoq* va b.).

Frazeologik butunlik – komponentlarning lug‘aviy ma’nosi qisman saqlanadi, ammo butun birikma ko‘chma ma’noda ishlatiladi (*xamir uchidan patir, misi chiqdi*).

Frazeologik qo‘shilma – komponentlarning ma’nosi saqlangan holda, ularning birikuvi turg‘unlashib, barqaror iboraga aylangan (*qo‘l ko‘tarmoq, o‘qqa tutmoq*) [4:211].

Smirnitskiy frazeologizmlarning asosiy belgisi ularning **so‘zga muqobillik** xususiyatida ekanini ta’kidlaydi [5:132]. N. Amosova esa frazeologizmlarni **muqim kontekstli birliklar** sifatida izohlab, ularning barqarorligi va takroriy ishlatilishini asosiy mezon deb biladi [6:98]. S. Govrin ularni **funksional-semantik butunlik** sifatida talqin qilgan bo‘lsa [7:56], A.V. Kunin frazeologiyani kengroq yondashuvda tushuntirib, barcha ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalarni frazeologiya obyektiga kiritadi [8:73].

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar keng o‘rganilgan. Ularning semantik, struktur, stilistik va lingvokulturologik xususiyatlari haqida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan [9:88]. Biroq frazeologizmlarning **shakllanish mexanizmlari**, ya’ni erkin birikmadan turg‘un iboraga o‘tish jarayonlari hozir ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shaxs faoliyati va psixikasiga oid frazeologizmlar

O‘zbek tilidagi frazeologizmlarning muhim bir qismi insonning ruhiy kechinmalari, psixologik holati, aqliy qobiliyati va emotsional jarayonlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Masalan, *qalbi yorishdi, qalbi tilka-pora bo‘ldi, ruhi ko‘tarildi, ruhi tushdi, ruhiy dalda topdi, armoni ichida qoldi, armonini yutdi* kabi iboralar insonning ichki kechinmalarini, quvonchi yoki iztirobini ifodalaydi [10:144].

Bu frazeologizmlarda asosiy semantik tayanch bo‘lib **abstrakt leksemalar** – *qalb, ruh, xotir, orzu, ishonch, hayajon* xizmat qiladi. Masalan:

qalbi yorishdi – quvonch va yengillikni bildiradi;

ruhi tushdi – tushkunlik, umidsizlikni ifodalaydi;

Demak, abstrakt leksemalar frazeologizmlarning semantik skeletini tashkil etib, ularning asosiy ma'no motivatsiyasi ham shu tayanch orqali yuzaga keladi [11:95]. Bu esa frazeologizmlarning **psixologik mazmun** va **emotsional-ekspressivlik** jihatdan boyligini ko'rsatadi.

Kasb-kor va uy-ro'zg'or faoliyatiga oid frazeologizmlar

Xalqning mehnat faoliyati, hunarmandchiligi, turmush tarzi va ro'zg'or madaniyati asosida ko'plab frazeologizmlar shakllangan. Ular xalqning tarixiy-mehnat tajribasini aks ettiradi va ko'pincha metaforik tarzda qo'llanadi [12:122]. Misollar:

qozonni qaynatmoq – tirikchilik qilib, ro'zg'orni yuritmoq;

supurgiday tashlamoq – butunlay chetlatmoq, yo'qotmoq;

nonini tuzini yeymoq – biror kishidan yaxshilik ko'rmoq, minnatdor bo'lish;

laganbardor bo'lmoq – o'ta xushomadgo'y, pastkash odam haqida aytiladi.

Bunday frazeologizmlar dastlab oddiy erkin birikmalar sifatida shakllanib, vaqt o'tishi bilan barqarorlashgan va ko'chma ma'noli, obrazli turg'un iboraga aylangan [13:101]. Ularning tarkibidagi so'zlar o'zining mustaqil lug'aviy ma'nosidan ko'ra yangi, ramziy ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Hayvon obrazlari asosidagi frazeologizmlar

Frazeologizmlarda hayvon obrazlari keng qo'llanadi. Xalq og'zaki ijodi va tilida hayvonlar ko'pincha insoniy sifatlarni ifodalovchi metaforik ramz sifatida ishlatiladi. Masalan:

tulki – hiylakorlik, ayyorlik timsoli;

bo'ri – ochko'zlik, yovuzlik obrazida;

eshak – og'ir mehnat, sabr-toqat timsoli;

ot – fidoyilik va sadoqat ramzi

bo'riday och – nihoyatda och;

tulki kabi ayyor – hiylakor odam haqida;

eshakday mehnatkash – og'ir mehnat qiluvchi haqida;

otdek fidoyi – sodiq va vafodor inson haqida [14:67].

Bu turdagi frazeologizmlar insonning turli sifatlarini hayvon obrazlari orqali jonli va obrazli ko'rinishda ifodalashga xizmat qiladi.

Diniy frazeologizmlar

O'zbek xalqining diniy qarashlari va qadriyatlari ham frazeologik tizimda keng o'rin egallagan. Ular xalqning iymoni, axloqiy qarashlari va diniy dunyoqarashini aks ettiradi. Masalan:

taqdirga tan bermoq – qismatga bo'ysunmoq;

tavba-tazarru qilmoq – gunohdan pushaymon bo'lish;

duo qilmoq – Allohdan yordam so'ramoq;

imonini sotmoq – vijdonsizlik qilish [15:201].

Bu iboralar orqali xalqning diniy dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, diniy marosim va e'tiqodlari til tizimida ifodasini topadi.

6. Struktur-semantik xususiyatlar

Frazeologizmlarning shakllanish jarayoni uch asosiy bosqich asosida yuz beradi:

Erkin birikma – so'zlarning erkin qo'shilishi, lug'aviy ma'no ustun;

Turg'un bog'lanma – tarkibi barqaror, ammo obrazlilik kuchli emas;

Frazeologizm – yaxlit, ko'chma ma'noli va obrazli birlik sifatida shakllanadi [2:194].

Vinogradov tasnifiga ko'ra frazeologizmlar quyidagicha guruhlanadi:

Chatishma: *juftakni rostlamoq, taqdirga tan bermoq, dimog'i chog' bo'ldi, toqati toq bo'ldi*;

Butunlik: *xamir uchidan patir, misi chiqdi, loy bo'lmoq, tuyog'ini shiqillatmoq*;

Qo'shilma: *qo'l ko'tarmoq, o'qqa tutmoq, ishtahasi ochildi* [4:215].

Bu tasnif frazeologizmlarning semantik va struktur xususiyatlarini tushunishda muhim nazariy asos hisoblanadi.

Xulosa. Frazeologizmlar til tizimining alohida qatlamini tashkil etib, leksik-semantik boylikni kengaytirishda va tilning obrazlilik xususiyatini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning asosiy belgilaridan uchta yetakchisi ajralib turadi: **turg'unlik, obrazlilik va semantik qayta shakllanish**. Aynan shu belgilar frazeologik birliklarni erkin so'z birikmalaridan farqlab turadi va ularni til tizimida mustaqil qatlam sifatida ko'rsatadi.

Frazeologizmlarning shakllanish manbalari xilma-xil bo'lib, ular jamiyatning ijtimoiy-tarixiy hayoti, madaniy dunyoqarashi va xalq tafakkuri bilan bevosita bog'langan. Bunda ular bir jihatdan **xalq tafakkurining lingvistik mahsuli**, boshqa jihatdan esa **milliy mentalitet va madaniy kodlarning ifodachisi** sifatida xizmat qiladi.

Frazeologizmlar til tizimida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Psixik holat va emotsiyalarni ifodalash. Ular insonning ruhiy kechinmalari, quvonch va g'am, sevgiyu nafrat, qo'rquv va umid kabi murakkab emotsional jarayonlarini obrazli shaklda ifodalaydi (*qalbi yorishdi, ruhi tushdi, armonini yutdi*).

Kasb-kor faoliyatini aks ettirish. Mehnat jarayoni va hunarmandchilik asosida shakllangan frazeologizmlar xalqning tarixiy-mehnat tajribasini, turmush tarzini va ijtimoiy faoliyatini ifodalaydi (*qozonni qaynatmoq, supurgiday tashlamoq, nonini tuzini yeymoq*).

Hayvon obrazlari orqali inson sifatlarini gavdalantirish. Bu frazeologizmlar inson xatti-harakatlarini hayvonlarga xos sifatlar orqali obrazli ifodalaydi (*bo‘riday och, tulki kabi ayyor, otdek fidoyi*).

Diniy qarashlarni mustahkamlash. Xalqning diniy dunyoqarashi va e’tiqodlari frazeologik tizimda aks etib, milliy-ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlaydi (*taqdirga tan bermoq, imonini sotmoq, duo qilmoq*) [16:133].

Shunday qilib, frazeologizmlar nafaqat tilning leksik-semantik imkoniyatlarini boyitadi, balki xalqning tarixiy xotirasini, ma’naviy dunyosini va madaniy merosini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Ular xalq tafakkurining lingvistik shakli, milliy identitetning ramzi va madaniyatning uzviy qismidir.

Frazeologik birliklarni o‘rganish esa nafaqat lingvistik, balki **madaniy-antropologik, psixologik va sotsiologik** nuqtayi nazardan ham dolzarbdir. Chunki ularning semantik shakllanishi orqali xalqning dunyoqarashi, tarixiy voqelikni idrok etish uslubi, emotsional tafakkuri va madaniy kodlari haqida keng qamrovli ma’lumot olish mumkin.

Demak, frazeologizmlar tilning faqatgina bezagi emas, balki xalqning o‘zligini, milliy xarakterini, dunyoqarashini, turmush tarzini, e’tiqod va qadriyatlarini ifodalovchi eng muhim lisoniy qatlamlardan biridir. Shu bois ularni tadqiq etish, tasniflash va mazmuniy jihatdan chuqur o‘rganish bugungi tilshunoslik va lingvokulturologiya uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишерова, Н. Фразеологизмларнинг shakllanish jarayoni va semantik xususiyatlari. – Тошкент: Fan, 2015. 256-45- б.
2. Каримов, А. Этнолингвистика ва frazeologiya masalalari. – Самарқанд: Zarafshon, 2017. 312-б.194.
3. Хидоятов, М. Ўзбек frazeologizmlarining manbalari ва семантик таҳлили. – Бухоро: BuxDU нашриёти, 2018.220-б.102.
4. Виноградов, В. В. Русская фразеология: Вопросы теории. – Москва: Высшая школа, 1977.256 с. – С. 211–215.
5. Смирницкий, А. И. Лексикология английского языка. – Москва: Изд-во МГУ, 1956. – 275 с. – С. 132.
6. Амосова, Н. Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1963. – 212 с. – С. 98.
7. Говрин, С. Теоретические основы фразеологии. – Москва: Наука, 1980. – 185 с. – С. 56.
8. Кунин, А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – 336 с. – С. 73.
9. Юсупов, У. Ўзбек тили frazeologiyasining stilistik хусусиятлари. – Тошкент: O‘zMU, 2012. – 198-б. 88.
10. Турсунов, Ж. Ўзбек frazeologik lug‘ati. – Тошкент: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005.345 б.144.
11. Махмудов, Н. Frazeologik birliklarning семантик асослари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2010. – 267 б. 95.
12. Ҳожиев, А. Ўзбек frazeologizmlarининг manbaalari. – Тошкент: Universitet, 2009. – 224 б. 122.
13. Сафаров, Ш. Til va tafakkur: frazeologik izlanishlar. – Тошкент: Akademnashr, 2013. 276-б.101.
14. Қурбонов, Б. Frazeologiyada hayvon obrazlari. – Тошкент: Fan, 2016. – 198-б.67.
15. Қодиров, З. Din va frazeologik birliklar. – Тошкент: Ma’naviyat, 2014. – 210-б. 201.
16. Раҳимов, Д. Frazeologizmlarning lingvokulturologik таҳлили. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2019.230-б.133.

Diyora MAMANAZAROVA,
O‘zDJTU, Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi
diyoramamanazarova0@gmail.com

IQTISODIY MATNLARDA METAFORIK TERMINLARNING TARJIMASI

Annotatsiya: ushbu maqolada iqtisodiy matnlarda uchraydigan metaforik terminlarning lingvistik va semantik xususiyatlari, ularning tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda yechim yo‘llari tahlil qilinadi. Metafora iqtisodiy diskursda nafaqat badiiy vosita, balki murakkab iqtisodiy tushunchalarni sodda va ta’sirchan ifodalash usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ularni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida ma’no siljishi, madaniy tafovutlar va terminologik moslik masalalari yuzaga keladi. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi iqtisodiy matnlardan olingan misollar asosida metaforik terminlarning tarjima strategiyalari – ekvivalent topish, adaptatsiya, kontekstual izoh va kalkalash usullari – tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiy metaforalarning tarjimasi o‘quvchi tushunchasiga ta’siri ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy matnlar tarjimasi amaliyotida samarali metodlarni ishlab chiqish hamda tarjimonlar uchun metodik tavsiyalar yaratishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *metafora, iqtisodiy matn, termin, tarjima, ekvivalentlik, semantika, diskurs, adaptatsiya, kalkalash, pragmatik tafovutlar*

Аннотация: в данной статье рассматриваются лингвистические и семантические особенности метафорических терминов, встречающихся в экономических текстах, а также проблемы и пути их перевода. Метафора в экономическом дискурсе выступает не только художественным средством, но и способом выразительного и доступного объяснения сложных экономических понятий. При переводе на другой язык возникают такие трудности, как смещение значения, культурные различия и проблемы терминологического соответствия. На материале английских и узбекских экономических текстов анализируются стратегии перевода метафорических терминов — поиск эквивалентов, адаптация, контекстуальные пояснения и калькирование. Кроме того, исследуется влияние перевода экономических метафор на восприятие текста читателем. Результаты исследования могут быть полезны в разработке эффективных методов перевода экономических текстов и создании методических рекомендаций для переводчиков.

Ключевые слова: *метафора, экономический текст, термин, перевод, эквивалентность, семантика, дискурс, адаптация, калькирование, прагматические различия*

Annotation: this article examines the linguistic and semantic features of metaphorical terms found in economic texts, as well as the challenges and strategies of their translation. In economic discourse, metaphor serves not only as a stylistic device but also as a means of presenting complex economic concepts in a simplified and impactful way. Translating such terms into another language often raises issues of meaning shifts, cultural differences, and terminological equivalence. Based on examples from English and Uzbek economic texts, the study analyzes translation strategies for metaphorical terms — equivalence search, adaptation, contextual explanation, and calquing. Furthermore, the paper explores how the translation of economic metaphors affects readers’ comprehension. The findings may contribute to the development of effective methods in economic text translation and provide methodological recommendations for translators.

Key words: *metaphor, economic text, terminology, translation, equivalence, semantics, discourse, adaptation, calquing, pragmatic differences*

Kirish. Globalizatsiya jarayonida iqtisodiy aloqalar tobora kengayib, turli millat va xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik yanada faollashib bormoqda. Jahon bozorlarining integratsiyalashuvi, xalqaro savdoning kengayishi va transmilliy korporatsiyalarning ta’siri natijasida iqtisodiy matnlarning — xalqaro shartnomalar, moliyaviy hisobotlar, bank hujjatlari, iqtisodiy tahlillar va

ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklarning — tarjimasi muhim kommunikativ vosita sifatida qaralmoqda. Chunki iqtisodiy hujjatlarning aniqligi nafaqat bir mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini, balki xalqaro miqyosda moliyaviy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Shu bois, iqtisodiy matnlarning to'g'ri va aniq tarjimasi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1:9].

Iqtisodiy diskursning o'ziga xos jihati shundaki, unda metaforik ifodalar keng qo'llaniladi. Metafora iqtisodiy tilda faqatgina badiiy bezak emas, balki murakkab iqtisodiy jarayonlarni sodda, obrazli va tushunarli shaklda ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, ingliz tilidagi *"financial bubble"* (moliyaviy pufak), *"bear market"* (ayiq bozori) yoki *"toxic assets"* (zararli aktivlar) kabi terminlar iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini jonli va aniq tasvirlab beradi. Bunday ifodalar bir tomondan o'quvchining iqtisodiy tushunchalarni tezroq anglashiga yordam bersa, boshqa tomondan, ularni tarjima qilishda lingvistik va madaniy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi [6:10].

So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar iqtisodiy metaforalarning tabiatini va ularning tarjimadagi o'rnini chuqur o'rganmoqda. Masalan, Chudinov iqtisodiy metaforalarni diskursni shakllantiruvchi asosiy kognitiv mexanizmlardan biri sifatida baholagan va ular orqali jamiyatning iqtisodiy tafakkuri va siyosiy qarashlari shakllanishini ta'kidlagan [10:12]. Charteris-Black esa iqtisodiy diskursda metaforalar nafaqat tushuntiruvchi, balki auditoriyani ishontiruvchi, hatto manipulyativ vazifani ham bajarishini ta'kidlaydi [13:15].

Metaforalarni tarjima qilish masalasi esa o'ziga xos murakkablikka ega. Bir tomondan, kalkalash – ya'ni so'zma-so'z tarjima – ba'zi hollarda mumkin bo'lsa-da, ko'plab vaziyatlarda ma'noni noto'g'ri yetkazadi. Masalan, *"bull market"*ni "buqa bozori" deb tarjima qilish iqtisodiy mazmunni yo'qotadi. Shuning uchun tarjimonlar ko'pincha **kontekstual moslashtirish**, **ekvivalent topish** yoki **izohli tarjima** usullaridan foydalanadilar [6:18].

Demak, iqtisodiy matnlarda metaforik terminlarning tarjimasi nafaqat lingvistik masala, balki madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Chunki metafora nafaqat til vositasi, balki milliy tafakkur va madaniy tajribaning mahsulidir. Shu sababli, iqtisodiy metaforalarni boshqa tillarga to'g'ri tarjima qilish ikki madaniyat o'rtasidagi iqtisodiy bilim va tajribani ko'chirish jarayonini ta'minlaydi. Ushbu maqola ana shu jarayonda uchraydigan asosiy muammolarni tahlil qilish, mavjud tarjima strategiyalarini ko'rib chiqish va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan.

Asosiy qism.1. Metaforalarning iqtisodiy diskursdagi o'rni

Metafora qadimdan tilshunoslikda adabiy san'at vositasi sifatida o'rganib kelingan. Ammo XX asr oxiri va XXI asr boshidan boshlab metaforalar tilning faqatgina estetik funksiyasi emas, balki kognitiv jarayonlardagi muhim vosita sifatida ham qaralmoqda [9:20]. Lakoff va Johnson (1980)ning konseptual metafora nazariyasi shuni ko'rsatdiki, inson tafakkuri va dunyoqarashi ko'pincha metaforik kategoriyalar orqali shakllanadi. Masalan, iqtisodiy diskursda *"economic growth"* (iqtisodiy o'sish) yoki *"financial bubble"* (moliyaviy pufak) tushunchalari o'z-o'zidan ilmiy yoki rasmiy termin sifatida emas, balki metaforik asosda yuzaga kelgan [1:22].

Iqtisodiy diskursdagi metaforalar bir nechta asosiy vazifalarni bajaradi:

- **Kognitiv vazifa** – murakkab iqtisodiy tushunchalarni obrazli shaklda yoritadi;
- **Kommunikativ vazifa** – o'quvchiga iqtisodiy jarayonlarni sodda va tushunarli yetkazadi;
- **Persuaziv vazifa** – auditoriyani muayyan iqtisodiy fikrga ishontirish uchun ishlatiladi [3:24].

Masalan, *"bull market"* (buqa bozori) va *"bear market"* (ayiq bozori) kabi tushunchalar xalqaro iqtisodiy amaliyotda keng qo'llaniladi. Ularning o'zbek tiliga tarjimasida so'zma-so'z yondashuv emas, balki ma'nodagi dinamik moslik muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, "buqa bozori" deganda hayvonlar bozori tushunilishi mumkin, bu esa semantik xato hisoblanadi.

2. Tarjima jarayonida uchraydigan asosiy muammolar

Metaforalarni tarjima qilish ko'plab lingvistik va madaniy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

1. Semantik siljish. Metafora ko'pincha o'zining asl terminologik ma'nosidan chekinib, qo'shimcha obrazli mazmun kasb etadi. Masalan, *"meltdown"* so'zi aslida texnik jarayonni anglatadi, lekin iqtisodiy matnlarda u "katta iqtisodiy inqiroz" ma'nosida ishlatiladi [8:26].

2. Madaniy tafovutlar. Har bir jamiyatning iqtisodiy tajribasi, ramzlari va tarixiy tafakkuri turlicha. Shu sababli, metafora boshqa tilga tarjima qilinganda, ma'no tushunarsiz yoki g'alati bo'lib chiqishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *"bull market"* ifodasi o'zbek tilida "o'suvchi bozor" deb tarjima qilinsa, aniq ma'no beradi [7:28].

3.Terminologik moslik. Ba'zi metaforalar xalqaro iqtisodiy amaliyotda allaqachon termin sifatida shakllangan. Masalan, *"toxic assets"* (zararli aktivlar) yoki *"credit crunch"* (kredit tanqisligi). Ularni erkin metaforik tarjima qilish emas, balki terminologik izchillikni saqlash muhim [8:30].

Bu muammolar tarjimonda ikki tomonlama mas'uliyatni talab qiladi: lingvistik aniqlik va iqtisodiy mazmunning saqlanishi.

3. Metaforalarni tarjima qilish strategiyalari

Tadqiqotchilar (Lakoff, Kövecses, Koller, Schäffner va b.) iqtisodiy metaforalarning tarjimasida quyidagi asosiy strategiyalarni ajratib ko'rsatadi:

- **Ekvivalent topish**. Mazmunan mos keladigan leksik birlik qo'llanadi. Masalan, *"financial bubble"* → "moliyaviy pufak". Bu strategiya eng ko'p qo'llaniladigan va samarali hisoblanadi [1:32].
- **Adaptatsiya**. Metafora ma'nosi o'quvchining madaniy konteksti va lingvistik tajribasiga moslashtiriladi. Masalan, *"meltdown"* → "iqtisodiy inqiroz" [3:34].
- **Kontekstual izoh**. Metaforaning asl shakli tarjima qilinadi, ammo unga tushuntirish kiritiladi. Masalan, *"toxic assets"* → "zarar keltiruvchi aktivlar (qaytmas qarzlar)" [5:36].
- **Kalkalash**. Metafora so'zma-so'z tarjima qilinadi. Bu strategiya faqat metaforaning obrazli mazmuni boshqa til auditoriyasi uchun ham tushunarli bo'lgandagina samarali bo'ladi. Masalan, *"economic growth"* → "iqtisodiy o'sish" [7:38].

Amaliyotda ko'pincha bu usullar kombinatsiyalangan holda qo'llanadi, chunki har bir metafora alohida yondashuvni talab qiladi.

4. O'quvchi tushunchasiga ta'siri

Metaforik terminlarning to'g'ri tarjimasi o'quvchiga iqtisodiy jarayonlarni yanada aniqroq idrok etishga yordam beradi. To'g'ri tanlangan metafora nafaqat matnni sodda qiladi, balki iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini yanada ravshanlashtiradi. Masalan, *"financial bubble"* tushunchasi "moliyaviy pufak" tarzida tarjima qilinganda, o'quvchi uni beqaror va tez yorilib ketishi mumkin bo'lgan jarayon sifatida tasavvur qiladi. Bu esa iqtisodiy hodisaning mohiyatini to'liq ochib beradi [6:39]. Aksincha, noto'g'ri yoki so'zma-so'z tarjima iqtisodiy mazmunni chalkashtirib yuboradi. Masalan, "bear market"ni "ayiq bozori" deb so'zma-so'z tarjima qilish o'quvchini chalg'itadi va iqtisodiy ma'noni yo'qotadi. Shu bois tarjimon nafaqat til bilimiga, balki iqtisodiy tushunchalarga va madaniy tafovutlarni hisobga olishga ham chuqur ega bo'lishi zarur.

Iqtisodiy metaforalar iqtisodiy diskursning ajralmas qismi bo'lib, murakkab tushunchalarni obrazli va sodda shaklda ifodalashda beqiyos vosita hisoblanadi. Ularni tarjima qilish esa lingvistik, madaniy va terminologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ekvivalent topish, adaptatsiya, kontekstual izoh va kalkalash strategiyalari tarjimon uchun asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri yondashuv matnning kommunikativ samaradorligini oshiradi, noto'g'ri yondashuv esa iqtisodiy mazmunni buzadi. Shu bois iqtisodiy metaforalar tarjimasi faqat lingvistik jarayon emas, balki kognitiv va madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtayi nazaridan ham dolzarb tadqiqot obyektidir.

Xulosa. Iqtisodiy metaforalar zamonaviy iqtisodiy diskursning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular murakkab iqtisodiy jarayonlarni oddiy, obrazli va tushunarli shaklda ifodalash orqali matnning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan metaforalar iqtisodiy matnlarda nafaqat tilning badiiy imkoniyatlarini, balki inson tafakkurining kognitiv mexanizmlarini ham ifodalaydi. Masalan, *"moliyaviy pufak"*, *"iqtisodiy inqiroz to'lqini"* yoki *"ayiq bozori"* kabi tushunchalar o'quvchiga iqtisodiy voqelikni real hayotiy tajriba orqali idrok etish imkonini beradi [1:20].

Biroq, iqtisodiy metaforalarni tarjima qilish jarayonida ko'plab qiyinchiliklar kuzatiladi. Avvalo, **semantik siljish** hodisasi mavjud: metafora o'zining asl ma'nosidan uzoqlashib, boshqa konnotatsiyalar hosil qiladi. Ikkinchidan, **madaniy tafovutlar** tufayli ayrim metaforalar boshqa tilda so'zma-so'z tarjima qilinsa ham, o'quvchi uchun mantiqan tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin.

Masalan, ingliz tilidagi *“bull market”* iborasini “buqa bozori” deb tarjima qilish noto‘g‘ri talqinlarga olib keladi. Uchinchidan, **terminologik moslik** muammosi mavjud: iqtisodiy metaforalar ko‘plab hollarda xalqaro iqtisodiy amaliyotda maxsus termin sifatida mustahkamlanib qolgan bo‘ladi va ularni erkin tarjima qilish ma’no yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi [21:30].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy metaforalarni tarjima qilishda bir nechta samarali strategiyalar mavjud. Ulardan eng asosiylari – **ekvivalent topish**, **adaptatsiya**, **kontekstual izoh** va **kalkalash** usullaridir [31:38]. Har bir strategiyaning qo‘llanishi tarjima qilinayotgan matnning janri, maqsadli auditoriya, kontekst va kommunikativ maqsadiga bog‘liq bo‘lib, ularni to‘g‘ri tanlash tarjimonning tajribasi va bilim darajasiga tayanadi. Xususan, adaptatsiya usuli ko‘proq madaniy tafovutlarni yengishda, kontekstual izoh usuli esa yangi terminlarni o‘quvchiga tushuntirishda samarali hisoblanadi.

Shu bois, iqtisodiy metaforalarni tarjima qilish jarayonida tarjimon nafaqat lingvistik bilimlarga, balki iqtisodiy tushunchalarga, xalqaro moliyaviy tajribaga va madaniyatlararo tafovutlarni his etish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi zarur [6:39]. Bu esa tarjima amaliyotida yuqori sifat va mazmuniy aniqlikni ta’minlaydi.

Shu asosda aytish mumkinki, iqtisodiy metaforalar tarjimasi nafaqat lingvistik, balki **kognitiv lingvistika** va **madaniyatlararo kommunikatsiya** tadqiqotlarida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki metafora inson tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishda asosiy vositalardan biridir. Demak, ularni to‘g‘ri tarjima qilish ikki madaniyat o‘rtasida iqtisodiy bilim va tajribani samarali ko‘chirish imkonini beradi [7:15].

Kelgusida ushbu masala bo‘yicha yanada kengroq ilmiy izlanishlar olib borilishi zarur. Jumladan:

- ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi iqtisodiy metaforalarni **qiyosiy tahlil** qilish;
- **korpus lingvistikasidan** foydalanib, iqtisodiy metaforalarning qo‘llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini o‘rganish;
- turli tillarda iqtisodiy metaforalarning tarjima variantlarini tahlil qilib, ularning samaradorligini aniqlash;
- tarjimonlar uchun **metodik qo‘llanmalar** ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar yaratish.

Shu jihatdan, iqtisodiy metaforalar tarjimasi zamonaviy tarjimashunoslikda eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning samaradorligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi [1:39].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. 242 p.
2. Чудинов, А. П. Политическая лингвистика. – М.: Флинта, 2006.256 -с.
3. Kövecses, Z. Metaphor: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 375 p.
4. Charteris-Black, J. Metaphor and vocabulary teaching in ESP economics // English for Specific Purposes. – 2000. – Vol. 19, № 2. – P. 149–165. – DOI: 10.1016/S0889-4906(98)00017-9.
5. Musolff, A. Metaphor and Political Discourse: Analogical Reasoning in Debates about Europe. – London: Palgrave Macmillan, 2004. – 200 p.
6. Koller, V. Metaphor and Gender in Business Media Discourse: A Critical Cognitive Study. – London: Palgrave Macmillan, 2004. – 250 p.
7. Schäffner, C. Metaphor and translation: Some implications of a cognitive approach // Journal of Pragmatics. – 2004. – Vol. 36, № 7. – P. 1253–1269.
8. Boers, F. Enhancing metaphoric awareness in specialised reading // English for Specific Purposes. – 2000. – Vol. 19, № 2. – P. 137–147.

Sevinch SUYUNQULOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
Oqdaryo tumani 13-maktab ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi
sevinchsuyunqulova1@gmail.com

SO‘ZLARDA SHAKL VA MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARINI O‘QITISHDA GRAMMATIK JADVALLARNING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu tadqiqot so‘zlarda shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘qitishda grammatik jadvallarning o‘rnini tahlil qiladi. Maqola adabiyotlar tahlili orqali grammatik jadvallarning tillarni o‘qitishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, grammatik jadvallar so‘z turkumlarini sistematik o‘rganishda muhim vosita bo‘lib, talabalarning grammatik tushunchalarni egallashini osonlashtiradi. Maqolada O‘zbek, rus va xorijiy manbalar asosida grammatik jadvallarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *grammatik jadvallar, so‘z turkumlari, shakl va ma’no munosabati, til o‘qitish metodikasi, didaktika*

Annotation: this study analyzes the role of grammatical tables in teaching word types according to the relationship of form and meaning. The article shows the effectiveness of grammatical tables in language teaching through literature analysis. According to the results of the study, grammatical tables are an important tool in the systematic study of word classes and facilitate students’ acquisition of grammatical concepts. The article analyzes the didactic potential of grammatical tables based on Uzbek, Russian and foreign sources.

Key words: *grammatical tables, word classes, relationship of form and meaning, language teaching methodology, didactics*

Аннотация: в данном исследовании анализируется роль грамматических таблиц в обучении типам слов в зависимости от соотношения формы и значения. Статья демонстрирует эффективность грамматических таблиц в обучении языку посредством анализа литературы. Согласно результатам исследования, грамматические таблицы являются важным инструментом систематического изучения классов слов и способствуют усвоению учащимися грамматических понятий. В статье анализируется дидактический потенциал грамматических таблиц на основе узбекских, русских и зарубежных источников.

Ключевые слова: *грамматические таблицы, классы слов, соотношение формы и значения, методика обучения языку, дидактика*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik va til o‘qitish metodikasida so‘zlarda shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. So‘z turkumlari tizimi har bir tilning grammatik tuzilishining asosini tashkil etadi va talabalar uchun til qonuniyatlarini tushunishda kalit rol o‘ynaydi [1]. Grammatik jadvallar esa bu murakkab tushunchalarni sistematik va tushunarli shaklda taqdim etishning eng samarali usullaridan biridir. O‘zbek tilida so‘z turkumlari tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, shakl va ma’no jihatdan turli xil tasniflanadi. Bu tasnifni o‘qitishda an’anaviy usullar ko‘pincha talabalar uchun qiyin va tushunarsiz bo‘ladi. Shu sababli, grammatik jadvallardan foydalanish zaruriyati paydo bo‘ladi [2]. Jadvallar orqali so‘z turkumlarining shakl va ma’no belgilarini sistematik ravishda o‘rganish mumkin.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologiyasi adabiyotlar tahlili va nazariy-tahliliy yondashuvga asoslangan. O‘zbek tilshunosligi sohasida Sh. Rahmatullayev so‘z turkumlarining tasnifi va ularni o‘qitish usullari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan. U grammatik jadvallarning O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirishda muhim ekanligini ta’kidlagan [1]. Rahmatullayevning fikricha, jadvallar O‘zbek tili grammatikasining milliy xususiyatlarini tushuntirish uchun zarur vositadir. A. Hojiyev o‘z tadqiqotlarida O‘zbek tili so‘z turkumlarining semantik va morfologik xususiyatlarini sistematik o‘rganish zarurligini ta’kidlagan. U grammatik jadvallarni so‘z turkumlari orasidagi murakkab munosabatlarni aniqlash va tushuntirish uchun eng qulay vosita deb baholagan [2].

M. Askarova O‘zbek tili grammatikasini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni tadqiq etgan. U grammatik jadvallarning vizual ta’sir ko‘rsatish va talabalar xotirasida mustahkam bilimlar shakllantirishdagi rolini alohida ta’kidlagan [3]. Askarova grammatik jadvallarni kognitiv yondashuvning muhim elementi sifatida qaragan va ularning psixopedagogik asoslarini ochib bergan. G. G‘ulomov O‘zbek tilining funksional grammatikasi bo‘yicha tadqiqotlarida so‘z turkumlarining kommunikativ funksiyalarini grammatik jadvallar orqali tushuntirishning samaradorligini ko‘rsatgan [4]. U jadvallarni faqat nazariy bilimlar berish emas, balki amaliy til ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida qaragan.

N. Mahmudov va A. Nurmonov o‘zbek tili morfologiyasi bo‘yicha ishlarida grammatik jadvallarning sistematik ta’lim berishdagi ahamiyatini ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, jadvallar orqali so‘z turkumlarining shakl va ma’no belgilarini ketma-ket va mantiqiy tartibda o‘rganish mumkin [5]. Bu yondashuv talabalarning bilimlarini puxta egallashiga yordam beradi. Z. Yo‘ldoshev o‘zbek tili o‘qitish metodikasi sohasidagi tadqiqotlarida grammatik jadvallarning didaktik imkoniyatlarini keng o‘rgangan. U jadvallarni turli xil o‘qitish bosqichlarida qo‘llash usullarini ishlab chiqqan va ularning har birining o‘ziga xos afzalliklarini ko‘rsatgan [6]. Yo‘ldoshev grammatik jadvallarni interfaol o‘qitish usullari bilan birgalikda qo‘llash zarurligini ta’kidlagan.

Rus tilshunoslik maktabidan V.V. Babaytseva so‘z turkumlarini o‘qitishda sistematik yondashuvning zarurligini ta’kidlagan. U grammatik jadvallarni so‘z turkumlarining shakl va ma’no belgilarini taqqoslash uchun eng qulay vosita deb hisoblagan [7]. Babaytsevaning fikriga ko‘ra, jadvallar orqali so‘z turkumlari orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniq ko‘rsatish mumkin. Xorijiy tadqiqotchilar orasida M. Swan grammatik jadvallarning kommunikativ til o‘qitishdagi o‘rnini o‘rgangan. U jadvallar orqali grammatik qoidalarni kontekstli o‘rganishning imkoniyatlarini ko‘rsatgan [8]. Swan grammatik jadvallarni faqat qoida o‘rgatish emas, balki amaliy kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida qaragan.

R. Carter va M. McCarthy grammatik jadvallarning til korpusi bilan bog‘liqligini ta’kidlaganlar. Ular grammatik jadvallarni zamonaviy til materiallariga asoslantirishning zarurligini ko‘rsatganlar [9]. Bu yondashuv grammatik jadvallarning dolzarbligini ta’minlaydi va talabalar uchun haqiqiy til materiallarini o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, grammatik jadvallar so‘z turkumlarini o‘qitishda bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Jadvallar grammatik materialning sistematizatsiyasini ta’minlaydi. So‘z turkumlarining shakl va ma’no belgilarini jadval ko‘rinishida taqdim etish talabalar uchun murakkab grammatik tushunchalarni tushunarli qiladi. Jadvallar orqali har bir so‘z turkumining o‘ziga xos xususiyatlari aniq va tartibli tarzda ko‘rsatiladi.

Quyidagi jadval o‘zbek tilidagi asosiy so‘z turkumlarining shakl va ma’no belgilarini sistematik ko‘rsatadi:

1-jadval. O‘zbek tilidagi so‘z turkumlarining shakl va ma’no belgilari

So‘z turkumi	Ma’no belgisi	Shakl belgisi	Sintaktik vazifasi	Misollar
Ot	Predmet, hodisa, tushuncha	Kelishik qo‘shimchalari	Ega, to‘ldiruvchi	kitob, bola, mehnat
Sifat	Belgini bildiradi	Darajalarni ifodalash	Aniqlovchi	yaxshi, katta, oq
Son	Miqdor, tartib	Turkumlash belgilari	Aniqlovchi	bir, ikkinchi, ko‘p
Olmosh	Predmet, belgi, miqdorga ishora	Shaxs-son qo‘shimchalari	Turlicha	men, u, bu
Fe’l	Harakat, holat	Zamon, shaxs-son	Kesim	kelmoq, o‘qimoq, turmoq
Ravish	Harakat belgisi	Darajalarni ifodalash	Hol	tez, sekin, yaxshi
Yuklama	Modal ma’no	O‘zgarmas	Modal so‘z	-chi, -ku, -da

Jadval tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, har bir so‘z turkumi o‘ziga xos ma’no va shakl belgilariga ega. Bu belgilar orqali so‘z turkumlari bir-biridan aniq farqlanadi. Masalan, otlar predmetni bildirib, kelishik qo‘shimchalarini olsa, fe’llar harakat yoki holatni ifodalab, zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini qabul qiladi. Bu sistematik taqdimot talabalar uchun so‘z turkumlarini ajratish va tanib olishni osonlashtiradi.

Grammatik jadvallar taqqoslash imkoniyatini yaratadi. So‘z turkumlari orasidagi o‘xshashlik va farqlarni jadval shaklida taqdim etish talabalarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Yuqoridagi jadval orqali talabalar sifat va ravishning umumiy belgilarini (darajalarni ifodalash) ham, farqlarini (sifat belgini, ravish esa harakat belgisini bildirishi) ham aniq ko‘rishi mumkin.

Grammatik jadvallar mustaqil o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Talabalar jadvallar yordamida grammatik materiallarni mustaqil takrorlash va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Jadvallarning aniq va tartibli tuzilishi talabalarning o‘z-o‘zini tekshirish va baholash jarayonlarini osonlashtiradi. 1-jadvaldagi sistematik taqdimot talabalar uchun qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Jadvallar grammatik qoidalarni qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi. So‘z turkumlarining turli belgilarini bir jadvaldagina ko‘rish talabalarning umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, jadval orqali faqat fe’l va ravishda harakat tushunchasi mavjudligini, ammo fe’l harakatning o‘zini, ravish esa harakat belgisini bildirshini aniq farqlash mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, grammatik jadvallar so‘zlarda shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘qitishda muhim o‘rin tutadi. Jadvallar grammatik materialning sistematizatsiyasi, vizualizatsiyasi va mustahkamlanishida samarali vosita hisoblanadi. Ular talabalarning grammatik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishiga va uzoq muddatli xotirada saqlashiga yordam beradi. Taqdim etilgan jadval orqali o‘zbek tilidagi so‘z turkumlarining asosiy belgilarini sistematik o‘rganish mumkinligi isbotlandi. Jadval grammatik tushunchalarni vizual shaklda taqdim etish va taqqoslash imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa talabalarning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev, Sh.*O‘zbek tilining izohli lug’ati*. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1995.
2. Hojiyev, A.*O‘zbek tili so‘z turkumlarining nazariy asoslari*. –Toshkent: Fan, 2002.
3. Askarova, M.*O‘zbek tili grammatikasini o‘qitishning zamonaviy usullari*. –Toshkent: Tafakkur, 2010.
4. G‘ulomov, G.*O‘zbek tilining funktsional grammatikasi*. –Toshkent: Universitet 2001.
5. Mahmudov, N., Nurmonov, A. *O‘zbek tili morfologiyasi*. – Toshkent: Tamaddun, 2007.
6. Yo‘ldoshev, Z. *O‘zbek tili o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
7. Babaytseva, V.V. (1989). *Russkiy yazyk: teoriya*. Moskva: Prosveshchenie.
8. Swan, M. (2005). *Practical English Usage*. Oxford: Oxford University Press.
9. Carter, R., & McCarthy, M. (2006). *Cambridge Grammar of English*. Cambridge: Cambridge University Press.

Nazokatxon MUQIMJONOVA,
Farg'ona viloyati Qo'qon shahar
2-sonli politexnikum ingliz tili o'qituvchisi

MUROSA KONSEPTINING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada murosa konseptining jahon tilshunosligida o'rganilishi tahlil qilinadi. G'arbiy tadqiqotlarda u xushmuomalalik nazariyasi asosida suhbatdagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi strategiya sifatida talqin etilgan. Rus ilmiy maktabida murosa konfliktologiya va ijtimoiy psixologiya bilan bog'liq holda shaxslararo ziddiyatlarni yumshatish vositasi sifatida o'rganilgan. Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida, murosa qadimiy konsept sifatida xalq maqollari va badiiy matnlarda milliy tafakkur va ma'naviy merosning ifodasi bo'lib shakllangan. Global tadqiqotlarda esa u xalqaro diplomatiya va siyosiy diskursning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari murosa konseptining universalligini va interdisiplinar mazmunini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: *murosa konsepti, xushmuomalalik, konfliktologiya, pragmatika, diskurs tahlili, lingvokulturologiya, xalqaro diplomatiya, milliy meros.*

Аннотация: в данной статье анализируется изучение концепта компромисса в мировой лингвистике. В западных исследованиях он трактуется как стратегия, обеспечивающая социальное равновесие в разговоре, основанная на теории вежливости. В российской научной школе компромисс изучается как средство смягчения межличностных конфликтов в связи с конфликтологией и социальной психологией. В тюркских языках, в частности в узбекском, компромисс – древнее понятие, сформировавшееся в народных пословицах и литературных текстах как выражение национальной мысли и духовного наследия. В глобалистике он рассматривается как основной механизм международной дипломатии и политического дискурса. Результаты исследования подтверждают универсальность и междисциплинарное содержание концепта компромисса.

***Ключевые слова*:** *концепция компромисса, вежливость, конфликтология, прагматика, дискурсивный анализ, лингвокультурология, международная дипломатия, национальное наследие.*

Annotation: this article analyzes the study of the concept of compromise in world linguistics. In Western studies, it is interpreted as a strategy that ensures social balance in a conversation based on the theory of politeness. In the Russian scientific school, compromise is studied as a means of mitigating interpersonal conflicts in connection with conflictology and social psychology. In Turkic languages, in particular, in Uzbek, compromise is an ancient concept that has been formed in folk proverbs and literary texts as an expression of national thought and spiritual heritage. In global studies, it is considered as the main mechanism of international diplomacy and political discourse. The results of the study confirm the universality and interdisciplinary content of the concept of compromise.

Key words: *concept of compromise, politeness, conflictology, pragmatics, discourse analysis, linguoculturology, international diplomacy, national heritage.*

Kirish. So'nggi yillarda jahon tilshunosligida konseptual tahlil tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Til birliklarida mujassam bo'lgan konseptlar milliy tafakkur va ijtimoiy qadriyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Shulardan biri — "murosa" konsepti bo'lib, u ijtimoiy-madaniy muloqotda tinchlik, kelishuv va o'zaro hurmatni ta'minlovchi universal hodisa sifatida qaraladi.

Bugungi globallashuv davrida turli madaniyat va tillar vakillari o'rtasidagi samarali muloqot tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, murosa konseptini lingvokulturologik va pragmatik jihatdan tadqiq qilish, uning xalqaro diskurslarda qanday semantik mazmun kasb etishini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Chunki murosa konsepti nafaqat ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni, balki madaniyatlararo hamkorlikni ham ta'minlaydigan asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Murosa masalasi kognitiv tilshunoslikda inson tafakkurining muhim konseptual modeli, pragmatikada esa nutq strategiyasi sifatida o'rganiladi. Shu

bois, jahon tilshunosligida “murosa” konseptining shakllanishi, tadqiq metodlari va asosiy nazariy yondashuvlarini ilmiy tahlil qilish zamonaviy ilm-fanning dolzarb masalalaridandir.

Asosiy qism. Jahon tilshunosligida murosa konsepti keng qamrovli ilmiy izlanishlarning markazida turib kelmoqda. Avvalo, g‘arbiy ilmiy maktablarda kompromiss va kelishuv masalalari lingvopragmatik hamda kommunikativ nuqtayi nazardan tadqiq qilingan. Masalan, P.Braun va S.Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi doirasida murosa suhbat jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy muvozanatni ta’minlovchi strategiya sifatida baholangan[1]. Ularning izlanishlarida nutqiy aktlarning ijtimoiy vaziyatga moslashtirilishi, shuningdek, muloqotning konfliktlardan xoli kechishi uchun murosa alohida ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

Rus tilshunosligida esa “компромисс”, “согласие” kabi tushunchalar ko‘proq konfliktologiya va ijtimoiy psixologiya bilan uyg‘unlikda o‘rganilgan[2]. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda murosa shaxslararo muloqotda ziddiyatlarni yumshatishning psixolingvistik mexanizmi sifatida izohlanadi. Turkiy tillar doirasida murosa konseptining ilmiy tahlili nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida asosan, badiiy matnlar va maqollarda uchraydigan “murosa” ifodasi milliy qadriyatlar bilan bog‘liq holda tadqiq qilinmoqda. Xalq maqollarida uchraydigan “Murosali boshdan do‘st ayrilmas” yoki “Murosa qilgan — yutqazmagan” kabi hikmatlar xalq tafakkurida murosaning qadimiy konsept sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Bu esa murosa konseptini nafaqat tilshunoslik, balki etnolingvistika va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham o‘rganish zarurligini taqozo etadi.

Xorijiy tadqiqotlarda murosa globalizatsiya jarayonida madaniyatlararo muloqotning asosiy mexanizmi sifatida baholangan. Shu bois, ingliz tilidagi “compromise”, “agreement”, “conciliation” tushunchalari xalqaro diplomatiya va siyosiy diskurslarda keng qo‘llanilib, nutqiy etiketi va diplomatik tilning markaziy elementlaridan biri sifatida izohlangan.

Analitik yondashuv jihatidan murosa konseptining jahon tilshunosligida qanday talqin qilinayotganini aniqroq ko‘rsatish maqsadida mavjud ilmiy yondashuvlarni qiyosiy ko‘rinishda berish zarur. Quyidagi jadval konseptning g‘arbiy, rus, turkiy va global tadqiqotlardagi o‘rni hamda asosiy xulosalarni umumlashtiradi:

1 B.Brown, S.Levinson. Universals of Language Usage: Politeness Phenomena./Questions and Politeness: Strategies in Social Interaction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.

2 А. Я.Анцупов, А. И.Шипилов. Конфликтология. – Моног.: Юрайт, 2013. 471 с.

Murosa konseptining turli tilshunoslik maktablarida tadqiqi

Maktab / Yo‘nalish	Asosiy olimlar / manbalar	Tadqiq predmeti	Asosiy xulosalar
G‘arbiy tilshunoslik	P. Brown, S. Levinson (Politeness Theory)	Lingvopragmatika, kommunikativ strategiyalar	Murosa suhbatda ijtimoiy muvozanatni ta’minlovchi strategiya
Rus tilshunosligi	Анцупов, Шипилов (Конфликтология), Гришина (Психология конфликта)	Konfliktologiya, ijtimoiy psixologiya	Murosa shaxslararo muloqotda ziddiyatlarni yumshatish mexanizmi, axloqiy qadriyat sifatida talqin
Turkiy tillar (O‘zbek)	Maqollar, badiiy matnlar (“Murosali boshdan do‘st ayrilmas”)	Etnolingvistika, madaniyatshunoslik	Murosa qadimiy milliy konsept, qadriyatlar tizimida mustahkam
Xorijiy tadqiqotlar	Diplomatik va siyosiy diskurs tadqiqotchilari	Global kommunikatsiya, xalqaro diplomatiya	“Compromise”, “agreement”, “conciliation” tushunchalari diplomatik tilning markaziy elementi

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, murosa konsepti turli ilmiy maktablar doirasida turlicha talqin qilinishi bilan birga, ularning barchasida umumiylikni ta’minlovchi ma’no qatlamlari mavjud. Ayniqsa, g‘arbiy tilshunoslikdagi lingvopragmatik izlanishlar, rus konfliktologiyasidagi psixologik yondashuvlar, turkiy

tillardagi milliy-madaniy asoslar va global tadqiqotlarda shakllangan diplomatik diskurs bir nuqtada — murosaning insoniy muloqotdagi barqarorlikni ta'minlovchi konsept sifatidagi mohiyatida birlashadi.

Muhimi, turli madaniy va ilmiy muhitlarda konseptga berilgan ta'rif va talqinlar xilma-xil bo'lsa-da, ular orasida chuqur umumiylik mavjud. G'arbiy tadqiqotlarda murosa ko'proq xushmuomalalik nazariyasi va nutqiy strategiyalar bilan bog'liq bo'lsa, rus ilmiy maktabida u psixologik va ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlikda izohlangan. Turkiy tillarda esa murosa qadimiy madaniy xotira va milliy meros bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda. Global tadqiqotlar esa murosaning xalqaro diplomatiya va siyosiy muloqotdagi o'rnini yoritib, uni madaniyatlararo hamkorlikning universal mexanizmi sifatida baholamoqda.

Mazkur umumiylik shuni ko'rsatadiki, murosa konsepti bir vaqtning o'zida ham lingvistik, ham ijtimoiy, ham madaniy kategoriyadir. U faqatgina nutqiy jarayon doirasida emas, balki insoniyatning qadriyat tizimida ham markaziy o'rin egallaydi. Demak, tilshunoslikdagi konseptual tahlil nafaqat til birliklarining semantik qatlamini, balki jamiyatning madaniy va axloqiy yo'nalishlarini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan adabiy manbalar tahlili, metodologik yondashuvlar hamda natijalar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, murosa konsepti jahon tilshunosligida ko'p qirrali va interdisiplinar tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. U bir vaqtning o'zida ham **lingvistik birlik**, ham **ijtimoiy-psixologik mexanizm**, ham **madaniy qadriyatlar ifodasi** bo'lib, turli ilmiy maktablarda o'ziga xos jihatlarda talqin qilinadi. G'arbiy tadqiqotlarda u xushmuomalalik nazariyasi doirasida ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi kommunikativ strategiya sifatida ko'rilgan bo'lsa, rus ilmiy maktabida shaxslararo ziddiyatlarni yumshatishning psixolingvistik mexanizmi sifatida yoritilgan. Turkiy tillarda, ayniqsa o'zbek madaniyatida murosa qadimiy konsept sifatida milliy tafakkurda chuqur ildiz otib, xalq maqollari va badiiy matnlarda insoniy fazilatlarning ramzi sifatida mustahkamlangan. Global tadqiqotlarda esa murosa xalqaro diplomatiya va siyosiy muloqotning ajralmas tamoyili sifatida talqin etilib, madaniyatlararo hamkorlikning universal modeli sifatida qaraladi.

Shunday qilib, murosa konsepti lingvistik tahlil doirasidan chiqib, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini anglashda ham asosiy nazariy kategoriya darajasiga ko'tarilganini ko'rish mumkin. Bu konseptning universalligi uning turli madaniyatlarda turlicha shaklda namoyon bo'lishida, lekin umumiy mohiyatda — kelishuv, uyg'unlik va barqarorlik g'oyasini mujassamlashtirishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А. Я.Анцупов, А. И.Шипилов. Конфликтология. – Моног.: Юрайт, 2013. 471- с.
2. Al-Abbas L. S. Politeness strategies used by children in requests in relation to age and gender: a case study of Jordanian elementary school students // *Frontiers in Education*. 2023. 10 – 12 p.
3. A.Mambetniyazova, G.Babaeva, R.Dauletbayeva. Linguistic and cultural analysis of the concept "politeness" // *Semiotica*. 2024. Vol. 258. P. 73–91.
4. B. Brown, S.Levinson. Universals of Language Usage: Politeness Phenomena./Questions and Politeness: Strategies in Social Interaction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 - p.
5. Dadamirzayeva M. G'. The Linguistic Aspect of the Expression of Uzbek and English Speech Etiquette Forms // *International Conference on Interdisciplinary Science*, Vol. 1 No. 1. 2024. P. 274–277.
6. Y.Li Shen, Huang, D.Zhao, D.Han. A Pragmatic Analysis of Dong Yuhui's Interview under Grice's Cooperative Principle and Politeness Strategies // *International Journal of Linguistics, Literature and Translation (IJLLT)*. 2025. Vol. 8, No. 3. P. 212–222.

Mohinur USMONOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: mohinurusmonova872@gmail.com

LINGVISTIK EKSPERTIZA – AMALIY TILSHUNOSLIK YO‘NALISHI SIFATIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada lingvistik ekspertologiyaning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, lingvistik ekspertiza faoliyatida obyektivlik tamoyili, uning kriminalistika doirasidan tashqarida ham qo‘llanilishi, ziddiyatli matnlar va kommunikativ vaziyatlarni baholashdagi roli asoslab berilgan. Maqolada sohaga oid dolzarb muammolar, jumladan, lingvist-ekspertlar tayyorlash, nodavlat ekspertiza markazlarini tashkil etish, ilmiy tadqiqotlarning amaliyotga joriy etilishi hamda milliy modelni xalqaro standartlarga mos holda shakllantirish zaruriyati alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari lingvistik ekspertologiyaning nafaqat sud-kriminalistika, balki ta’limiy va ijtimoiy-ma’naviy jarayonlardagi ahamiyatini ham ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik ekspertiza, sud tilshunosligi, kriminalistika, konfliktli matnlar, lingvist-ekspert, huquqiy lingvistika, obyektivlik tamoyili, milliy model.*

Аннотация: в данной статье раскрываются теоретические основы и практическая значимость лингвистической экспертизы. Особое внимание уделено принципу объективности в деятельности лингвист-экспертов, а также расширению сферы применения экспертизы за пределами криминалистики — при анализе конфликтных текстов и коммуникативных ситуаций. В статье обозначены актуальные проблемы отрасли: подготовка специалистов-экспертов, создание негосударственных экспертных центров, внедрение научных исследований в практику и формирование национальной модели, соответствующей международным стандартам. Результаты исследования показывают, что лингвистическая экспертиза имеет важное значение не только в судебно-криминалистической, но и в образовательной и социокультурной сферах.

Ключевые слова: *лингвистическая экспертиза, судебная лингвистика, криминалистика, конфликтные тексты, лингвист-эксперт, правовая лингвистика, принцип объективности, национальная модель.*

Annotation: this article explores the theoretical foundations and practical significance of linguistic expertise. Particular attention is paid to the principle of objectivity in the work of linguistic experts and the expansion of its scope beyond forensics, including the analysis of conflicting texts and communicative situations. The study highlights key issues in the field: training of linguistic experts, establishing non-governmental expertise centers, integrating scientific research into practice, and developing a national model aligned with international standards. The findings demonstrate that linguistic expertise plays an important role not only in forensic and judicial contexts but also in educational and socio-cultural domains.

Key words: *linguistic expertise, linguistic expertology, forensic linguistics, criminology, conflicting texts, linguistic expert, legal linguistics, principle of objectivity, national model.*

So‘nggi yillarda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida tez-tez tilga olinayotgan hamda jahon miqyosida jadal rivojlanayotgan lingvistik ekspertiza amaliy tilshunoslik yo‘nalishi sifatida jadal rijovlanmoqda. Olib borilayotgan izlanishlarda lingvistik ekspertizaning sud ekspertizasi va tilshunoslikning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Lingvistik ekspertiza doirasida tilshunoslik amaliy vazifani bajaradi, ya’ni lingvistik bilimlardan dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda foydalaniladi. Xususan, lingvistik ekspertiza til dalillariga asoslangan ma’lumotlarni olishning samarali usullaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur yo‘nalishda an’anaviy yozishmalar, elektron xatlar, ijtimoiy tarmoqdagi kontent hamda ommaviy axborot vositalari materiallarida aks etgan ziddiyatli matnlarning lingvistik ekspertizasi sud jarayonlari uchun ham, tilshunoslik fani uchun ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Dastlab lingvistik ekspertiza gumonlanuvchilarning ko‘rsatmalariga tayanib o‘tkazilgan bo‘lsa, keyinchalik SMS xabarnomalar, turli ijtimoiy tarmoqdagi tvitlar va izohlar asosida ham amalga oshirilmoqda. Lingvistik ekspertizani og‘zaki yoki yozma shakldagi nutqni protsessual tartibga solishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida talqin etish mumkin. Protsessual tartibga solingan tadqiqot jarayonida esa sud nutqi hamda umumiy tilshunoslik bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar talab etiladi.

Til murakkab tuzilishga ega tizim bo‘lib, undagi imkoniyatlar va o‘ziga xosliklar keng qamrovli hamda ko‘p qirrali xarakter kasb etadi. Shu bois, uni anglash va to‘g‘ri talqin qilish jarayoni murakkabliklarga boydir. Tilda mavjud turli nozikliklarni nutq aktini tahlil qilish orqali aniqlash mumkin. Bunda ekspert matn muallifi va uning psixologik holati haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lib, yakuniy xulosa chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Lingvistik ekspertiza ziddiyatli matnlarda uchraydigan kichik til birliklarini umumlashtirish va ularni umumiy belgilarga keltirishga xizmat qiladi. Shu orqali muayyan jarayon doirasida aniqlanishi zarur bo‘lgan real holatlar isbotlanadi. Ma’lum bir ishning haqiqiy jihatlarini yoritishda uning lisoniy komponentini chuqur tahlil qilish hamda yakuniy xulosaga kelish bevosita lingvistik ekspertiza vositasida amalga oshiriladi. Matnni o‘rganish, uning tub mohiyatini anglash va talqin etish keng qamrovli filologik bilimlar majmuasini talab etadi. Maxsus bilimlarsiz matnni tahlil qilish, umumiy xulosa chiqarish yoki uning asl mazmunini to‘liq ochishning imkoni yo‘q. Ayniqsa, ziddiyatli matnlarda umumiy baho berish, so‘zlarning qiymat darajasini aniqlash va ularning semantik yukini ochib berish matn mohiyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, “matn” tushunchasi faqat badiiy adabiyot namunalari bilan chegaralanmaydi. U yuridik hujjatlarni ham qamrab oladi. Shu bois, istalgan turdagi yuridik matnlar – og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar – ularning mohiyatini ochib berish jarayoni lingvistik ekspertiza asosida amalga oshiriladi. Lingvistik ekspertiza bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Jumladan:

1.Konfliktli matnlarni tahlil qilish – ushbu jarayonda matnda qo‘llangan so‘zlar, iboralar hamda barqaror frazeologik birikmalarning mazmun jihatidan matnga aloqadorligi aniqlanadi va baholanadi.

2.Mualliflik huquqini himoya qilish – salbiy g‘oyalarning mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida tovar belgilari, tashkilot, xususiy firma va kompaniyalar shiorlari, reklama matnlari hamda tijorat nomlari lingvistik ekspertizadan o‘tkaziladi.


3.Konfliktli vaziyatlarga yechim izlash – matnni lingvistik ekspertiza qilish orqali turli nizoli holatlarning mohiyatini ochib berish va ularni huquqiy tartibga solishda asos bo‘luvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

4.Jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish – til birliklaridan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan so‘z bilan bog‘liq jinoyatlar va huquqbuzarliklarning profilaktikasini ta’minlash lingvistik ekspertizaning yana bir vazifasidir.

Lingvistik ekspertologiya fan sohalari orasida nisbatan yangi tarmoq bo‘lib, jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur sohaga bo‘lgan qiziqish ortib borishi natijasida tadqiqot doirasi ham tobora kengaymoqda. Bugungi kunda xalqaro miqyosda lingvistik ekspertologiya yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda, shuningdek, maxsus ilmiy jurnallar, monografiyalar va qo‘llanmalar nashr etilmoqda. Xususan, 1993-yilda Xalqaro lingvist-ekspertlar Assotsiatsiyasi tashkil etilgan, 1994-yildan esa “Xalqaro til, nutq va qonun” jurnali chop etila boshlagan. Hozirgi kunda Rossiya, Indoneziya va boshqa davlatlarda ushbu sohada bakalavriat va magistratura dasturlari joriy qilingan.

Lingvistik ekspertizaga bo‘lgan ehtiyoj ko‘plab amaliy vaziyatlarda yuzaga chiqadi. Jumladan, mualliflik identifikatsiyasi, ovozli nutqni identifikatsiya qilish, tarjima jarayonidagi plagiat holatlarini aniqlash, ekstremistik mazmundagi chorlovlarni baholash, intellektual mulkka tajovuzni aniqlash kabi sud jarayonlarida lingvistik bilimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, matn avtorizatsiyasi masalasi sud ekspertizasi jarayonida muhim o‘rin tutadi. Matn avtorizatsiyasi amaliy lingvistik tadqiqotlar sohasi bo‘lib, matndan muallif haqida xulosalar chiqarishga qaratilgan. Shu munosabat bilan muallifshunoslik ekspertizasi va xatshunoslik ekspertizasi alohida yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, har ikkisi ham lingvistik bilimlarga tayanadi.

O‘zbekistonda ham lingvistik ekspertologiya sohasida ilmiy izlanishlar kengayib bormoqda. Ushbu izlanishlar, asosan, o‘zbek amaliy tilshunosligi ilmiy maktabi doirasida amalga oshirilmoqda. Xususan, quyidagi tadqiqotlar shular jumlasidandir:



Hozirgi kunda lingvistik ekspertologiyaning rivojlanishi bir qator muammolarni hal etishni taqozo etadi:

- Sud ekspertizalarining boshqa yo‘nalishlari bilan uyg‘unlikda lingvistik ekspertiza tizimini shakllantirish, uning doirasini faqat haqoratli nutqni emas, balki turli konfliktli matnlarni ham qamrab oladigan darajada kengaytirish.
- Malakali lingvist-ekspertlarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirish va shu yo‘nalishda magistratura dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
- Nodavlat lingvistik ekspertiza markazlari faoliyatini tashkil etish.
- Ilmiy tadqiqotlarning amaliy rolini kuchaytirish va sud ekspertizalarida ularni yordamchi vosita sifatida qo‘llash.
- Yaqin kelajakda lingvist-ekspertlar assotsiatsiyasini tuzish hamda o‘zbek lingvistik ekspertologiyasining jahon standartlariga mos milliy modelini yaratish.

Mazkur muammolar yechimining topilishi sud-kriminalistika sohasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish, mavjud nizoli vaziyatlarga samarali yechim ishlab chiqish va lingvistik ekspertologiyaning xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda lingvistik ekspertologiya jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda shakllanib, kundan kunga dolzarb sohaga aylanmoqda. Dastlabki bosqichlarda lingvistik ekspertiza tayinlash sud jarayonlari uchun asosli deb topilmagan. Buning birinchi sababi – sud organlari lingvist-ekspertlar qo‘llaydigan metodlarni tergov jarayonida ishonchli dalil sifatida qabul qilmaganligida edi. Ikkinchi sabab esa lingvist-ekspertlarning xulosalari buyurtmachining manfaatlariga xizmat qiladi, degan stereotip bilan bog‘liq bo‘ldi. Biroq shuni alohida ta’kidlash joizki, lingvist-ekspert o‘z faoliyatini mavjud dalillarga tayangan holda olib boradi. Ekspert xulosalari sud tomonidan berilgan savollarga asoslanadi va obyektivlik tamoyiliga tayanadi. Shu bois lingvistik ekspertiza kriminalistika bilangina chegaralanmaydi. U nafaqat jinoyat bilan bog‘liq matnlarni, balki turli ziddiyatli hujjatlar va kommunikativ vaziyatlarni ham qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Lingvistik ekspertizada nutq tahlili metodikasi. Jamoaviy monografiya. – T.: Ijod-print, 2023.

2.To‘rayeva D.A. O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi: Filol. fan bo‘yicha fals. dokt. (Phd)… diss. – Qo‘qon, 2022. 137-b.

3.Yoqubova S. Lingvistik ekspertizada anonim xatlarning shaxs yoshiga xos xususiyatlarini aniqlash: Filol. fan bo‘yicha fals.dokt. (PhD)… diss. – Qo‘qon, 2023.

Shaxobiddin MUSAYEV,
O‘zJOKU tadqiqotchisi

DAVLAT TILIGA DOIR MAVZULARNI YORITISHDA AXBORIY JANRLARDAN FOYDALANISH MASALALARI

Annotatsiya: maqolada “Davlat tili haqida”gi qonun ijrosining yoritilishida axboriy janrlardan foydalanish ahamiyati ochib berilgan. Chop etilgan yangiliklar va intervyular tahlil etilib, mavzuning OAVga olib chiqishning o‘ziga xosliklari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *gazeta, janr, yangilik, intervyu, davlat tili, qonun, mavzu, yoritish.*

Аннотация: в статье **выявлены приминение** информационных жанров при исполнение закона «О государственом языке». Даётся анализ опубликованных новостей и интервью, исследуется особенности освещение темы в СМИ.

Ключевые слова: *газета, жанр, новость, интервью,* государственый язык*, закон, тема, освещение.*

Annotation: *the article identifies the use of informational genres in the implementation of the Law «On the State Language». It provides an analysis of published news and interviews, and examines the specifics of how the topic is covered in the media.*

Key words: *newspaper, genre, news, interview, state language, law, topic, media coverage.*

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganiga 35 yildan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, hanuzga qadar jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida uning samarali ijrosini ta’minlashda qator muammolar mavjud. Ularni bartaraf etish uchun til siyosati yoritilishining axborot konsepsiyasini shakllantirish, mavjud kamchiliklarni tahlil qilish, ularning samarali ilmiy yechimlarini ishlab chiqish, yoritish milliy jurnalistikaning kun tartibidagi vazifa hisoblanadi.

Maqolamizni davlat tili masalasi va muammolarini yoritishdagi vazifasini qay darajada bajarayotganini gazetalar, xususan, “Yangi O‘zbekiston” va “Ma’rifat” nashrlari misolida ko‘rib chiqamiz.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasi Vazirlar Mahkamasi muassisligidagi kundalik nashr hisoblanadi. Unda 2019-2024-yillarda davlat tili mavzusiga doir 58 ta material chop etilgan.

O‘zbekiston maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi hammuassisligidagi “Ma’rifat” haftalik gazetasida esa bu fursatda har xil janrlarda 300 dan ziyod material chop etilgan.

Zamon shiddati, axborot texnologiyalarning yuksalishi axborot janrlarining aksariyatini, ayniqsa, yangiliklarni matbuotdan olib qo‘ydi. Kundalik gazetalar esa mobil aloqa vositalari orqali o‘qilishi qiyin bo‘lgan tahliliy va badiiy-publitsistik janrlarga murojaat qila boshladi.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasida chop etilgan 58 publitsistik asarning 23 tasi yangiliklardir. Uning bir qismi gazetada va boshqa qismi saytida e’lon qilingan.

“Milliy o‘quv dasturi loyihasi taqdim etildi”[1] yangiligida Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetida ona tili va adabiyot fanlarining Milliy o‘quv dasturi loyihasi taqdimoti bo‘lib o‘tganligi haqida ma’lumot berilgan.

Mamlakat Prezidenti “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida ta’lim sohasidagi qator kamchilik va muammolarga e’tibor qaratgan edi. Bu muammolardan biri o‘quv dasturlari ekanligini ta’kidlab, unga barham berish uchun xorijiy ekspertlar va tajribali o‘qituvchilarni keng jalb qilgan holda umumiy ta’limning Milliy o‘quv dasturi loyihasini ishlab chiqish, joriy o‘quv yili davomida uni ilmiy-tadqiqot hamda ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazish taklifini bildirgan edi. Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi tomonidan ona tili va adabiyot fanlarining Milliy o‘quv dasturi loyihasi taqdimoti tashkil etilgani, unda asosiy e’tibor amaldagi dastur grammatikani tushuntirish va yodlatishga asoslanganligi tanqid qilinib, yangi dasturga ko‘ra esa o‘quvchi matnni o‘qish orqali nafaqat grammatika, balki uni amalda qo‘llay olishiga qaratilganligiga urg‘u berilgani ta’kidlangan. Endi o‘quvchilar grammatik bilimlarni nazariy qoidalarni yodlab emas, balki matn va matn asosida berilgan mashqlarni bajarish orqali egallashi belgilanganligi, ona tilini o‘qitish bo‘yicha taklif etilayotgan dasturga ko‘ra, o‘quvchi 4 lingvistik ko‘nikma – eshitib yoki o‘qib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakaga ega bo‘lish kerakligi ta’kidlangan.

Birinchi yangilikning yozilishida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi matbuot xizmati axboroti manba bo‘lgan[2]. Press-relizdan ma’lumot olish va unga ijodiy yondashish zarurligini anglamasdan yozilgan yangilikning o‘qilishi qiyinlashadi[3]. Ikkinchi yangilikda esa tadbirda bevosita ishtirok muxbirning xatti-harakatlari yaqqol sezilgan. Masalan, u milliy o‘quv dasturiga, darslar mazmuniga kiritilayotgan o‘zgarishlarni izohlash uchun

1 https://yuz.uz/news/milliy-oquv-dasturi-loyihasi-taqdim-etildi (murojaat sanasi 30.09.2024)

2 https://yuz.uz/news/qonun-loyihasi-yuzasidan-bildirilgan-etirozlar-bartaraf-etildi (murojaat sanasi 30.09.2024)

3 Bu haqida qarang: Saidov H.Yangiliklar va reportyorlik mahorati: darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi grifi asosida. Darslik. – T.: Ta’lim-media, 2023. 80-b.

ikki mutaxassisdan intervyu olgan va ularning dalillarini keltirgan.

“– Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs talabalarning 99 foizi “O‘tgan kunlar” asari bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada Kumushni ijobiy, Zaynabni salbiy rolda tasvirladi, – deydi adabiyotshunos Zulxumor Mirzayeva. – Shuningdek, universitetda asarlar ustida bahs ketganda talabalarning deyarli hammasi Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi haqida bir xil mulohazani takrorlagan: “Yozuvchi bu asari bilan o‘sha paytdagi jamiyatni bemor demoqchi bo‘lgan”. Endi storeotip ta’limdan voz kechiladi. Bu esa o‘quvchida asarga, undagi obrazlar, muammolarga nisbatan o‘z munosabatini shakllantirishga, tahlil qilish, fikrlash va saboq chiqarishga xizmat qiladi”[4]. Muxbir yangilik matnini ixchamlash uchun ikkinchi intervyuning mazmunini bergan: “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi Komil Jalilov esa amaldagi adabiyot darsliklaridagi “Asar haqida” bo‘limida o‘qilgan asar tahlil qilinib, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘quvchining mustaqil fikriga o‘rin qoldirmay “chaynab” berishini tanqid qildi. Taklif etilayotgan adabiyotni o‘qitish dasturiga ko‘ra, darsliklardan badiiy asar tahliliga bag‘ishlangan mazkur bo‘lim olib tashlanadi”[5].

Ikki matn tahlilidan ko‘rinadiki, bo‘lib o‘tgan voqea-hodisa haqida bevosita ishtirok etgan jurnalist B.Otajonovaning yangiligi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi matbuot xizmati vakili uzatgan press-relizning rasmiy uslubidan tubdan farq qiladi.

Hindistonlik professor K.M.Shrivastava “Intervyu – jurnalistikada axborot olishning asosiy usulidir”, desa, angliyalik jurnalist va muharrir Devid Rendal “Intervyuni axborot yig‘ish texnikasi deb bilaman”, deya uning fikrini ma’qullaydi[6]. Yuqoridagi yangiliklar uchun faktlar asosan intervyu usulida olingan.

Biroq intervyu alohida janr ham hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘ta dolzarb va ijro yuzasidan savollari ko‘p bo‘lgan davlat tili mavzusida intervyu janriga juda kam murojaat qilingan.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasi muxbiri Muxtasar Tojimamatovaning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori Nizomiddin Mahmudov bilan intervyusi[7] fikrimizga dalildir. Unda muxbir O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan dastur ijrosi doirasida olimlar tomonidan tayyorlangan 6 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning avvalgilardan farqi va boshqa o‘ziga xosliklari haqida oltita savol bilan murojaat qilgan. Savollar mavzu doirasidan chiqmagan, lekin ularning ba’zilari juda uzun, qolaversa savol emas tasdiq ma’nosida kelgan. Masalan, ularning eng kattasini ko‘rib chiqamiz.

“– Qadimgi xitoy va yapon adabiyoti bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan akademik Nikolay Konrad o‘tgan asrning 60-yillarida yozgan maqolalaridan birida xitoy va yapon adabiy tili xalqning jonli so‘zlashuvi asosida shakllanganini aytib o‘tgan ekan. Lekin biz ko‘pincha adabiy til me’yorlari haqida gapirganimizda shevalarga o‘gay munosabatda bo‘lishga intilamiz. Axir, xalqimiz necha asarlardan beri asrab kelgan bu so‘zlarda o‘zligimiz, milliy ildizlarimiz ayon bo‘ladi-ku! Bu safar shunday “jonli so‘zlar” adabiy asarlar va xalq tilidan olinib izohli lug‘atlarga joylashga harakat qilingani bizni quvontirdi...”

AQSHda intervyu qiroli nomini olgan Larri Kingning “Jurnalistning intervyu jarayonidagi vazifasi suhbatdoshdan axborotni sug‘urib olishdir. Men hech qachon mehmondan o‘zimni yuqori qo‘ymaganman. Intervyu olayotganimda hech qachon “men” demayman. Men bor-yo‘g‘i o‘rtaliqdagi odamman”[8], degan fikri bor. Nomi avval zikr etilgan Devid Rendalning “Intervyu – siz o‘z fikringizni bildirib, iste’dodingizni yarq etib ko‘rsatib, qizg‘in bahs olib boradigan jarayon emas”[9], degan fikrlari savol tuzilishida buzilgandek. Hoynahoy, bu savol intervyu paytida berilmagan bo‘lsa-da, matnni qog‘ozga ko‘chirish yoki tahrir jarayonida o‘zgargan ko‘rinadi.

“Ma’rifat” gazetasida ham intervyu janridan kam foydalanilgan. “O‘zbek tili milliy korpusi − muhim madaniy voqelik” deya sarlavha qo‘yilgan davra suhbatida esa janr qoidalaridan kelib chiqqan holda besh ishtirokchi-mutaxassis jalb etilgan. Davra suhbati muhokamasi uchun asosan to‘rt mavzu-savol o‘rtaga tashlangan va javob berilgan. O‘zbek tili milliy korpusida mutaxassislar, rahbarlar, qisqasi butun jamiyatning o‘rni va ular oldida turgan vazifalar ko‘lami haqida fikr yuritilgan. Davra suhbatini olib borgan muharrir H.Nishonov matn yaratishda bir mavzudan ikkinchisiga o‘tish vaqtida beriladigan savollarni qisqa bo‘lishi kerakligini o‘ylab, savol tuzgandek taassurot qoldiradi. Holbuki, davra suhbati muxbirning ham bahsga qo‘shilishiga izn beradi.

Xulosa qilib aytganda, “Davlat tili haqida”gi qonun ijrosi mavzusini yoritishda axborot janrlari, ayniqsa, yangilik janri imkoniyatidan unumli foydalanilgan. Biroq mavzuni jamoatchilik e’tiboriga olib chiqish uchun qulay hisoblangan intervyu va suhbat janrlaridan yetarli darajada foydalanilmagan.

4 https://yuz.uz/news/qonun-loyihasi-yuzasidan-bildirilgan-etirozlar-bartaraf-etildi (murojaat sanasi 30.09.2024).].

5 https://yuz.uz/news/milliy-oquv-dasturi-loyihasi-taqdim-etildi (murojaat sanasi 30.09.2024).

6 Bu haqda qarang. Saidov H. Jamiyatning demokratlashuvi jarayonida axborot janrlarining rivojlanish omillari. – T.: “Ta’lim-media”, 2020. - 135-b.].

7 So‘zlar sinoati jam bo‘lgan oltin sandiq // https://yuz.uz/news/cozlar-sinoati-jam-bolgan-oltin-sandiq]

8 https://rb.ru/story/larry-king-9-tips/ (murojaat sanasi 30.09.2024).

9 Рэндал Д. Универсальный журналист: перев. с англ. Алексея Порьяза. - Алматы: Центральноазиатская школа молодых журналистов, 1996. - 344 с.

Malohat JABBOROVA,
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
BuxDU mustaqil izlanuvchisi
jabborovamalohat@buxdpi.uz

O‘ZBEK ADABIYOTIDA KOSMONIMLARNING METAFORIK-RAMZIY FUNKSIYALARI HAMDA POETIK STRUKTURALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilidagi kosmonimlarning etimologik ildizlari, ularning xalq hayoti va madaniyatidagi o‘rni, shuningdek, badiiy adabiyotdagi lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilingan. Xalq kosmonimlari va ilmiy kosmonimlarning nazariy asoslari, adabiy-estetik qiymati, metaforik va ramziy imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kosmonimlarining variantliligi, sinonimligi va badiiy matnlarda poetik vosita sifatida qo‘llanishi ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, ilmiy kosmonimlarning adabiyotdagi ramziy ma’nosi, metafora va metonimiya orqali shakllangan nomlanish jarayonlari izohlangan. Misollar sifatida Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilindi hamda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: *xalq kosmonimlari, ilmiy kosmonimlar, onomastika, metafora, metonimiya, stilistik imkoniyat, iyhom, krater.*

Аннотация: в данной статье анализируются этимологические корни космонимов в узбекском языке, их место в народной жизни и культуре, а также их лингвопоэтические особенности в художественной литературе. Раскрываются теоретические основы, литературно-эстетическая ценность, метафорические и символические возможности народных и научных космонимов.

На научной основе исследуются вариативность, синонимия и использование космонимов как поэтического приёма в художественных текстах. Также раскрывается символическое значение научных космонимов в литературе, объясняются процессы именования, образованные посредством метафоры и метонимии. В качестве примеров рассматривается творчество Алишера Навои и анализируются образцы устного народного творчества.

Ключевые слова: *народные космонимы, научные космонимы, ономастика, метафора, метонимия, стилистическая возможность, аллюзия, кратер.*

Annotation: this article analyzes the etymological roots of cosmonyms in the Uzbek language, their place in folk life and culture, as well as their linguopoetic features in fiction. The theoretical foundations, literary and aesthetic value, metaphorical and symbolic possibilities of folk cosmonyms and scientific cosmonyms are shown.

The variation, synonymy and use of cosmonyms as a poetic device in literary texts are studied on a scientific basis. Also, the symbolic meaning of scientific cosmonyms in literature, the naming processes formed through metaphor and metonymy are explained. As examples, the work of Alisher Navoi was referred to and samples of folk oral literature were analyzed.

Key words: *folk cosmonyms, scientific cosmonyms, onomastics, metaphor, metonymy, stylistic possibility, allusion, crater.*

Kirish. Turkiy xalqlar kosmogoniyasi nihoyatda sermahsul bo‘lib, ularni keng tadqiq etish samo jismlari to‘g‘risidagi ota-bobolarimiz to‘plagan boy tajribani namoyon qiladi. Xalq og‘zaki ijodida osmon jismlari nomlariga oid juda boy faktik materiallar borki, ularni to‘plab o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Masalan, “Avesto”da samoviy jismlar nomlarining etimologiyasini aniqlash bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. “Yetti qaroqchi” (Pleiades yulduz turkumi) folklorda ko‘chmanchi hayotning muhim ramzi sifatida tilga olinadi.

Asosiy qism. Xalq dostonlarida va ertaklarida bu yulduz turkumi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi sifatida ko‘rsatiladi. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida “Yetti qaroqchi” haqida quyidagi misra keltiriladi: “Yetti qaroqchi osmonda nur sochar, yo‘l ko‘rsatar karvonga”. Bu misra yulduz turkumiga estetik tasvirni berish bilan bir qatorda, uning xalq tasavvuridagi muhim o‘rnini ham ko‘rsatadi. Shu kabi, “Qutb yulduzi” va “Temir qoziq” (Shimoliy yulduz) ko‘chmanchilar uchun yo‘l ko‘rsatuvchi, yo‘nalishni belgilovchi vosita sifatida xizmat qilgan. Xalq maqollarida “Temir qoziq o‘z o‘rnida turar” degan ibora barqarorlik, sadoqat va doimiylik ramzi sifatida ishlatiladi, bu esa kosmonimlarning xalq hayotidagi amaliy va ramziy ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi kosmonimlarni zamonaviylik nuqtayi nazaridan tasniflash, ularni qo‘llanilish darajasi, lug‘aviy qatlamlari, atalish motiviga ko‘ra turlari, stilistik imkoniyatlarini tadqiq qilish tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan

biridir. O‘zbek tilidagi kosmonimlarni lisoniy tahlil qilar ekanmiz, ularni ko‘plab xususiyatlari bilan farqlanuvchi ikki guruhga ajratish mumkin ekanligini ko‘ramiz. Birinchi guruhni turkiy tillarning ko‘pchiligi uchun umumiy bo‘lgan xalq kosmonimlari tashkil etsa, ikkinchi guruhni o‘zbek tiliga ilm-fan taraqqiyoti natijasida kirib kelgan kosmonimlar tashkil qiladi.

Xalq kosmonimlari xalq tomonidan nomlanganligi sababli til tabiatiga muvofiq ularda fonetik o‘zgarishlar bo‘lishi, shu bilan bir qatorda turli davrlarda aynan bir obyektning turlicha nomlar bilan atalishi, lahjalarda bir-biridan farqli nomlar yoki sinonimik qatorga ega bo‘lishi tushuniladi. Masalan., Mars kosmonimi xalq tilida Baqir so‘qum (Baqir so‘qin) – Baqir so‘qra yultuz – Angarak (Turfon matnlarida) – Mirrix–Bahrom–Qizil yulduz–Mars.

Xalq kosmonimlarining ma’no noziklikliariga egaligi, ayniqsa, ularning stilistik ma’nolarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan,

Husn bozorida men bo‘ldim ul oyg‘a mushtariy,
Kim muqarrar aylagay oyo mohi tobong‘a narx[1].

Birinchi misrada kelgan mushtariy so‘zining ko‘p ma’noliligi asosida (xaridor va planeta nomi) iyhom san’ati yuzaga keladi, shu bilan birgalikda samoviy yoritqich nomlari bo‘lgan Oy, Moh, Mushtariyni qayd etish orqali tanosub san’ati vujudga keladi.

Kosmonimlarning ikkinchi guruhini esa insoniyatning koinot jismlarini optik qurilmalar vositasida kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lgan davri (XVII asr)[2] bilan boshlanib o‘zbek tiliga ilm-fan taraqqiyoti natijasida kirib kelgan astropetonimlar tashkil etadi. Kosmonimlarni bu tarzda guruhlashda yuqorida ko‘rsatilgan davr hech qanday ilmiy asos kasb etmaydi. Balki ular o‘rtasidagi muhim farqli xususiyatlarni xalq shevalari va adabiy tildagi kosmonimlarning ijodkori xalq, ikkinchi guruh kosmonimlar ijodkori shaxs ekanligini ko‘rsatadi. Karpenko kosmik obyektni nomlagan muallif, nom berilgan vaqt va makon ma’lumligi bu guruhning umumiy belgisi ekanligini ta’kidlaydi[3]. Mavjud adabiyotlarda bu kosmonimlarni ilmiy kosmonimlar deb atalganini kuzatamiz. Ba’zi adabiyotlarda buning bir shakli sifatida neokosmonimlar termini ham ishlatiladi.

Til nuqtayi nazaridan neokosmonimlarning hosil bo‘lishida metonimiya va metaforaning ahamiyati katta. Biroq hamma vaqt ham bu holat kuzatilmaydi. Masalan, muayyan osmon jismini kashf etgan kishi ixtiyoriga ko‘ra kosmik obyekt kashfiyotchining ism-familiyasi – nomini keltirib chiqargan manba ahamiyatli ko‘rinib, u samoviy yoritqichlar nomlarida abadiylikka loyiq ko‘rilishi mumkin. Bunday holda nomning kelib chiqishini aniqlash lozim. Masalan, Aristotel, Platon, Kopernik deb nom olgan Oy kraterlari shu ismli mashhur olimlar nomlari bilan atalgan. Lekin mazkur kraterlarning biron belgi-xususiyati unga nom qo‘yilgan insonlarga o‘xshamaydi, hatto ular bu kraterlarning borligini bilishmagan, chunki nom XXasrda paydo bo‘lgan[4].

A.B.Superanskaya ma’no ko‘chishining metafora, metonimiya kabi usullari nomlanish tamoyili bo‘la oladimi yoki yo‘qmi degan masalani ilgari suradi. U sanab o‘tgan usullar stilistik vositalar bo‘lganligi uchun nom hosil qilganda asoslanish mumkinligini, keyinchalik shu nom hosil bo‘lgan paytdagi o‘xshashlik, aloqadorlik belgisini o‘zida saqlamasligini ta’kidlaydi. U zaif, nimjon o‘smirning Lev(Arslon) ismiga egaligi, ismga asos bo‘lgan so‘z (turdosh ot) ma’nosi (arslon) bilan antroponimni olgan shaxs orasida o‘xshashlik yo‘qligi, ya’ni o‘smir arslonday baquvvat, chaqqon emasligi kabi misollar orqali o‘z fikrini dalillaydi[5].

Xulosa. O‘zbek tilidagi kosmonimlarning lisoniy va poetik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular xalq tafakkuri, madaniy merosi va badiiy-estetik qarashlarining muhim qatlami sifatida shakllangan. Xalq kosmonimlari ko‘proq og‘zaki ijodiy an’analar, hayotiy tajriba va ramziy tasavvurlarga asoslangan bo‘lsa, ilmiy kosmonimlar fan taraqqiyoti va ilmiy kashfiyotlar bilan bog‘liq holda shakllangan. Badiiy adabiyotda kosmonimlar ayni damda obrazlilikni kuchaytiruvchi, ramziy ma’no yuklovchi va stilistik imkoniyatlarni kengaytiruvchi vositadir.

Shunday qilib, kosmonimlarning lisoniy va poetik tahlili o‘zbek xalqining madaniy merosini anglash, adabiyotdagi ramziy ma’nolar tizimini yoritish hamda milliy tilning badiiy imkoniyatlarini kengroq o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

1 Бегматов Э., Дўсимов З., Қораев С. Ўзбек номшуносликги, тадқиқ йўналишлари ва усуллари// Хива. Nomshunoslikka bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Xiva, 1991. N/1. 116-b.

2 Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар.–Тошкент: Фан, 1960. 116-b.

3 Карпенко Ю.А. Названия звездного неба. –Москва: Наука, 1985.– С.12.

4 Yuqoridagi kitob. 13-b.

5 Примов А.С. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 2009. – Б.57.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Бегматов Э., Дўсимов З., Қораев С. Ўзбек номшуносликги, тадқиқ йўналишлари ва усуллари// Хива. Nomshunoslikka bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Xiva, 1991. –N/1. 116-b.

2.Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. –Тошкент: Фан, 1960. 116-b.

3.Карпенко Ю.А. Названия звездного неба. –Москва: Наука, 1985.– С.12.

4.Примов А.С. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фанлари номз... дисс.2009.

5.Суперанская А.В. Обшая теория имени собственного.– М.:Наука, 1973. – С.242.

Yusufbek XOLDOROV,
Muzrabot tumanidagi 21-maktab o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILIDA ANTROPONIMLARNING YASALISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqola o‘zbek tilining onomastik tizimiga aloqador antroponimik sath tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, antroponimlarning yasalish usullari tahlil qilingan. Maqolada tilshunoslikning onomastika sohasiga hissa qo‘shgan bir qancha olimlarning nomlari keltirilib, tadqiqotlariga munosabat bildirilgan. Ismlarning leksik-semantik usulda yasalishi borasida ham fikrlar bildirilib, ularning otlashish masalasi ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *onomastika, antropologiya, teonimiya, toponimiya, kosmonimiya, realionimlar, mifonim, apellyativ leksika.*

Аннотация: статья посвящена анализу антропонимического уровня ономастической системы узбекского языка, а также способам образования антропонимов. В статье названы имена ряда учёных, внёсших вклад в область ономастики языкознания, и даны комментарии к их исследованиям. Также высказываются мнения об образовании имён лексико-семантическим путём и освещается вопрос их номенклатуры.

Ключевые слова: *ономастика, антропология, теонимия, топонимия, космонимия, реалонимы, мифонимы, апеллятивная лексика.*

Annotation: this article is devoted to the analysis of the anthroponymic level related to the onomastic system of the Uzbek language, and the methods of formation of anthroponyms are analyzed. The article names a number of scientists who have contributed to the field of onomastics of linguistics, and comments on their research. Opinions are also expressed on the formation of names in a lexical-semantic way, and the issue of their nomenclature is also covered.

Key words: *onomastics, anthropology, theonymy, toponymy, cosmonymy, realonyms, mythonym, appellative lexicon.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar orasida eng muhimlaridan biri E.Begmatovga tegishlidir[1]. Mazkur tadqiqot o‘zidan keyin yaratilgan ko‘pgina ishlar uchun dasturul amal vazifasini o‘tagan. Xususan, tilshunosligimizda atoqli otlar tizimini tadqiq qilish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, o‘zbek antroponimlarining materiallarini to‘plash, ismlarning lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlarini, lisoniy tuzilishi, etnografik-motivativ ma’nolarini tadqiq qilish, o‘zbek mintaqaviy antroponimiyasining o‘ziga xos tomonlarini kuzatish ishiga, ismlarning imloviy, izohli lug‘atlarini tuzish sohasiga E.Begmatov, N.Husanov, G‘.Sattorov, S.Rahimov, I.Xudoynazarov, R.Xudoyberganov[2] va boshqalar munosib hissa qo‘shganlar. O‘zbek ismlarining imloviy va izohli lug‘atlari tuzilgan[3].

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko‘ra quyidagi guruh (bo‘lim) larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* –geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo‘yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlarining majmuini o‘zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo‘lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo‘limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo‘lgan *mifonimlar* xayoliy – to‘qima obyektlarning nomlarini bildiradi.Bularning orasida antroponimlar eng muhimlaridan biri bo‘lib, boshqa onimlarning hosil bo‘lishida asosiy o‘rinni egallaydi.

1 Бегматов Э. А. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1965.

2 Ҳусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари дри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. 66-б.; Ҳусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. 66-б.; Сатторов Ғ. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. 21- б.; Сатторов Ғ. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент,1990. 21-б.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент,1998. 25-б.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. – Тошкент, 1998.; Худойберганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ... .дисс.автореф. – Тошкент, 2008. 24-б.

3 Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. –Тошкент: ЎзМЭ, 1998. Б. 604.

Tahlil va natijalar. O‘zbek tilining lug‘aviy boyligini tashkil etuvchi komponentlardan biri bo‘lgan antroponimlar tilning tuzilish hamda yasalish qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Antroponimlarning tuzilish qoliplari antroponim uchun asos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatga ega.

Hozirgi davrda o‘zbek tilidagi ismlarni lisoniy tuzilishiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Sodda tuzilmali antroponimlar.
2. Yasama tuzilmali antroponimlar.
3. Qo‘shma tuzilmali antroponimlar.

Sodda tuzilmali antroponimlar. Sodda antroponimlar ular uchun asos bo‘lgan leksemaning tuzilishiga mos kelgan va mohiyatan tub nomlardir. Masalan, To‘xta, Lola, Bo‘ta, Kumush, Anvar va b. Sodda ismlarni sodda, tub deyish, ularni bo‘g‘in tuzilishiga ko‘ra tahlil qilish ismlarga xos emas, chunki ma’lum so‘z yaxlit holda ismga o‘tadi. Bu holat ismlarning bosh harf bilan yozilib individual tushuncha ifoda etishi bilan xarakterlanadi. O‘zlashma qatlamga mansub bo‘lgan nomlar o‘zbek tilida sodda ism sifatida qabul qilinadi.

O‘zbek tilida sodda ismlarini sodda deb qarash nisbiyligi ism bir qancha antropoformant (Antroponimik formant // antropoformant – antroponimlar yasashda ishtirok etuvchi yoki nom tarkibida formal ravishda mavjud bo‘lgan affiksal morfema) larni qabul qilishi natijasida boshqa shaklga o‘tishi bilan izohlanadi: Karimjon, Normengli, Safarboy. Shu jumladan, tuzilishiga ko‘ra sodda bo‘lgan ismlar aslida qo‘shma ismning komponenti bo‘lgan nomlardir: Kamol (Kamoliddin), Safarali (Safar), Sayfi (Sayfullo), Tilov (Tilovberdi).

Antroponimlar tildagi avvaldan mavjud bo‘lgan leksemalarga tayangani uchun antroponomik birliklarni yasalmaydi deb bo‘lmaydi. Masalan, “Yo‘lchi” ismi bor, ammo “yo‘lchi ” so‘zi mavjud emas. “-chi” qo‘shimchasi yordamida yasalgan. “Sotimboy” ismi esa “sotmoq” fe’li asosida yuzaga kelgan bo‘lib, bevosita “bolani sotib olish” udumiga asoslangan holda yuzaga kelgan antroponimik birlik hisoblanadi.

E.Begmatov tasnifiga ko‘ra, apellyativ leksika (oddiy so‘z)ning ism vazifasiga o‘tishi bir necha usullarda amalga oshadi:

1. Fonetik-orfoepik usul.
2. Leksik-semantik usul.
3. Affiksatsiya usuli.
4. Sintaktik(kompozitsiya) usul[4].

Apellyativ leksikaning ismlarga o‘tishi so‘zga yangi ma’no kasb etishi bilan birgalikda, unga yangi vazifa ham yuklaydi. Ism unga asos vazifasini bajargan apellyativdan ijtimoiy-maishiy, diniy-aqidaviy, milliy-madaniy hamda etnografik jihatidan farqlanadi.

Fonetik-orfoepik usulda ismlarning yasalishi bevosita kichraytirish-erkalash maqsadida ismlarni qisqartirish orqali yuzaga keladi. Aslida bu jarayon turli shevalarda turlicha aks etib, nutqiy iqtisod qonuniyati bilan xarakterlanadi. Masalan, o‘zbek tilining qarluq shevasida ismning oxiriga -sh(-ish) shaklida qisqartirish kuchliroq: To‘xtash (To‘xtasin), Dilash (Dilbar).

O‘zbek tilining qipchoq shevasida Ulbo‘s (Ulbo‘lsin), Toshon (Toshnazar), Mamay (Muhammadyusuf), Xolli (Xolmo‘min) va boshqa ko‘plab qisqartirishlar uchraydi.

Ismlarni qisqartirish qadimiy hodisa hisoblanadi. G‘.Abdurahmonovning maqolalaridan birida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida Sulaymon ismini So‘li shaklida qisqargani haqida yozgan edi[5]. Bu xususiyatlar ism egasini hurmatlash hamda erkalash bilan bog‘liq. Ismlarni qisqartirish hodisasi sodda hamda qo‘shma ismlarning har ikkisiga tegishli bo‘lib, qisqarish natijasida ismning ikki yoki bir bo‘g‘ini saqlanadi. Ism bo‘g‘inlarining qisqarish sababidan fonetik hodisalar yuz beradi. Bu xususiyatlar F.Abdullayevning “Kishi otlarining qisqarish usullari” nomli maqolasida yetarlicha tahlil qilingan[6]: “Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, qo‘shma ismning qisqargan shakli sodda ismga, sodda ismning qisqargan shakli esa bevosita yangi ism sifatida kundalik hayotda qo‘llaniladi. *Nuri (Nurinisa), Yaxshi, Yaxshim (Yaxshimurod), Mamat (Muhammadturdi)* kabi. Shuningdek, ismning qisqargan shakli ham to‘liq shakli bilan teng huquqli nom sifatida tilda yashashi mumkin: *Guli–Gulchehra, Sarvi– Sarvinis*o”.

Ismning qisqargan shaklda bo‘lishini asosan, og‘zaki nutqda uchratishimiz mumkin. Bir ism turli hudud va insonlar tilida birdan ortiq shaklda uchraydi: *Muham, Mamat (Muhammad)*. Ismlarni qisqartirish orqali yaxlit, alohida nom hosil qilib bo‘lmaydi. Ammo, to‘liq nomning shakliy variantlari hosil bo‘ladi. Qisqartma ismlar ma’lum qonuniyat asosida qisqartirilmay, talaffuz shakli hamda uni talaffuz qilayotgan odamga bog‘liq bo‘lib, tor doira vakillari tomonidan tushuniladi.

Leksik-semantik yasalishda apellyativlar ism vazifasiga tayyor holda transnominatsiya usulida ko‘chadi. Bu usulda apellyativ ismga ko‘char ekan, onomastik sathda u hech qanday o‘zgarishga uchramaydi, to‘g‘ridan to‘g‘ri ism sifatida qo‘llanadi: *sardor (apellyativ) – Sardor (ism), muhabbat (apellyativ) – Muhabbat (ism)* kabi.

4 Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi // Toshkent: “Fan” nashriyoti. 2013. 218-bet.

5 Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili fonetikasi tarixidan// “O‘zbek tili va adabiyoti”.1963-yil 2-son.24-bet.

6 F.Abdullayev.Kishi otlarining qisqarish usullari// “O‘zbek tili va adabiyoti”.1960-yil 3-son.34–39-betlar

Ism holatiga o‘tayotgan apellyativ sodda asos *(Turg‘un, Uyg‘un, Mardon, Gavhar)*, yasama asos *(Ulbo‘sin, Elbek)*, qo‘shma so‘z yoki so‘z birikmasi shaklidagi asos *(Eshqobil, Eshpo‘lat, Norquvvat)* bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi shakllar ism vazifasida onomastik doirada antroponimik xarakter topadi va undagi yasalish xususiyati yo‘qoladi.

Ismlarning leksik-semantik usulda yasalishi substantivatsiya va adverbalizatsiya qonuniyatlariga amal qiladi. Chunki ism antroponimik xususiyat kasb etgach, avvalgi, apellyativ holatidagi morfologik kategoriyadan ajraladi va atoqli ot kategoriyasiga o‘tadi.

Professor A.G‘ulomovning yozishicha, onomastika tarkibidagi otlashishga faqat bir usul– leksik substantivatsiya xosdir[7]. O‘zbek tili antroponimlarida substantivatsiya hodisasi quyidagi turkumlar asosida hosil bo‘ladi:

1.Sifat otlashishi (substantivatsiyaning bu turi antroponimlar hosil bo‘lishida eng faoli): *Asil, Donoxon, Kattabek, Muattar, Nafisa, Aziz, Kenjabek, Qoraxon, Qarshiboy.*

2. Olmoshlar otlashadi: *Kimsanboy, Kimsanoy.*

3. Sonlar otlashadi: *Oltiboy, Panji, Oltmishvoy, Yetmishvoy, To‘qsonboy, Beshim, Chori*.

4. Fe’llar otlashadi: *Suyar, O‘sar, Ko‘char, Sevara, To‘lg‘onoy, Tilovberdi, Tilov*.

5. Ravish otlashadi: *Eson, Sarsonboy, Omon, Avval, Bulturboy.*

6. Ba’zi modal so‘z va undovlar otlashadi: *Shukur, Muborak, Marhamat, Rahmat, Rahmatoy.*

7 Hozirgi zamon o‘zbek tili. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1957. 294–295-betlar

Otlashgan so‘z turkumlari tilda uzoq vaqt antroponim sifatida yashab qoladi. Otlashish so‘zlarning nominativ-funksional hamda onomastik birlik sifatidagi xususiyatini mustahkamlaydi. Qo‘shma ismlarga qo‘shiluvchi komponentlar bilan yanada turg‘unlashadi. Masalan, *Turdiboy, Go‘zalxon, Quvondiq, Turdimurod*.

Xulosa va takliflar. Otlashgan so‘z ism vazifasiga o‘tishida ot so‘z turkumi bajargan grammatik vazifani bajaradi hamda nominativ bir shaxsni ifoda etadi hamda egalik, kelishik, ko‘plik (ismlarda ko‘plik ma’no kuchaytirish hamda qo‘shimcha ma’no yuklash uchun ishlatiladi) qo‘shimchalarini oladi. Otlashgan sonlar ism vazifasiga o‘tganda sondagi miqdor ma’nosi yo‘qolib, asosan, kishining oilada nechanchi farzandligi, ota-onasining necha yoshida dunyoga kelgani hamda boshqa qator jihatlarga asoslanadi. Otlashgan sifatlarning semantik xususiyati haqida tilshunos Z. Ma’rufov quyidagi fikrlarni keltiradi: “Otga ko‘chgan sifatlarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, ularning umumiy leksik ma’nolari toraygan va konkretlashgan bo‘ladi. …sifat ot kategoriyasiga o‘tishi bilan u umumiy belgi nomini emas, balki sifat belgisiga ega bo‘lgan konkret predmetni bildiradi, xolos”[8].

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida antroponimlarning hosil bo‘lishi va yasalishi o‘ziga xos qonuniyatlarga ega. Onomastikaning boshqa tarmoqlari kabi antroponimlarning ham hosil bo‘lishida leksik va morfologik jihat asosiylardan hisoblanadi. Bu usullarning har biri tahlillar orqali aniqlanadi va tasniflanadi.

8 Hozirgi zamon o‘zbek tili. –Toshkent: O‘Zfa nashriyoti,1957. 356-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э. А. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1965.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. –Тошкент: ЎзМЭ, 1998. 604-б.
3. Ҳусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари дри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. 66-б.
4. Сатторов Ғ. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. 21-б.
5. Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент,1998.25-б.
6. Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. – Тошкент, 1998.
7. Худойберганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ... .дисс.автореф. – Тошкент, 2008. 24-б.
8. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti 2013. 218-bet.
9. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili fonetikasi tarixidan// “O‘zbek tili va adabiyoti”.1963-yil 2-son.24-bet
10. Hozirgi zamon o‘zbek tili. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti,1957.



Shohistaxon DADABAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ADABIY ASAR TAHLILIDA O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI PRAGMATIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada pragmatik yondashuv tushunchasi, uning adabiy ta’limdagi o‘rni, badiiy asarni tahlil qilishda akademik litsey o‘quvchilarining ekologik madaniyatini pragmativ yondashuv asosida rivojlantirish bo‘yicha metodik ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *pragmatik yondashuv, ekologik madaniyat, adabiy ta’lim.*

Аннотация: в статье представлено понятие прагматического подхода, его роль в литературном образовании, а также методические сведения о развитии экологической культуры учащихся академического лицея на основе прагматического подхода при анализе художественного произведения.

Ключевые слова: прагматический подход, экологическая культура, литературное образование.

Annotation: the article discusses the concept of the pragmatic approach, its role in literary education, and methodological guidelines for developing academic lyceum students’ ecological culture through the pragmatic approach in the analysis of a literary work.

Key words: *pragmatic approach, ecological culture, literary education.*

Zamonaviy jamiyatda ekologik muammolar global tus olgan bir paytda, yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifasiga aylangan. Xususan, akademik litseylarda bu yo‘nalishda olib borilayotgan adabiy ta’lim ekologik tarbiyaning samarali vositasiga aylanishi lozim. Chunki ushbu bosqich o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish, ilmiy dunyoqarashi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shunga qaramay, amaliyotda bu yo‘nalishda hali yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud.

Ekologik madaniyat atrof-muhitga bo‘lgan ongli munosabat, ekologik ong, bilim, qadriyat va ijtimoiy faoliyat birligi ekan, bu yondashuv akademik litseylarda ham dolzarb bo‘lib, aynan adabiy ta’lim orqali o‘quvchilarda ekologik qarashlarni shakllantirish mumkin. Biroq adabiyot fanining bu boradagi imkoniyatlari yetarlicha ochilmagan va metodik jihatdan tizimlashtirilmagan.

Akademik litsey adabiyot darsliklarida ekologik mazmundagi asarlar mavjud bo‘lsa-da, ularning tahlili ko‘pincha yuzaki xarakter kasb etadi. Ammo adabiy ta’limda bu imkoniyatlar o‘quvchilarning ekologik ongini mustahkamlashga yetarlicha yo‘naltirilmagan. Ko‘plab hollarda adabiy asarlardagi tabiat manzaralari yoki ekologik motivlar faqat estetik tahlil doirasida qoladi.

Yana bir muhim masala – pragmatik yondashuvni darslarda qo‘llash borasidagi muammolar. Xalqaro miqyosdagi tajribali olimlar, pedagoglar adabiyot o‘qitishning konseptual yondashuvlari qatoriga pragmatik – quruq g‘oyalardan iborat bo‘lmagan, o‘quvchilarning real hayotiy dasturlariga, amaliy va kundalik tajribalariga asoslangan o‘quv jarayonlarini tashkil etish yondashuvini kiritadilar. Bunday yondashuv asosida o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatda o‘z bilimlarini rivojlantirib borish ko‘nikmasi yotadi. Pragmatik

yondashuvga o‘quvchilarning “tafakkur inqilobi”ga, ularda turli xil kutilgan va kutilmagan fikrlarning tug‘ilishiga rag‘bat beradigan eng muhim yondashuv sifatida qaraladi[3].

“Pragmatizm”, “pragmatika”, “pragmatik kompetentlik” adabiyotshunoslik ilmida yoki adabiy ta’limda bugun paydo bo‘lgan yangi tushunchalar emas [2].

Pragmatizm (yun. pragmatos – ish, harakat) – falsafiy ta’limot. XIX asrning 70-yillarida AQShda shakllanib keng rivojlandi, bu mamlakat ma’naviy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘tmish falsafasini hayotdan ajralib qolgan, mavhum, kuzatuvchan xarakterga ega, deb bilgan. Pragmatizm vakillari “falsafani ta’mirlash” dasturini olg‘a surdilar. Ular falsafa borliq va bilishning ilk asoslarini idrok etishdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak, balki kishilarning oldida ko‘ndalang bo‘lib turadigan, turli hayotiy vaziyat, faoliyat jarayonida ular duch keladigan muammolarni hal qilishi kerak, deb hisoblaydilar. Pragmatizm amaliyotda insonga nima ko‘proq foyda bersa, o‘shanga ko‘proq ahamiyat berish zarur, degan g‘oyani ilgari suradi. Pragmatizmning asosiy g‘oyalari Ch. Pirsniki bo‘lib, qoidalarini U.Jems, J. Dyui, F. K. S. Shiller, J. G. Mid ishlab chiqqanlar [5].

Aslida adabiyotga oid ta’lim standartlarida badiiy asar va o‘quvchining hayotiy tajribalari o‘rtasidagi munosabatlarga qaratilgan kompetensiyalar aks etgan, ammo pragmatik ta’lim asosidagi ko‘nikmalar o‘quv dasturlarida, darsliklarda yoki o‘qitish jarayonlarida deyarli umuman aks etmagan.

Adabiyot darslarida badiiy asarning pragmatik funksiyalarini yuzaga chiqarish, o‘quvchilarning muayyan badiiy asardan olgan nazariy tushunchalarini amaliy ko‘nikmalari bilan parallel rivojlantirishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O‘rganuvchining hayotiy tajribasi (ularni o‘rab turgan atrof-muhitdagi voqea-hodisalar; aurasiga xos hissiy va intellektual munosabatlar; mazkur munosabatlarning shakllanish jarayonlari) adabiy ta’lim markazida bo‘lishi talab etiladi.

2. O‘quvchilarni muayyan badiiy asar mutolaasiga olib kirish va uni tushunishga yo‘naltirilgan savol va topshiriqlar ularning kundalik hayotidagi tanish vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi va munosabat jarayonida uni to‘la tasavvur qila olishi samara beradi.

3. Savol va topshiriqlar badiiy matnning yangicha talqinlarini yaratishga xizmat qilishi kerak bo‘ladi [1; 30-b].

Akademik litseylarda adabiyot darslarida muayyan ijodkorning asari o‘rganilar ekan, ekologik madaniyat va ekologik tarbiya asarning boshidan oxirigacha qizil ip bo‘lib o‘tmaydi. Biroq ayrim epizodlarda mavjud bo‘ladiki, matn ustida to‘xtalib, o‘quvchilardagi ekoadabiy kompetensiyani shakllantirish uchun ularga noan’anaviy topshiriqlar berib, ta’lim jarayoniga pragmatik yondashish mumkin. Masalan, o‘quvchilar O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani bilan tanishadilar. O‘quvchilarga romandan olingan parchani ifodali o‘qitish jarayonida quyidagi adabiy parcha e’tiborimizni tortdi:

“...Bu xonadonning g‘alati udumlari bor ekan: tong otgandan kun botguncha qimirlagan jon borki, bekor turmaydi. Bobom saharlab eshak minib dalaga chiqib ketadi. Oyim molga qaraydi, non yopadi, kir yuvadi, cho‘nqayib o‘tirib, hovlidagi piyozlarni o‘toq qiladi, qulupnay pushtalarini chopadi, tert qoradi. Ikki hafta ichida ko‘p narsalarni bilib oldim. Bu xonadonda hech nima bekor ketmas ekan. Oyim (qora xotinni shunaqa deyishga o‘rgandim) piyoz archsa, “soqol”ini tashlab yubormaydi. Yerga suqadi: shunaqa qilsa, yana piyoz o‘sib chiqarkan. Kimsan akam (oyim tayinlagani uchun “aka” deb sizlayman) o‘rik yesa, danagini tashlamaydi. Chaqib mag‘zini olib qo‘yadi. Tandirdan chiqqan kul piyoz pushtasiga sepiladi. G‘unajinning tezagi tappi qilib devorga yopiladi. Hatto hojatxonadagi kesaklar ham bekorga ketmaydi. Tomorqadagi toklarning tagi kavlanib, ildiziga solinarkan” [4].

Matn o‘qilgach, o‘qituvchi o‘quvchilarga: “Siz yashayotgan xonadonda ham shunga o‘xshash qanday urf-odatlar bor?” deya savol bilan murojaat qiladi. O‘quvchilar savolga javob berishgach, o‘qituvchi qo‘shimcha tarzda chiqindilardan unumli foydalanish borasida quyidagicha foydali maslahatlar ham berishi mumkin:

1. Tuxumlarni suvda qaynatib pishirsangiz, suvini to‘kib yubormang. Avval idishdagi qaynagan suvni soviting, so‘ng xonangizning deraza tokchalarida turgan tuvakdagi gullarga quying. Shunday qilsangiz, gullar barq urib rivojlanadi.

2. Choynakdagi sovib qolgan choyni to‘kib yuborishga shoshilmang. Plastik idishga quying, so‘ng og‘ziga purkagich o‘rnating. Dog‘ bo‘lib qolgan deraza va eshik oynalariga sepib artsangiz, oynalar nafaqat tozarib yaltiraydi, balki barmoqlaringizni bossangiz, iz qoldirmaydi. Shamasi esa uy hayvonlariga ozuqa bo‘ladi yoki gulxonaga to‘kiladi.

3. Hovlingizda eski yoxud yaroqsiz holatga kelgan avtomobil balloni bo‘lsa, chiqindixonaga olib bormang. G‘ildirakning ichiga o‘g‘itlangan tuproqni to‘ldirib soling. Unga rayhon, yalpiz yoki gul ko‘chati o‘tqazing. G‘ildirakning aylana atrofini tozalab yuvib arting. So‘ngra ballonni har xil rangda sepuvchi bo‘yoq bilan bezating.

4. Ta’mirlash ishlari tugagach, cho‘tkalarda qotib qolgan qurilish bo‘yog‘ini suvsiz ham tozalash mumkin. Buning uchun cho‘tkaning bo‘yoq qotib qolgan qismini bolg‘acha bilan tez-tez ursangiz, bo‘yoq kukun bo‘lib tushadi. So‘ng boshqa cho‘tka bilan ustidan ishqalab, suvga solib yuvib yuborasiz. Qarabsizki, buyum yap-yangidek bo‘lib qoladi, suv esa isrof bo‘lmaydi.

5. Uyda bo‘shagan 5 litrli polietilen idishlarni (baklajka) tashlab yubormang. Ulardan oshxona uchun organayzerlar yasash mumkin. Buning uchun idishning qornidan qaychi yordamida musht sig‘adigan kattalikda tuynuk oching. Qirg‘og‘iga skotch yoki izolenta yopishtiring. Tayyor bo‘lgach, ichiga kartoshka, piyoz, sabzi singari sabzavotlarni solib, sovutgichga saqlang.

Badiiy asar tahlilidagi bunday yondashuv o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, zeriktirmaydi, ulardagi kreativlikni oshiradi, eng muhimi, ekologik tarbiya beradi. Qolaversa, akademik litsey ijtimoiy-gumanitar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha adabiyot fanini o‘qitishning asosiy maqsadi tarkibiga:

– adabiyot darslarida o‘quvchilarda kreativlik (ijodkorlik), noaniq vaziyatlarda o‘z bilimlarini qo‘llash orqali muammolarga yangi va samarali yechimlar topa olish qobiliyatlarini rivojlantirish;

– adabiyot fani o‘quv dasturining bajarilishi jarayonida o‘quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotga joriy qilishga qaratilgan loyihalar tuzishga yo‘llash hamda ularda jamoaviy ishlash (kollaboratsiya) umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat qilish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish, o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat [1] ekanligi qayd etib o‘tilgan.

O‘quvchilarga noan’anaviy usulda uyga vazifa va mustaqil ish uchun loyiha berish mumkin. Masalan:

1. “Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash sarmoya kiritish uchun eng maqbul biznes turlaridan biridir. Nega unda tadbirkorlar bu sohaga qo‘l urushmaydi?” mavzusida esse yozing.

2. “Siz yashayotgan xonadon yoki o‘quv binosi ta’mirdan chiqdi. Chiqindixonada turli kesimdagi yog‘och bo‘laklari, polietilen idishlar, katta hajmdagi plastik bo‘yoq idishlari uyulib yotibdi. Siz ulardan nimalar yasay olasiz?”

Shu kabi savol va topshiriqlarning berilishi o‘quvchining adabiy ta’limdagi faollashuviga rag‘bat berishda va badiiy asarni turli xil aspektlarda tushunishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Qolaversa, adabiyot o‘qitishga bunday yondashuv o‘quvchilarning adabiyot darslaridagi faollashuvini, bugun bizdan talab etilayotgan ta’limdagi individuallashtirish, personallashtirish kabi jarayonlarni yuzaga chiqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akademik litseylar uchun namunaviy o‘quv dasturi. Adabiyot (chuqurlashtirilgan). 2024. 4-б.

2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi (An’anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo‘llanma. – Тошкент. 2020. 69-b.

3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi: adabiyot o‘qitish metodikasi. Metodik qo‘llanma. – Тошкент. 2020. 30-b.

4. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 10-sinf. II qism. – Тошкент: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 133-b.

5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Еттинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. 164-б.

Kozimxon ASROROV,
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti o‘qituvchisi

NASX YOZUVINING SHAKLLANISH TARIXI VA TARAQQIYOTI

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘rta Osiyoda xat turlari va ularning tasnifiy jihatlari, xususan, nasx yozuvi, uning shakllanish tarixi va taraqqiyoti, nasx yozuvidagi ba’zi asarlarning qiyosiy tahlili, yozuvdagi o‘ziga xosliklar xususida fikr yuritiladi. Bu yozuvdan foydalangan ijodkorlar va ularning asarlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *xat turlari, nasx xati, xatti kufiy, suls, muhaqqaq, rayxoniy, tavqi’, riqo’, devoniy, Ibn Muqla*

Annotation: this article discusses the types of scripts in Central Asia and their classification aspects, in particular, the history of the formation and development of the naskh script, a comparative analysis of some works in the naskh script, and the peculiarities of the script. The authors who used this script and their works are analyzed.

Key words: *types of scripts, naskh script, kufi script, suls, muhaqqaq, raykhani, tawqi’, riqo’, diwani, Ibn Muqla*

Аннотация: в статье рассматриваются типы шрифтов в Центральной Азии и аспекты их классификации, в частности, история становления и развития насх-шрифта, сравнительный анализ некоторых произведений, написанных насхом, а также особенности этого шрифта. Анализируются авторы, использовавшие этот шрифт, и их произведения.

Ключевые слова: *типы шрифтов, насх-шрифт, куфический шрифт, сульс, мухаккак, райхани, тауки, рико, дивани, Ибн Мукла*

Nasx yozuvining shakllanish tarixi va taraqqiyoti Xattotlik sharq mamlakatlarida o‘ziga xos alohida yo‘nalish kasb etgan va fan darajasiga ko‘tarilgan bebaho san’atdir. O‘rta Osiyo xalqlari Islom dinini qabul qilishi bilan bu o‘lkaga arab yozuvi ham kirib keldi va insonlar orasida muomalada bo‘lgan qadimiy uyg‘ur, o‘rxun-enasoy, sug‘d, xorazmiy yozuvlari asta-sekin iste’moldan chiqib, ularning o‘rnida VII asr oxiridan arab yozuvi ilm-u fan va davlat ishlarida rasmiy yozuvga aylandi. Shu bilan birga arab xatini o‘zlashtirish va uni san’at darajasida ko‘tarishga jiddiy ahamiyat berila boshlandi. Bir necha asr davomida amalda qo‘llanilgan arab yozuvining 100 dan ortiq turi mavjud. 28 harfdan iborat bo‘lgan arab alifbosining dastlabki shakli “Xatti ma’qaliy” bo‘lib, tik chiziqlar bilan ifodalangan. Ammo uzoq iste’molda bo‘lsa-da, shuhrat qozona olmagan. VII asrdan boshlab uning o‘rnini arab yozuvining eng qadimiysi va mashhuri hisoblangan “Xatti kufiy” egallaydi. Keyinchalik xatti ma’qaliy va kufiy xati asosida arab yozuvining san’atkorona yaratilgan 8 xil asosiy uslubi maydonga kelgan. Bular: suls, nasx, muhaqqaq, rayxoniy, tavqi’, riqo’, devoniy hamda nasta’liq xati. Bu xatlar ichida eng ko‘p qo‘llaniladigani va barcha uchun birdek manzur bo‘ladigani, tez va oson o‘qiladigani nasx xati bo‘lib, 22 arab davlati va Eron Islom Respublikasida shu xatdan foydalaniladi. Qur’oni karim hozirgi vaqtda asosan nasx xatida chop etiladi.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, arab va Islom olamida eng ko‘p tarqalgan va mashhur bo‘lgan xatlar bular: suls, nasx, ta’liq (nasta’liq, forsiy), diyvoniy, kufiy, riq’a, diyvoniy jaliy, muhaqqaq, ijoza, tug‘ro, mag‘ribiy, rayhoniy, toj va shikaste. Bu xat turlarini ikki asosiy qismga bo‘ldik, asosiy xatlar va asosiy xatlardan hosil bo‘lgan, ya’ni asosiy xatlar asosida tuzilgan xatlar. Manba va adabiyotlarda asosiy xatlar to‘g‘risida qisman ma’lumotlar keltirilgan, biroq, asosiy xatlardan kelib chiqqan xatlar to‘g‘risida ma’lumot topish mushkul. Nasx xat uslubi asoschisi va xat ijodkori hozirgi vaqtgacha kim ekanligi ilmiy jihatdan o‘z isbotini topmagan bo‘lsa-da, ammo o‘sha vaqtdagi mualliflarning ko‘pchiligi kufiy xat ijodkori deb Ibn Muqlani (888–940) ko‘rsatadilar. Ibn Muqla bu tarz xatni, ya’ni nasx usulini “suls” usulidan chiqardi, deb qayd etadilar. Hozirgi tadqiqotchilarning ba’zilari esa Ibn Muqladan oldin ham bu xat usuli bor edi, degan fikrni aytadilar. Yana ular nasx “suls” uslubidan emas, balki “muhaqqaq”dan chiqarilganligini ta’kidlaydilar. Ba’zi olimlar esa “nasx” xat yozuv jihatdan ikkinchi xat sifatida “kufiy” usuli bilan bir vaqtda maydonga kelgan” degan fikrni ilgari suradilar. Har holda Ibn Muqladan oldin “nasx” istilohi hech bir manbada zikr etilmagan. Nasx xati nasx nomini olishidan oldin “Badi’” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Hijriy V asr oxirlarida paydo bo‘lgan bu xat borasida mashhur xattot Favziy Solim Afifiy: “Ushbu xat turi V hijriy asr oxirida Shom shimolida eski ko‘rinishdan yangi ikki ko‘rinishga o‘tdi. Birinchi ko‘rinishi badi’ xati bo‘lib, nasx xati deb nomlanadi va bu tur Suriyaning shimolida vujudga kelgan. Bu xat orqali sahifalar yozilgan. Ikkinchi ko‘rinish, tumor xati va uning turlari”, – deb o‘zining “Nash’atul kitaba al-xottiyya” asarida keltiradi. Bu xatning qoidalarini dastlab Ibn Muqilla tuzib chiqqan. Yana bir boshqa xattotlar jamoasi esa, “Bu nasx xati kufiy xatidan olingan”, deb ta’kidlaydilar. Boshqa xattotlar esa, bu nasx xati bilan nomlanishiga sabab qilib, “Qur’oni karimdan nasx” ya’ni, “ko‘chirish” so‘zi “nasx” so‘ziga urg‘u beradilar.

Yahyo Salum Abbosiy o‘zining “Arab xati tarixi va turlari” kitobida bu xat nomi borasida eng ishonchli ma’lumot sifatida shunday fikr keltiradi: “Aniqki, nasx xati – mansux sahifalar va nasx xati o‘rtasidagi o‘xshash jihatlarini bir-biriga yaqinlashtirish uchun kufiy xatidan kelib chiqqan”. Nasx xatida bir tekis yozishlik imkoni

keng bo‘lganligi, o‘qishlik va harflardagi yengilliklar borligi sabab, bu xat muloyim xatlar sirasiga kiritiladi. Xat harf hajmlari chegaralangan va qalam hajmi kichikligi nuqtayi nazaridan, yozuvda sintez ishlar olib borilmaydi. Komil Salmon Jaburiy. Mavsua al-xotti al-arobiy, xottu an-nash. – Quvayt: Dar va maktaba al-hilal, 1999. B. 97. 85 Nojiy Zayniddin Musarrif. Musavvir al-xot al-arobiy. – Bag‘dod: Surur, 1968. B. 42. 86 Ibrohim Aniys. Mu’jam vasit. – Qohira: Darul maorif, 1972. B. 216. 41

Qur’oni karim, hadisi sharif hamda xalq ichida ko‘plab tarqalgan kitoblar yozuvi nasx xatida ekaniga guvoh bo‘lamiz. Bu xat usuli juda tezlik bilan mashhur bo‘ldi, kufiy xat usulini muomaladan chiqardi va uning o‘rnini egalladi. Shuning uchun unga “nasx” nomini berdilar. “Nasx”ning lug‘aviy ma’nosi “o‘chirish, bekor qilish. “Nasx” so‘zi lug‘atda “yo‘qotish, boshqa qilish, yo‘q qilish, ko‘chirish” ma’nolarini bildiradi. “Nasx” xati chiroyli, o‘qishga oson va yozuv sifatida hamma harflar to‘la hamda muayyan mutanosiblik bilan yozilar edi. Yana jim, ho, xo harflari hamma joyda bir xil kelar edi. Harflarning bu tarzdagi to‘liqligi nasxning soddaligini ta’minlagan. “Nasx” xat uslubi XII asrning birinchi yarmidan boshlab savdo-sotiq rivojlanishi natijasida qo‘shni mamlakatlarga tarqaldi va taraqqiy topdi. Bu borada xattotlar ham o‘z mahoratlarini ko‘rsatdilar. “Nasx” usulini qaytadan ishlash natijasida bir qator boshqa xat ham vujudga keldi. “Nasx” xatining taraqqiyoti uchun Ibn Muqladan keyin boshqa xattotlar Ibn Bavvob va Yoqut Musta’simiyning xizmatlari katta b‘lgan. Arablar dastlab unli harflarsiz yozardilar. Keyinroq arab bo‘lmagan xalqlarning xato qilmasliklari uchun maxsus alomatlarni joriy etdilar. Ular harflarning ustida, pastida nuqtalarga o‘xshagan ilovalarni qo‘ygan. Ammo harflar uchun qabul qilingan nuqtalarni farq qilish uchun boshqa ranglardan ham foydalanishgan. Turli olimlar arab alifbosiga, o‘z fonetikasiga mos qilib bir nechta alohida alomatlarni ilova qilganlar. Forsiyzabon va turkiyzabon xalqlar ham shu xat bilan yozganlar.

Shubhasiz, qariyb hamma tillar o‘z alifbosi va talaffuziga ega edi. Qayd etish kerakki, nasx usuli Yoqut Musta’simiydan keyin o‘zgarmadi. Faqat XX asrdan Misr shohi Maliki Fuod I arab xatiga bosh harf va kitobat alomatlaridan foydalanishni xohladi. Buning uchun xattotlar orasida tanlov e’lon qildi (1929-yillar). Komissiya xattot Muhammad Afandiyning “hurufi toj” nomli ixtirosini maktablarda joriy ettirdi, ammo keyinroq xat va xattotlik mutaxassislari bu ishning taraqqiy etishini xoxlamadilar va davomchi topilmadi. 42 “Nasx” usuli ming yildan ortiq vaqt mobaynida ma’lum edi, shu sababdan ham bu sohaning ko‘p xushnavis xattotlari vujudga keldi. Alalxusus, bu uch ulug‘ ustozlardan boshqa yana Qobus bin Vushmagir, Abu Yusuf Gulpoygoniy, Hamdulloh Buxoriy, Ahmadi Turkistoniy, Ahmad Nayreziy va boshqalar o‘z mahoratlariga ega edilar. Bu xat turi ixtiro qilingandan to hozirgi kungacha xattotlar tomonidan keng qo‘llanilib kelinadi. Islom madaniyati taraqqiy topa boshlagach, kompozitsion san’at turlari bo‘lmish naqsh va o‘ymakorlik san’atlari keng tarqaldi. Musulmon san’ati ahli bu ruhni yozuvga ham olib kirishga harakat qilib, yangi xat turlarini kashf qila boshladilar va ularga ko‘proq bezakli shakllar berishga urindilar. Oqibatda xattotlikda muayyan qoida va normalar ishlab chiqildi. Bu xat turlari oldingilaridan farqli o‘laroq, geometrik shakllarga emas, balki nafis og‘ma shakllarga asoslangan. Bu xayrli ishlar boshida abbosiylar davlati vaziri Ibn Muqla (vaf. 328 h.) turadi. Shunday qilib, o‘z tuzilishi va ko‘rinishi bilan avvalgi kufiy xatidan ancha farq qiluvchi yozuv turlari kashf etildi. Ularning boshida nasx xati vujudga kelib, (bu xat turida) ilgari mus’haflar I asr kufiysida bitilgan bo‘lsa, endilikda ular yangi kashf qilingan nasx xatida yozila boshladi. Bu xat turi yuzaga chiqib, shuhrat qozongandan keyin boshqa xatlarning barchasi “mansux” qilingan, ya’ni ishlatishdan qoldirilgan. Nasx xati tez va ravon yozilgani, ko‘zga go‘zal va bejirim tashlangani uchun ham u matbaalarda chop etiladigan kitoblarda asosiy yozuv vazifasini o‘tagan. Hozirgi davrda eng keng tarqalgan yozuv bo‘lib, bu xatdan zamonaviy matbuot va adabiyotlar chop etishda foydalanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yozuv va kitob ko‘chirishga e’tiborning ortishi tufayli Movarounnahr hududida bir necha xattotlik maktablari vujudga keldi. Ular – Buxoro xattotlik maktabi, Xorazm (Xiva) xattotlik maktabi, Farg‘ona (Qo‘qon) xattotlik maktabi, Samarqand xattotlik maktabi va Toshkent xattotlik maktabi edi. Hind xattotlik maktabi esa, asosan Tabriz, Hirot, Buxoro va Samarqand xattotlik maktabi ta’sirida taraqqiy etgan. Nasx xatida bir tekis yozishlik imkoni keng bo‘lganligi, o‘qishlik va harflardagi yengilliklar borligi sabab, bu xat muloyim xatlar sirasiga kiritiladi. Xat harf hajmlari chegaralangan va qalam hajmi kichikligi nuqtayi nazaridan yozuvda sintez ishlar olib borilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdullayev I., Hikmatullaev H. Samarqandlik olimlar. – Toshkent: Fan, 1969.

2.Abu Tohirxoja. Samariya //Abu Tohirxoja. Samariya. Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. Bayoniy. “Shajarai Xorazmshohiy”. Ibrat. “Farg‘ona tarixi”. – T.: Kamalak, 1991.335-bet.

3.Alimov U., Mansurov A., Nuriddinov J., Mardonov I., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Xo‘jam A. “Xazrati Imom”. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. 239-bet.

4.Ahmedov B. “Tarixdan saboqlar”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. 430- bet.

5.A’zamxo‘jaev S., Islomov Z.M. “Markaziy Osiyo tarixiy yodgorliklari”. – Toshkent: Yangi nashr nashriyoti, 2011. 76-bet.

Nargiza YULANOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
o‘zbek va rus tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi
yulan.nargiz@gmail.com

AKADEMIK YOZUV FANI – MUTAXASSISNING AKADEMIK SAVODXONLIGI ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya: akademik yozuv an’anaviy turdagi kompetensiya bo‘lib, dunyo ta’lim va ilm dunyosida keng tarqalgan. Ushbu fanning dolzarblashuvi axborot jarayonlarining jadal rivojlanishi, xalqaro almashinuvlar, akademik aloqalar sharoitida paydo bo‘ladi. Zamonaviy universitetning tarbiyaviy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatining birlashishi, birinchi navbatda, mustaqil fikrlaydigan mutaxassis va tadqiqotchini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu akademik kompetensiyalarning shakllanishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *akademik savodxonlik, akademik kompetensiyalar, akademik yozuv, ilmiy uslub janr.*

Аннотация: академическое письмо представляет собой традиционный вид компетенции и является широко распространенным в мировом образователь-ном и научном сообществах. Актуализация данной дисциплины усиливается в условиях стремительного развития информационных процессов, международных обменов, академических контактов.

Сочетание воспитательной и общественно-политической миссии современного университета направлено, прежде всего, на формирование независимо мыслящего специалиста и исследователя, чему и способствует формирование академических компетенций.

Ключевые слова: *академическая грамотность; академические компетенции; академическое письмо; научный стиль; жанр.*

Annotation: academic writing is seen as a traditional type of competencies and is widel yused in the world educational and scientific communities. The actualization of this discipline is growing under rapidly advancing informational proc esses, international exchanges, and academic contacts. The combination of educational and socio-political missions of modern universities is aimed first of all at educating independent-minded specialists and researchers. And the formation and enhancing of academic competences contributes and favours largely to it.

Key words: *academic literacy academic competencies academic writing; scien-tific style genre.*

Murakkab va ko‘p qirrali ko‘nikmalar majmui bo‘lgan akademik yozuv bugungi kunda butun dunyoda akademik muhitda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan barcha boshqa ko‘nikmalarga nisbatan ustun deb tan olingan.

Bu ko‘nikmalar to‘plami nafaqat lingvistik, ya’ni tilshunoslik, sintaktik va uslubiy, balki birinchi navbatda bizning talabalarimiz va yosh mutaxassislarga yetishmaydigan, mantiq, tahlil, dalillash, tanqidiy fikrlash, obyektivlik hamda boshqa odamlarning g‘oyalari va matnlariga hurmat kabi metalingvistik kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

Akademik yozuv fani talaba o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan har bir fan tarmog‘i bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ilmiy faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradi va shunga muvofiq o‘z maqsad hamda vazifalariga ega. Akademik yozuv fani ham boshqa fanlar kabi o‘z tarixiga ega.Zamonaviy akademik yozuv fani tarixi 1930-yilllarga borib taqaladi. Akademik yozuv yoki ilmiy yozuv bu badiiy adabiyot o‘quv ishining bir

qismi sifatida ishlab chiqarilgan yozuv “Akademik yozuv” (Academic Writing) fani uzoq vaqtdan beri G‘arb universitetlarida mavjud va uning maqsadi akademik savodxonlikning asosini tashkil etadigan akademik ko‘nikmalarni (academic literacy) shakllantirishdir.

“Akademik” so‘zi o‘qitish va ta’lim bilan bog‘liq barcha tushunchalarni anglatadi.Masalan, o‘quv yili, akademik muvaffaqiyat, akademik yutuqlar, akademik kompetensiya va b.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda “matn faoliyati” atamasi yaratildi, u “akademik yozuv” tushunchasini eng aniq yetkazib beradi.

Taniqli rus olimi T. M. Dridze matnli faoliyatni shaxsiy faollik turi sifatida ko‘rib chiqadi, ma’nolarni tashkil qilish uchun qilingan intellektual-ma’noviy verbal va noverbal operatsiyalardan iborat. Muallifning fikriga ko‘ra, har qanday matnda ikkita tuzilma ajratiladi – makro va mikro.Akademik yozuvda makrotuzilmaga uning mantiqiy tashkil etilishi va tuzilmasiga, ya’ni noverbal operatsiyalarga, mikrotuzilmada esa verbal ko‘rinishdagi matnga mos keladi. Ushbu konteksda, akademik yozuv kursi “o‘z g‘oyalarini yaratish, ularni mantiqiy ravishda tashkil etish, matnni tuzish, har bir o‘z farazini asoslash... va matnni izchil, aniq va manzilli tarzda qurish” ni o‘rgatishi kerak.

I.B.Korotkina akademik yozuv o‘quv jarayonini tashkil etish uchun qo‘llanma sifatida qaralishi mumkin, - deb xulosa chiqaradi – “akademik yozuvda matn abzaslardan qurilgan, ammo ularga bo‘linmagan... abzas matnning asosiy elementi va uning yozilishini o‘rganish kerak”.

Bundan tashqari, akademik yozuv faqat boshqa akademik savodxonlik fanlari tizimida rivojlanadi, akademik o‘qish va akademik nutq (gapirish), taqdimot san’ati va muhokamani o‘tkazish bilan yozishni o‘rganishga umumiy yondashuv zarur. Ushbu fanga chet elda akademik yozuv mutaxassislari tomonidan qiziqish bo‘lgani kabi, mamlakat ichidagi mahalliy munozaralar ushbu transdissiplinar fanining asoslarini ta’lim jarayoniga tatbiq qilish vaqti kelganligini ko‘rsatadi. Tegishli dasturlarni va kurslarni ishlab chiqish, talabalarga yordam berishga mo‘ljallangan Yevropa, Avstraliya, Kanada va Amerika Qo‘shma Shtatlari mamlakatlarida mavjud bo‘lganlar kabi elektron pochta markazlarini ochish talab qilinadi.

Akademik yozuv fan sifatida O‘zbekistonda nisbatan sust rivojlanishiga qaramasdan, bugungi kunda kelajagi muqarrar ekanligi haqida ishonch bilan aytish mumkin. Bugungi kunda, bizning fikrimizcha, ilmiy jamoa akademik yozuv o‘qitish metodikasini o‘rganishga emas, balki o‘nlab yillar davomida bu muammo bilan shug‘ullangan va katta yutuqlarga erishgan I. leki, C. Coffin, E. Henkel, A. Raimes, P. C. Robinson kabi G‘arb olimlarining yutuqlarini tahlil qilish va ulardan foydalanishga e’tibor qaratishi kerak.

Ma’lumot sifatida I.B.Korotkinaning akademik yozuv kursini egallash natijasida talabalar “ilmiy (akademik) matnni yaxlit tizim sifatida chiziqli bo‘lmagan qurishning asosiy tamoyillarini bilishi kerak”, – degan fikridan foydalanishingiz mumkin;

– ilmiy matnning publitsistik va badiiy matndan asosiy farqlari;

–ilmiy matnga qo‘yiladigan xalqaro normalar va talablar;

– matnni mantiqiy tartibga solish va uning elementlarini tashkil qilish;

– matn ustida ishlashda akademik yozuvning turli modellari va texnologiyalardan foydalanish;

– o‘quvchi bilan muloqot qilish, boshqalarning nuqtai nazarini tushunish va hurmat qilish;

– o‘z farazingizni ko‘rsatish va asoslash, tezisni shakllantirish va gipotezadan xulosa chiqarishga qarab matn yaratish;

– turli manbalardan ma’lumotlarni tanqidiy baholash, tanlash, umumlashtirish va ulardan foydalanish;

– mantiq va dalillarga asoslangan, turli plagiatlardan qochgan holda, xolis, asoslangan va haqqoniy o‘z dalillarini keltirish;

– turli xil mantiqiy tartib va dalillash usullarini qo‘llash;

– sintaktik ravishda izchil va mantiqiy bog‘langan matnni yozish;

– fikringizni aniq va lo‘nda tilda ifoda eting;

– o‘z g‘oyalaringizni yaratish texnologiyalarini egallash;

– modellarga asoslangan matn yaratish qobiliyatlari;

– parafraz va iqtibos qobiliyatlari;

– izchil va mantiqiy tartibga ega matn yaratish qobiliyatlar;

– o‘zingiz va boshqa birovning matniga murojaat qilingan akademik matnni baholash mezonlaridan foydalanish ko‘nikmalari;

– murakkab sintaktik va mantiqiy xatolarni tuzatish qobiliyatlari.

Akademik yozuvning janr xilma-xilligi bilan bog‘liq holda savol quyidagi tarzda hal qilinishi mumkin. Ma’lumki, janr aloqalarida ilmiy nutq turli xil nutqlar orasida eng boylaridan biri hisoblanadi.

M. P. Brandes nutq janrlarini “barqaror, tematik, kompozitsion va stilistik nutq turlari”, – deb belgilaydi.

An’anaga ko‘ra, asosiy va ikkinchi darajali akademik janrlar farqlanadi. Boshlang‘ich janrlar ilmiy maqola, akademik taqriz, monografiya, dissertatsiya bilan, ikkinchi darajali – annotatsiya, tezislar, avtoreferat, ixtisoslashtirilgan ensiklopedik maqola, ilmiy muhokamalar, ilmiy – tadqiqot loyihasining tavsifi bilan taqdim etiladi. Ushbu janrlar tarkibi bo‘yicha, kompozitsion xususiyatlari bo‘yicha, til xususiyatlari bo‘yicha farqlanadi va ichki funksional-nutqiy xususiyatlariga ega. Biroq, bunday janr xilma-xilligiga qaramasdan, ilmiy fikrlarning aniq va bir ma’noli ifodalanishi ularning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Amaliy tilshunoslik sohasidagi taniqli tadqiqotchilar – Vaikato universitetidan Hamilton, yangi Zelandiyadan I. Bryuslarning fikriga ko‘ra,

bu jarayon uch bosqichdan o‘tadi va akademik yoki kasbiy martaba yo‘lida muvaffaqiyatga erishish uchun asos yaratishga imkon beradi. Birinchi bosqichda talaba ta’lim olmoqchi bo‘lgan fanni bekor qilish va qayta tiklash maqsadida asosiy kompetensiyalarni shakllantirish amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda “mualliflik uslubi” ishlab chiqiladi va jamiyatning bir qismi bo‘lgan talabaning “mualliflik o‘xshashligi” shakllanadi. Va uchinchi bosqichda yangi g‘oyalarni joriy etishga imkon beruvchi tanqidiy kompetensiyalarga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева С.Х., Доспанова Д.У. Академическое письмо. Учебное пособие. – Ташкент, 2022.

2. Абдуллаева С.Х. Академическое письмо. От теории к практике. Книга I. Учебное пособие. –Ташкент, 2024.

3. Доспанова Д.У. Академическое письмо. От теории к практике. Книга II. Учебное пособие. – Ташкент, 2024.

4. K.A.Gayubova, N.D.Yulanova. Akademik yozuv. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2024.

5. Короткина И. Б. Академическое письмо: процесс, продукт и практика Учебное пособие для вузов. – Москва: Юрайт, 2021.

6. Кувшинская Ю.М., Зевахина Н.А. , Ахапкина Я.Э., Гордиенко Е.И. Академическое письмо от исследования к тексту. Учебник и практикум для вузов. – Москва: Юрайт 2022

7. Короткина И.Б. Модель обучения академическому письму. Учебное пособие для вузов. – Москва. Юрайт 2021

8. N. Jiyanova, O. Mo‘ydinova. Nutq madaniyati. – T.: “Ilm ziyo zakovat”, 2019. 221 b.

9. М. Ахмедова. Нутқ маданияти ва профессионал нотиқлик. ТАТУ, 2017, 114б.

10. Jerald Alred, Charles Brusaw, Walter Oliu. Hahdbook of technical writing. New York, Copyright 2003.

11. Stephen Bailey. Akademic writing. Handbook for international student`s. – London, 2015

Mohinur JUMAYEVA

DIALOGIK NUTQNING ETNIK JIHATDAN XOSLANISHI

Annotatsiya: ushbu maqola dialogik nutqning etnik jihatdan xoslanishiga asoslangan. Shuningdek, ko‘p yillardan buyon yurtimizda yashab kelayotgan ayrim millat vakillarining dialogik nutqi tadqiqot obyekti sifatida olinib, ijtimoiy tilning gibritizatsiyasi natijasida idiolekt hodisasining vujudga kelishi haqida. Fikrlarning isboti sifatida badiiy asarda qo‘llangan dialoglarning etnik xoslanishlari va diskursiv tabiatini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *etnik, idiolekt, dialekt, lahja, lo‘li tili, tatar tili, milliylik*.

Аннотация: в статье рассматриваются этнические особенности диалогической речи. В качестве объекта исследования рассматривается диалогическая речь представителей некоторых национальностей, проживающих в нашей стране на протяжении многих лет, а также феномен идиолекта, свидетельствующий о возникновении гибридизации социального языка. В качестве доказательства высказанных идей предпринята попытка раскрыть этнические особенности и дискурсивную природу диалогов, используемых в художественном произведении.

Ключевые слова: *автор, биографический метод, художественный язык, индивидуальный стиль, функциональная речь, герой, лирический герой*

Annotation: this article is based on the ethnic characteristics of dialogical speech. Also, the dialogical speech of representatives of certain nationalities who have been living in our country for many years is taken as an object of research, and the phenomenon of idiolect is about the emergence of a hybridization of social language. As evidence of the ideas, an attempt is made to reveal the ethnic characteristics and discursive nature of the dialogues used in the artistic work.

Keywords: *ethnicity, idiolect, dialect, gypsy language, Tatar language, nationality*

Dastavval tilimizdagi etnik so‘zini izohlaydigan bo‘lsak, yunoncha *etnikos*- qabilaga, xalqqa aloqador degan ma’no kelib chiqadi. Lug‘aviy ma’nosini esa izohli lug‘atdan foydalangan holda quyidagicha izohlash mumkin: *kelib chiqish jihatdan biror xalqqa oid, mansub, xos bo‘lgan. Masalan: Aholining etnik tarkibi. Bu xalq va millatlarning o‘z tili… o‘zining etnik xususiyatlari bo‘lib, o‘lkamizda yagona do‘stlik va qardoshlik oilasini tashkil etadi. [*O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-tom. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.*]* Etnik kelib chiqish ko‘p odamlar uchun muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Bizning etnik kelib chiqishimiz bizning madaniy faoliyatimiz va til amaliyotimizga ta’sir qiladi, ya’ni u bizning shaxsiyatimizning katta qismiga aylanishi mumkin. Shuning uchun til bizning etnik va o‘zligimizni ifodalash usuli ekani rad etib bo‘lmaydigan holatdir. Til bizning kundalik hayotimizning muhim qismidir. Biz boshqalar bilan muloqot qilish uchun tildan foydalanamiz, bu nutq, yozish yoki imo-ishora shaklida bo‘ladimi u ko‘pincha o‘ziga xos grammatik qoidalar va ijtimoiy konvensiyalarga rioya qilgan holda yuqori darajada tuzilgan va murakkab, uzoq ijtimoiy jarayonni o‘z ichiga olgan bo‘lishi mumkin.

Bir guruh odamlarning madaniyati, tili, kelib chiqishi va boshqa xususiyatlari umumiy bo‘lsa, ular bir etnik guruhga tegishli deyiladi. Dunyoda minglab etnik guruhlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos. O‘ziga xoslik va til xilma-xillikka ega. Milliylik etnik kelib chiqish bilan mustahkam bog‘liqdir, chunki mamlakat fuqarolari ko‘pincha etnik kelib chiqishi bilan bog‘liq bir xil ijtimoiy omillarni o‘zida jamlagan bo‘ladi. Bular - madaniyat, til, din va boshqalar bo‘lishi mumkin. Biroq, bir millat ichida bir nechta etnik guruhlar bo‘lishi mumkin. Misol uchun, bir Hindistonning o‘zida bengal, hind, nepal va boshqa ko‘plab etnik guruhlarni ko‘rishimiz mumkin. Etnik guruh deganda, o‘z xalqidan ajralib chiqqan guruh va boshqa xalqlar tarkibiga

kirib, uzoq muddat yashab, shu xalqning tili, xo‘jalik faoliyati, urf-odatlari, turmush tarzini qabul qilib, unga batamom singib, o‘zlarini shu xalq etnik nomi bilan ataydigan bo‘lib qoladi. Ammo shuni ham e’tirof etish kerakki, bu guruh o‘z etnik nomini o‘tmishdagi qaysi qabila, elatga mansub ekanligini va ba’zi an’analarini saqlab qolgan bo‘ladi. Misol uchun, qipchoqlar XIX asr ikkinchi yarmining boshlarida o‘zbek xalqining tarkibida o‘z lahjalari, turmush tarzi, madaniy hayotidagi ba’zi xususiyatlarni saqlab qolganligi tufayli etnik guruh bo‘lib shakllangan bo‘lsalar, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, boshqird va boshqa xalqlar tarkibida ham ular “qipchoqlar” deb nomlanuvchi etnik guruh hisoblanadi. Bu jarayon shu yerda yashab qolgan aholi nutqiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

– Ay, kuchingdan, jigit! Ana endi jigitmisan-jigit bo‘lding!

– Hay, jigit-ay, jigit-ay!.. ayt tag‘in nima qilay?

– Tag‘in… meni kechasi bir mahalda olib kelib edilar. Men bediram-bediram kelib edim. Shu bois… ayta berayinmi?(T.Murod “Otamdan qolgan dalalar”)

Irq va etnik kelib chiqishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan atamalar bo‘lib, ba’zida chalkashib ketish holatlari ham kuzatilishi mumkin. Asosiy farq shundaki, irq insonning o‘ziga xos jismoniy xususiyatlarini, etnik kelib chiqishi esa madaniyat, an’ana va til kabi ijtimoiy omillarni anglatadi. Til etnik kelib chiqishini aniqlashda katta rol o‘ynaydi, chunki u kimning qayerdan kelganini va unga tegishli ijtimoiy guruhni ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omildir. Bu odamlar so‘zlashadigan alohida tillar bilan cheklanib qolmasdan, balki til jamoasida so‘zlashadigan lahja va dialektlarga ham tegishli ekanini anglatadi.

Tilshunoslarning ta’kidlashiga qaraganda, o‘zbek dialektologiyasida dialektning maxsus konsepsiyasi ishlab chiqilmagan. Sheva, dialekt, lahja atamalari rus dialektologiyasidagi говор, диалект, наречие *atamalari ta’sirida yaratilgan.* [Джураев А. Б. Теоретические основқ ареалрного исследования узбекоязқчного массива. – Ташкент: Фан, 1991, с. 51.]

Dialekt – bu mamlakatning ma’lum bir mintaqasida so‘zlashadigan tilning xilma-xilligi. Unda o‘ziga xos so‘zlar, grammatika va talaffuz kabi o‘ziga xos til xususiyatlari mavjud.

Shaxsning shevasi odamning qayerdan ekanligini yoki hozir yashayotganligini bildiradi. Odamlar o‘zlari ishlatadigan dialektlarning aralashmasiga ega bo‘lishi mumkin va bu ularning idiolektini tashkil qiladi. Quyida idiolektga daxldor dialogni ko‘rib chiqamiz.

– …Esanmisiz? – deb so‘rashdi-yu, hasratini to‘kib soldi.

– Kitti, svolish! Yana uynashig‘a kitti, parazit.

– …Razvodg‘a biram! Alimentg‘a dabitsa itam!

– Ay, ni bo‘lsa bo‘lar! Sudg‘a biram. (O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”)

Yuqorida tatar millatiga mansub ayol nutqi namuna sifatida keltirilgan. Tatar tili turkiy tillardan biri hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasi, Boshqirdiston, Chuvashiston va boshqa viloyatlarning ayrim tumanlari hamda O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va Ozarbayjonda tarqalgan. XX asr oxiriga kelib shu tilda so‘zlashuvchilar soni yetti million kishidan oshdi. Yozuvi 1939-yildan kirill grafikasiga asoslangan. Sobiq ittifoq davridan to bugunga qadar yurtimizda tatar millatiga mansub ko‘plab kishilarni uchratishimiz mumkin. Leksikasida arabcha, forscha, ruscha va rus tili orqali o‘zlashgan baynalmilal so‘zlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Jumladan, asardan keltirilgan namunada ham tatar millatiga mansub pochtachi ayol nutqi keltirib o‘tilgan. Fan nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, tatar tili turkiy tillar oilasining qarluq lahjasiga mansub bo‘lib, undagi grammatik o‘xshash tomonlardan biri dialogda fe’l tarkibida keladigan shaxs-son qo‘shimchasidan ham anglashimiz mumkin. “Itam”, “biram” kabi fe’llarda “tortaman” ya’ni, alimentga tortaman, razvodg‘a biram – ajrashaman so‘zlarida “m” yoki “am” qo‘shimchalari birinchi shaxsning birlik sonda moslashuvi demakdir. Bundan tashqari nutqda ko‘pchilik so‘zlarning o‘zbek tili bilan qorishuvi biz yuqorida aytgan idiolekt hodisasini vujudga keltirgan. Tatar nutqining o‘ziga xos xususiyati ularda g‘ lashish hodisasi kuchli. Ko‘pchilik so‘zlari g‘ ga monand aytiladi. Masalan, “uynashig‘a, razvodg‘a”, “alimentg‘a”, “sudg‘a” kabi so‘zlarda “ga” jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi “g‘a” tarzida aytilishining guvohi

bo‘lamiz. Rus, tatar, o‘zbek, fors va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar qorishuvidan hosil bo‘lgan nutq idiolektni yuzaga chiqargan.

Idiolekt – bu shaxsning tilidan o‘ziga xos foydalanishini anglatadi. Bizning idiolektimizga hayotimizning ko‘p jihatlari ta’sir qiladi. Masalan: yashash joyi, ta’limimiz, do‘stlik guruhlarimiz, sevimli mashg‘ulotlarimiz va boshqalar. Shunday qilib, bizning idiolektimiz qayerda tug‘ilganimizni, hozir qayerda yashayotganimizni, ota-onamiz qayerda yashaganini, biz gaplashadigan tilning, madaniy amaliyotimizga va etnik kelib chiqishiga hissa qo‘shadigan boshqa asosiy omillarni ifodalashi mumkin.

Ijtimoiy hayotda nafaqat tatar millati, balki boshqa millatlar tili bilan ham sodir bo‘lgan idiolekt hodisasini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, lo‘li millatiga mansub adresantning nutqini ko‘rib o‘tsak:

– Qani kela qoling, – dedi oyim ayvon tomonga yurib.

– Yo‘q mango shu yer yaxshi!

– …Ovmin! Qadam yettu balo yetmasun! Pilar madadkor bo‘lsun. Dushmaning xor-u zor bo‘lsun bacham!

– … Uyingda amol bo-or! – dedi lo‘li cho‘zib. – G‘animing bo-or! (O‘. Hoshimov “Dunyoning ishlari”)

Bugungi kundagi lingvistik va genetik dalillardan shuni bilish mumkinki, lo‘lilarning kelib chiqishi Hindiston yarimoroliga, yanada aniqrog‘i, Rajastan viloyatiga borib taqaladi. Ko‘p davrlardan beri lo‘lilarga nisbatan salbiy streotiplarning aholi ongida yashab kelishi bois ularga past nazar bilan qarab kelingan. Lo‘lilar nafaqat yurtimizda, balki dunyoning barcha davlatlarida tarqalgan millat hisoblanadi. Lo‘lilar tili hind-yevropa tillari oilasining hindoriy guruhiga mansub. Muntazam ko‘chib yurish tufayli lo‘lilar lo‘li tilining turli lahjalarida so‘zlashadilar. Jumladan, yurtimizda yashab kelayotgan lo‘lilar tojik tilida va turlicha lahjalarda so‘zlab keladi. Lo‘lilar qayerda istiqomat qilsa, ularning tiliga o‘sha millatning tili o‘z ta’sirini o‘tkazib keladi. Yuqoridagi namunada ham ko‘rishimiz mumkinki, lo‘li o‘zbek tiliga, tojik tili unsurlarini qo‘llagan holda gapirmoqda. Ya’ni, yetti o‘rnida yettu, yetmasin o‘rnida yetmasun, bo‘lsin o‘rnida bo‘lsun kabi so‘zlarida “i” unli tovush o‘rnida “u” tovushining almashinuvi, bolam o‘rnida “bacham” so‘zi ham tojik tiliga xos. Shuningdek, gap so‘ngidagi so‘zlarni cho‘zib talaffuz qilish holatlari uchraydi. Masalan, “amol bo-or”, “g‘animing bo-or” kabi so‘zni cho‘zib talaffuz qilish xususiyatlari ham lo‘li millatiga mansub nutqiy xoslanish sanaladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ijtimoiy hayot, kishilarni muloqotga ya’ni, o‘zaro dialog jarayoniga tortadi. Ana shu jarayon mahsuli o‘laroq, biz adresantlarning etnik kelib chiqishi va qaysi hududdan ekanligini ma’lum til unsurlaridan, ba’zi belgili xoslanishlardan anglab olish imkoniga ega bo‘lamiz. Zeroki, har bir shaxsning o‘z etnik kelib chiqishi mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-tom. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

2.Джураев А. Б. Теоретические основқ ареалрного исследования узбекоязқчного массива. – Ташкент: Фан, 1991, с. 51.

3.Mauthner Fritz. Beitrage zu einer Kritik der Spraδe. 1Ffm. – B.: Wien, 1982. – S.102–105

4.Qahhorov Q. “O‘zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi” diss.(Phd) 2020.Andijon

Oqila SATTOROVA,
Toshenkt Davlat Sharqshunoslik universiteti
arabshunoslik oliy maktabi o‘qituvchisi
sattorova.oqila@mail.ru

TARJIMADA MILLIY IDENTIKLIK

Annotatsiya: maqolada tarjimada milliy identiklik tushunchasining mazmuni, uning madaniyat va til o‘rtasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida so‘zlarning yuzaki ma’nosi emas, balki xalqning madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlari ham o‘z ifodasini topadi. Arab tilidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimalar misolida milliy o‘ziga xoslik qanday aks etishi, tarjimonning bu jarayondagi roli va mas’uliyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, milliy identiklik, arab tili, o‘zbek tili, madaniyat, qadriyatlar, lingvokulturologiya.

Annotation: the article analyzes the concept of national identity in translation, its role between culture and language. In the process of translation, not only the superficial meaning of words is conveyed, but also the culture, traditions, and values of the people are expressed. Using translations from Arabic into Uzbek as an example, the article demonstrates how national distinctiveness is reflected and highlights the role and responsibility of the translator in this process.

Key words: translation, national identity, Arabic language, Uzbek language, culture, values, linguoculturology

Аннотация: в статье анализируется понятие национальной идентичности в переводе, его место между культурой и языком. В процессе перевода передаётся не только поверхностное значение слов, но и культура, обычаи и ценности народа. На примере переводов с арабского языка на узбекский показывается, как отражается национальная самобытность, а также раскрывается роль и ответственность переводчика в данном процессе.

Ключевые слова: перевод, национальная идентичность, арабский язык, узбекский язык, культура, ценности, лингвокультурология

Kirish. Tarjima nafaqat til vositasi, balki millatlararo muloqotning muhim madaniy ko‘prigidir. Har bir xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari, diniy qarashlari va milliy qadriyatlari tarjimada o‘z ifodasini topadi. Shu bois tarjimada **milliy identiklik** tushunchasi alohida e’tibor talab etadi. Chunki tarjimon matnni boshqa tilda ifoda etar ekan, uning milliy ruhini ham yetkazib berishi zarur. Tarjimachilik juda mas’uliyatli, mashaqqatli va shuning bilan bir paytda murakkab, qiyin sohalardan biri hisoblanadi. Bir xalqning asarini ikkinchi bir xalqqa yetkazish oson ish emas, albatta. Ayniqsa tarjima asari bir biriga yaqin, qardosh tillardan o‘girilgan bo‘lsa. Tarjimon asarni yo‘q qilishi yoki aksincha maromiga yetkazib tarjima qilishi tarjimonga bevosita bog‘liq jarayondir. “Tarjimon ikki milliy adabiyot o‘rtasidagi aloqachi, vositachi hisoblanadi. Voqealar oqimini original asar muallifi qanday tasavvur qilsa, u ham shu oqim ichiga avtor singari kirib borishi lozim”[1].

Asosiy qism.

1. Milliy identiklikning tarjimada namoyon bo‘lishi.

Bir mamlakatda milliy koloritlar o‘zining identikatsiya markazlari sifatida ham xizmat qiladi. Bu koloritlar mamlakatning tarixi, adabiyoti va madaniyatini ifodalaydi va bu orqali o‘lkada yashovchi hamda boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarni o‘zgartiradi. Milliy koloritlar tarjimasi, o‘ziga xos terminlar, frazalar va deyarli ko‘p o‘lkada o‘ziga xos bo‘lgan turli adabiy uslub va shakllarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tarjimalarni tushunish va kelajakda ularni

1 Salomov G‟ va boshqalar. “Tarjima mahorati”. – T.: Fan nashriyoti, 1979. 142-b.

qo‘llash juda muhimdir, chunki ular o‘zining adabiyoti va madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos ma’nolari va nuanslari mavjud bo‘ladi. Milliy koloritlar tarjimasi, turli tildagi asosiy tushunchalarni hisobga oladi. Misol uchun, kelajakda hukmdorlik, siyosat, iqtisod va boshqa sohalarda mamlakatlararo munosabatlarni rivojlantirishda milliy koloritlar tarjimasining muhim ahamiyati mavjud. Bu tarzda tarjima qilingan ma’lumotlar to‘g‘risida kelajakdagi kelishuvlar va tushunchalar hosil qilinadi. Milliy koloritlar tarjimasi, o‘ziga xos shakl va uslublarni saqlab, o‘zining adabiyoti va madaniyati bilan bog‘liq turli ma’naviy azolar, iboralar va hadisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu tarzda tarjimalarni tushunish, milliy madaniyat va adabiyoti haqida ko‘proq bilim va tushunchalar orttiradi. Tarjimalar o‘zining asosiy tushunchalarini yo‘qotmaslik, o‘ziga xos ma’nolar, nuanslar va shakllar bilan saqlanishi kerak. Shuningdek, tarjima otasining til va adabiyoti bilan bog‘liq bo‘lishi, milliy koloritlarni to‘g‘ri va samarali tarjima qilishni ta’minlaydi.

Arab tilidagi ko‘plab iboralar va maqollar milliy tafakkur mahsuli bo‘lib, tarjimada ularni moslashtirish muhim ahamiyatga ega:

- **“بيتك البيت”** (al-baytu baytuka) — “Uy seniki”, ya’ni mehmonni o‘z uyidagidek his qilishga undash. O‘zbekchada “O‘zingizni uyda his qiling” shaklida ifodalanadi.
- **“يد واحدة لا تصفق”** (yadun wāḥidatun lā tuṣaffiq) — “Bitta qo‘l qarsak chalolmaydi”. O‘zbekcha maqolda: “Yakka qarsak chalmas”.
- **“الصبر مفتاح الفرج”** (aṣ-ṣabru miftāḥu al-faraj) — “Sabr najot kalitidir”. O‘zbekchada: “Sabr qilgan — g‘alaba qilgan”.

2. Qo‘shimcha arabcha misollar

- **Sevgi haqida:**
  - **“من أحبك لا يتركك”** (man aḥabbaka lā yatrukuka) — “Seni sevgan odam seni tark etmaydi”. O‘zbek tilida: “Yaxshi ko‘rgan kishi senga sodiq bo‘ladi”.
- **Do‘stlik haqida:**
  - **“الصديق وقت الضيق”** (aṣ-ṣadīqu waqt aḍ-ḍīq) — “Do‘st qiyin paytda bilinadi”. O‘zbekchada: “Do‘st boshda, dushman oxirda bilinar”.
- **Mehnat haqida:**
  - **“من جدّ وجد”** (man jadda wajada) — “Kim mehnat qilsa, topadi”. O‘zbekchada: “Mehnat qilgan to‘yadi”.
- **Ota-ona haqida:**
  - **“الجنة تحت أقدام الأمهات”** (al-jannatu taḥta aqdāmi al-ummuhāt) — “Jannat onalar oyog‘i ostidadir”. O‘zbekchada: “Onani izzat qilgan jannatga kirar”.

3. Tarjimada milliy o‘ziga xoslikni saqlashning qiyinchiliklari

Ba’zi iboralar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda, kitobxon uchun begona bo‘lib tuyuladi. Masalan:

- **“حلاوة بعقله أكل”** (akala bi-‘aqlihi ḥalāwah) — “Aqliga shirinlik yedirib qo‘ydi”. Aslida: “Aldab qo‘ydi”. O‘zbekchada: “Aqlini aylantirib qo‘ydi”.

4. Madaniyat va diniy qadriyatlarning ta’siri

Arab tilida Qur’on va hadislar asosida shakllangan ko‘plab iboralar mavjud:

- **“بالصَّبْرِ وَتَوَاصَوْا”** (va tawāṣaw biṣ-ṣabr) — “Sabr qilishni vasiyat qildilar”. O‘zbek tarjimasida: “Sabrga da’vat qilish” tarzida izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tarjimada milliy koloritni saqlash masalalarini o‘rganish jarayonida tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasi doirasida oldin izlanish olib borgan shaxslarning metod va uslublaridan, jumladan, E.Ochilovning “Tarjima nazariyasi va amaliyoti ” va “ Badiiy tarjima masalalari”, Qudrat Musayevning “Tarjima nazariyasi asoslari”, I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarovlarning “Tarjima nazariyasi” asarlaridan foydalanib xulosalar berildi.

Maqolada **lingvokulturologik tahlil** va **qiyosiy usul** qo‘llanildi. Arab va o‘zbek tillaridagi maqol va iboralar qiyoslab o‘rganildi. Tarjima jarayonida milliy identiklikni saqlash uchun quyidagi usullar tahlil qilindi:

- **Ekvivalent tarjima**
- **Moslashtirish (adaptatsiya)**
- **Madaniy izoh berish**

Mulohaza va natijalar

Badiiy tarjima o‘z murakkabligi va qiyinlik darajasiga ko‘ra badiiy ijod bilan deyarli bir mavqeda turadi desa ham bo‘ladi. Sababi muallifning iste’dodi va mahorati mevasi bo‘lgan asarni umuman boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qilib qayta yaratish kerak bo‘ladi. Badiiy asarlar tarjimasi uchun til bilishning o‘zi kifoya

qilmaydi, buning uchun ijodkorlik iste'dodi va badiiyat ilmidan xabardor bo‘lish talab qilinadi. Realistik tarjima talablariga ko‘ra, tarjimon asl nusxani san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarni saqlashi lozim. Har bir badiiy asar bir millat vakili tarafidan yoziladi va unda, albatta, milliylik bo‘ladi. Shunga ko‘ra, tarjimashunoslikda milliy kolorit degan atama mavjud. Badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikda, shuningdek, mahalliy kolorit degan tushuncha ham bor. Mahalliy kolorit deb biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush tarzi, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirishga aytiladi. Shu milliy kolorit bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamalar-realiyalar, boshqacha aytganda milliy xos so‘zlar deyiladi. Realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida yozuvchi qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda qilib beradi,turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy ochib berishga yordam beradi. Realiyalar milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg‘u asboblari, ro‘zg‘or anjomlari, nomlar, taxalluslar, shahar va qishloq sharoitlari tasviri, hayvon va o‘simlik nomlari, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so‘z va iboralar bo‘lishi mumkin. Badiiy obrazni qayta yaratishda tarjimon ishining birinchi bosqichi obraz yaratilgan millatning tarixi, ijtimoiy-adabiy sharoitlarini o‘rganishdir. Undan keyingi bosqichi uning mazmunini belgilashdir. Shundan keyin obraz yaratilishi kerak bo‘lgan asliyat tilining vositalarini va uslubiy yo‘llarini tahlil qilishi hamda oxiri ona tilida ifodalashning kerakli til vositalarini qidirib topish bo‘ladi. Adabiy asarning umumiy sifatlari o‘sha yerliklarning xususiy-ijtimoiy hayot tarzida, sharoitida, kiyimi, urflari, ko‘chalar-u shahari va boshqalarida namoyon bo‘ladi. Bularning yig‘indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etib, barchasi original asarda nutq vositalari orqali berilgan bo‘ladi. Ularning to‘g‘ri tarjima qilinishi juda muhimdir. Milliylik – juda nozik tushuncha. Bu boradagi kichik bir xato ba'zida butun bir millat haqida yanglish tasavvur hosil qilishi mumkin. Masalan: biz o‘zbeklarda kattalarni hurmat qilib “siz” deb chaqirashadi. Lekin ba'zi o‘zbek asarlarining ruscha tarjimasida “sen” deya o‘girilgan. Shu arzimas kichik xato tufayli “O‘zbeklar ham bir-birini senlar ekanda” degan tushunchaga olib keladi. Tarjimashunoslar fikricha, milliy xos so‘zlar tarjimasida eng qiyini u yoki bu tushuncha, narsa va hodisa haqida o‘quvchining ongida to‘liq va aniq tasavvur hosil qilishdir. Aytaylik, Sharq she'riyatini bahor, ko‘klam, gul, bulbul, bo‘ston obrazlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Endi o‘ylab ko‘ringchi, bunday she'rni umuman bahor fasli yo‘q mintaqa xalqlari tiliga qanday tarjima qilish mumkin.

- Arab va o‘zbek xalqlarining qadriyatlari o‘rtasida ko‘plab umumiyliklar mavjud.
- Tarjimon faqat til bilimdoni emas, balki madaniyatlararo vositachi sifatida ham faoliyat yuritishi zarur.
- Milliy identiklikni saqlash tarjimada madaniy muloqotni boyitadi va xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni mustahkamlaydi.

Xulosa. Tarjimada milliy identiklikni to‘laqonli aks ettirish tarjimon zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Arab tilidagi ibora va maqollarni o‘zbekchaga o‘tkazishda milliy ruhni saqlash, ekvivalent shakllarni tanlash va zarur hollarda izoh berish muhimdir. Shu yo‘l bilan tarjima xalqlar o‘rtasidagi ma'naviy ko‘prik vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2012.
2. G‘.Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1983.
3. Shuhrat Sirojiddinov, Gulnoza Odilova. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent, 2011.
4. Tarjima masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami). – Toshkent, 2012.
5. M.N.Xolbekov. Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi. – Toshkent, 2014.

Zebuniso ABDUXOLIQOVA,
Toshkent shahridagi 127-maktab o‘qituvchisi

TARJIMA ASARLARDA BADIIY XRONOTOP TALQINI

Annotatsiya: tarjimachilik taraqqiyotining o‘ziga xos tamoyillari, istiqlol yillariga kelib tarjimachilikning yuksalishidagi omillar haqida so‘z boradi. Tarjima asarlarning badiiy xususiyatlari haqidagi tahliliy yondashuvlar, asosan, Jorj Oruellning “1984” va Ulug‘bek hamdamning “Muvozanat” romanlaridagi xronotopning badiiy matndagi funksiyasi haqida so‘z yuritilgan. Har ikki romandagi xronotopning badiiy talqindagi o‘ziga xos betakror ifodalanishi, matnda xarakter va ruhiyatga uzviy bog‘liqlik jihatlariga tahliliy yondashilgan.

Kalit so‘zlar: *tarjima, mahorat, anglash, talqin, xronotop, funksiya, xarakter, ruhiyat.*

Аннотация: в статье рассматриваются особенности развития перевода, факторы, способствовавшие расцвету переводческой деятельности в годы независимости. Аналитические подходы к художественной характеристике переводных произведений в основном сосредоточены на функции хронотопа в художественном тексте в романах Джорджа Оруэлла «1984» и Улугбека Хамдама «Мувозант». Анализируются уникальное выражение хронотопа в художественной интерпретации обоих романов, неразрывная связь персонажа и психики в тексте.

Ключевые слова: *перевод, мастерство, понимание, интерпретация, хронотоп, функция, персонаж, психика.*

Annotation: the article discusses the specific principles of translation development, the factors that contributed to the rise of translation in the years of independence. Analytical approaches to the artistic characteristics of translated works mainly focus on the function of chronotope in the literary text in George Orwell’s novels “1984” and Ulugbek Hamdam’s “Muvozant”. The unique expression of chronotope in artistic interpretation in both novels, the inextricable connection of character and psyche in the text, are analyzed.

Key words: *translation, skill, understanding, interpretation, chronotope, function, character, psyche.*

Insoniyat tafakkurga ega bo‘lgan uzoq davrlardan beri adabiyot, san’at asarlari turfa xalqlar tomonidan o‘qiladi, kuylanadi. Tarjimachilikning mavjudligi uchun ham, ma’naviy qarashlar zamiridagi tushunchalar, inson hayotini yaxshilash, ularning fazilatlarini anglash imkonini berib kelmoqda. Turli tillarda vujudga kelgan asarlar tarjima asosida boshqa bir xalqning ajralmas ma’naviy mulkiga aylanib boradi. Trajima qilingan asar asosida biz boshqa xalqlarning turli olamine anglash imkoniga ega bo‘lib boramiz.

Tarjimachilik taraqqiyoti jahon adabiyotining nodir durdonalari bilan tanishish imkonini beradi. Jahon badiiyatidagi mezonlar, ularning matndagi funksiyasini anglashda ham jahon adabiyotidan qilingan tarjimalar asosiy vazifa bajaradi. Tarjimachilik mavjud ekan, xalqlar o‘rtasidagi adabiy aloqalar shakllanib rivojlanib boradi. Adabiyotshunos G‘aybulloh as-Salom qayd qilib o‘tganidek: “Tarjima til va tafakkurning buzilmas ittifoqi, muqoyasi, shirin hosili o‘laroq, tabiat insonga ato etgan ulug‘ ne’mat, ajoyib mo‘jiza. Tarjima bor ekan, xalqlar bir-birlari bilan doimiy jonli muloqotda, adabiyotlar bir-biridan bahramand. Tarjima bor ekan, fikr – fikrdan suv ichadi, boyiydi, o‘tkirlashadi” [1, 121-bet].

Darhaqiqat, tarjima san’ati yuksak didni, keng dunyoqarashni, badiiy tafakkurning yuksalishiga xizmat qiladi. Tarjim asarlar asosida dunyo adabiyotidagi ulkan xazina bilan tanishish imkonini kengaytiradi, uning badiiy xususiyatlaridan bahramand bo‘lishga imkon beradi: “Tarjima shunchaki nusxa ko‘chirish emas, tarjimonning estetik ehtiyoji, uning ixtiyoridan tashqari, tarjimada, baribir, iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asliyat matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Buning uchun u asardagi voqelikni muallif darajasida puxta bilishi kerak. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida tarjimachilikning ta’siri katta, zero, tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh” [2, 7-8-betlar]. Asosli qayd qilinganidek, tarjimon juda murakkab jarayonga yondashar ekan, eng avvolo, asar yaratilgan tilni mukammal bilishi, ijodkor olamini teran anglagan, his etgan bo‘lishi kerak. Shundagina, o‘zga bir tilda tarjima asarni yana qayta jonlatiradi, o‘quvchining qalbiga yo‘l topadi. Shu jihatdan, tarjima asarlarda berilgan xronotop talqinini ham, asosli anglashi, har bir voqelik uchun asos bo‘lgan makon va zamonni ham idrok etishi zarurdir. Shundagina badiiy qahramonning xarakterini, ruhiy olamini asosli ochib berishga imkon tug‘iladi. Dunyo adabiyotining nodir durdonalaridan biri Jorj Oruelning “1984” romani 2020-yilda iste’dodli tarjimon Karim Bahriyev tomonidan o‘zbek tiliga o‘girildi. Asar yaratilgan davrda katta bahslarga sabab bo‘lgan, chunki hayot, jamiyat, insonning uzviy birligini turli badiiy vositalarda asosli talqin etganligini ham, alohida qayd etish kerak.

Jorj Oruelning “1984” romanining ilk sahifasidanoq badiiy vaqt talqini bilan boshlanishini kuzatamiz: “It was a bright cold day in April, and the clocks were striking thirteen. Winston Smith, his chin nuzzled into his breast in an effort to escape the vile wind, slipped quickly through the glass doors of Victory Mansions, though not quickly enough to prevent a swirl of gritty dust from

entering along with him. The hallway smelt of boiled cabbage and old rag mats. At one end of it a coloured poster, too large for indoor display, had been tacked to the wall. It depicted simply an enormous face, more than a metre wide: the face of a man of about forty-five, with a heavy black moustache and ruggedly handsome features" [3, 2-bet]. Tarjimada: "Aprelning havosi ochiq, ammo sovug'i etni junjiktiradigan kuni edi va soatlar o'n uchunchi bora bong chalayotgandi. Uinston Smit, huvullagan shamoldan og'zi-burnuni berkitish uchun iyagini ko'kragiga tiragancha, tezda o'zini "G'alaba" turar joyining shisha eshigi ortiga oldi, ammo uning ortidan bir uyum qum quyuni ham ichkariga kirib ulgurdi. Dahlizda qaynagan karam va eskirgan palos hidi anqirdi. Eshikning shundoq qarshisida bu xona uchun juda katta bo'lgan rangli plakat osig'liq turardi. Plakatda odamning bahaybat, eni bir metrdan ziyod yuzi tasvirlangandi – bu, chamasi, qirq besh yoshlardagi, hashamdor qora mo'ylovli odamning dag'al, ammo erkaklarga xos jaydari yuzi edi" [4, 5-bet].

Talqinlarga nazar tashlar ekanmiz, zamonni va makonni dialektik birligida badiiy obraz portretini ham tasvirlash yo'lidan boradi. Chunki, zamonga hamohang makonning badiiy ifodasi o'quvchida katta tassurot qoldiradi. Aprelning havosi ochiq, ammo uning sovug'idan odamning eti junjikadi, bu esa bejiz emasligini englay boshlaymiz. Asrarda asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, geografik makon sari harakat etishining o'ziyoq, uning ongli tafakkuridan dalolat beradi. Bu esa keyinchalik badiiy tafakkurga ham sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. Badiiy asarda makon va zamonning talqinlari davr ziddiyatlarini, inson qalbidagi tuyg'ularni yuzaga chiqarishga zamin bo'ldi. Filologik ilmiy muhitda ko'p yillar davomida tadqiqotchilar nazdida barqarorlashgan tasavvurga qarshi o'laroq, xronotop konsepti dastlab adabiyotshunoslikda emas, balki fiziologiya, psixologiya va falsafa fanlari bo'yicha ilmiy izlanishlarning kesishish nuqtasida ishlab chiqilgandir. Xronotop bilan bog'liq tadqiqotlarda mualliflik M.M.Baxtinga nisbat berilsa-da, istilohning ilk manbaini A.Uxtomskiyning ishlari asosida ko'rsatish to'g'ri bo'ladi. Aleksey Alekseyevich Uxtomskiy (1875–1942) – asab tizimi faoliyatining tamoyillarini qamrab olgan dominanta xususidagi ta'limotning asoschisi rus fiziolog olimi va faylasufi.

Olimning ilmiy dunyoqarashi nemis mutafakkirlari ta'sirida shakllanib, bu maktab vakillari (Vilgelm Osvald, Teodor Lipps, Ernst Max, Alois Ril, Vilgelm Vundt, Rixard Avenarius, Fridrix Paulsen va boshqalar) psixofiziologiya tadqiqotlari orqali olingan ma'lumotlardan falsafiy kategoriyalarni ishlab chiqishga intilishgan. Ushbu maktab qarashlarini chuqur o'rgangan A.Uxtomskiy uzluksiz makon-zamon yaxlitligini (xronotopni) jonli idrok etishning shakli degan xulosaga olib keladi. Jonli idrok etish orqali, ongimiz sezgi a'zolari jo'natgan ma'lumotlar biz uchun yaxlit bir butun olam manzarasini yig'ib beradi. Uxtomskiy uchun xronotop mavhum bir falsafiy mohiyat emas, balki jonli mavjudotlarga atrof muhit bilan uyg'unlikda o'zaro mavjud bo'lish imkonini beruvchi biologik tirik qolish mexanizmidir. [5, 56-bet]. Rus olimi A.V.Politovning qarashlariga nazar solar ekanmiz, A.Uxtomskiy va M.Baxtin nazariy qarashlaridagi farqli va ma'lum yaqinliklarni alohida qayd qilib o'tishida ham asoslar mavjud edi [6, 4-bet]. A.V.Politov ham ilk nazariy qarashlarni dastlab inson fiziologiyasi va falsafa fanlari doirasida vujudga kelgan istiloh keyinchalik badiiy asarlar tahliliga nisbatan tadbiq etilib, Baxtin tomonidan filologik ilmiy olamga moslashtirilganligini ta'kidlaydi. Chunki M.Baxtingacha ham u yoki bu darajada, atama haqidagi qarashlar mavjudligini alohida qayd etish lozim: "Zamon va makon san'atga taalluqli ekanligini birinchilardan bo'lib G.E.Lessing, keyinroq G.V.Gegil ta'kidlagan bo'lsa, XIX asr oxiri, ayniqsa, XX asr san'atning barcha turlarini, shu jumladan, badiiy adabiyot, adabiyotshunoslikning diqqat markaziga tortilayotgan mavzulardan biriga aylandi" [7, 41-bet].

Qayd qilinganidek, turli fanlar kesimidagi bu tushuncha asta-sekinlik bilan falsafa, filologik terminlar qatoridan o'rin oldiki, bu kategoriyasiz badiiy asarlarning poetik xususiyatlarini tahlil qilish juda murakkablik kasb etishini anglata boshladi. Badiiy asarlar tarkibida, voqealar rivojiga asos bo'luvchi qahramon ma'lum bir makon va zamonda harakatlanadi. Bu tushunchaning o'ziyoq, rus adabiyotshunosi M.Baxtin qarashlarining naqadar dolzarb ekanligini asoslaydi.

Bugungi kunda xronotop nazariyasiga yondashuvlar ham, bu tushunchani nazariy talqinlari ham turfa xil qarashlar, tushunchalar asosida boyitilmoqda. Zamonaviy fanda turli-tuman kontekstlardagi har qanday makon va zamon (xronotop)ga oid o'zaro munosabatlarni tahlil va talqin qilish imkonini bera oladigan universal kategoriyaga aylanganligini ham qayd qilish kerak. Shuni ta'kidlash muhimki, xronotop masalasi fanlararo va kompleks xususiyatga ega. B.To'rayeva o'zining "Zamonaviy romanchilikda xronotop etikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi" mavzusidagi doktorlik ishida bu xususda quyidagi mulohazani bildiradi: "Dunyo adabiyotshunosligida xronotop asar voqea-hodisalarining ketma-ketligi va jadalligini ifodalovchi kompozitsiya unsuri, obrazlarni tavsiflovchi hamda ijodkorning dunyo tuzilishi haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini aks ettiruvchi adabiy-estetik kategoriya sifatida talqin qilinmoqda" [8, 5-6-betlar]. Bundan tashqari, xronotop muammosini o'rganish turli yo'nalishlarda olib borilayotgani haqida so'z yuritib, B.To'rayeva qayd etadi: "Jahon adabiyotshunosligida xronotop kategoriyasining adabiy-estetik mohiyati va nazariy tamoyillari, tur va janrlar evolyutsiyasi, modifikatsiyasi, badiiy asar arxitektonikasiga ta'siri, badiiy matn semiotikasi, bir adabiy matn yoki bir qator matnlar doirasidagi zamon-makon shakllarining o'zaro to'qnashuvi, parallelligiga doir quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri –

baxtinshunoslik an’analarining davom ettirilishi; xronotop muammosining shakllanish tarixi, mohiyati, funksional ahamiyatining sinergetika, germenevtika, semiotika, kognitiv nuqtai nazardan o‘rganilishi” [8, 7-bet].

Darhaqiqat, qayd qilingan mulohazalar XXI asrning birinchi choragidagi qarashlar sifatida ham e’tirof etilishi lozim. Shuning uchun ham, olamning badiiy manzarasini yaratishda xronotop muhim rol o‘ynashini yuqorida sanab o‘tilgan uslublarning sintezi ham dalillaydi. Xronotopning badiiy asar qurilishidagi funksional rolini o‘rganish hozirgi tadqiqotlarda yanada tur va janr nuqtayi nazardan o‘rganilayotganligini ham qayd etish lozim. Badiiy asardagi ma’lum bir voqelikning zamoni va makoni mavjud bo‘lgani kabi, har bir tushunchaning asosida ham nazariy qarashlar, mulohazalar bo‘lishi tabiiy holdir.

Z.Rahimov “Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi” mavzusida olib borgan tadqiqotida quyidagi fikrni keltiradi: “Badiiy asarda xronotop vositasidan turli voqelik va qahramon ruhiy-ma’naviy olamini ochishda unumli foydalaniladi” [9, 22-bet]. Yozuvchining tarixiy romanlaridagi xronotopning turli xil poetik ifodalar uchun qo‘llanganligini, ba’zan asar qahramonlarining ruhiy-ma’naviy qiyofasini ochishga xizmat qilganligini asoslasa, ba’zan esa tarixiy muhitni yotritishga asos bo‘lganligini ta’kidlaydi. Bu tahliliy yondashuvlarda, nazariy qarashlarni ilgari surilishida ham asoslar mavjudligini alohida ta’kidlash lozim.

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanining ilk sahifasida ham erta tong talqini, inson ruhiyatidagi ziddiyatlar talqini o‘z ifodasini topgan: “Nonushtadan so‘ng Yusuf xotini va o‘g‘li Abdurahmonjoni bog‘chaga kuztib qaytar ekan, yo‘l-yo‘lakay “Uyga borsammi, yo‘qmi?” – deya o‘ylandi” [10, 6-bet]. Talqinlardagi xronotop ifodasi badiiy qahramonning kechinmalarini, uning ziddiyatli olamini yuzaga chiqarishga asos bo‘lgan.

Xronotop shunchaki voqea-hodisalar foni emas, dolzarb va faol struktura hosil qiluvchi unsur ekanligini alohida qayd etganligini ta’kidlashida asoslar mavjuddir. Agar bayon etilgan nazariy qarashlarga e’tibor qaratar ekanmiz, xronotopning matn tarkibidagi funksiyasi, asarning yaxlitligini yuzaga chiqarishda yoki sujet kompozitsiyani dialektik birligini ta’minlashdagi o‘rni beqiyos ekanligi asoslangan, dalillanganligini kuzatish mumkin. Xronotopning badiiy funksiyasi barcha tur va janrlar imkoniyatidan kelib chiqib, matn yaxlitligiga bevosita ta’sir etishini unutmaslik kerak.

Umuman olganda, tarjima asarlarning ham o‘ziga xos yuksak o‘rni mavjudligini alohida qayd etish lozim. Chunki shu xalqning ruhiy-intellektual olamini anglash, tushunish, his etish imkoniga ega bo‘lamiz. Har bir xalqning o‘z badiiy olami bo‘lgani kabi, uning ifoda shakllari, talqinlari, tasvirdagi tamoyillar bilan tanishish imkonini beradi: “Zamonlar osha tarjimaga bo‘lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san’ati ekanligi o‘zgarmaydi. Tarjimaning ko‘lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma’rifiy darajasiga bog‘liq, o‘z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta’sir qiladi” [2, 6-bet].

Darhaqiqat, qayd qilingan qarashlarning zamirida, badiiy adabiyotning tarjimasi ham shu xalqning mezonlariga, ifoda shakllariga sezilarli ta’sirini ko‘rsatadi. Bu jarayon esa, madaniy aloqalarni yuksalishiga zamin hozirlaydi. Tarjima asarlarda eng asosiy vosita til elementlaridan unumli foydalanish zarur, chunki til asosida, boshqa xalqning asarlari o‘zga bir tilda qayta jonlanadi. Ana shu jarayonda tarjimonning mahorati yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘aybulloh as-Salom. Asarlar. Ey umri aziz. Birinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 1997. 256-bet.
2. Исомиддинов З. Таржима ва тил. Адабий мақолалар. – Тошкент: “ADABIYOT”, 2024. – 320 бет.
3. George Orwell. 1984. Roman. https://share.google/pt6Gojvwoa5sf3Ora.
4. Jorj Oruell. 1984. Ғайрихаёлий роман. Таржимон Карим Баҳриев. Иккинчи нашри. – Тошкент: “Asaxiy Books” NIHOL nashriyoti, 2020. – 296 бет.
5. Ухтомский А.А. Доминанта и интегральный образ // А. Ухтомский. Доминанта. СПб.: Питер. С. 160 стр.
6. Политов А.В. Онтологический смысл понятия хронотопа в философских идеях А.Ухтомского и М.Бахтина. 2014. https://cyberleninka.ru, http://www.vestnik.vsu.ru (мурожаат вақти 07.09.2025).
7. Nasirov A.N. Badiiylik va hayotiy haqiqat (“Yulduzli tunlar” va “Ona lochin vidosi” romanlari misolida). – Turkiya, Istanbul, KESIT, 2019. 139-bet.
8. Тўраева Б. Замонавий романчиликда хронотоп поэтикасининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 72 bet.
9. Raximov Z. Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi. F.f.d. diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. 79-bet.
10. Ҳамдам Улуғбек. Мувозанат. Роман. – Тошкент: “Минҳож”, 2004. – 200 бет.

Dilfuza A'ZAMOVA,
Termiz davlat universiteti
Fakultetlararo chet tillari kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA DISKURS TUSHUNCHASI UNING FILOLOGIK KONTEKSTI

Annotatsiya: ushbu mavzu ingliz va o'zbek tillarida diskurs tushunchasining filologik kontekstdagi o'rganilishiga bag'ishlangan. Diskurs nazariyasi tilning grammatik va leksik jihatlaridan tashqari, uning ijtimoiy, madaniy, pragmatik hamda kognitiv o'lchovlarini ham qamrab oladi. Ingliz tilshunosligida diskurs ko'proq nutqiy aktlar nazariyasi, ijtimoiy hokimiyat va ideologik tizimlar bilan bog'liq holda tadqiq qilinadi, o'zbek tilshunosligida esa matnshunoslik, nutq madaniyati va milliy an'analar asosida o'rganiladi. Tadqiqotda diskursning intertekstual, semiotik va kognitiv jihatlari ham yoritilib, tilning real kommunikativ jarayondagi vazifalari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'z: *diskurs, tilshunoslik, kontekst, filologiya, muloqot, matn, pragmatika.*

Annotation: this research focuses on the concept of discourse in English and Uzbek within the framework of philology. Discourse theory encompasses not only grammatical and lexical aspects of language but also its social, cultural, pragmatic, and cognitive dimensions. In English linguistics, discourse is often analyzed through speech act theory, power relations, and ideological structures, while in Uzbek linguistics it is studied in connection with text analysis, speech culture, and national traditions. The study highlights intertextual, semiotic, and cognitive features of discourse, demonstrating its role in real communicative processes.

Key words: *discourse, linguistics, context, philology, communication, text, pragmatics.*

Аннотация: данное исследование посвящено изучению понятия дискурса в английском и узбекском языках в филологическом контексте. Теория дискурса охватывает не только грамматические и лексические аспекты языка, но также его социальные, культурные, прагматические и когнитивные измерения. В английском языкознании дискурс рассматривается через призму теории речевых актов, властных отношений и идеологических систем, тогда как в узбекском языкознании он изучается в связи с текстологией, культурой речи и национальными традициями. В работе освещаются интертекстуальные, семиотические и когнитивные особенности дискурса, показывающие его функции в реальном коммуникативном процессе.

Ключевых слов: *дискурс, лингвистика, контекст, филология, коммуникация, текст, прагматика.*

Kirish. Diskurs tushunchasi filologik kontekstda tilshunoslikning eng murakkab va ko'p qirrali kategoriyalaridan biri sifatida qaraladi. Ingliz va o'zbek tillarida diskurs nazariyasi tilning faqat grammatik va leksik jihatlarini emas, balki uning ijtimoiy, madaniy, pragmatik hamda kognitiv o'lchovlarini ham qamrab oladi. Diskurs tilning real kommunikativ jarayondagi ishlatilishini ifodalaydi, ya'ni til birliklari qanday qilib ma'no hosil qiladi, qanday kontekstda shakllanadi va qanday ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Ingliz tilshunosligida diskurs ko'pincha "discourse analysis" atamasi orqali izohlanadi va bu yo'nalish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy sohaga aylangan. O'zbek tilshunosligida esa diskurs tushunchasi nisbatan kechroq ilmiy muomalaga kirgan bo'lsa-da, bugungi kunda u filologik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Diskursning filologik kontekstdagi o'rganilishi tilning matn darajasidagi xususiyatlarini, nutqiy aktlarning ijtimoiy va madaniy asoslarini, shuningdek, til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili. Ingliz tilida diskurs nazariyasi ko'proq pragmatika, sotsiologiya va psixolingvistika bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Masalan, J.Austin va J.Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi diskurs tahlilining asosiy metodologik poydevorini yaratdi. Bu nazariyaga ko'ra, har bir nutqiy ifoda faqat grammatik tuzilma emas, balki ma'lum bir ijtimoiy harakatni amalga oshiruvchi vositadir. Ingliz tilidagi diskurs tahlili shuningdek, M.Foucaultning ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan ham boyitilgan bo'lib, diskurs ijtimoiy hokimiyat va bilim tizimlari bilan uzviy aloqada ko'riladi. O'zbek tilshunosligida esa

diskurs tushunchasi ko‘proq matnshunoslik va nutq madaniyati bilan bog‘liq holda tadqiq qilinadi. O‘zbek tilida matn va diskurs o‘rtasidagi farqni aniqlash muhim masalalardan biri bo‘lib, matn ko‘proq yozma shakldagi til birliklari tizimi sifatida, diskurs esa real kommunikativ jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu bois o‘zbek filologiyasida diskurs tahlili ko‘pincha matnning pragmatik va semantik qatlamlarini ochib berishga qaratilgan.

Tahlil va natija. Diskursning filologik kontekstdagi tadqiqi tilning kognitiv jihatlarini ham yoritadi. Ingliz tilida diskurs kognitiv lingvistika bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til birliklarining inson tafakkuridagi konseptual tuzilmalar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Masalan, metafora nazariyasi diskurs tahlilida muhim o‘rin tutadi, chunki metaforalar til orqali ijtimoiy va madaniy konseptlarni shakllantiradi. O‘zbek tilida ham metaforik diskurs keng o‘rganiladi, ayniqsa adabiy matnlarda metaforalar milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilida diskurs tahlili ko‘proq ilmiy metodologiyalar bilan boyitilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida diskurs tahlili ko‘proq milliy an’analarga tayangan holda rivojlanmoqda.

Diskurs tushunchasi filologik kontekstda tilning tarixiy rivojlanishini ham yoritadi. Ingliz tilida diskurs tahlili ko‘pincha tarixiy matnlar, kolonial nutq, diniy diskurslarni o‘rganishga qaratilgan. Bu jarayonda tilning qanday qilib ijtimoiy hokimiyat vositasi sifatida ishlatilgani, qanday ideologiyalarni shakllantirgani tahlil qilinadi. O‘zbek tilida esa tarixiy diskurs ko‘proq qadimiy yozma yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi va adabiy meros orqali o‘rganiladi. Masalan, “Alpomish” dostoni diskurs sifatida qaralib, uning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi vazifalari tadqiq qilinadi. Ingliz tilida esa tarixiy diskurs ko‘proq kolonializm, imperializm va diniy hokimiyat bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Diskursning filologik kontekstdagi tadqiqi tilning kommunikativ funksiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ingliz tilida diskurs tahlili ko‘proq kommunikativ strategiyalar, nutqiy aktlar, pragmatik markerlar orqali amalga oshiriladi. O‘zbek tilida esa diskurs tahlili ko‘proq nutq madaniyati, til etiketi, milliy an’anaviy nutq shakllari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda ingliz tilidagi diskurs ko‘proq global kommunikatsiya vositasi sifatida, o‘zbek tilidagi diskurs esa milliy identitetni ifodalovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilida diskurs tahlili ko‘proq ilmiy metodologiyalar bilan boyitilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida diskurs tahlili ko‘proq milliy an’analarga tayangan holda rivojlanmoqda.

Diskurs tushunchasi filologik kontekstda tilning ijtimoiy va madaniy vazifalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ingliz tilida diskurs ko‘proq global kommunikatsiya, siyosiy nutq, ilmiy matnlar bilan bog‘liq holda o‘rganilsa, o‘zbek tilida diskurs ko‘proq milliy madaniyat, xalq og‘zaki ijodi, adabiy meros bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Diskursning filologik kontekstdagi tadqiqi tilning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga moslashuvchanligini ham ko‘rsatadi. Ingliz tilida diskurs tahlili ko‘pincha zamonaviy kommunikatsiya vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, reklama va siyosiy kompaniyalar nutqini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda tilning qanday qilib ommaviy ongni shakllantirishi va ijtimoiy qarashlarni boshqarishi tahlil qilinadi. O‘zbek tilida esa diskurs tahlili ko‘proq milliy qadriyatlar, an’anaviy nutq shakllari va zamonaviy ijtimoiy muhitdagi til o‘zgarishlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Masalan, o‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan yangi nutqiy uslublar, qisqartmalar, inglizcha so‘zlarning kirib kelishi diskurs sifatida tadqiq qilinadi va bu jarayon milliy tilning global kommunikatsiya bilan qanday uyg‘unlashayotganini ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa diskurs tahlili ko‘proq global miqyosda tilning ijtimoiy va siyosiy jarayonlardagi rolini ochib berishga qaratilgan.

Diskurs nazariyasi filologik kontekstda tilning intertekstual xususiyatlarini ham yoritadi. Ingliz tilida intertekstual diskurs ko‘pincha adabiy matnlar, kino, teatr va ommaviy axborot vositalari orqali o‘rganiladi. Bu jarayonda bir matnning boshqa matn bilan qanday aloqada bo‘lishi, qanday ma’no hosil qilishi tahlil qilinadi. O‘zbek tilida esa intertekstual diskurs ko‘proq xalq og‘zaki ijodi, diniy matnlar va zamonaviy adabiyot orqali o‘rganiladi. Masalan, o‘zbek adabiyotida qadimiy rivoyatlar va zamonaviy asarlar o‘rtasidagi intertekstual aloqalar diskurs sifatida qaraladi va bu jarayon milliy madaniyatning uzluksizligini ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa intertekstual diskurs ko‘proq global madaniyat va zamonaviy kommunikatsiya vositalari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Diskursning filologik kontekstdagi tadqiqi tilning ideologik vazifalarini ham ochib beradi. Ingliz tilida diskurs ko‘pincha ideologik tizimlarni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, siyosiy nutq, reklama va ommaviy axborot vositalari diskursi

ijtimoiy ongni boshqarish vositasi sifatida tahlil qilinadi. O‘zbek tilida esa diskurs ko‘proq milliy identitetni mustahkamlash, madaniy qadriyatlarni targ‘ib qilish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, o‘zbek tilidagi adabiy asarlar, teatr va kino diskurs sifatida qaralib, ularning milliy ongni shakllantirishdagi roli tadqiq qilinadi. Ingliz tilida esa diskurs ko‘proq global ideologiyalar, siyosiy kompaniyalar va ijtimoiy harakatlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Diskurs tushunchasi filologik kontekstda tilning pragmatik jihatlarini ham yoritadi. Ingliz tilida diskurs tahlili ko‘proq nutqiy aktlar, pragmatik markerlar, konversatsion strategiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda tilning qanday qilib ma’no hosil qilishi, qanday ijtimoiy vazifalarni bajarishi tahlil qilinadi. O‘zbek tilida esa diskurs tahlili ko‘proq nutq madaniyati, til etiketi, milliy an’anaviy nutq shakllari orqali amalga oshiriladi. Masalan, o‘zbek tilidagi salomlashish, duo qilish, maqol va matallar diskurs sifatida qaralib, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi vazifalari tadqiq qilinadi. Ingliz tilida esa diskurs tahlili ko‘proq zamonaviy kommunikatsiya vositalari, siyosiy nutq va ilmiy matnlarning pragmatik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Diskursning filologik kontekstdagi tadqiqi tilning semiotik jihatlarini ham yoritadi. Ingliz tilida diskurs ko‘pincha semiotik tizim sifatida qaraladi, ya’ni til belgilarining ijtimoiy kontekstdagi ishlatilishi va talqin qilinishi tahlil qilinadi. O‘zbek tilshunosligida esa diskurs ko‘proq germenevtik yondashuv asosida o‘rganiladi, ya’ni matn va nutqning ma’nosini ochish, uni madaniy kontekstda talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv o‘zbek filologiyasida qadimiy yozma yodgorliklar, diniy matnlar, adabiy asarlar diskurs sifatida o‘rganilishida yaqqol ko‘rinadi. Ingliz tilida esa diskurs tahlili ko‘proq zamonaviy kommunikatsiya vositalari, siyosiy nutq va ilmiy matnlarning ijtimoiy kontekstdagi rolini ochib berishga qaratilgan.

Diskurs tushunchasi filologik kontekstda tilning kognitiv jihatlarini ham yoritadi. Ingliz tilida diskurs kognitiv lingvistika bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til birliklarining inson tafakkuridagi konseptual tuzilmalar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Masalan, metafora nazariyasi diskurs tahlilida muhim o‘rin tutadi, chunki metaforalar til orqali ijtimoiy va madaniy konseptlarni shakllantiradi. O‘zbek tilida ham metaforik diskurs keng o‘rganiladi, ayniqsa adabiy matnlarda metaforalar milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilida diskurs tahlili ko‘proq ilmiy metodologiyalar bilan boyitilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida diskurs tahlili ko‘proq milliy an’analarga tayangan holda rivojlanmoqda.

Xulosa. Shu tarzda diskursning filologik kontekstdagi tadqiqi tilning ijtimoiy, madaniy, pragmatik, semiotik va kognitiv jihatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ingliz va o‘zbek tillarida diskurs nazariyasi turlicha yo‘nalishlarda rivojlangan bo‘lsa-da, ularning umumiy maqsadi tilning real kommunikativ jarayondagi vazifalarini ochib berishdir. Diskurs tahlili tilshunoslikning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida tilning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi rolini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J.L. *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Fairclough N. *Discourse and Social Change*. Cambridge: Polity Press, 1992.
3. Foucault M. *The Archaeology of Knowledge*. London: Routledge, 1972.
4. Hasanov B. *Matnshunoslik asoslari*. – Toshkent: Universitet, 2012.
5. Jo‘rayev M. *Til va nutq madaniyati*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
6. Karimov N. *O‘zbek tilida matn va diskurs*. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Rasulov A. *O‘zbek tilshunosligida pragmatika va diskurs*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.

Sharipboy BOBOJONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Til va adabiyot kafedrasi mudiri,
professor vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari nomzodi

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDA “O‘TMOQ” FE’LI LEKSEMASINING IFODALANISHI VA UNING TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “o‘tmoq” leksemasi va uning izohli lug‘atda aks etishi, leksemaning semantik va sintaktik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada “o‘tmoq” leksemasining nutqda boshqa birliklar bilan paradigmatik munosabat hosil qilishi ham atroflicha keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘tmoq, leksema, semema, lug‘at, struktura, tilshunoslik, nutq, qolip, ma’no, uslub.*

Annotation: This article discusses the lexeme “to pass” and its reflection in the explanatory dictionary, the semantic and syntactic properties of the lexeme. The article also discusses in detail the paradigmatic relationship of the lexeme “to pass” with other units in speech.

Key words: *pass, lexeme, sememe, vocabulary, structure, linguistics, speech, pattern, meaning, style.*

Аннотация. В статье рассматривается лексема “переход” и её отражение в толковом словаре, семантические и синтаксические свойства лексемы. Также подробно рассматриваются парадигматические связи лексемы “переход” с другими единицами речи.

Ключевые слова: *переход, лексема, семема, лексика, структура, лингвистика, речь, образец, значение, стиль.*

So‘zning semantik strukturasi o‘ta murakkab va serqirra mohiyat bo‘lgan tufayli uning leksikografik talqini ham har doim nazariy va amaliy tilshunoslikning dolzarb muammolari qatorida bo‘lib kelgan.

So‘zlarning lug‘aviy ma’nosi talqinida lison va nutqni izchil farqlash talabi har bir so‘zga xos barqaror lisoniy va o‘tkinchi nutqiy jihatlarni ajratishni taqozo qiladi. Nutqiy hodisalar cheksizlik va rang-baranglik tabiatiga ega bo‘lganligi bois leksikografik talqinlarning obyektiga bo‘la olmaydi. Lug‘atlar so‘zlarga xos barqaror jihatlarnigina qamrab olish imkoniga ega. Demak, semasiologiya sohasida amalga oshirilgan izchil sistemaviy tadqiqodlar lug‘at tartib berishda muhim tayanch omil bo‘lib, leksikografik beadad nutqiy ma’nolarni tartibga keltirish va lug‘atlarga kiritish hamda izohlash mushkulotlaridan xalos etadi. Bunda har bir voqelangan nutqiy lug‘aviy ma’noda qorishgan o‘zga hodisalar tajallilarini e’tibordan soqit qilish, ushbu birlik (so‘z)ning asl zotiga daxldor bo‘lgan unsurni ajratish va tavsiflash leksikografik talqinda muhim ahamiyatga ega. Quyida “O‘zbek tilining ilk izohli lug‘ati” dagi (o‘tmoq) fe’lining izohiga diqqat qilish bilan o‘z fikrlarimizni dalillashga harakat qilamiz.

Ma’lumki, “O‘zbek tilining ilk izohli lug‘ati” da (o‘tmoq) fe’lining 31 ta leksikografik ma’nosi ajratilgan. Ma’nolarning ko‘pchiligida bu so‘z o‘z asl zotiga (lisoniy sathdagi mohiyatiga) aloqador bo‘lmagan, balki o‘zi birikayotgan so‘zlarga bog‘liq turli-tuman ma’nolarni voqelantiradi.

Qiyoslang: O‘tmoq

1. Biroq narsaning ichidan, ustidan yoki yonidan yurib, uchib, suzib narigi tomoniga yetmoq, ko‘chmoq. Ko‘prikdan o‘tmoq. Tunneldan o‘tmoq. Chegaradan o‘tmoq...

2. Teshik, eshik kabi biror joyning bir tomonidan kirib narigi tomonidan chiqmoq. 1. Ip igna teshigidan o‘tmadi. 2. Uyda xizmatchi ovqat qo‘ygan ekan, san’atkorning tomog‘idan hech narsa o‘tmadi, ikki piyola choy ichdi xolos. (A. Qahhor).

3. Biror tomonga yo‘nalmoq: yurib, suzib yoki uchib biror tomonga jo‘namoq; biror tomonga qarab yurmoq. Bu daryodan har kuni uch marta paroxod o‘tadi.

4. Tezroq yurib yoki yurgizib, boshqalardan oldin ketmoq; quvib yetib o‘tmoq. Goh Afandi eshakdan, goh eshak Afandidan o‘tib uyga yetdilar. (“Latifalar”).

Ko‘rinadiki, lug‘at ma’nolari tavsiflari, o‘tish harakatining xarakteriga ko‘ra emas, balki harakat ustida amalga oshayotgan predmetlarning xususiyatlariga ko‘ra amalga oshirilgan va shu asosda (o‘tmoq) fe’li nutqiy ma’nosidagi sintagmatik yondosh hodisalarning tajallilari o‘z izlarini qoldirganligi e’tiborga olinmagan. Zero,

Tunneldan o‘tmoq (1-ma’no)

Igna teshigidan o‘tmoq (4-ma’no) misollaridagi (o‘tmoq) fe’lining nutqiy ma’nolari o‘z zotiy tabiati asosida emas, balki bu harakatning nimada amalga oshayotganligi (tunnel orqali o‘tish, teshik orqali

o‘tish), nimaning bu harakatni amalga oshirayotganligi (kishi, texnika yoki ip) va o‘tish teshigining katta-kichikligi (tunnel nisbatan uzun masofali ekanligi, igna teshigining kichikligi) asosida farqlanadi. Har ikkala holatda ham harakat mohiyatida farq kuzatilmaydi. Demak, o‘tmoq fe’lining 1-, 4-, 6- leksikografik ma’nolaridagi farq o‘zga hodisalar (bu yerda birikuvchi so‘zlar denototlaridagi farqlar) tajallilari asosida bo‘lib, bunday yondashuv asosida ushbu ma’nolarni sonini yanada davom ettirish mumkin:

I. 1. Yurib o‘tish.
2.Suzib o‘tish.
3.Uchib o‘tish.
II. 1.Ichi uzoq bo‘lgan narsadan o‘tish(tunnel kabi.)
2.Ichi qisqa bo‘lgan narsadan o‘tish (igna teshigi).
III. 1.Yorib o‘tish.
2.Suzib o‘tish.
3.Teshib o‘tish.
4.O‘yib o‘tish va hokazo.

Birinchi guruh ma’nolar o‘tishning qaysi harakat asosida ekanligi (suzish, uchish, yurish), ikkinchi guruh ma’nolar o‘tish harakat amalga oshayotgan predmet, uchinchi tip ma’nolar esa harakat amalga oshayotgan predmetda o‘tish yo‘lining yo‘qligi bois uni hosil qilish uchun amalga oshayotgan “o‘tmoq”ning tarzi asosida farqlanadi. Aytilganidek, bularning barchasi (o‘tmoq) fe’lining ma’nosida tajallinanayotgan o‘zga hodisalar bo‘lib, ular asosida ushbu ma’nolar tiplarini behad “ko‘paytirish” mumkin. Hodisaga zot va tajalli hamda umumiylik va xususiylik dialektikasi asosida yondashuv bunday rang-barangliklardagi “bir ranglilik”ni, cheksizliklardagi cheklanganlikni ajratish imkonini beradi. Har qanday xususiylik (bizning talqinda nutqiy ma’no) o‘zida, o‘z umumiyligi zarrasi bilan birgalikda, turli-tuman o‘zga hodisalar zarrachalari qorishuvidan iborat ekanligini inobatga olib, bu ma’noning zotiga aloqador o‘ziga xos zarrani ajratib olish, yuqoridagidek, leksikografik talqinlardagi turli xilliklarni bir xillashtirish imkonini beradi. Demak, “O‘zbek tilining ilk izohli lug‘ati” da ajratib izohlangan mazkur 4 ta (1-, 4-, 5-, 6-) ma’no aslida bitta leksikografik ma’noga birlashtirilmog‘i darkor.

Ko‘rinadiki, leksikografik talqinlarda leksemalarning cheksiz nutqiy ma’nolariga tayanish, ularni qamrab olishga intilish zamonaviy lug‘atchilikda o‘zini oqlamaydi. Shuningdek, leksikograflarga tilshunoslik so‘zlardagi lisoniy va nutqiy ma’nolarni farqlamagan bosqichida bunday talabni qo‘yish ham ilmiy adolat nuqtai nazariga mos emas edi.

Shuni ta’kidlash lozimki, leksikografik talqinlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri leksemalar lisoniy mohiyatini tavsiflash bilan cheklanish ham lug‘atning o‘z funksiyasini mukammal ado etish imkonini yo‘qqa chiqaradi. Chunki bunday holda lug‘at maqolasi soni bilan leksema sememalari miqdori tenglashtirib qo‘yilgan bo‘lur edi.

Demak, lug‘atda bir so‘zning, deylik, 20-30 talab nutqiy ma’nolarini izohlash uning empirizmga asoslanganligini ko‘rsatsa, faqat sememalarga tayanish lug‘atning sememik tahlil doirasidan tashqariga chiqa olmaganlikdan dalolat beradi. Bu esa o‘z-o‘zidan lug‘atda sememaga va undan quyida turuvchi, biroq lisoniy tabiatga ega bo‘lgan oraliq lug‘aviy ma’nolariga e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi. Masalan, tadqiqotchi B.Mengliyev [o‘tmoq] fe’lining “O‘zbek tilining ilk izohli lug‘ati” da tavsiflangan 31 ta mustaqil va 1 frazeologik ma’nosi asosida uchta sememani tiklaydi:

1.Biror narsa yoki joy orqali ko‘chish, siljishni ifodalovchi, harakatning oldingi va so‘nggi nuqtalari mo‘tadillashgan, [otdan +o‘tmoq] sintaktik qolipi asosida voqelanuvchi ma’no turi.

2.Bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko‘chish, siljish jismoniy harakatini ifodalovchi va [otdan otga+o‘tmoq] qolipi asosida voqelanuvchi ma’no turi.

3.Biror nuqtaga yetish jismoniy harakatini ifodalovchi va [otga +o‘tmoq] sintaktik qolipi asosida voqelanuvchi ma’no turi.

Bizningcha, izohli lug‘atda fe’lning ana shu ma’nolari rim raqamlari ostida tavsiflanishi va B.Mengliyev shu sememalar ostida guruhlagan «O‘zbek tilining ilk izohli Lug‘ati» dagi ma’nolarning lisoniy tabiatlilari oraliq ma’nolar sifatida arab raqamlari ostida izohlanishi lozim. Birinchi guruhga [o‘tmoq] fe’lining “O‘zbek tilining ilk izohli lug‘ati” dagi 1-,3-,4, 5-, 6-, 21-, 30-, ikkinchi guruhga 2-, uchinchi tipga esa 8- ma’noviy urinishlar xosdir. “O‘zbek tilining ilk izohli lug‘ati” dagi 7-, 15-, 16-, 19-, 20-, 22-,27-, 28-, 29-ma’nolar birinchi sememaning, 11-, 12-, 13-, 26- ma’nolar ikkinchi sememaning, 9-, 10-, 12-, 17-, 23-, 24- ma’nolar esa uchinchi sememaning nutqiy ko‘chma ma’nolari sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. – B. 414.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: O‘quv qo‘llanma: III jild: Sintaksis. – Toshkent, 2006. – B. 172.
3. Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. -T.: Sharq. 2001. - 336 b.
4. Ne’matov H. va boshq. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. -T.: O‘qituvchi. 2002. -96 b.

Nodirabegim OLIMOVA,
Farg‘ona davlat universiteti
Pedagogika-psixologiya va san’atshunoslik fakulteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
nodirabegim3363@icloud.com

PEDAGOGIK HAMKORLIKNING MOHIYATI VA TAMOYILLARI HAMDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARNING TIZIMLI TAHLILI

Annotatsiya:mazkur maqolada pedagogik hamkorlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati atroflicha yoritilgan. Pedagogik hamkorlik – bu o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘qituvchilar o‘zaro, hamda ota-onalar va ta’lim muassasasi o‘rtasida sog‘lom, o‘zaro ishonchga asoslangan, tenglik va faol ishtirok ruhida tashkil etiladigan o‘zaro ta’sir tizimidir.

Maqolada pedagogik hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yish uchun zarur bo‘lgan asosiy tamoyillar – ochiqlik, o‘zaro hurmat, subyekt-subyektlik yondashuvi, faol tinglash, empatiya va mas’uliyatlilik tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik hamkorlikning turli bosqichlarida yuzaga keladigan metodik va psixologik omillar, hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning mexanizmlari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik hamkorlik, ta’lim jarayoni, hamkorlik tamoyillari, subyekt-subyektlik yondashuvi, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati, o‘zaro hurmat, faol tinglash, ta’lim ishtirokchilari, pedagogik muloqot, ota-ona bilan hamkorlik, innovatsion ta’lim, hamkorlikdagi o‘qitish, empatiya, shaxsiy yondashuv, ijtimoiy-psixologik muhit.*

Annotation:this article comprehensively discusses the essence of the concept of pedagogical cooperation, its role and significance in the modern educational process. Pedagogical cooperation is a system of interaction between a teacher and a student, between teachers and each other, and between parents and an educational institution, organized in the spirit of healthy, mutual trust, equality and active participation.

The article analyzes the basic principles necessary for effective pedagogical cooperation - openness, mutual respect, subject-subject approach, active listening, empathy and responsibility. It also discusses the methodological and psychological factors that arise at different stages of pedagogical cooperation, as well as the mechanisms for the correct establishment of cooperation.

Key words: *pedagogical cooperation, educational process, principles of cooperation, subject-subject approach, teacher-student relationship, mutual respect, active listening, educational participants, pedagogical dialogue, cooperation with parents, innovative education, collaborative learning, empathy, personal approach, socio-psychological environment.*

Аннотация:в данной статье всесторонне рассматривается сущность понятия педагогического сотрудничества, его роль и значение в современном образовательном процессе. Педагогическое сотрудничество – это система взаимодействия педагога и ученика, педагогов друг с другом, родителей и образовательного учреждения, организованная в духе здорового взаимного доверия, равенства и активного участия.

В статье анализируются основные принципы, необходимые для эффективного педагогического сотрудничества: открытость, взаимоуважение, субъект-субъектный подход, активное слушание, эмпатия и ответственность. Также рассматриваются методические и психологические факторы,

возникающие на разных этапах педагогического сотрудничества, а также механизмы его корректного построения.

Ключевые слова: *педагогическое сотрудничество, образовательный процесс, принципы сотрудничества, субъект-субъектный подход, отношения «учитель-ученик», взаимное уважение, активное слушание, участники образовательного процесса, педагогический диалог, сотрудничество с родителями, инновационное образование, совместное обучение, эмпатия, личностный подход, социально-психологическая среда.*

Zamonaviy ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash, mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va ijtimoiy faol fuqaroni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bunday yondashuvda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi an’anaviy “ustoz – shogird” modeli o‘zgarib bormoqda. Endilikda ta’limda o‘zaro tenglik, ishonch va mas’uliyat asosidagi pedagogik hamkorlik yondashuvi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagogik hamkorlik bu — ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari (o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va boshqalar) o‘rtasida faol, ochiq va samimiy muloqot asosida tashkil etiladigan ijtimoiy-psixologik va metodik tizimdir. Bunday hamkorlikda har bir tomonning shaxsiy fikri, ehtiyoji, qiziqishi va tashabbusi e’tiborga olinadi hamda rivojlantiriladi. Natijada ta’lim jarayoni bir tomonlama axborot uzatishdan iborat bo‘lmay, balki interaktiv, motivatsion va ijodiy faoliyatga aylanishi mumkin.

Bugungi kunda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etishda o‘zaro ishonch, empatiya, subyekt-subyektlik munosabatlar, shaffoflik, mas’uliyat va faol tinglash kabi tamoyillar asosiy o‘ringa chiqmoqda.Shuning uchun pedagogik hamkorlik tushunchasining nazariy asoslarini, uning tamoyillarini, amaliy ko‘rinishlarini chuqur o‘rganish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir.

Ushbu maqolada pedagogik hamkorlikning mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, samarali hamkorlikni shakllantirishda uchraydigan muammolar va ularning yechimlariga ham e’tibor qaratiladi.

Pedagogik hamkorlikni to‘g‘ri tashkil etish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilish zarur:

Subyekt-subyektlik yondashuvi – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida teng huquqli va o‘zaro faol munosabatlarning shakllanishini ta’minlaydi. Har bir tomonning fikri tinglanadi va qadrlanadi.

O‘zaro hurmat va ishonch – ta’lim jarayonining barcha qatnashchilari bir-birining fikri, hissiyotlari va qadriyatlariga hurmat bilan yondashadi.Bu o‘zaro ishonch muhitini yaratadi.

Ochiqlik va shaffoflik – o‘qituvchi o‘z faoliyatida ochiq va tushunarli bo‘lishi, o‘quvchilar esa o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Faol tinglash va empatiya – o‘qituvchi o‘quvchilarni chin yurakdan tinglashi, ularning hissiyot va ehtiyojlariga xayrixohlik bilan yondashishi pedagogik hamkorlikning muhim shartidir.

Mas’uliyatlilik – har bir ishtirokchi o‘z vazifasi va roli doirasida mas’uliyatni his etib, faol qatnashadi.

Yordam va qo‘llab-quvvatlash – o‘qituvchi o‘quvchining muvaffaqiyatiga ijobiy turtki beradi, unga ishonadi va o‘z salohiyatini namoyon qilishiga imkon yaratadi.

Zamonaviy ta’limda pedagogik hamkorlikni quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

Hamkorlikda dars tashkil etish – o‘qituvchi va o‘quvchi birgalikda o‘quv materiallarini o‘rganadi, muammolarni hal qiladi.

Loyihaviy faoliyatlar – guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilar fikrlash, muloqot qilish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik – o‘quvchining o‘qishdagi muvaffaqiyati uchun maktab va oilaning uyg‘un hamkorligi muhim.

Metodik birlashmalar va tajriba almashinuvi – o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlik o‘zaro o‘sishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar orqali ham hamkorlikni rivojlantirish (online platformalar, elektron kundaliklar, guruhli muhokamalar) ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Pedagogik hamkorlik faqat o'quv natijalariga emas, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va psixologik barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.U shaxsda ishonch, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, mas'uliyat kabi sifatlarni shakllantiradi.

Hamkorlik ruhidagi ta'lim muhiti bolalarda "o'rganish – bu jazoga emas, izlanishga asoslangan jarayon" degan ijobiy tushunchani mustahkamlaydi.Bu esa ularni motivatsion jihatdan qo'llab-quvvatlaydi va mustaqil o'rganishga yo'naltiradi.

Amaliyotda pedagogik hamkorlikka to'sqinlik qiluvchi ayrim muammolar uchraydi:

O'qituvchining avtoritar uslubda ishlashi

O'quvchilarning fikrini inkor qilish

Ota-onalarning passivligi

Muloqot madaniyatining pastligi

Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

O'qituvchilar uchun pedagogik kommunikatsiya va emotsional intellekt bo'yicha treninglar tashkil etish

Ta'lim tizimida ochiq muloqot madaniyatini rivojlantirish

Ota-onalarni faollashtirish bo'yicha muntazam seminar va uchrashuvlar o'tkazish

Hamkorlikka yo'naltirilgan dars metodikalarini keng joriy qilish

Xulosa qilib aytganda, pedagogik hamkorlik – bu zamonaviy ta'limning ajralmas va zaruriy tarkibiy qismidir.U o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi teng huquqli, ochiq va ishonchli munosabatlarga asoslangan ta'limiy jarayonni tashkil etadi. Bunday yondashuv ta'lim sifati va samaradorligini oshiribgina qolmay, balki o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va ruhiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, N.M. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. –Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2021.

2. Xasanboeva, M.S.Pedagogik muloqot va hamkorlik asoslari. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2020.

3. Qodirov, A.A. Zamonaviy ta'limda interfaol metodlar. – Samarqand: Ilm ziyo, 2019.

4. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

5. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2021-yil 13-avgustdagi "Pedagogik xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.

7. UNESCO. (2017). Teachers and Educational Change in Post-Soviet Countries: Perspectives from Belarus, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Russia and Uzbekistan.

8. Ismoilova, D.A."O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida pedagogik hamkorlikni shakllantirish yo'llari", O'zbek pedagogik axborotnomasi.2022.№4.

9. G'ulomova, Z.X."Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlikning roli", Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali.2021. №2(15).

10. Fullan, M. (2007). The New Meaning of Educational Change (4th ed.). New York: Teachers College Press.

O‘g‘iloy O‘ROLOVA,
Aktiv school mental arifmetika treneri
e-mail:ogloyorolova@icloud.com

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY VA MANTIQIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODLARI (SOCRATIC QUESTIONING ASOSIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Xalqaro tajribada keng qo‘llaniladigan, ammo O‘zbekistonda hali to‘liq joriy qilinmagan Socratic questioning (Sokrat savollari metodi) asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlari tahlil qilinadi. Metod o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, dalillash va mantiqiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali ekani ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, mantiqiy tafakkur, Socratic questioning, metodika, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion pedagogika.*

Annotation: this article explores the development of critical and logical thinking skills among primary school students. It analyzes the results of experimental studies conducted using the international method of Socratic questioning, which has not yet been widely implemented in Uzbekistan. The method has proven effective in fostering students’ independent thinking, reasoning, and logical analysis skills.

Key words: *primary education, critical thinking, logical thinking, Socratic questioning, pedagogical method, experimental study.*

Аннотация: в данной статье рассматривается проблема развития критического и логического мышления у учащихся начального образования. Анализируются опытно-экспериментальные работы, проведенные на основе широко используемого в международной практике, но еще не полностью внедренного в Узбекистане метода сократического вопроса. Метод научно обоснован как эффективный для формирования у учащихся навыков независимого мышления, аргументации и логического анализа.

Ключевые слова: *критическое мышление, логическое мышление, сократический вопрос, методология, начальное образование, инновационная педагогика*.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasini tubdan yangilash, o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayonining asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlarida bu masalaga alohida urg‘u berilgan. Jumladan:

“2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” (PF-4947, 2017-yil 7-fevral) da ta’lim tizimini isloh qilish, o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

“Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” (PF-5712, 2019-yil 29-aprel) da o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish ko‘zda tutilgan.

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” (PF-60, 2022-yil 28-yanvar)da esa yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, innovatsion tafakkurga ega shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri etib belgilandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan boshlang‘ich ta’lim Davlat ta’lim standarti (DTS) hujjatlarida ham o‘quvchilarda mantiqiy va ijodiy

fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi alohida ta’kidlangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda turli innovatsion metodlar qo‘llanilmoqda. Mazkur maqsadlarga erishishda xalqaro tajribada samarali deb topilgan, ammo bizda hali keng qo‘llanilmagan metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri –Socratic questioning (Sokrat savollari metodi)dir.

Tahlil va natija. Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayonida asosiy e’tibor o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bu jarayonning poydevorini yaratadi. Shu sababli samarali metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda esa u innovatsion ta’lim metodikasi sifatida dunyo bo‘ylab qo‘llanilmoqda. Bu metodika nafaqat hisoblash tezligini, balki xotira, diqqat, tasavvur, ijodiy fikrlash va mantiqiy tafakkurni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sokrat savollari metodi qadimiy yunon faylasufi Sokrat tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi zamon pedagogikasida keng qo‘llaniladigan usuldir. Uning asosiy mohiyati shundaki, o‘qituvchi o‘quvchiga tayyor javob bermaydi, balki unga turli savollar berish orqali uni mustaqil ravishda mulohaza yuritishga, dalillashga va xulosa chiqarishga undaydi.

Metodning asosiy xususiyatlari: o‘quvchi tayyor bilimni emas, balki izlanish jarayonini boshidan kechiradi.

• Savollar orqali o‘quvchi o‘z fikrini asoslashga va himoya qilishga majbur bo‘ladi.

• Guruhli darslarda bu metod bahs va muhokama madaniyatini rivojlantiradi.

• O‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy tafakkur, tanqidiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Metodning afzalligi:

• o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi,

• ijodiy yondashuvni rivojlantiradi,

• mantiqiy tafakkurni kuchaytiradi,

• o‘quvchilarni faol suhbatdoshga aylantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda bu metodni o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, oddiy, ammo mantiqiy bog‘lanishga ega savollar asosida qo‘llash lozim.

Qo‘llash usullari:

1. Matematika darsida

• Savol: “Nega 2×3 = 6?”

• Javob: O‘quvchi qo‘shish (2+2+2), guruhlash yoki tasviriy misol orqali tushuntiradi.

• Natija: O‘quvchi formulani yodlab olmaydi, balki mantiqiy asosini tushunib oladi.

2. Ona tili darsida

• Savol: “Nima uchun gap bosh harf bilan boshlanadi?”

• Javob: O‘quvchilar matnni kuzatib, qoida o‘zlari tomonidan kashf qilinadi.

• Natija: Qoida eslab qolish emas, balki anglash orqali o‘zlashtiriladi.

3. Tabiatshunoslik darsida

• Savol: “Nega daraxtlarga suv kerak?”

• Javob: O‘quvchilar kuzatish va mantiqiy mulohaza orqali “o‘sishi uchun”, “yashashi uchun” kabi xulosalar chiqaradilar.

• Natija: Sabab-oqibat munosabatini tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

Sokrat metodida savollar turli bosqichlarda beriladi. Boshlang‘ich sinflarda eng samarali turlari:

• Aniqlashtiruvchi savollar: “Bu nimani anglatadi?”, “Boshqacha tushuntira olasanmi?”

• Sababiy savollar: “Nega shunday bo‘ladi?”, “Qanday qilib buni isbotlash mumkin?”

• Dalillovchi savollar: “Nima uchun bu fikrga qo‘shilding?”, “Qanday dalil keltira olasan?”

• Muqobil variantlarni so‘rovchi savollar: “Boshqa yo‘l bormi?”, “Shu masalani yana qanday hal qilish mumkin?”

• Xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi savollar: “Shundan qanday xulosa chiqara olamiz?”

Boshlang‘ich sinf dars jarayonida Socratic questioning metodining o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.Tajriba-sinov ishlari uchun Toshkent Shahar Shayxontohur tumani 320-maktabning 4-sinf o‘quvchilari tanlab olindi.

Tajriba Toshkent shahridagi 320-umumta’lim maktabining 4-sinflarida jami 58 nafar o‘quvchi ishtirokida o‘tkazildi:

Tajriba guruhi (29 nafar) – darslarda Sokrat savollari metodi qo‘llandi.

Nazorat guruhi (29 nafar) – an’anaviy metodlar asosida o‘qitildi.

Mashg‘ulotlar mazmuni

Matematika darsida: “Nima uchun 2×6 = 12?” savoli orqali turli isbotlash usullarini topish.

Ona tili darsida: “Nima uchun bu gap bosh harf bilan boshlanadi?” savoli orqali qoidani o‘quvchi o‘zi kashf etadi.

Tabiatshunoslikda: “Nega daraxtlarga suv kerak?” savoli orqali sabab-oqibatni aniqlash.

Tajriba-sinov natijalari jadvali:

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich daraja	Yakuniy natija (tajriba guruhi)	Yakuniy natija (nazorat guruhi)
Mantiqiy tafakkur	48%	85%	64%
Tanqidiy fikrlash	42%	83%	58%
Mustaqil qaror qabul qilish	40%	80%	55%
Fikrni asoslash va himoya qilish	39%	82%	54%




Diagramma natijalarida tajriba guruhi o‘quvchilari barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha nazorat guruhiga qaraganda sezilarli o‘sishga erishgani ko‘rinadi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash va fikrni asoslash ko‘nikmalari yuqori sur’atlarda rivojlangan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Socratic questioning metodi o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol izlanadigan shaxsga aylantirdi. O‘quvchilar savollarga javob berish orqali nafaqat bilimlarini mustahkamlashdi, balki dalillash, mantiqiy tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni egalladilar. Bundan tashqari, metod guruhli ishlarda fikr almashish, bahs-munozara madaniyati, o‘zaro hurmat kabi ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantirdi.

1. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omildir.

2. Xalqaro tajribadagi Socratic questioning metodi bu borada samarali bo‘lib, o‘quvchilarda dalillash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Tajriba-sinov ishlari metodning yuqori samaradorligini amalda isbotladi.

4. Kelgusida ushbu metodni O‘zbekiston ta’lim tizimida keng joriy etish orqali o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1999.

2.Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1972.

3.Paul R., Elder L. The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. – Foundation for Critical Thinking, 2008.

4.Dillon J.T. Questions and Teaching: A Study in Instruction. – New York: Teachers College Press, 1988.

5.Browne M.N., Keeley S.M. Asking the Right Questions: A Guide to Critical Thinking. – Pearson, 2018.

6.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim Davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti:

• PF-4947 – “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, 2017-yil 7-fevral.

• PF-5712 – “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil 29-aprel.

• PF-60 – “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, 2022-yil 28-yanvar.

Maftuna ZIYAQULOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK TAMOYILLARI

Annotatsiya: mazkur ishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik tamoyillari yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, sinf jamoasida sog‘lom muhitni yaratish omillari tahlil qilingan. Shuningdek, muloqot madaniyati o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish hamda kelajakdagi ta’lim-tarbiyasida tutgan o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, muloqot, madaniyat, tamoyil, ko‘nikma, hamkorlik, tarbiya*.

Аннотация: в работе рассматриваются социально-педагогические принципы формирования культуры общения учащихся начальной школы. В исследовании анализируются факторы развития коммуникативных навыков учащихся, взаимодействия учителя и учащихся, создания благоприятной атмосферы в классе. Обосновывается роль культуры общения в социализации учащихся, формировании личностных качеств и дальнейшем образовании.

Ключевые слова: *образование, общение, культура, принципы, навыки, сотрудничество, воспитание.*

Annotation: this work covers the socio-pedagogical principles of forming a culture of communication among primary school students. The study analyzes the factors of developing students’ communicative skills, cooperation between teachers and students, and creating a healthy environment in the classroom. It also substantiates the role of the culture of communication in the socialization of students, the formation of personal qualities, and future education.

Key words: *education, communication, culture, principles, skills, cooperation, education.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muloqot madaniyati muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf davri – bolaning shaxsiyati va nutqiy madaniyati shakllanadigan eng mas’uliyatli bosqichlardan biridir. Shu sababli ta’lim-tarbiyada ijtimoiy-pedagogik tamoyillar asosida o‘quvchilarda muloqot odobini rivojlantirish, suhbatlashish, tinglash va fikr almashish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. O‘qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiylashuvga yo‘naltiruvchi tarbiyachi sifatida ham faoliyat olib boradi. Ma’naviy, ijtimoiy va ishlab chiqarish tajribasini odamlarning keyingi avlodlariga yetkazish insoniyat jamiyatining mavjudligi va rivojlanishining eng muhim sharti va uning muhim funksiyalaridan biri bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Bu fan va o‘quv intizomi sifatida pedagogikaning ayrim g‘oyalarini, muammoli masalalarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, maktab ta’limi va tarbiyasini modernizatsiya qilishning yangi usullarini izlash va mavjud usullarni takomillashtirish zaruratini tug‘diradi.

Rossiya ta’lim siyosatining asosiy vazifasi – ta’limning asosiy xususiyatini saqlab qolish va shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga muvofiqligi asosida zamonaviy ta’lim sifatini ta’minlash. Zamonaviy ta’lim sifati nafaqat uning mazmuni va eng yangi ta’lim texnologiyalari, balki ta’lim jarayonining insonparvarlik yo‘nalishi, pedagogik xodimlarning malakasi bilan ham belgilanadi. O‘qituvchining pedagogik va tarbiyaviy faoliyat sifatini aniqlash o‘qituvchining maqsadli tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitni nazarda tutadi. Bu shaxsning shaxsiy hayotiy rivojlanishidagi, insonning ta’lim jarayonining uzviy holda ta’lim va mazmunini o‘z-o‘zidan tarbiyalash kabilarga mos keladi. Tashkil etilgan o‘quv faoliyati bosqichlari davrlar va boshqalar.

Falsafa va ekologik xavfsizlik ilmiy ishlanmalarda ishtirok etgan olimlarning (V.P. Klyuchkov, M.N. Rosenko, Y.A. Sandulov va boshqalar) fikricha, hozirgi vaqtda mehnat faoliyatining turli turlarini tartibga solishda kasbiy etikaning ahamiyati tobora ortib, jamiyatni demokratlashtirish jarayonlari, o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga nisbatan kasbiy standartlarni doimiy ravishda ta’minlash bilan bog‘liq. Pedagogik axloqning tekshiruvni, o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatini ochib beradigan katta hajmdagi nazariy va amaliy ishlar, zamonaviy ta’lim uchun meditsina va didaktik shart-sharoitlarni jadal izlash, ta’lim jarayonini tashkil etish, shunga o‘xshash texnologiyalardan faol ta’lim usullari va vositalariga o‘tish bizga o‘qituvchining kasbiy etikasini rivojlantirishni yangi nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga imkon berdi.

Tahlil va natija. Bugungi kunga qadar ilmiy ishlarda pedagogik etikaning mohiyatini ko‘rib chiqish, ushbu tushunchaga ta’rif berishda kelishmovchiliklar mavjud. Bundan tashqari, o‘qituvchining malakasini oshirish muammosining ko‘p jihatlari rivojlanishiga qaramay, maktab ta’limi jarayonida o‘qituvchining pedagogik axloqini maqsadli ravishda uzluksiz rivojlantirish masalasi ochiqligicha qolmoqda. Pedagogik odob-axloqni o‘qituvchining kasbiy faoliyatini amalga oshirish bilan parallel ravishda ishlab chiqish pedagogika kolleji, universitet talabalari yoki o‘qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida pedagogik axloqni rivojlantirishga nisbatan bir qator afzalliklarga ega.

Maktabda ishlash o‘qituvchiga pedagogik axloq sohasidagi bilim, ko‘nikmalarni egallash zaruratini keltirib chiqaradi, bu esa unga tegishli bo‘lgan qiyinchiliklarni hal qilishga imkon beradi. Amalga oshirilgan sa’y-harakatlarni erishilgan natijalar bilan xronologik yaqinlikda solishtirish qobiliyati, olingan ko‘nikmalarga real talab pedagogik axloqni kasbiy muammolarni hal qilishning ajralmas vositasi sifatida idrok etishga yordam beradi. Pedagogik axloqning maqsadli rivojlanishi o‘qituvchining o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali o‘zaro munosabatlariga yordam beradi.

Maktabda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarning pedagogik axloqini maqsadli rivojlantirishning yuqori ahamiyati bilan o‘qituvchilarning pedagogik axloqini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarining nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o‘rtasidagi ziddiyat maktab ta’limi tadqiqot mavzusini tanlashni belgilab berdi. Tadqiqot muammosi quyidagicha shakllantirilgan: maktab ta’limi jarayonida o‘qituvchining pedagogik axloqini rivojlantirish asosida ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Xulosa sifatida nazariy va eksperimental natijalar umumlashtirilib, asosiy xulosalar keltiriladi.

1.Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish muammosini o‘rganishning dolzarbligi oliy kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi bilan belgilanadi. boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sinflarning ijtimoiy va axloqiy kompetentsiyalari darajasiga qo‘yiladigan talablarni oshirish, shuningdek, pedagogika nazariyasi va amaliyotida muammoning yetarli darajada rivojlanmaganligi, o‘zaro ta’lim faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishga qodir bo‘lganlar.

2. Muammoning tarixshunosligi uni shakllantirishning uchta asosiy bosqichini o‘z ichiga oladi, ularning har biri bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy va axloqiy kompetensiyani maqsadli shakllantirishga ilmiy-pedagogik qiziqishning namoyon bo‘lishidagi tub o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi, uni maqsadli yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi. Kasbiy tayyorgarlik doirasida shakllantirish. Birinchi bosqichda (XX asrning 70-yillari boshidan XX asrning 90-yillari boshigacha) xorijiy ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv shakllanadi va biz o‘rganayotgan muammo ilmiy o‘rganish predmeti emas, uni tushunish va shakllantirish uchun faqat old shartlar yaratilgan. Ikkinchi bosqichda (90-yillarning boshidan 21-asr boshlarigacha) tadqiqot muammosi mustaqil maqomga ega emas va faqat uning individual masalalari hal etiladi. Uchinchi bosqichda (20-asr boshidan to hozirgi kungacha) pedagogik jamoa kelajakdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida umuman kasbiy kompetensiyani, xususan, ijtimoiy va axloqiy kompetentsiyani maqsadli shakllantirish zarurligini tushunadi.

3.Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani shakllantirishni alohida maqsad qilib qo‘ymasak va bu muammoni hal etishning yangi usullarini izlamasak, an’anaviy oliy pedagogik ta’lim tizimida bu muammo samarasiz hal qilinmoqda.

4.Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy va axloqiy kompetensiyani shakllantirish tizimini yaratish tizimli, faoliyatga asoslangan va kompetensiya-aksiologik yondashuvlar asosida eng samarali bo‘lib, ularning bir-birini to‘ldiruvchi kompleks rivojlanishi tadqiqot muammosini qo‘yish, ko‘rib chiqishning adekvatligini ta’minlaydi. Hodisaning mohiyatini aniqlaydi, ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi mualliflik tizimini yaratish apparatini ta’minlaydi, ishlab chiqilgan tizimning samarali ishlashi uchun aniq protseduralarni tavsiflashga imkon beradi, tizimning ichki xususiyatlarini, tuzilishini va mazmunini taqdim etishga imkon beradi. Ta’lim jarayonining natijasi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot madaniyatini shakllantirish – faqat dars jarayonida emas, balki sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatlarda ham amalga oshirilishi kerak. Buning uchun: o‘yinli metodlardan keng foydalanish; jamoaviy loyihalar va ijodiy mashg‘ulotlar tashkil etish; o‘quvchilarga milliy qadriyatlar asosida muloqot odobini singdirish; oilaviy va maktab hamkorligini mustahkamlash zarur. Shunda bola faqat bilimli emas, balki muloqotda odobli, jamiyatga moslashuvchan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Исмоилов Т.И. (2020) “PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PUBLIC ACTIVITY OF UNORGANIZED YOUTH” Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol.2: Iss. 10 , Article 42.

2.Ismoilov T., Ismoilov G‘. (2020) “THE CONDUCTING RECOVERY EVENTS THROUGH PHYSICAL ACTIVITIES FOR THE PUPILS OF PRIMARY CLASSES” Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 4 , Article 81.

3.Ismoilov, T. I. (2018). Unique features of working with unorganized youth. Экономика и социум, (2), 28-30.

4.Sattorova M.A., & Ziyaqulova M.S. (2025). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MUTAFAKKIRLAR MEROSI ORQALI MULOQOT MADANIYATI VA MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH. Inter education & global study, (4), 517-524.

5. Ziyaqulova M.Sh. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga axloqiy tarbiya berishda hadislarning ahamiyati” TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA . – ISSN 2181-8274, 2024-yil.

6.Ziyaqulova M.Sh. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish”. “***Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў***” /**Илимий-методикалық журнал 2024 5***/2-сан* **ISSN 2181-7138**. **Нөкис** -2024.

Munira ESHTO‘XTAROVA,
Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi
23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

SURXONDARYO INNOVATSION MARKAZIGA XOS IZOGLOSSALAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada arealogik tadqiqotlar doirasida olib borilgan innovatsion markaz masalasi va innovatsion markazlarning tilshunoslikdagi ahamiyati, ularning o‘zgarishlari va hududiy shevalar taraqqiyotiga ta’siri o‘rganiladi. Surxondaryo hududi areal jihatdan fonetik, leksik, sintaktik izoglossalarga boy hudud hisoblanadi. Maqolada Surxondaryo arealiga xos izoglossalarning hududiy, morfologik, leksik jihatlari va adabiy til va shevaga xos izoglossalar o‘rtasidagi farqlar, izoglossa turlari lingvistik tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tilshunoslikda innovatsion markaz mavzusiga oid tadqiqotlarni rivojlantirish, til xususiyatlarini hududiy tahlil qilish hamda adabiy til va sheva munosabatlarining dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatishga qaratilgan tahlillar va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi

Kalit so‘zlar: *lingvoarealogiya, innovatsion markaz, izoglossa, izofon, izoleks, izosema, til ittifoqi, adabiy til, sheva, lingvistik tahlil.*

Annotation: this article studies the issue of the innovation center and the significance of innovation centers in linguistics, their changes and impact on the development of regional dialects within the framework of arealological research. The Surkhandarya region is considered an area rich in phonetic, lexical, syntactic isoglosses in terms of areal. The article analyzes the territorial, morphological, lexical aspects of isoglosses specific to the Surkhandarya region and the differences between isoglosses specific to the literary language and dialect, and the types of isoglosses. The study shows that the development of research on the topic of an innovative center in linguistics includes analyses and recommendations aimed at demonstrating that the relationship between literary language and dialect is one of the most pressing issues.

Key words: *linguoareology, innovation center, isogloss, isophone, isolex, isoseme, language union, literary language, dialect, linguistic analysis*

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос об инновационном центре и значение инновационных центров в языкознании, их изменения и влияние на развитие региональных диалектов в рамках ареальных исследований. Сурхандарьинская область считается регионом, богатым фонетическими, лексическими, синтаксическими изоглоссами с точки зрения ареала. В статье анализируются территориальные, морфологические, лексические аспекты изоглосс, характерных для Сурхандарьинской области, а также различия между изоглоссами, характерными для литературного языка и диалекта, и типы изоглосс. Исследование показывает, что развитие исследований по теме инновационного центра в языкознании включает анализы и рекомендации, направленные на демонстрацию того, что соотношение литературного языка и диалекта является одним из наиболее актуальных вопросов.

Ключевые слова: *лингвоареология, инновационный центр, изоглосса, изофона, изолекс, изосема, языковой союз, литературный язык, диалект, лингвистический анализ.*

Areal lingvistika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida bugungi kunda jadal rivojlanayotgan fanlar qatoriga kiradi. Sohaning tarixiga nazar tashlasak, turkiy tillar, jumladan, o‘zbek lingvo-areologiyasi bo‘yicha G.F.Blagovaning “Turkiy tillarda turlanishning areal-tarixiy tadqiqi (janubi-sharqiy mintaqada)”[1] tadqiqoti diqqatga sazovordir. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida Qosim Muhammadjonov, Yo‘ldosh Ibrohimov, Nigora Murodovalarning doktorlik dissertatsiyalarini himoya etganliklarini va monografiya, maqolalar e’lon qilganliklarini e’tiborga olish zarur.

A.B.Jo‘rayev[2] areal lingvistikaning asosiy tushunchalarini; N.Murodova, N.Raxmonovlarning “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini”[3]; I.Darveshovning “Areal tilshunoslik: janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik

1 Благова Г.Ф. К методике историко-ареальных исследований в тюркологии // Вопросы языкознания. 1972. № 5. – С. 304.

2 Джураев А.Б. 1991. Теоретические основы ареалного исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан. С. 220.

3 Муродова Н., Рахмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент: Фан, 2007.

xususiyatlari”[4] xususida ilmiy tadqiq ishlarini amalga oshirishgan.

Areal lingvistika O‘zbekiston Respublikasida lingvistik geografiya shaklida nisbatan keng tadqiq qilindi. Bu borada V.V.Reshetov[5], Sh.Shobdurahmonov[6], A.Shermatov[7], A.Aliyev[8], A.Ergashev[9], S.Atamirzayeva[10], G‘.Yunusov[11]lar faliyat ko‘rsatdilar.

Sevara Po‘latovaning “Vobkent tumani shevasining arealogik tadqiqi”[12] nomli tadqiqoti bugungi o‘zbek dialektlari areali doirasida amalga oshirilgan eng muhim tadqiqot ishlaridan biri hisoblanadi.

Lingvistik hodisalarning muayyan kenglikda tarqalishi va tillararo (dialektlararo) munosabatlarni lingvistik geografiya metodlari asosida o‘rganuvchi, asosiy tamoyillari til xususiyatlarining hududiy bo‘linishini tavsiflash va izoglossalarni talqin qilish, dialektlar, tillar va areal jamoalar (til ittifoqlari) o‘rtasida o‘zaro ta’sir maydonlarini (areallarini) aniqlash bo‘lgan areal lingvistika sohasida ham bugungi o‘zbek tilshunosligida bajariladigan vazifalar talaygina. Hududni belgilaydigan chiziq **izoglossa** deb ataladi. Bu konsepsiya ham hududiy tadqiqotlardagi asosiy tushunchalardan biridir. Bu atama nafaqat ma’lum bir lingvistik hodisaning hududiy tarqalishini ko‘rsatadigan chiziqlarga (geografik xaritada), balki shevalar va tillarning o‘ziga xos bog‘liq hodisalarga ham tegishli. Izoglossalarning fonetik, leksik, sintaktik kabi turlari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos terminlar bilan nomlanadi. Masalan, *izolekslar – leksik izoglossalar, izofonlar – fonetik izoglossalar, izosemalar – semantik izoglossalar* va boshqalar.

Surxondaryo viloyatiga mansub izoglossalarni yig‘ilib o‘rganilganda quyidagi izoglossalar guruhlari mavjudligi aniqlandi:

Izofonemalar (fonetik izoglossalar):

Fonetik izoglossalarni ikki turga bo‘lib o‘rgandik: 1) adabiy til va shevalarda mavjud bo‘lgan va bitta harf bilan farqlanuvchi, biroq ayni bir ma’no ifodalovchi izoglossalar:

Somon – sobon
Oz bola – oz muncha
Bodring – badring
Tarvuz – torbiz
Qatlama – qallama
Pamidor – pomadir
Sho‘rva – shurpa/shurva
Yupqa – jupqa
Chopon – chapon
Ovqat – avqot
Xola – xala
Kosa – kasa
Choynak – chaynak
Tovoq – tavoq
Oshkadi – ashkadi
Azon – ozan
Somsa – samsa
Arpa – orpa
Ketmon – katman
Tovuq – tavuq
Xo‘roz – xuroz

Bu turdagi izoglossalarni kuzatishdan olgan xulosalarimiz shuni ko‘rsatadiki, adabiy tildagi va shevaga xos izoglossalardagi asosiy farqlar asosan, “o” unlisining “a”lashuvi hodisasi sodir bo‘lmoqda, shuningdek, “o‘” unlisining “u”lashuv holatlariga ham duch kelishimiz mumkin.

O‘zbek tili “o”lovchi til bo‘lishiga qaramay, til sheva elementlarida haligacha singarmonizm hodisasini yaqqol ko‘rish mumkin, bu ayniqsa, fonetik jihatdan yaqqol ko‘zga tashlanadi.

b) adabiy tildan butunlay farq qiluvchi izoglossalardagi fonetik farqlar:

Shurg‘utti-shulg‘urti *– isqirt, kir, iflos ma’nosida*
Osmildiq-ospildiq *– ilgakli, shiftga osilib turadigan*
So‘lqi-sho‘lpi-sho‘lpiq *– og‘zi ochiq, bo‘shashgan odam ma’nosida*
Chuldurvaqa-churpati-churban *– kichik bolalarga nisbatan ishlatiladi*
Guppi, gupsal, guppal *– semiz*
Do‘rsa-do‘rsi *– o‘zi oriq, yuzi semiz odam*
Oyg‘iz-uyg‘uz *– kir*
Narman, normon *– nari*
Alag‘da, alahanda *– xavotir*
Kesartki, kasartki *– kaltakesak*
Bo‘dana, bo‘zana *– danak*

Bu turdagi izoglossalar bir hudud doirasida yoki turli hudud doirasida kuzatilishi mumkin.

Izoleks (leksema shaklidagi izoglossalar)ni morfologik turkumlarga ko‘ra guruhladik:

4 Дарвишов И. Ареал тилшунослик: Жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. – Наманган. 2019. 147-б.
5 Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. Б.30 –40.
6 Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Ўз ССР ФА нашриёти, 1962.
7 Шерматов А. Қарши шевасининг баъзи фонетик хусусиятлари // Ученые записки ТГПИ. Вып. XII. –Ташкент, 1959.
8 Алиев А.Ю. Наманганская группа говоров узбекского языка: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Ташкент, 1975.
9 Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореферати. – Ташкент, 2012. Б. 3.
10 Атамирзаева С. Экспрементально-фонетической исследование Наманганского говора узбекского языка.– Ташкент: Фан, 1974. Б. 15–30.
11 Юнусов Ғ.О. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқувўздавнашр. 1936.
12 Po‘latova S.M. Vobkent shevasining arealogik tadqiqi. Fil.fan.bo‘y.fals. dok.(PhD) diss.avtoref. –Buxoro. 2023. 28-b.

Ot turkumiga xos izole**kslar:** *Tushamal – zarar; tuvop – duo;* reza – chaqaloq; teva – igna; vo‘ymag – angishvona; basman – o‘sma; shiliba – shovla; dasir – ziyon; ko‘rmush – kalamu*sh; jarqanat – ko‘rshapalak; ko‘gal – ko‘kat, sabzavot; b*osolqa – oldin, keyin *tug‘ilgan bolalar; sullaqqa – kaltakesak; bo‘dana, bo‘zana – danak; chaga – qum; lukibi – tovoq (plasmassa); j*oypo‘sh – yuk ustiga yopiladigan mato.

Sifat turkumiga xos izole**kslar:** *Damin – kuchli; go‘mik – o‘smagan, mayda; irgayil – pakana; indiy – darmon; kenak – kinoya; alag‘da, alahanda – xavotir; baldaq – dasta, sop; nebir – qanday, ajoyib; sovmal – injiq; itirqin – serob; indirish – ozg‘in; manqa – puchuq; n*ajapi – nozik; *naparman – binafsha rang; g*‘o‘ndalak – semiz; gartak – ozroq; jo‘lgir – ishbilarmon; bezzang – yuzsiz; govloq – anqov; govsakat – quruq jasad, qo‘*lidan bir ish k*elmaydigan yirik jasadli odam; oyg‘oq – shatta – janjalkash; oyg‘iz-uyg‘uz — kir; o*chko‘naz – ochko‘z; abash – xunuk; bodi – olifta; dunduk – bilmasvoy; churbul*ak – uzilmasdan so‘lib qolgan; qoqurti – ozib-to‘zib ketgan; mastliq – uyqichi; a*ypat, taypish – pala-partish, tartibsiz; chuldurvaq*a-churpati-churban – kichkina; c*happa-chuppa – ag‘dar-to‘nt*ar; s*htraqoqi-shitroqi – o‘yinbuzuqi.*

Olmosh turkumiga xos izole**kslar:** *j*avliq – yoppa, hamma.

Ravish turkumiga xos izolek**slar:** *narman, normon – nari; oz bola – oz muncha; o‘lamazon – o‘lguday.*

Fe’l turkumiga xos izolek**slar:** *t*o‘balamoq – birdaniga urib ket*moq; chimata-o‘yib olmoq – chimchilamoq; charillamoq – baqirmoq; do‘qilamoq – qatiq suyultirmoq; azvayish – e’zozlamoq; ko‘klash – yirtiq joyni tikmoq; ko‘nari – sutni qatiqqa aylantirish.*

Surxondaryo areal zonasi fonetik, leksik, sintaktik izoglossalarga boy hudud hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Surxondaryoga xos izoglossalar turli tabiatli bo‘lib, ularni chuqur o‘rganish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Благова Г.Ф. К методике историко-ареальных исследований в тюркологии // Вопросы языкознания.1972. -№ 5. – С. 304.

2.Джураев А.Б. 1991. Теоретические основы ареалного исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан. – С. 220.

3.Муродова Н., Рахмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент: Фан, 2007.

4. Д**арвишов И. Ареал тилшунослик: Жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари**. – Наманган. 2019. 147 -**б.**

5.**Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.** Б.30-40.

6. **Шоабдураҳмонов Ш**. **Ўзбек тили ва ўзбек халқ шевалари.** – Тошкент: **Ўз ССР ФА нашриёти,** 1962.

7.Шерматов А. Қарши шевасининг баъзи фонетик хусусиятлари // Ученые записки ТГПИ. Вып. XII. – Ташкент, 1959.

8. Алиев А.Ю. Наманганская группа говоров узбекского языка: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Ташкент, 1975.

9. Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореферати. – Ташкент, 2012. Б. 3.

10. Атамирзаева С. Экспрементально-фонетической исследование Наманганского говора узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1974. Б. 15-30.

11. Юнусов Ғ.О. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқувўздавнашр. 1936.

12. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тилининг диалектологик атласи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1969, –№3. Б. 30-37.

13. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981.В. 12.

Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: УзФА нашриёти, 1956.

14.Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики среднеазиатский ареал. –М.: Наука, 1975. В.206.

15.Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. В.12.

Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент: Фан, 1965. В.42

16.Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики среднеазиатский ареал. –М.: Наука, 1975. В.28.

17.Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962. В.129.

18.Данияров Х., Кунгуров Р. Некоторые вопросы лингвистической географии // Вопросы диалектологии тюркских языков. – Фрунзе (Бишкек), 1968. В.39.

Dildora OXBUTAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
birinchi bosqich doktoranti

SHE’RIYATDA LIRIK “MEN” MUAMMOSI

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiy tur va janrlar, lirik tur va unda lirik “men” tushunchasining ilmiy-nazariy talqinlari haqida atroflicha fikr yuritilgan. Bundan tashqari, lirik “men” va uning ifoda shakllari, lirik “men” va muallif obrazi, subyekt-obyektning poetik munosabatiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, o‘tgan asrning 70-yillarida ijod qilgan Ikrom Otamurod she’riyatida mazkur muammoning tasvir obyektiga aylanishi, shoir she’rlaridan yangilangan uslub, shakl va mazmunning uyg‘un tasviri tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiy tur va janrlar, lirik tur va unda lirik “men” tushunchasi, lirik kechinma tabiati, obyekt subyekt munosabati, lirik qahramon va muallif obrazi.*

Annotation: this article provides a comprehensive discussion on literary types and genres, with a focus on the lyrical genre and the scientific-theoretical interpretations of the lyrical “I” concept. Special attention is given to the lyrical “I” and its forms of expression, the relationship between the lyrical “I” and the author’s image, and the poetic interplay between subject and object. Furthermore, the article analyzes how this issue became an object of depiction in the poetry of Ikrom Otamurod, who was active in the 1970s. It examines the harmonious portrayal of renewed style, form, and content in the poet’s works.

Key words: *literary types and genres, lyrical genre and the concept of the lyrical “I,” nature of lyrical experience, subject-object relationship, image of the lyrical hero and the author.*

Аннотация: в данной статье подробно рассматриваются литературные роды и жанры, лирический род и научно-теоретические интерпретации понятия лирического «я» в нем. Кроме того, особое внимание уделяется лирическому “я” и формам его выражения, лирическому “я” и образу автора, поэтическим отношениям субъекта и объекта. Также анализируется, как эта проблема становится объектом изображения в поэзии Икрома Отамурода, творившего в 70-х годах прошлого века, и рассматривается гармоничное воплощение обновленного стиля, формы и содержания в стихотворениях поэта.

Ключевые слова: *литературные роды и жанры, лирический род и понятие лирического «я» в нем, природа лирического переживания, отношения объекта и субъекта, образ лирического героя и автора.*

Adabiy tur va janrlar muayyan tarixiy davrda shakllanib muttasil o‘zgarishda o‘z shakl va mazmun mundarijasini yangilab, tadrijiy taraqqiy etib keladi. Adabiy-tarixiy jarayondagi bunday poetik yangilanishlarga doir muammo atrofida olimlar yakdil fikrga kelishmagan. Adabiy tur va janr masalasidagi turlicha fikrlarning yuzaga kelishida har bir davrdagi olimlarning o‘ziga xos talqin va tamoyillar bilan yondashishidan yuzaga kelgan deyish mumkin. Adabiy turlar aro qat’iy chegaraning yo‘qligi, o‘zaro poetik munosabatning mavjudligi, mazkur tur va janrlar aro qorishuvni yuzaga keltirgani ko‘zga tashlanadi. Masalan, she’riy shakldagi epik yoki drammatik asarlar, shuningdek, nasrdagi lirik kayfiyat kabilarni misol keltirish mumkin.

Badiiy ijod namunalarini tur va janrlarga ajratishda bir qancha mushtarak fikrlar bilan birga, ayni paytda bir-birini inkor qiluvchi qarashlar ham mavjud. Masalan, adabiyotshunos Dilmurod Quronov Gegel tasnifiga tayangan holda asar mazmunida nima tasvirlanganiga asos sifatida qarab, quyidagi fikrlarni keltiradi: “Lirik asar predmeti – kechinmalar, epik asar predmeti – voqelik(sodir bo‘lib o‘tgan voqealar), drammatik asar predmeti – harakat(sodir bo‘layotgan voqea).Mazkur tamoyilni quvvatlantirish uchun ikkinchi asos sifatida konkret asardagi asosiy obrazni olamiz: lirikada subyektning noplastik obrazi, drammada obyektning plastik obrazi, eposda obyekt va subyektning qorishiq obrazi yaratiladi”[1]. Ko‘rinadiki, olim lirik turga xos bo‘lgan asosiy xususiyat sifatida his-tuyg‘u, kechinma ekanligini ta’kidlaydi. Azal-azaldan ma’lumki, epik turda voqea, lirik turda his-tuyg‘u, dramatik turda esa harakat yetakchilik qiladi. Rus tanqidchisi V.G.Belinskiy o‘zining “Poeziyaning tur va xillarga bo‘linishi” tadqiqotida obyekt va subyekt munosabati haqida fikr bildirar ekan, eposda obyektivlik, lirikada subyektivlik, dramada esa ularning qorishiqligi kuzatilishini e’tirof etadi. Adabiyotshunos lirikani “Subyektiv poeziya” deb ataydi va “unda ijodkor shaxsiyatining birinchi planda turishi va barcha narsa

1 D.Quronov.Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 480-b.

uning shaxsiyati orqali qabul qilinishi va anglanishi”ni nazarda tutadi”[2].

Shu o‘rinda obyekt va subyekt tushunchalari, ularning o‘zaro munosabati haqida gapirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Mazkur tushunchalar atrofidagi fikr-mulohazalarimizni lirik tur doirasida amalga oshiramiz. Lirik subyekt deganda biz lirik asardagi his-tuyg‘u va kechinmalarni ifodalovchi “men” obrazini, ya’ni muallifni nazarda tutamiz. Ammo har doim ham subyekt muallif shaxsi bo‘lavermaydi. Shunga qaramay, ko‘p hollarda she’riyatda ijodkor ichki kechinmalari, botiniy olami, his-tuyg‘ulari, dard-alamlari, iztiroblari shoir subyekti o‘laroq namoyon bo‘ladi. Mumtoz adabiyotning yirik vakili Mir Alisher Navoiy hazratlarining lirik merosi va unda tasvirlangan muallif ichki “meni”da oshiq obrazi turadi. Bunda oshiq – islom ma’rifati, ilm-fani, ruhiy-ma’naviy olamining yuksakligi bilan xarakterlanadi. Shoir she’riyatida oshiq sifatida Alloh ma’rifatiga intiladi. Bu yo‘lda mazhar vositasini o‘tovchi obyekt bu ma’shuqa hisoblanadi. Lirik obyekt – bu subyektning his-tuyg‘ulari qaratilgan, yo‘naltirilgan shaxs yoki biror narsa bo‘lishi mumkin. Ya’ni she’riyatda oshiq nazari qaratilgan har qanday narsa-hodisa obyekt vazifasini bajarishi ko‘zga tashlanadi. Lirik asarlar tarkibida keluvchi subyekt va obyekt o‘zaro dinamik munosabatda namoyon bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, obyekt subyektni qabul qilishiga qarab, muallif ijodiy niyati, estetik ideali aks ettiriladi.

Adabiyotshunos D.Quronov subyekt deganda faqat muallifni nazarda tutadi. Bu haqida adabiyotshunoslik lug‘atida quyidagicha keltiriladi: “Lirikada voqelik subyekt his-tuyg‘ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq obyekti emas, subyekti birlamchidir” tarzida ta’rif berilgan”[3]. Ko‘rinadiki, lirik asarlarning asosiy xususiyati his-tuyg‘u bilan bog‘liq. Lirik asarlarning vujudga kelishi, shakllanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni katta. Lirik asarlarning markazida lirik qahramon turadi. Lirik qahramon orqali muallif estetik ideali, ijodiy niyati, ichki kechinmalari, botiniy olami va falsafiy qarashlari aks ettiriladi. Ko‘pincha, lirik qahramon deyilganda, muallif tushuniladi. Lirik asarlardagi muallifning subyektivlik darajasini uning badiiy niyati belgilab beradi. Shunga ko‘ra, lirik “men” tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. She’riyatda lirik “men” tushunchasi markaziy tayanch vosita sifatida asar strukturasi va g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab beradi. G‘arb adabiyotida lirik “men” tushunchasining vujudga kelishida romantizm oqimining o‘rni muhim hisoblanadi. Sharq she’riyatida mazkur tushuncha tasavvufiy poeziya bilan bog‘liq holda taraqqiy etgan.

Lirik “men” tushunchasi haqida o‘zining ilmiy-nazariy fikrlarini bildirgan rus olimi V.V.Vinogradov mazkur hodisaning asosida poetik nutqdagi shaxsiy ifodaga bog‘lab tushuntiradi. Lirik qahramon va muallifning badiiy matndagi nutqiy shakllari orqali kuzatiladi. Jumladan, olim muallif ovozi, lirik qahramon nutqi hamda badiiy nutq shakllarini alohida ajratib ko‘rsatadi. Bunda muallif ovozi shoirning dunyoqarashi, shaxsiy intilishlari bo‘lsa, lirik qahramon nutqi esa, muallifning o‘zini ifodalash usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy nutqning boshqa shakllari orqali shoir o‘z qarashlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki boshqa vositalar, metaforik obrazlar orqali yuzaga chiqaradi. V.V.Vinogradov fikricha, she’riyatning muhim tomonlaridan biri, unda muallif va lirik qahramon o‘rtasidagi poetik munosabat noaniq bo‘lib, ba’zan bir-biriga singib ketadi.

Rus adabiyotshunoslaridan yana biri M.M.Baxtin nutqni dialogik struktura sifatida tushuntirib, lirik qahramonning subyektiv dunyosi hamma vaqt muayyan idealogik va madaniy kontekst bilan bog‘liqligini qayd etadi[4]. Olim nuqtayi nazaricha, lirik “men” ko‘pincha muayyan ijtimoiy va falsafiy muammolar bilan hamohang bo‘ladi va shoirning shaxsiy kechinmalarini emas, umuminsoniy muammolarni ifodalaydi. M.Baxtinga ko‘ra, badiiy nutq hech qachon monologik emas, u doimo boshqa nutqlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Badiiy asar dunyosida harakatlanuvchi odam obrazi doimiy muloqot vaziyatida yashaydi. Unga oid har qanday nutq mohiyatida dialog turadi”[5]. Adabiyotshunos Y.M.Lotman lirik matnning strukturaviy xususiyatlarini o‘rganib, lirik “men” tushunchasining muallif obrazidan farqlanishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, poetik nutqda muallif har doim o‘zini to‘liq ochib bera olmaydi, balki ma’lum badiiy niqob ostida fikr bildiradi”[6].

Olimlarning fikrlariga tayanib shuni aytish mumkinki, lirik “men” ko‘p qirrali talqin qilinishi mumkin bo‘lgan hodisa. Boshqa olimlar singari Y.M.Lotman lirik “men”ni muallif obrazidan farqlaydi va ikki muhim jihatini ajratib ko‘rsatadi:

Simvolik tabiat – lirik “men” doimiy tarzda ma’lum bir obrazlar vositasida tasvirlanadi. Bunda shoir o‘z ichki kechinmalarini bevosita emas, bilvosita metafora, turli simvollar, o‘xshatishlar, ritm, qofiya kabi poetik komponentlar orqali yuzaga chiqaradi.

Ko‘p qirrali identiklik(ingl: *identity—o‘xshashlik, bir xillik*) – lirik “men” ba’zan muallif

2 БелинскийВ.Г. Полноесобраниесочинений. – М., 1954. – С. 9.
3D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. 152-b.
4 Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советский писатель, 1963. – С.234.
5 U.Jo‘raqulov. Nazariy poetika masalalari. Muallif. Janr. Xronotop. ilmiy-nazariy tadqiqotlar, adabiy-tanqidiy maqolalar” Mixail Baxtin kashfiyotlari”maqolasidan. – T., 2015. 243-b.
6 Лотман Ю. М. Анализ поэтического текста: структура стихотворения. – Ленинград: Наука, 1972. – С.123.

shaxsi bilan birlashib ketadi, ba’zan esa mustaqil lirik qahramon sifatida ko‘zga tashlanadi.

Y.M.Lotman xulosalariga ko‘ra, muallif va lirik “men”ni farqlab tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, lirik “men” tushunchasi muallif estetik ideali sifatida ko‘zga tashlanishi kuzatiladi.

O‘zbek klassik she’riyatida mazkur tushuncha tasavvufiy tafakkur tarzi bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Sharq islom muhitida shakllangan shoir A.Navoiy she’riyatida lirik “men” ilohiy ishqni ifodalaydi. Bunda oshiq obrazi o‘z nafsini jilovlash orqali ma’rifatga erishishni istagan solih inson qiyofasida gavdalanadi. Shoir she’riyatida, butun asarlari tarkibida oshiqning Allohga bo‘lgan ishqini ifodalash ko‘zga tashlanadi. Bu borada adabiyotshunos Abdug‘afur Hayitmetov quyidagicha yozadi: “Tasavvufiy she’riyatda shoir lirik qahramonini o‘zining ruhiy holatining ifodasi sifatida emas, balki komillik sari intilayotgan har bir insonning timsoli sifatida tasvirlaydi”[7].

Yana bir adabiyotshunos Suvon Meli Navoiy asarlaridagi muallif va bosh qahramon masalasida quyidagi salmoqli fikrlarni bildiradi. “Alisher Navoiy bir paytning o‘zida ham muallif, ham bosh qahramon. U muallif sifatida asarni yozadi, bosh qahramon sifatida asardagi voqealar va tafakkur jarayonini yetaklaydi. Ikki mustaqil hodisa – muallif va bosh qahramonning bir siymoda birikuvi muallif obrazi tushunchasining “Xamsa” uchun kategorial maqomini belgilaydi”[8]. Ma’lum bo‘ladiki, Navoiy asarlarida shoir shaxsiy o‘y-kechinmalar emas, balki olamshumul, murakkab falsafiy-estetik qarashlarni ifodalaydi.

Bundan tashqari, yana bir buyuk shaxsiyat, o‘zining hasbi hol tarzida yozilgan ruboiylari, g‘azallari bilan yorqin iz qoldirgan shoirlardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. Shoir she’riyati namunalarini yod olmagan kitobxon bo‘lmasa kerak. Tez va oson o‘qiladigan, o‘qilganda ham birdaniga yodda qoladigan ruboiylari kishini o‘ziga tortib oladi. Masalan, uning quyidagi misralariga diqqat qaratamiz:

“Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi”[9].

Shoir she’riyatida hasbi hol tarzining yetakchilik qilishi hammaga ma’lum. Shu ma’noda, yuqoridagi misralarga diqqat qaratadigan bo‘lsak, shoir o‘z holidan, ichki kechinmalaridan xabardor qiladi. Bunda lirik qahramon shoirning o‘zi. Lirik qahramon his-tuyg‘ulari, kechinmalarida hayot sinovlari qarshisida ruhiy-ma’naviy iztirob chekayotgan o‘zi tug‘ilib o‘sgan vataniga oshiq bo‘lgan qahramonni ko‘ramiz. Lirik qahramon turli yumushlarni qilib ko‘rgani, nimaiki qilmasin, xatoga yo‘l qo‘ygani, oxir-oqibatda Vatanidan ketishga majbur bo‘lgan, ayni sabab yuzi qaro ekanidan bahs yuritadi. Umuman olganda, Bobur she’riyatida ham shoh, ham shoir qalbining lirik “men” sifatida namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin.

O‘zbek zamonaviy she’riyatida lirik “men” tushunchasi klassik adabiyot namunalari, jadid davri, sovet davri kabi bosqichlarda turli o‘zgarishlarga uchrab kelgani, ayni davrga kelib esa, she’riyatdagi markaziy muammo doirasi kengaygani, insonning botini, kechinmalari yangi shakl va uslublarda ifodalanishi ko‘zga tashlanadi. XX asr 70-yillar adabiyotiga bir qancha shoirlar kirib keldi. Bular orasida Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Muhammad Rahmon va Ikrom Otamurod kabi ijodkorlarni sanash mumkin. Mazkur shoir- ijodkorlar orasida Ikrom Otamurod o‘z so‘ziga, o‘z yo‘nalishiga ega, shakl va mazmun jihatdan yangilangan uslub va shakl imkoniyatlarida o‘zini namoyon etgan, qalb iztiroblari, kechinmalarini tasvirlagan shoirlardan biridir. Uning she’riyatida an’anaviy tasvirlar va zamonaviylik uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Shoirning ilk to‘plami “Vaqt ranglari” nomi ostida 1982-yilda nashrdan chiqdi. Shoirning “Janub qushlari”, “To‘rg‘ayli manzillar”, “Ufq orti bepoyon”, “Sopol siniqlari”, “Ruhiyatning tarjimai holi”, “Xaritaga tushmagan joylar”, “Ruhimning qayg‘usi”, “Yarador umid otlari”, “Uzoqlashayotgan og‘riq”, “Yobondagi yolg‘iz daraxt” kabi she’riy kitoblari va dostonlari orqali shoir qalbidagi eng inja tuyg‘ularini oshkor qiladi.

Adabiyotshunos Sobir Mirvaliyev Ikrom Otamurod o‘z tengdoshlari orasida falsafiy mushohadasining kengligi, minbar shoiriligi, notiqligi bilan ajralib turadi. Uning she’r va dostonlarida ustoz Maqsud Shayxzoda nafasi ufurib turishini alohida ta’kidlab, shoir she’riyatiga yuqori baho beradi. Filologiya fanlari doktori Uzoq Jo‘raqulov Ikrom Otamurod she’riyatida bo‘rtib ko‘rinadigan jihatlardan sog‘inch tuyg‘usining turli shakllarda namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratadi. Adabiyotshunos vatan sog‘inchi, botin sog‘inchi, tabiat sog‘inchi, o‘tmish sog‘inchi shoir she’riyatining yetakchi mavzulardan biri ekanligini ta’kidlaydi.

Yana bir adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev shoirning “Ruhiyatning tarjimai holi” nomli to‘plamiga kiritilgan “Tirilgan so‘z” maqolasida shunday yozadi: “Ikrom Otamurod – nozik ruhiy holatlar, latif hissiyotlar, inja tuyg‘ularni zamzamali tasvir etishga mohir, hayot hodisalaridan ko‘ra uning inson ko‘nglidagi jilvalarini ifodalashga moyil shoir. U inson ko‘ngli mavjlarining

7 Hayitmetov, A. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Alisher Navoiyning tutgan o‘rni. – T.: Fan. 210-b.
8 Suvon Meli.So‘z-u so‘z. Xamsada muallif obrazi kategoriyasi maqolasi. – T.: Sharq nashriyoti, 2020. 220-b.
9 Bobur Z.M. (2024). Tole yo‘qki jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi. https://tafakkur.net/tole-yoqi-jonimga-balolig-boldi/zahiriddin-muhammad-bobur.uz

guldan-da nozik, shudringdan-da omonat, bulutdan-da beqarorligini biladi va har bir she'rida ruhiyatning ana shu betakror tovlanishlarini muhrlashga intiladi. Ikrom olamga jo'n nazar bilan qaramagani bois narsa-hodisalarning tashini emas, ichini, mohiyatini ko'radi va tasvirlaydi. Mohiyatni ilg'ash hamisha qiyin, uni boshqalarga bildirish undan-da mushkul"[10].

Darhaqiqat, shoir she'riyati juda murakkab. Unda ifodalangan shoir ichki "men"i, ko'ngil olamini anglash mushkul. Shoirning quyidagi misralariga e'tibor qilsak:

"Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
Istayur tashqarida mohni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
Istayur ichkarida Ollohni"[11].

Ushbu misralar orqali lirik shoir ko'ngli, botini va uning tshqi olamda aks etishining murakkab holatini chizadi. Bunda inson ko'ngli bilan tashqi muhit o'rtasidagi o'tkir dramatizm ifoda etiladi. Shoir qarshilantirish san'atidan foydalanib, insonning asl qalbi, ruhiyati va tashqi moddiy olam, ya'ni nafs bilan qarama-qarshi qo'yadi. Ikrom Otamurod she'riyatida faryod chekayotgan ko'ngil olamining, botiniy iztiroblarini, poetik ifodasini chizadi. Ayni mana shunday holatlarni quyidagi misralarda ham kuzatish mumkin:

"Kanglum,
G'amlarimning ashklari daryo,
Kanglum,
Armonlarning qayg'ulari tog'.
Kanglum,
Seni qa'riga tortar bu daryo,
Kanglum,
Meni yanchib ketadi bu tog'"[12].

Ko'rinadiki, shoir ko'ngilga murojaat qilar ekan, armon va iztirob, nafaqat insoniy, balki olamiy mazmun-mohiyat kasb etganini anglaydi va buni boshqalarga-da, anglatishni istaydi. Shoir ko'ngilning zamondoshlari qalbidagi evrilishlardan, chigalliklardan, ziddiyatlardan faryod chekadi. Shoir qalbidagi g'am-armonlar shu qadar ko'pki, ayni holat tog'ga mengzaladi. Va bu qayg'ular tog'i ko'ngil olamini o'z qa'riga tortib ketishidan bezovta bo'ladi. Lirik qahramon g'amni – daryoga, armonni – tog'ga qiyoslab, daryo qa'riga singishdan, tog'ning esa yanchib ketishidan havotirga tushadi.

Umuman olganda, Ikrom Otamurod she'rlarida mana shunday mavzular rang-barangligi, tasvirning dramatik holatlarini kuzatish mumkin. She'riyatda lirik "men" muammosi ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilib, muallif subyekti, lirik qahramon munosabati kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Sharq adabiyotida lirik kechinma, lirik "men"ga doir tasvir yetakchiligi tasavvuf adabiyoti bilan bog'lanishi ko'zga tashlanadi. Mumtoz adabiyot namunalarida lirik qahramon – muallif estetik ideali, sharq islom an'analari ta'sirida aks etgan va markaziy qahramon sifatida oshiq obrazi poetik ifoda etilgan. Bunda oshiq Olloh ma'rifatiga intilayotgan solih inson qiyofasida aks ettirilgan. Buning yorqin misolini A.Navoiy ijodida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Keyingi davr lirikasida ham mana shunday an'anaviy tasvirlar yetakchilik qiladi. Jadid, sovet davrida ijod qilgan shoirlar she'riyatida ham an'anaviy, ham sho'ro davrining ijtimoiy-siyosiy muammolarini aks ettirish yetakchi maqomni egallagan. Zamonaviy she'riyatda, xususan, Ikrom Otamurod she'rlarida lirik qahramon botini, ruhiy-ma'naviy dunyosi asosiy tasvir obyektiga aylandi.

10 Otamurod I. Ruhiyatning tarjimai holi. Maqolalar, suhbatlar, xotiralar/ Yo'ldosh Q. Tirilgan so'z. – Toshkent: Yangi kitob, 2022.165-b.
11 Otamurod I. Sukut sadosi. She'rlar, balladalar, dostonlar, tarjimalar. – Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2021.46-bet.
12 Otamurod I. Sukut sadosi. She'rlar, balladalar, dostonlar, tarjimalar. – Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2021.86-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bobur Z.M. (2024). Tole yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi. https://tafakkur.net/tole-yoqi-jonimga-balolig-boldi/zahiriddin-muhammad-bobur.uz
2.D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010.152-b.
3.D.Quronov.Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 480-b.
4.Hayitmetov, A. O'zbek adabiyoti taraqqiyotida Alisher Navoiyning tutgan o'rni. – T.: Fan. 210-b.
5.Otamurod I. Ruhiyatning tarjimai holi. Maqolalar, suhbatlar, xotiralar/ Yo'ldosh Q. Tirilgan so'z. – Toshkent: Yangi kitob, 2022. 165-b.
6.Otamurod I. Sukut sadosi. She'rlar, balladalar, dostonlar, tarjimalar. – Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2021. 46-b.
7.Suvon Meli. So'z-u so'z. Xamsada muallif obrazi kategoriyasi maqolasi. – T.: Sharq nashriyoti, 2020.220-b.
8.Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. Muallif. Janr. Xronotop. ilmiy-nazariy tadqiqotlar, adabiy-tanqidiy maqolalar" Mixail Baxtin kashfiyotlari" maqolasidan. – T., 2015. 243-b.
9.Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советский писатель, 1963. – С.234.
10.Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. – М., 1954. – С. 9.
11.Лотман Ю. М. Анализ поэтического текста: структура стихотворения. – Ленинград: Наука, 1972. – С.123.

Malika SUYUNOVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

HAMZA LIRIKASIDA XALQ BADIIY TILI XUSUSIYATLARINING SEMIOTIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada taniqli ijodkor Hamza Hakimzoda Niyoziy lirikasidan ba’zi she’riy parchalar semiotik tahlilga tortiladi. Shoir o‘zbek tili lisoniy imkoniyatlarini badiiy voqelantirishda mumtoz adabiyotimiz an’analarini munosib ravishda davom ettiradi, she’rlarida nafaqat, yor, go‘zallik, ishq, muhabbat mavzusini, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, ta’limiy masala va mavzular talqinini ham yarata olgan ijodkor sifatida belgilanadi.

Kalit so‘zlar: *xalq tili, lison, inversiya, semiotika, o‘xshatish, ibora.*

Annotation: in this article, some poetic fragments from the lyrics of the famous writer Hamza Hakimzoda Niyozi are subjected to semiotic analysis. The poet continues the traditions of our classical literature in the artistic realization of the linguistic possibilities of the Uzbek language, and is defined as a creator who was able to create in his poems not only the themes of love, beauty, love, and affection, but also the interpretation of socio-political and educational issues and topics.

Key words: *folk language, language, inversion, semiotics, simile, expression*

Аннотация: в статье семиотическому анализу подвергаются поэтические фрагменты из лирики известного поэта Хамзы Хакимзода Ниёзи. Поэт продолжает традиции нашей классической литературы в художественном воплощении языковых возможностей узбекского языка и характеризуется как творец, сумевший воплотить в своих стихах не только темы любви, красоты, нежности, но и интерпретацию общественно-политических и просветительских проблем и тем.

Ключевые слова: *народный язык, язык, инверсия, семиотика, сравнение, экспрессия.*

Har bir davrning o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy masala va muammolari o‘sha davr ilm-fani oldiga dolzarb vazifalarni qo‘yadi. XX asrning boshlarida ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarda jiddiy o‘zgarish, yangilanishlar sodir bo‘ldi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo‘lgan fan, ta’lim, adabiyot va san’at sohalarida jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bunda yangicha qarash, g‘oyalarni ilgari surgan, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fani, ta’limi, milliy til va adabiyot fidoiylari bo‘lgan jadid vakillarining xizmatlarini alohida qayd qilish lozim.

Hamzaning adabiy merosi orqali, nafaqat, davr va jamiyat masalalarining badiiy, tarixiy, ijtimoiy talqinini, balki o‘sha davr o‘zbek tilining leksik-grammatik, uslubiy xususiyatlarini, fikr ifodalashning davr tiliga xos lisoniy-nutqiy qurilmalari, ifoda va vositalari yuzasidan ham ma’lumotga ega bo‘lamiz. Jumladan:

Arzimni aytay bodi sabog‘a,
Yetkur salomim gulgun qabog‘a.
Ko‘rdim yuzini **ketdim o‘zimdin**,
Tushdim o‘shal dam domi qazog‘a…
Qilding Nihoniy ko‘p ahd-u paymon,
Har kim yomondir **soldik Xudog‘a**...

Shoir ijodiga mansub ushbu she’riy nutq parchalarida qo‘llangan eski o‘zbek adabiy tiliga xos fonetik (*qiz bolo, aro, muncha, ko‘rsotib*), morfologik (*bo‘ldum, yetkur, -din, -g‘a*), leksik (*suxanlar, domi qazo* kabilar) hodisalar o‘zining fonetik tabiati, qo‘llanish doirasi, davri, hududi, uslubi, badiiy imkoniyatlari nuqtayi nazaridan bugungi zamon o‘zbek adabiy tili va nutqiga doir me’yorlarga mos bo‘lmasa-da, o‘sha davr tili va nutqi, uslubiga xos lingvistik hodisa hamda xususiyatlar sifatida o‘zining muhim o‘rni va vazifasiga egadir. Hamza asarlarining o‘ziga xosligi va yutug‘i ularning sodda va tushunarli tarzda, o‘sha davr tili jonli xalq tili bilan uyg‘un holda yaratilganligi bilan ham belgilanadi. Baytlarda qo‘llangan iboralar buning yaqqol dalilidir: *o‘zidan ketmoq, Xudoga solmoq, o‘zini*

ko‘rsatmoq kabi iboralarining inversiya orqali badiiylik kasb etgani she’riy nutqni ifodalashda alohida ahamiyatga egadir. “Tarixiy faktlar shuni ko‘rsatadiki, bizda adabiy til uchun, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish uchun kurash boshqa ilg‘or millatlar tarixidagidek tashkiliy tush olmagan, balki tarqoq holda olib borilgan edi. Bu hodisani Borovkov quyidagicha izohlaydi: “Adabiy tilning rivojlanishi uchun hal qiluvchi iqtisodiy va siyosiy sharoitning yo‘qligi masalaning o‘rtaga qo‘yilishida, turli-tuman tendensiyalar mavjudligida, milliy adabiy til taqdiriga qarashning noaniqligida yaqqol namoyon bo‘ladi”[1].

Hamza ijodiy olamini bir butun holda tasavvur qilishda uning ilk lirikasini o‘z ichiga olgan Nihoniy taxallusi bilan yaratgan asarlaridan iborat devoni, shuningdek, boshqa lirik va nasriy asarlari, dramalari muayyan o‘ringa ega. Ularning o‘ziga xos tili xalq va adabiyot o‘rtasidagi ko‘prikni yanada mustahkamladi. Hamza jonli xalq tili asosida klassik adabiy tilimizning eng yaxshi an’analarini novatorlarcha davom ettirib, folklordan ham, rus va jahon xalqlarining zamonaviy til yaratish borasidagi tajribalaridan ham ijodiy foydalanib, milliy tilning adabiy normalarini yaratishda tashabbuskorlik ko‘rsatdi. Milliy til yaratish uchun kurashda eng oldingi safda borgan ijodkorlarimizdan biri ham Hamza Hakimzoda Niyoziy edi. “XX asr boshlarida adabiy tilimizning muhim yodgorligi hisoblangan Hamza asarlari tilining morfologik xususiyatlari adabiy tilning boshqa uslublarga xos yodgorliklar tilidagi morfologik xususiyatlarga nisbatan hozirgi adabiy tilimizga yaqinligi bilan ajralib turadi… Hamza asarlari tilida eski o‘zbek adabiy tiliga xos morfologik ko‘rsatkichlarning siyraklanishi va yangi morfologik formalar funksiyasining kengayishi xarakterli xususiyatdir”[2]. Yozuvchining lirik, nasriy va dramatik asarlari yangi o‘zbek adabiy tilining, shu jumladan, yangi badiiy tilning qizg‘in shakllanayotgan davrida yozildi. Bu asarlar tili o‘zbek matbuoti va badiiy tilining rivojida katta ijobiy rol o‘ynadi. Bu yerda hamma xalqlarning tarixida namoyon bo‘ladigan katta iste’dod egalari hisoblanmish yozuvchilarning asarlari milliy matbuot va badiiy adabiyot tili tarixida shakllantiruvchi vazifasini o‘tashi qonuni o‘z kuchini ko‘rsatdi. Bunday asarlar har bir xalq adabiy tilining shakllanish tarixini aks ettiruchi hujjat bo‘lib qoladi. Xalq tili ham yil sayin o‘zgarib, yangilanib boradi, albatta. Ammo uni mustaqil til qilib turgan mag‘zi, uning xalq hayotiga uzviy bog‘langan o‘zagi hamisha asliga sodiq bo‘ladi va mazkur xalq turguncha turadi. Hamza xalqning jonli til boyliklaridan mumkin qadar keng foydalangan, sodda, yorqin o‘ziga xos obrazlar yaratishga intilgan. O‘z davrining xassos shoirlari asarlaridagi oddiy so‘z va iboralar yoki boshqalarga o‘xshamas hayotiy o‘xshatishlar Hamza she’rlaridan, ayniqsa, uning satirik she’rlaridan keng o‘rin olgan.

Bo‘lmagan to‘yga ishonib **cholma** ko‘p **nag‘orani**,…

O‘zi o‘xshar baqaga, ko‘zi ikki shoh soqqaga…

Millionerdir ko‘chada, hovlida yo‘q **chaksa** uni…

Kibr shohi bilan moldek kishi ko‘rganda suzar,

Kirsa ham majlisa, albatta, halovatni buzar…[3]

kabi satrlarda ijodkorning shevaga xos so‘zlarni (nag‘ora, cholma), xos ohangni, o‘z davri uchun neologizm hisoblangan so‘zlarni (millioner), arxaik so‘zlarni (chaksa), ixcham xalq iboralarini she’riy asar tiliga dadil kiritish (O‘zi o‘xshar baqaga, ko‘zi ikki shoh soqqaga), maqollar (bo‘lmagan to‘yga ishonib nog‘ora chalma), jonli xalq tilidagi oddiy so‘zlarni qo‘llash o‘z davri uchun adabiy tildagi katta yangilik edi.

Millatning asosiy birlashtiruvchi xususiyati aynan tildir, chunki muloqotda ishlatiladigan og‘zaki belgilar haqida umumiy tushunchasiz hech qanday umumiy g‘oyalar, madaniy qadriyatlar va umumiy iqtisodiyot mavjud bo‘lmaydi. Til millat bilan bir vaqtda vujudga keladi, uning yaratilishi, shuningdek, millatning asl tafakkur organi hisoblanadi. Adabiyot hamma vaqt xalq tili manbaidan foydalanib rivojlanib kelgan va ayni paytda, xalq tilini ham taraqqiy ettirishga xizmat qilgan.

Biz jadidlar davrini xalq hayotiga yanada kirib borgan bir davr sifatida bilsak. Hamza asarlarida buning yaqqol namoyon bo‘lganini ko‘ramiz. Klassik davrdek inja va uzoq davrdan kirib kelayotgan adabiyot uchun xalq tili bilan

1 Ф.Абдуллаев. Ҳамза ва ўзбек адабий тилининг ривожланиши масалалари. Ҳамза ижоди ҳақида тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1981

2 Б.Турдиалиев. Ҳамза ва Ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1981.

3 Ҳамза. Мукаммал асарлар тўплами, 1-том. – Тошкент, 1979.

yaqinlashuv, albatta, biroz mushkulroq kechishi tabiiy hol. Ammo bu hodisa adabiyot va oddiy xalq orasidagi misli ko‘rilmagan yaqinlashuvga olib kelishi lozim edi. Jadid ijodkori, jumladan, Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o‘z asarlari orqali birinchi navbatda xalqqa yaqinlashishni ularning quvonchi, qayg‘usini ular kabi his qilishni va shu orqali qoloqlikning asl sabablarini ommaga ushbu shaklda yetkazishni maqsad qildilar. Ayniqsa, dramalar bu yo‘lda ayni muddao bo‘ldi. Jonli xalq tilini badiiy adabiyotda istifoda qila bila bilish o‘ziga xos yangilik edi. Jonli tilning keng maydonga ega ekanligi uni badiiy talqin etishda biroz qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin edi. So‘zlarning turli ma’no qirralari (ottenkalari), sinonimik qatori, iboralar, shevaga xos so‘zlar, xalqona uslub va ma’lum chegaralangan so‘zlar aynan ushbu maydondan o‘rin oladi. Hamza o‘z asarlari bilan xalq hayotining barcha jabhalariga kirib bora oldi. Xalq tilidagi qo‘pol so‘zlarni badiiy adabiyotda hayotiylikni ta’minlash maqsadida ba’zida hazil-mazax, ba’zida timsollar orqali badiiy ifoda etadi.

Ey gilos, lof urmagil,
Achchig‘im kelturmagil!
Tumshug‘ingga bir solay,
So‘ngra yig‘lab yurmagil.

“Olcha” she’ridagi “Tumshug‘ingga bir solay” iborasi o‘zi qo‘pol ibora bo‘lsa-da, she’riy misrada o‘ziga xos hazil ohangi bilan gavdalanadi.

Ko‘z uchi bila qilib imolar,
Yalg‘ondan etib necha vafolar,
Aldab, boshima solib jafolar,
Pichillab so‘kub, qilib qilib xafolar,
Zolimchalig‘ingga jon tasaddiq.

Adabiy tilda kam qo‘llaniluvchi dialektizmlar badiiy asarda joy koloritini berish uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida so‘zlashuvchilar tarqalgan hududlarda umummilliy xususiyatlar bilan bir qatorda o‘sha hudud kishilarigagina xos bo‘lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar va h.k.) ham mavjudki, bular birinchi galda sheva tilida o‘z aksini topadi. Shunday ekan, asarda tasvirlanayotgan hududga xos bo‘yoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personaj xarakterini to‘laqonli badiiy talqin etish uchun tabiiy ravishda dialektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.[4] Yuqoridagi she’riy parchada keltirilgan “yalg‘on” so‘zi qarluq lahjasidagi “o” tovushining “a” tovushiga, “a” tovushining “o” tovushiga moslashish hodisasi aynan Farg‘ona dialektida ko‘p uchrovchi hodisadir, buni yuqoridagi she’riy parcha ham tasdiqlab turibdi. “Zolimcha” so‘zining keltirishi esa xalqona erkalashning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Zolim salbiy ma’no ifodalovchi so‘z ekanligi ma’lumdir, unga erkalash-kichraytirish qo‘shimchasi -cha qo‘shilib o‘zgacha yoqimlilik kasb etadi. So‘zning salbiy bo‘yog‘i ham uning ta’kidini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Aynan tilda butun milliy xususiyat mujassam bo‘ladi, unda ma’lum bir xalqning muloqot vositasi sifatida individuallik yo‘qoladi va umumiylik o‘zini namoyon qiladi.

4 Quronov D. Adabiyot nazariyasi. “Innovatsiya-Ziyo”, Toshkent - 2020

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф. Ҳамза ва ўзбек адабий тилининг ривожланиши масалалари. Ҳамза ижоди ҳақида тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1981.
2. Б.Турдиалиев. Ҳамза ва Ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1981.
3. Ҳамза. Мукаммал асарлар тўплами, 1-том. – Тошкент, 1979.

Gulchiroy EGAMBERDIYEVA,
NDU tayanch doktoranti

OYDIN HOJIYEVA IJODIY DUNYOQARASHINING SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya: badiiy ijod dunyoqarash bilan bog‘liq ekan, ijodkor dunyoqarashining badiiy asar mazmuniga ta’sir etishi tabiiy. Ijodkor dunyoqarashi ham turli ijtimoiy-badiiy omillar ta’sirida shakllanadi. Maqolada Oydin Hojiyeva ijodiy dunyoqarashining shakllanish omillari hamda buning badiiy asarga ta’siri masalasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *ijodiy dunyoqarash, omil, badiiy asar, ta’sir, ijodkor, Bo‘ston, Buxoro, Zulfiya.*

Аннотация: поскольку художественное творчество связано с мировоззрением, закономерно, что мировоззрение творца влияет на содержание произведения. Творческое мировоззрение также формируется под влиянием различных социально-художественных факторов. В статье анализируются факторы формирования творческого мировоззрения Ойдин Ходжиевой и его влияние на художественное произведение.

Ключевые слова: *творческое мировоззрение, фактор, произведение искусства, влияние, творец, Бостон, Бухара, Зульфия.*

Annotation: since artistic creativity is related to worldview, it is natural that the worldview of the creator affects the content of the work of art. The creative worldview is also formed under the influence of various socio-artistic factors. The article analyzes the factors of formation of the creative worldview of Oydin Hojiyeva and its influence on the work of art.

Key words: *creative worldview, factor, work of art, influence, creator, Boston, Bukhara, Zulfiya.*

Badiiy ijod dunyoqarash bilan bog‘liq tarzda kechadi. Dunyoqarash deganda ma’lum insonning dunyo haqidagi bilimlari, tushunchalari, g‘oyalari jamini tushunamiz. Adabiyotshunos D.Quronov aytganidek: “Badiiy asarda akslangan badiiy voqelik ijodkor tomonidan ko‘rilgan, ijodiy qayta ishlangan va g‘oyaviy-hissiy baholangan voqelik ekan, demak, badiiy asar mazmuni ijodkor dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘ladi. Voqelikning qaysi jihatlarini ko‘rish, qaysilarini bo‘rttirgan holda uning mohiyati sifatida taqdim qilish ijodkor dunyoqarashi bilan bog‘liq”[1]. Bunda eng avval dunyoqarashning shakllanish omillariga e’tibor qaratish lozim. Bu omillar ijtimoy hamda badiiy omillar bo‘lishi mumkin. Oydin Hojiyevaning ham shoira sifatida shakllanishida turli ijtimoiy-badiiy omillarning ta’siri bor. Dastavval, uning shaxs sifatida shakllanishi haqida to‘xtalar ekanmiz, u tug‘ilgan qishloq, oila muhitiga diqqat qaratish kerak.

Oydin Hojiyeva 1942-yil 22-aprelda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani Bo‘ston qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. Bo‘ston aslida kattaroq, hozirgi mahallalarga teng joy nomi. Uning tarkibida ham bir necha qishloqlar bo‘lgan. Shoira Oydin Hojiyeva Bo‘ston tarkibiga kiruvchi Ro‘zibiyon qishlog‘ida tavallud topgan. She’rlarida, asosan, Bo‘ston nomi tilga olinsa-da, shoira kindik qoni to‘kilgan qishlog‘ini aslo unutmaydi:

Ona Ro‘zibiyon, tinchgina qishloq,
Guzari tolzorli, yo‘llari qumloq,
Adir-adoqlari ko‘rpaday chimloq,
Bolaligim o‘ynar hamon sopolak,
Sho‘xligim – bog‘larda alvon kapalak…[4,164-b.]

Ro‘zibiyon, Bo‘ston qishloqlari o‘zining ziyoli, serfazilat, kitobxon-u qissaxon insonlari bilan boshqa qishloqlardan ajralib turardi. Garchi shoira tug‘ilgan oila dehqonchilik orqasidan kun kechirsa-da, otasi ham, onasi ham kitoblarga, ilmga mehri baland insonlar bo‘lishgan. She’rlarining birida shoira otasining Mashrabni tinglashi haqida yozadi:

Fotihadan keyin qo‘yar patefon.
Boborahim qo‘shiq aytar oh urib.
Chinorday tebranib tinglar otajon,
Horg‘in tanasiga ko‘klam yugurib…[4,86-b.]

Demakki, shoiraning otasi qalbi-yu ruhiga oromni Mashrab baytlaridan toparkan. Onasi ham ana shunday qalbi daryo inson edi. Shoira onasini

1Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018. 61-62-betlar.

juda ko‘p o‘rinda xotirlaydi, qalamga oladi. Har gal uning ertak-u afsonaga, o‘lan-u laparlarga zakiy ayol bo‘lganligini, uzun tunlar qizlariga ertaklar aytib berishini ta’kidlaydi. Onasi, bolaligi haqida yozilgan har bir ijod namunasidan bunday ertaklarning nomi-yu qahramonlarini, xalq qo‘shiqlarining parchalarini uchratish mumkin:

“Dunyo qizil gul bargi,
Sarg‘ayar xazon kelsa.
So‘nmaydi ona qalbi
Farzandlar omon bo‘lsa!..”
Shunday qo‘shiq kuylar edi munis Toshbibi kampir,
Xosiyatli umr ko‘rdi salkam to‘liq bir asr.
Daryo kabi to‘lib oqdi, beharakat turmadi,
Umrida u salqin izlab, issiq tusab yurmadi.
Beshiklarga sochqi sochdi, kelinlarga sochdi gul,
Alla aytdi, ertak aytdi, paxta terdi mo‘l-u ko‘l.[4,46-b.]

Shoira ijodining xalqchilligi, asosan, xalqona ohanglarga yaqinligi uning yoshlikda onasidan eshitgan ko‘pdan ko‘p ertak-u qissalar, xalq qo‘shiqlarining ong-u qalbiga singganidadir. Demakki, ijodiy dunyoqarashi shakllanishida dastlabki omil, dastlabki bosqich – bu oila muhiti hisoblanadi. O‘tkir Hoshimov takidlaganidek: “Ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo‘lishi kerak!” Oydin Hojiyeva ham Buxorodan ilm nurlari taralgan, Zarafshon daryo uzra mehr shamollari esgan kengliklar qizil tepalarga tutashgan bir so‘lim Bo‘ston qishlog‘ida qalbi qaynoq insonlar oilasida badiiy ijodga mehr qo‘yib tarbiya topdi. Shuning uchun ham Ozod Sharafiddinov aytganidek: “Uning she’rlarida Buxoroday buyuk va qadimiy shaharda yashagan, uning ma’naviy va ruhiy boyliklarini emib ulg‘aygan, o‘z yurti, o‘z avlod-ajdodi, o‘z ma’naviyati va madaniyati uchun cheksiz g‘urur tuyg‘usini his qiluvchi qalbning urishlari sezilib turadi”[2].

Badiiy ijodga kirib kelishida yana bir omil bu ustozlarning unga bildirgan yuksak ishonchi edi. Shoira yoshlik yillarida Toshkentdan kelgan bir necha shoirlar bilan uchrashuvda qatnashib, ularning she’rlarini yod aytib beradi hamda ularning e’tiboriga tushadi. Naim Karimov shunday yozadi: “Hayratga tushgan shoirlardan biri Uyg‘un qarsak chalar ekan, safdoshlariga qarab: “Shu mayizdekkina qizda she’riyatning nafasini ko‘ryapman. Uni tarbiya qilsa, binoyidek shoira bo‘ladi”, – deb Toshpo‘lat Hamidga ma’noli qarab qo‘yadi. Oradan ko‘p o‘tmay, tuman gazetasida bir she’r bosiladi. She’r tagiga “3-sinf o‘quvchisi Oydin Hojiyeva” deb imzo chekilgan edi. Aslida she’rni, uni tarbiyalab binoyidek shoira qilish vazifasini o‘z bo‘yniga olgan Toshpo‘lat Hamid yozgan edi”[3]. Bu hodisa ijodkor qiz qalbida pinhon yotgan ilhom parilariga jon ato etgandek edi. Shundan so‘ng Oydin Hojiyeva ustozlarning bu umidi, ishonchini oqlash niyatida qalam tebratdi.

Shoira ijodiy dunyoqarashining shakllanishida badiiy omillarning ham ta’siri bor, albatta. U tinglagan, o‘qigan kitoblar, suhbatdosh bo‘lgan insonlar ham uning adabiyotga qiziqishi, muhabbatini ziyoda qildi. Shuningdek, uning hayotidagi eng muhim badiiy omil deb Toshkent adabiy muhitini ko‘rsatsak, to‘g‘ri bo‘ladi. Oydin Hojiyeva 1960-yil o‘rta maktabni kumush medal, 1966-yili Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. Mehnat faoliyatini 1965-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida adabiy xodimlikdan boshlagan Oydin Hojiyeva 1976-yilgacha shu jurnalda bo‘lim mudiri, 1976-1985-yillarda respublika xotin-qizlarning “Saodat” jurnalida bo‘lim boshlig‘i, 1985-1994-yillarda “Gulxan” jurnalida bosh muharrir lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1994-yilning avgustidan 2013-yilgacha “Saodat” jurnali va uning ilovasi “Gulchehralar” gazetasi bosh muharriri bo‘lib ishladi.

Maktabni tugatiboq Toshkentga kelgan shoiraning hayoti umrining so‘ngigacha shu yer bilan bog‘liq bo‘ldi. U Toshkentda o‘qidi, ishladi, ijod qildi, oila qurdi, farzandlar ko‘rib, voyaga yetkazdi, qaridi… Butun yoshligi, kuchi, shijoati, qalbi qo‘rini bergani – azim Toshkent ham unga juda ko‘p yaxshi ustozlar, do‘stlar, yaqinlar va shogirdlarni, eng muhimi, xalq mehrini, e’tiborini qozonishga yordam berdi. Chinakam Xalq shoiri bo‘lishiga zamin yaratdi.

Universitetning kirish imtihonlarida O.Sharafiddinovdan “besh” olgan shoira keyinchalik juda ko‘p ustozlarning nazariga tushib, ulardan saboq oldi. Ular orasida shoira Zulfiyaning o‘rni beqiyos. U Oydin Hojiyevaga ham ayol sifatida, ham ustoz sifatida juda ko‘p yordam hamda maslahatlar bergan. Shoira Zulfiyani katta bir shaharda o‘z o‘rnini topishida qo‘llab-quvvatlagan eng yaqin insoni sifatida xotirlaydi. 1963-yil kuzda she’riyat kechalarining birida Zulfiyaxonim shunday degan edi: “ – Men ikki Oydin o‘rtasidaman. Biri muhtaram ustozim Oydin Sobirova, biri umidli, suyukli shoiram Oydin Hojiyeva... Shunda rosa qarsak bo‘lib ketdi. Bilmadim,

2 Ҳожиева О. Назокат. – Т.: Шарқ, 2007. 153-бет.

3 Ойдин Ҳожиева. Шом шуълалари. – Т.: Шарқ, 2010. – 446 б . 6-бет.

balki ana shu ishonch, mehr-muruvvat yuragimda qat'iyat, katta maqsad, baxtga intilish tuyg'usi bo'lib, meni oydin-oydin yo'llarga olib chiqqandir"[4]. Universitetni tugatgach, "Sharq yulduzi" jurnaliga ishga kirishida ham, ijaralardan qutulib, uyli bo'lishida ham, Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lishida ham ustozi Zulfiyaning yozgan "Tavsiya"lari muhim rol o'ynaganini chuqur minnatdorlik bilan eslaydi shoira. 1973-yil birinchi oilasi buzilganda o'z hayotidan misollar bilan unga taskin bergan Zulfiyaning quyidagi gaplari shoiraning ham hayot, ham ijod yo'lida unga dastak bo'lganini ta'kidlaydi: "Oydinjon, hali yoshsiz, hayotning eng quvonchli yillari oldinda. Hadeb hijronzada she'rlar yozib, chiqaravermang. Taqdiringiz o'zgarib ketsa, turmush qursangiz, uyalib qolasiz. Mening yo'lim boshqa. Men o'z taqdirimni hech kimga ravo ko'rmayman". Ko'rinib turibdiki, Oydin Hojiyeva ijodiy dunyoqarashi shakllanishida Zulfiya, qolaversa, "Saodat", "Sharq yulduzi", "Gulxan" jurnallaridagi ijodkorlarning ta'siri katta. Yana bir narsani ta'kidlash kerakki, shoiraning tafakkuri o'sishi, o'zgarishida umr yo'ldoshi adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurovning ham o'rni beqiyos. Buni Zulfiyaning shoira ijodiga bergan bahosidan bilish mumkin: "Ibrohimjonga turmushga chiqib, fikringiz ochildi, o'sdingiz, shoira va shaxs sifatida kamolga yetdingiz"[5].

Adabiyotshunos Naim Karimov aytganidek: "Oydin Hojiyeva ustozlari boshlab bergan ana shu an'anani tengdoshlari ila shavq bilan davom ettirdi va shu jarayonda o'z mavzusini, o'z uslubini, o'z so'zini topdi". Ustozlar qanotida, adabiy davralarda, hayot yo'llarida "fikri ochilgan" Oydin Hojiyeva ilk to'plami "Shabnam"dan so'ng qator she'riy kitoblar, doston-u qasidalar, publitsistik asarlar, ocherk va hikoyalar yozdi, tarjimalar qildi. Vatanga muhabbat, ma'naviy poklik, til bilan dil birligi, hayotning abadiy orzu-armonlari, inson matonati, xalqimizning olijanob qalbini kuylash, odamlarga munis, mehribon dardkash bo'lmoq istagi shoira ijodining bosh mavzusi bo'ldi.

Shoiraning "Shom shu'lalari" kitobi haqida Abdug'afur Rasulov shunday degan edi: "Shom shu'lalari" iste'dodli shoiraning asl qo'shiqlari, tansiq o'lanlari, jo'shib aytgan alyorlari, she'rxonni o'ylantiradigan, shirin azoblar dunyosiga olib kiradigan asarlar saylanmasi. Ularni nozik did, sinchkovlik bilan o'rganish, qo'llanilgan san'atlarni baholash, yangi so'z, timsoliy iboralarni, ohorli tashbehlarning hayotiyligini, ontologik mohiyatini ruh tarozusida o'lchash joiz". O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ham 2003-yildayoq shoira ijodida Buxoro she'riy maktabiga xos teranlikni ko'rarkan, uning ijodi bo'yicha katta tadqiqotlar qilish lozimligini takidlagan edi: "Kichkina bir maqolada Oydin Hojiyeva ijodining barcha qirralarini ochib berish, u bosib o'tgan yo'llarni bosqichma-bosqich tahlil qilish qiyin, lekin albatta shunday tahlil kerak – shu ma'noda adabiyotshunos olimlarimiz, umuman o'zbek she'riyatidan qarzdor bo'lganlaridek, bevosita Oydin Hojiyevadan ham qarzdordirlar, aslida bu shoiramiz ijodiga maxsus tadqiqotlar bag'ishlansa, arzir edi"[6].

Ha, shoira Oydin Hojiyevaning ijodiy dunyoqarashi ana shu tarzda shakllandi. Bunda onasining, qishlog'ining, ustozlari, ijodkor do'stlari, umr yo'ldoshining o'ziga xos o'rni bor. Shoira hayotning katta-kichik zarbalarida toblandi, umr yo'llarida uchragan har kimdan dars oldi. Ammo o'zligi, e'tiqodi, millatiga sodiq qoldi. Ijodida ham Allohga, vataniga, mehnatga muhabbat, ayollarga dardkashlik nafasi ufurib turdi. Buni ijodkor dunyoqarashining badiiy asar mazmuniga ta'siri desak, to'g'ri bo'ladi.

4 Ҳожиева О. Тўрт таноҳо. – Т.: Ўзбекистон, 2013. 5-бет.
5 Ҳожиева О. Тўрт таноҳо. – Т.: Ўзбекистон, 2013. 12-бет.
6 Nazokat 153-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018.
2. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013.
3. Ойдин Ҳожиева. Мушфиқ онажон. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 304 б.
4. Ойдин Ҳожиева. Шом шуълалари. – Т.: Шарқ, 2010. – 446 б .
5. Ҳожиева О. Тўрт таноҳо. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 152 б.
6. Ҳожиева О. Назокат. – Т.: Шарқ, 2007. – 160 б.
7. Ҳожиева О. Тамал тоши. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. –144 б.

Sohibaxon NE'MATULLAYEVA,
Andijon davlat universiteti
O'zbek folklorshunosligi yo'nalishi
birinchi bosqich tayanch doktoranti
sohibaorinova@gmail.com



LUQMON BO'RIXONNING "IMOMI MOTRUDIY" ROMANIDA MILLIY QADRIYATLAR VA FOLKLOR UNSURLARINING UYG'UNLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada Luqmon Bo'rixonning "Imomi Motrudiy" romanida xalq og'zaki ijodi unsurlari va milliy qadriyatlarning badiiy talqini tahlil etilgan. Asarda folklor motivlari, maqollar, rivoyatlar, xalqona ifodalar orqali xalq donishmandligi, e'tiqodi va axloqiy ideallari yoritilgani ko'rsatib berilgan. Yozuvchi milliy qadriyatlarni diniy-falsafiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirib, o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasini badiiy shaklda ifodalaydi.

Kalit so'zlar: *Luqmon Bo'rixon, "Imomi Motrudiy", folklor, milliy qadriyatlar, afsona, donishmandlik, adolatparvarlik, din, e'tiqod, islom, tafakkur.*

Annotation: this article analyzes the artistic interpretation of folklore elements and national values in Luqmon Bo'rixon's novel "Imomi Motrudiy." The study reveals how proverbs, legends, and folk expressions serve as artistic means to reflect people's wisdom, beliefs, and moral ideals. The author harmonizes national and religious-philosophical values to portray the spiritual identity of the Uzbek people. Folkloristic and contextual analysis methods were applied in the research.

Key words: *Luqmon Bo'rixon, "Imomi Motrudiy", folklore, national values, legends, people's wisdom, religion,belief,islam,thought.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественная интерпретация фольклорных элементов и национальных ценностей в романе Лукмона Борихона «Имоми Мотрудий». В исследовании раскрывается, как пословицы, легенды и народные выражения служат художественными средствами для отражения народной мудрости, верований и нравственных идеалов. Автор гармонично соединяет национальные и религиозно-философские ценности, чтобы показать духовную самобытность узбекского народа. В исследовании применены фольклористический и контекстуальный методы анализа.

Ключевые слова: *Лукмон Борихон, «Имоми Мотрудий», фольклор, национальные ценности, легенды, народная мудрость, религия, вера, ислам, мышление.*

Kirish. O'zbek adabiyotida xalq og'zaki ijodi bilan yozma adabiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tarixan shakllangan va bir birining uzviy davomi hisoblanadi. Xalqning og'zaki merosi — dostonlar, afsonalar, rivoytlar, maqollar, matallar, hikmatli so'zlar, xalqona iboralar yozma adabiyotga milliy ruh, mazmun va joziba bag'ishlaydi. Shu jihatdan Luqmon Bo'rixonning ijod namunalari ham milliy adabiyotimizda folklor unsurlarini zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashtira olgan muhim asarlar sifatida baholanadi.

Adibning "Imomi Motrudiy" romani o'zbek xalqining ma'naviy ildizlari, diniy-falsafiy dunyoqarashi hamda milliy qadriyatlarini yuksak darajada badiiy shakl va mazmunda ifodalagan asardir. Unda nafaqat tarixiy shaxs - Imom Motrudiy siymosi, balki xalq ruhiyati, e'tiqodi, qadriyatlari, hikmatlari orqali xalqning ma'naviy qiyofasi, o'z davrining donishmand kishisi asli qanday bo'lgani, uni nafaqat donishman, balki oddiy shaxs sifatida naqadar buyuk sifatlarga ega bo'lganligi gavdalanadi.

Mazkur maqolada roman matnida aks etgan milliy qadriyatlar va folklor unsurlarining o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi. Bu orqali yozuvchi folklor merosini zamonaviy falsafiy-badiiy yondashuv bilan qayta talqin etilgani yuzasidan fikrlar bayon qilinadi.

Metodologiya.

Tadqiqotda kompleks adabiyotshunoslik tahlil usuli qo'llanildi. Xususan:

– folkloristik yondashuv – asardagi xalq og'zaki ijodi elementlarini aniqlash va ularning badiiy funksiyasi yuzasidan ma'lumotlar aniqlash;

– kontekstual tahlil – qadriyatlar va timsollarning asar mazmuni hamda tarixiy davrning ruhiyati bilan bog‘liqligini o‘rganish;

– komparativ metod – yozma adabiyot va xalq og‘zaki ijodidagi umumiy motivlar stilizatsiyasi yuzasidan ma’lumotlar taqqoslanadi. Shuningdek, tadqiqotda o‘zbek folklorshunoslari (H. Zarifov, M. Afzalov, O. Safarov) hamda zamonaviy adabiyotshunoslarning nazariy qarashlariga tayanildi.

Munozara.

Luqmon Bo‘rixonning “Imomi Motrudiy” romani o‘zbek milliy adabiyotida folklor va falsafaning badiiy sintezini yaratgan noyob namunalardan biridir. Adib xalqning tarixiy xotirasini, diniy qadriyatlarini va ma’naviy an’analarini zamonaviy badiiy shaklga soladi. Folklor unsurlarining asardagi mavjudligi – bu faqat bezak yoki milliy kolorit emas, balki xalqning ma’naviy genetik kodi sifatida xizmat qiluvchi ramzdir. Yozuvchi og‘zaki ijoddagi motivlarni modern badiiy kontekstga kiritar ekan, milliy qadriyatlarni global tafakkur darajasiga ko‘taradi.

Natijalar.

Roman matnida xalq og‘zaki ijodi unsurlari — maqol, hikmat, rivoyat va xalqona iboralar obrazlarning fikrlash tarzini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, Imom Motrudiy va uning shogirdlari o‘rtasidagi suhbatlarda “Ilm nuri jaholat zulmatini yoritadi” kabi hikmatli so‘zlar orqali xalq donishmandligi va ilmga hurmat qadriyati yoritiladi. Asarda keltirilgan afsonaviy lavhalar (“Nurli tush”, “unga hamisha ilhom beruvchi, u hamisha vasliga intilib yashagan farishta (hur)” motivlari) xalq og‘zaki ijodiga xos timsollarni eslatadi. Bu unsurlar romanga ma’naviy-falsafiy chuqurlik beradi. Zero, Imom Motrudiy bir umr, shu go‘zal “tushi” ta’sirida yashaydi. Orzusidagi go‘zal visoliga yetish umidi uni tark etmaydi. Yozuvchining yana bir mahorati bu asarda aynan Qur’oni karim g’oyalari ham alohida vaziyatlarga mahorat bilan mos tushirilishi yozuvchining diniy bilimlarni ham chuqur talqin qila bilishidan darak beradi.

Yozuvchi xalq tilidan, maqollar va iboralardan mahorat bilan foydalanadi: “Biron so‘zni o‘ylamay aytgan – o‘z jazosini so‘zidan topadi”, “Donolik – xalq ko‘nglida ildiz otgan daraxt”, “Ikki yarim bir butun”… Bu kabi xalqona ifodalar orqali xalq falsafasi badiiy shakl oladi. Romanda milliy qadriyatlar faqat ijtimoiy-hayotiy hodisa sifatida emas, balki diniy-falsafiy asosda talqin etiladi. Motrudiy ta’limoti insonning aql-idrok, e’tiqod, adolat va haqiqat mezonlariga asoslanadi. Shu jihatdan, yozuvchi xalq donishmandligini ilmiy tafakkur darajasiga ko‘taradi. Chin soz yo‘lida daler sifatli bu zot, hattoki hokim Xolid Xalaj uni Qal’ai qasrg‘a tanishish chorlaganda ham uning talabini rad etadi va barcha yangi hokimga yoqish va bir narsaga erishish umidida yurganda unga qarshi tarzda “Hukmdor deganlari avval raiyat ila tanishib so‘ng lavozimg‘a o‘tirmaydimu?” deya haq gapni bor bo‘yi bilan ayta olish xislatlari tilga olinadi. Bu kabi holatlar orqali qadim ajdodlarimizga xos bo‘lgan mardlik, jasorat, o‘z vataniga bo‘lgan sadoqat va o‘z e’tiqodlariga nisbatan sabotlilikni ko‘rishimiz mukin.

Xulosa. Luqmon Bo‘rixonning “Imomi Motrudiy” romanida folklor unsurlari bilan milliy qadriyatlar uyg‘unligi chuqur badiiy talqin topgan. Asarda xalq og‘zaki ijodi elementlari yozuvchining badiiy-falsafiy g‘oyalariga xizmat qilgan holda: milliylikni mustahkamlaydi, xalq donishmandligini ifodalaydi, ma’naviy qadriyatlarni e’zozlash zarurligini targ‘ib etadi.

Yozuvchi xalq ruhiyatiga singib ketgan qadriyatlarni tarixiy va falsafiy kontekstda yoritib, o‘zbek adabiyotida folklor sintezining yangi bosqichini, yangi rivojlanish davrini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo‘rixon L. Imomi Motrudiy. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2015.
2. Zarifov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asoslari. — Toshkent: Fan, 1972.
3. Afzalov M. Folklor va adabiyot aloqalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
4. Mirzayeva S. O‘zbek realistik adabiyotida folklor an’analari. Folklorshunoslikdan o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: “Istiqlol”, 2005.
5. Safarov O. Folklor poetikasi va zamonaviy adabiyot. – Toshkent: Fan, 2001.
6. Yo‘ldoshev M. Adabiyot va milliy qadriyatlar. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
7. Qurbonov N. O‘zbek adabiyotida diniy-falsafiy yo‘nalishlar. — Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2018.
8. Hojiahmedov B. Luqmon Bo‘rixon ijodida tarix va falsafa sintezi. “Adabiy meros” jurnali, 2021, №2.

Osiyo XOSHIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
@osiyohoshimova1999@gmail.com



RUSTAM MIRVOHID LIRIKASIDA PEYZAJNING RUHIYAT BILAN UYG‘UNLIGI

Annatotsya: zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyandalari mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirgan holda novatorlikka ham intilmoqdalar. Bu novatorlik har bir ijodkorning asarida uning individual yondashuvi asosida yuzaga keladi. Xususan, nazm bobida janr, obrazlar tizimi, poetika masalalari, ayniqsa, ijodkor psixologiyasi muayyan darajada evrilishga yuz tutdi. Maqolada ijodkor psixologiyasi, she’rlardagi lirik qahramonning ruhiy holati peyzaj bilan uyg‘un tarzda ifodalanishi Rustam Mirvohid ijodi misolida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *lirika, peyzaj, poetika, obraz, ifoda, ruhiyat, qahramon.*

Аннотация: современные узбекские литераторы, продолжая традиции классической литературы, стремятся к новаторству. Это новаторство проявляется в творчестве каждого художника, основанном на его индивидуальном подходе. В частности, в области поэзии вопросы жанра, образной системы, поэтики и, в особенности, психологии художника претерпели определенную эволюцию. В статье анализируются психология художника, гармоничное выражение душевного состояния лирического героя в стихотворениях с пейзажем на примере творчества Рустама Мирвохида.

Ключевые слова: *лирика, пейзаж, поэтика, образ, экспрессия, психика, герой.*

Annotation: modern Uzbek literary figures, while continuing the traditions of classical literature, strive for innovation. This innovation is manifested in the work of each artist based on his individual approach. In particular, in the field of poetry, the issues of genre, image system, poetics, and especially the psychology of the artist have undergone a certain evolution. The article analyzes the psychology of the artist, the harmonious expression of the mental state of the lyrical hero in poems with the landscape using the example of Rustam Mirvohid’s work.

Key words: *lyrics, landscape, poetics, image, expression, psyche, hero.*

Kirish. Shoirlar o‘z lirikasidagi qahramon ruhiy holatini ifodalashda peyzajdan unumli foydalanadi. Shuningdek, har bir yozilgan asar tarkibiga muallif shaxsiy fe’l-atvori va dunyoqarashi singdiriladi. Tabiat manzarasi undagi to‘rt unsur {suv, havo, tuproq, olov} va to‘rt fasl orqali inson siyratidagi ruhiy holatlar obrazli ifodalanadi. She’rlarda keltirilgan badiiy obrazlar va rang tasviri shoirning ijodiy mahoratini aks etish bilan birga ichki dunyosini ham tushunishga yordam beradi. Peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo‘llanadi. Bunda joy tasviri, undagi ranglar personaj ruhiyati bilan uyg‘unlik kasb etishi ham, unga kontrastli fon bo‘lib ham xizmat qilishi ham mumkin. Qahramon ruhiyatidan o‘tkazib berilgan peyzaj esa uning ayni damdagi holatini tasvirlash vositasi. [Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. 2013, 222]

Asosiy qism. Adabiyot maydonida o‘ziga xos yo‘nalishga ega, qalb tuyg‘ularini nozik his etib she’rlarida akslantiruvchi shoir Rustam Mirvohid lirikasida peyzaj manzarasi orqali ruhiyat tasvirlanadi. U ruhiy holatni ifodalashda peyzaj detallaridan nozik did bilan unumli foydalanadi. Shoirning har bir she’rida, ayniqsa, g‘azallarida peyzaj ma’lum vaziyatni, ruhiy holatni anglatishga xizmat qiladi.

Rustam Mirvohidning “Xazon” radifli g‘azali boshidan to oxirigacha tabiat manzarasi tasviri va ruhiy kayfiyat bilan uyg‘unlashgan: “Ol yuzing hajrida menday sarg‘arib ketdi xazon, So‘ng sabo kiftida vasling axtarib ketdi xazon”. [Mirvohid R. https://t.me/Rustam_MIRVOKHID]

Birinchi jumla – yozuvchi ruhidagi g‘alayonlarni yorib chiqqan ilk tuyg‘u. Birinchi satr – birinchi taassurot. U zinhor aldamaydi. Birinchi jumla ibtido, boshlanish, yo‘lboshi. Unda musiqa ham, ohang ham, ruh ham, surat-u siyrat ham bor. Birinchi jumla – va’da, nimalar haqida gapirilmoqchi, qanday sirni ochmoqchi, e’tiborni nimaga qaratmoqchi. Asar strukturasining jamiki ruhidan birinchi jumla jarangi eshitilib turadi. [To‘laganova U.2005, 10, 11.]

Ko‘rinib turibdiki, tasvirlanayotgan manzara kuz fasli bo‘lib, shoir ilk satrdanoq xazon tabiat detalining ranggi, holatidan kelib chiqib oshiqning ruhiyatini anglatmoqda. Xazonning sariqligi lirik qahramonning naqadar ayriliqlardan azoblanganini, charchaganini bildiradi. Xazonning qurib, shamol qistovida har tomonga uchib borayotgani mahbubining vaslini izlayotgan, ammo, hali yeta olmagan lirik qahramon kayfiyatini ifodalaydi. Shuningdek, sabo tabiat detali ham ma’lum vazifani bajarmoqda. Shoir shamol esishi oqibatida xazonlarning har tomonga to‘zg‘ib ketishi manzarasi bilan oshiqning sargardonligini assotsatsiya qilmoqda. G‘azal matniga e’tibor berilsa peyzaj detallari, xususan, xazon obraz sifatida keltirilgan. Bu esa yuqorida aytilganidek qahramon psixologiyasini ana o‘sha vositalarga ko‘chirilganligini bildiradi. Ikkinch baytdagi “Yum-yum yig‘lagancha”, “Yolborib ketdi”, oltinchi baytdagi “Titranib ketdi”, so‘nggi baytdagi “Uyg‘onib ketdi” kabi xazonga berilgan ta’riflar fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi.

Shoirning “Ayni dam” radifli g‘azalining matla’ va maqta’sida tabiatning asosiy bo‘laklaridan bo‘lmish fasllar nomidan obrazli foydalanilgan: “Keldi umring yozi, shoir, yoz g‘azallar ayni dam, kim senga ruhiy g‘izodur – soz g‘azallar ayni dam”. [Mirvohid R.2021, 79.]

Baytdan anglashiladiki, muallif yoz faslini insonning o‘rta yoshiga, ya’ni o‘ttiz, qirq yosh orasidagi vaqtga qiyoslamoqda. Shoirning bu fikrni bildirishiga sabab Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni bo‘lib, hazrat inson umrini bolalik, yoshlik, o‘rta yosh va keksalik davriga ajratib, to‘rt bosqichni tabiatdagi to‘rt faslga qiyoslaganlar. Rustam Mirvohid shundan ilhomlanib baytda o‘z-o‘ziga nasihatomuz murojaat qilmoqda. Yoz tabiatning sermahsul fasli bo‘lgani bois shoir bu davrda serg‘ayratlik va toqat bilan mehnat qilib olish kerakligini, ya’ni, ko‘proq ijod qilish zarurligini ta’kidlamoqda. Ilk misradan boshlangan murojaat oxirgi baytga borib xulosalanadi. Ya’ni, yoz va qish fasllarini kontrast qo‘yish orqali bayon qilinadi: “Yaxshi niyat – yorti mol, lek “Qish”da xo‘b “Qishlay” desang, keldi umring yozi, Rustam, yoz g‘azallar ayni dam”. Demak, qish bu keksalik davriga ishora bo‘lib, o‘sha davr kelishidan oldin uning g‘amini yeyish zarurligi ta’kidlanmoqda.

Fasllar tasviri orqali inson kechmishlarining ifodalanishi Rustam Mirvohidning “Ishq tilovati” she’rida ham ko‘zga tashlanadi: “Bahor epkinlari esib qoldimi, parvo ham qilmayin qishning dodiga. Bu holat yoshlikni esga soldimi chinorga suyangan kimsa yodiga?”. [Mirvohid R.2021, 46.]

Birinchi misrada bahor fasli yoshlik davriga, ikkinchi misrada esa qish fasli yuqoridagi she’rdagi kabi keksalikka qiyoslanmoqda. Albatta, bahor sharq adabiyotida tabiatdagi uyg‘onish, hislar, inson muhabbati bilan uyg‘un fasl sifatida talqin qilinib kelingan. Qish esa bahorga qarama-qarshi fasl bo‘lib, inson umrining so‘nggi choragi – qarilik bosqichiga o‘xshatiladi. [Erkinov A.1988, 18.]

Shuningdek, she’r tarkibida chinor, maysa, Shabnam, koinot, quyosh, yulduz kabi tabiat omillari ham keltirilgan bo‘lib, ular lirik qahramon ruhiyatida kechayotgan g‘alayonlarni to‘laqonli ochib berishga xizmat qilgan: “Maysalar belini quchganday Shabnam, ul odam ko‘zida yaltiraydi yosh”, “Ne quyosh? U zamon butun koinot, yulduzlarni sochgan ular ustiga”. She’rning e’tiborli jihati shuki, ijodkor lirik qahramonning qish – keksalik pallasida xotiralarini iztirob bilan eslash holatini bahor – yoshlik fasli, ya’ni, kontrast davrda tasvirlagan. Bevosita bu manzara she’rning ta’sirchanlik darajasini oshirish bilan birga hayotiy haqiqatni ham anglatmoqda.

Qish fasli manzarasi fonida ko‘plab masalalar ko‘tarilgan “Qor” she’ri ham qalb kechinmalaridan iborat: “Do‘st, qara, qolgan ishlar ustidan yog‘moqda qor, qolipdan ko‘chgan g‘ishtlar ustidan yog‘moqda qor, achchiq, Shirin tashvishlar ustidan yog‘moqda qor, bor qilmish, qidirmishlar

ustidan yog‘moqda qor” [Mirvohid R.https://t.me/Rustam_MIRVOKHID]

Badiiy asar xoh u lirik, xoh nasr, xoh drama bo‘lsin yozuvchining ijodi mahsuli. Farzand ota-onaga o‘xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar talqin, tahlil qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi. [Rasulov A.2006, 76.]

Band tarkibida maqol va hikmatli so‘zlar ishtirok etgan she’rdan ma’lum bo‘ladiki, shoirning kayfiyati, qayg‘u, iztiroblari badiiy ifodalanmoqda. Bu jarayonni muallif aynan boshidan kechirayotgan pallada qog‘ozga tushirgan. So‘zimizni dalillovchi faktor she’rning yozilgan sanasidir. Ushbu she’r 2024-yilning fevral oyida yozilgan bo‘lib, o‘z navbatida bunday ob-havo inson kayfiyatiga, ayniqsa, ijodkor ruhiyatiga o‘ychanlik ta’sirini o‘tkazadi. She’rda bir qancha ijtimoiy va psixologik muammolarga subyektiv munosabat bildirilgan. Masalan, birinchi bandda dangasalik, afsus kabi ruhiy muammolar, keyingi bandlarda esa ijtimoiy hayotdagi turli tashvishlarning bari o‘tkinchi bo‘lishi hamda buning dalili vaqtning to‘xtamasligi, har bir fasl o‘z vazifasini aniq-tiniq uddalashi yoritilgan. Shuningdek, she’rda shoir kontrast vaziyatlarning tasviri orqali kundalik turmushdagi katta-yu kichik muammolarni qalamga olgan. Bu esa bevosita qor yog‘ish jarayoni va ranggi bilan bog‘liq ravishda amalga oshirilgan. She’rning o‘zida rangni ifodalamoq uchun shoir she’rdagi lirik kechinmaga ayni o‘sha rangni qamab qo‘ymog‘I zarur. Shundagina bu kechinma va uning ichiga qamalgan rangni o‘quvchi ham ko‘rib, ilg‘ay oladi. [Xudoyorova G.2022. 13]

Yer yuzidagi yaxshilik va yomonliklarga qaramay Alloh taolo oppoq, sof qor ne’matini yog‘diradi. Shoirning qorga xos xususiyatlarni keltirishdan maqsadi ham ana shu fikrni hayotga turli rakursdan qarab, subyektiv kechinmalari bilan qorishiq holda o‘quvchiga yetkazishdir: “Inson gardiga qarshi Tangrining pok lashkari, samo ne’matlarining suvu nurday gavhari, bo‘lsa-da oq cho‘qqilar tojisarin Zargari – yerda ko‘k urgan nishlar ustidan yog‘moqda qor”.

Xulosa. Inson tabiatning ajralmas bo‘lagi. Amalga oshiradigan har bir ishi, tirikchiligi, yurish-turishi – bularning hammasi tabiat bilan hisoblashilgan holda yuzaga keladi. Ayniqsa, ijodkor qalbida boshqalarga nisbatan tabiatga nekbin nigoh bilan boqish kuchliroq. Rassom o‘z suratlarida shak-shubhasiz tabiatni aks ettiradi. Shu jumladan boshqa san’atkorlar ham. Shoir, yozuvchilar asarlarida peyzaj tasviri orqali his-tuyg‘ularini, ruhiy kechinmalarini namoyish etadilar. Oddiy bir o‘xshatish qilib aytganda quyosh nuri yomg‘ir suvidan o‘tib kamalakka aylanganidek, badiiy asar ijodkor shaxsiy hayoti prizmasidan o‘tkaziladi va natijada ijodning kamalak ranglari kashf etiladi. [Karimov B.2016, 31.]

Rustam Mirvohid lirikasida ham ushbu fikrning ro‘yobini kuzatishimiz mumkin. Shoirning peyzaj lirikasi lirik qahramon tuyg‘ulari, iztiroblari ifodasini yanada obrazli yoritishning yorqin misolidir. Uning lirikasidagi yulduz, quyosh, oy, daraxt, tog‘, buloq kabi obrazlarning har biri o‘ziga xos poetik funksiya bajarib, inson kechinmalari va qalb tovlanishlarining badiiy in’ikosi sifatida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkinov A. 1988. Navoiy ijodida peyzaj. – T.
2. Karimov B.2016. Zamonaviy adabiyotshunoslikning nazariy metodologik asoslari. – T.
3. Mirvohid R. [https://t.me/Rustam_MIRVOKHID]
4. Mirvohid R. 2021. Seningdirman. – T.: Adabiyot.
5. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. 2013.Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akadem-nashr.
6. Rasulov A. 2006. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan.
7. To‘laganova U. 2005.Tog‘ay Murod nasrida ritm. – T.
8. Xudoyorova G. 2022. Abdulla Oripov ijodida lirik kechinma va poetik tasvir uyg‘unligi. – T.

O‘g‘iloy AHMADOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

TOHIR MALIKNING “ALVIDO BOLALIK” ASARIDA BOLALIK OLAMI VA IJTIMOIY-MA’NAVIY KONSEPSIYALAR

Annotatsiya:ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Tohir Malikning “Alvido bolalik” asari chuqur adabiy tahlil qilinadi. Asarning badiiy strukturasidagi bolalik olami, psixologik tasvirlar, ijtimoiy-ma’naviy qatlamlar hamda muallifning falsafiy-estetik qarashlari ilmiy nuqtayi nazardan ochib beriladi. Tahlilda kompozitsiya, obrazlar tizimi, til va uslub, muallifning individual ijodiy yondashuvi kabi jihatlar alohida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Tohir Malik, Alvido bolalik, bolalik obrazi, psixologik proza, o‘zbek adabiyoti, kompozitsiya, obraz tahlili, ijtimoiy muhit, badiiy ifoda.*

Аннотация:в данной статье проводится глубокий литературный анализ произведения одного из крупнейших представителей узбекской литературы Тохира Малика — «Прощай, детство». С научной точки зрения раскрываются такие аспекты художественной структуры произведения, как мир детства, психологические изображения, социально-нравственные пласты, а также философско-эстетические взгляды автора. В анализе особое внимание уделяется композиции, системе образов, языку и стилю, индивидуальному творческому подходу писателя.

Ключевые слова: *Тохир Малик, «Прощай, детство», образ детства, психологическая проза, узбекская литература, композиция, анализ образов, социальная среда, художественное выражение.*

Annotation:this article presents a deep literary analysis of Farewell, Childhood, one of the prominent works by the major representative of Uzbek literature, Tohir Malik. From a scholarly perspective, the study reveals various aspects of the artistic structure of the work, including the world of childhood, psychological depictions, socio-moral layers, as well as the author’s philosophical and aesthetic views. The analysis pays special attention to composition, the system of images, language and style, and the writer’s individual creative approach.

Key words: *Tohir Malik, Farewell, Childhood, childhood image, psychological prose, Uzbek literature, composition, image analysis, social environment, artistic expression.*

Tohir Malik o‘zbek zamonaviy prozasining yetuk namoyandasi sifatida o‘quvchi qalbiga yaqin va hayotiy obrazlarni yaratishi bilan tanilgan. Tohir Malikning “Alvido bolalik” asari zamonaviy mavzuda yozilgan bo‘lib, unda ko‘tarilgan muammo o‘zining dolzarbligi bilan kitobxon e’tiborini tortadi. Asar qahramonlari – Asror, Qamariddin, Salim, Dilfuza, Sanjar kabi yoshlar. Ularning hayot yo‘li, o‘tmishi, voyaga yetgan muhiti, yashash tarzi, qiziqishlari, orzu-umidlari, dard-u armonlari turlicha. Biroq ularni birlashtirib turgan yagona narsa bor – bu ham bo‘lsa, hayotda kimdandir yoki nimadandir alamzadalik. Ana shu alamzadalik bu yoshlarning hayotini zaxarlashga, noto‘g‘ri qadam bosishlariga sabab bo‘lgan birinchi omildir.To‘g‘ri, bu yoshlarning jinoyat yo‘liga kirib qolishlariga sabab bo‘lgan omillar juda ko‘p. Ulardan yana biri loqaydlik, ha, aynan bola tarbiyasiga nisbatan oila, maktab, mahalla, umuman atrof-muhitning loqaydligidir.Muallif asar orqali hayotda tez-tez uchrab turadigan bu qaltis illatni nafaqat ko‘rsatib beradi, balki bu illat yoshlar, qolaversa, millat kelajagi uchun xatarli ekanligi haqida eslatib o‘tadi.Asror – maktabda bitiruvchi sinfda o‘qiydi. Iqtidorli yigit, ammo otasining qistovlari oqibatida matematika-fizika gimnaziyasidan maktabga o‘tadi. Otasining otarchi ekanligi, o‘zining yoniga o‘g‘lini ham majburan tortishi va achinarlisi bu ishini farzandlari kelajagi uchun qilayotganligini pesh qilaverishi Asrorni ruhan qiynaydi. Maktabdagi shart-sharoit, oiladagi muhit uni Qamariddin shaxsiga yaqinlashtiradi. Ushbu hol esa Asror uchun jinoyat olamining darvozalari ochilishiga olib keladi. Dilfuzaga munosabatida esa uning qalbida ezgulik, mehr, adolatga tashnalik kabi tuyg‘ular borligini ko‘rish mumkin.Qamariddin – qalbi ushalmagan orzu-armonlarga to‘la, biroq bu orzularning ro‘yobga chiqishida atrof-muhitning keskin qarshiligiga uchragan, adolatsiz jamiyatning ozorlaridan qalbi zada bo‘lgan yigit. Hayot unga nisbatan tug‘ilgandayoq adolatsizlik qilgandek, go‘yo. Negaki, otasining kimligi ham noaniq, ona esa farzand ne’matini hayotning aysh-ishratlariga, lazzatlariga almashtirgan. Adolatsiz hayot unga har kuni “sen tashlandiq buyumsan” deyayotgandek, odamlar esa u bilan jirkanch bir munosabatda bo‘ladi. Salim – ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan, ko‘p bolali oilada dunyoga kelgani yetmagandek, “piyonista” bir odamning bolasi. Onasi turmush tashvishlari ostida ezilganligidan farzandlar tarbiyasi, yurish-turishi bilan ishi, yoinki, vaqti yo‘q. Shunday bo‘lsa-da, Salim sport bilan shug‘ullanib, bir qator yutuqlarga erishgan, biroq nazoratsizlik va muhtojlik uni jinoyat olamiga kirib qolishiga sabab bo‘ladi.

Adib asarda har doim muhim hisoblangan “tarbiya” masalasiga kuchli e’tibor qaratadi.Asar qahramonlari

ayni psixologik o‘tish davrida bo‘lgan o‘smirlardir. Mana shu muhim paytda tarbiyasiga e’tibor qaratilmagan yoshlar jinoyatning qaytib bo‘lmas olamiga kirib qoladilar.Tohir Malik shunday yozadi: “Men o‘smirlar va yoshlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganlariga befarq qarab turolmayman.Bolalar axloq tuzatish koloniyalariga har borganimda yuragim eziladi.Ozod, erkin yashab, hunar o‘rganadigan bolalar bu yerga qanday tushib qoldilar?! Nahot jinoyat olami ularga jozibali ko‘rinsa?! Men jinoyat olamini ,,Shaytanat”, ya’ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar mamlakati deb atab, “ehtiyot bo‘ling, jigarlarim, bu ko‘chaga yaqin yo‘lamang. Boshi berk bu ko‘chaning adog‘ida faqatgina azob topasiz”, demoq niyatida yozdim”.[1] “Alvido bolalik” asari ham mana shu niyatning davomi sifatida yozilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Asarni o‘qigan kitobxon o‘yga toladi. O‘zini taftish qilishga tushadi, ota-onalarning xatolarini tushunishlariga yordam beradi. Asarda jinoyatchi bo‘lib qolganlarning asil hayotlari, kechmishlari, hissiyotlari ko‘rsatilib beriladi. Jinoyatchilarni bilmagan holda jamiyatning o‘zi, ota-onalar yetishtirishlarini isbotlab beradi. Katta insonlar yiqilayotgan bu hayot sinovlaridan hayotning o‘smir bir g‘o‘r bolasi qanday ham o‘tsin?! Agar unga o‘rgatuvchi, uning hol-ahvolini so‘rguvchi yo‘q bo‘lsa, yelkadosh bo‘lish o‘rniga o‘z yukini ham bolaning gardaniga osadigan loqayd va beaql ota-onalar, ustozlar, jamiyat bor bo‘lsa. “Alvido bolalik” asaridagi bolalarning hech biriga yaxshi o‘rnak uchramadi, ular oqlab bo‘lmas jinoyat yo‘llariga kirishdi. Asar fojiali tarzda yakun topdi.[2]

“Alvido bolalik” asari yozuvchining bolalik xotiralari va ularni ijtimoiy hayot bilan uyg‘unlashtirgan psixologik prozasining yorqin namunasi hisoblanadi. Bu asar nafaqat shaxsiy kechinmalarni, balki bir davrning madaniy, ma’naviy va axloqiy manzarasini ham ifodalaydi.Asarning mazmuniy xususiyatlari ham muallif ijodining o‘ziga xosligini ifodalaydi. “Alvido bolalik” syujetida bir qator avtobiografik unsurlar mavjud bo‘lib, u bola ongining o‘sish jarayonini, kattalar olamiga kirib borishdagi ruhiy kechinmalarni markazga qo‘yadi. Asarda bolalik — beg‘uborlik, samimiyat va orzular davri sifatida tasvirlanadi, biroq voqealar rivojida bu davrga xayrlashuv — ya’ni real hayotning qattiq qonunlari bilan to‘qnash kelish holati yuzaga keladi.Asarda badiiy obrazlar tizimi qahramonning ichki dunyosini ochish va muallifning ijtimoiy hamda ma’naviy g‘oyalarini aks ettirishga xizmat qiladi. Asardagi markaziy obraz — qahramon-bola obrazidir. U hayotiy kuzatuvchanligi, sodda, ammo teran tafakkuri bilan ajralib turadi. Qahramon orqali yozuvchi bolalik va balog‘at o‘rtasidagi murakkab ruhiy jarayonni ochib beradi.Qahramon atrofidagi kattalar obrazlari — ota-ona, qarindoshlar, qo‘shnilar — muayyan ijtimoiy tiplarni ifodalaydi. Yozuvchi ularni biryoqlama emas, balki murakkab ichki dunyoga ega shaxslar sifatida ochadi. Muallif bola nigohi orqali hayot manzaralarini berishda ichki monolog va ichki kechinmalar tasviriga keng o‘rin ajratadi.Bu usul orqali bola ongining o‘zgarishi, bir voqeadan ikkinchisiga bo‘lgan munosabatlaridagi dinamik o‘zgarishlar ta’sirchan ifodalanadi.

Asarning til va uslub xususiyati haqida so‘z borganda aytish mumkinki, qissa tili sodda, ammo mazmunan teran. Yozuvchi bolalikning sofligini ifodalashda xalqona iboralar, o‘zbekona obrazli tasvir vositalaridan unumli foydalanadi. Dialoglar hayotiy va tabiiy bo‘lib, personajlarning xarakteriga mos ohangda qurilgan.“Alvido bolalik”da bolalik davrining qadri, inson kamolotidagi o‘rni, orzular va hayot haqiqatining to‘qnashuvi falsafiy-estetik asosda talqin qilinadi. Asar o‘quvchini o‘z bolaligi haqida o‘ylashga, hayotning o‘tkinchiligi va qadriyatlarning barqarorligi haqida mushohada yuritishga undaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Tohir Malikning “Alvido bolalik” asari o‘zbek adabiyotida bolalikni badiiy va falsafiy talqin qilishning yetuk namunasi bo‘lib, u avtobiografik elementlar, psixologik tasvir, ijtimoiy tahlil va estetik yondashuv uyg‘unligida yaratilgan. Asar o‘zining soddaligi va samimiyligi bilan har bir o‘quvchiga yaqin bo‘lib, badiiy adabiyotning tarbiyaviy va estetik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Mazkur maqola Tohir Malikning “Alvido bolalik” asarini badiiy-nazariy jihatdan qisman tahlil qildi.Unda asarning syujeti, kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi, voqealar dinamikasi va psixologik tasvir vositalari o‘rganiladi. Shuningdek, yozuvchining bolalik va ulg‘ayish konsepsiyasi, inson ruhiyati hamda ijtimoiy-madaniy muhitning badiiy aks ettirilishi ilmiy asosda yoritildi. Maqolada adabiyotshunoslikka oid nazariy qarashlar bilan birga, zamonaviy o‘zbek nasrida psixologik proza rivojiga qo‘shilgan hissa ham baholandi.

1 “Alvido... bolalik” Tohir Malik Toshkent “Adabiyot uchqunlari” 2018.

2 “Tohir Malik nasrida diniy-ma’rifiy mavzu talqini”. Ahmadova O‘g‘iloy, 2024.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Alvido... bolalik” Tohir Malik. Toshkent “Adabiyot uchqunlari” 2018.
2. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. I жилд (Адабий асар). – Т.: Фан, 1978.
3. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. II жилд (Адабий-тарихий жараён). – Т.: Фан, 1979.448-б.
4. Адабиёт ва замон. Мақолалар, адабий ўйлар, суҳбатлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.400-б.
5. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. 352-б.
6.Бадиий ижод ҳақида. Нутқ ва мақолалар тўплами. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960.15-б.

Sadoqatxon KAMOLOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
Sadoqat180894@gmail.com

ABDULLA QAHHORNING “SAROB” ROMANIDA GALLYUTSINATSIYA HODISASI MOHIYATI

Annotatsiya: bu maqolada Abdulla Qahhorning “Sarob” romanidagi bosh qahramon Saidiyning ruhiy holati, ijtimoiy tuzumning inson ongiga ta’siri va buning natijasida insonning tanazzulga uchrashi, qahramonning gallyutsinatsiya holati tahlil qilinadi. Saidiy xarakterida kuzatilgan gallyutsinatsiya holatlari nafaqat ruhiy kasallik natijasi, balki ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy muhit natijasi sifatida tasvirlanib, badiiy-ijtimoiy qatlamlarda tahlil qilinadi. Shuningdek, jinnilik tushunchasi, normallik va g‘ayrioddiylik o‘rtasidagi tafovut, masofa haqidagi fikrlar va xulosalar haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: *jinnilik tushunchasi, normallik va g‘ayrioddiylik o‘rtasidagi farq, masofa, gallyutsinatsiya fenomeni, ijtimoiy tuzilish, yolg‘izlik, umidsizlik.*

Аннотация: в данной статье анализируется психическое состояние Саиди, главного героя романа Абдуллы Каххора “Сараб”, влияние социальной системы на человеческий разум и, как следствие, деградация человека, а также галлюцинаторное состояние героя. Галлюцинаторные состояния, наблюдаемые у Саиди, являются не только результатом психического заболевания, но и описываются как результат социально-экономической и духовной среды, которая анализируется в художественном и социальном планах. Также рассматривается понятие безумия, разрыв между нормой и экстраординарным, размышления и выводы о дистанции.

Ключевые слова: *концепция безумия, разрыв между нормой и экстраординарностью, дистанция, феномен галлюцинации, социальная структура, одиночество, отчаяние.*

Annotation: this article analyzes the mental state of Saidi, the main character in Abdullah Qahhor’s novel “Sarab”, the impact of the social system on the human mind and the resulting degradation of man, and the hallucinatory state of the hero. The hallucinatory states observed in Saidi’s character are not only the result of mental illness, but are also described as a result of the socio-economic and spiritual environment, which is analyzed in artistic and social layers. Also written about the concept of madness, the gap between normality and extraordinary, thoughts and conclusions about distance.

Key words: *concept of madness, gap between normality and extraordinary, distance, hallucination phenomenon, social structure, loneliness, despair.*

Kirish. Oddiylik va g‘ayrioddiylikning farqi nima? Ushbu ikki tushunchaning orasidagi bo‘shliq nimada? Masofachi? Ikki so‘zning semasiga nazar soladigan bo‘lsak, balki tushunish yanada qulaylashar. Ammo bu narsa aql va ong haqiqatini tushunishda yetarli bo‘lmaydi, nazarimda.

Telbalik tushunchasi hammamizga ma’lum bo‘lgan aqlsizlik hodisasidir. Ammo jinnilik haqidagi maqola va iboralarni, idiomalarni bir tahlilga olsak, farqli tasavvurlarga duch kelaboshlaymiz. To‘g‘ri asl ma’nosida “jinnilik” ifodalanadi, lekin tahlil jarayoni bu hodisa shunchaki vaziyatning sifatini emas: balki aqlsizlik, jasorat, g‘ayrat, baxtsizlik, maqsadsizlik, fidoyilik va kuchli ziddiyatni o‘zida namoyon qiladigan mikrokosmos (adabiyotda mikrokosmos kattaroq ijtimoiy muammolar yoki mavzularni aks ettiruvchi muayyan muhit yoki belgilar guruhi orqali taqdim etilishi mumkin) insonga aylanganini ko‘ramiz. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, telba obrazi badiiy jihatdan ham ijtimoiy jihatdan ham kuchli dinamik obraz sifatida ham subyekt ham obyekt vazifasini bajaradi. Ijtimoiy hukmni ifodalashi uning subyektiv holati bo‘lsa, ma’no va mazmun jihatdan obyektni ifodalashining guvohi bo‘lamiz. Chunki qiziqlik holati bilan namoyon bo‘luvchi “jinnilik” doimo yaxshilik va yomonlik, aql va aqlsizlik, oddiylik va g‘ayrioddiylik o‘rtasidagi masofani, bo‘shliqni belgilovchi, namoyon qiluvchi asosiy omil sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tadqiqotda adabiy tahlil, psixologik tahlil metodlaridan foydalanildi. “Sarob” romani matni asosida Saidiy obrazining xatti-harakatlari va gallyutsinator ko‘rinishlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, zamonaviy psixologiya nazariyalaridan va adabiy tanqidiy manbalardan foydalanildi.

Natijalar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, telba obrazi bilan birgalikda ayyor, masxara obrazlari ham inson psixologiyasiga kuchli ta’sir etishi, yechilmayotgan muammolarni yechishi, shuningdek, gallyutsinativ holati bilan kishini chuqur mushohadaga chorlashi, yo‘lini yo‘qotgan, hayotni xayollari kabi deb o‘ylab qo‘lidagi boriniyam sarobga aylantirgan, qiyin bo‘lsada, ko‘nglini o‘zini aldash uchun ishontirib yashagan va oxir-oqibat qor uchqunlari kabi bir uchqunlab yo‘qlikka aylangan Abdulla Qahhorning “Sarob” romanidagi Saidiy, kuni pashsha quvish bilan o‘tadigan, xunuk qiliqlari bilan kitobxonning

ham g‘ashini keltiruvchi Soraxon obrazlari shular jumlasidandir. Jamiyatda shunday tarmoq tartibi borki, bu tartib siyosiy va iqtisodiy omil sabab shaxsiyatning buzilishiga, sinishiga olib keladi. Mavjud tuzum bergan buyruq inson ruhiyatidagi bosim, shuningdek majburiy omillar sabab buziladi. Bu buzilishlar ayblovlarga sabab bo‘ladi va oxir-oqibat inson tanazzulga uchraydi.

Muhokama.

Gallyutsinatsiya bu xom-xayol demakdir. Yo‘q narsa va hodisalarni bordek idrok etish. Idrok etilgan yo‘q obrazlar tashqi tasvirga ega bo‘lib, ular borliqda real narsalar kabi o‘rin oladi va shu tufayli bemor bularning rostligiga ishonadi, aslida yo‘q narsalarni ko‘rayotgan, eshitayotgandek bo‘ladi. “Sarob” romanida Saidiy obrazi orqali jinnilikning gallyutsinatsiya holati va aldanish tasvirlari yozuvchi mahorati tufayli juda chiroyli bayon qilinadi. Qahramonning xatti-harakatlari, o‘y-fikrlari mualliflik tashvishlari bilan birgalikda yetarli darajada ochib berilgan.

Saidiyning vujudini titroq bosdi, bu titroq qo‘rquvdanmi, kutilmagan sevinchdanmi ekanini o‘zi ham bilmas edi. U xatni ikki-uch qayta o‘qigandan so‘ng, o‘zini andak bosib olib, atrofiga qaradi, nazarida, butun ashyolar tusi o‘zgargan, kulib turganday ko‘rinar edi. Saidiy xatarli dovonga oshib oxiri eson-omon uning ustiga chiqqanday uf tortdi-da: “Olam yaxshi. Hayot go‘zal. Natijasiz mehnat bo‘lmaydi”, – dedi.

Aql o‘zini ifoda etar ekan, aqldan ozish mumkin emas. Biroq, unutmasligimiz kerakki, aqlning o‘zini namoyon qilishi, ifodalash usullari boshqacha ekanligi ayni haqiqat. Saidiy mana shu jarayonda na o‘zini, na hislarini, na fikrlarini boshqara oldi. Undagi ushbu holat juda nozik va ta’sirchan tarzda ichki iztiroblari bilan qorishiq holda asarga beriladi.

Gallyutsinativ holatda ong va voqealik o‘rtasidagi chegara yo‘qoladi. Bu esa uning real hayotdagi voqealarni xayolidagi tasavvurlarga aralashtirib yuboradi. Shuningdek, bu holatda Saidiy har bir iztiroblarini bu bir tush, vahimali xayol xolos deya tushunadi va natijada atrofida nimalar sodir bo‘layotganini anglolmaydigan darajaga yetadi.

Saidiy sochini changallab yulib olgunday bo‘ldi: nahot, men pulim yo‘qligini aytgan bo‘lsam! Obbo... nimalar qildim ekan? Ilhom keldi, ketdi. Men yig‘ladimmi? Nega? Munisxonning qo‘lini o‘pdim... Yig‘ladim. Munisxon kular edi. Bu vaqtda Salimxon qayerda edi?.. Bularning hammasi tushday edi. U hatto ortiq o‘ylay olmas edi. Ishqilib, Salimxon qoldirgan xat unga tasalli bermadi. Nima ishlar bo‘lganini ertaga Munisxon kula-kula yoki o‘pkalab so‘zlab berishi kerak edi.

Saidiydagi ruhiy ezilish: yo‘qchilik, yolg‘izlik, har qanday qilayotgan ishiga nisbatan umidsizlik – ongida ruhiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Adib ushbu tasvirlarni chizishda ichki monolog orqali emas, gallyutsion tasvirlar bilan berishga urinadi:

Saidiy studentlik vaqtida o‘z turmushidan norozi edi: fakultet va komsomol yacheykasi uni o‘z holiga qo‘ymas, hozirgiga nisbatan qashshoqlik bilan kun ko‘rar, hech kim tanimas va obro‘si yo‘q edi. Ammo hozirgi hasti bilan u vaqtdagi hayotini chog‘ishtirib qaraganida, ikki orada qarilik bilan yigitlikday farq ko‘rinardi. Ilgari u yigit edi, endi chol; ilgari hayotga endi qadam qo‘yib kelayotgan edi, endi hayotdan ketayotir. Shuning uchun keksalikdagi huzur-halovatdan ko‘ra yoshlikda tortilgan “oh” afzalroq ekanini sezar edi.

Asarning nomlanishi ham aynan mana shu hodisa mohiyatini ifodalaydi, ya’ni “Sarob” bu mavjud bo‘lmagan, ammo ko‘zga ko‘ringandek bo‘ladigan holatdir. Saidiy mavjud bo‘lmagan narsalarni ongida sodir bo‘lgandek tasavvur qiladi, his qiladi va bunga ishonadi. Birgina Soraxonga uylanish voqeasini eslaylik:

Soraxon juvon bo‘lganda qanday xotin bo‘lishini ko‘z oldiga keltirib ko‘rdi: juvon bo‘lganida to‘lishar, to‘lishganda yomon bo‘lmas...

Abdulla Qahhorning ushbu obrazi haqida turli qarashlar mavjud, ammo Saidiy obrazi orqali ijodkor aqldan ozgan odamlar o‘tkir va hayratlanarli tarzda tan olishdan qo‘rqadigan haqiqatni ochib berish maqsad qilgani va buni mahorat bilan yoritganini tan olmay ilojimiz yo‘q. Qahhor bu obraz orqali inson ruhiyati qanday darajada izdan chiqishi mumkinligini chuqur falsafiy va badiiy yo‘sinda ko‘rsatgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Saidiy obrazida gallyutsinator holat ruhiy kasallik sifatidagina emas, balki mavjud jamiyatdagi befarqlik, yolg‘izlik, insoniy qadriyatlarning yo‘qolishi kabi omillarning yig‘indisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. АБДУЛЛА ҚАХХОР. САРОБ. «ШАРҚ» НАШРИЁТ-МАТБАА КОНЦЕРНИНИНГ БОШ ТАҲРИРИЯТИ. – ТОШКЕНТ, 1995.
2. Sanjar Sodiq. Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid. – T.: Sharq, 2005.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004.
4. Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. – T.: Yosh gvardiya, 1987.
5. Qahhorova K. Chorak asr hamnafas. – T.: Yosh gvardiya, 1987.
6. Qo‘shjanov M. Abdulla Qahhor mahorati. – T.: Fan, 1987.
7. https://uz.m.wikipedia
8. https://n.ziyouz.com
9. https://ilmsarchashmalari.uz
10. https://kh-davron.uz

Farizaxon TOHIROVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
farizatohirova@gmail.com

“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONINING XAMSANAVISLIKDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub “Yusuf va Zulayho” dostonining xamsanavislik yo‘lidagi o‘rni tadqiq etiladi. Ushbu doston Jomiyga qadar shakllangan xamsachilik an’anasidan farq qiladi. Ijodkorning mavjud an’anaviy sujet o‘rniga yangi qissa va o‘zgacha mazmun olib kirganligi hamda unda tasavvufiy g‘oyalarni Yusuf payg‘ambar va Zulayho obrazi atrofida birlashtirganligi tadqiq jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *Xamsanavislik an’anasi, Abdurahmon Jomiy, “Yusuf va Zulayho”.*

Аннотация: в данной статье исследуется место поэмы Абдурахмана Джами «Юсуф и Зулайха» в традиции написания хамсы. Эта поэма отличается от хамсанавистской традиции, сложившейся до Джами. В процессе исследования особое значение приобретает то, что автор ввёл новый сюжет и иное содержание вместо существующего традиционного сюжета, а также объединил суфийские идеи вокруг образов пророка Юсуфа и Зулайхи.

Ключевые слова: *традиция хамсанавистики, Абдурахман Джами, «Юсуф и Зулайха».*

Annotation: in this article, the role of Abdurahman Jami’s poem Yusuf and Zulaykha within the tradition of writing a “Khamsa” is examined. This work differs from the established Khamsa-writing tradition prior to Jami. The poet introduced a new narrative and distinctive content in place of the conventional plot, and he integrated Sufi ideas around the figures of Prophet Yusuf and Zulaykha, which is of particular significance in the research process.

Key words: *Khamsa tradition, Abdurahman Jami, Yusuf and Zulaykha*

Asrlar osha o‘z ahamiyati va nufuzini saqlab, kitobxon va tadqiqotchilar e’tirofini qozonib kelayotgan Xamsa turkumi dostonlari o‘rganilgani sayin yangi ma’no qirralari ochila boshlaydi. Nizomiy sarbon bo‘lib boshlab bergan xamsanavislik karvoni nihoyatda ulkan, bu yo‘lni talab qilib otlanganlar ko‘p bo‘lishiga qaramay bugunning kitobxoni ularning ayrimlari bilangina yaqindan, ham dildan tanish. Bunga sabab bo‘luvchi omillar bisyor, albatta. Garchi sujetlar deyarli o‘xshash, hammasi xamsanavislik an’anasi doirasida bo‘lsa-da har bir ijodkor xamsasi muallifning o‘ziga xos ovozi, g‘oyaviy-badiiy takomili va ayrim novatorlik xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Bu borada anchayin o‘xshash bo‘lgan Nizomiy va Dehlaviy xamsalarini Navoiy badiiy va tasavvufiy jihatdan yuksaltirgani bilan e’tirofga loyiq bo‘lsa, bir necha qoidalarni “chetlab o‘tgani”ga qaramay xamsachilikda yuqori baho va e’tiborga loyiq ko‘riluvchi Jomiyning “Haft avrang”i o‘ziga xos mavzu va topilmalar bilan salaflar ijodidan ajralib turadi. Dastlab besh dostonni yozib tugallagan Abdurahmon Jomiy keyinchalik “Silsilat uz-zahab” hamda “Solomon va Absol” dostonlarini ham ularga qo‘shgan holda “Sab’a” yozish yo‘lini boshlab berdi. Uning “Sab’a”si 7 dostondan iborat bo‘lsa-da unda Bahrom haqidagi doston mavjud emas, buni esa ijodkor o‘zining “afsonaxonlik”ni xush ko‘rmasligi bilan izohlab o‘tadi. Shuningdek, u an’anaviy “Xusrav va Shirin” dostoni o‘rniga “Yusuf va Zulayho” qissasini tanlaydi. Bu masalalar xamsanavislikda juda ahamiyatli sanaladi, aslan an’ana to‘liq davom ettiriladi, biroq Jomiyning ishqiy-sarguzasht dostonlarga munosabati o‘zgacha bo‘lib, u dostonni hikoya tavsifiga emas, konkret tarixiy va ibratomuz qissaga baxshida etishini aytib o‘tadi:

Kuhan shud davlati Shirin-u Xusrav,
Ba Shirini nishonam Xusravi nav…
Chu to‘ti ta’bro sozam shakarho,
Zi husni Yusuf-u ishqi Zulayho.
Xudo az qissaho chun ahsanash xond,
Ba ahsan vajh az on xoham suxan rond. [2;4]

Jomiyning bu mulohazalarini Bertels shunday izohlaydi: “Garchi Jomiy hech qachon ochiq gapirmasa-da, lekin uning fikrlari yo‘nalishi, aftidan quyidagicha: eski afsonalar, garchand o‘ziga jalb etsa-da, biroq ular yolg‘on, ertaklardir. Men ularning o‘rniga haqiqatligi Qur’on bilan tasdiqlangan, unda “Ahsanul-qisas” – qissalarning eng go‘zali, yaxshisi deya ta’riflangan rivoyatni qo‘yaman. [4;56]

Mavjud an’anaga rioya etmay aynan “Ahsanul-qisas”ni tanlashning Jomiy uchun o‘ziga xos sabablari bor edi, albatta:

– “Ahsan vajh” (eng go‘zal sabab) ya’ni Allohning o‘zi eng go‘zal deb atagan qissani chetlab boshqa mavzuda asar yozish noo‘rin;

– Har qanday ishqiy sujetning ikkita asosi mavjud, bu ma’shuq husni va oshiq iztiroblari, dardi. Jomiyning aytishicha, ayni shu ikki jihatda Yusuf va Zulayho qissasi tengsiz”. [3;95]

Bu jihatlardan anglashiladiki, Jomiyning mavzu borasidagi qarori uning eskiligi sabab emas, balki ijodkorning mafkuraviy-diniy dunyoqarashi bilan bog‘liq. Hatto yosh ham bu borada muhim, sababi salaflarning ishqiy dostonlari 35-45 yoshlar oralig‘ida yaratilgan bo‘lsa, Jomiy o‘z ishqiy dostonini yozganda 70 yoshdan oshgan edi. Mualliflarning ishqiy sujetlarga munosabati turlicha bo‘lishi tabiiy. Bu mulohaza esa muallif an’anaviy mavzuni eskirgan deb hisoblagan degan qarashni biroz yo‘qqa chiqaradi. Qolaversa, Yusuf va Zulayho qissasi ham insoniyatga notanish emas, u Tavrotdan boshlab ko‘plab diniy va badiiy adabiyotlarda uchraydi. Ammo kitobxonlar uni asosan Qur’oni Karimdagi Yusuf surasi orqali yaxshiroq taniydilar. Jomiyning dostoni ushbu qissaning bevosita nazmi emas albatta, umuman olganda, ushbu turkum dostonlarda sujetdan ko‘ra g‘oya va badiiyat muhimroq. Jomiyning “Yusuf va Zulayho”sida Qur’onda ko‘rsatilmagan voqealar va tasvirlar ham mavjud, shuningdek, undagi asosiy oshiq-ma’shuqlik g‘oyasi “Farhod va Shirin”dagi bilan bir xil. Undagi oshiq esa Farhod obrazi o‘rnida Zulayho, ma’shuq(mazhar) obrazi esa Shirin o‘rnida Yusuf timsoli orqali ifodalangan. “Farhod va Shirin”da Farhod Shirinning vasli umidida (komil inson bo‘lish yo‘lida) qancha zahmat chekkan bo‘sa, Zulayho ham Yusufga yetmoqlik orzusida (ishqi ilohiyni tanish, ma’rifatga erishish maqsadida) hijron va ayriliqlarga bardosh bergani holda iymoni hamda ruhini poklaydi, butparastlikdan chiqib Oliy Haqni taniydi. Boshqa ishqiy dostonlardagi kabi ushbu kulminatsiyadan so‘ng bosh qahramonlar vafot etmaydi. Balki Jomiy bu o‘rinda yangi yo‘ldan borib, bir necha bosqichlarda, alam-u iztiroblarda toblangan ishqni visol bilan mukofotlaydi. Shu tasvirlarda ushbu muhabbatning go‘zal va samimiy insoniy tuyg‘ulardan ham xoli emasligini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni xamsanavislikda yangi mavzu bo‘lishiga qaramay, salaflarnikidan ortda qolmaydi hamda g‘oya va ritm nuqtayi nazaridan xamsa qoidalariga mos tushadi. Shu fikrlarga asoslanib, Jomiyni nafaqat xamsanavis, balki dostonlariga yangicha tasavvufiy ruh va yuksak badiiyat olib kirgan ijodkor deya bemalol ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojiddinov Sh., Davlatov O., Yusupova D. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2018. (Elektron manabalar)

2. Abdurahmon Jomiy. Yusuf va Zulayho. – T.: BAN, 1983.

3. Tohirov S. Xamsanavislik an’anasi va Alisher Navoiy Xamsasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020.

4. Бертелс Э. Избранные труды. Низами и Фузули. 1982

5. Internet tarmog‘i

Gulchiroy TURDALIYEVA,
TDO‘TAU doktoranti
yoshfilologg@mail.com

ADABIYOTSHUNOSLIKDA MUALLIF OBRAZI TUSHUNCHASINING TARIXIYLIGI

Annotatsiya: maqolada muallif obrazi talqini haqida so‘z boradi. Atamaning fan tarmog‘ida keng yoyilishi, tadqiqotchilarning fikri haqida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: *muallif, biografik metod, badiiy til, individual uslub, funksional nutq, qahramon, lirik qahramon.*
Annotation: the article explores the interpretation of the author’s image. It also discusses the widespread use of the term in the scientific field and presents the views of researchers.
Key words: *author, biographical method, literary language, individual style, functional speech, hero, lyrical hero.*
Аннотация: в статье исследуется интерпретация образа автора, рассматривается широкое использование этого термина в научной сфере, представлены точки зрения исследователей.
Ключевые слова: *автор, биографический метод, художественный язык, индивидуальный стиль, функциональная речь, герой, лирический герой.*

Muallif obrazini o‘rganish va tadqiq etish uchun uning negiziga e’tibor qaratmog‘imiz zarur. “Muallif obrazi nima?”, “Badiiy asardan qanday aniqlash mumkin?” kabi savollarga javob berish asnosida, muallif obrazining tarixiy va ilmiy-nazariy asoslarini yoritib boramiz.

Avvalo, muallif obrazini kashf etishda biografik metodga tayanish maqsadga muvofiq. Badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metod muhim ahamiyat kasb etadi. Biografik metod adabiyotni shunday o‘rganish usuliki, bunda yozuvchi biografiyasi va shaxsiyatiga badiiy ijodining asosiy belgilovchi momenti sifatida qaraladi. [1.B54]

Lirikada ijodkor ruhiy kechinmalari, ko‘rgan-kechirganlari, hayotiy tajribalari yoki turli iztirobli hodisalar aks etadi va bu asarni talqin etishda o‘zining ijobiy samarasini berishi tabiiy. Maktublar, iqrornomalar, suhbatlar, xotiralar, esdaliklar, qo‘lyozmalarning turli nusxalari, ijodkorning shaxsiy hayoti, yashash muhiti, ruhiy-psixologik holati, ilhom faktorlari, ijodkor laboratoriyasi, shaxsiy arxivi, zamondoshlari xotiralari va umuman, ijodkorga tegishli boshqa qator omillar badiiy asarni biografik metod asosida o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega. Badiiy asardan yozuvchi tabiatiga xos xususiyatlarni anglash, his etish ijodkor yashagan ijtimoiy va oilaviy muhitni, ma’naviy-ruhiy, e’tiqodiy dunyoqarashini anglash orqali yuzaga keladi.

Y.Borev fikricha, biografik metod – badiiy asarni ijodkor shaxsi orqali o‘qish uslubi. San’atkorning individual taqdiri uning ijodini talqin etishda kalit vazifasini o‘taydi. [2.B21]

Biografik metod ijodkor tarjimai holining xronologik tasnifini berish bilan birgalikda, yozuvchi va badiiy asar juftligiga asoslanadi. Yozuvchi psixobiografiyasi qaysidir ma’noda uning badiiy asarlaridagi voqea-hodisalar bayoni, yaratgan obrazlari tizimida o‘z ifodasini topadi. Bunday individuallik san’at asarining originalligini, o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi.

Yurtimizda ham biografik metodni o‘rganish ishlari olib borilgan bo‘lib, bu haqida prof. Abdug‘afur Rasulov “Ilmi g‘aribani qo‘msab…” kitobidan o‘rin olgan “Hol tarjimasidagi saktalik va soxtaliklar” nomli maqolasida shunday yozadi: “Yozuvchi holati bilan ijodi orasida uzviy bog‘liqlik bor. Har qanday asarda yozuvchi ruhi, holi, qalbi aks etadi”. [3.B43] Shuningdek, bu borada B.Karim izlanishlari e’tiborga molik. Uning “Adabiyotshunoslik metodologiyasi” va “Ruhiyat alifbosi” nomli kitoblarida ijodkor biografiyasi, uning metod darajasida o‘sib chiqqanligi, mazkur metodning o‘ziga xos tomonlari haqida ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan.

Biografik metod tarixi, namoyandalari, imkoniyatlari, dunyo adabiyotshunosligidagi yutuqlari hamda tajribalarini chuqur o‘rganish badiiy asarlarni o‘ziga xos tarzda tushunish va tushuntirish uchun amaliyotda qo‘llash, muallif obrazini kashf etishda, albatta, o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

Muallif asar yaratar ekan, unda ma’lum bir g‘oyani aks ettiradi. Asarlardagi badiiy g‘oya muayyan hayotiy voqealar muallifining yo‘naltirilgan talqini va bahosini, shuningdek, dunyoning falsafiy qarashini yaxlit holda o‘z ichiga oladi, bu muallifning ma’naviy dunyosi ochib berilishi bilan bog‘liq. Masalan, Bobur g‘azallarida muallif shaxsi ko‘pincha: oshiq qalbi azob chekayotgan inson; davlat va saltanat tashvishlari ostida qolgan hukmdor; vatan sog‘inchida yonayotgan musofir sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan:

Necha davron g‘ussasi bo‘lg‘ay mening jonimg‘a xos,
Koshki o‘lsam, dog‘i bu g‘ussadin bo‘lsam xalos!

Mening hayotimga zamonning qancha tashvishlari va g‘amlari xosdir. Qaniydi, o‘lsam-u, yana bu g‘ussalardan xalos bo‘lsam! Muallif zamona uqubatlari qanchalar unga bog‘liqligini ifodalaydi.

Ohu vovaylo – surudum, dardu g‘am – hamsuhbatim,
Boda – ashkim qoni, kim ko‘rdi muningdek bazmi xos?

—Nola va fig‘onlar – qo‘shig‘im, suhbatdoshim esa dard va g‘amdir. Ichayotgan sharobim – ko‘z yoshim qoni. Bunday xos bazmni kim uchratgan?

She’riy san’atlar:

Tazod (qarama-qarshilik): Bazm (xursandchilik yig‘ini) – dard, g‘am, oh-u vovaylo (g‘amli holatlar).

Hayot – o‘lim ziddi ham mavjud (xaloslik vositasi sifatida o‘lim tilanadi).

Isti’ora (metafora): Boda – ashkim qoni — sharob ko‘z yoshiga qiyoslanadi, ammo bu tashbeh emas, balki isti’ora.

Tashbeh: O‘zining yig‘isini “bazm”ga o‘xshatishi. Aslida bazm – shodlik, lekin shoirning bazmi – g‘am-u firoq yig‘inidir.

Tajohuli orif (bilib bilmaslikka olish): Kim ko‘rdi muningdek bazmi xos?– aslida bunday holatni ko‘rish mumkin emas, lekin shoir uni hayrat ohangida ta’kidlaydi.

Bir pari men telbani husniga moyil qilg‘udek,

Ko‘zum ichra yer tutub, ko‘nglumda manzil qilg‘udek.[6]

Bu yerda lirik qahramon — “men” oshiq sifatida gavdalanadi. Ammo bu “men” faqatgina ishqiy kechinma emas, balki muallifning o‘z qalb olamini ifodalaydi. Misrada “ko‘zum ichra yer tutub” iborasi ko‘zimni makon qilib ko‘nglim manzil qilarsan deya, muallifning his-tuyg‘ulari naqadar samimiy ekaniligini ko‘rsatadi.

V.E.Xalizevning “Adabiyot nazariyasi” darsligida “muallif” so‘ziga “lot. Autor – harakat mavzusi, asoschisi, tashkilotchisi, o‘qituvchisi va ayniqsa, asar yaratuvchisi”, deya ta’rif beriladi. Muallif, birinchidan, ma’lum bir taqdir, biografiya va individual xususiyatlarga ega shaxs sifatida san’at asarining yaratuvchisidir. Muallif ma’lum bir tarzda voqelikni taqdim etadi va yoritadi, ularni tushunadi va baholaydi, shuningdek, o‘zining ijodiy kuchini namoyish etadi. Bir so‘z bilan aytganda, u badiiy voqelik subyektidir. [4.B36] V.Xalizev ijodkorning asardagi mavqeini “muallif qiyofasi” deb belgilaydi.

M. Baxtin, Yu.Lotman, L.Timofeyev hamda o‘zbek olimlari A.Qayumov, N.Mallayev, A.Hayitmetov asarlarida bu masala keng yoritilgan. Masalan, M.Baxtin “Muallif va qahramon” risolasida muallif obrazini matndagi estetik markaz sifatida ko‘rsatadi.

Ushbu tushuncha dastlab V.Vinogradov tomonidan atama sifatida ishlatilgan, keyinchalik u muallif obrazini “badiiy til ilmi” ning kategoriyali markaziga aylantirgan. V.Vinogradov yozuvchining shaxsiyati har doim san’at asarida namoyon bo‘ladi va yozuvchi obrazi asarlari asosida qayta tiklanadi, degan fikrni ilgari surgan.

U tilshunos sifatida tilning individual, o‘ziga xos xususiyati, yozuvchi va asar tili bilan shug‘ullangan holda yozuvchi shaxsiyatini dastlab “lisoniy ong”, keyinchalik “individual uslub” va nihoyat “muallif obrazi” sifatida belgiladi. V. Vinogradov uchun matn bu “muallif tomonidan aytilgan monolog”, muallif obrazi esa “nutq mavzusining tasviri, uslubini ochishga xizmat qiladigan vosita” dir.

A.A.Nesterenko o‘z tadqiqotida muallif obrazi o‘rniga bayonchini tavsiya etadi. Bu borada u L.I.Timofeyev qarashlariga tayanadi. L.I.Timofeyev esa V.V.Vinogradovning “mualllif obrazida badiiy asar uslubining barcha belgi va xususiyatlari birlashadi”, degan fikriga o‘z tadqiqotida qarshi chiqadi.

Shunday qilib, “muallif obrazi” mavjudligining birinchi bosqichi V.Vinogradov nomi bilan bog’liq. Mualliflik muammosi rivojlanishining boshlanishidagi yana bir shaxs M.Baxtin bo‘lib, uning qarashlari V.Vinogradov konsepsiyasidan farq qiladi. M.Baxtin muallif obrazini asardan estetik yaxlitlik sifatida ajratib oladi va uni “muallif qiyofasi” deb o‘rganadi. Muallif obraz sifatida o‘rganilar ekan, u qahramonlar bilan bir xil darajada turadi. “Ammo, – deydi M.Baxtin, – asarda muallif qahramondan tubdan farq qiladi. Muallif va qahramonning mos bo‘lishi sifatlarda qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Muallif biz uchun shaxs sifatida belgilanishi mumkin emas va buning sababi shundaki, “har bir tasvir har doim yaratilgan va yaratilmagan narsadir”. [5.B179]

Baxtin asar muallifning badiiy tafakkuri mahsuli ekanligini tan oladi, lekin “muallif qiyofasi” tushunchasi unga begona. V.Vinogradovning quyidagi fikri muallifning mavjudligi muammosini tadqiqotchilar uchun eng muhim xulosalardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin: “Butun asar kompozitsiyasida turli xil obrazlarda voqelikning xilma-xilligini aks ettiruvchi, dinamik rivojlanayotgan tarkib turli xil funksional nutq uslublarining, turli xil shakllari va turlarining o‘zgarishi va almashinishida namoyon bo‘ladi. Nutq to‘liq va yaxlit “muallif” imijini yaratadi. Nutq tuzilishining o‘ziga xos xususiyati “muallif obrazi” butun asarning stilistik birligini yanada chuqurroq va yorqinroq ifoda etadi. Muallif obrazi bu asarning tashkiliy kuchidir, uning yaxlit qismiga, alohida ongiga, yagona dunyoqarashiga ega bo‘lgan qismidir”. [6]

Sharq mumtoz she’riyatida esa “muallif” tushunchasi ko‘pincha “shoir”, “ozor chekkan oshiq”, “hikmat aytuvchi dono” qiyofasida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikda lirik qahramon degan tushuncha ham mavjud bo‘lib, uni 1921-yilda Y. N. Tinyanov ilk marta qo‘llagan. Bunda muallif obrazi lirika, samimiyat, o‘z-o‘zini kuzatish, tan olish bilan birga keladi. Lirik qahramon obrazi aksariyat hollarda haqiqiy poetik shaxs bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Литературний энциклопедический словарь. – М., 1987. Стр, 54
2. Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки, – М., 1981.
3. Abdug‘afur Rasulov “Ilmi g‘aribani qo‘msab…” – T.: Ma’naviyat, 1998.
4. V. E. Xalizev “Adabiyot nazariyasi” 68–69-b.
5. M. Baxtin. Romanda zamon va xronotop shakllari. 179-b.
6. www.pokoleniy.ru

Madina FAYZULLAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O‘zbekiston
fayzulaevamadina@970gmail.com

XITOY TILIDA INSON FIKRI VA HIS-TUYG‘USINI IFODALOVCHI GASTRONOMIK METAFORALAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada xitoy tilidagi gastronomik metaforalarning inson fikrlash jarayoni va his-tuyg‘ularini ifodalashdagi lingvistik va madaniy funksiyalari tahlil etiladi. Tadqiqot davomida gastronomik metaforalarning struktur va semantik xususiyatlari aniqlanib, ularning psixologik holatlar, emotsional kechinmalar, kayfiyat, ijtimoiy munosabatlar kabi tushunchalarni ifodalashdagi roli yoritilgan.

Maqolada keltirilgan misollar asosida xitoy tilida taom nomlari, ta’m sifatlari, pazandachilik amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan iboralarning tashqi dunyo hodisalarini tushuntirish va insoniy holatlarni obrazli tarzda ifodalash vositasi sifatidagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Metaforalarning kognitiv asoslari hamda ular orqali xitoy xalqining milliy mentaliteti va dunyoqarashi aks etishi ochib beriladi. Maqola natijalari til o‘rgatish, tarjima, madaniyatlararo muloqot va lingvokulturologik tadqiqotlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *kognitiv metafora, gastronomik metafora, his-tuyg‘u, semantika, kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются лингвистические и культурные функции гастрономических метафор в китайском языке, отражающие процессы человеческого мышления и выражения эмоций. В ходе исследования выявлены структурные и семантические особенности таких метафор, а также раскрыта их роль в передаче понятий, связанных с психологическими состояниями, эмоциональными переживаниями, настроением и социальными отношениями.

На основе приведённых примеров показано, как названия блюд, вкусовые характеристики и элементы кулинарной практики в китайском языке используются для образного описания явлений внешнего мира и человеческих состояний. Анализируются когнитивные основы метафор, а также их способность отражать национальный менталитет и мировоззрение китайского народа. Полученные результаты представляют практическую ценность для преподавания языка, перевода, межкультурной коммуникации и лингвокультурологических исследований.

Ключевые слова: *когнитивная метафора, гастрономическая метафора, эмоции, семантика, когнитивная лингвистика, межкультурная коммуникация.*

Annotation: this article analyzes the linguistic and cultural functions of gastronomic metaphors in the Chinese language that express human cognitive processes and emotions. The study identifies the structural and semantic characteristics of such metaphors and highlights their role in conveying concepts related to psychological states, emotional experiences, mood, and social relationships.

Based on the examples provided, the article demonstrates how expressions related to food names, taste qualities, and culinary practices in Chinese serve as figurative tools for describing external phenomena and human conditions. The cognitive foundations of these metaphors are examined, revealing how they reflect the national mentality and worldview of the Chinese people. The findings of the article hold practical significance for language teaching, translation, intercultural communication, and linguocultural research.

Key words: *cognitive metaphor, gastronomic metaphor, emotion, semantics, cognitive linguistics, intercultural communication*.

Konseptual metafora uzoq yillardan beri o‘rganib kelinayotgan nutqning eng muhim qismidir. Metafora grekcha so‘z bo‘lib, metatransfert – “ko‘chirish” va phorasens – “ma’no”, ya’ni so‘zning ma’nosini ko‘chirish demakdir. Metafora bir predmetni umumiy xususiyatlari asosida boshqa bir predmet nomi orqali ifodalaydi. Metaforani “yashirin o‘xshatish” deb ataydilar. Chunki metaforada ham, o‘xshatishda ham asosan, narsa yoki hodisa nimagadir o‘xshatiladi. Bu ikkita bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan narsalarni qiyoslash orqali ma’no chiqarish sifatida ishlatiladi, ammo ularning o‘ziga xos ichki o‘xshash xususiyatlari bo‘ladi. Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasida o‘xshashlikka asoslangan bo‘lib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma’noda ishlatish metaforaning xususiyatlaridan biridir.

Lakoff va Johnson (1980) tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv metafora nazariyasiga ko‘ra, insonlar murakkab, tushunilishi qiyin bo‘lgan abstrakt hodisalarni, kundalik hayotda tanish bo‘lgan tajribalar (masalan, ovqat, ta’m, harakat) orqali anglab oladi. Bu anglash jarayoni manba va maqsad domenlar o‘rtasidagi kognitiv xaritalash orqali amalga oshadi.

Oddiy metafora: so‘zlarning ahamiyati, tilshunoslikdagi ta’sirchanlik va badiiy bo‘yoqdorlik maqsadida, ikkita asosning o‘zaro bog‘liqligi, odatda, shoirlar va notiqlar tomonidan ko‘pincha ishlatiladi, so‘zning ko‘chma ma’nosi hisoblanadi.

Konseptual metafora: konseptlarning ahamiyati, ba’zi bir konseptlarni yanada yaxshiroq tushunish uchun, insoniyat tajribasi, odatda, kundalik hayotda oddiy odamlar tomonidan ishlatiladi, o‘ylash, harakat va maqsadlar jarayoni mahsuli.

Konseptual metaforaning kognitiv xususiyatlarini o‘rganayotganda uning o‘ziga xos xususiyatlariga duch kelamiz, bu xususiyatlar esa oddiy metaforada uchramaydi.

1. Konseptual metafora – ma’noning konseptual nazariyasini va konseptning lingvistik va lingvistik bo‘lmagan izohlaridagi ma’noni ochishga yordam beradi.

2. Ba’zi bir matnlarda kognitiv metafora orqali o‘sha konseptning strukturasi ochib beriladi.

3. Konseptual metafora 2 ta konseptual tarmoq orqali o‘zaro munosabatga kirishadi. Ular: manba domen va maqsad domen.

Konseptual manba berilgan konseptdagi bir qancha bilim strukturalarini o‘z ichiga oladi.

Misol uchun, kognitiv metafora: *Bolalar mevalardir.* So‘zning kognitiv semantik tuzilishi yoki metaforadagi asos o‘zbek tilidagi “bolalar” so‘zi orqali ushbu misollarda ochib beriladi.

Voy, mana bu bolaning shirinligini!
Bolang hali xom, pishmagan.
Danagidan mag‘zi shirin.
Olma daraxtining tagiga olma tushadi.
Ularning bir etak shirin-shirin bolalari bor.
Bu ayol mevasiz daraxt. U farzandga zor[1].

Keltirilgan misollardan ko‘rishimiz mumkinki, predmetlarning bir emas, bir qancha xususiyatlari o‘tkazilgandan keyingina biz *bolalar – mevalar* deyishimiz mumkin. Lekin oddiy metaforali *Muxlisa tulki* deganda tulkidagi faqatgina bitta ayyorlik xususiyati o‘tgandi. Bundan tashqari, kognitiv metaforadagi ikkita tarmoq, ya’ni nishon va manba tarmoqlari bo‘lib, odatda, nishon qismi tasvirlanishi kerak bo‘lsa, manba qismi esa metaforaga oid bo‘lgan qismi hisoblanadi, nishon qismining mag‘zini ochib beradi. Bundan tashqari, madaniyatlar va dinlarning konseptual tizimlari metafora xarakteriga ega.

Manba domen – metafora yaratiladigan asosiy, aniq, tajriba asosidagi soha bo‘lib, u ko‘pincha inson tomonidan kundalik hayotda to‘g‘ridan to‘g‘ri idrok qilinadigan, tanib bo‘ladigan narsa yoki hodisa hisoblanadi.

Maqsad domen – abstrakt tushuncha, ya’ni inson ongidagi murakkab, bevosita sezib bo‘lmaydigan holat yoki tajriba. Gastronomik metaforada bu domen inson kechinmalari, fikrlari, munosabatlari bo‘lishi mumkin.

Biz quyida inson fikri va his-tuyg‘usini ifodalovchi gastronomik metaforalarni ko‘rib chiqamiz.

1 Z.T.Hakimova Kognitiv tilshunoslikda metafora termini va unga turlicha yondashuvlar Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5.

So‘zlar	Manba domen	Maqsad domen
吃醋、吃干醋	Taomlarni iste’mol qilishga oid	Rashkni boshdan kechirish
醋劲儿、醋意	Oziq-ovqat mahsuloti	Rashkli munosabat
酸葡萄	Ta’m bilan bog‘liq	Qo‘lga kirita olmagan narsadan nafratlanish
发酸	Ta’m bilan bog‘liq	Rashkning paydo bo‘lishi
不是味儿	Ta’m bilan bog‘liq	Yurakda yoqimsiz tuyg‘uni his qilish
炒豆子	Taom tayyorlash usuliga oid	Yuragi sarosimaga tushmoq
吃黄连	Taomlarni iste’mol qilishga oid	So‘zlab bo‘lmas qattiq azob chekish
对味	Ta’m bilan bog‘liq	Mazali, ta’mli, mos tushish

吃醋chicu “sirka yemoq” sevgi bobida hasadning sinonimi va metaforasi hisoblanadi. Bu metaforaning kelib chiqishi qadim tarixga asoslanadi. Tang sulolasi saroyida bosh vazirning xotini o‘ziga kundosh kelishini hazm qila olmaydi. Shu sababli unga “zaharlangan sharob” ichish yoki kanizak olib kelishini qabul qilishi sharti qo‘yiladi. U hech ikkilanmasdan “zaharlangan sharob”ni ichadi va shunda u bu hech qanday zahar emas, balki shirin va nordon hidli kuchli sirka ekanligini biladi. Shundan buyon kimki sevgi bobida kuchli rashkni, hasadni his qilsa 吃醋chicu gastronomic metaforasi qo‘llaniladi. 吃干醋chi

gancu “quruq sirka yemoq” bu metafora asossiz rashq qilishni bildiradi, sevgida bilvosita rashkni boshdan kechirishni ifodalab beradi. 醋意cuyi “sirka ma’nosi” hasadli yurakni bildiradi, ya’ni biror insonning yuragida hasadning paydo bo‘lishiga nisbatan ishlatiladi. 醋劲 cujin “sirka kuchi” boshqalarning ustunligi yoki hissiy munosabatlardagi o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘lgan rashkni, hasad hissini anglatadi.

酸葡萄suan putao “nordon uzum” inson o‘ziga kerakli bo‘lgan ehtiyojlarni qila olmaganidan umidsizlikka tushishdir. Ichki tashvishdan xalos bo‘lish uchun ko‘ngliga taskin berish maqsadida, o‘zini oqlashga harakat qilib har xil bahonalar, sabablar o‘ylab topish. Xitoy xalqida bu gastronomik metaforaning paydo bo‘lishi haqida shunday hikoya bor. Bir tulki novdalarida g‘arq pishgan uzumni ko‘rib yegisi keladi va uni uzish uchun tepaga qarab sakray boshladi. Ammo hech qanaqasiga tepagacha sakrab uzumni uzolmadi. Shunda bu sakrashlari befoydaligini bilib, baribir bu uzum nordon ekan deb, o‘ziga tasalli beradi. “Nordon uzum” iborasi inson qilolmaydigan ishi uchun o‘ziga tasalli berish uchun metafora bo‘lib ishlatilib kelinmoqda.

发酸 fasuan “nordon” iborasi achchiqlanish, g‘azablanish, achishmoq, og‘riq kabi hissiyotlarni his qilganda ushbu gastronomik metafora orqali ifodalanadi.

不是味儿bu shi weir “bu ta’m emas” xitoy tilida bu ibora ko‘ngil holati, norozi kayfiyat yoki muammoli vaziyatni ifodalash uchun ishlatiladi. Metafora sifatida: ichki hissiy diskomfort, nimadandir norozi bo‘lish “Yuragim g‘ash”, “ko‘nglim behalovat” degan ma’noda qo‘llaniladi. Masalan:

他走了以后，我总觉得不是味儿。(Tā zǒule yǐhòu, wǒ zǒng juédé bùshì wèi er.) U ketganidan keyin o‘zimni g‘alati his qilyapman.

炒豆子 chao douzi so‘zma-so‘z ma’nosi “qovurilgan loviya”. Bu oddiy oshpazlik amali bo‘lib, Xitoyda keng tarqalgan taomlar tarkibida ishlatiladi. Loviyalar qizigan qozonda qovurilayotganda harakatlanadi, “sakraydi” – bu holat, odatda, odamlarning qiyin vaziyatda qolib, bosim ostida “sakrashi”, ya’ni notinch holatga tushishini ifodalaydi. Bosim ostidagi odam vaziyatdan chiqishga urinayotgan, “qizigan muhitda” sakrayotgan inson. Masalan:

他在老板面前就像炒豆子一样，坐立不安。

(Tā zài lǎobǎn miànqián jiù xiàng chǎo dòuzǐ yīyàng, zuòlìbù’ān.) U xo‘jayin oldida xuddi qovurilayotgan loviyadek, joyida tura olmayapti.

Bu yerda “炒豆子” metaforasi odamning noqulay, bosim ostida turgan holatini ifodalamoqda. Xitoy madaniyatida ovqat pishirish bilan bog‘liq metaforalar ko‘p. Chunki oshpazlik amaliyotlari (bug‘lash, qovurish, kesish) hayotdagi holatlarni ifodalashga oson mos keladi. “炒豆子” shular sirasiga kirib, insonning og‘ir psixologik holatini juda vizual va esda qolarli obraz orqali yetkazadi.

吃黄连 chi huanglian “achchiq dorivor o‘simlik yemoq”. “吃” chi “yemoq”, “黄连” huanglian nihoyatda achchiq dorivor o‘simlik. Bu o‘simlik an’anaviy xitoy tibbiyotida ishlatiladi, ammo juda achchiq ta’mga ega – ko‘pincha “eng achchiq narsa” sifatida eslatib o‘tiladi. Achchiq haqiqatni yoki azobni yutib, sabr bilan chidash, shikoyat qilmaslik. Bu ibora odam og‘ir, adolatsiz yoki qayg‘uli vaziyatda bo‘lsa-da, norozilik bildira olmasligi holatini tasvirlaydi. Masalan:

工作太累，老板还不停地责备，真是吃黄连。

(Gōngzuò tài lèi, lǎobǎn hái bù tíng de zébèi, zhēnshi chī huánglián.) Ish juda charchatadi, ustiga-ustak xo‘jayin doim tanbeh beradi – bu aynan “huanglianni yeb turish” bo‘ldi.

对味 duiwei so‘zma-so‘z tarjimasi “to‘g‘ri ta’m” deb tarjima qilinadi. Xitoy tilida bu ibora faqat ovqat haqida emas, balki metafora bo‘lib kelganda insonlar o‘rtasidagi moslik, tushunish, “bir to‘lqinda bo‘lish” ma’nosida ham ishlatiladi. Masalan:

我们的合作非常对味，效率很高。(Wǒmen de hézuò fēicháng duì wèi, xiàolǜ hěn gāo.) Hamkorligimiz juda mos tushdi – unumdorlik ham yuqori bo‘ldi.

Demak, gastronomik metaforalarda manba domen – ovqat va taom tayyorlash bilan bog‘liq tajriba. Maqsad domen – inson ongidagi fikrlar, tuyg‘ular va ijtimoiy holatlar. Bunday metaforalar abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida tushuntirishda asosiy vosita bo‘ladi. Ular madaniyatga bog‘liq, chunki har bir xalq o‘zining gastronomik qadriyatlari orqali metaforik ifodalarni yaratadi. Xitoyliklarning ijtimoiy hodisalar haqida o‘z qarashlari va mulohazalari bo‘lib, ularni oziq-ovqat bilan bog‘liq yorqin so‘zlar bilan ifodalaydilar. Bu esa shu millat va xalqning madaniyati haqida bizga so‘zlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G. Metaphors We Live By / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago: Chicago University Press, 1980. 242-p.

2. Z.T.Hakimova. Kognitiv tilshunoslikda metafora termini va unga turlicha yondashuvlar Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5.

陈正德 (Wasin Suksomboomwong). 汉泰饮食隐喻对比研究. – 华中师范大学文学院，2018 年. 160页.

金爱情. 汉韩饮食惯用语的隐喻和转喻对比研究. – 浙江大学，2018年. - 54 页.

陶晴. 汉语饮食词语的隐喻转喻认知考察，上海外国语大学 ，2017年. - 70页.

Moxiraxon QUTBIDDINOVA,
Mustaqil tadqiqotchi
Makkiii2008@gmail.com

KOREYS TILI BILAN BOG‘LIQ INTERFERENSIYA

Annotatsiya: ushbu maqolada koreys tilini o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan interferensiya hodisasi tadqiq qilinadi. Bunda o‘zbek tili ona tili, koreys tili esa o‘rganilayotgan til sifatida tahlilga tortilgan bo‘lib, tillar o‘rtasidagi strukturaviy-tipologik farqlar interferensiyaning asosiy sababi sifatida ko‘rib chiqiladi. Til o‘rganishda uchraydigan fonetik, grammatik va leksik interferensiya misollar orqali yoritilib, ularning oldini olish usullari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *interferensiya, koreys tili, o‘zbek tili, fonetik xatolar, grammatik farqlar, til o‘rgatish.*

Annotation: this article examines the phenomenon of interference that arises in the process of learning the Korean language. In this regard, Uzbek is analyzed as the native language, while Korean is considered as the target language. The structural-typological differences between the two languages are identified as the main cause of interference. Examples of phonetic, grammatical, and lexical interference encountered in language learning are presented, and methods for preventing them are proposed.

Key words: *interference, Korean language, Uzbek language, phonetic errors, grammatical differences, language teaching.*

Аннотация: в данной статье исследуется явление интерференции, возникающее в процессе изучения корейского языка. При этом узбекский язык рассматривается как родной, а корейский язык — как изучаемый. Структурно-типологические различия между языками анализируются как основная причина интерференции. На примерах освещаются фонетическая, грамматическая и лексическая интерференция, а также предлагаются методы их предотвращения.

Ключевые слова: *интерференция, корейский язык, узбекский язык, фонетические ошибки, грамматические различия, обучение языку.*

Kirish. Ma’lumki, kishi chet tilini o‘rganganidan so‘ng ikki tilni birgalikda qo‘llay boshlaganda, ona tilining chet tiliga ta’siri tez-tez yuzaga chiqadi. Bu ta’sir har doim ham salbiy bo‘lmaydi. Ba’zi hollarda ona tili haqidagi bilimlar chet tilini o‘zlashtirishga yordam beruvchi ijobiy omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq aksariyat hollarda, ona tili ongosti darajasida chet tilining qo‘llanishiga ta’sir ko‘rsatib, xatoliklarni keltirib chiqaradi. Aynan shunday salbiy holat tilshunoslikda interferensiya deb ataladi.

Har qanday ikki tillilik yoki ko‘p tillilik sharoitida interferensiya hodisasining kuzatilishi tabiiy hol sanaladi. Interferensiya masalalarini tadqiq etish, chet tilini o‘zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish hamda bartaraf etishning samarali yo‘llarini topishga yordam beradi.

Asosiy qism. Til o‘rganish jarayonida o‘quvchi yangi tilni o‘zlashtirishda mavjud bo‘lgan til, ya’ni ona tiliga tayanadi. Bu tayanish har doim ham ijobiy natija bermaydi, balki ayrim hollarda **interferensiya** deb ataluvchi til xatolariga olib keladi.

Odatda, interferensiya ikki tilni biladigan shaxs (bilingv)larning nutqida u qo‘llaydigan tillarning o‘zaro ta’sirida kuzatiladi. Bu o‘zaro ta’sir nutqda, tilda, shuningdek, har qanday til osti tizimlarida: fonetikada, grammatikada, leksikada namoyon bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlarda “interferensiya” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Shu bois bu tushuncha haqida yagona fikr mavjud emas. Interferensiya ba’zan til me’yoriga, ba’zan “lingvistik” aralashuvga, ba’zan esa faqat tilning grammatik tuzilmasi bilan bog‘lanadi.

E. Xaugenning fikricha, “interferensiyani faqat ikki tillilik shakllanishidan avval tilning holatini boshlang‘ich nuqta sifatida qabul qilgandagina aniq belgilash mumkin” [Xaugen 1972: 344].

V.Yu. Rozensveyg interferensiyani “bilingv shaxs tomonidan qo‘llaniladigan tillar o‘rtasidagi muvofiqlik qoidalarining buzilishi bo‘lib, bu uning nutqida me’yordan og‘ish tarzida namoyon bo‘ladi” deb ta’riflaydi [Rozensveyg 1972: 4].

Yu.Yu. Desheriyeva interferensiyani: “...lisoniy yoki nolisoniy (madaniy) unsurlarning o‘zaro ta’siri natijasida salbiy til materialining yuzaga kelishi” deb talqin qiladi [Desherieva 1981: 33].

Demak, interferensiya “keng ma‘noda ikki tillilik sharoitida til tizimlarining o‘zaro ta‘sirini; ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me’yorining buzilishini ifodalaydi. Tor ma’noda ikki tilli shaxsning og‘zaki va yozma nutqida ona tili ta’sirida ikkinchi til me’yorlarining

buzilishini anglatadi" [Slovar sotsiolingvisticheskix terminov 2006: 82].

Umuman, ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tilga ko‘rsatgan har qanday ta’siri va bu ta’sirning natijasi interferensiya deyiladi. Odatda, interferensiya deganda, faqat nazorat qilib bo‘lmaydigan jarayonlar tushuniladi, ongli ravishdagi o‘zlashmalar unga taalluqli bo‘lmaydi.

Interferensiyaning yo‘nalishlari turlicha bo‘lishi mumkin. Ona tilining ikkinchi tilga interferensiyasi ko‘proq kuzatiladi. Biroq ikkinchi til asosiy tilga aylanganida u ham ona tiliga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, o‘zbek bolasi ruslar yashovchi hududga ko‘chib boradi va rus maktabida o‘qiy boshlaydi. Asta-sekin rus tili uning ona tiliga ta’sir qila boshlaydi va u ko‘proq rus tilida gapira boshlaydi. Binobarin, uning nutqida “*Mam, ujin qilamizmi*?”, “*Ponedelnik kuni fizkultura bor*”. Yoki ko‘p yillar davomida chet elda muhojir bo‘lib yashagan o‘zbeklarning nutqida ham bu ta’sirni ko‘rish mumkin. Masalan, “*Hammasi okey bo‘ladi*”, “*O, yes! Zo‘r bo‘ldi*” [Usmanova 2015: 12].

“Ona tilining interferension ta’siri masalasi alohida e’tiborni talab qiladi, chunki ikkinchi tilni o‘rgatish amaliyotida ikki tillilarning nutqidagi deyarli barcha xatolarni ona tili interferensiyasi bilan izohlashga moyillik paydo bo‘lgan, bu esa ko‘pincha xatolarning oldini olish va to‘g‘rilash usullarining noto‘g‘ri tanlanishiga olib keladi” [Sukunov 1984: 36].

Ikki tillilikning rivojlanishidagi qiyinchiliklar, avvalo, salbiy interferensiya bilan bog‘liq bo‘lib, u ona tilidagi transferativ ko‘nikmalarning ikkinchi tildagi nutqqa ko‘chishiga sabab bo‘ladi. Bunday ko‘chishning sabablaridan biri, masalan, ona tili va o‘rganilayotgan tilning artikulyatsiya bazalari hamda fonologik tizimlaridagi farqlardir. Bu holatda interferensiya ikkinchi til tovushlarini ona tili tovushlariga tenglashtirishda namoyon bo‘ladi (o‘ziga xos talaffuz aksenti) [Magomedova 2013]. Bu jarayonning obyektivligi va o‘z-o‘zidan yuz berishi kishining begona tilni “ona tili prizmasi orqali ko‘rishi” [Bernshteyn 1975: 7], ikkinchi tilni “ona tilining fonologik elagidan o‘tkazishi” [Trubetskoy 1960: 59] bilan izohlanadi.

Fonetik interferensiya ikki tilli shaxs nutqida aloqadagi tillarning fonetik tizimidagi o‘zaro ta‘sir hodisasi bo‘lib, talaffuzdagi aksentda namoyon bo‘ladi.

Fonologik tizimlaridagi farqlarni koreys va o‘zbek tillarining qiyosida kuzatishimiz mumkin.

Koreys va o‘zbek tillarining oltoy tillari oilasiga mansubligi o‘zbeklar uchun koreys tilini o‘rganishning nisbatan osonroq kechishini ta’minlaydi. Shuningdek, koreys va o‘zbek tillari agglyutinativ tillar hisoblanadi. Har ikkala tilning so‘z tartibi deyarli bir xil, ya’ni S+O+V (Subyekt-Obyekt-Fe’l) ko‘rinishida bo‘ladi. Bu har ikkala tilni o‘zlashtirish va ikki til o‘rtasida tarjima jarayonining ham yengilroq o‘tishiga sabab bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, koreys va o‘zbek tillari o‘rtasidagi qator farqlar yuzaga chiqadi. Mazkur farqlar interferensiya hodisasining turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishiga olib keladi. Chunonchi, koreyslar Hangul alifbosidan, o‘zbeklar lotin yoki kirill alifbosidan foydalanadilar. Koreys tilida fe’l hurmat darajasiga ko‘ra, o‘zbek tilida esa, fe’l shaxs va zamonga ko‘ra o‘zgaradi. Koreys tilida mavjud bo‘lgan ayrim tovushlar o‘zbek tilida uchramaydi. Masalan:

1) /ㅇ/ tovushi so‘z boshida bo‘sh tovush sifatida (zero consonant) ishlatiladi – bu holat o‘zbek tilida mavjud emas.

2) /ㅃ/- [pp], /ㄸ/- [tt], /ㅉ/ - [jj] kabi kuchaytirilgan qo‘sh undoshlarni o‘zbek tilidagi odatiy juftliklar bilan adashtirish.

3) so‘z urg‘usining yo‘qligi yoki juda noaniq ifodalanishi – o‘zbek tilida urg‘u muhim ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlarda noto‘g‘ri talaffuzga olib keladi.

Odatda, koreys tilini o‘rganayotgan o‘zbek o‘quvchisi “바빠요” (bappayo – “bandman”) so‘zidagi “ㅃ” [pp] qo‘sh undoshni oddiy “ㅂ” [p] sifatida talaffuz qiladi: *bapayo* → noto‘g‘ri talaffuz.

Yoki, aksincha, “koreyslarning o‘zbekcha nutqida <r> va <l> undoshlarining farqlanmasligi (karavot → kalavot, marta → malta), <z> undoshining <j> (Zuhra → Juhra, zo‘r → jo‘r, zirak → jirak), <f> undoshining <p> deb talaffuz qilinishi (hafta → hapta, fasl → pasl) va h.k.” [Usmanova 2015: 13].

Grammatik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili grammatik tuzilishining ta’siri. Bu kelishiklarni qorishtirish (uyga boradi → uyda boradi), fe‘l zamonlarini nomuvofiq qo‘llash (ertaga keldi), son+ot+-lar qolipini qo‘llash (ikki kishilar) va h.k.

Ma’lumki, koreys tilining *yejol* deb nomlangan hurmat shakllari tinglovchiga hurmat ko‘rsatish darajasiga ko‘ra 6 turga ajraladi: 1) “xaera” so‘zlashuv shakli; 2) “banmal” so‘zlashuv shakli; 3) “xage” so‘zlashuv shakli; 4) “xao” so‘zlashuv shakli; 5) “xaeyo” so‘zlashuv shakli; 6) “xapshio” so‘zlashuv shakli [Suh 1994: 909].

Koreys tilini o‘rganayotgan boshqa xorijliklar singari, o‘zbeklarning nutqida ham eng ko‘p ana shu *yejol* deb nomlangan hurmat shakllarida interferensiya hodisasi keng tarqalgan. Masalan, aksariyat hollarda fe’llarning hurmat shakllari noto‘g‘ri qo‘llaniladi. Misol uchun, o‘quvchi o‘qituvchiga “먹어” [meogeo] (me’yoriy norasmiy) deyishi mumkin, holbuki, bu hurmatsizlik bo‘ladi. To‘g‘risi: “드세요”

[deuseyo]. Yoki o‘quvchi: o‘qituvchi 없어 [eobseo], 없어요 [eobseoyo] deyishi mumkin. Aslida 교수님 알겠습니다 [gyosunim algessseubnida] deyishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Leksik-semantik interferensiya – aloqadagi tillarning leksik-semantik darajadagi o‘zaro ta‘siri, so‘zdagi ma’nolar farqliligi natijasida ikki tilli shaxs nutqida me‘yorlarning buzilishi; so‘zlarning bog‘lanishidagi buzilish; parafaziya (nutqda biron so‘zni boshqa so‘z o‘rnida noto‘g‘ri qo‘llash) va h.k. Masalan, *dugonam uylandi* 시집 가다 [sijib gada]; og‘aynim turmushga chiqdi 장가 가다 [jangga gada]. [Usmanova 2015: 13].

O‘zbek tilida onaning onasiga ham, otaning onasiga ham *buvi*, onaning otasiga ham, otaning otasiga ham *buva* deyilsa, koreys tilida otaning onasiga 할머니 [halmeoni], otaning otasiga 할아버지 [halabeoji], onaning onasiga 외할머니 [oehalmeoni], onaning otasiga 외할아버지 [oehalabeoji] deyiladi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida onaning onasi // otaning onasi, onaning otasi // otaning otasi kabi tushunchalar mavjud bo‘lsa-da, ularni ifodalash uchun faqat ikki so‘z: *buvi* va *buva*dan foydalaniladi. Koreys tilida esa bu tushunchalarning har biri alohida so‘zlar (할머니 [halmeoni], 할아버지 [halabeoji], 외할머니 [oehalmeoni], 외할아버지 [oehalabeoji] vositasida ifodalangan [Usmanova 2013: 154].

Demak, yuqoridagi holatlarda ham interferensiya kuzatiladi.

Aytilganlar bilan birga, so‘zlar o‘rtasida soxta sinonim yoki soxta tarjima hodisasi yuz beradi. Masalan, koreys tilidagi “배” [bae] so‘zi “qorin”, “nok” hamda “kema” singari bir nechta ma’nolarga ega. Til o‘rganuvchi buni faqat bitta ma’noda talqin qilishi mumkin, bu esa kontekstdan noto‘g‘ri foydalanishga olib keladi.

Sintaktik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili sintaksisi ta’sirida sintaktik qoidalarning buzilishi:

저에게 자동차가 있어요 [jeoege jadongchaga isseoyo]. (Menda mashina bor.) Interferensiya: 나는 자동차가 있다 [naneun jadongchaga issda]. 비가 오지만 저는 갔어요 [biga ojiman jeoneun gasseoyo]. (Yomg‘ir yog‘di, lekin men bordim.) Interferensiya: 비가 왔어요. 그러나 저는 갔어요 [biga wasseoyo. geuleona jeoneun gasseoyo].

저는 회사에 갑니다 [jeoneun hoesae gabnida]. (Men ishga boraman.) Interferensiya:저는 일에 갑니다 [jeoneun ile gabnida]. 키가 크다 [kiga keuda]. (Bo‘yi baland) Interferensiya:키가 높다 [kiga nopda]. 여행을 가다 [yeohaeng-eul gada]. (Sayohatga bormoq)

Interferensiya:여행에 가다 [yeohaenge gada]

Xulosa. Umuman, koreys tilini o‘rganishda interferensiya hodisasi tabiiy jarayon bo‘lib, uni to‘liq yo‘qotish qiyin, ammo uni kamaytirish va to‘g‘ri yo‘naltirish mumkin. Ona tilining tuzilmasi va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi farqlarni chuqur tahlil qilish, fonetik va grammatik mashqlarni maqsadli tashkil etish orqali salbiy interferensiyani kamaytirish mumkin. Shuningdek, qiyosiy usul vositasida koreys va o‘zbek tillari strukturasi o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatish orqali o‘quvchilarda tahliliy yondashuv imkoniyatini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хауген Э. Процесс заимствования // Новое в лингвистике. – М.,1972. Вып.6. С. 344-382.
2. Розенцвейг В.Ю. Языковые контакты. – Л., 1972.
3. Дешериева Ю.Ю. Проблема лингвистической интерференции в современном языкознании // Теоретические проблемы социальной лингвистики. – М., 1981.
4. **Словарь социолингвистических терминов. –** М., 2006.
5. **Усманова Ш. Нутқий мулоқотда** *кодлар ўзгариши* **ва интерференциянинг намоён бўлиши** // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. Илмий тўплам. № 6. – Тошкент: ТошДШИ, 2015. Б. 9–13.
6. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013. Б. 152–156.
7. Сукунов Х.Х. Структурно-типологический анализ развития национально-русского двуязычия. – Нальчик,1984.
8. Магомедова Т.И., Дибирова З.Я. **Сопоставительная лингвистика и проблема интерференции в условиях дагестанского полиязыкового контекста обучения //** Jazyk a kultúra *čís*lo 14/ 2013.
9. Бернштейн С.И. Вопросы обучения произношению применительно к преподаванию русского языка иностранцам//Вопросы фонетики и обучение произношению. – М., 1975.
10. Suh J.S. Gugo munbop. – Seoul: Bburigipinnamu, 1994.

Roza TURDIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
1-kurs tayanch doktoranti

ZOONIMLARNING UMUMIY VA MILLIY O‘ZIGA XOSLIKLARI: O‘ZBEK, QORAQALPOQ VA INGLIZ MAQOLLARIDA AKS ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi zoonim komponentli maqollar lingvokognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqolda hayvonot olamiga oid so‘zlar orqali xalq mentaliteti, tafakkuri, ijtimoiy qadriyatlari qanday ifodalangani o‘rganiladi. Qiyosiy tadqiq asosida uch tildagi zoonimlar semantik-kognitiv jihatdan tahlil qilinadi va ularning umumiy hamda milliy xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *zoonim, maqol, lingvokognitiv yondashuv, metafora, konsept, milliy tafakkur, semantik maydon.*

Annotation: this article analyzes proverbs with zoonym components in Uzbek, Karakalpak, and English using a linguocognitive approach. It examines how proverbs express the mentality, thinking, and social values of the people through words related to the animal world. Based on a comparative study, zoonyms in the three languages are analyzed semantically and cognitively, and their general and national characteristics are revealed.

Key words: *zoonym, proverb, linguocognitive approach, metaphor, concept, national thinking, semantic area.*

Аннотация: в данной статье анализируются пословицы с зоонимным компонентом в узбекском, каракалпакском и английском языках на основе лингвокогнитивного подхода. В статье изучается, как пословицы выражают менталитет, мышление и социальные ценности народа через слова, связанные с животным миром. На основе сопоставительного анализа проводится семантический и когнитивный анализ зоонимов в трёх языках, выявляются их общие и национальные особенности.

Ключевые слова: *зооним, пословица, лингвокогнитивный подход, метафора, концепт, народная мысль, семантическое поле.*

Kirish. Tafakkur mahsuli sifatida shakllangan maqollar xalq og‘zaki ijodining noyob namunalaridan biridir. Ayniqsa, hayvonot olamiga oid so‘zlar — zoonimlar yordamida yaratilgan maqollar xalqning real hayotga bo‘lgan munosabatini, ijtimoiy qadriyatlarini va milliy tafakkur tarzini ifodalaydi [Qurbonova S. 2018]. Lingvokognitiv yondashuv bu jarayonni tahlil qilishda muhim nazariy vosita hisoblanadi. Chunki bu yondashuv nafaqat til birliklarini o‘rganadi, balki ularning orqasida turgan konseptual tizim, tafakkur modeli va madaniyatni ochib beradi [Qodirova G. 2020].

Mazkur maqolada o‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillarida ishlatiladigan zoonim asosli maqollar lingvokognitiv jihatdan o‘rganiladi, ularning semantik yuklamasi, milliy va universal xususiyatlari tahlil qilinadi.

Zoonimlar va lingvokognitiv yondashuvning nazariy asoslari.

Zoonimlar — hayvonlarga oid nomlar bo‘lib, tilda ko‘pincha metaforik ma’noda qo‘llanadi. Maqollarda esa ular o‘zining ko‘p qatlamli semantik yukiga ega bo‘ladi: hayvonning tashqi qiyofasi, xatti-harakati, jamiyatdagi stereotipik tasavvuri, insoniy fazilatlar bilan taqqoslanishi orqali boy ma’no kasb etadi.

Lingvokognitiv yondashuv bu so‘zlarning til vositasi sifatidagi funksiyasidan tashqari, ular orqali ifodalangan kognitiv konseptlarni ham ochib beradi. Masalan, tulki so‘zining o‘zbek tilidagi maqollarda hiyla-nayrang, ayyorlik konseptlarini ifodalashi:

• Bir tulki yetti bo‘rini yetaklar.

Bu maqolda “tulki” hayvon sifatida emas, balki konseptual model – “ayyor inson” sifatida qatnashadi. Xuddi shunday funksional yuklama qoraqalpoq va ingliz tillarida ham kuzatiladi.

Zoonim asosli maqollarning semantik-kognitiv xususiyatlari.

O‘zbek tilidagi maqollarda zoonimlar.

O‘zbek maqollarida zoonimlar ko‘pincha insoniy fazilatlarning ramziga aylangan:

- It hurar, karvon o‘tar. — Bu maqolda “it” salbiy holat (g‘iybat, to‘siq), karvon esa ijobiy harakat (harakat, baraka) ramzi.
- Eshagidan tushovi qimmat.

• Eshak ishi bilan kuchli, To'ng'iz – tishi bilan. — Eshak kuch va sabr, ammo qadrsizlik bilan bog'liq.

Qoraqalpoq tilidagi maqollarda zoonimlar.

Qoraqalpoq maqollarida ham zoonimlar xalqning real hayotiy kuzatuvlari asosida konseptual ma'no kasb etadi:

• Qasqırdan qorxpa, içindegi itten qorq. — bu yerda "qorq" (qo'rqmoq) zo'ravonlik emas, ichki hiyla (it)dan ehtiyot bo'lish g'oyasini bildiradi.

• Aqıl qoyan qapsa, tüş körmegen etek qaşır. — "quyon" (qo'rqoq obraz), ammo bu yerda metafora orqali aqlli bo'lish zarurligi uqtiriladi. [Ismayilova R. 2021]

Ingliz tilidagi maqollarda zoonimlar.

Ingliz tilidagi maqollarda zoonimlar ko'pincha universal tushunchalarni ifodalaydi, ba'zida esa ijtimoiy stereotiplar asosida yaratiladi [Lakoff G. 1980]:

• Let sleeping dogs lie. — "It" bu yerda bezovta qilmaslik kerak bo'lgan narsalar ramzi.

• Don't count your chickens before they hatch. — "Chickens" (jo'jalar) reja va haqiqat orasidagi tafovutni bildiradi.

Qiyosiy tahlil: umumiylik va milliy xususiyatlar

Zoonim	O'zbek maqoli	Qoraqalpoq maqoli	Ingliz maqoli	Konsept
It	It hurar, karvon o'tar	Peyli jaman adamdı, Túyenıı ústinen iyt qabar	Let sleeping dogs lie	Salbiy inson, to'siq
Tulki	Bir tulki yetti bo'rini yetaklar	Arıslanday kúshiń bolsa, Túlkidey ádisiń bolsın	As sly as a fox	Ayyorlik
Eshak	Eshakka minmagan — yo'l bilmaydi	Eshektiń eti haram, Kúshi hadal	(yo'q yoki kam uchraydi) Talk the hind legs off a donkey (idiom)	Og'ir mehnat, sabr
Qarg'a	Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi	Jalǵız ǵarǵanıń úni shıqpaydı.	The crow went traveling abroad and came back just as black.	O'zaro himoya

Bu jadvaldan ko'rinadiki, ayrim zoonimlar (masalan, tulki, it, qarg'a) barcha tillarda muayyan ijtimoiy-tarixiy stereotiplar asosida shakllangan umumiy konseptual birliklarni ifodalaydi. Biroq ularning ifoda uslubi va semantik og'irligi milliy tafakkurga bog'liq ravishda farq qiladi.

Xulosa. Zoonim komponentli maqollar xalq tafakkurining chuqur qatlamlariga oid bo'lib, ularning lingvokognitiv tahlili orqali til va tafakkur o'zaro qanday bog'liqligi yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillarida hayvonot olamiga oid obrazlar orqali shakllangan konseptlar o'ziga xos milliy koloritga ega bo'lsa-da, ba'zi hollarda universal xususiyatlarga ham ega. Ushbu maqolada tahlil qilingan zoonimlar insoniy fazilatlar, ijtimoiy stereotiplar va madaniy qadriyatlarni anglash uchun muhim kognitiv kalit bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қурбонова С. "Мақоллар семантикаси ва миллий хусусиятлари", – Тошкент, 2018.
2. Қодирова Г. "Зоонимлар семантикаси ва когнитив талқини", Фан, 2020.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Ismayilova R., Allamuratova G. "Қорақалпоқ ва ўзбек тилларида зоонимлар", – Нукус, 2021.
5. Mieder, W. Proverbs: A Handbook, Greenwood Press, 2004.

Sarvinoz SHARIPOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs tayanch doktoranti

O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI MATN TURLARI ORQALI RIVOJLANTIRISHDA ILMIY VA IJODIY TAFAKKUR QILISHGA O‘RGATISH MAZMUNI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda matn turlarining ahamiyati ochib beriladi. Rasmiy, ilmiy va badiiy matnlar ustida ishlash orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari ko‘rsatiladi. Ona tili darsliklaridagi mashq va topshiriqlar nutq madaniyatini yuksaltirish hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *nutqiy kompetensiya, matn turlari, ilmiy tafakkur, ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash, rasmiy va ilmiy uslub, badiiy matn, nutq madaniyati.*

Аннотация: в статье раскрывается значение видов текста в развитии речевой компетенции учащихся. Показано, как развивать научное мировоззрение, творческое мышление и навыки самостоятельного мышления у учащихся на основе работы с официальными, научными и художественными текстами. Подчеркивается, что упражнения и задания в учебниках родного языка способствуют совершенствованию культуры речи и развитию творческого мышления.

Ключевые слова: *речевая компетентность, типы текста, научное мышление, творческое мышление, самостоятельное мышление, официально-научный стиль, художественный текст, культура речи.*

Annotation: the article reveals the importance of text types in developing students’ speech competence. It shows ways to form a scientific worldview, creative thinking and independent thinking skills in students through working on official, scientific and artistic texts. It is emphasized that exercises and tasks in native language textbooks serve to improve speech culture and develop creative thinking.

Key words: *speech competence, text types, scientific thinking, creative thinking, independent thinking, formal and scientific style, artistic text, speech culture..*

Kirish. Ona tili darslarini tashkil qilish jarayonida o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri nutqiy va kommunikativ malakalarini, ilmiy, ijodiy fikrlashini matn turlari orqali olgan bilimlariga asoslanib, yoza olish qobiliyatini rivojlantirish bilan, ularni ilmiy, ijodiy tafakkur qilishga o‘rgatish bilan chambarchas bog‘liq. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali takomillashtirishda ularning egallagan bilimi bilan bir qatorda, ijodiy, ilmiy fikrlashini bayon qilishi talab qilinadi. Bu jarayonda matn mazmunini aniq bayon qilish, tahlil qilish hamda qayta bexato yoza olish nazarda tutiladi. Bu kabi vazifalar asosida ilmiy va ijodiy dunyoqarashni, tafakkurni rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammolari pedagog olimalar R.G‘. Safarova[1], N. Ataqulova[2]lar tomonidan o‘rganilgan. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash rivojlanishi uchun ko‘proq ilmiy adabiyotlar bilan tanishish zarur deb hisoblaymiz. Badiiy matn vositasida o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, obrazli fikrlash, badiiy idrok qilish ko‘nikmasining egallanganligi muayyan bosqichlarda amalga oshadi. Professor E.G‘oziyev “Ijodiy tafakkur – murakkab bilish faoliyatidan biri bo‘lib, tadrijiy ravishda, o‘zaro bog‘langan izchil protsesslardan tashkil topadi”[3] deb qayd etib o‘tgan. B.X.Raximovning doktorlik dissertatsiyasida keltirilishicha, “O‘quvchilarning ijodiy ishlari tafakkurni o‘stirish omili ekanligi, o‘quvchilarni og‘zaki va yozma ijodiy ishlarga undash ularning kamoloti yo‘lida muhim ahamiyat kasb etishi tekshiriladi. Mustaqil faoliyat va ijodiy ishlar o‘z-o‘zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil fikri, o‘z nuqtai nazari bo‘lmagan o‘quvchi ijod qilolmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi”[4]. Ilmiy va ijodiy tafakkur qilish uchun o‘quvchilarni ilmiy, badiiy kitoblarni o‘qish, o‘rganish bilan, kitobxonlik bilan shug‘ullanishga, kitob mutolaasiga qiziqish uyg‘otish ijobiy natija beradi. Shu bilan birga, ilmiy va rasmiy, ilmiy va badiiy matnlarning o‘ziga xos xususiyatlari va bir- biridan differensial jihatlarini, eng asosiysi, bu

1 Сафарова Р.Г. Шахсни шакллантириш омиллари\\ таълим тараккиёти. – Ж., 2001. Б.60-63.

2 Атакулова Н.А. Таълим жараёнида ўқувчиларда илмий дунёкарашни шакллантириш. Монография. – Т., 2016. Б.11.

3 Газиев Э.Г.Управление учебной деятельностью школников. – Т.: Фан. 1986. С.66.

4 Рахимов Б.Х. Талаба ёшларни илмий тадкикот ишларига йуналтиришнинг ижтимоий педагогик асослари.монография. – Т.: Фан. 2007. Б 11- 20.

matnlarga tanlanadigan leksik va morfologik birliklarni tanlashni bilishga yo‘naltirish ayni muddaodir. Rasmiy va ilmiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. So‘zlar o‘z ma’nosi (denotativ)da va har bir sohaning o‘ziga xos terminlaridan foydalaniladi.

2. Darak gaplar, qaror, buyruq ko‘rsatmalardan foydalaniladi

3. Gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi.

4. Rasmiy uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, lo‘nda barcha uchun tushunarli qilib tuziladi.

5. Tasviriylik va majoziylikka yo‘l qo‘yilmaydi.

6. Buyurish va undash ohangi kuchli bo‘ladi.

7. Rasmiy hujjatlarning qolip matnlari – tayyor andozalari ishlab chiqilgan.

8. Yozma nutq shaklida amal qilinadi. Ifoda aniq, ixcham, izchil va tushunarli bo‘ladi[5]. Rasmiy matndagi asosiy maqsad zamirida aniqlik va ixcham fikr ifodalanadi.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda tuzib chiqilgan, amaldagi o‘quv dasturi va 2019-2022-o‘quv yillari mazmun, ko‘rinish, shakl jihatdan yangi tuzilgan “Ona tili” darsliklari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiya elementlari matn turlari orqali yuqori darajada takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, 8-sinf “Ona tili”[6] darsligida ma’lumotnoma, ijodiy-tavsifiy matn, inshoning mavzu va mazmuniga ko‘ra turlari, matn, mumtoz matn va lug‘at bilan ishlash, tilshunoslikning sintaksis bo‘limi haqida umumiy tushuncha, sodda gap, qo‘shma gap, gap bo‘laklari yuzasidan tahlil, gapda tinish belgilarning ishlatilishi, uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z va unda ohang hamda tinish belgilarning qo‘llanilishi, og‘zaki nutq mahorati bo‘yicha nazorat ishlarini olish bo‘yicha mavzular, mashq, topshiriqlar, savollar, ilmiy, badiiy, rasmiy matnlar ustida ishlash berilgan. Bu darslikdagi 115-mashqda keltirilgan fikrlar mazmun-ma’noga ega nutq namunasi, ayni haqiqatdir. I. Gapirishni bilish talantdir. (Stendal) 2. Bahslashish ko‘plarning qo‘lidan keladi, oddiygina suhbatlashishni kamdan-kam kishi eplaydi. (A.Olkott) 3. Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash.(Sa’diy) 4. So‘z xulq-atvor demakdir. (L.Tolstoy) 5. So‘z gavhari garchi bordir aziz, fahmi yo‘q oldidadur bir qadrsiz. (Nishotiy) 6. Amalsiz ilm-mevasiz yog‘och. (“Otalar so‘zi”). Mazkur darslikdagi bu kabi hikmatli so‘zlarni dars jarayonida ifodali o‘qish va tahlil qilish, o‘quvchilarning bildirgan munosabatlarini taqqoslash ularning insoniy fazilatlari mujassamlashuvi, nutq madaniyati rivojiga ta’sir qiluvchi nutq namunalarini sharhlatgan bo‘lamiz. Shunisi ahamiyatliki, o‘quvchilar matn mazmunini to‘liq tushunishlari, uni mustaqil tahlil qilib izohlashlari dars davomida mashq va topshiriqlar vositasida oydinlashadi.

Xulosa. Psixolog V. P. Belyanskiy o‘quvchilarning matn mazmunini tushunib olish jarayonini quyidagi darajalarga bo‘lib ko‘rsatgan:

I. Boshlang‘ich daraja. Tinglovchining nutqiy bayonning asosiy predmeti va gap nima haqda ekanini tushunishidir.

2. Mazmun-mundarijani tushunish darajasi. Bunda tinglovchi so‘zlovchi bayon qilayotgan nutqning nima haqda ekanini anglaydi.

3. Eng yuqori daraja. U nutqda bayon qilinayotgan fikr nima uchun va qanday lisoniy vositalar bilan berilganining tushunilishi bilan xarakterlanadi. Bizningcha, matnda gap nima haqda ekani, fikr qanday lisoniy vositalar orqali berilganiga e’tibor berishi hamda matnning mazmuniga munosabat paydo bo‘ladi va matndagi leksik birliklarning lug‘aviy ma’nosiga yetarlicha tushuncha hosil bo‘lmaydi. Tabiiyki, o‘quvchida savollar yuzaga keladi, ular mazmuniy yechimni izlashga kirishadi.

Xullas, o‘quvchilarning ilmiy va ijodiy tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish ularda ilmiy fikrlash va kreativ fikrlash salohiyatini o‘stiradi.

5 Абжалова М.А.Узбек тилидаги матнларни тахрир ва тахлил килувчи дастурнинг лингвистик модуллари (расмий ва илмий услубдаги матнлар тахрири дастури учун).Филол.фан.б.ф.д..(PhD). – Фарғона. 2019. 55-56-б.

6 Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. To‘rtinchi nashr. – Toshkent. 2019. 142-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Сафарова Р.Г. Шахсни шакллантириш омиллари\\ таълим тараккиёти – Ж., 2001. Б.60-63.

2.Атакулова Н.А. Таълим жараёнида ўқувчиларда илмий дунёкарашни шакллантириш. Монография. – Т., 2016. Б.11.

3.Газиев Э.Г.Управление учебной деятельностью школников. –Т.: Фан,1986. С 66

4.Рахимов Б.Х. Талаба ёшларни илмий тадкикот ишларига йўналтиришнинг ижтимоий педагогик асослари. монография. – Т.: Фан. 2007. Б. 11-20.

5.Абжалова М.А.Узбек тилидаги матнларни тахрир ва тахлил килувчи дастурнинг лингвистик модуллари (расмий ва илмий услубдаги матнлар тахрири дастури учун).Филол.фан.б.ф.д..(PhD). – Фарғона. 2019. Б.55-56.

6.Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B.Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. To‘rtinchi nashr. – Toshkent. 2019.142-b.

Феруза МАРДОНОВА,
док. филос.(PhD),
доц. Навоийского университета
инновации, кафедры филологии
и обучения языкам

ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ БЕССОЮЗНЫХ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В РАССКАЗАХ И ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНЕВА

Аннотация: данная статья повествует употребление бессоюзных сложных предложений в повестях и рассказах И.С.Тургенева, так как тургеневский язык – богатый источник иллюстративного материала.

Ключевые слова: *бессоюзие, повесть, рассказ, классика, художественная литература, источник, тематическая группа.*

Annotatsiya: ushbu maqolada I.S. Turgenevning hikoya va qissalarida birlashmagan murakkab jumlalarning qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi, chunki Turgenevning tili – illyustrativ materialning boy manbai.

Kalit so‘zlar: *uyushmagan, hikoya, qissa, klassika, badiiy adabiyot, manba, mavzuli guruh.*

Annotation: this article discusses the use of asyndetic complex sentences in the stories and novellas of I.S. Turgenev, as Turgenev’s language is a rich source of illustrative material.

Key words: *asyndeton, novella, short story, classics, fiction, source, thematic group.*

Ведение

При более внимательном рассмотрении материалов текстов художественных произведений И.С. Тургенева оказалось: действительно, выразительный, образный тургеневский язык - это богатый источник иллюстративного материала при анализе БСП. По мнению Л. Алексеевой, “Интерес к творчеству классика русской литературы И. Тургенева можно объяснить не только тем, что он мастер “словесной живописи”, но и тем, что богатство тургеневского языка включает и яркие образные ... синтаксические структуры”[1].

И.С. Тургенев трепетно относился к русскому языку, называл его “гибким, чарующим, волшебным”. О языке тургеневских произведений написано уже довольно много исследовательских работ. Анализу языка произведений И.С. Тургенева посвящены работы В.В. Виноградова, Е.А. Дворниковой, А.В. Дудникова, П.Г. Пустовойта, А.Г. Цейтлина и др. Авторы отмечают своеобразие стиля писателя, рассматривают особенности использования языковых средств. Между тем, “Богатство изобразительных возможностей сложных предложений, их экспрессивно-стилистические особенности создают неповторимую естественность, компактность, выразительность и поэтичность”.[2]

Данная статья посвящена исследованию бессоюзных сложных предложений в русском языке с точки зрения семантики, структуры и функционального аспекта, а также рассмотрению специфики данных конструкций в различных контекстах. Цель работы – выявить семантические и функциональные особенности бессоюзных сложных предложений в повестях и рассказах И.С.Тургенева.

Исследование опирается на контекстуальный анализ, а также на современные подходы к описанию бессоюзных предложений, что позволяет рассматривать подобного рода конструкции как коммуникативно значимый элемент синтаксической системы русского языка

Методология исследования. Методологическую основу работы составляют дескриптивный метод – для описания синтаксических особенностей бессоюзных конструкций, семантический анализ – для выявления значений и контекстуальной обусловленности аналогичных предложений, стилистический анализ – при изучении функций употребления бессоюзных сложных предложений, сопоставительный метод – для выявления различий в функционировании бессоюзных конструкций.

Материалом исследования послужили синтаксические описания бессоюзных конструкций в повестях и рассказах И.С.Тургенева.

Результаты и обсуждение. Основным средством связи в БСП считают интонацию (интонация перечисления, интонация сопоставления, интонация противопоставления, паузирование, понижение голо-

1 Алексеева, Л. Семантико-стилистические особенности функционирования сложных многочленных конструкций в идиостиле И. Тургенева / Л. Алексеева. URL: https://revolution.allbest.ru/languages/01301061_0.html (дата обращения: 20.04.2023). – Текст : электронный.

2 Алексеева, Л. Семантико-стилистические особенности функционирования сложных многочленных конструкций в идиостиле И. Тургенева / Л. Алексеева. URL: https://revolution.allbest.ru/languages/01301061_0.html (дата обращения: 20.04.2023). - Текст : электронный.

са, повышение голоса). К числу других средств относят:

1. Опорные слова (глаголы восприятия, отвлеченные имена). Например: “Вдруг я чувствую: кто-то берет меня за плечо и толкает”.[3] Герой описывает свои ощущения и переживания, и эти слова являются частью его внутреннего монолога, отражающего его состояние и восприятие окружающего мира.

2. Анафорические местоимения: “Сам г-н Ожогин остался дома; у него от слишком продолжительного сна голова разболелась”.[4]; “Капитона выпустили из чуланчика: дело все-таки до него касалось”.[5]

3. Повтор: “Отец мой был страстный игрок; мать моя была дама с характером ... очень добродетельная дама”.[6] Герой описывает своих родителей. “Князь обращался с ним весьма дружелюбно; князь, можно сказать, уважал его”.[7]

4. Слова одной тематической группы: “Погода была скверная ... мелкий дождь с упорным, тонким скрипом струился по стеклам; влажные, темно-серые тучи недвижно висели над городом”.[8]

5. Порядок следования предикативных частей. Например: в предложениях “Я пошел вслед за ним; на лестнице он остановился”.[9] Порядок следования ПЧ является закрепленным.

6. Параллелизм строения. Например: “Колобердяев больше действовал; Бизьменков больше наблюдал за ним”.[10]

7. Общность видо-временных форм сказуемых в предикативных частях. Например: “Желтые тонкие былинки грустно качались над побледневшей травой; по темно-бурым, обнаженным сучьям орешника попрыгивали проворные синицы; запоздалые жаворонки торопливо бегали по дорожкам; кой-где по зеленям осторожно пробирался заяц; стадо лениво бродило по жнивью”[11] (сказуемые выражены глаголами в форме прошедшего времени несовершенного вида. Кроме того, все глаголы объединены общей семой “движение”).

Как показывает анализ, в текстах художественных произведений И.С. Тургенева достаточно велика доля многочленных бессоюзных сложных предложений. Писатель пользуется такими синтаксическими конструкциями для описания природы: пейзажные зарисовки И.С. Тургенева отличаются особой поэтичностью, красочностью, для создания портрета героев, для создания психологического портрета, для описания внешности, в повествовании для передачи последовательных действий и т.д. Например: “Молодые яблони кое-где возвышались над поляной 1; сквозь их жидкие ветви кротко синело ночное небо 2, лился дремотный свет луны 3; перед каждой яблоней лежала на белеющей траве ее слабая тень 4”; “Она как будто выросла, выпрямилась 1; все черты ее лица, особенно губы, словно определились 2 ... взгляд стал глубже, тверже и темнее 3”.

В текстах И.С. Тургенева количество ПЧ может составлять от 3 до 6. Л. Алексеева отмечает: “Сложные многочленные предложения (СМП) в идиостиле И. Тургенева являются классическим проявлением синтагматической прозы XIX века и синтаксической организации текстов автора. Преобладание смешанных СМП с разными видами связи предикативных единиц и вставными конструкциями в повестях - особая черта синтаксической организации текстов писателя”.

В произведениях И.С.Тургенева встречаются также БСП однородного и неоднородного состава. В БСП однородного состава части равноправны грамматически и по смыслу. Такие БСП соотносят со сложносочиненными предложениями. Например: “Приятели велели доложить о себе; их провели в гостиную”. [12] Структура БСП однородного состава открытая, присутствует перечислительная интонация. Напротив, БСП неоднородного состава обладает закрытой структурой, его части неравноправны в семантическом и грамматическом плане. Например: “Спешу заметить: Лиза нисколько не была в меня влюблена”. [13]

БСП неоднородного состава делятся на предложения с дифференцированными отношениями и предложения с недифференцированными отношениями. “К предложениям с дифференцированными отношениями относятся: 1) изъяснительно-объект-ные; 2) предложения с причинными, сопоставительными, пояснительными, сравнительными отношениями”.[14] Например: “Я долго не

3 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Рассказ “Дневник лишнего человека”. 1850. С. 126.

4 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Повесть “Дневник лишнего человека , С. 136.

5 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Рассказ “Муму”. С.210.

6 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. – Текст : непосредственный. Повесть “Дневник лишнего человека”.1850. С. 124.

7 Там же. С.148.

8 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Повесть “Андрей Колосов”. Т. 4. М.: “Наука”, 1980. С. 42.

9 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. - Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. – Текст : непосредственный. Повесть “Вешние воды”.1872. С. 41.

10 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. – Текст : непосредственный. Повесть “Дневник лишнего человека”. С.156.

11 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. – Текст : непосредственный. Повесть “Андрей Колосов”. С. 38.

12 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. – 336 с. – Текст : непосредственный. Рассказ “Два приятеля”. Журнал “Современник” в 1853.С. 291.

13 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. – 336 с. – Текст : непосредственный. Повесть “Три портрета” .1846. С.137.“Тургенев И.С. “Дворянское гнездо”. 1859. Журнал “Современник”.

14 Бабайцева, В.В. Современный русский язык. Теория. Анализ языковых единиц. В 2 ч. Ч 2. Морфология. Синтаксис : учебник / В.В.

мог начать речи: так сильно билось во мне сердце”.[15] В данном случае в БСП с дифференцированными отношениями представлено указание на причину.

В основном, сложности возникают при отграничении БСП от других типов предложений, при использовании терминологии, при полном синтаксическом анализе (особенно многочленных БСП), при пунктуационном анализе БСП. Например, в сложном бессоюзном многочленном предложении “С одной стороны сада липы смутно зеленели, облитые неподвижным, бледно-ярким светом 1; с другой - они стояли все черные и непрозрачные 2; странный, сдержанный шорох возникал по временам в их сплошной листве 3; они как будто звали на пропадавшие под ними дорожки, как будто манили под свою глухую сень 4”. 3 и 4 ПЧ не связаны союзом: “как будто” в позиции перед глаголом-сказуемым выполняет роль обстоятельства, выраженного наречием. Следовательно, мы имеем дело с бессоюзной связью.

Заключение. Проведённый анализ показал, что в пунктуационном отношении БСП характеризуются многообразием: между ПЧ возможна постановка запятой, двоеточия, тире, точки с запятой. Как показывают наши наблюдения, И.С. Тургенев наиболее часто использовал знак “точка с запятой”. В произведениях И.С. Тургенева наблюдаем: “Я узнал его тотчас; он почти не изменился”; “Между тем в саду раздавались крики; толпа народа бежала к беседке”.[16]; “После обеда папаша спит; нам никто не помешает”; “Горбатая старушонка накрыла на стол; мы сели ужинать”.[17]; “Каждый излагал свое мнение как умел; голоса возвысились и зашумели”. [18]

Второй по частоте использования знак - “двоеточие”. Например: “Но она не обращала на меня внимания: пристальный взор ее вперился в толпу”.[19] ; “Аким глянул в окошко, нахмурился и потупился: из тележки, не торопясь, вылезал Наум”.[20] ; “Меня щадили, как больного: я это видел”. [21] Этот знак употребляется при указании на причину, при пояснении, в случаях, когда одна из ПЧ раскрывает содержание другой ПЧ.

Используется знак “запятая” при перечислении событий, действий: “Ольга вскрикнула и вскочила, котенок поднял хвост и прыгнул в сад, Василий Иванович с улыбкой удержал ее за руку”.[22]; “Между тем солнце закатилось, заря начала гаснуть”.[23]

Знак “тире” также используется И.С. Тургеневым: “Вы подходите - лес превращается в высокую грядку полыни на меже; Вы проходите мимо дерева - оно не шелохнется: оно нежится; Глянешь с горы - какой вид!”[24].

Таким образом, для выработки пунктуационных навыков следует использовать в качестве иллюстративного материала тексты произведений И.С. Тургенева.

Бабайцева, Н.А. Николина, В.С. Печникова ; под ред. Е.И. Дибровой. - Москва : Академия, 2011.- 624 с. - Текст : непосредственный

15 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. - Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. . Повесть “Дневник лишнего человека”. 1850. С.138.

16 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. - Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Повесть “Три портрета”. 1846. С.122.

17 Там же. С.32.

18 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. - Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Рассказ “Три встречи”. 1852..С.23.

19 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. - Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Рассказ “Три встречи”. 1852.С.198.

20 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. - Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Повесть “Постоялый двор”. 1852.С.245.

21 Там же. С.146.

22 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. - Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Повесть “Три портрета”. 1846.С.111.

23 Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. - Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст : непосредственный. Повесть “Призраки”. 1855.С.138.

24 Тургенев И.С. “Записки охотника” — цикл очерков. Журнал “Современник”. 1852.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Алексеева, Л. Семантико-стилистические особенности функционирования сложных многочленных конструкций в идиостиле И. Тургенева / Л. Алексеева. URL: https://revolution.allbest.ru/languages/01301061_0.html (дата обращения: 20.04.2023). - Текст: электронный.

2. Бабайцева, В.В. Современный русский язык. Теория. Анализ языковых единиц. В 2 ч. Ч 2. Морфология. Синтаксис: учебник / В.В. Бабайцева, Н.А. Николина, В.С. Печникова ; под ред. Е.И. Дибровой. – Москва : Академия, 2011.- 624 с. - Текст: непосредственный.

3. Малышкин В. Роман “Люди из захолустья”. 1937.

4. Тургенев, И.С. По поводу “Отцов и Детей” / И.С. Тургенев. URL: https://ru.wikisource.org/wiki/ По_поводу_%22Отцов_и_Детей%22_(Тур-генев) (дата обращения: 21.04.2023). - Текст : электронный.

5. Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст: непосредственный. Рассказ “Дневник лишнего человека”. 1850. С. 126.

6. Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва: Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст: непосредственный. Повесть “Постоялый двор”. 1852. С. 38.

7. Тургенев, А.С. Повести / А.С. Тургенев. – Москва : Сов. Россия, 1980. - 336 с. - Текст: непосредственный. Рассказ “Муму”.1852. С. 126.

Нигина АЛИБОЕВА,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Термезского государственного университета
кафедры Английского языка и литературы

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация: детская литература на английском языке представляет собой уникальный пласт текстов, обладающих специфическими психолингвистическими характеристиками. В статье рассматриваются особенности языковой обработки детских текстов, их влияние на когнитивное развитие, формирование речевой компетенции и усвоение языка. Акцент сделан на такие элементы, как ритмичность, повторяемость, использование метафор, синтаксическая упрощённость и эмоциональная насыщенность. Также исследуется роль детской литературы в процессе билингвального и раннего иноязычного образования. Анализ проводится на основе произведений классиков детской английской литературы (Льюис Кэрролл, Доктор Сьюз, Беатрис Поттер и др.), а также современных авторов. Статья имеет междисциплинарный характер, опираясь на данные психолингвистики, когнитивной лингвистики и педагогики.

Ключевые слова: *психолингвистика, детская литература, английский язык, когнитивное развитие, языкознание, билингвизм.*

Annotatsiya: ingliz tilidagi bolalar adabiyoti o‘ziga xos psixolingvistik xususiyatlarga ega bo‘lgan noyob matnlar qatlamidir. Maqolada bolalar matnlarini tilni qayta ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning kognitiv rivojlanishga ta’siri, nutq kompetensiyasini shakllantirish va tilni o‘zlashtirish ko‘rib chiqiladi. Ritm, takrorlanuvchanlik, metaforalardan foydalanish, sintaktik soddalashtirish va hissiy to‘yinganlik kabi elementlarga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, bolalar adabiyotining ikki tilli va erta xorijiy ta’lim jarayonidagi o’rni o’rganilmoqda. Tahlil bolalar ingliz adabiyoti klassiklari (Lyuis Kerol, doktor Seuss, Beatris Potter va boshqalar) hamda zamonaviy mualliflarning asarlari asosida olib boriladi. Maqola psixolingvistika, kognitiv lingvistika va pedagogika ma’lumotlariga asoslanib, fanlararo xususiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, bolalar adabiyoti, ingliz tili, kognitiv rivojlanish, tilshunoslik, ikki tillilik.*

Annotation: children’s literature in English represents a unique layer of texts characterized by specific psycholinguistic features. This article examines the linguistic processing of children’s texts, their impact on cognitive development, the formation of speech competence, and language acquisition. Special attention is given to elements such as rhythm, repetition, the use of metaphors, syntactic simplification, and emotional richness. The role of children’s literature in bilingual and early foreign language education is also analyzed. The study is based on works by classic authors of English children’s literature (Lewis Carroll, Dr. Seuss, Beatrix Potter, and others), as well as contemporary writers. The article takes an interdisciplinary approach, drawing on data from psycholinguistics, cognitive linguistics, and pedagogy.

Key words: *psycholinguistics, children’s literature, English language, cognitive development, linguistics, bilingualism.*

Детская литература – это не просто способ приобщения ребенка к культуре и языку, но и важный инструмент когнитивного и эмоционального развития. На английском языке существует богатая традиция создания произведений для детей, где языковое оформление играет ключевую роль в обучении и социализации. С точки зрения психолингвистики, детская литература представляет интерес как особый тип дискурса, адаптированный под когнитивные и языковые способности ребёнка [1].

1. Языковая адаптация и когнитивные возможности ребенка

Психолингвистика утверждает, что языковое восприятие у детей существенно отличается от взрослого. Тексты для детей адаптированы по следующим параметрам:

– синтаксическая простота: короткие предложения, прямой порядок слов (SVO), избегание пассивных конструкций [5];

– лексическая доступность: ограниченный словарь, частотные слова, использование уменьшительно-ласкательных форм;

– фонетическая выразительность: аллитерации, рифмы, ономатопея [6].

Примером является творчество Доктора Сьюза (The cat in the hat), где рифмы и повторы не только удерживают внимание ребёнка, но и способствуют запоминанию слов [6].

Так, в книге “The Very Hungry Caterpillar” Эрика Карла автор использует повторяемые фразы:

“On Monday he ate through one apple. But he was still hungry.”

В психолингвистике это называют «подкрепляющей предсказуемостью» – повторяемость грамматических и лексических структур создаёт устойчивые шаблоны в речевом сознании ребёнка [4].

2. Роль повторяемости и ритма

Повторяемость – одно из ключевых средств в детской

литературе. Повторы обеспечивают предсказуемость текста, что снижает когнитивную нагрузку и облегчает понимание [3]. Ритм и рифма усиливают эффект узнавания, что важно при формировании языковых шаблонов в рамках usage-based теорий грамматики [6].

Механизм повторяемости тесно связан с развитием рабочей памяти ребёнка. Исследования Дж. Брунера показывают, что повторение определенных лексических единиц помогает ребенку закреплять новые слова и грамматические конструкции в долговременной памяти [3].

В таких произведениях, как *Green Eggs and Ham* Доктора Сьюза, один и тот же набор слов повторяется десятки раз, что помогает ребенку не только запомнить их, но и научиться употреблять в разных контекстах:

“I do not like green eggs and ham. I do not like them, Sam-I-am.”

Ритм и рифма выполняют также просодическую функцию – они способствуют формированию интонационных моделей речи, важных для развития беглой и связной речи

3. Эмоциональная и образная насыщенность

Дети склонны к образному мышлению, поэтому детская литература насыщена метафорами, сравнениями, визуальными описаниями. Это активирует правое полушарие мозга, отвечающее за воображение и эмоциональное восприятие, и формирует ассоциативные связи между словами и образами [7].

O‘zbek bolalar adabiyoti ham XX asr boshlaridan boshlab shakllana boshladi va o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlanib, bolalar ta’limi va tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. O‘zbek bolalari uchun ixtisoslashgan maxsus badiiy adabiyot yaratish harakati izchil tusga kira boshlagan esa-da, mazkur hodisani bolalar adabiyoti atamasi bilan ifodalash, asosan, 20-yillarning boshlarida sodir bo‘ldi. O‘zbek bolalar adabiyoti allaqachon jahon bolalar adabiyoti safiga munosib ravishda kirib, qator asarlari mamlakatimizdan tashqarida ham sevib o‘qilmoqda. Demak, bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari uning o‘zgaruvchan va harakatchan tabiati, kitobxonning yoshiga, tarixiy davr va ijtimoiy muhitga bevosita bog‘liqligida mujassam bo‘ladi. Ayniqsa, bolalar adabiyotini o‘qitishda kitobxonning yoshini hisobga olish juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asarlarning oddiy va ko‘rgazmali, ezgulik va yovuzlikning sodda ziddiyatiga asoslangan bo‘lishi zarur bo‘lsa, o‘smirlar uchun esa murakkab qahramonlarning ruhiyati ochib beriladi. V.G.Belinskiy bolalar yozuvchisi

bo‘lishning mas’uliyatli ekanligini nazarda tutib yozgan edi: “Bolalar bilan obrazlar vositasida gaplashmoq uchun ularni bilmoq kerak, o‘zing bola bo‘la olishing lozim, bemaza ma’noda emas-ku, ammo bolalarcha soddadil xarakter sohibi sifatida qayta tug‘ilmog‘ing darkor. Bu – o‘zicha bir iste’doddir. Ehtimol bolalarni seva bilish, ularning ehtiyojlarini, yosh xususiyatlarini va o‘zgaliklarini chuqur anglamoq – buning eng muhim shartlaridandir” [2;21]. Olimning bu fikrlari bugungi kun pedagoglarimiz tomonidan amalda qo‘llanilmoqda. O‘quvchi bilan ishlash jarayonida uning qiziqishlarini, ehtiyojlarini, xarakter xususiyatlarini tushunolmay turib, unga bilim berish mushkul hodisa. Bu xuddi, daraxtni shunchaki ekib qo‘yib, uning meva berishini kutmoq kabidir. Ammo daraxtga ham mehr, e’tibor berib uning xususiyatlariga qarab, parvarish qilinmasa, undan hech qanday natija ololmaysiz. “Bolalar yozuvchisi – katta unvon,” – deb yozganida N.K.Krupskaya xuddi shuni nazarda tutib hamda bu unvonga munosib bo‘lmoqning muhim sharti “hayotni va bolalarni chuqurroq kuzatish, ularga tobora yaqinlashish, hayotga tikilib qarash lozim” [3;15] ekanligini ta’kidlagan edi.

O‘qish ko‘nikmalarini o‘rgatish uchun adabiyot parchalaridan foydalanadigan dasturlar haqiqiy o‘quvchilarning ma’no va ahamiyatga ega bo‘lish strategiyasidan ko‘ra harflar va so‘zlarni dekodlash bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonga yo‘naltirilgan. Aslida esa ushbu dasturlarning maqsadi butunlay boshqacha, ya’ni bolalarning badiiy olamini go‘zallashtirish, badiiy didini o‘stirish. Ammo hatto g‘arb bazaviy dasturlari amaliyotga urg‘u bergan bo‘lsa-da, haqiqiy adabiyotga emas, balki savod chiqarishni maqsad qilgan. Duglas Barnes buni yanada qat’iyroq aytadi: “Siz nima o‘rgatganingiz kabi, qanday o‘rgatishingiz ham muhimdir” [4;69]. Yevropa ittifoqi mamlakatlaridagi o‘qish dasturlari o‘quvchilarni rivojlantirish o‘rniga o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratishda xato qiladi. O‘qishni qanday o‘rgatish, rivojlanayotgan o‘quvchilarning zavqlanish darajasini aniqlashi mumkin va ko‘pincha shunday bo‘ladi ham. Umumta’lim tizimida bolalar adabiyotini o‘qitish bugungi kunda ikki asosiy sababga ko‘ra har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, mas’uliyatning yuqori bo‘lgan choralari o‘quv rejasini qisqartirishga olib kelgan. Natijada o‘quvchilar qiziqarli, haqiqiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan matnlarni o‘qish imkoniyatidan mahrum bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, bugungi kunda sinflarimizda boshqa davrlarga qaraganda ko‘proq xilma-xillik mavjud. Turli irqiy, etnik, madaniy va ijtimoiy guruhlardan kelgan o‘quvchilarni birlashtirish va ular uchun qiziqarli, mazmunli adabiyotni taqdim etish ehtiyoji bolalar adabiyotini yanada dolzarb qiladi. Shu sababli, zamonaviy bolalar adabiyoti nafaqat ta’lim jarayonini boyitish, balki turli madaniyatlar va qadriyatlarni tushunish uchun ham muhim vositadir. Bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning o‘zgaruvchanligidir. Bu xususiyat, avvalo, kitobxonning yoshiga, tarixiy davr va ijtimoiy muhitga bog‘liqdir. Shuningdek, bolalar adabiyoti syujetning dinamik va harakatga boy bo‘lishini talab qiladi, ya’ni unda voqealar rivoji tezkorlik bilan sodir bo‘lib, qiziqarli, yumorga boy va fantaziyaga ega bo‘lishi lozim. 20-asr boshlarida o‘zbek bolalar adabiyotida ko‘proq ma’rifatparvarlik g‘oyalari yetakchilik qilishi va ko‘proq ijodkorning fa-olligi, qahramon tasviri emas, targ‘ibiy-tashviqiy ruh ustuvorligi bilan ajralib turadi. Zotan, XX asr boshlaridagi o‘zbek bolalar adabiyotining maydonga kelishi, ravnaq topishida davr ijtimoiy muhitining ta’siri alohida ta’kidlandi. B.Qosimov ta’biri bilan aytganda, zamon yangilanish zamoni edi. Millat yashamoqchi bo‘lsa, hamma narsani – maktab maorifdan jamiyat idora tuzumigacha yangilamog‘i, o‘zgartirmog‘i lozim, shu jihatdan o‘zbek bolalar matbuoti, adabiyotiga ham asos solingani bejiz emasligi ayni haqiqatdir.

1930-yillarda o‘zbek bolalar adabiyotida xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa, folklor motivlariga asoslangan asarlar yaratishga keng e’tibor qaratilgan. Bu davrda milliy bolalar adabiyotini realistik asosda shakllantirish va rivojlantirish maqsadida xalq ijodi manbalariga murojaat qilindi. Biroq, bu davr asarlarida faol qahramon obrazlari hali uncha rivojlanmagan edi.

1950–60-yillar o‘zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastik unsurlar kuchayib, yosh qahramonlar syujetning markaziy qismiga aylana boshladi. Bu jarayon bolalar adabiyotini

chinakam badiiy ifoda vositasiga aylantirdi, chunki yosh qahramonlar endi voqealar rivojida hal qiluvchi rol o‘ynay boshladilar.

1980-yillarga kelib, bolalar adabiyotida psixologizm yo‘nalishi kuchaydi. Yosh qahramon endi oddiy bola sifatida emas, balki mustaqil qarash va dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlana boshladi. Bunda yosh qahramonlarning endi uyg‘onayotgan o‘ziga xos sof tuyg‘ulari, hayotga mustaqil va tanqidiy qarash o‘z nuqtayi nazar bilan munosabat bildirish istagi paydo bo‘ldi.

1990-yillar esa o‘zbek bolalar adabiyotida yangi bosqich sifatida namoyon bo‘ldi. Mustaqillik tufayli milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarning tiklanishi bolalar adabiyotida o‘z ifodasini topdi. Bolalar adabiyotini o‘qitishda qo‘llash imkoniyati mavjud bo‘lgan to‘qqizta eng ommabop va samarali yondashuvni taqdim etamiz. Ushbu yondashuvlar o‘zaro bir-birini inkor etmaydi, aksincha, ular ko‘pincha birlashgan holda qo‘llaniladi:

1. Matnni chuqur o‘rganish (Close Reading)

Bu usul badiiy asar tahliliga asoslanadi. O‘quvchilar matndagi asosiy mavzular, ramzlar va fikrlarni aniqlash orqali asarning ichki mazmunini tushunadilar. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning diqqatni bir joyga jamlash va analitik tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Interfaol muhokamalar

Adabiyotni o‘rgatishda o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin ifodalashga chorlaydigan interfaol usullar muhimdir. Guruhli muhokamalar va debatlar orqali asardagi murakkab masalalar bo‘yicha turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish mumkin.

3. Vizualizatsiya va multimediadan foydalanish

O‘quvchilarni asar muhitiga chuqurroq sho‘ng‘itish uchun rasm, video, animatsiya va boshqa vizual vositalar ishlatiladi. Bu usul nafaqat asarning hissiy va estetik jihatlarini yanada aniqroq anglashga yordam beradi, balki bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi.

4. Muallif kontekstini o‘rganish

Adabiyotni tarixiy va ijtimoiy kontekstda o‘rganish orqali asar mazmunini chuqurroq anglash mumkin. Muallifning hayoti va yozilgan davr haqida ma’lumotlar berish asar tahlilini yanada boyitadi.

5. Ijodiy yozuv mashqlari

Adabiyot darslari jarayonida o‘quvchilarni asar qahramonlaridan biri sifatida xat yozishga yoki voqealarni o‘z nuqtayi nazarlaridan davom ettirishga undash ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

6. Rol o‘ynash va dramatizatsiya

Asar qahramonlarining rollarini o‘quvchilar o‘rtasida taqsimlab, sahnalashtirish orqali ularning asarni his qilishlari va uni jonliroq idrok etishlari ta’minlanadi.

7. Analitik yondashuvlar

Asarlarning SWOT tahlili yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

8. Gamifikatsiya

O‘yinlashtirilgan darslar orqali o‘quvchilarning asar mazmunini o‘zlashtirish jarayoni yanada qiziqarli va interfaol bo‘ladi. Masalan, asar qahramonlari bo‘yicha viktorinalar yoki kvestlar tashkil qilish mumkin.

9. Metaforalar va ramzlar bilan ishlash

Adabiy asarlardagi metafora va ramzlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga erishiladi. Bu yondashuv ularga matndagi yashirin ma’nolarni aniqlash va talqin qilish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арзамасцева И., Николаева С. Детская литература. – Москва: Академия, 2012.270-с.

2. Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994.32-б.

3. Barnes D. From communication to curriculum. – USA: Boynton Cook, 1992. – C.238.

4. Белинский В.Г. О литературе и детской литературе и детском чтении. – Москва: Юрайт, 2019. 210-с.

5. Yousafzai M. My Name Is Malala. – USA: Little, Brown Books for Young Readers, 2022.p.250.

Abdimurat ESEMURATOV,
F.f.b.f.d(PhD)
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Nukus filiali assistent-o‘qituvchisi
Gulnar ATAKHANOVA,
Qoraqalog‘iston Qishloq xo‘jaligi fanlari va agrotexnologiyalar instituti assistent-o‘qituvchisi

PEDAGOGIK TA’LIMDA TANQIDIY VA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHGA OID ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya: maqolada o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi, uning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tanqidiy fikrlash shaxsning mustaqil qaror qabul qilishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi va innovatsion yechimlarni topa bilishini ta’minlaydigan muhim kompetensiya sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, zamonaviy pedagogika, analitik ko‘nikma, talaba, pedagog.*

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы развития навыков критического мышления у учителей, их теоретические основы и практическое значение. Критическое мышление рассматривается как важная компетенция, обеспечивающая способность личности принимать самостоятельные решения, анализировать проблемные ситуации и находить инновационные решения.

Ключевые слова: *критическое мышление, современная педагогика, аналитические навыки, студент, педагог.*

Annotation: the article discusses the development of critical thinking skills among teachers, highlighting their theoretical foundations and practical significance. Critical thinking is considered as an essential competence that enables individuals to make independent decisions, analyze problem situations, and develop innovative solutions.

Key words: *critical thinking, modern pedagogy, analytical skills, student, educator.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot asrida ta’lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash, ularni mustaqil, ijodkor, mantiqiy va tanqidiy fikrlay oladigan shaxslar sifatida shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning vazifasi nafaqat bilim berish, balki talabalarni yangicha fikrlashga, ma’lumotlarni tahlil qilish, xulosalash va muammolarga innovatsion yondashuv topishga o‘rgatishdan iboratdir. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ularning kasbiy faoliyati samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarga mustaqil qarash va asosli fikr yuritishni o‘rgatishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarini chuqur o‘rganish, ularning afzallik tomonlarini tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash o‘qituvchi hamda talaba faoliyatini yanada samarali tashkil etishga zamin yaratadi. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash qobiliyatining ta’lim jarayonidagi o‘rni, uni rivojlantirish bosqichlari hamda bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ahamiyati yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolani tayyorlash jarayonida tanqidiy fikrlashning nazariy asoslarini yoritishga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar, jumladan, D. Xelpernning “Tanqidiy fikrlash psixologiyasi” (2000) asari hamda so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasini rivojlantirishga oid konseptual hujjatlar, dasturlar va normativ-me’yoriy hujjatlar asosiy manba sifatida qo‘llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va pedagogik kuzatish usullaridan foydalanildi. Ilg‘or xorijiy tajribalar bilan solishtirish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning afzallik tomonlari aniqlab chiqildi. Olingan natijalar tizimli yondashuv asosida guruhlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta’lim maktablariga xorijiy tillarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning optimal variantlarini tanlash va uning amaliy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsga jamiyatimizda katta ehtiyoj mavjud: bildirilgan fikr va mulohazalarni tahlil qila oladigan, dialog o‘tkaza oladigan, muammoning mohiyatini va uni hal qilishning muqobil usullarini aniqlay oladigan, har doim tekshirilishi mumkin bo‘lgan haqiqatni ajrata oladigan, faraz va shaxsiy fikrdan kelib chiqqan holda to‘g‘ri xulosa chiqara oladigan shaxsni shakllantirish mamlakatimiz ta’lim tizimining yetakchi muammolaridan biridir.

Aynan mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘la oladigan mutaxassisni tayyorlash uchun uning chuqur bilim olishi, shu bilan birga, o‘z-o‘zini tarbiyalash takomillashtirilishga ijobiy munosabatda bo‘lishi uchun ijobiy motivatsiya va istiqbollarni yaratish muhimdir. Bundan tashqari, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurati sifatida quyidagi sabablarni keltirish mumkin: 1. Axborot asrida undan cheksiz foydalanish sharoitida, uning oqimlarida harakatlana olish, tahlil qilish, asosiy va ikkilamchini ajrata olish, axborotni tanqidiy idrok etish va hokazolar muhim ahamiyatga ega. 2. Ta’lim jarayonidagi o‘quv rejaga muvofiq, o‘quv materialining doimiy hajmi bilan o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa soatlarining kamayishi munosabati bilan kognitiv mustaqillikni, o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini rivojlantirish, talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kognitiv bilish faoliyatini, uning mustaqillikni rag‘batlantirishning eng samarali usuli – muammoli ta’lim, talabalarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradigan muammoli vaziyatlar. O‘quv jarayonida kognitiv faollikni rag‘batlantirish va o‘quvchilarning hissiy va irodaviy sohasini rivojlantirish usuli– bu talabani mustaqil bilim faoliyatining muhimligiga ishontirish, unga qiziqishni uyg‘otish, ularning mustaqilligining o‘sishini kuzatish, muvaffaqiyatlarini qayd etish va ushbu faoliyatdagi yutuqlar va natijalarni ko‘rsatish qobiliyatidir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi (TFRT) – “tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qish va yozish” xalqaro loyihasi mualliflari C. Templ, K. Meredit, D. Still, S. Valter tomonidan taklif etilgan ta’lim texnologiyasi. Ushbu o‘qitish texnologiyasining muhim xususiyatlarini tushunish uchun tanqidiy fikrlash atamasini tushunish kerak. TFRT axborot bilan ishlashda yuqoridagi ko‘nikmalarni shakllantiradigan yaxlit tizimdir. Ushbu texnologiyaning maqsadi talabalarning ta’lim va kundalik hayotda zarur bo‘lgan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Ushbu ta’lim texnologiyasi – bu birinchi navbatda, o‘quvchining qiziqishini uyg‘otish, uning izlanish va ijodiy faolligini uyg‘otish, so‘ngra unga materialni tushunish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash va nihoyat, olingan bilimlarni umumlashtirishga yordam beradigan strategiya va usullar majmuasidir. Siz an’anaviy darsning bir qismi sifatida texnologiyadan foydalanishingiz mumkin. TFRT ilmiy konseptual asosga ega bo‘lib, u axborot qidirishni tashkil etishda ham, diskret oqimli ma’lumotlarni qayta ishlashda ham ahamiyatlidir. O‘quv va ilmiy matnlarni o‘qishni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy axborot yondashuvi TFRT ilmiy konseptual asosining elementlaridan biridir.

Natijalar.Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish uchun ularni turli fanlar bo‘yicha integratsiya qilish muhimdir. Tanqidiy fikrlashni mustaqil kurs sifatida ko‘rib chiqish o‘rniga uni turli ta’lim yo‘nalishlari o‘quv dasturiga kiritish o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini real dunyo sharoitida qo‘llash imkonini beradi. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarni muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishga undaydi va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, kelajakdagi kasbiy faoliyatiga o‘tkazish qobiliyatini oshiradi.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni samarali rivojlantirish uchun o‘qituvchilar qo‘llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanish imkoniyatlariga muhtoj. O‘quv

dasturlari va seminarlar o‘qituvchilarga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘qitishga integratsiyalash uchun strategiyalar va resurslarni taqdim etishi mumkin. O‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlik ilg‘or tajriba almashish va o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash uchun asos bo‘lgan ba’zi muhim ko‘nikmalar aloqa va axborot qobiliyatlari, hamkorlik qobiliyatlari, fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari va shaxslararo va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlari. Bu talabalarga har qanday sohada va ta’limning barcha darajalarida zarur bo‘lgan muhim ko‘nikmalardir.

Muhokama. Pedagog turli xil samarali strategiyalarni qo‘llash orqali talabaning tanqidiy fikrlashining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin. Birinchidan, u o‘ylantiruvchi savollar berish orqali qiziqishni rag‘batlantirishi mumkin. Bu talabaning turli nuqtai nazarlarni o‘rganishga va chuqurroq tushunishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirishi kerak. Shuningdek, faol ishtirok etish va g‘oyalarni ifoda etishga ko‘maklashish uchun interaktiv munozaralar va muammolarni hal qilish tadbirlarini o‘tkazishlari mumkin. Bu mustaqil va analitik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Malakali o‘qituvchi, shuningdek, talabalarga maqolalar, videolar va amaliy tadqiqotlar kabi turli xil o‘quv materiallaridan foydalanishni tavsiya qiladi, chunki bu talabani turli nuqtai nazarlarga duchor qiladi va ularni turli tomonlardan tanqidiy fikrlashga chorlaydi. Va nihoyat, pedagog ko‘pincha o‘quvchiga tanqidiy fikrlashni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishga imkon beradigan darslarga samarali metodlarni kiritadilar.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lmagan talabalar ko‘pincha xabardorlikning yetishmasligi, xurofot yoki noxolis bo‘lish va hokimiyatga haddan tashqari ishonish kabi ba’zi xususiyatlarni namoyon etadilar. Shuning uchun, bu bolalar ko‘pincha haqiqatni so‘roq qilmasdan yoki mavzu yoki tushunchaning nuanslarini chuqurroq o‘rganmasdan, ularga aytilgan narsalarni ko‘r-ko‘rona qabul qilishadi. O‘z-o‘zidan o‘ylay olmaslik talabani o‘qish yoki vazifalarni mustaqil bajarish irodasini namoyish qilishdan ko‘ra, o‘qitishni kutishiga olib kelishi mumkin.

Misol uchun, talabalar, ba’zi hollarda, axborotga boy muhitda kognitiv ortiqcha yukni boshdan kechirishlari mumkin. Shuning uchun ularga ma’lumotni samarali qayta ishlash va tahlil qilish qiyin bo‘ladi. Bu talabalar, shuningdek, ijtimoiy bosim ichiga berish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi. Bu guruh fikrlashi va ijtimoiy muvofiqlikning yuqori darajasidan kelib chiqadi, bu ularni turli xil fikrlarni bildirishdan yoki umumiy kayfiyatni so‘roq qilishdan qaytaradi. Shuning uchun, ular do‘stlari yoki bir guruh talabalar to‘g‘ri deb hisoblagan narsalar bilan birga borishga moyil. Bu jihatlarning barchasi talabalarni xato qilishdan qo‘rqadigan muvaffaqiyatsizlik qo‘rquviga olib kelishi mumkin.

Xulosa.Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan pedagog ta’lim jarayonida mustaqil qarashlarni shakllantira oladi, muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi va innovatsion yondashuvlar asosida o‘quvchilarda chuqur bilimlarni rivojlantirishga erishadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammolarni hal qilishda tahliliy va mantiqiy yondashuvni kuchaytiradi, qaror qabul qilishda dalillarga tayangan holda to‘g‘ri xulosaga kelishga yordam beradi, ijodiy izlanish va yangicha tafakkurni rag‘batlantiradi hamda o‘qituvchilarning kasbiy mahorati va ta’lim jarayonidagi samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xelpern D. Tanqidiy fikrlash psixologiyasi. – Sankt-Peterburg: Pyotr, 2000.
2. Olimovna, R. M. (2023). Baynalmilal oilalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o‘rganish ijtimoiy psixologik muammo sifatida. pedagogs, 48(2), 49-51.
3. G‘ofurov A. Pedagogik tafakkur va tanqidiy yondashuv asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Saidov U. Oliy ta’limda innovatsion texnologiyalar va tanqidiy fikrlash. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

Manzura IRISBAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand filiali
“Psixologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrasi o‘qituvchisi. PhD

KASBIY MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING METODOLOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagog-psixologlarning kasbiy madaniyatini shakllantirish va ularning metodologik kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Kasbiy madaniyatning mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda metodologik kompetentlikning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda nazariy tahlil va qiyosiy yondashuvlar orqali kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayonida metodologik bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali omillari aniqlangan. Maqola natijalariga ko‘ra, kasbiy madaniyat va metodologik kompetentlikning uyg‘un rivoji pedagog-psixologlarning professional faoliyatini yuksaltiradi, ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshiradi hamda sog‘lom psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy madaniyat, metodologik kompetentlik, pedagog-psixolog, professional faoliyat, ta’lim-tarbiya jarayoni.*

Annotation: this article highlights the issues of forming the professional culture of teacher-psychologists and developing their methodological competence. The content of professional culture, its components, and the significance of methodological competence in pedagogical activity are analyzed based on scientific sources. The study identifies effective factors for the development of methodological knowledge and skills in the process of forming professional culture through theoretical analysis and comparative approaches. According to the results of the article, the harmonious development of professional culture and methodological competence enhances the professional activity of pedagogical psychologists, improves the quality of the educational process, and serves to create a healthy psychological environment.

Key words: *professional culture, methodological competence, teacher-psychologist, professional activity, educational process.*

Аннотация: в данной статье освещены вопросы формирования профессиональной культуры педагогов-психологов и развития их методологической компетентности. На основе научных источников проанализировано содержание профессиональной культуры, ее составляющие и значение методологической компетентности в педагогической деятельности. В исследовании посредством теоретического анализа и сравнительных подходов выявлены эффективные факторы развития методологических знаний и умений в процессе формирования профессиональной культуры. Согласно результатам статьи, гармоничное развитие профессиональной культуры и методологической компетентности повышает профессиональную деятельность педагогов-психологов, повышает качество образовательного процесса и способствует созданию здоровой психологической среды.

Ключевые слова: *профессиональная культура, методологическая компетентность, педагог-психолог, профессиональная деятельность, образовательный процесс.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsning barkamol rivojlanishi, uning ijtimoiylashuvi hamda professional faoliyatga tayyorlanishi ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Bu jarayonda pedagog-psixologlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular nafaqat o‘quvchilarning psixologik qo‘llab-quvvatlanishi, balki pedagogik jarayonning samaradorligi va insonparvarlik ruhida tashkil etilishiga ham mas’uldirlar. Shu bois pedagog-psixologlarning kasbiy madaniyatini shakllantirish va ularning metodologik kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sifatida qaralmoqda.Kasbiy madaniyat — bu mutaxassisning o‘z kasbiga oid bilim, ko‘nikma va

malakalarini chuqur egallashi bilan bir qatorda, uning professional qadriyatlari, kommunikativ madaniyati, axloqiy qarashlari hamda shaxsiy pozitsiyasini o‘z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Pedagog-psixolog faoliyatida bu tushuncha o‘quvchi va talabalarning shaxsiy xususiyatlarini to‘g‘ri anglash, ular bilan samarali muloqot o‘rnatish, turli pedagogik vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish hamda psixologik yordam ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.

Metodologik kompetentlik esa pedagog-psixologning ilmiy-nazariy yondashuvlarni chuqur o‘zlashtirishi, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay bilishi, turli ilmiy metod va uslublardan samarali foydalanishi hamda tahliliy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishini taqozo etadi.Bu kompetentlik pedagog-psixologning nafaqat o‘quvchilarga, balki ta’lim jarayonidagi hamkasblariga ham metodik yordam ko‘rsatish imkonini yaratadi. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning keng qo‘llanilishi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi va psixologik xizmat tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari pedagog-psixologlarning kasbiy madaniyati va metodologik kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Shuning uchun ushbu masalani nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq qilish, mavjud tajribalarni umumlashtirish va samarali yo‘llarni aniqlash ilmiy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Kasbiy madaniyat masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan bo‘lib, u mutaxassisning kasbiy bilim, ko‘nikma, qadriyat va axloqiy qarashlarini o‘z ichiga oladi (Markova, 1996; Zimnyaya, 2003). Tadqiqotchilar pedagogning kasbiy madaniyatini uning shaxsiy refleksiya qobiliyati, kommunikativ kompetensiyasi va innovatsion faoliyatga tayyorligi bilan bog‘laydilar (Slastenin, 2002; Xodjayev, 2018). Metodologik kompetentlik esa ilmiy-nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, to‘g‘ri metod tanlash va tahliliy fikrlash qobiliyati sifatida talqin etiladi (Shadrikov, 2007; Lerner, 2002). So‘nggi tadqiqotlarda pedagog-psixologning metodologik kompetentligi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, diagnostik va korreksion metodlarni samarali qo‘llash bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi (Abdullayeva, 2020). Mahalliy va xorijiy manbalarda pedagog-psixologlarning kasbiy madaniyati va metodologik kompetentligini rivojlantirish ularning professional samaradorligi hamda ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining asosiy sharti sifatida qaraladi (Karimova, 2019; Schön, 1987; Dewey, 1933).

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda kasbiy madaniyat va pedagog-psixologlarning metodologik kompetentligini shakllantirish jarayonini o‘rganishda nazariy tahlil, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish hamda mavjud konseptual yondashuvlarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari tahlil qilinib, pedagog-psixologlarning kasbiy madaniyati va metodologik kompetentligini rivojlantirishga oid asosiy tamoyillar aniqlab chiqildi. Shu bilan birga, pedagogik-psixologik tajribalar va nazariy g‘oyalar o‘zaro solishtirilib, ularning amaliy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama. Pedagog-psixologlarning kasbiy madaniyati murakkab ko‘pkomponentli hodisa bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni, balki kasbiy qadriyatlar, kommunikativ madaniyat va reflektiv yondashuvni ham qamrab oladi. Bunda kasbiy madaniyatning shakllanish jarayoni shaxsiy rivojlanish, ta’limiy tajribalar va professional faoliyatning turli bosqichlarida bosqichma-bosqich kechadi. Masalan, talabalik davrida pedagog-psixolog nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘proq e’tibor qaratsa, ish faoliyatining dastlabki yillarida amaliy muammolarni hal etishda ko‘nikmalarni qo‘llash ustun bo‘ladi, keyingi davrlarda esa refleksiya va metodologik yondashuvlarni chuqurroq qo‘llash zarurati ortadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, metodologik kompetentlik pedagog-psixologning kasbiy madaniyatida markaziy o‘rin tutadi, chunki u ilmiy-nazariy asoslarni amaliyotga tatbiq etish, to‘g‘ri metodlarni tanlash, ularni pedagogik vaziyatga moslashtirish va analitik fikrlash orqali samarali qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi. Metodologik kompetentligini rivojlantirish jarayonida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda ularni turli vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, dars jarayonida o‘quvchilardan biri o‘zini izolyatsiya qilingan his qilsa, pedagog-psixolog mavjud nazariy bilimlar asosida vaziyatni tahlil qilishi, mos intervensiya usulini tanlashi va uni sinf sharoitiga moslashtirishi zarur. Yoki o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlari pasayganida, mutaxassis adabiyotlarda tavsiya qilingan metodlardan foydalanib, differensial yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil qilishi mumkin. Bu kabi vaziyatlarda

metodologik kompetentlikning mavjudligi nafaqat muammoni samarali hal etishga, balki pedagogik jarayonni yanada tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan qilishga xizmat qiladi.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish uchun pedagog-psixologlarning professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan muhit ham muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarini yangilab borish imkoniyatlari, ilmiy adabiyotlarga erkin kirish, hamkasblar bilan hamkorlik qilish, malaka oshirish kurslari va mentorlik dasturlarining mavjudligi ularning kasbiy sifatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bunday sharoitda pedagog-psixologlar o‘z faoliyatida nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, maktab psixologlari uchun tashkil etilgan muntazam seminarlar va tajriba almashuv sessiyalari ularga yangi metodologik yondashuvlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Shuningdek, pedagog-psixologlarning kasbiy madaniyati va metodologik kompetentligini samarali rivojlantirishda reflektiv amaliyot, action research va case-based learning kabi yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar mutaxassisni nafaqat mavjud vaziyatni anglash va tahlil qilishga, balki uni samarali hal etish yo‘llarini ishlab chiqishga ham o‘rgatadi. Masalan, action research jarayonida pedagog-psixolog kichik tajribaviy o‘zgarishlar kiritib, ularning natijalarini tahlil qiladi va bu orqali o‘z faoliyatini takomillashtiradi. Bu yondashuv ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi va mutaxassisning kasbiy madaniyatini yanada yuksaltiradi.

Umuman olganda, kasbiy madaniyatning shakllanishi va metodologik kompetentligini rivojlantirish jarayoni o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, refleksiya va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, shuningdek, doimiy professional rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish ushbu jarayonning samaradorligini ta’minlaydi. Buning natijasida pedagog-psixologlar ta’lim muassasalarida yuqori darajadagi kasbiy madaniyat namoyon qila oladilar, bu esa nafaqat ularning individual rivojlanishiga, balki ta’lim tizimining umumiy samaradorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagog-psixologlarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayoni ularning shaxsiy fazilatlari, ilmiy-nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Metodologik kompetentlikni rivojlantirish esa nafaqat kasbiy madaniyatning tarkibiy qismi, balki uning samarali shakllanishi uchun asosiy shart hisoblanadi. Pedagog-psixolog o‘z faoliyatida turli nazariy yondashuvlarni qo‘llay olishi, zamonaviy pedagogik va psixologik g‘oyalarni amaliyotga tatbiq eta bilishi zarur. Shu orqali u nafaqat ta’lim jarayonining sifatini oshiradi, balki shaxslararo muloqotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini inobatga olish va sog‘lom psixologik muhit yaratishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, kasbiy madaniyat va metodologik kompetentlikni uyg‘un rivojlantirish pedagog-psixologlarning professional tayyorgarligi va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashning muhim omili sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, N. Pedagog-psixologlarning metodologik kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari. – Toshkent, 2020.
2. Dewey, J. (1933). How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process. Boston, MA: D.C. Heath.
3. Karimova, V.Pedagogik psixologiya va kasbiy faoliyatda metodologik yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Lerner, I. Ya. Didaktik tadqiqotlar metodologiyasi. – Moskva, 2002.
5. Markova, A. K.Psikhologiya professionalizatsii. – Moskva, 1996.
6. Schön, D. A. (1987). Educating the reflective practitioner. San Francisco, CA: Jossey-Bass.
7. Shadrikov, V. D. (2007). Deyatelnost i sposobnosti. Moskva.
8. Slastenin, V. A.Pedagogika: Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix vuzov. – Moskva, 2002.
9. Xodjayev, N.Pedagogning kasbiy madaniyatini rivojlantirish omillari. –Toshkent, 2018.
10. Zimnyaya, I. A. Pedagogicheskaya psikhologiya. – Moskva: Logos, 2003.

Akram KURBONOV,
TATU Samarqand filiali
profilaktika inspektori
mustaqil tadqiqotchisi
akramkurbanov88@gmail.com

YANGI O‘ZBEKISTONDA BARQARORLIKNI YANADA TA’MINLASHDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot konsepsiyasida talaba-yoshlarning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu jarayonda tolerantlikni rivojlantirish, ya’ni turli millat, din va qarash vakillariga nisbatan bag‘rikenglik va murosa madaniyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *taraqqiyot konsepsiyasi, barkamol shaxs, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, ma’naviy immunitet, pedagogik jarayon.*

Аннотация: в данной статье Концепция развития Нового Узбекистана определяет формирование учащейся молодежи как всесторонне развитой личности, воспитание ее в духе уважения к национальным и общечеловеческим ценностям как одно из приоритетных направлений государственной политики. В этом процессе особое значение имеет развитие толерантности, то есть формирование культуры терпимости и компромисса по отношению к представителям разных национальностей, религий и взглядов.

Ключевые слова: *концепция развития, гармоничная личность, национальные и общечеловеческие ценности, социальная стабильность, межнациональное согласие, духовный иммунитет, педагогический процесс.*

Annotation: in this article, the Concept of Development of the New Uzbekistan defines the formation of students as a comprehensively developed individual, educating them in the spirit of respect for national and universal values as one of the priority areas of state policy. In this process, the development of tolerance is of particular importance, that is, the formation of a culture of tolerance and compromise in relation to representatives of different nationalities, religions and views.

Key words: *concept of development, harmonious personality, national and universal values, social stability, interethnic harmony, spiritual immunity, pedagogical process.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot konsepsiyasida ta’lim-tarbiya masalalari, ayniqsa, talaba-yoshlarning barkamol shaxs sifatida shakllanishi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu jarayonda nafaqat bilim berish, balki yoshlarning dunyoqarashi, ma’naviyati va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish asosiy vazifa etib olinmoqda. Shu bois, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda ularni hurmat qilish, jamiyatda bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [1-2].

Bag‘rikenglik (tolerantlik) – bu turli millat, din, til va dunyoqarash egalari o‘rtasida o‘zaro hurmat, murosa va hamjihatlikka asoslangan madaniyat hisoblanadi. U axloqiy tushunchadan tashqari, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning kafolati, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikning muhim omilidir. Pedagogik jarayonda tolerantlikni rivojlantirish yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytiradi, ularni ekstremistik g‘oyalar, ksenofobiya yoki zo‘ravonlik kabi salbiy ta’sirlardan himoya qiladi [3-5].

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik jarayon modellariga oid turli yondashuvlar mavjud [6-7]. Masalan, Entwistle modeli oliy ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi institutsional, gnoseologik va pedagogik omillarni aniqlagan bo‘lsa, D.T.Samatov tolerantlik tamoyili asosida ta’lim muhiti barqarorligini ta’minlash modelini ishlab chiqqan [8]. R.R.Gaipnazarov ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonini ijtimoiy institutlar bilan integratsiyada ko‘rib chiqqan [9], X.A.Yulbasarova esa maktab muhitida millatlararo muloqotni rivojlantirish mexanizmlarini taklif qilgan [10].

Ushbu modellar umumiy nazariy asosga ega bo‘lsa-da, ular orasida ba’zilari amaliy mexanizmlarda zaiflikka ega, boshqalari esa milliy ta’lim tizimi sharoitiga to‘liq moslashtirilmagan. Xususan, Samatov modeli konseptual jihatdan dissertatsiya mazmuniga yaqin bo‘lsa-da, unda tyutorlar, yoshlar maslahatchilari, mahalla instituti va ichki ishlar xodimlari kabi real ijtimoiy faktorlar yetarlicha integratsiya qilinmagan. Shu sababli yangi model ishlab chiqishda milliy ta’lim tizimida mavjud bo‘lgan ijtimoiy institutlarni hisobga olish zarur. Shu sababli, ilm-fan yutuqlarining samarali natijalarini

tahlil qilgan holda zamonaviy va dolzarb model ishlab chiqishga zaruriyat tug‘ildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va ilg‘or tajribalarni birlashtirgan holda kompleks tizimlarni yaratish ehtiyoji kundan-kunga ortib bormoqda.

Asosiy qism. Tadqiqot markazida an’anaviy, innovatsion, kompetensiyaga asoslangan va integrativ o‘qitish modellarining asosiy tamoyillari, qo‘llash xususiyatlari hamda afzallik va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi. 1-jadvaldagi pedagogik jarayonni tashkil etish modellarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir modelning o‘z salohiyati mavjud, biroq eng samarali natijaga o‘quv maqsadi, mazmuni va oliy ta’lim muassasalari o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab ularni moslashuvchan tarzda uyg‘unlashtirish orqali erishish mumkin. Zamon talabiga mos va xos yangi texnologiyalar, interaktiv metodlar va ilg‘or pedagogik yondashuvlardan foydalanganlik mexanizmi o‘rganiladi. Bu modellarning ilmiy yangiliklar bilan uyg‘unlashganligi hamda interfaol usul va vositalarni samarali qo‘llash ko‘nikmasining afzallik usullari talqin etilib kelib chiqadigan ijobiy natijalar sarhisob etiladi.

1-jadval.


Pedagogik jarayonni tashkil etish modellarining qiyosiy tahlili

Muallif	Model mazmuni	Yutuqlari	Kamchiliklari
R.R.Gaipnazarov	Ma’naviy-axloqiy tarbiyani ijtimoiy institutlar bilan uyg‘unlashtirish modeli	Real ijtimoiy ehtiyojga asos-langan; tarbiya jarayoniga hamkorlikni kiritgan	Amaliy mexanizmlar zaif; indikatorlar aniq belgilanmagan
A.K.Raximov	Axloqiy tarbiya va tole-rantlikni uyg‘unlashtirish modeli	Konseptual asos mustahkam; ma’naviy qadriyatlarni asosiy yo‘nalish sifatida olgan	Tyutor, yoshlar maslahatchisi kabi real aktorlar yetarlicha integratsiya qilinmagan
X.A.Yulbasarova	Maktab muhitida millatlararo muloqotni rivojlantirish modeli	Interfaol metodlarga e’tibor qaratilgan; dialog madaniyatini rivojlantiradi	Oliy ta’limga to‘liq mos emas; yoshlar bilan ishlashning keng ijtimoiy konteksti cheklangan
M.U.Mahkamova	Talabalarda ijtimoiy faollik va tolerantlikni shakllantirish modeli	Nazariy asos mustahkam; talaba faolligini oshirishga qaratilgan	Eksperimental qism va metodik mexanizmlar to‘liq ishlab chiqilmagan
N.A.Atakulova	Yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda integrativ yondashuv	Qadriyatga asoslangan; integratsiyaga urg‘u berilgan	Diagnostik ko‘rsatkichlar va natijaviy komponentlar yetarli darajada aniqlashtirilmagan
G.Q.Mardiyeva	Tarbiya jarayonida ijtimoiy hamkorlik modeli	Amaliy jihatlari ko‘proq; tadbirlar orqali hamkorlikka urg‘u	Konseptual asos zaifroq; ilmiy yangilik darajasi sust
D.T.Samatov	Tolerantlik tamoyili asosida ta’lim muhiti barqarorligi modeli	To‘g‘ridan-to‘g‘ri tolerantlik va barqarorlikka qaratilgan; nazariy asos keng yoritilgan	Amaliy aktorlar (tyutor, yoshlar maslahatchisi, mahalla) integratsiya qilinmagan
X.I.Yusupova	Maktablarda millatlararo muloqotni rivojlantirish modeli	Dialog va murosa madaniyatiga urg‘u; maktab sharoitida samarali	Faqat maktab bosqichiga mos; OTM uchun cheklangan
G.Sh.Aripova	Oilada tolerantlikni shakl-lantirish modeli	Mikromuhitga e’tibor qaratil-gan; oilaviy qadriyatlar asosida	Oliy ta’lim va keng ijtimoiy insti-tutlar bilan bog‘lanmagan

Ushbu 1-jadvaldan ko‘rinadiki, dissertatsiyaga eng mos va yaqin konseptual asos D.T. Samatovning tolerantlik tamoyiliga asoslangan modelidir. Ammo u real ijtimoiy aktorlar (tyutor, yoshlar maslahatchisi, mahalla instituti, profilaktika inspektori)ni yetarlicha qamrab olmagan.

Ushbu tadqiqot ishi doirasida taklif qilinayotgan modelning bosh g‘oyasi shundan iboratki, talaba-yoshlarning tolerantlik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni nafaqat o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi an’anaviy munosabat bilan cheklanmaydi. Bu jarayonga tyutorlar, yoshlar maslahatchilari, psixologlar, mahalla instituti va huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari jalb etiladi.Natijada pedagogik jarayon keng ijtimoiy tizim bilan uyg‘unlashib, talabaning shaxsiy rivojlanishi bilan bir qatorda jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka ham hissa qo‘shiladi.

1-rasm.


Motivatsiya bloki
Ijtimoiy ehtiyoj: Yangi O'zbekistonda barqarorlikni yanada ta'minlashda tolerantlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.
Maqsad: Yangi O'zbekiston yoshlari ongida tolerantlik va ma'naviy-axloqiy immunitetni shakllantirish metodikasini integrativ hamkorlik asosida takomillashtirish.
Vazifalar: Tolerantlik tushunchasini aniqlash va uning o'rganilish darajasini baholash. Tolerantlikni rivojlantirish uchun pedagogik metodlarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish. Tajriba-sinov natijalarining metodik samaradorligini baholash.
Tashkiliy-boshqaruv bloki
Pedagog
Tyutor, psixolog
Ijtimoiy-huquqiy hamkorlar
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda tolerantlik mavzuida o'quv mashg'ulotlari
So'rovnomalar, davra suhbatlari, guruhli va individual muloqotlar, monitoring yuritish
Konferensiyalar, seminarlar, uchrashuvlar, sayohatlar
Mazmunli-jarayonli blok
Kognitiv komponent
Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagoglar tyutorlar, psixologlar va ijtimoiy-huquqiy hamkor tashkilotlar ishtirokida fan va kundalik hayot integratsiyasida o'quv fanlari, to'garaklar, seminarlar, bayramlar, bellashuvlar va uchrashuvlar tematikasi
Metodlari: muammoli, mtertaol, kollaborativ
Shakllari: ma'ruza, seminar, uchrashuv, o'yin, trening
Vositalari: multimedia, interaktiv doska, proyektor, dıdaktık materıallar
Diagnostik bloki
Mezonlar
Motivatsion, kognitiv, amaliy, refleksiv.
Ko'rsatkichlar
Ijtimoiy-psixologik ehtiyoj, aksil-konfliktli yo'nalish, qadriyatga yo'nalgan motivatsiya; terminologik, normativ-huquqiy va interdissiplinar bilim; Ijtimoiy-kommunikativ, konflikt-menejment va faol fuqarolik kompetensiyalari; O'zini-o'zi baholash, metakognitiv va kritik fikrlash malakalari.
Darajalar
Yuqori, O'rta; Past
Natija bloki
Pedagogik tavsiyalar
Diagnostik tavsiyalar
Yoshlar bilan ishlashda hamkorlik rejalari
Natija: Yangi O'zbekiston talaba yoshlari ongida ijtimoiy faollik, millatlararo muloqot madaniyati va ma'naviy barqarorligi oshadi.

Modelda tolerantlikni rivojlantirish jarayoni to‘rtta asosiy komponent orqali amalga oshiriladi: motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv. Har bir komponent uchun aniq mezon va ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular talabalarning tolerantlik darajasini baholash imkonini beradi. 1-rasmda yangi O‘zbekiston barqarorlikni yanada ta’minlashda tolerantlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun talaba yoshlarda tolerantlikni rivojlantirish pedagogik jarayon modeli keltirib o‘tilgan.

1-rasm. Talaba yoshlarda tolerantlikni rivojlantirish pedagogik jarayon modeli.

Ishlab chiqilgan model talaba yoshlarda tolerantlikni rivojlantirish va ma’naviy- axloqiy immunitetni shakllantirishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, uning konseptual asosida integrativ hamkorlik yotadi. Modelning bosh g‘oyasi shundaki, ta’lim jarayoni nafaqat o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabat doirasida, balki tyutorlar, yoshlar maslahatchilari, psixologlar, mahalla instituti va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Shu orqali pedagogik jarayon keng ijtimoiy tizim bilan uyg‘unlashadi va talabaning ijtimoiy barqarorlikka bo‘lgan shaxsiy hissasini kuchaytiradi.

Model tarkibida motivatsion bosqich talabaning tolerantlikka bo‘lgan ehtiyoji va qadriyatga yo‘nalishini shakllantirishga qaratilgan. Diagnostik bosqichda so‘rovnomalar, suhbatlar va kuzatuvlar orqali talabalar holati aniqlanadi va keyingi bosqichlarga asos bo‘ladi. Mazmunli-jarayonli qismda esa fan va kundalik hayot uyg‘unligi ta’minlanib, interfaol metodlar, treninglar, seminarlar, madaniy va sport tadbirlari orqali tolerantlik kompetensiyalari shakllantiriladi. Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quv jarayonining tashkilotchisi, tyutorlar va psixologlar individual kuzatuvchi va yo‘naltiruvchi, yoshlar maslahatchilari hamda profilaktika inspektorlari esa huquqiy- profilaktik hamkor sifatida faoliyat yuritadilar.

Modelning tashkiliy-boshqaruv qismida fakultet va oliy ta’lim muassasalari darajasida hamkorlik rejasi ishlab chiqilib, mas’uliyatlar taqsimoti va kalendar tadbirlar aniqlanadi. Monitoring tizimi oraliq natijalarni baholab, zaruriy tuzatishlar kiritishga imkon beradi. Yakuniy natijalar baholash bosqichida to‘plangan ma’lumotlar asosida qayd etilib, talabalar tolerantlik darajasi mezon va ko‘rsatkichlar orqali aniq darajalarga ajratiladi.

Xulosa. Mazkur modelning natijaviy qismi talabalarda ijtimoiy faollikni oshirish, millatlararo muloqot madaniyatini mustahkamlash va ma’naviy-axloqiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, model asosida ishlab chiqilgan diagnostik mezon va ko‘rsatkichlar tolerantlik darajasini aniq o‘lchash va natijalarni ilmiy asosda tasdiqlash imkonini beradi. Shu tariqa, model nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan pedagogik mexanizm sifatida talaba yoshlarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хайитова Ш.Д. //Талабалар мустақил таълимини мобил технологиялар асосида фаоллаштириш методикаси // – Т.: СамДТУ, 2023. – 137 б. https://library.ziyonet.uz/ru/book/137194

2. Raximov A.K. Ta’lim jarayonida shaxsning ijtimoiy faolligini rivojlantirish pedagogik asoslari (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.2019.

3. Mardiyeva G.Q. Talabalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish jarayonining pedagogik asoslari (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). – Buxoro: Buxoro davlat universiteti.2019.

4. Samatov D.T. Yosh avlodda tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti. 2021.

5. Aripova G.Sh. Oilada tolerantlikni shakllantirishning pedagogik asoslari (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti.2021.

6. Entwistle, N. J. (1987). A model of the teaching-learning process. In J. T. E. Richardson, M. W. Eysenck, & D. W. Piper (Eds.), Student learning: Research in education and cognitive psychology (pp. 13–28). Buckingham: SRHE & Open University Press.

7. Amurova N.Y. A model for the formation of professional competence of specialists in energy and power supply in the field of information technology based on design and creative training. // International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers, 2023. №.3 (T.11), -P. 71-77. (SJIF 7.502)

8. Саматов Д.Т. Таълим муҳитини барқарорлаштиришда толерантлик тамойилининг педагогик асослари (олий таълим муассасалари мисолида). Автореферат (PhD). Наманган, 2019. 49 б. (15-16 бетлар)

9. Gaipnazarov R.R. Маънавий-ахлоқий қадриятлар ва ёшлар тарбиясида уйғунлик (“Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракати мисолида) (Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati). – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2020.

10. Yulbasarova X.A. O‘quvchi-yoshlarning milliy qadriyatlar asosida ma’naviy- axloqiy tarbiyasini takomillashtirish (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). – Nukus: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti.2021.

Mohinur AXMEDOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi



O‘ZBEKISTON, TURKIYA VA OZARBAYJON OLIY TA’LIM TIZIMIDA ADABIYOT FANINI O‘QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: maqolada O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon oliy ta’lim tizimida adabiyot fanini o‘qitish tahlil qilingan. Har bir mamlakatning yondashuvi, metodologiyasi va milliy xususiyatlari ko‘rsatilgan. Adabiyotshunoslikda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, adabiyot ta’limi, metodologiya, O‘zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, adabiyotshunoslik, innovatsiya, raqamli texnologiya, xalqaro tajriba.*

Annotation: the article analyzes the teaching of literature in the higher education systems of Uzbekistan, Turkey and Azerbaijan. The approach, methodology and national characteristics of each country are shown. The role of innovations and digital technologies in literary studies is highlighted.

Key words: *higher education, literature education, methodology, Uzbekistan, Turkey, Azerbaijan, literary studies, innovation, digital technology, international experience.*

Аннотация: в статье проанализировано преподавание литературы в системах высшего образования Узбекистана, Турции и Азербайджана. Показаны подходы, методологии и национальные особенности каждой страны. Освещается роль инноваций и цифровых технологий в литературоведении.

Ключевые слова: *высшее образование, литературное образование, методология, Узбекистан, Турция, Азербайджан, литературоведение, инновации, цифровые технологии, международный опыт.*

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi o‘zgarishlar ichida deb ayta olamiz. Chunki mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida: “Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘ydik. Bu ulug‘ maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz” .

Asosiy qism. Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga ta’lim tizimini Yevropa standartlariga moslashtirish maqsadida ularning tajribalarini o‘rganish va o‘ziga xos xususiyatlaridan o‘rnak olish kabi vazifalar o‘rtaga qo‘yildi. Shunday mamlakatlardan biri, qardosh o‘lkalarimizdan bo‘lgan Turkiya ta’lim tizimiga to‘xtalib o‘tamiz.

Turkiyada oliy ta’lim tizimi rivojlangan va xalqaro talabalar uchun jozibador hisoblanadi. Quyida Turkiya oliy ta’lim tizimining asosiy xususiyatlari yoritilgan:

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son

1. Oliy ta’lim tizimi va universitetlar:

Turkiyada oliy ta’lim tizimi Yuqori ta’lim kengashi (YÖK – Yükseköğretim Kurulu) tomonidan boshqariladi. Mamlakatda 200 dan ortiq universitet mavjud bo‘lib, ularning aksariyati davlat va xususiy universitetlarga bo‘linadi.

2. Ta’lim bosqichlari:

Turkiyada oliy ta’lim quyidagi bosqichlardan iborat:

– bakalavr (4 yil);

– magistratura (2 yil);

– doktorantura (PhD) (3-5 yil).

3. Chet ellik talabalar uchun imkoniyatlar:

– Turkiya stipendiyasi (Türkiye Bursları) – hukumat tomonidan beriladigan xalqaro stipendiya dasturi;

– ko‘plab universitetlar ingliz tilida o‘qitiladigan dasturlarni taklif qiladi;

– talabalar YÖS (Yabancı Uyruklu Öğrenci Sınavı) yoki SAT kabi imtihonlar orqali o‘qishga qabul qilinadi.

4. Oliy ta’limning afzalliklari:

– zamonaviy va xalqaro darajadagi ta’lim tizimi;

– Yevropa oliy ta’lim makoniga integratsiyalashgan (Bologna jarayoni ishtirokchisi);

– arzon o‘qish narxlari va turmush xarajatlari.

– madaniy va tarixiy jihatdan boy muhit.

Ozarbayjon oliy ta’lim tizimi ilg‘or pedagogik yondashuvlar va milliy an’analar uyg‘unligi asosida rivojlanmoqda. Adabiyot fani Ozarbayjon milliy o‘zligini shakllantirish, badiiy tafakkurni rivojlantirish va talabalarni ijodiy fikrlashga yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi.

Ozarbayjon oliy ta’lim tizimi Ozarbayjon Respublikasi Ta’lim Vazirligi tomonidan boshqariladi. Davlat va xususiy oliy ta’lim muassasalarida adabiyot fani filologiya, pedagogika va ijtimoiy fanlar fakultetlarida o‘qitiladi.

1. Ozarbayjonda adabiyotshunoslik va adabiy ta’lim quyidagi ilmiy nazariy asoslarga tayanadi:

– adabiyot nazariyasi va metodologiyasi;

– strukturaviy tahlil – badiiy matn strukturasini o‘rganish;

– semiotik yondashuv – belgi va ramzlar tizimini tahlil qilish;

– sotsiologik adabiyotshunoslik – adabiyot va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik;

– postkolonial va modern adabiyot nazariyalari – zamonaviy oqimlar;

– Ozarbayjon va jahon adabiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik;

– Ozarbayjon klassik adabiyoti – Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Xurshidbanu Natavon.

2. O‘qitish metodologiyasi va pedagogik innovatsiyalar:

– interfaol darslar – bahs-munozaralar, seminarlar, matn tahlili;

– elektron va raqamli adabiyot – elektron kutubxonalar, audiovizual darsliklar;

– ijodiy yozuv mashg‘ulotlari – talabalar tomonidan adabiy matn yaratish.

3. Adabiyot fanining zamonaviy o‘qitish tendensiyalari:

– raqamli texnologiyalar va adabiyot – internet resurslari va e-kutubxonalar;

– adabiyot va til integratsiyasi – tilshunoslik va adabiyotning uyg‘unligi;

– madaniyatlararo ta’lim – turkiy xalqlar va G‘arb adabiyotining o‘zaro bog‘liqligi.

Xulosa. O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon oliy ta’lim tizimlarida adabiyot fanini o‘qitish o‘z milliy madaniyati, tarixiy taraqqiyoti va ilmiy-nazariy tamoyillariga asoslangan. Uch davlatda ham adabiyotshunoslik muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi, lekin uni o‘qitish usullari, metodologiyasi va yondashuvlarida o‘ziga xoslik mavjud.

Milliy adabiyot ta’limi: uch mamlakatda ham milliy adabiyot fani ta’lim tizimining markaziy qismi bo‘lib, milliy merosni saqlash va targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Jahon adabiyotining o‘rni: O‘zbekiston va Ozarbayjon Sharq adabiyotiga ko‘proq urg‘u berishga harakat qilsa, Turkiyada G‘arbiy adabiyotning o‘rni kuchliroq.

Metodik yondashuvlar: O‘zbekiston an’anaviy va zamonaviy metodlarni uyg‘unlashtirsa, Turkiya ilmiy-nazariy tadqiqotlarga ko‘proq e’tibor beradi, Ozarbayjon esa turkiy adabiyotshunoslik bilan modernistik usullarga e’tibor qaratadi.

Elektron ta’lim va innovatsiyalar: Turkiya bu sohada yetakchi bo‘lib, Ozarbayjon va O‘zbekiston esa bosqichma-bosqich raqamli ta’limni rivojlantirmoqda.

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, uch mamlakat oliy ta’lim tizimi o‘rtasidagi tajriba almashinuvi adabiyot fanini o‘qitish jarayonini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Kelajakda ilmiy hamkorlikni kengaytirish, akademik almashinuv dasturlarini rivojlantirish va adabiyot ta’limida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ushbu sohadagi yutuqlarni yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son

2. Yangı O‘zbekıston adabiyot ilmini rivojlantirish. Xayrilloyeva Shirin Furqatovna. Zamonavıy ilm-fan va ta’lım istiqbolları ilmiy-amaliy konferensiyasi

3. Başar E. Türk Yükseköğretim Sisteminin Dünü, Bugünü, Yarını. On Dokuz Mayıs Üniversitesi Dergisi, 1997

4. Oğuzkan, Ferhan A., Bolalar adabiyoti. – Anqara: Xotira nashriyoti, 2001. 145-bet.

5. Ahmet Saban. *Çoklu Zeka Teorisi ve Eğitimi*. – Ankara: Nobel nashriyoti. 2003. 6-bet.

KICHIK TADQIQOT









Dildora AMIROVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti magistri
amirovadildora1@gmail.com



TOG‘AY MUROD ROMANLARIDA O‘ZLIKNI ANGLASH MUAMMOSI

Annotatsiya: maqolada o‘zining individual uslubi, asarlari bilan an’anani yaratgan ijodkor Tog‘ay Murodning poetik mahorati, o‘ziga xos uslubi “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani tahlili misolida yoritilib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan. Romanda o‘tmish va kelajak orasida muallaq turib qolgan obrazlarning anglamlari badiiy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *roman, milliy qadriyatlar, obraz, xarakter, adabiy tip, syujet, konflikt, absurd, retrospektiv syujet, arxitektonika, an’ana, o‘zlikni anglash.*

Аннотация: в статье на основе анализа романа «Бессмертные на свете» и сделаны научно-теоретические выводы освещаются художественные способности и неповторимый стиль Тогая Мурада , создавшего традицию в узбекской литературе своими произведениями. Роман исследует значения образов, которые висят между прошлым и будущим.

Ключевые слова: *роман, национальные ценности, образ, персонаж, литературный тип, сюжет, конфликт, абсурд, ретроспективный сюжет, архитектоника, традиция, идентичность.*

Annotation: the article highlights the artistic skills and unique style of Togay Murad, who created a tradition in Uzbek literature through his works, based on the analysis of the novel “Immortal in this world” and draws scientific and theoretical conclusions. The novel explores the meanings of images that stand between the past and the future.

Key words: *novel, national values, image, character, literary type, plot, conflict, absurd, retrospective plot, architectonics, tradition, identity.*

Ma’lumki bugungi kunda dunyoda 8 milliarddan ortiq insoniyat hayot kechirib, faoliyat yuritmoqda... Bu umumiylik ichra har bir xalq, millatning hayot tarzi, yashash falsafasi, dunyoqarashi, e’tiqodi, urf-odat va an’analari, qadriyatlari mavjud bo‘lib, ushbu omillar asnosida ularning milliy xususiyatlari namoyon bo‘lib boradi.

Millat adabiyotining shakllanishida uning iste’dodli ijodkorlarining o‘rni beqiyos sanaladi. Ijodkorning millliy o‘zlikda shakllangan dunyoqarashi, milliy ruh va e’tiqodi, o‘ziga xos uslubi, yaratgan asarlarida akslanib, millat qadriyatlarni ifoda etadi. Zukko kitobxon, haqiqiy adabiyot ixlosmandi ijodkorlarning uslubiy o‘ziga xosligi bilan asar muallifini ajrata oladi. Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotida o‘z asarlari doirasida an’anani yaratgan ijodkordir. Yozuvchining sajni eslatuvchi, xalq dostonlarimizga yaqin original ifoda yo‘sini, xalq tilining rang-barang jilolari va milliy ruhni haqqoniy aks ettirgan va chin insoniylikni tarannum etuvchi asarlari o‘zbek adabiyotining yuksalishga sabab bo‘lgan. *“Adib asarlarini boshqa biror yozuvchiniki bilan adashtirish mumkin emas”* [2: 278].

Tog‘ay Murod ijodining xosligi shundaki, asar shaklini yaratishda jonli so‘zlashuvga xos xususiyatlarini saqlab qolgan dialoglardan keng foydalanish, obrazlarning ruhiyatini ochishda tinish belgilarni o‘rinli qo‘llash (*“Asarlarida undov belgilari va uch nuqtalardan foydalanish bekorga emas”* [2: 283]. Namuna keltirsak, *“– Gigiyena kerak bo‘lsa… dezodarant seping, dezodarant! Shunday, isiriq eskilik sarqiti!”* [1: 55]. Ko‘p nuqtalar qahramon ongida ikkilanish holatini, undov belgilari I shaxs (Botir firqa) o‘ziga va II shaxs (To‘raqulovning to‘ng‘ich o‘g‘li)ga ta’kidni hamda ishontirish ma’nolarini anglashtirgan), so‘zlarni takrorlash bilan ohangdorlik va ma’no kuchaytirish, bir so‘zga ko‘p ma’no yuklash, ifodada qisqalik va lo‘ndalikka erishgan.

“Adib jonli tildagi so‘zlarni bir chetdan yoppasiga o‘zlashtiravermaydi, balki badiiy vaziyat talabiga muvofiq keladigan, personajlar ruhiy holatiga mos tushadigan so‘z-u iboralarnigina adabiyot mulkiga aylantiradi” [2: 284]. Yaratgan asarlarining arxitektonikasi ham o‘zgacha, polefonik va keng mazmunga ega.

Ahamiyatlisi, *“Tagi ko‘rmaganga gilam bitmasin”* [1: 14] tamoyili asosida asar qahramonining ota-bobolari,

ajdodlari – ildizi bilan tanishtirib o‘tiladi. “Momo yer qo‘shig‘i”, “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” asarlari shular jumlasidan. Bu asarlarning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanidan farqli jihati, ikki asardan bosh qahramonning ota-bobolari obrazlari retrospektiv syujet asosida asarda jonlanadi. Ma’lumki, har bir inson o‘zining yetti pushtini bilish nafaqat o‘zbek xalqi, balki Markaziy Osiyoda ming yilliklardan beri yashab kelayotgan qardosh xalqlar uchun farz va burch hisoblanadi. Yana biri xalqona odatlarimizdan sovchilikda ham ikki tomonning kelib chiqishi, kimning bolasi, kimlardan ekanligi surishtirilib, oila haqidagi asosiy ma’lumotlarga ega bo‘linadi. Tog‘ay Murodning yuqoridagi asarlarida ham shunday, asar markazida turuvchi qahramonning ildizi, ajdodlari haqidagi bayonlar obrazning o‘ziga xos xususiyatlarni ochishda dastlabki ma’lumot sifatida ta’riflanadi. Bu esa syujet davomida qahramon xatti – harakatlarini, xarakter mantig‘ining haqqoniyligini ta’minlab beradi.

“Qoqir qulni chevarasi, Xolmat malayni nevarasi, Eson xizmatkorning bolasi. Botir qo‘shchi tumandan aynib keldi” [1: 14]. Shu jumlalar Botir firqaning ajdodlari bo‘ysunuvchi kishilar toifasidan ekani haqidagi ilk ma’lumotlarni yozuvchi qistirib o‘tadi. E’tibor berish lozim bo‘lgan yana bir tomoni qul-malay-xizmatkor sinonim so‘zlarni ma’no kuchlilik jihatdan yuqoridan pastlash ketma-ketlikda berilishi. Botirga kelib esa nisbat erkin qo‘shchi ekanligini, keyingi epizodlar orqali esa uning rais-boshqaruvchiga aylanishini bilamiz. Shakl jihatdan erkka yetishgan bo‘lsa-da, mohiyatan hammasi bo‘ysunuvchi ekanligiga ishora berilgan.

“*Oqshom vaqti To‘raqulov vafot etib edi. To‘raqulov sobiq raykom sekritari edi. Marhum ertaga dafn etilar edi. Partiyaviy topshiriq ana shu haqda bo‘ldi. Botir firqa yotolmadi. Yotish uchun yurak betlamadi. Uyqusi yo‘qoldi…*

– O‘rtoq To‘raqulovga janoza o‘qilmaydi! To‘raqulov raykom sekritari edi, deputat edi, qo‘sha-qo‘sha orden medallar sohibi edi. Bir so‘z bilan aytsak, asl kommunist edi. Aslkommunist, sarqitlaridan yuksak turadi! Shunday ekan, biz o‘rtoq To‘raqulovni asl kommunistchasiga dafn etamiz. Harbiy orkestr motam marshini chaladi. Partiya – sovet arboblari faxriy qorovul bo‘ladi…

– Otam… To‘raqulov … janozasiz ko‘mildi” [1: 56] .

Bunday fojiaviylikda Botir firqaning itoatkorlik, vazifani bekam-u ko‘st qilishi sababini uning ildiziga bog‘lash to‘g‘ri. Ulug‘bek Hamdam “Sabo va Samandar” romanida Samandarning majnunsifat ishqini qon bilan o‘tganligini, Samandar otasidan o‘tganligi bilan mantiqiy dalillangan. Tog‘ay Murodda ham shunday. Shu kabi xususiyatlar Botir firqaning salbiy tomoni bo‘lib ko‘rinadi. “Xom sut emgan banda” hech qachon to‘la to‘kis ijobiy bo‘lmaydi. Individ sifatida salbiy bo‘lib ko‘ringan tomoni o‘zi uchun to‘g‘ri deb qabul qiladi. Bu jihatdan yozuvchining spetsifik xususiyati bilan salbiy tomonni oqlab ko‘rsatadi. O‘quvchiga qahramonni boricha qabul qilish imkonini beradi.

Aslida asar 1994-1998-yillar oralig‘ida yaratilgan. Xronikasi XX asrning 30- yillaridan to 90-yillarni qamrab oladi. Shu yillar oralig‘ida yashagan, tuzumlar almashinuvini ko‘rgan “firqalar”, insonlar hayoti va ulardagi o‘zgarishlar badiiylikda ochib berilgan. Filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronov asar xususida to‘xtalib: “ “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani xuddi shunday – minglab “botir firqalar” oyoq qo‘ygan zamin birdan yo‘qolib, o‘tmish va kelajak orasida muallaq turib qolgan bir davrda yozilgan…” [1: 9]nini qayd etadi. Romanda yozuvchi mana shunday murakkab davr hayotining haqqoniy, butun dramatizmi va ziddiyatlari bilan aks ettirgan syujet yaratiladi. Zero, *“Syujet – hayot ziddiyatlarini umumlashtiruvchi voqealar majmui”* [4: 113].

“Konflikt roman mazmuni va vositalarining ajralmas qismi…” [3: 111], *“Konflikt – syujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch”* [4: 114] ekanligini inobatga olsak, asardagi birgina epizodda konfliktning uch xil ko‘rinishini va bir-birini keltirib chiqargan holati kuzatiladi.

“– Tajribalarimiz bunday: siz aytgan anavi qabriston o‘z ajali bilan o‘lganlar uchundir. Faqat… ochlikdan o‘lganlar uchun emas!

– Nima farqi bor: o‘z ajali bilan o‘ldi nima, ochlikdan o‘ldi nima? Bariyam o‘lim-da , bariyam go‘rga kiradi-da?...

– Manavigami? Bu… hovuz-ku?... Bular … odam…- deya duduqlandi Botir firqa – Bular … odammi?

– Yo‘q , ular ochdan o‘lganlar, – dedi komandir. – Ular… Sovet hukumatiga qarshi ochdan o‘lganlar!...

Botir firqa marhumlarga tikilib turdi-turdi… beixtiyor qo‘llarini ko‘tardi. Marhumlar haqiga duo o‘qimoqchi bo‘ldi…

Eng yomoni – tepasida NKVDchilar qarab turishi bo‘ldi…

Botir firqa taxlanib yotmish marhumlar tikildi… ichida fotiha o‘qidi, ichida qur’on o‘qidi” [1: 26/27].

Bu parchada Botir firqaning siyosat tuzumiga, NKVD xodimlariga qarshi, o‘zidagi ichki ziddiyatni ko‘ramiz. Konfliktning bu ko‘rinishi noisyonkorona, ilojsizlik ruhining kuchli ekanligi bilan xarakterlanadi.

Asar boshida Botir firqa ochdan o‘lgan Ashir momo va Chori bobolar ruhiga ichida Qur’on tilovat o‘qishi, oxirroqda esa “duo-yi fotiha”ni toshbitkichdan yozib olishi, To‘raqulovning mozori boshida “partiyaviy”, “kommunistcha” tilovati bir insonning mafkura ta’sirida

o‘zlikni yo‘qotganligini, ruhiyati va e’tiqodini o‘zgargani fosh etiladi. Bunga o‘xshash holat – xonaqoh buzilishi, keyinchalik esa kinoteatrni masjidga aylantirilganidagi syujet voqeligidagi qahramon qarashlarining tafovuti yordamida jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar xarakterdagi o‘zgarishga ta’sir etgani jonli epizodlarda tasvirlanadi.

Romandagi Madiyev, Dilya obrazlari urushdan keyingi botirlarning adabiy tipi sifatida chizilgan. Obkom Rajabov, Botir firqa obrazlari o‘z davri ijtimoiy guruhining tipi bo‘la oladi. Madiyev va obkom Rajabov jinnixonaga tushib qolish epizodlari bilan mushtaraklikka ega. Madiyev kommunizm mafkurasiga nomuvofiq fikrlagan shaxslarni, obkom Rajabov esa hayotidagi o‘z haqiqatini yo‘qotib qo‘ygan, yangilikni qabul qilolmagan “sovet odami”ning tiplari ifoda etadi. Botir firqa obrazini yaratishda yozuvchi obrazga xos individual xususiyatlarni, uning o‘ziga xos. Shuning uchun ham bu obraz romanda xarakter darajasiga ko‘tarilgan. Qayta qurish, ma’naviy jarayondagi evrilishlarda Botir firqaning butun umr topinib kelgan e’tiqodlarining sarobga aylanishi, jamiyat uni keraksiz “qizil” deb atashi, demokratcha fikrlarni qabul qilolmagani umrini ma’nisiz, absurd o‘tganini ko‘rsatadi.

“Hayotda ma’no qolmadi. Turmushda mazmun qolmadi. Yashashda maqsad qolmadi” [1: 177].

“…Oqibat el-yurtga kerak bo‘lmay qoldim. El-yurtga kerak bo‘lmaslik –juda yomon!” [1: 204].

Botir firqa inson sifatida qadrini bilish uchun “dunyodan ketish” dardiga tushib qoladi. “Suitsid mutaffakir” bo‘lish dardini Botir firqa tosh bitikchiga yorishi, oqibat esa bu dunyoda o‘z ixtiyori bilan o‘lib bo‘lmasligini anglaydi. *“Menday zot o‘lsa…Menga … janoza o‘qimaydilar, janoza o‘qimaydilar! Oyog‘imdan sudrab … ko‘mib tashlaydilar! Nom-nishonsiz ko‘mib tashlaydilar. Oting nima demay, ko‘mib tashlaydilar. Itmisan-eshakmisan demay…ko‘mib tashlaydilar”* [1: 200], *“…eskichasiga-da o‘lib bo‘lmaydi, yangichasiga-da o‘lib bo‘lmaydi”* [1: 202]. Hayotda esa *“…g‘am seliga bardosh berish…bandasi uchun ham qarz, ham farz…”*ligini[1: 200] biladi. O‘z joniga qasd qilishni rad qiladi.

“…u dunyoda… o‘lsa bo‘ladi! U dunyoda oyoq uzatib yotsa bo‘ladi! Ko‘z yumib yotsa bo‘ladi! Bu dunyoda esa… yashasa bo‘ladi! Bu dunyo – yashash uchundir!...

Bu dunyoga keldingmi? Endi, chida! Dunyo – chidaganniki! Oxirigacha chida, xudo bergan kungacha chida!” [1: 207]. Aynan shu narsa tufayli roman “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” deb nomlangan.

Bu foniy dunyoda har bir zot sinov va imtihondan o‘tish uchun kelishini unutgan, o‘zligidan, milliy qadriyatlari, e’tiqodidan ayrilgan kimsaning fojiaviy qismati asarda qalamga olingan. Hokimiyat binosining buzilishi, o‘z qo‘llari bilan ekkan chinorlari kesilsa-da, o‘zbek sifatida bundan o‘ziga umid topdi.*“…biz endi Buyuk ipak yo‘lidan yuramiz. Buyuk ipak yo‘li bizni jahonga olib boradi. Istanbul, Parij, London…”*

Tog‘ay Murod obraz yaratishda muhim tomonlaridan biri personaj ruhiyatini xatti-harakatlari vositasida tasvirlashdir. *“Qo‘shchi kalondimog‘-kalondimog‘ qadam bosdi. Kibor-kibor quloch otdi. Kerma qosh-kerma qosh boqdi… Hovuz supada tik turdi. Qo‘llarini orqa etdi. Yo‘q qorinni olg‘a surdi. Yo‘q qorinni olg‘a suraman deya… ketiga chalqayib qoldi. Yo‘q qorin oldinda qoldi… Keti ichkari kirib yo‘qoldi. O‘zi ketiga chalqayib qoldi!”* [1: 15].

Tog‘ay Murodning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida inson va uning o‘zligi, hayotning ma’nosi xususida fikr yuritiladi. Botir firqa va u mansub jamiyat, tuzum vositasida milliy qadriyatlari, e’tiqodi, o‘zligidan ayrilayozgan millat vakili “sovet kishisi”ning anglamlari badiiy tadqiq etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murod T. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. – Toshkent: “Nurafshon business” nashriyoti, 2020.
2. Yo‘ldosh Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2005.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2002.
5. BURKHANOVA, F. (2021). The Use Of Myths And Legends In Creation Of Story In Modern Uzbek Prose. *Int. J. of Aquatic Science*, *12* (2), 2795-2800.
6. The methods of studying and analyzing classical poetic arts in literature lessons //Journal of critical reviews, 2020. – №5. – B. 1631-1641.
7. Burkhanova F. The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi // Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X (Dec 03, 2021) P. 32467-32472.
8. Burkhanova F. (2018). The use of metaphor in the stories of Nazar Eshankul. *Theoretical & Applied Science*, (10), 312-315.
9. Burkhanova F. A New Artistic Interpretation Of The Image Of Sisyphus. Journal of Positive School Psychology. 2022, Vol. 6, No. 9, 2746-2752.
10. Burkhanova F. ABOUT THE ANALYSIS OF THREE STORIES. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 10, Oct. (2022) 174-178.

Marhabo YUSUBJONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU universiteti
Filologiya fakulteti adabiyotshunoslik nazariyasi mutaxassisligi magistranti
yusubjonavamarhabo359@gmail.com

CHO‘LPON IJODIDA MILLIY UYG‘ONISH G‘OYALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakili Abdulla Qodiriy zamondoshi, jadid adabiyotining yorqin namoyandasi Cho‘lpon (Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li) ijodida milliy uyg‘onish g‘oyalari tahlil qilinadi. Adibning she’riy, nasriy hamda publitsistik asarlarida xalqning ozodligi, milliy o‘zlikni anglash, erkinlik va ma’rifatparvarlik motivlari o‘z ifodasini topgani ilmiy asoslangan holda ochib beriladi. Cho‘lponning “Buloqlar”, “Kecha va kunduz” kabi asarlaridagi badiiy talqin misolida milliy uyg‘onish davri adabiy tafakkuri ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *Cho‘lpon, milliy uyg‘onish, jadidchilik, erkinlik, ma’rifat, ozodlik, “Kecha va kunduz”, uyg‘onish davri adabiyoti.*

Annotation: this article analyzes the ideas of national awakening in the works of Cho‘lpon, one of the prominent representatives of Uzbek literature and the Jadid movement. His poetic, prose, and journalistic works vividly depict the themes of freedom, national identity, enlightenment, and independence. The study particularly focuses on Cho‘lpon’s collection “Buloqlar” and the novel “Kecha va kunduz,” which reflect the artistic interpretation of national revival during the Jadid period.

Key words: *Cho‘lpon, national awakening, Jadidism, freedom, enlightenment, independence, “Kecha va kunduz”, national revival literature.*

Annotatsiya: в данной статье анализируются идеи национального возрождения в творчестве яркого представителя джадидской литературы, современника Абдуллы Кадыри — Чулпана (Абдулхамид Сулейман оглы). В его поэтических, прозаических и публицистических произведениях находят отражение мотивы свободы народа, национального самосознания, независимости и просвещения. На примере художественного толкования произведений Чулпана, таких как “Родники” и “Ночь и день”, показано литературное мышление эпохи национального возрождения.

Ключевые слова*: Чулпан, национальное возрождение, джадидизм, свобода, просвещение, независимость, “Ночь и день”, литература эпохи возрождения.*

Kirish. XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida milliy uyg‘onish davri boshlangan edi. Bu jarayon jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, millatni uyg‘otish, xalqni ozodlik va taraqqiyot sari yetaklash g‘oyalarini ilgari surdi. Shu davrda Cho‘lpon o‘zining betakror iste’dodi bilan millat ma’naviy uyg‘onishining asosiy ramzlaridan biriga aylandi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda mustaqillik va milliy o‘zlikni anglash jarayonida Cho‘lpon merosi xalqimizning erkinlikka intilish tarixini aks ettiribgina qolmay, balki ma’naviy ozuqa vazifasini ham o‘tamoqda.

Maqsad va vazifalar: ushbu maqolada Cho‘lpon ijodida milliy uyg‘onish g‘oyalarini she’riy, nasriy va publitsistik asarlari misolida ochib berish maqsad qilinadi.

O‘rganilganlik darajasi: Cho‘lpon ijodini o‘rganishda N. Karimov, O. Sharafiddinov, U. Hamdam, I. Haqqul kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar

1. Cho‘lpon ijodida milliy uyg‘onish tushunchasi

Cho‘lpon (1897–1938) jadid adabiyotining eng yorqin vakillaridan biridir. Uning butun ijodi millatni uyg‘otish, xalqni jaholatdan chiqarish, milliy o‘zlikni anglashga da’vat etishga qaratilgan. Cho‘lponning she’rlari, dramalari, publitsistik maqolalari zamonasining ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirib, xalq qalbida uyg‘onish tuyg‘ularini uyg‘otgan.

2. She’riyatida milliy uyg‘onish motivlari

Cho‘lponning ilk she’riy to‘plami — “Buloqlar” (1924) asarida milliy ruh, xalq dardini ifodalash,

ozodlikka intilish kabi motivlar yetakchi o‘rin tutadi. Uning “O‘zbek qizi”, “Adolat”, “Men kimman” kabi she’rlarida millatni uyg‘onishga, ozodlikka chorlovchi obrazlar yaratiladi.

Masalan, “O‘zbek qizi” she’rida millatning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni ilm-ma’rifatga chorlash g‘oyasi ifodalangan. Bu she’r Cho‘lponning milliy uyg‘onish davridagi ma’rifatparvarlik ruhini ko‘rsatadi.

3. Nasriy asarlarida milliy uyg‘onish g‘oyalari


Cho‘lponning eng muhim asari “Kecha va kunduz” (1934) romanidir. Bu roman o‘zbek adabiyotidagi ilk yirik epik asarlardan bo‘lib, unda millatning tarixiy taqdiri, mustamlaka zulmi ostidagi hayoti, ozodlik uchun kurashga intilishi tasvirlangan. Romandagi Omon obrazida xalqning uyg‘onish va ozodlik sari intilishi gavdalanadi.

Roman ijtimoiy hayotdagi qarama-qarshiliklarni yoritish bilan birga, millatni o‘zligini anglashga da’vat etadi. Adib jamiyatdagi notekisliklarni ochib tashlab, xalqni kelajak uchun kurashishga undaydi.

4. Publitsistikasi va milliy o‘zlikni anglash

Cho‘lponning publitsistik maqolalari ham milliy uyg‘onish davrining muhim qismidir. U matbuot sahifalarida ilm-ma’rifat, adabiyot, madaniyat, ozodlik va millat kelajagi haqidagi fikrlarini bayon etgan. “Adabiyot — xalq ko‘zgusi” degan qarash Cho‘lponning ijodiy prinsiplaridan biridir.

Publitsistik merosida Cho‘lpon xalqni uyg‘otishga, milliy qadriyatlarga e’tibor qaratishga, mustamlakachilikka qarshi turishga chaqiradi.



Xulosa. Cho‘lpon ijodi o‘zbek milliy uyg‘onish davrining yorqin ifodasidir. Uning she’riyati, nasri va publitsistikasi xalqni ozodlikka, ilm-ma’rifatga, milliy o‘zlikni anglashga chorlagan. “Buloqlar” to‘plami va “Kecha va kunduz” romani milliy uyg‘onish g‘oyalarining eng yuksak badiiy namunalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda Cho‘lpon merosi mustaqil O‘zbekiston yoshlari uchun ham ruhiy-ma’naviy dasturilamal vazifasini o‘tamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. “Cho‘lpon ijodining badiiy olami”. — Toshkent: Fan, 1991.
2. Sharafiddinov O. “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi”. — Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
3. Haqqul I. “Adabiy tafakkur manzaralari”. — Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
4. Hamdam U. “Cho‘lpon va milliy uyg‘onish”. — Toshkent: Akademnashr, 2012.
5. Cho‘lpon. “Buloqlar”. — Toshkent, 1924.
6. Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”. — Toshkent, 1934.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Cho‘lpon haqidagi maqola.

Fotima MAMADOVA,
Buxoro davlat universiteti Adabiyotshunoslik (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistratura bo‘limi

ASQAR MAHKAMNING “TAVAJJUH” DOSTONIDA AYOLLARGA BO‘LGAN MUNOSABAT

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy she’riyat namunasi bo‘lgan shoir Asqar Mahkamning ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning so‘nggi kunlari, qazo va qadar kunigacha bo‘lgan tavba-yu tazarrusi, insoniyat hayoti va uning mazmuni taqdiri uchun juda ham muhim va ahamiyatli ekanligi aks ettirilgan “Tavajjuh” dostonida ayollarga bo‘lgan munosabat, umuman, Boburning hayotida ayollarning o‘rni haqida so‘z boradi.

Аннотация: в данной статье рассматривается отношение к женщинам в эпической поэме «Таваджух», в которой отражены последние дни нашего предка Захириддина Мухаммада Бабура, его раскаяние и покаяние вплоть до Судного дня, важность и значение человеческой жизни и ее содержания для судьбы человечества, а также роль женщин в жизни Бабура в целом.

Annotation: this article discusses the attitude towards women in the epic poem “Tavajjuh”, which reflects the last days of our ancestor Zahiriddin Muhammad Babur, his repentance and repentance until the Day of Judgment, the importance and significance of human life and its content for the destiny of humanity, and the role of women in Babur’s life in general.

Keyingi paytlarda diniy-axloqiy g‘oyalar adabiyotimizda chuqur ildiz otib borayotir. Ma’naviy sarchashmalarimiz – Ollohning kitobi muqaddas Qur’oni Karimga, Muhammad Mustafo s.a.v. sunnatlari – muborak hadislarga murojaat etish alohida tamoyilga aylandi. Ushbu yo‘nalishda Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkumini, Tohir Qahhorning “Muhammad bilan suhbat” lirik dostonini, Asqar Mahkamning “Naqshbandiya” dostoni bilan “Tavajjuh”, “Ishq” she’riy qissalarini, Sirojiddin Sayyidning “Qirq hadis”, Shukur Qurbonning “Unutmadim adolar rasmin” (she’rga tushgan hadislar) she’riy turkumlarini ta’kidlash joiz.

Axloq qoidalarida, umuman, dinimizda muqaddas bo‘lgan narsalar mavjud. Masalan, non – muqaddas ne’mat bo‘lib uni bosish tuproqqa qorishtirish gunoh, yoki bo‘lmasa, suv ham shunday unga axlat otish, isrof qilish taqiqlanadi. Shular qatorida ayol zoti ham muqaddaslik kasb qilib, uni xor qilish, kamsitish dinimizda, konstitutsiya qonunlarida taqiqlab qo‘yilgan. Bejizga xalqimiz orasida ham ayol bir qo‘li bilan beshikni tevratsa, bir qo‘li bilan dunyoni tevratadi degan naql yurimaydi. Zabardast qahramonlar-u, ma’rifatparvar insonlar; dunyoni titratguvchi podshohlar-u, ilmpesha olimlar – barchasi mushtipar onalar etagidan tushgan daholar sanaladi. Adabiyotimizda o‘z ijodi orqali ayol zoti sha’nini, uning nomus-u huquqlarini himoya qilib yozilgan asarlar ko‘plab uchraydi. Diniy adabiyot namunasi bo‘lgan, o‘zida o‘quvchiga adabiyot bilan birgalikda diniy qoida va ahkomlardan dars bergan Asqar Mahkamning “Tavajjuh” dostonida ham ayol qadri, o‘tgan asrlarda ayollarga bo‘lgan munosabat, muslima qizlarning nomus masalasi yuqori pardalarda yoritib berilgan.

Shoirning “Tavajjuh” poemasida Andijoniy podshoh Zahiriddin Muhammad Boburning o‘z xalqi, ommasi, gunohkor banda sifatida Ollohning oldidagi va, shu bilan bir qatorda, ayollarga bo‘lgan tazarrusi bayon etilgan dostonda Ollohning qahrini uyg‘otadigan ishlardan eng yomoni zino ekanligi, zino insoniyatni yomonlikka – noto‘g‘ri yo‘lga boshlovchi haromiy illat ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. O‘tgan asrlardan ma’lumki, bir podshohning haramida ko‘plab xotinlari va kanizaklari bo‘lgan. Ijodkor nazmida bu holat qora bo‘yoqlarda tasvirlangan:

Sochlari o‘ralib saksovullarga
Sahroda yotganda bir it, bir Majnun,
Murdor tanangizni uyg‘otmoq uchun
Qoshingizda qotdi ming bitta xotun

Ko‘p xotinlik dinda qoralanmaydi. Dinda to‘rttagacha xotin olishga musulmon ahli uchun ruxsat berilgan. Jaloliddin Rumiyning “Ichingdagi ichingdadur” diniy-falsafiy kitobining tarjimoni bo‘lgan ijodkor uchun ko‘p xotin olib vaqtini aysh-ishratga sarflagan o‘tmish podshohlari salbiy qiyofada akslangan. Shu sababli ham shoir dostonning ko‘plab o‘rinlarida bu mavzuga murojaat etib o‘tgan:

Roviylar ochdilar sinoat lavhin,
Dedilar: “Ey Mirzo, yozmishing qaro…”
Ibrohim Luddining yoy o‘qi yanglig‘
Janub bodi qoldi so‘ngagim aro.

Bu parcha juda ham tahliltalab bo‘lib, shoir bu yerda tarixiy shaxs, Lut payg‘ambarni yodga oladi. Lut payg‘ambar Ibrohim payg‘ambarning akalari Xoronning o‘g‘li edi. Bu payg‘ambar dastlab Ibrohim alayhissalomga iymon keltirib, u zotning yo‘lidan yurgan, keyinchalik Lut alayhissalom amakilarining iznlari bilan Urduning (Iordaniya) Sadum degan joyiga ketdilar. Bu shaharning aholisi dunyodagi eng yomon gunohlardan biriga mubtalo bo‘lishgan edi. Ular bachchabozlik bilan shug‘ullanishardi. Lut alayhissalomning asosiy vazifalaridan biri ularni shu qabih ishdan qaytarish bo‘lgan[1]. Shunga ishora sifatida yozilgan parchada Boburning taqdiri – yozmishi qora ekanligi, uning yaxshi kunlaridan ko‘ra yomon kunlari ko‘p ekanligi aytiladi. Sadum shahri ham Hindiston singari janubiy davlatlardan biri bo‘lib, Hindistonda tinchlik o‘rnatish Boburning chekiga tushadi. U ham Hindistonda eng yomon gunoh sanalgan eri o‘lgan ayolni tiriklayin eri bilan yoqib yuborish qonunini bekor qiladi.

Dostonda odamzotni faqat yaxshilik qilishga, qazo kuniga qadar qilgan amallari faqat ezgulikdan iborat bo‘lishga chaqiriladi. Dostonda Bobur so‘nggi kunlarida haramda hur-pari ayollar bilan aysh qilishdan ko‘ra haqiqiy muhabbat – xonaqohdagi yori – Olloh yodi bilan kunlarini o‘tkazishga vaqt ajratganligi aytiladi. Musulmon payg‘ambari Muhammad Rasulullоh s.a.v.ning qiyomat kunida qaytishi tasviri ham dostonda tashxis badiiy san’ati asosida bayon qilingan:

Tushlarimga kirdi tuyog‘lari tug‘
Rutubatli buxor ichra bir tulpor.
Bulut sanochini yirtib ohista
Darvish kosasiga to‘kilganda oy.

Bobur dunyoga kelganida uning valiytaroshi Xoja Ahror Valiy tomonidan berilgan Zahiriddin Muhammad ismi ham Payg‘ambarimiz nomlari bilan bir xil ekanligi Boburning Payg‘ambar yo‘lini tutishi, hayoti davomida faqat yaxshi ishlar, amallar qilib, xalqiga foyda keltirishi nomidan bo‘lsin uchun qo‘yilgan edi.

Boburning hayotida yana uchta ayolning muhim rol o‘ynashi, ularning fikri, maslahatiga tayanib harbiy yurishlar uyushtirgani, har bir mamlakatning siyosati shu uchta ayol – Esondavlat Begim, Qutlug‘ Nigor xonim, opasi Xadichabegim maslahati bilan amalga oshganligi ham bizga “Boburnoma”dan, amerikalik ijodkor Harold Lambning “Bobur – yo‘lbars” asarlaridan ma’lum. Ammo shoir Asqar Mahkam bu uch ayoldan birontasining nomini dostonda keltirmaydi. Dostonning “Mirzo Boburning Vatan haqida o‘ylaganlari” qismida Vatanning ta’riflarini keltira turib o‘sha zamonlarda ayol-u qizlarga bo‘lgan munosabatni ham yaqqol ko‘rsatib o‘tadi:

Vatan – ayolini xor qilgan elat
Vatan – ayolini qul qilgan ulus,
Vatan ayollarin zo‘rlagan davlat,
Vatan ayollarin siynasida tuz.

Muqaddas dinimiz Islomda barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarda birini boshqasidan ustun qo‘yilmagan. Shuningek, islom shariati umumiy shaklda aniq maqsadga erishishni ko‘zlagan bo‘lib, u “himoya” deb ataladi. Himoya esa turli jabhalarda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Xususan, ayollarning sha’ni, ularga taalluqli bo‘lgan barcha narsa islom dini asosida himoya etiladi. Shu sababdan ham Qur’oni karim va sunnati nabaviyda ayollarga oid haq-huquqlar, nozik va daqiq ta’riflar alohida e’tibor bilan keltiriladi.

Islom dini ayollarning sha’nini ko‘tarib, ularning turmush tarzini go‘zallashtirgan. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ayollarga o‘z erlariga itoat qilishni, erkaklarga esa jufti halollariga mehribonlik qilishni buyurganlar. Qizlarni majburlab erga berish, ularning mollarini yeyishni man qilganlar. Chunki johiliyat davrida ayollar meros ololmas, agar biror kishiga qiz farzand ko‘rganining xabari berilsa, g‘azablanganidan yuzlari qorayib, bo‘zarib ketar edi. Alloh taolo Qur’oni karimda ularning bu holatini bunday bayon qiladi:

يَتَوَارَى مِنَ الْقَوْمِ مِنْ سُوءِ مَا بُشِّرَ بِهِ أَيُمْسِكُهُ عَلَى هُونٍ * وَإِذَا بُشِّرَ أَحَدُهُمْ بِالْأُنْثَى ظَلَّ وَجْهُهُ مُسْوَدًّا وَهُوَ كَظِيمٌ
أَمْ يَدُسُّهُ فِي التُّرَابِ أَلَا سَاءَ مَا يَحْكُمُونَ

1 Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – T.: Hilol nashr, 2020-yil.

“Qaysi birlariga qiz *(ko‘rgani haqida)* ***xushxabar berilsa, g‘azabi kelib, yuzlari qorayib ketadi. U (qiz)ni kamsitgan holda, olib qolish yoki*** *(tiriklay)* ***tuproqqa qorish*** *(to‘g‘risida o‘y surib),* ***o‘ziga xushxabar berilgan narsaning «yomon»ligidan*** *(oriyat qilib)* ***odamlardan yashirinib oladi. Ogoh bo‘lingizki, ularning bu hukmlari juda yomondir*** *(“Nahl” surasi, 58-59-oyatlar).*

Qur’oni karimda “Niso” (Ayollar) nomi bilan ham alohida sura nozil qilingan bo‘lib, unda meros va ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgani dinimizda ularning ehtirom qilinganini ko‘rsatib beradi.

Ijodkor Asqar Mahkam diniy ilmni mukammal egallagani sababli ham uning ko‘plab ijod namunalarida diniy savodxonligi yuqori darajada bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. U adabiyot hamda dinni qorishtirgan holda asar yaratadi. Adabiyotdagi odob, badiiylik, o‘rnak hamda dindagi axloq, hurmat sintezi ijodkorning novatirona mahoratini ko‘rsatib turibdi. Dostonda asil o‘zbek ayollarining qiyofasi badiiy san’atlar asosida ochib berilgan bandlar ham mavjud bo‘lib, bularda biz ijodkorning xalq og‘zaki ijodiga murojaat etganini ko‘rishimiz mumkin:

Suluvlar **yuzlari shirmoyi kulcha, (tashbeh)**
Tulpor sag‘rinida yorin kutdilar.

***

Go‘zallar belida **sunbullari (istiora)** –band
Sunbul to‘shidadir aysh-u toati

***

Tulporlar belida naqshinkor kamand
Sambit ayollarning **qayish qomati.(tashbeh)**

Dostondan xulosa shuki, inson hech qachon ham hoziri bilan hozirgi kuni bilan yashamasligi lozim. Ertani o‘ylab ish qilish har doim ham xayrli bo‘lgan. Xayrli ishning esa hech ham kechi yoq. Ayol zoti mukarram. Uni qadrlash, e’zozlash lozim. Olamda ayol borki, hayot bor; ayol borki kelajakka ishonch bor. Farzandlar salomatligi, ularning porloq kelajagi onalarimizga, momolarimizga bog‘liq. Birgina alla orqali go‘dak qulog‘iga yuz xil tovush, yuz xil ohang yetib boradi. Bejizga xalqimiz orasida ham “Ayolning sarishtasi – ro‘zg‘orning farishtasi” degan maqol uchramaydi. Shoir hatto farishtamisol ayollarni Navoiy qalamidan, qobiliyatidan ustun qo‘yganligi ayol zotining hatto so‘zdan ham ustun ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa ayollarning dostonda qanchalik qadr topganligini, yuksakka ko‘tarilganligining isbotidir:

Ko‘kragini silab ko‘kka termildi,
Bor bisoti ayol, tanho arg‘umoq
Umr o‘tar, ammo to‘shagi bir shol
Suruv-suruv qo‘y-u ko‘zi mahzani
Ayol suruv kabi hosildor ayol.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqar Mahkam. “Tavajjuh”. – T.: “Movuraunnahr”, 1993-yil.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – T.: Hilol nashr, 2020.
3. Harold Lamb. “Bobur – yo‘lbars”. – T.: “O‘zbekiston”, 2018.
4. Bobur.Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1990.
5. H. Umirov. Adabiyotshunoslik nazariyasi qoidalari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalqaro meros nashriyoti, 2004.
6. Mustaqillik davri adabiyoti. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2006.
7. Vohidov E. Iztirob. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
8.Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “O‘AJBNT”Markazi, 2003.

Nozima JUMAYEVA,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Lingvistika. O‘zbek tili yo‘nalishi, 2-kurs magistranti
nozimajumaeva67@gmail.com

O‘ZBEK YOSHLARINING SOTSIOPRAGMATIK STRATEGIYALARI

Annotatsiya: ushbu maqola O‘zbekiston yoshlarining sotsiopragmatik strategiyalarini o‘rganish orqali ularning ijtimoiy muloqot jarayonidagi til foydalanish xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot yoshlarning turli ijtimoiy kontekstlarda pragmatik strategiyalardan qanday foydalanishi, madaniy omillarning til tanloviga ta’siri va zamonaviy globallashuv sharoitida an’anaviy muloqot uslublarining o‘zgarishini ko‘rib chiqadi. Adabiyotlar tahlili asosida O‘zbek yoshlarining sotsiopragmatik xulq-atvori milliy madaniyat va zamonaviy tendensiyalar kesishmasida shakllanayotgani aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *sotsiopragmatika, yoshlar tili, muloqot strategiyalari, madaniy identifikatsiya, O‘zbekiston, tilshunoslik.*

Annotation: this article analyzes the features of the use of language in the process of social communication of youth of Uzbekistan through the study of sociopragmatic strategies. The study examines how young people use pragmatic strategies in different social contexts, the impact of cultural factors on language choice, and the change in traditional communication styles in the context of modern globalization. Based on the analysis of literature, it was found that the sociopragmatic behavior of Uzbek Youth is taking shape at the intersection of national culture and modern trends.

Keywords: *sociopragmatics, youth language, communication strategies, cultural identity, Uzbekistan, linguistics.*

Аннотация: в данной статье анализируются особенности использования языка в процессе социального общения молодежи Узбекистана посредством изучения социопрагматических стратегий. В исследовании рассматривается, как молодые люди используют прагматические стратегии в различных социальных контекстах, влияние культурных факторов на выбор языка и изменение традиционных стилей общения в контексте современной глобализации. На основе анализа литературы установлено, что социопрагматическое поведение узбекской молодежи формируется на стыке национальной культуры и современных тенденций.

Ключевые слова: *социопрагматика, язык молодежи, коммуникационные стратегии, культурная идентичность, Узбекистан, Лингвистика.*

Kirish. Sotsiopragmatika zamonaviy tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo‘lib, tilning ijtimoiy kontekstda qo‘llanilishi va muloqot jarayonidagi pragmatik strategiyalarni o‘rganadi [1]. O‘zbekiston yoshlari bugungi kunda an’anaviy madaniy qadriyatlar va zamonaviy global tendensiyalar kesishmasida o‘ziga xos sotsiopragmatik strategiyalarni shakllantirib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o‘zgarishlar yoshlarning til foydalanish uslublariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda [2].

Yoshlarning sotsiopragmatik strategiyalari ularning ijtimoiy guruhga tegishliligini namoyon etish, o‘z pozitsiyasini belgilash va turli kontekstlarda muvaffaqiyatli muloqot o‘rnatish vositasi hisoblanadi. O‘zbek jamiyatida yoshlarning til tanlovi, muloqot uslubi va pragmatik strategiyalari milliy madaniyat, oilaviy qadriyatlar va zamonaviy tendensiyalar ta’sirida shakllanmoqda [3]. Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbek yoshlarining sotsiopragmatik strategiyalarini sistemli tahlil qilish va ularning ijtimoiy muloqotdagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism. O‘zbek yoshlarining sotsiopragmatik strategiyalari ko‘p qirrali va murakkab hodisa bo‘lib, bir necha asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilish mumkin. Birinchi navbatda, madaniy identifikatsiya strategiyalari yoshlarning o‘z milliy o‘zligini saqlash va zamonaviy global madaniyat bilan moslashish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, O‘zbek yoshlari muloqot jarayonida an’anaviy hurmat va adab-axloq qoidalarini saqlagan holda, zamonaviy til vositalaridan ham foydalanishga harakat qilmoqda [4].

Ikkinchi muhim jihat – bu yoshlarning turli ijtimoiy kontekstlarda kod almashtirish strategiyasidan foydalanishidir. O‘zbek yoshlari oilaviy muhitda an’anaviy O‘zbek tili me’yorlariga rioya qilgan holda, tengdoshlar o‘rtasida esa ko‘proq erkin va zamonaviy uslubda muloqot qilishadi. Bu hodisa code-switching deb ataladigan sotsiolingvistik jarayonning yaqqol

namunasidir [5]. Yoshlar turli tillardan (rus, ingliz) so‘zlarni o‘z nutqlariga aralashtirish orqali o‘zlarining zamonaviyligini va dunyoqarashini ifodalaydilar.

Uchinchi jihat – texnologik muhitda sotsiopragmatik strategiyalarning rivojlanishi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjlar va boshqa raqamli platformalarda O‘zbek yoshlari o‘ziga xos til va muloqot uslubini ishlab chiqargan. Virtual muhitda ular ko‘proq qisqartmalar, emotikon va slengizmlardan foydalanish orqali o‘z yoshlik identifikatsiyasini namoyon etmoqda [6]. Bu tendensiya global yoshlar madaniyatining O‘zbekiston kontekstidagi o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Gender omili ham O‘zbek yoshlarining sotsiopragmatik strategiyalarida muhim rol o‘ynaydi. Erkak va ayol yoshlarning muloqot uslublari, til tanlovi va pragmatik strategiyalari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. An’anaviy gender rollari zamonaviy tendensiyalar bilan to‘qnashib, yangicha muloqot uslublarining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda [7]. Ayol yoshlar ko‘proq ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish va o‘z fikrlarini ochiq ifodalash orqali an’anaviy cheklovlarni buzishga harakat qilmoqda.

Ijtimoiy tabaqalanish va iqtisodiy holat ham yoshlarning sotsiopragmatik strategiyalariga ta’sir ko‘rsatadi. Turli ijtimoiy qatlamga mansub yoshlar o‘zlarining ijtimoiy pozitsiyasini til orqali ifodalash uchun turli strategiyalardan foydalanmoqda. Yuqori ta’lim olgan yoshlar ko‘proq rasmiy uslubdan foydalanish orqali o‘z bilim darajasini ko‘rsatishga harakat qilsa, boshqa guruhlar o‘zlarining “haqiqiy” yoshlik identifikatsiyasini saqlashga qaratilgan [8].

Religioz va madaniy qadriyatlarning ta’siri ham O‘zbek yoshlarining sotsiopragmatik strategiyalarida kuzatiladi. Islom madaniyati va milliy an’analar yoshlarning muloqot uslubiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Katta yoshdagi odamlar bilan muloqotda hurmat va adab-axloq qoidalarini saqlash, ma’lum mavzularda ehtiyotkorlik bilan gaplashish kabi strategiyalar an’anaviy qadriyatlarning zamonaviy yoshlar hayotidagi davomiyligini ko‘rsatadi [9].

Zamonaviy O‘zbek yoshlarining sotsiopragmatik strategiyalari dinamik jarayon bo‘lib, doimiy o‘zgarish va rivojlanish holatida. Globallashuv, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot ta’sirida ushbu strategiyalar yangi shakllar kasb etib bormoqda. Yoshlar o‘zlarining madaniy identifikatsiyasini saqlagan holda, zamonaviy dunyoning talablariga moslashish uchun moslashuvchan pragmatik strategiyalar ishlab chiqarmoqda [10].

Xulosa. O‘zbek yoshlarining sotsiopragmatik strategiyalari zamonaviy O‘zbekiston jamiyatidagi madaniy o‘zgarishlarning muhim ko‘rsatkichidir. Ushbu strategiyalar an’anaviy milliy qadriyatlar va zamonaviy global tendensiyalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Yoshlar turli kontekstlarda moslashuvchan muloqot uslublaridan foydalanish orqali o‘zlarining ko‘p qirrali identifikatsiyasini namoyon etmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbek yoshlarining sotsiopragmatik strategiyalari bir necha asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanmoqda: madaniy identifikatsiyani saqlash, kod almashtirish, raqamli muhitga moslashish, gender rollarini qayta ko‘rib chiqish va ijtimoiy pozitsiyani ifodalash. Bu strategiyalar yoshlarning o‘zlarini ijtimoiy muhitga moslashtirishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Kelajakda O‘zbek yoshlarining sotsiopragmatik strategiyalarini chuqurroq o‘rganish uchun empirik tadqiqotlar, kuzatuvlar va intervyular o‘tkazish zarur. Bu soha tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qiladi. O‘zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy rivojlanishini tushunish uchun yoshlar tilining o‘rganilishi alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (2017). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.
2. Сафаров, Ш. (2019). Прагмалингвистика ва социолингвистика масалалари. – Тошкент: Фан.
3. Rahmatullayev, Sh. (2020). O‘zbek tilining ijtimoiy tabaqalanishi. – Toshkent: O‘qituvchi.
4. Begmatov E. (2018). Zamonaviy o‘zbek yoshlarining til madaniyati. Filologiya masalalari, 3, 45-52.
5. Myers-Scotton, C. (2019). Multiple voices: An introduction to bilingualism. Blackwell Publishing.
6. Норматов, И. С. (2021). Интернет-коммуникация и языковые изменения в современном узбекском языке. Вопросы языкознания, 4, 112-125.
7. Mirzayeva, G. (2020). Gender va til: O‘zbek tilshunosligida yangi yo‘nalishlar. – Toshkent: Akademnashr.
8. Wardhaugh, R. (2018). An introduction to sociolinguistics. Wiley-Blackwell.
9. Юлдашев, М. (2019). Узбекская молодежь: язык, культура, идентичность. – Ташкент: Университет.
10. Karimov, N. (2021). Globallashuv sharoitida o‘zbek tili va madaniyati. – Toshkent: Ma’naviyat.



Asal RIMBAYEVA,
Aniq va ijtimoy fanlar universiteti Lingvistika fakulteti
O‘zbek tili kafedrasi 2-kurs magistranti

SUBKOD SIFATIDA SOTSIOLEKTLARNING XORAZM DIALEKTIDA IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Xorazm dialektida sotsiolekta sifatida subkodlarning ifodalanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kasbga oid leksika, yoshlar tili, hududiy farqlar va avlodlar nutqidagi tafovutlar o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, subkodlar jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni ifodalash bilan birga, o‘zbek tilining dialektal boyligini ham namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: *sotsiolekta, subkod, Xorazm dialekti, yoshlar nutqi, kasb leksikasi, ijtimoiy tabaqalanish, o‘zbek tili.*

Аннотация: в статье рассматривается проявление субкодов как социолектов в Хорезмском диалекте узбекского языка. В ходе исследования были проанализированы профессиональная лексика, молодежный жаргон, территориальные различия и различия в речи поколений. Результаты показывают, что субкоды отражают как социальную стратификацию общества, так и диалектальное богатство узбекского языка.

Ключевые слова: *социолект, субкод, хорезмский диалект, молодежная речь, профессиональная лексика, социальная стратификация, узбекский язык.*

Annotation: this article examines the realization of subcodes as sociolects in the Khorezm dialect of the Uzbek language. The study analyzes professional vocabulary, youth speech, regional variations, and generational differences. The findings demonstrate that subcodes not only reflect the social stratification of society but also highlight the dialectal richness of the Uzbek language.

Key words: *sociolect, subcode, Khorezm dialect, youth speech, professional vocabulary, social stratification, Uzbek language.*

Kirish. Til insoniyat jamiyatining eng muhim belgisi bo‘lib, u faqat aloqa vositasi emas, balki ijtimoiy tabaqalanish ko‘zgusi hamdir. Sotsiolingvistika bu jarayonlarni chuqur tahlil qiladi va ayniqsa, sotsiolekta hodisasi diqqatga sazovor. O‘zbek tili hududiy va ijtimoiy rang-baranglikka boy bo‘lib, turli shevalar va subkodlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Xorazm dialekti o‘zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan boshqa o‘zbek shevalaridan ajralib turadi. Masalan, adabiy tilimizdagi *boryapman* o‘rniga *boptiman*, *qayerga* o‘rniga *qayyaqa* deyiladi. Shu sheva ichida turli yosh, kasb va ijtimoiy qatlamlar nutqida paydo bo‘ladigan **subkodlar** esa jamiyatning ijtimoiy-madaniy manzarasini yanada rang-barang qiladi. Ushbu maqola aynan shu masalaga bag‘ishlanadi.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llandi:

1. Deskriptiv metod — Xorazm shevasida uchraydigan sotsiolekta birliklar yozib olindi va tahlil qilindi.

2. Korpus tahlili — mahalliy suhbatlardan, bozorlardagi og‘zaki muloqotdan va xalq og‘zaki ijodidan misollar yig‘ildi.

3. Qiyosiy metod — dialektal birliklar adabiy til bilan solishtirildi.

4. Sotsiolingvistik kuzatish — yoshlar, keksa avlod, hunarmandlar va migratsiya ta’siridagi qatlamlar nutqi kuzatildi.

Material sifatida Urganch, Xiva va Gurlan hududlaridan yozib olingan suhbatlardan foydalanildi.

Natijalar

1. Kasbga oid subkodlar

– Dehqonlar nutqi: *“sho‘r chiqdi”* (yer sho‘rlanganini bildiradi), *“suv qo‘ydim”* (dalani sug‘orish ma’nosida).

– Baliqchilar nutqi: *“to‘rtboshi”* (katta baliq turi), *“sichqon tutdi”* (qarmoq o‘lja oldi ma’nosida).

– Hunarmandlar: *“to‘qmoq”* — oddiy ma’noda emas, temirchilik asbobi sifatida; *“savat”* — uy-ro‘zg‘or buyumi, ammo ustalar orasida maxsus o‘lchov birligi sifatida ishlatiladi.

2. Yoshlar sotsiolektlari

Netka (internet), *telik* (telefon), *ak* (aka qisqartmasi), *bro* (ingliz tilidan kirgan). Masalan: *“Bro, netka yo‘q, telik o‘chib qoldi”* — yoshlar nutqida ko‘p uchraydigan jumla.

3. Hududiy farqlar (subkodlar)

Urganchda *chaqmoq* (o‘tkir pichoq), Xivada esa *sholcha*. Ba’zi joylarda *paxta* o‘rniga *oq oltin* iborasi qo‘llansa, boshqa hududda *so‘fiy* deyiladi.

4. Ijtimoiy maqomga bog‘liq farqlar

Keksalar nutqida qadimiy so‘zlar: *«ko‘shni»* (qo‘shni), *«yangiq»* (yangi), *«oqshom»* (kechqurun). Yoshlar nutqida esa qisqartmalar va zamonaviy atamalar: *“vidyo”* (video), *“like bos”* (ijtimoiy tarmoqlarda).

Quyida mazkur subkodlarning turli qatlamdagi insonlar nutqida ishlatilishi foizlar kesimida ko‘rsatilgan:

- Dehqonlar (25%)
- Baliqchilar (15%)
- Hunarmandlar (20%)
- Yoshlar (30%)
- Keksalar (10%)

Muhokama

Xorazm dialektida kuzatiladigan sotsiolekta hodisalari bir qator ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanmoqda va o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Avvalo, **kasb va hunar** bilan bog‘liq leksik birliklar mahalliy hayot tarzini ifodalaydi. Masalan, baliqchilik, dehqonchilik yoki hunarmandchilik faoliyatida ishlatiladigan maxsus terminlar subkod sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Bu so‘zlar nafaqat kasbiy aloqalarda, balki kundalik nutqda ham o‘z o‘rnini topadi.

Yosh va avlodlar o‘rtasidagi tafovut ham til ko‘rinishlarida yaqqol seziladi. Yoshlar zamonaviy qisqartmalarni, inglizcha so‘zlarni va internet jargonini nutqiga qo‘shib ishlatmoqda. Masalan, “like bos”, “onlayn qil” kabi iboralar yoshlar nutqining ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, keksalar ko‘proq qadimiy dialektal so‘zlar va tarixiy til qatlamiga mansub leksik birliklardan foydalanadi. Bu holat Xorazm shevasida avlodlararo til farqlanishi va lingvistik diversifikatsiyani kuchaytiradi.

Hududiy xilma-xillik ham muhim omillardan biridir. Bir tumanda keng qo‘llanadigan so‘z yoki ibora boshqa tumandagi kishilar uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Bu esa dialektning ichki murakkabligini oshiradi va tilshunoslar uchun qiziqarli tadqiqot maydonini yaratadi.

Globalizatsiya jarayonlari ham dialektga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, migratsiya va madaniy almashinuv tufayli xorijiy til unsurlari mahalliy nutqqa singib bormoqda. Ayniqsa yoshlar orasida inglizcha so‘zlarning moslashtirilgan shakllari faol qo‘llanmoqda. Bu tilning doimiy o‘zgarishda ekanini, zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga moslashayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Xorazm dialektidagi sotsiolekta hodisalari ijtimoiy hayotning turli qirralari bilan chambarchas bog‘langan. Ular orqali tilning nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki madaniy va ijtimoiy identitetni ifodalovchi hodisa sifatida ham xizmat qilayotganini ko‘rish mumkin. Shu sababli bu jarayonlarni chuqur o‘rganish tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa. Xorazm dialekti tarkibida shakllangan subkodlar sotsiolingvistik hodisa sifatida jamiyat hayoti bilan bevosita bog‘liqdir. Kasbiy leksika mehnat faoliyatidagi turli qatlamlarni, yoshlar tili va qisqartmalar zamonaviy kommunikatsiya ehtiyojlarini, hududiy leksik farqlar esa mahalliy xususiyatlarni ifodalaydi. Shuningdek, madaniy almashinuv va global ta’sirlar natijasida paydo bo‘ladigan yangi unsurlar bu subkodlarni yanada rang-barang qiladi.

Natijada, Xorazm shevasidagi subkodlar til tizimining ichki boyligi bo‘libgina qolmay, balki ijtimoiy hayot, turmush tarzi va madaniy qadriyatlarning ham ko‘zgusiga aylanadi. Ularning tahlili orqali jamiyatdagi kasbiy faoliyat, yoshlar madaniyati, hududiy o‘ziga xosliklar hamda global jarayonlarning mahalliy tilga qanday singib borishi yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun bu masala nafaqat tilshunoslik uchun, balki madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlar uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Til va subkodlarni chuqur o‘rganish orqali nafaqat lingvistik jarayonlarni, balki ijtimoiy ongning rivojlanish darajasi va madaniy qadriyatlarning zamon bilan uyg‘unlashuvini ham anglash mumkin bo‘ladi. Shu bois Xorazm dialektidagi subkodlar tadqiqi milliy til boyligini asrab-avaylash va uni yanada chuqurroq anglash uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Labov W. *Sociolinguistic Patterns*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
2. Xojiyev A. *O‘zbek dialektologiyasi*. — Toshkent: Fan, 1987.
3. Rahimov M. *O‘zbek tili sotsiolingvistikasi masalalari*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
4. Trudgill P. *Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society*. Penguin, 2000.
5. Jo‘rayev S. *Xorazm shevalari lug‘ati*. — Urganch: Xorazm nashriyoti, 2015.
6. Hudson R.A. *Sociolinguistics*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1996.
7. Ashirboyev M. *O‘zbek dialektologiyasi masalalari*. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.

Malika VAISOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2-kurs magistranti

NOFILOLOGIK YO‘NALISHLARDA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini o‘qitishning dolzarb masalalari, ilmiy-metodik asoslari hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Til ta’limida zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati, talabalar ehtiyojlariga mos metodlarni qo‘llash zaruriyati asoslab beriladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilini o‘qitishda milliy tajriba va ilg‘or pedagogik texnologiyalar uyg‘unligi ko‘rsatib o‘tiladi. Olimlarning qarashlari va amaliy tajribalari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili ta’limi, nofilologik yo‘nalish, metodika, ilmiy asos, kommunikativ yondashuv, ta’lim texnologiyalari, muammolar va yechimlar.*

Annotation: this article analyzes the scientific-methodological foundations of teaching the Uzbek language in non-philological fields, highlighting current issues and innovative approaches. The importance of applying modern methods according to students’ needs, as well as integrating national experience with advanced pedagogical technologies, is emphasized. Based on scholars’ views and practical experiences, recommendations for improving teaching efficiency are provided.

Key words: *Uzbek language education, non-philological field, methodology, scientific basis, communicative approach, educational technologies, problems and solutions.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются научно-методические основы преподавания узбекского языка в неп филологических направлениях, анализируются актуальные проблемы и инновационные подходы. Подчеркивается важность применения современных методов в соответствии с потребностями студентов, а также интеграции национального опыта с передовыми педагогическими технологиями. На основе взглядов ученых и практического опыта предложены рекомендации по повышению эффективности преподавания.

Ключевые слова: *обучение узбекскому языку, нефилологическое направление, методика, научная основа, коммуникативный подход, образовательные технологии, проблемы и решения.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida milliy tillarning nufuzi va qo‘llanish doirasini kengaytirish har bir davlat uchun muhim ijtimoiy-madaniy vazifa hisoblanadi. O‘zbek tili – davlat tili sifatida mamlakatimizning barcha ijtimoiy sohalarida qo‘llanilib kelinmoqda. Oliy ta’lim tizimida til ta’limi faqatgina filologiya yoki pedagogika fakultetlari bilan cheklanmaydi. Texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, huquqshunoslik, arxitektura va boshqa nofilologik yo‘nalishlarda ham talabalar ona tilida savodli yozish, rasmiy hujjatlar tuzish, kasbiy matnlar bilan ishlash, hamda og‘zaki nutqda ravon ifodalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zarur. Bu esa o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Tilshunos olim H. Ne’matov o‘z tadqiqotida: “O‘zbek tili ta’limida metodik yondashuvning ilmiy asoslari, ayniqsa, nofilologik auditoriyalar uchun moslashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin”[1], deya ta’kidlaydi.

Tilshunos olim N. Mahmudov esa bu haqda shunday deydi: “Til – millatning ma’naviy qadriyatlari, tarixiy xotirasi va tafakkuri ifodachisi sifatida har qanday sohada o‘qitilishi, yoshlar ongiga singdirilishi zarur. Zero, tilsiz kasbiy rivojlanish ham mukammal bo‘lolmaydi”[2]. Demak, tilni nofilologik auditoriyalarda o‘qitish shunchaki nazariy fan emas, balki mutaxassisning kasbiy shakllanishi uchun zaruriy poydevordir.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, nofilologik yo‘nalishlarda o‘qitilayotgan o‘zbek tili fanlari ko‘proq umumiy grammatik qoidalarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalar kasbiy faoliyatlarida zarur bo‘ladigan kommunikativ vazifalarni to‘liq bajara olmayaptilar. Natijada, ayrim mutaxassislar hujjat tuzishda, ilmiy-texnik matnlarni sharhlashda yoki kasbiy nutqda o‘z fikrini erkin ifoda qilishda qiyinchilikka duch kelmoqda.

Shu sababdan, ilmiy-metodik asoslarni qayta ko‘rib chiqish, innovatsion texnologiyalar va kommunikativ

1 Ne’matov H. O‘zbek tili ta’limida metodik yondashuvning ilmiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.

2 Mahmudov N. O‘zbek tilining ijtimoiy mohiyati va ta’lim tizimidagi o‘rni. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.

yondashuvlarga tayangan holda yangi metodlarni ishlab chiqish muhimdir. Masalan, interaktiv usullar, keys-stadi (case study), klaster, “aqliy hujum”, muammoli ta’lim texnologiyalari o‘zbek tilini nofilologik auditoriyalarda samarali o‘qitishda keng qo‘llanishi mumkin. Metodist olima D. Yo‘ldosheva ham bu masalaga to‘xtalib: “Nofilologik auditoriyalarda o‘zbek tili fanini samarali o‘qitish uchun dars jarayonini talaba mutaxassisligi bilan bog‘lash, ya’ni kasbiy matnlar asosida mashqlar tuzish va amaliy nutqiy vaziyatlarni yaratish zarur”[3], deya ta’kidlaydi.

Shunday qilib, mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, u nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini o‘qitishning hozirgi holatini tahlil qiladi, ilmiy-metodik asoslarini ochib beradi va mavjud muammolarni yechishga qaratilgan tavsiyalarni taqdim etadi.

Maqolaning maqsadi – nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini yoritish, mavjud muammolarni ilmiy adabiyotlar va tajriba asosida tahlil qilish, samarali usullarni taklif etishdir.

Vazifalari quyidagilardan iborat:

– o‘zbek tilini o‘qitishning nofilologik yo‘nalishlarda tutgan o‘rnini aniqlash;

– metodik tamoyillar va ilmiy asoslarni yoritish;

– mavjud muammolarni tahlil qilish;

– innovatsion metod va texnologiyalar asosida yechimlarni taklif etish;

– nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini o‘qitish masalalariga umumiy nazar.

Nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini o‘qitish masalasi so‘nggi yillarda ta’lim tizimida eng muhim mavzulardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki til – nafaqat ijtimoiy-madaniy aloqa vositasi, balki kasbiy faoliyatning ham asosi hisoblanadi. Tibbiyot, muhandislik, iqtisodiyot, huquqshunoslik, axborot texnologiyalari kabi sohalarda tahsil olayotgan talabalar mutaxassis sifatida shakllanish jarayonida ona tilida erkin fikrlash, ilmiy va kasbiy matnlar bilan ishlash, rasmiy uslubda yozish va nutqiy savodxonlikni namoyish etishlari zarur.

Nazariy asoslar. Tilshunoslik va metodika fanida nofilologik auditoriyalarda til o‘qitish o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlangan. Jumladan, A. Abduazizov shunday yozadi: “Nofilologik auditoriyada til ta’limi avvalo kommunikativ vazifalarni bajarishga, ya’ni mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatida erkin muloqotga kirishishiga qaratilishi kerak”[4].

Nazariy jihatdan qaralganda, til o‘qitishning quyidagi tamoyillari alohida e’tiborga olinadi:

1. Kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyili. O‘quv jarayoni talabaning mutaxassisligi bilan bog‘langan holda tashkil qilinishi kerak. Masalan, iqtisodchi uchun – moliyaviy hisobot va shartnomalar tili, muhandis uchun – texnik matnlar va loyiha hujjatlari, tibbiyot talabasi uchun – tibbiy terminologiya va klinik yozuvlar bilan ishlash.

2. Kommunikativlik tamoyili. Til o‘rgatishda nazariy qoidalardan ko‘ra, amaliy nutqiy vaziyatlarni yechish muhimdir. Bu talabaning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda yordam beradi.

3. Integrativlik tamoyili. O‘zbek tilini boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitish samaradorlikni oshiradi. Masalan, huquqshunos talabalar uchun – “Huquqiy matnlarni sharhlash”, iqtisodchilar uchun – “Moliyaviy hujjatlarni tuzish” mashg‘ulotlari tashkil etilishi mumkin.

4. Innovatsion yondashuv tamoyili. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – “klaster”, “aqliy hujum”, “keys-stadi”, “munozara” metodlari orqali til o‘qitish talabani faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi.

Metodik asoslar quyidagi tamoyillarga tayangan holda shakllanadi:

1. Amaliy yo‘nalganlik – o‘zbek tili fanini o‘qitishda talabalarni grammatik qoidalarga ortiqcha yuklamasdan, ularni bevosita og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash ko‘nikmasiga o‘rgatish. Masalan, darslarda “shartnoma tuzish”, “rasmiy xat yozish” kabi topshiriqlar asosiy o‘rin tutishi kerak.

2. Kasbiy integratsiya – til mashg‘ulotlarini talabaning o‘qiyotgan sohasi bilan bog‘lash. Bu metod orqali o‘rganilgan bilim bevosita amaliyotda qo‘llanadi.

3. Nutqiy kompetensiyani shakllantirish – til darslari orqali faqat til bilimi emas, balki kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish. Tilshunos olima Sh. Sodiqova ta’kidlaganidek: “Nofilologik auditoriyada o‘zbek tili ta’limi nazariy bilimdan ko‘ra ko‘proq nutqiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qilishi lozim”[5].

4. Innovatsion metodlardan foydalanish – elektron ta’lim resurslari, multimedia vositalari, interaktiv mashg‘ulotlar ta’lim samaradorligini oshiradi.

Yozma topshiriqlar. “Ilmiy maqola annotatsiyasi yozish”, “kasbiy rezume tuzish”, “rasmiy bayonot yozish” mashqlari talabalarni amaliy nutqqa tayyorlaydi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish. Talabalar onlayn testlar, elektron lug‘atlar, interaktiv platformalar orqali mustaqil ishlash imkoniga ega bo‘ladi.

3 Yo‘ldosheva D. O‘zbek tili ta’limida kommunikativ metodika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

4 Abduazizov A. O‘zbek tili ta’limida kommunikativ yondashuv masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

5 Sodiqova Sh. Nofilologik auditoriyalarda til o‘qitish metodikasining o‘ziga xosligi. – Toshkent: Fan, 2020.

Shu tariqa, metodik asoslar faqat nazariy tamoyillar bilan chegaralanib qolmay, balki bevosita amaliy mashg‘ulotlarda namoyon bo‘lishi kerak.

Nofilologik auditoriyalarda o‘zbek tili ta’limidagi muammolar va tahlil

O‘zbek tilini nofilologik yo‘nalishlarda o‘qitish jarayonida qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati ta’lim mazmuni, metodik yondashuvlar, o‘qituvchilar malakasi va ta’lim vositalariga borib taqaladi. Bu muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish ularning yechimiga yo‘l ochadi.

1. O‘quv dasturi va mazmunidagi muammolar

Bugungi kunda nofilologik auditoriyalar uchun mo‘ljallangan o‘zbek tili darsliklari va dasturlarida grammatik qoidalarga ortiqcha e’tibor qaratilgan, biroq talabalarning kasbiy ehtiyojlariga moslashtirilgan mashqlar yetarli emas.

Tilshunos olim A. Madrahimovning fikricha: “Nofilologik auditoriyada o‘zbek tili ta’limi umumiy grammatik nazariyaga tayangan holda emas, balki kasbiy nutqni shakllantirishga qaratilishi lozim. Chunki bunday yo‘nalishlardagi talabalar tilni nazariy emas, amaliy jihatdan qo‘llashga ehtiyoj sezadilar”[6].

Amaliyotda esa ko‘plab talabalar hujjat tuzishda, kasbiy matnlarni qisqa mazmunda qayta ifodalashda, og‘zaki chiqishlar qilishda qiynalayotgani kuzatilmoqda.

Til metodisti G. Jo‘rayeva bu haqda shunday yozadi: “Nofilologik auditoriyada til o‘qituvchi nafaqat lingvist, balki metodist, hatto talaba mutaxassisligi bo‘yicha ham ma’lum tasavvurga ega bo‘lishi kerak”[7].

6 Madrahimov A. O‘zbek tili ta’limining nofilologik auditoriyalardagi o‘ziga xosligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7 Jo‘raeva G. Til o‘qitishda kasbiy yondashuvning ahamiyati. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.

Amaliy tahlil

Yuqoridagi muammolarni umumlashtirgan holda, quyidagi asosiy tahliliy xulosalarga kelish mumkin:

Ta’lim mazmuni – grammatikaga ortiqcha urg‘u, kasbiy til materiallarining yetishmasligi.

Metodik yondashuv – an’anaviy usullarning ustuvorligi, interaktiv metodlarning yetarlicha qo‘llanmasligi.

O‘qituvchi omili – metodik tayyorgarlikning kamligi, kasbiy integratsiya bo‘yicha tajribaning yetarli emasligi.

Vositalar – elektron va interaktiv resurslarning cheklanganligi.

Motivatsiya – talabalar orasida fanning ahamiyatini yetarlicha anglamaslik.

Xulosa. Nofilologik auditoriyalarda o‘zbek tilini o‘qitish ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning mazmuni va metodik asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi. O‘tkazilgan nazariy tahlillar va amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda o‘zbek tili darslarida qator muammolar mavjud: o‘quv dasturlari ko‘proq nazariy grammatikaga yo‘naltirilgan, kasbiy yo‘nalishga mos materiallar yetarli emas, an’anaviy metodlarga haddan tashqari tayanish natijasida kommunikativ ko‘nikmalar to‘liq shakllanmayapti. Shuningdek, interaktiv vositalar va elektron resurslarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi hamda talabalar motivatsiyasining pastligi ta’lim samaradorligini kamaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. O‘zbek tilining ijtimoiy mohiyati va ta’lim tizimidagi o‘rni. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
2. Yo‘ldosheva D. O‘zbek tili ta’limida kommunikativ metodika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Abduazizov A. O‘zbek tili ta’limida kommunikativ yondashuv masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
4. Sodiqova Sh. Nofilologik auditoriyalarda til o‘qitish metodikasining o‘ziga xosligi. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Madrahimov A. O‘zbek tili ta’limining nofilologik auditoriyalardagi o‘ziga xosligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Jo‘rayeva G. Til o‘qitishda kasbiy yondashuvning ahamiyati. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.
7. Tursunov O. Til ta’limida innovatsion metodlar va ularning samaradorligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
8. G‘ulomova H. O‘zbek tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2017.
9. Karimova M. Davlat tili o‘qitishning dolzarb muammolari. – Toshkent: Ma’rifat, 2020.
10. Rasulova Z. Nofilologik auditoriyalarda o‘quvchilar nutqiy kompetensiyasini shakllantirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

Sarvinoz G‘ANIJONOVA,
Farg‘ona davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi 2-kurs magistranti

NUTQIY KOMPETENSIYALARNI (O‘QISH, YOZISH) SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqola nutqiy kompetensiyalarning ikki asosiy komponenti – o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodologik jihatlarini tadqiq etadi. Zamonaviy ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlikning ahamiyati ortib borayotgan sharoitda, o‘qish va yozish ko‘nikmalari individual rivojlanish va professional muvaffaqiyatning asosiy omillariga aylanmoqda. Maqolada turli xil nazariy yondashuvlar, pedagogik konseptlar va lingvodidaktik usullar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o‘qish va yozish ko‘nikmalarini kompleks ravishda rivojlantirishning zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *nutqiy kompetensiyalar, o‘qish ko‘nikmalari, yozish ko‘nikmalari, kommunikativ kompetentlik, lingvodidaktika, pedagogik yondashuv.*

Annotation: this article examines the theoretical and methodological aspects of the formation of two main components of speech competencies - reading and writing skills. In the context of the increasing importance of communicative competence in the modern education system, reading and writing skills are becoming the main factors of individual development and professional success. The article analyzes various theoretical approaches, pedagogical concepts and linguodidactic methods. The results of the study indicate the need for a comprehensive development of reading and writing skills.

Key words: *speech competencies, reading skills, writing skills, communicative competence, linguodidactics, pedagogical approach.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретико-методические аспекты формирования двух основных компонентов речевых компетенций – навыков чтения и письма. В условиях возрастающей значимости коммуникативной компетентности в современной системе образования навыки чтения и письма становятся основными факторами развития личности и профессионального успеха. В статье анализируются различные теоретические подходы, педагогические концепции и лингводидактические методы. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости комплексного развития навыков чтения и письма.

Ключевые слова: *речевые компетенции, навыки чтения, навыки письма, коммуникативная компетентность, лингводидактика, педагогический подход*

Kirish. Zamonaviy ta’lim paradigmasida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jamiyatning kommunikativ ehtiyojlarining kengayishi ta’lim tizimiga yangi talablar qo‘ymoqda. O‘qish va yozish ko‘nikmalari shaxsning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, bilim olish va uni amalda qo‘llashning asosiy vositalariga aylanmoqda [1]. Nutqiy faoliyatning bu ikki turi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi ta’limning barcha bosqichlarida samarali o‘quv jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

O‘qish ko‘nikmalari deganda matnni idrok etish, tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyati tushuniladi. Bu jarayon oddiy dekodlashdan tortib to chuqur semantik tahlilgacha bo‘lgan bir necha kognitiv darajalarni o‘z ichiga oladi [2]. Yozish ko‘nikmalari esa o‘z fikrlarini yozma shaklda aniq, mantiqiy ketma-ketlikda va til me’yorlariga muvofiq ifodalash qobiliyatini nazarda tutadi. Bu ikki ko‘nikma psixolingvistik jihatdan murakkab jarayonlar bo‘lib, ular tilning barcha tizim darajalarini – fonetik, leksik, grammatik va stilistikni qamrab oladi [3]. Hozirgi zamon ta’lim tizimida o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyati va yozma nutqini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda tahliliy-sintetik metod qo‘llanildi, ya’ni o‘zbek, rus va xorijiy ilmiy manbalardagi nazariy qarashlar, pedagogik konseptlar hamda lingvodidaktik yondashuvlar to‘plami o‘rganildi va taqqoslandi. Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish nazariyasi L.S. Vygotskiy, A.A. Leontev, I.A. Zimnyaya kabi taniqli psixolog va lingvistlarning ishlarida o‘z aksini topgan. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi tilni ijtimoiy muhitda o‘zlashtirish jarayonlarini tushuntirib beradi va nutqning yuzaga kelishida tashqi omillarning ahamiyatini ta’kidlaydi [4,5]. Leontev esa nutqiy faoliyat nazariyasini ishlab chiqqan bo‘lib, u nutqni faoliyat strukturasining bir qismi sifatida ko‘rib chiqadi va nutqning motivatsion, maqsadli va ijroiy komponentlarini ajratib ko‘rsatadi [6]. Zimnyaya kommunikativ kompetentlik tushunchasini kengaytirgan va uni shaxsning bir necha o‘lchovli xususiyati sifatida tahlil qilgan, bunda lingvistik bilimlar, psixologik xususiyatlar va ijtimoiy ko‘nikmalar birlashadi [7].

O‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bu jarayon bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: prekommunikativ (matn bilan tanishishdan oldingi), kommunikativ (matn bilan bevosita ishlash) va postkommunikativ (matndan keyingi tahlil va baholash) bosqichlari. Har bir bosqichda o‘ziga xos didaktik vazifalar va usullar qo‘llaniladi [2]. Zamonaviy yondashuvlarda

o‘qishning turli texnikalarini – intensiv, ekstensiv, analitik va sintetik o‘qishni qo‘llash tavsiya etiladi. Intensiv o‘qish chuqur tushunishga, matnning barcha detallarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, ekstensiv o‘qish katta hajmdagi materiallarni tez va umumiy tushunish maqsadida o‘qishni nazarda tutadi [8]. Yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda jarayonga yo‘naltirilgan (process-oriented) va mahsulotga yo‘naltirilgan (product-oriented) yondashuvlar mavjud. Jarayonga yo‘naltirilgan yondashuv yozish jarayonining o‘ziga – rejalashtirish, qoralama yozish, tahrirlash va qayta ko‘rib chiqish bosqichlariga e’tibor beradi [9]. Bu yondashuv o‘quvchilarga o‘z yozma ishlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish imkonini beradi va xatolardan o‘rganishni rag‘batlantiradi. Mahsulotga yo‘naltirilgan yondashuv yakuniy matnning sifatiga, uning tuzilishi, mantiqiy ketma-ketligi va til to‘g‘riligiga qaratilgan. Zamonaviy lingvodidaktikada bu ikki yondashuvni integratsiyalashgan holda qo‘llash eng samarali natijalar beradi [10].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili va nazariy yondashuvlarni o‘rganish asosida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning bir necha muhim aspektlari aniqlandi. O‘qish va yozish ko‘nikmalari o‘zaro chambarchas bog‘liq kognitiv jarayonlar ekanligini ta’kidlash zarur. O‘qish jarayonida o‘quvchi boshqa mualliflarning matnlari bilan tanishadi, turli xil matn turlarining tuzilishi, uslubi va til vositalarini o‘zlashtiradi, bu esa keyinchalik yozish faoliyatida namuna vazifasini o‘taydi. Yozish esa o‘z navbatida o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, chunki yozayotgan shaxs matnni yaratish jarayonida uni ichki o‘qishni amalga oshiradi, mantiqiy ketma-ketlikni nazorat qiladi va semantik muvofiqligi ustida ishlaydi. Demak, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini alohida-alohida emas, balki kompleks ravishda rivojlantirish zarur.

Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda bosqichlilik prinsipi muhim ahamiyatga ega. Dastlabki bosqichda o‘quvchilar oddiy matnlar bilan ishlashadi, asosiy g‘oyani tushunish, kalit so‘zlarni topish va qisqa matnlar yozish ko‘nikmalarini egallaydilar. Keyingi bosqichlarda murakkablashgan matnlar taqdim etiladi, tahlil qilish chuqurlashadi va yozma ishlarning hajmi hamda murakkabligi ortadi. Oxirgi bosqichda o‘quvchilar turli janrdagi matnlarni tanqidiy baholash, ularni taqqoslash va o‘z nuqtai nazarini argumentlashgan holda bayon etish qobiliyatiga erishadilar. Bu bosqichma-bosqich rivojlanish prinsipi Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konseptiga mos keladi va o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish imkonini beradi [5].

Motivatsiya omili nutqiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi. O‘quvchilarning o‘qish va yozishga bo‘lgan qiziqishi, ichki motivatsiyasi va ushbu faoliyatning amaliy ahamiyatini tushunishlari ko‘nikmalarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qiziqarli, dolzarb va amaliy ahamiyatga ega materiallar bilan ishlash, shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi va qiziqishlariga mos mavzularni tanlash motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi [8].

Xulosa. Nutqiy kompetensiyalarni – o‘qish va yozish ko‘nikmalarini – shakllantirishning nazariy-metodologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu murakkab, ko‘p qirrali va uzoq muddatli jarayondir. O‘qish va yozish nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki shaxsning intellektual, kognitiv va kommunikativ rivojlanishining muhim komponentlaridir. Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar ushbu ko‘nikmalarni kompleks, integratsiyalashgan tarzda rivojlantirishni talab qiladi, bunda nazariy bilimlar, amaliy mashq qilish va reflektiv tahlil birlashadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nutqiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish uchun bir necha asosiy tamoyillarga rioya qilish zarur: kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish, bosqichlilik va ketma-ketlik prinsipi, motivatsiyani oshirish, individual yondashuvni ta’minlash, teskari aloqa mexanizmini yaratish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish. Adabiyotlar tahlili klassik psixologik va lingvistik nazariyalarning zamonaviy pedagogik amaliyotdagi qo‘llanilishi va rivojlanishini ko‘rsatdi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi, Leontevning nutqiy faoliyat konseptasi va Zimnyayaning kommunikativ kompetentlik modeli hamon dolzarb nazariy asos bo‘lib qolmoqda va zamonaviy sharoitga moslashtirilgan holda qo‘llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nation, I. S. P. (2009). Teaching ESL/EFL reading and writing. – New York: Routledge.
2. Grabe, W., & Stoller, F. L. (2020). Teaching and researching reading (3rd ed.). – London: Routledge.
3. Azimov, E. G., & Shchukin, A. N. (2009). Novyy slovar metodicheskikh terminov i ponyatiy (teoriya i praktika obucheniya yazykam) [New dictionary of methodological terms and concepts]. – Moscow: IKAR.
4. Graham, S., & Perin, D. (2007). Writing next: Effective strategies to improve writing of adolescents in middle and high schools. – Washington, DC: Alliance for Excellent Education.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Leontiev, A. A. (2005). Yazyk i rechevaya deyatelnost v obshchey i pedagogicheskoy psikhologii [Language and speech activity in general and educational psychology]. – Moscow: MPSI.
7. Zimnyaya, I. A. (2004). Klyuchevye kompetentsii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya [Key competences as a new paradigm of educational outcome]. Vysshee obrazovanie segodnya, 5, 34-42.
8. Koda, K. (2005). Insights into second language reading: A cross-linguistic approach. – Cambridge: Cambridge University Press.
9. Hyland, K. (2019). Second language writing (2nd ed.). – Cambridge: Cambridge University Press.
10. Flower, L., & Hayes, J. R. (1981). A cognitive process theory of writing. College Composition and Communication, 32(4), 365-387.

Sitora BEGMATOVA,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali
Pedagogika va tillarni o'qitish fakultеti, O'TVA yo'nalishi 2-bosqich talabasi
e-mail:sitorabegmatova157@gmail.com



ANTIK ADABIYOTDA REALIZM UNSURLARINING NAMOYON BO'LISHI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada realizm yo'nalishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon adabiyoti va san'atida yetakchi oqimlardan biri sifatida shakllandi. Realistlar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, inson taqdiri, ma'naviy-axloqiy masalalarni chuqur tahlil qilib, oddiy xalqning hayoti, mehnati va ruhiy kechinmalarini yoritishga alohida e'tibor qaratdilar.

Kalit so'zlar: *romantizm, realizm, gumanizm, sotsial determinizm, psixologik determinizm, feodalizm, kapitalizm, ijtimoiy-ma'naviy muammolar.*

Аннотация: в данной статье говорится о том, что направление реализма со второй половины XIX века сформировалось как одно из ведущих течений в мировой литературе и искусстве. Реалисты глубоко анализировали социальное неравенство в обществе, судьбу человека, духовно-нравственные вопросы и уделяли особое внимание жизни, труду и душевным переживаниям простого народа.

Ключевые слова: *романтизм, реализм, гуманизм, социальный детерминизм, психологический детерминизм, феодализм, капитализм, социально-нравственные проблемы.*

Annotation: in this article, it is noted that the realist movement, starting from the second half of the 19th century, emerged as one of the leading trends in world literature and art. Realist writers deeply analyzed social inequality, human destiny, and moral-spiritual issues, while paying special attention to the life, labor, and inner experiences of ordinary people.

Key words: *romanticism, realism, humanism, social determinism, psychological determinism, feudalism, capitalism, socio-moral issues.*

Antik adabiyot jahon badiiy tafakkuri taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etib, keyingi davr san'ati va adabiy yo'nalishlariga mustahkam poydevor yaratgan. Qadimgi Yunoniston va Rim adabiyoti ko'proq mifologik obrazlarga, xudolar va qahramonlar haqidagi afsonalarga tayangan bo'lsa-da, unda real hayot voqeliklarini, insonning kundalik faoliyati, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy munosabatlarini haqqoniy tasvirlashga intilish ham yaqqol seziladi. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi jahon adabiyoti va san'ati taraqqiyotida yangi bosqich bo'lib, bu davrda realizm yetakchi oqimlardan biri sifatida shakllandi.

Realizm o'z mohiyatiga ko'ra hayotni badiiy to'qima yoki xayoliy tasvirdan emas, balki real voqelikni haqqoniy va xolisona yoritishga intilgan san'at va adabiyot yo'nalishidir. Bu oqim ijtimoiy hayotdagi murakkab jarayonlarni, insonning taqdiri va ruhiy kechinmalarini, ma'naviy-axloqiy masalalarni chuqur tahlil qilish orqali o'ziga xos badiiy-estetik tizim yaratdi. [1]

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy tadqiqotning tarixiy, qiyosiy va tahliliy metodlaridan foydalanildi. Tarixiy yondashuv yordamida antik davr adabiyotining shakllanish jarayoni, realizm unsurlarining paydo bo'lishi hamda ularning keyingi davrlarga ta'siri o'rganildi. Qiyosiy metod asosida yunon va rim adabiyotidagi realizm elementlari o'zaro solishtirildi, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlab berildi. G'arb olimlari orasida G. Lukach realizmni tarixiy taraqqiyotning uzviy bosqichi sifatida talqin etib, uning ildizlarini qadimgi yunon dramaturgiyasi va tarixnavisligidan izlaydi. Unga ko'ra, Aristofan komediyalaridagi ijtimoiy satira va Fukididning voqealarni xolis tahlil etishga intilishi realizmning dastlabki ko'rinishlari sifatida e'tirof etilishi mumkin. [2]

Sharq va Markaziy Osiyo adabiyotshunosligida ham antik realizmga oid izlanishlar mavjud. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar Plaut va Terens asarlarida insoniy munosabatlar, oilaviy ziddiyatlar va oddiy xalq hayoti tasvirining keyingi davr maishiy komediyalari uchun poydevor bo'lganini ta'kidlaydilar. Boshqa manbalarda esa Gerodotning afsonaviy unsurlardan tozalashga qaratilgan urinishlari va Titsitning siyosiy voqelikni haqqoniy yoritishi realizm rivojiga asos yaratgani qayd etiladi. [3]

So'nggi yillarda olib borilgan qator ilmiy izlanishlarda antik davr realizmi nafaqat adabiy-estetik hodisa, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkurning mahsuli sifatida ham baholanishi kuzatilmoqda. Bu tadqiqotlarda realizmning asosiy belgilari – voqelikni haqqoniy tasvirlash, inson xarakterini psixologik jihatdan ochib berish va ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratish – antik adabiyot vakillari ijodida aniq namoyon bo'lgani ko'rsatib o'tiladi. [4]

Realist adiblar va rassomlar o'z asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, mehnatkash xalqning turmushi, feodalizm va kapitalizmning inson taqdiriga ta'sirini

yoritishga alohida e’tibor qaratdilar. Shu bilan birga, ular inson shaxsiyatining murakkab ruhiy olamini, psixologik ziddiyatlarini va gumanistik qadriyatlarni badiiy talqin qilish orqali o‘z davri san’ati va adabiyotida yangicha yondashuvni shakllantirdilar. Realizmning estetik prinsiplaridan yana biri – hayot voqea-hodisalarini haqqoniy detal va tafsilotlar vositasida tipik xarakterlami tipik sharoitda tasvirlashdir. Ana shu tasvir asosida kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-ma’naviy muammolar turishi, ular badiiy umumlashtirilishi, tipiklashtirilishi zarur. [6]

